

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI
INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT
MUZEYI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**ALISHER NAVOIY ADABIY VA
ILMIY MEROSINI O‘RGANISH
MASALALARI**

№ 68

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2023-yil 8-fevral

TOSHKENT -2023

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari / – Toshkent. – 2023. – 443 b.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2023-yil 8-fevral kuni o'tkazilgan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalariga bag'ishlangan 68-ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To'plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar)

Tahrir hay'ati:

Maqsud ASADOV, f.f.d., prof., bo'lim mudiri
Qodirjon ERGASHEV, f.f.d., katta ilmiy xodim
Sayfiddin RAFIDDINOV, f.f.n., katta ilmiy xodim
Burobiya RAJABOVA, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sirdaryoxon O'TANOVA, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho RAHMONOVA, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim
Elnura QURBONOVA, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim

To'plab, nashrga tayyorlovchilar:

Dilmurod ASQAROV
Nasiba JO'RAQULOVA
Mohigul MAVLONOVA
Muyassar IBROHIMOVA
Muslima XOLBOYEVA

ALISHER NAVOIY VA MUMTOZ ADABIYOT

MUHABBAT VA MA'RIFAT DEVONLARI

Ibrohim HAQQUL,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" nomli ma'rifat va muhabbat devonlarining dunyoga kelishi turkiy adabiyotda alohida hodisalardan sanaladi. Maqolada mazkur devonlardagi an'anaviylik va poetik yangilanishlar asoslandi. Navoiyning mohiyatbinligiyu mutasavvifligi, rindligiyu fanovashligi, muxlislari ahli dard ekanligidan bahs yuritildi. Devonda hol va ifoda, shakl va ma'no mushtarakligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: devon, g'oya, mavzu, ishq, irfon, junun, fano, talvin, an'ana.

Аннотация

Книги просвещения и любви Алишера Навои «Бадойи ул-бидоя», «Наводир ун-нихоя» относятся к особым событиям в турецкой литературе. В статье обосновываются традиционализм и поэтические новации в этих диванах. Утверждалось, что эссенциализм и мистицизм Навои, простота и смертность, а также то, что болеют его поклонники. В Девоне была показана общность падежа и выражения, формы и значения.

Ключевые слова: деван, идея, тема, любовь, предание, джунун, фано, тальвин, традиция.

Annotation

Books of enlightenment and love by Alisher Navoi "Badoyi ul-bidoya", "Navodir un-nikhoya" refer to special events in Turkish literature. The article substantiates traditionalism and poetic innovations in these sofas. It was argued that the essentialism and mysticism of Navoi, simplicity and mortality, as

well as the fact that his fans are sick. In Devon, the commonality of case and expression, form and meaning was shown.

Key words: devan, idea, theme, love, legend, junun, fano, talvin, tradition.

Sharq mumtoz adabiyoti an'anaga asoslangan, g'oyaviy-badiiy an'ana zaminida o'zgarib, yuksalib borgan adabiyotdir. An'anaviy g'oya, mavzu, obraz va tasvir vositalariga tayanib faoliyat ko'rsatgan bu adabiyot dunyo badiiy tafakkurida beqiyos mavqe egallagan. Ammo bunga osonlikcha, yengil-yelpi ijodiy mehnat bilan erishilmagan, albatta. Chunki an'ana degani hammasi oson, bari ilhombaxsh va ibratli degani emas. Har qanday an'ana singari adabiy an'anada ham ijobiy, eskirmas tomonlar bilan birga vaqt o'tishi bilan qiymatini boy bergan, qaytariq yoki bir xilligi bilan o'quvchini bezdiradigan u yoki bu jihatlar bo'lgan va bo'ladi ham. Har bir ulkan san'atkor eskirgandan kechish yoki uni yangilash bilan birga, yo'qni bor etish, ya'ni ixtirochilik salohiyatini ham namoyon qiladi.

Shu ma'noda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ijod tajribasi tarixda nihoyat darajada siyrak yuzaga chiqadigan hodisadir. Navoiy "Badoyi' ul-bidoya"ga yozgan debochasida devondagi yangiliklarni nazarda tutib, "Necha nav' ishkim, munda mar'iy bo'lubturur (amalga oshirilibtur) o'zga davovinda (devonlarda) ko'rulmaydurur", deydi va eng asosiylarini tavsiflab beradi. Mana ulardan biri, balki eng asosiysi haqida nima deyilgan: "Yana bir bukim, guyiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim anda ma'rifatimiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoyi' mashaqqat totilg'on bo'lg'ay".

Diqqat qilinsa, navqiron shoir zohirni botindan ajratmaslik, suvratni siyratga uyg'unlashtirish, majozni haqiqat talqiniga yetkazishga alohida urg'u bergan. Demak, Navoiy she'r mohiyati,

sifati, shoirlik xizmatini tubdan o'zgartirishni ko'zlagan. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: she'rda, shoirlikda nima eskirmaydi va nima ahamiyatini yo'qotmaydi? Ruh va ohang eskirmaydi, iztirob va dard quvvatsizlanmaydi. Ishq yig'latur, dard so'zlatatur, deyilganidek, ko'ngil dardi, ruh iztirobidan yaralgan she'rning ta'sir va taassurot kuchi hamisha yangi, hamisha yangilanish xususiyatiga egadir. Faqat buni his eta olish va yurakdan o'tkaza bilish lozim. Ana shunda mana bu so'zlar sira eskirmasligiga zarra qadar ham shubha uyg'onmaydi:

*Ey Navoiy, dardliq nazmingni dard ahli bilur,
Dardsiz dog'i bo'lur oni o'qug'ach ahdi dard.*

Shuning uchun ham shoir muxlissiz, she'r e'tiborsiz qolmaydi degan. Zotan, she'r ahli botin, ahli ma'ni, ahli dard, ahli muhabbat, ahli irfon va ahli haqiqat ma'naviy ehtiyojini ifodalash uchun yoziladi. She'r o'z egasi, ya'ni chin tolibga yetib borganda, taassurot tug'yoni hatto ma'naviy g'alayonga do'nadi. Navoiyning mana bu so'zlari shu fikrning yorqin dalili edi:

*Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado.
Ul nazmg'a jonin qilibon xalq fido,
Solurlar edi gunbazi gardung'a sado.*

Navoiy nazmiga jon fido qilish darajasiga yetgan ana shu muxlislar suyuqli shoirlarining yoshlik ilhomidan yaralgan she'rlarini jamlab, bir devon tuzishgan: "xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug'roq – o'ksukrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lub erdi".

Xullas, debochadagi fikr-mulohazalar Navoiy yigitligidayoq tafakkur va mohiyat qiroli edi deyishga to'la asos beradi.

*Ranj ko'rmay kishi toparmu farog'?!
Ko'ngli o'rtanmayin yonarmu charog'?!
Tuxm yerga kirib chechak bo'ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?!
Pilla qurticha himmating yo'qmu?!*

Bundan taxminan besh yuz ellik yil muqaddam bitilgan ushbu misralar ma'no, qiyos, tanbeh va hukm e'tibori bilan o'sha o'sha ahamiyatini saqlab turibdi. Navoiyga yaqinlashish, asarlarining ma'no-mohiyatini to'g'ri anglash uchun uning sharh, izoh, e'tirof mazmunidagi fikrlariga ham ko'proq diqqat qilish kerak. "Ishqim oshubi tug'yonida, – deyiladi boshqa debochada, – har suubatkim (qiyinchilik, azob) yuzlanur erdi, chun bir hamdard rafiqim yo'q erdikim, dardimdin shammae (biroz, ozroq) izhor qilg'aymen, biror bayt birla ul hol mazmunin nazm qilib ko'nglumni xoli qilur erdim va jununum shiddati g'alayonida har oshubkim, olling'a kelur erdi, chun hamzabon mushfiqim yo'q erdiki, maxfiy o'tumni oshkoro etgaymen, biror matla' bila ul ma'noni ado qilib, qattig' holimni sharh etar erdim".

Buyuk yozuvchi va shoirlarning ahvol ruhiyasi, ichki iztirob va qiynoqlari ana shunday bo'ladi, dard va anduh olovida yonmaganida u hamdard topolmaydi, borlig'ini g'am-g'ussadan forig' aylash uchun she'rga suyanib, turli shakllarda she'rlar yozadi. Navoiyning "jununum shiddati g'alayonida" degan so'zlarining haqiqatini bugun hech bir ijodkor aniq tasavvur etolmasa kerak. Chunki bunday bo'lishi uchun esa junun holini yashash, junun zavqini dildan kechirish joiz. Agar bu ish oson bo'lganida shoir:

*Telbalardek so'zlashurmen o'zum birla mudom,
Chun o'zumdin o'zga yo'q olamda hamdardim mening, –*
deb yozmasdi.

"Badoyi' ul-bidoya"dagi she'rlar ayniqsa, g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardlarida Navoiyning san'atkorlikda naqadar ilgarilaganini ko'rsatib turibdi. Bir ruboiyda o'qiymiz:

*Gar oshiq esang, mehru vafo qilma havas,
Dard istavu daf'ig'a davo qilma havas,
Hijronu visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdin g'ayri rizo qilma havas.*

Oshiq bo'lsangu, mehru vafoni havas qilmasang. Dard tilasangu, davosi yo shifosini xayolga keltirmasang. Visol nimayu, hijron nima mutlaqo farqlamasang. Bunday ahvoldagi kishiga

dildor qanday nazarda qaraydi? Bu ham mubham. Gap shundaki, “Badoyi’ ul-bidoya”da talqin etilgan g‘oya, mavzu, tushuncha va haqiqatlarning tamalini ruhoniy ishq, irfon, junun, faqri fano va talvin tashkil etadi. Undagi “Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga”, “Vahki, rasvomen yana devonavu oqil aro”, “Er tutar ko‘nglumda gardundin judo bo‘lg‘on balo”, “Junun toshi urub har yon yangi dog‘imni afgor et”, “Buzuq ko‘ngulga fano bo‘lsa kom cheksun ranj”, “Parim bo‘lsa, uchub qochsam ulusdin to qanotim bor”, “Chorayi kor istabon bechoraliq ko‘nglum tilar”, “Jamoateki, junun man‘ini manga qilasiz”, “Ey ko‘ngul, yer-ko‘k asosin asru bebunyod bil” kabi misralar bilan boshlanadigan o‘nlab g‘azallar mazkur fikrga misol bo‘la oladi. Shoir, xususan, junun, fano, irfon sohiblarini ko‘ngliga yaqin ko‘radi:

*Navoiy nazmidurur yaxshi gar quloq solsang,
Tarannumeki qilur o‘zi birla ahli junun.*

Ma’naviy salomat va hurlik himoyasida Navoiy har nimadan ortiq fanoning quvvatiga ishonadi:

*Riyovu ujbu hasad daf‘in et fano bilakim,
Ketar bu doru ila muncha muxtalif amroz.*

“Badoyi’ ul-bidoya” kitobi Alisher Navoiyning shoirlik, oshiqlik, oriflik, rindlik, mutasavviflik qiyofasini gavidalantiradigan bir badiiy ko‘zgidir. Unda shoirning davr, zamon, jamiyat, she‘riyat, millat, din va irfonga qarashlari birinchi marta mukammal poetik ifodasini topgan. Navoiy zarurat sezilsa, quvonchni qayg‘udan, muvaffaqiyatni mag‘lublikdan, baqoni fanodan, navoni esa benavolikdan axtargan va topa bilgan san‘atkor. Shu nuqtayi nazarida sobitligi tufayli ham u:

*Navoiy, benavoliq shevasin berma ilikdinkim,
Navo har kimki istabtur, topibtur benavolig‘din, –*

degan. Bu gapning mag‘zi chaqilmasa, quyidagi singari baytlarga tish o‘tmasligi aniq:

*Ey ko‘ngul, kelkim, balo bazmida jomi g‘am tutay,
O‘z qatiq holimg‘a o‘lmasdin burun motam tutay.*

Bizda mumtoz shoirlarning “balo”parastligi, “g‘am”sevarligi, “dard” va “kadar”ga ishtiyoqi to‘g‘risida o‘ylab, hanuzgacha xolis

xulosaga kelinmagan. Demak, Navoiy shaxsiyati va ijodiyotini bilish ham shunga yarasha bo‘lgan. Boshqacha aytganda, zohir botinni bilishga, suvrat siyrat mohiyatini anglashga yo‘l qo‘ymagan.

Navoiyning nigohi qaratilgan, uning muborak qo‘li tekkan narsa yoki yodgorlik millat, madaniyat va adabiyotimiz uchun muqaddas va unutilmasdir. “Badoyi’ ul-bidoya” daho shoirning shaxsan o‘zi tuzgan she’riy majmuasidir. Bizgacha uning bir necha qo‘lyozmalari yetib kelgan. O‘tgan asrda u birinchi marta u ko‘p tomlik Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”da bosildi. Shu o‘rinda devonni bir necha qadimiy qo‘lyozmalarning foto nusxalari bilan o‘zaro solishtirib, uni chop ettirgan marhum olim, filologiya fanlari nomzodi Sh.Sharipovning xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. “Badoyi’ ul-bidoya” nashriga o‘zbilarmonlik va baxillik bilan berilgan baholar esa tirnoq orasidan kir qidirishday bir ishdir.

28.12.2021

Do‘rmon.

NAVOIY QIT’ALARIDA “FALON” OBRAZI TALQINI

Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori, professor,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi mudiri
alpbek2010@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy qit’alarining mavzu ko‘lami, ma’no qamrovi, ayniqsa, o‘ziga xos obrazlar tizimi xususida atroflicha bahs yuritilgan. Ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi qit’alar tarkibida alohida o‘rin tutgan “falon” turkumiga xos she’rlar, “falon” obrazining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, qolaversa, she’riy matn mazmuni va badiiy obraz tabiatining o‘zaro bog‘liqligi yorqin misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: qit’a, she’r, “faloniy”, “falon”, davr, obraz, timsol.

Аннотация

В данной статье идет речь подробно о предметном объеме, значении, особенностях системы уникальных образов поэтических произведений великого мыслителя поэта Алишера Навои. Произведения, относящиеся к серии «фалон», занимает особое место в жанре китъа, которая имеет общественно-политический характер, и связи с этим в данной статье духовно-этический имидж образа «фалон» и взаимообусловленность содержания поэтических текст и характер художественного образа доказываются яркими примерами.

Ключевые слова: китъа, стихотворения, «фалон», «фалоний», период, образ, символ.

Abstract

This article examines in detail the subject volume, meaning, features of the system of unique images of the poetic works of the great thinker poet Alisher Navai. The works which are related to the “phalon” has importance in “kit’a” genre. We knew that it is known with its socio-political character in classic literature, and in this article the spiritual and ethical image of the “phalon” image and the interdependence of the content of the poetic text and the character of image are proved by vivid examples.

Key words: kit’a, poems, “phalon”, “phalony”, period, image, symbol.

Ma’lumki, badiiy obraz adabiyotning hayot haqiqatlarini jonli tarzda aks ettiruvchi o‘ziga xos kategoriyasidir. Obraz tabiatini, eng avvalo, badiiy matnning mazmun-mohiyati belgilaydi. Muayyan matn tarkibi, uning mavzu ko‘lami, ma’no qamrovi, estetik ta’sir quvvati obraz imkoniyatlariga ham u yoki bu darajada bog‘liq bo‘ladi. Mumtoz adabiyotda, ayniqsa, lirik obrazlar bir qator ijtimoiy, axloqiy, ma’rifiy, ishqiy mazmunlarni yuzaga chiqarishiga ko‘ra bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Mazkur maqolada biz buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy qit’alarida qo‘llangan “falon” obrazi xususida to‘xtalamiz.

Adabiyotshunoslikda Alisher Navoiyning “falon” turkumidagi qit’alari haqida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, adabiyotshunoslar R.Orzibekov [6], I.Haqqulov [8], M.Xudoyorova [7]larning maqola va tadqiqotlarida ulug‘ shoir qit’alaridagi “falon” obrazi borasida turli munosabat bilan to‘xtalib o‘tilgan. Shunisi ham borki, “falon” obrazi keltirilgan qit’alarni atroflicha o‘rganish Alisher Navoiy yashagan tarixiy davr, zamon va ijtimoiy muhit haqida tasavvur berishi

bilan birga, ulug‘ shoirning shaxsiyati, ma’naviy-axloqiy qiyofasini yorqin aks ettirishga ham keng imkon yaratadi. O‘z davrida, aniqrog‘i, XV asrning ikkinchi yarmida jamiyat taraqqiyotiga bir qadar qarshilik qilayotgan, ijtimoiy-madaniy hayotning tanazzuliga sabab bo‘layotgan, xoh davrining yuqori tabaqa vakillari bo‘lsin, xoh oddiy xalq kishilari bo‘lsin buyuk shoirning ayovsiz tanqididan sira ham chetda qolmagan. Bu mulohazani “falon” turkumiga oid qit’alar yaqqol tasdiqlaydi. Professor I.Haqqulning yozishicha, “...oddiy odamlar orasidan chiqqan “falon” bilan, siyosatda yoki amaldor toifasiga mansub “falon” boshqa-boshqa kimsa: birining yuzsizligi, fitnakorligi va o‘jarligi ikkinchisiga aynan o‘xshamaydi” [8, 68]. Shubhasiz, xuddi shunday. Biroq Navoiy qit’alarida tanqidga uchragan “falon”lar faqatgina amaldor toifasidagi kishilargina emas, balki turli soha, tabaqa vakillariki, ular tabiatidagi nuqsonlar – kim bo‘lmasin – ayovsiz ravishda fosh etiladi. “Shafqatsiz va andishasiz bir zamonda, – deb yozadi R.Orzibekov, – yuqori tabaqa vakillari hamda nufuzli kishilarning hammasini ham oshkora fosh qilish, ularga xos yaramas xususiyatlarni dangal aytish qiyin edi. Shuning uchun Navoiy ayrim zamondosh amaldorlarni, munofiq shaxslarni, ulardagi g‘ayriinsoniy va g‘ayri axloqiy nuqsonlarni qoralashning shu usulini topdi, undan muvaffaqiyat bilan foydalandi” [6, 24]. Darhaqiqat, falon obrazi keltirilgan qit’alar o‘zbek mumtoz adabiyoti, aniqrog‘i, Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xos kashfiyotlaridan biri edi. Ulug‘ shoir “faloni” turkumida yengil kinoya va o‘tkir kesatiq mazmunlarini o‘zaro uyg‘unlashtirib, turli tabaqa vakillari tabiatiga xos qusurlarni keskin ochib tashlaydi. Ya’ni “qit’alarida o‘z davrining hukmdorlarini dalerona tanqid qilgan Navoiy (masalan, “Jahon ganjiga shoh erur ajdaho...”, – deb boshlanuvchi yoki “Devoni Foni”dagi “Ey falon, so‘xti xaloyiqro...”, – deb boshlanuvchi qit’a) zamonasining qandaydir bir boyi-yu imomi, fisq-fasodchisi-yu kotibining nomini keltirishdan hech qachon qo‘rqmagan. Aksincha, ular shunchalik ko‘p bo‘lishganki, ularning barcha salbiy xususiyatlarini “falon” timsolida tipiklashtirgan, umumlashtirgan. Bu turkumdagi qit’alarning ba’zi “falon”lari achchiq tanqid qilinsa, ba’zilari yengil kulgi ostiga olinadi” [7, 59]. Yuqoridagi fikrlarning isboti uchun “G‘alat bir kotib bobida qalam surmagu qorasining g‘alatin yuziga kelturmak” sarlavhali mana bu qit’aga e’tibor qaratamiz:

*Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo‘parmoq kerak.
Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dag‘i yormoq kerak.*

*Qarodin qarog‘a beribon uloq,
Qalamravdin ani chiqarmoq kerak. [1, 721]*

“Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da g‘alat so‘zi yanglish, xato, sahv, noto‘g‘ri, yolg‘on deb izohlangan [5, 100]. Sarlavhadan anglashiladiki, qit‘a “g‘alat”, ya‘ni xato qiluvchi yoki xatni noto‘g‘ri ko‘chiruvchi “bir kotib” haqida nadomat bilan yozilgan. Sarlavhaning ikkinchi qismi (“qorasining g‘alatin yuziga kelturmak”) badiiy sayqal va ifodaning yorqin namunasi. Aniqrog‘i, undan ikki mazmun anglashiladi: qalamning qorasini yuziga surtmoq va aybini oshkor qilib, yuziqora yoki yuzini shuvut qilmoq – uyaltirmoq. Aslida, sarlavhadanoq ulug‘ shoir kotiblik ilmini yaxshi o‘zlashtira olmagan, o‘z ishiga o‘tmas‘uliyatsizlik bilan qaraydigan xat sohiblariga so‘z vositasida haqqoniy ko‘zgu tutadi. Qit‘adagi “falon kotib”ning axloqiy qiyofasini yanada ravshanroq tasavvur qilish uchun “Mahbub ul-qulub”da berilgan “Kotiblar zikrida” faslidagi mulohazalarga e‘tibor qilish kifoya – masala to‘la oydinlashadi.

Jumladan, “Mahbub ul-qulub”da xatni chiroyli husnixat bilan yozuvchi kotib haqida mana nima deyilgan: “Xushnavis kotib so‘zga oroyish berar va so‘zlaguvchiga osoyish etkarur”. Ammo xati chiroyli bo‘lsa-yu, diqqati sust bo‘lsa – xatni turli xatolar bilan yozsa-chi? Ayonki, arab alifbosidagi harflarda nuqtalar ham muhim ahamiyatga ega: kotibning birgina diqqatsizligi so‘zning asl ma‘nosiga, xatning mazmuniga zarar yetkazishi, deylik, habib – do‘st so‘zi habis – yaramas, muhabbat kalimasi esa mehnat tarzida yanglish o‘qilishi ham mumkin. Bunday xatolarga yo‘l qo‘yadigan kotibga nisbatan ulug‘ shoir juda keskin munosabat bildiradi – uni la‘natlaydi: “Xushnavis hamkim, sahvi (xatosi) ko‘p bo‘lg‘ay – ilgi falaj illatig‘a (kasalligiga) jo‘b (mubtalo) bo‘lg‘ay. Ulki, bejo nuqta bila “habib”ni “habis” qilg‘ay va “muhabbat”ni “mehnat” – aningdek habisi mehnatzadag‘a yuz la‘nat”. Yomon, badxat, savodsiz kotib xususida bo‘lsa Alisher Navoiyning qarashlari yuqoridagi qit‘a mazmunini yana ham to‘ldiradi: “Yamon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo‘lsun, qalamidek boshi yaro va yuzi qaro bo‘lsun” [4, 466]. Bunday kotibning jazosi qanday bo‘ladi, deysiz? Navoiy qit‘ada shu kabi noshud va no‘noq kotiblarga ham qat‘iy hukm e‘lon qiladi. Shoirga ko‘ra, uni kotiblik mavqeidan tushirish, ya‘ni haydab solish, qolaversa, xalq oldida o‘zi yozgan xatolarga to‘la xatdek yuzini qora qilish va “qalam”ning uchini yo‘ngan kabi “boshini yor”ish kerak. Faqat shumi? Yo‘q, albatta! Bu “qora” ishi – qilmishi uchun “qora” – qattiq jazo berib, ya‘ni “qarodin qaroga beribon uloq”, uni “qalamrav”dan – mamalakatdan butkul badarg‘a

qilish lozim. Kotibning xatosi o‘quvchini haqiqatdan chalg‘itishi, xat mohiyatini yanglish tushunishga sabab bo‘lishi, kayfiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois qit‘aning lirik qahramoni bunday kotiblarga shafqat qilmaydi – o‘tkir tanqid tig‘ini yalang‘ochlaydi. Diqqat qilsak, qit‘ada bir nechta badiiy san‘atlar o‘zaro qorishiq tarzda qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, “kotib”, “xat”, “noma”, “qalam” kalimalarining o‘zaro mutanosibligi asosida tanosub san‘ati hosil bo‘lsa, “qaro” – “qarodin” – “qarog‘a” asosdosh so‘zlari orqali ishtiqoq badiiy san‘ati yuzaga kelgan. “Nomasidek”, “qalamdek” o‘xshatishlari tashbehni, “qalamdek boshini yormoq” ifodasi tashxis poetik san‘atini, yozuv quroli va mamlakat ma‘nolaridagi “qalam” shakldosh so‘zlari esa tajnis san‘atini hosil qilgan. Yuksak badiiy ifoda va ma‘noning teranligi qit‘aning estetik ta‘sirchanligini oshirib, ulug‘ shoirning maqsad-muddaosini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Oddiy odamlar orasida ham yana shunday “falon”lar borki, bundaylar qayda bo‘lmasin, nima yuz bermasin – bariga hoziru nozir, ammo hech qachon hech bir ishdan ko‘ngli to‘lmaydi, hech kimdan sira-sira rozi bo‘lmaydi – doim fitnayu g‘avg‘o qo‘zg‘ab, hamma bilan talashib-tortishib yuraveradi. Quyidagi qit‘ada ana shunday “falon”lar haqida so‘z boradi:

*Falong‘a ajab hol erurkim xaloyiq
Ne qilsa alar birladur mojarosi.
Sola olmas el oshig‘a bir nuxud, gar
Tuzulmas aning birla ul el arosi.
Qazon yo‘qki, ul anda kafliz emastur,
Ki bo‘lsun yuziga qazonlar qarosi.*

Ma‘lum bo‘lmoqdaki, “falon”ning yaramas odati shunday: odamlar nima ish qilsalar ham unga yoqmaydi, qanday mavzuda suhbat kechmasin, “falon”, albatta, bilsa-bilmasa, tushunsa-tushunmasa, boshqalar bilan bahslashaveradi. “El”ning “oshiga bir nuxud” – no‘xot solishga ham yaramaydi, ya‘ni muruvvatu himmatdan butkul yiroq. Biroq yaxshilik nimaligini bilmaydigan bu kimsaning “el” bilan yaqinligi, hamfikrligi ham yo‘q. Odatda, qit‘ada ilgari surilgan g‘oya va qarashlar biror hayotiy voqeani misol keltirish orqali (tamsil san‘ati – M.A) dalillanadi. Mazkur qit‘ada xalq orasida ko‘p qo‘llanadigan “qozonga kapkir bo‘lma” iborasi irsoli masal san‘atini hosil qilgan bo‘lsa, “yuzi qora bo‘lsin” qarg‘ishining “bo‘lsin yuziga qazonlar qorasi” tarzida ifodalanishi fikrning ta‘sir quvvatini orttirgan. She‘rdagi muayyan so‘zlarning o‘zaro mutanosibligi vositasida “falon”ning axloqiy qiyofasini yanada yorqinroq tasavvur qilish

mumkin: “mojaro”, “el oshi”, “nuxud”, “qazon”, “kafliz”, “qazonlar qarosi”. Ko‘rinadiki, mutafakkir shoir qit’ada odamlarning ishiga bo‘lar-bo‘lmasga aralashaveradigan, oraga suqilaveradigan kimsalarni “falon” obrazi orqali umumlashtirgan.

Darhaqiqat, kundalik turmushda uchrab turadigan maqol, matal yoki hikmatli so‘zlarni obrazli tasvir imkoniyatlaridan kelib chiqib, she‘r mazmuniga singdirish aynan Navoiyning “falon” turkumidagi qit’alariga xosdir. “Ashhabning tuvog‘i berkligin temurga o‘xshatqondek o‘zin ham berk ekan jihatdin temurbo‘z debtur” sarlavhali qit’a tahlili ham shunday fikr bildirishimizga to‘la imkon beradi. Masalan:

Faloning sarxun otiki gar erur berk,

Qilur ta‘vil aqli nuktaomuz.

Ki go‘yo niyati mahkamlig‘idin

Aning otini debturlar Temurbo‘z. [2, 702]

“Ashhab” – oq rangli, bo‘z tulpor. Zamon odamlari “falon”ning minib yurgan ashhab oti juda pishiq, mahkam, baquvvat bo‘lgani uchun uning tuyoqlarini temirga o‘xshatishadi. Otning egasi bo‘lsa “ta‘vil” – so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noga burish, vaziyatdan oson chiqib ketish, aniqrog‘i, o‘ziga suv yuqtirmaslikka juda usta bo‘lgan – ustomon odam. Uning qanday insonligi, maqsadi nimayu qanday o‘y-xayolda ekanini bilib bo‘lmaydi, ya‘ni “falon” sira sir boy bermaydi – “niyati mahkam”. Qit’aning so‘nggi – to‘rtinchi misrasida tajnis san‘ati vositasida fikr favqullodda go‘zal ifodalangan: “Aning otini debturlar Temurbo‘z”. Ya‘ni “Falon”ning otini Temurbo‘z – pishitilgan temir, po‘lat deydi. Misraning yana bir ma‘nosi: kishilar “Falon”ning o‘ziga “Temurbo‘z” deb nom – laqab berganlar. Bu o‘rinda temurbo‘z so‘zining qattiq ma‘nosida qo‘llanishini ham nazardan soqit qilmaslik lozim. Ma‘lumki, xalq orasida “Mol egasiga o‘xshamasa harom qotadi” naqli keng qo‘llanadi. Qit’aga mana shu mazmun mahorat bilan singdirib yuborilganki, “falon”ning tabiatidagi qusurlar hazilomiz tarzda fosh etilgan.

“Faloniy” turkumidagi qit’alarning hammasida ham falon obrazini yaratishda umumlashtirish, tipiklashtirish tamoyiliga tayanilgan deb bo‘lmaydi. Ayrim qit’alarning sarlavhasida “birov” obrazi keltiriladiki, bu ham “falon”ning real, hayotiy bir shaxs ekaniga yaqqol dalildir. Jumladan:

“Birov bobidakim, bu saroyin sotib, fisq asbobi tuzdi va bu fisq asbobi bila ul saroyin buzdi”

Faloni mardak ar sotti saroyin,

Demakim, ul saroyin yaxshi tuzdi.

Qilib ikki saroyig‘a ajab ish,

Bu birni sottiyu ul birni buzdi. [3, 739]

Qit'a fisqu fujurga yon bergan bir kimsa – "faloni mardak" haqida nafrat va taassuf bilan yozilgan. Ulug' shoir parallelizm vositasida maqsad-muddaosini yuzaga chiqarish uchun o'ziga xos yo'l tanlaydi: ikki – biri sotilgan, boshqasi yangi barpo etilgan – saroy timsol-tushunchalari orqali "falon"ga munosabatini jonli ifoda etadi. Ikki saroydan ham fosiqqa manfaat yo'q, ya'ni "Bu birni sottiyu ul birni buzdi". Qit'a mazmunini teranroq anglash uchun "Mahbub ul-qulub"dagi mana bu "tanbeh"ni keltirish o'rinli bo'ladi, nazarimizda: "Fisq shumlig'idin o'zingni yaxshilardin huratma va yomonlar arosida qotma. Ul shum agarchi aqlg'a majruhdur, ammo nafsg'a mahbubdur, agarchi Haq yo'lida mag'mumdur, ammo shayton yo'lida marg'ubdur" [4, 512].

Atrofida fisqu fujur, g'iybatu ig'vo, kizbu adovat qo'zg'ab, ming turfa hiylayu nayranglarga usta bo'lgan shaytonsifat "falon"lardan Navoiy aziyat chekmagan deysizmi? Zulm tig'ini qo'lida tutgan, ilon kabi jafo "neshi" – zahrini sanchib olishga har lahza shay turgan ayrim kimsalarning nohaqliklaridan shoir ham chetda qolmagan. Bu haqda "Mahbub ul-qulub"da mana bunday yozilgan: "Davr bevafolari javridin dod va dahr behayolari zulmidin fig'onu faryod! To olam binosidur bu o'tg'a hech kishi mencha o'rtanmaydur, to bevafolig' ibtidosidur bu yoling'a hech kim mendek churkanmaydur. Zamon ahli bevafolig'idin ko'ksunda tunganlar va davron xayli behayolig'idin bag'rimda tikanlar, har qaysig'a raqam uray desam, Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suray desam, Nuh umrida tamomg'a etmas. Haq alarg'a rahm va insof sari tavassul bergay yo bu mahrum jafokashg'a sabr va tahammul bergay" [4, 456]. Boshqa bir qit'ada esa Navoiy ana shunday zulmkor kimsalarni "falon" obrazi orqali umulashtiradi:

Manga yetsa ming zulm neshi falondin,

Ilojida holimg'a hayron qolurmen.

Jafo qilg'oli qo'ysa vayronima yuz,

Agar qavlay olmon, qocha xud olurmen.

Lirik qahramon "Falon"ning jafokorligiga, andishasizligiga biror chora topa olmay o'z holiga hayron-u lol. "Falon"ga bas kelish, ya'ni nodonu johil bilan tenglashish mushkul bir ish, ya'ni foydasizdir. Zamonaviy shoirlarimizdan biri o'zining bir she'rida go'yo Navoiydan ilhomlangandek bu haqda mana qanday yozgan edi:

Nodon, johil bilan olishmoq abas,

Zero unda bo'lmas sira andisha.

Shishani toshga ur yo shishaga tosh,

Alqissa: baribir sinadi shisha!

XV asrda ham bunday zolim “falon”lar shunchalik ko‘p bo‘lganki, ular bilan samarasiz olishib, fursatini behuda sarflaguncha, Navoiyning lirik qahramoni bundaylardan uzoq yurishga, “falon”larga yaqin yo‘lamaslikka astoydil intiladi: “Agar qavlay olmon, qocha xud olurmen”.

Umuman, Alisher Navoiyning “falon” obrazi keltirilgan qit’alarida ulug‘ shoir yashagan davr, zamon va ijtimoiy muhitning turli ma’naviy, madaniy, axloqiy masalalariga e’tibor qaratilib, ayrim toifa kishilarning jamiyat hayotiga dog‘ bo‘lib tushadigan g‘ayriinsoniy nuqsonu qusurlari o‘tkir tanqid ostiga olinadi. “Falon” turkumidagi qit’alar orqali buyuk mutafakkir shoirning go‘zal ma’naviy dunyosini teranroq kashf etishga, o‘lmas asarlarida ilgari surilgan saxiylik, rostgo‘ylik, mardlik, ochiqko‘ngillik kabi oliyjanob insoniy fazilatlar mohiyatini kengroq anglashga ham yo‘l topiladi. “Falon”larga nisbatan shuurimizda nafrat hissi paydo bo‘ladi, lirik qahramonning qalbiga, ruhiy olamiga oshnolik tuyg‘usi o‘quvchini Navoiy shaxsiyatiga yanada yaqinlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 778 b.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 792 b.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 786 b.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. IX jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 766 b.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. IV jildlik. IV jild. – Toshkent: Fan, 1985. – 636 b.
6. Orzibekov.R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1976. – 162 b.
7. Xudoyorova M. Alisher Navoiy she’riyatida qit’a janri: Filol.fan.b.f.dok.diss.. – Toshkent, 2022. – 156 b.
8. Haqqul I. Kasbi kamol o‘zni tanishdir. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021. – 174 b.

ALISHER NAVOIY IJODINING ISLOMIY-MA'RIFIY ASOSLARI

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
jaborov-nurboy@rambler.ru
Tel.: +99897402159

Annotatsiya

Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodiy kamolotining ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik omillari, birinchidan, Qur'on va Sunnatni mukammal o'rganib, butun hayoti davomida islom shariatining bu ikki mo'tabar manbasiga og'ishmay amal qilgani, ikkinchidan, buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalari asarlarini mutolaa qilgani hamda ulardagi g'oyalarni muttasil rivojlantirib, asarlarida yuksak badiiy talqin etgani, uchinchidan, o'zi mansub turkiy xalq tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning oru nomusi, shonu sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo'liga safarbar eta olganida namoyon bo'lishi tadqiq qilingan.

Alisher Navoiyning e'tiqod, shariat arkonlariga qanday amal qilgani, buyuk mutafakkir o'qib o'rgangan tafsir va hadis kitoblari, tasavvuf allomalarining asarlari haqida so'z yuritiladi. Diniy-ma'rifiy va falsafiy-irfoniy g'oyalarni yuksak darajada badiiy talqin etgani asarlarining tahlili orqali dalillanadi. "Xamsa" asarining hamd, munojot va na't qismlari mohiyati tadqiq qilinadi. Buyuk shoirning ijod konsepsiyasi islom ma'rifatiga tayanishi asarlarining milliy ruhni ifodalashiga monelik qilmasligi aksincha, islomiylik va milliylik bir-birini to'ldirishiga doir tahliliy qarashlar ilgari suriladi. Tahlillar natijasida nazariy umumlashmalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: badiiy ijod, islom, she'r, adabiyot, Qur'on, hadis, badiiy-estetik omil, tasavvuf adabiyoti, badiiy talqin.

Аннотация

В статье исследуются социально-просветительские и художественно-эстетические факторы творческого совершенства великого поэта и мыслителя Алишера Навои, во-первых, то, что он досканально изучив Коран и Сунну, без отклонений следовал этим двум могущественным источникам, во-вторых, что он читал труды великих исламских мыслителей, знатоков суфизма и непрерывно развивая их идеи, давал высокохудожественные интерпретации в

своих произведениях, в третьих, то, что он в совершенстве знал историю тюркского народа, которому он принадлежал, и что смог мобилизовать весь свой творческий и научный потенциал для защиты и возвышения чести и славы natsi.

Обсуждаются то, как Алишер Навои следовал принципам веры и шариата, тафсиры и хадисы, прочитанные великим мыслителем, труды ученых суфизма. Его художественная интерпретация религиозно-просветительских и философско-мистических идей на высоком уровне подтверждается анализом его творчества. Исследуется сущность частей «Хамсы», как «хамд» (хвала Аллаху), «мунаджат» (просьба Аллаху) и «наът» (восхваление пророка). Выдвигаются аналитические взгляды на взаимодополняемость исламизма и национализма, опора концепции творчества великого поэта на исламское просвещение, не помешавшее его произведениям выразить национальный дух. В результате анализа делаются теоретические обобщения.

Ключевые слова: художественное творчество, ислам, поэзия, литература, Коран, хадис, художественно-эстетический фактор, литература суфизма, художественная интерпретация.

Abstract

The article examines the socio-educational and artistic-aesthetic factors of the creative perfection of the great poet and thinker Alisher Navoi, firstly, the fact that he thoroughly studied the Koran and the Sunnah, followed these two powerful sources without deviations, and secondly, that he read the works great Islamic thinkers, experts in Sufism and continuously developing their ideas, gave highly artistic interpretations in his works, thirdly, that he perfectly knew the history of the Turkish people to whom he belonged, and that he was able to mobilize all his creative and scientific potential to protect and elevation of the honor and glory of the nation.

It discusses how Alisher Navoi followed the principles of faith and Sharia, tafsirs and hadiths read by the great thinker, the works of Sufism scholars. His artistic interpretation of religious-enlightenment and philosophical-mystical ideas at a high level is confirmed by the analysis of his work. The essence of the parts of "Hamsa" is being investigated, such as "hamd" (praise of Allah), "munajat" (request to Allah) and "nat" (praise of the prophet). Analytical views are put forward on the complementarity of Islamism and nationalism, the support of the concept of the great poet's work on Islamic enlightenment, which did not prevent his works from

expressing the national spirit. As a result of the analysis, theoretical generalizations are made.

Key words: artistic creativity, Islam, poetry, literature, Koran, hadith, artistic and aesthetic factor, Sufism literature, artistic interpretation.eralizations are made.

Sharq-islom adabiyoti shaklni ham, vaznni ham, ijodiy konsepsiyani ham Qur'oni karim va Hadisi shariflardan olgan. Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida she'ning poetik shakliga taalluqli bo'lgan badiiy san'atlarga misollar avval Qur'oni karim va Hadisi sharifdan, keyin turli shoirlar nazmiy asarlaridan keltirilgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, baytning har ikki misrasidagi so'zlarning ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo'lishi talab etiladigan tarsi' san'atiga misol sifatida Qur'oni majiddan quyidagi ikki oyat keltiriladi:

*Innal-abrora lafiy na'im,
Va innal-fujjaro lafiy jahim. (Infitor, 13-14).*

Yana:

*Inna ilayna iyobahum,
Summa inna a'layna hisobahum. (G'oshiya, 25-26).*

Shundan so'ng mazkur badiiy san'atga Rasuli akram (s.a.v.)ning "Kimki g'azabiga itoat qilibdi, adabini zoye qilibdi" mazmunidagi hadisi misol qilingan: *Man a'to'a g'azabahu, azo'a adabahu* [11.85].

Tarsi' san'atiga hazrat Navoiyning "Hayratu-l-abror" dostoni munojot qismidan olingan quyidagi bayt misol bo'la oladi:

*Kimki boshi sajdada – masjudisen,
Kimki yuzi qiblada – ma'budisen* [8.16].

Tashbeh badiiy adabiyotning xususiyatini to'liq mujassam etadigan san'at ekani ayon. "Fununu-l-balog'a"da ushbu badiiy san'atga "Yosin" surasidan misol keltiradi: *Val-qamara qaddarnahu manozila hatta 'ada ka-l-urjuni-l-qadim* [11.94]. Ma'nosi: Biz oyni ham toki u eski xurmo butog'i kabi bo'lib qolguncha manzillarini belgilab, tayinlab qo'ygandirmiz. Ushbu oyati karimada "eski xurmo butog'i kabi" deyilar ekan, Alloh taolo bu orqali insonlarga tashbeh vositasida fikr yuritishni ta'lim beryapti. Shu asosda muborak Hadislarda ham tashbeh asosida fikrning balog'at va fashohat bilan bayon etilishi kuzatiladi. Mas.: *An-nasu savaun kaasnanil-mishti* [11.95]. Ma'nosi: *Odamlar xuddi taroqning tishlari kabi barobardirlar.*

Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni – “Hayratu-l-abror”da ustozi Abdurahmon Jomiy ta’rifida quyidagi tashbehlar qo‘llanilgani kuzatiladi: *Ko ‘ksi – haqoyiq duri ganjinasi, Ko ‘ngli – maoniy yuzi oyinasi* [8.42]. Bu kabi misollar badiiy adabiyot poetik shaklni Qur’oni karim va Hadisi sharifdan olgani isbotidir. Sharq-islom adabiyoti nafaqat shaklni, balki mazmunni va vaznni ham e’tiqodimizning mazkur mo‘tabar manbalaridan olgani ma’lum. Alisher Navoiy “Mezonu-l-avzon”da: “Haq subhonahu va taoloning kalomi majidida ko‘p erda nazm voqe’ bo‘lubdurki, aruz qavoidi bila rostdur” [3.540], deya ta’kidlaydi. Biroq bu o‘rinda alohida e’tibor qaratish kerak bo‘lgan muhim jihat shundaki, ulug‘ bobokalonimiz “nazm” deganda bugungi “she’r” istilohini nazarda tutmagan. “Nazm” atamasida so‘zning “nizomga solinishi, aniq tartibga bo‘ysundirilishi” ma’nosi mujassam. Sharq-islom adabiyoti Qur’oni karim va Hadisi shariflardan ayni shu xususiyatni oldi. Buyuk mutafakkir “Mezonu-l-avzon”da, jumladan, «Lan tanolu-l-birra hatto tunfiqun» (Oli Imron, 92) oyati *ramali musaddasi mahzuf* vaznida, «Va-l-mursaloti urfan, fa-l-osifati asfan» (Al-Mursalot, 1-2) oyatlari *muzorei musammani axrab* vaznida ekani, “Kalomullohda ko‘p yerda bu nav’ voqe’” bo‘lgani xususida to‘xtalib o‘tadi. Hazrat Alisher Navoiyning yozishicha: “Rasul sallallohu alayhi vassallam ahodisida dag‘i ham bu tariq tushubdur” [3.540]. Ulug‘ alloma fikricha: “Man akrama oliman faqad akramaniy» hadisi «maf’ulu mafoilun mafoiylu faul» afoili bilan ruboiy vaznida *hazaji axrabi maqbuzi makfufi majbub*da voqe’ bo‘lgani [3.540] buning isbotidir.

Adabiyotda voqelikni aks ettirish tamoyili ijodiy uslubni belgilaydi. Biroq shu paytgacha ijodiy uslub masalasiga G‘arb adabiyotshunosligi mezonlari asosida yondashilib kelindi. Ijodiy uslub masalasiga o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sharqona adabiy-estetik tafakkur mezonlari asosida yangicha yondashilishi zamon taqozosidir. Adabiyotning badiiylik mezoni uning ham mazmun, ham badiiyat jihatidan mukammal bo‘lishini taqozo qiladi. Badiiylik mezoni badiiy shakl va mazmunning har jihatdan uyg‘un bo‘lishi, g‘oyaning milliy axloqqa mutanosibligi, badiiy shaklni yuzaga keltiruvchi komponentlarning mukammalligi asosida yuzaga keladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining islomiy asoslarga tayanishi uning milliyligini inkor etmaydi. Ulug‘ shoiru adiblarimiz asarlarini milliy tilda yozgani, ularda turkiy millatga xos e’tiqod, ruhiyat, dunyoqarash aks etgani buning isbotidir. Adabiyot ijtimoiy voqelikni badiiy aks ettirsa-da, uning asosiy tasvir obykti insondir. Inson ruhiyati, e’tiqodi, hayot tarzi, ma’naviy olami, ibratli umr yo‘lini butun murakkabligi, ziddiyati bilan obrazli

tasvirlash orqali shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilish adabiyotning asl mohiyatini tashkil etadi.

Hazrat Alisher Navoiy asarlari sharq islom adabiyotining yuksak namunalari. Buyuk mutafakkirning badiiy ijodda kamolot darajasiga ko'tarilishida quyidagi ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik omillar asos-zamin bo'lgan:

1. Qur'on va Sunnatni mukammal o'rganib, butun hayoti davomida islom shariatining bu ikki mo'tabar manbasiga og'ishmay amal qilgani.

2. Buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalari asarlarini o'rgangani hamda ulardagi g'oyalarni muttasil rivojlantirib va boyitib, asarlarida yuksak darajada badiiy talqin eta bilgani.

3. O'zi mansub turkiy xalqning, o'zbekning tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning oru nomusi, shonu sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo'liga safarbar eta olgani.

Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiy shariat arkonlariga qat'iy rioya etgan. G'azallaridan birida ulug' shoir e'tiqod (tavhid) bilan amal (shariat) uyg'un bo'lishi shartligini quyidagicha talqin etadi:

Eyki debsenkim, bilay tavhid sirridin xabar,

Shar'din nekim tajovuz ayladi – ilhod bil [7.385].

Ya'ni tavhidni – Alloh taoloning yagonaligi sirini anglamoqchi bo'lgan kishi bilsinki, shariat chegarasidan chiqsa, yo'ldan adashadi.

Alisher Navoiy – so'zi va amali bir mutafakkir. U bir umr islom shiati ruknlariga qat'iyat bilan amal qildi. Buni ulug' bobokalonimizning o'zi "Vaqfiya" asarida quyidagicha izhor etadi: "...chun kishiga abadiy davlat va saromadi saodat va hayot chashmasining navidi va najot manzilining umidi islomning besh sutunlik zotu-l-imodig'a kirmaguncha mumkin ermas va bu xamsu-l-muborak panjasig'a ilik urmag'uncha hech ish natija bermas. Avval ul kalimai tavhiddur. Shukrkim, oni alifdek jonim orasida naqsh etibmen. Ikkinchi – saloti xamsadur. Bihamdillahkim, oni naydek zehn aro sabt qilibmen. Uchunchi – Ramazonning o'ttuz kunining ro'zasidur. Shukrulillahkim, oni lomdek qalbimda yoshurubmen. To'rtinchi – zakotdur. Jonim naqdi ul Tengrig'a zakotim..." [1.650].

Xondamirning yozishicha, hazrat Alisher Navoiy: "...besh mahal jamoat bilan o'qiladigan namozlarning barchasida qatnashardilar" [12.127]. Juma va jamoat namozlari o'qishni tashkillashtirishda ham alohida g'ayrat ko'rsatgan. Hirot shahridagi Marg'aniy bog'i ichida benihoya chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan jome masjidi qurib, o'z zamonasi qorilarining sarasi bo'lgan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni ushbu masjid imomligiga tayinlagan hamda o'zi bu yerda besh mahal

jamoat bilan o‘qiladigan namozlarda muntazam ishtirok etgan. Hazrat Navoiyning xazinasida biror yili ham zakot to‘lashga vojib bo‘ladigan darajada oltin yig‘ilmagan. Xazinaga kelib tushgan har qanday daromad tez orada turli tabaqalar vakillariga in‘om sifatida sarflangan yoki masjid, madrasa, xonaqoh va shu kabi inshootlar qurilishiga – xalq manfaatiga yo‘naltirilgan. Shunga qaramay, amir Navoiy zakot berishga g‘ayrat ko‘rsatgan. Ramazon ro‘zasini tutish barobarida bu muborak oyda sadaqa va xayr-ehsonni oshirgan. Fozillar, shoirlar, qashshoqlar, nogironlar va yetimlarni pul va kiyim-kechaklar sovg‘a qilib siylagan. Turli tabaqadagi kishilarni xayr-ehson dasturxonidan bahramand etgan.

Hazrat Navoiy islomning beshinchi rukni haj ibodatini ado etish niyatida bir necha marta yo‘lga chiqqan. Birinchi marta Mashhadga yaqinlashganda, Mavlono Abdulhay ismli chopar Sulton Husayn Boyqarodan maktub olib keladi. Sulton Iroq va Bog‘doddagi vaziyat notinch va beqaror ekani, Misr va Shom chegaralarida turli boshboshdoqliklar yuz berayotganiga doir xabarlar bois, yo‘lning xavfsizligi hajning shartlaridan biri ekanini dalil qilib, ulug‘ amirni haj safaridan qaytaradi. Ikkinchi marta davlatning bardavomligi hamda uning qudrati va ulug‘ligi abadiy bo‘lishini duo qilish sharti bilan haj safariga ruxsat so‘raganda, Sulton 1500-yil 2-iyunda bajarilishi barcha uchun majburiyligi ta’kidlangan maxsus farmon chiqaradi. Unga ko‘ra, hazrat Navoiy haj yo‘lida joylashgan mamlakatlardan qay biriga borsa, u yerdagi hokimlar, a‘yonlar, aholi va yo‘l xavfsizligi qo‘riqchilari hurmat-ehтиrom ko‘rsatishi, xizmat qilishi, xavf-xatarli joylardan o‘tishida qo‘riqchilar bilan ta‘minlashi shart, deb belgilangan. Ammo farmon chiqarilgan javzo (21-may – 21-iyun) oyida havo harorati ko‘tarilgani bois katta qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligi uchun haj safariga sunbula (22-avgust – 21-sentabr) oyida borishga qaror qilinadi. Uchinchi marta 1500-yilning 26-avgustida haj safariga otlanadi. Lekin yo‘lda sog‘ligi yomonlashgani bois o‘sha yil sentabrda yo‘lga chiqishni niyat qilib, uyga qaytadi. Biroq Xurosonning ulug‘ mashoyixlari va olimlari shahzoda Muhammad Husayn Mirzo isyon ko‘targani munosabati bilan saltanat osoyishtaligini saqlashda buyuk amirning roli katta ekanini aytib, haj safarini qoldirishni so‘raydi. Xullas, bu qutlug‘ niyat amalga oshmay qoladi.

Alisher Navoiy buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalarining quyidagi kitoblarini qunt bilan o‘rgangan va o‘z asarlarida tilga olgan [14.3-35]: *Tafsir kitoblari*: Najmiddin Kubroning Qur‘oni karim tafsiriga doir “Aynu-l-hayot”, G‘azzoliyning “Javohiru-l-Qur‘on”, Ro‘zbehon Baqliyning “Aroyisu-l-bayon fi-l-haqoyiqi-l-Qur‘on”, Abu Tolib

Makkiyning “Qutu-l-qulub”, Najmuddin Roziyning “Bahru-l-haqoyiq”, Husayn Voiz Koshifiyning “Javohiru-t-tafsir”, Mahmud Zamaxshariyning “Al-kashshof fi tafsiri-l-Qur’on”, Sadruddin Qo’naviyning “Tafsiri fotiha” asarlari. Ushbu mo’tabar tafsirlar butun islom olamida e’tirof etilganiyoq buyuk mutafakkirning Qur’on ilmiga e’tibori nechog‘liq kuchli ekani isbotidir. Husayn Voizning “Javohiru-t-tafsir” asari bevosita hazrat Navoiy tavsiyasi va homiyligida yozilgan. Tafsir xotimasida muallif ulug‘ amirning islom dini rivojiga doir faoliyatiga yuksak baho bergan.

Hazrat Navoiy *hadis ilmiga doir* nodir manbalarni o‘rganishga ham alohida e’tibor bergan. Bu ilm rivojida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan Imom Buxoriyning “Al-jomi’ as-sahih”, Imom Muslimning “Sahihu-l-Muslim”, Imom Termiziyning “Sunani Termiziy”, Majduddin Muhammadning “Jome’u-l-usul” asarlari, hadis ilmining badiiy adabiyotga ta’siriga doir Imom an-Navaviyning “Arba’inu-n-Navaviy”, Abdurahmon Jomiyning “Sharhi hadis” va “Arba’in” asarlari buyuk shoir tafakkuri miqyoslarining yuksalishida alohida o‘rin tutgan.

Tasavvuf ilmi hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodida nechog‘liq muhim o‘rin tutgani isbot talab qilmaydi. Shu bois bolalik kezlaridan tasavvufiy adabiyotning mumtoz namunasi bo‘lgan Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq-u-t-tayr” asarini sevib mutolaa qilgan, hatto yodlab olgan edi. Tasavvuf ilmining ulkan nazariy-falsafiy va adabiy-ma’rifiy ahamiyatga molik manbalari hisoblangan al-Arabiyning “Fususul-hikam”, Abu Homid G‘azzoliyning “Ihyou ulumi-d-din”, Ka’b binni Zuhayrning “Qasidai burda”, Abdulloh Ansoriyning “Manozilu-s-soyirin”, Shahobuddin Suhravardiyning “A’lomu-t-tuqo”, Hakim Sanoiyning “Hadiqatu-l-haqoyiq”, Shayx Sayyiduddin Farg‘oniyning “Manohiju-l-ibod ala-l-mi’od”, Xoja Muhammad Porsoning “Faslu-l-xitob”, Amir Qosim Anvorning “Anisu-l-oshiqin”, Jaloluddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”, Abu Ali Jullobiy Hujviriyning “Kashfu-l-mahjub”, Shayx Alouddin Simnoniyning “Iqboliya”, Abulhusayn Jahzam Hamadoniyning “Bahjatu-l-asror”, Shayx Najmuddin Kubroning “Favotihu-l-jamol”, Xusrav Dehlaviyning “Mir’otu-s-safo”, Horis Muhosibiyning “Kitobu-l-munqiz va-l-vasoyo”, Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq-u-t-tayr”, “Tazkiratu-l-avliyo”, Abdulloh al-Yamaniyning “Ravzu-r-rayohin”, Shayx Mahmud Shabustariyning “Haqqu-l-yaqin”, Abulqosim Qushayriyning “Risola fi-t-tasavvuf”, Abudurrahmon an-Nishoburiyning “Tabaqoti sufiya”, Hakim at-Termiziyning “Xatmu-l-valoya”, Jomiyning “Ashia’tu-l-lama’ot” hamda al-Arabiyning “Naqshu-l-fusus” asariga yozgan

“Naqdu-n-nusus”, “Fususul-hikam” asariga yozgan “Naqdu-l-fusus” nomli sharhlari va boshqa asarlar buyuk shoirning mutasavvif sifatidagi kamolotiga xizmat qilgan, ijodiy yuksalishida manba vazifasini o‘tagan.

Hazrat Alisher Navoiyning 1483-1485-yillarda ijod qilingan «Xamsa» asari besh dostonidan tarkib topgan bo‘lsa-da, yagona ijodiy konsepsiyaga bo‘ysunadi, yaxlit poetik tizim asosida yaratilgan. “Xamsa” tarkibiga kirgan har bir doston Alloh taolaga hamd, munojot va Rasululloh (s.a.v)ga na‘t bilan boshlanadi. Aqoid ilmiga oid haqiqatlar ana shu muqaddima qismlarining asosini tashkil etadi. Ulug‘ shoir har bir bayt, har bir misra zamiriga Qur‘oni karim oyatlari va hadisi shariflar mazmunini mahorat bilan singdiradi, ulardan iqtiboslar keltiradi. Jumladan, “”Hayratu-l-abror”ning avvalgi munojotida insonga mana bunday ta‘rif beradi: *“Karramno” keldi manoqib ango, “Ahsani taqvim”munosib ango* [8.15]. Baytdagi “Karramno” so‘zi “Isro” surasining “Batahqiq Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik” [13.289] mazmunidagi 70-oyatidan iqtibos. “Ahsani taqvim” jumlasini “Tiyn” surasining “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik” [13.597] mazmunidagi 4-oyatidan olingan. Buyuk shoir Alloh taolo insonni mukarram qilgani va yaxshi suratda yaratgani bilan bog‘liq Qur‘oni karimdagi ikki ilohiy xabarni bir baytga jamlash orqali Odam farzandlarining maqomi yuksak ekani, shunga munosib hayot kechirmog‘i zarurligi masalasiga urg‘u bergan.

Na‘t boblarining birinchisida Muhammad alayhissalomning nuri butun olamlardan avval yaratilgani va Odam safiyullohdan Rasulullohning otasi Abdullohga yetishgani, ikkinchisida ul zotning tavalludidan qirq yoshga to‘lgunga qadar hayoti va payg‘ambarlikning dastlabki davri, uchinchi na‘tda nur va soya ramzlari vositasida olamlar sarvariga berilgan ladunniy ilm hamda islom shariatining Arab va Ajamga yoyilib, kufr zulmatini yoritgani, to‘rtinchi na‘tda Rasuli akram s.a.v.ning shariat rivoji yo‘lidagi xizmatlari va as‘hobi kirom vasfi, beshinchi na‘tda meroj kechasi ta‘rif etilgan.

Doston har yigirma maqolatida ma‘lum bir muhim mavzu yoritilgach, shunga doir hikoyat berilgan. Bunday usul doston mazmunining ta‘sir kuchini oshirgan, badiiyatini yuksaltirgan. Birinchi maqolatda iymon odamiylikning sharti, inson kamolotining asosiy manbai sifatida vashf etiladi:

*Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga iymon erur* [8.85].

Maqolatda iymonning olti sharti – Haq taolaga, farishtalarga, Tangri taolo so‘zi bo‘lgan samoviy kitoblarga, payg‘ambarlarga, qiyomat kuniga

hamda qazoi qadarga iymon keltirish zarurati ta'sirli badiiy ifodalangan. Hazrat Navoiy kimki iymonning ana shu olti rukniga e'tiqod qilsa, har qancha nomasiyoh, g'arqai daryoi gunah bo'lsa ham, afv etilib, abadiy rahmatga erishmog'i mumkinligini ta'kidlaydi. Asarda ta'riflanishicha, iymon – barcha insoniy fazilatlar asosi. Islom, adolat, karam, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlig', ilm, bulutdek jamiyatga foyda keltiruvchi bo'lmoq singari xislatlar iymon poydevori ustiga quriladi. Dostonda ushbu fazilatlarining har biri alohida bob doirasida badiiy talqin etiladi. “Hayratu-l-abror”ning ikkinchi maqolati «alif»lari amniyat bog'ining sarvlari, «sin»i saodat qasrining kungirasi, «lom»i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va «mim»i muhabbat mash'alining nuri” deya ta'riflangan “islom” vasfiga bag'ishlangan. Hazrat Navoiy talqinicha, Tangri taolo olam ahlini ikki toifa: ahli najot va ahli halok etib yaratgan, birinchisi islom yo'lidagilar, ikkinchisi esa “obidi asnom” – sanamlarga topinguvchilar. Keyin esa islomning besh sharti – “xamsi muborak”ni sharhlaydi: *Anglag'il arkonini beishtiboh, Avvali “Illalloh” ila “lo iloh”, Yona Muhammadni ango bil Rasul, Ber munga tonig'lig'u qilg'il qabul* [8.95-96]. Ya'ni birinchi shart – Alloh taoloning yagonaligi va Muhammad alayhissalom uning rasuli ekaniga guvohlik berish hamda chin ko'ngildan qabul qilish. Buyuk shoir ta'rificha, ikki olam nizomi ana shu ikki kalom bilandir. Islomning ikkinchi sharti – ado salot, ya'ni namoz, uchinchisi – zakot, to'rtinchisi – ro'za, beshinchisi – haj, ya'ni Baytulharamni ziyorat etmoq bilan bog'liq talqinlar ham fikrning ta'sir kuchi va betakror badiiyati bilan alohida ajralib turadi.

“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” hamda “Sab'ai sayyor” dostonlari asosiy qahramonlari tarixiy ildizlariga ega. Jumladan, buyuk mutafakkir “Tarixi muluki Ajam”da Xusrav Parviz binni Hurmuz tarixini alohida zikr etadi. Asarda Farhod, Shirin, Buzurg Ummid nomlari ham tarixiy shaxslar sifatida tilga olingan. Xusravning olamda husnu latofat va jamolu malohatda tengsiz Shirin ismli mahbubasi, Farhoddek raqibi, shuningdek, Buzurg Ummiddek asrining a'lami darajasidagi vaziri bo'lgani, Farhodni begunoh qatl ettirgani haqidagi ma'lumotlar [6.638] mazkur obrazlarning tarixiy shaxslar ekanidan dalolat beradi. Asarda tarixiy haqiqat yuksak badiiy haqiqatga aylantirilgan. “Tarixi muluki Ajam”da yozilishicha, Xusrav Parvez hukmronligi Muhammad alayhissalomning payg'ambar etib yuborilishi davriga to'g'ri kelgan. Payg'ambarimiz uni islom diniga da'vat etib noma yuborgan. Lekin u g'ururga ketib, muborak nomani yirtib otgan. Buyuk shoir ta'rificha, bu orqali u o'z mulki va davlatig'a qasd qilgan. Rasuli akram s.a.v.

mo'jizasidan mulki zavolga uchrab, o'g'li Sheruya podshoh bo'lgan [6.638]. Bundan hazrat Navoiy tarixiy voqealar hamda Sharq xalqlari ijodiyotidagi ularga asoslangan sayyor syujetlarni "Xamsa" konsepsiyasi asosida qayta ijod etib, mukammal badiiy asar darajasiga ko'targani ayon bo'ladi.

"Xamsa"dagi besh doston muqaddimasi hamd, munojot va na't boblaridan tarkib topgan va ular muallif ijodiy niyatidan kelib chiqib doston xususiyatiga mos talqinlar bilan boyitilgan. Jumladan, "Layli va Majnun" dostonining hamd bobida Haq taolo qudratini anglashda aqlning nechog'liq ojiz ekani ifodalanadi: *Ey sendin ulus xujasta farjom, Og'ozingga aql topmay anjom. Ey aqlg'a foizi maoniy, Boqiysenu borcha xalq foniy* [2.6]. Bu orqali buyuk shoir faqat aqlgagina tayanish e'tiqod asoslariga muvofiq emasligini, aql va ishq munosabati bilan bog'liq doston konsepsiyasini o'quvchi shuuriga singdira boradi. Alloh taoloning husnni dilpazir (yoqimli), el ko'nglini unga asir qilganini ta'kidlar ekan, kitobxon ruhiyatini Qaysning Majnunga aylanishiga tayyorlaydi. Hazrat Navoiy talqiniga ko'ra, Haq taolo husni tajalli qilgani bois Layli Uning ishqiga mazhar bo'ldi. Laylining sifoti esa Majnun qilmoqdir: *Ey Majnunung xiraddin ozod, Ohi beribon xiradni barbod, Ey aql sening yo'lungda g'ofil - Kim, telba sening yo'lungda oqil* [2.7]. Hazrat Navoiy ana shu tarzda asarning hamd bobini asosiy syujet bilan mustahkam bog'laydi. Asardagi har bir so'z va obraz, har bir bayt va bob muallif ijodiy niyati ifodasiga xizmat ettiriladi.

"Sab'ai sayyor" dostonida muallif konsepsiyasi negizida nafs yo'rig'iga yurish, unga qul bo'lishning oqibati xorlik ekaniga doir Qur'oni karim ta'limotining badiiy talqini turadi. Dostondagi har bir detal, obraz va talqin ana shu konsepsiyani mantiq va badiiyat qonuniyatlari asosida dalillashga qaratiladi. Ovg'a mukkasidan ketgan, saltanat ishlariga loqayd, ko'nglida dard moyasi yo'q, ishq otashidan mahrum Bahrom obrazi orqali nafsga mutelik qoralanadi. Dunyoga hirs qo'yish shaxsni yemirishi, saltanatni inqirozga olib kelishi bilan bog'liq barcha zamonlar uchun ahamiyatli xulosa obrazli va ta'sirli ifodalanadi.

"Xamsa"ning so'nggi beshinchi dostoni "Saddi Iskandariy"ni yozishga kirishishdan avval hazrat Navoiy buyuk jahongir tarixini qunt bilan o'rgangan. Bundan buyuk mutafakkirning "Tarixi anbiyo va hukamo"ni "Xamsa"dan keyin yozgan bo'lsa ham, bu tarixiy asar uchun zarur bo'lgan materiallarni ancha avval to'play boshlagani ayon bo'ladi. Ushbu asarda "*Iskandar Zulqarnayn Yofasning to'rtinchi o'g'lidur*" [5.544], degan xabar beriladi. Iskandar o'zigacha va undan keyingi barcha

hukmdorlardan afzal ekani, hakim va valiy bo'lgani, ba'zilar uni payg'ambar deb hisoblagani aytiladi. To'rt yuz hakim uning xizmatida bo'lgani, Arastu unga vazirlik qilgani, ya'juj-ma'jujlarga qarshi sadd – devor qurgani, Marv, Hirot, Samarqand va Isfahonni bunyod etgani ta'kidlanadi. Buyuk shoir bu materiallardan unumli foydalangan bo'lsa ham, Iskandar obrazini Qur'oni karimning “Kahf” surasidagi Zulqarnayn qissasi asosiga quradi. Barcha tarixiy-ilmiy va badiiy asarlarda Iskandarning insoniyat uchun eng ahamiyatli xizmati ya'juj-ma'jujlarga qarshi devor qurdirgani ekani ta'kidlanadi. “Saddi Iskandariy”ning nomlanishidan asar syujeti va kompozitsiyasigacha ana shu tarixiy voqea asos qilib olingan. Alisher Navoiy dostoni bu jihatdan buyuk salafлари Nizomiy va Dehlaviy asarlaridan farq qiladi.

Dostonning beshinchi bobida “Xamsa” besh vaqt namozga qiyoslanadi [4.31]. Uni to'liq ado etmoqni burchi deb biladi. Ma'lum bo'ladiki, “Xamsa” turkiy xalqlar badiiy-estetik tafakkurining yuksak namunasi bo'lishi barobarida islom ma'rifati aks etgan benazir axloqiy-ta'limiy manba hamdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodining irfoniy-falsafiy va adabiy-estetik asoslari Qur'oni karim va hadisi sharifga tayanadi. Buyuk shoir poetik mazmun va shaklda ham, poetik obraz va uslubda ham, badiiy san'atlarni qo'llash va vazn tanlashda ham ana shu ikki mo'tabar manbaga asoslangan. Eng ahamiyatli jihati, hazrat Alisher Navoiy islom ma'rifati asoslarini adabiy-estetik mezon bilib, asarlarida yuksak badiiy talqin etish barobarida, muqaddas dinimiz arkonlariga bir umr mukammal darajada amal qilib yashagan. Buyuk shoir hayoti va ijodi, ana shu fazilatlariga ko'ra ham, abadiyatga daxldor va barcha zamonlar uchun ibrat bo'la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Vaqfiya. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. To'qqizinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Yettinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
3. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Sakkizinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.

5. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. /To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Sakkizinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
6. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. /To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Sakkizinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
7. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. /To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Sakkizinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
8. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. /To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
9. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021.
10. Саййид Сажжодий. Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти ирфоний. Техрон, 1992.
11. Тарозий, Шайх Аҳмад иди Худойдод. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.
12. Хондамир, Гиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. - Тошкент: Академнашр, 2018.
13. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси (Таржимон: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф). – Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2020.
14. Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. –Тошкент, 2004.

TARIXIY NASRNING YUZAGA KELISHIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O‘RNI

Qodirjon ERGASHEV,

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Navoiy tarixiy asarlarining yaratilishi o‘zbek adabiyotida yuz bergan yuksalishga, xususan, o‘zbek nasridagi jonlanish, uning taraqqiy topishiga ulkan hissa qo‘shgan. Mazkur maqolada tarixiy nasrning yaratilishi, taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari va bunda Navoiyning o‘rni haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nasr, tarixnavislik, manba, yodgorlik, kutubxona.

Аннотация

Создание исторических произведений Навои внесло большой вклад в развитие узбекской литературы, в частности, в возрождение и развитие узбекской прозы. В данной статье рассматривается

создание, развитие, этапы становления исторической прозы и место в ней Навои.

Ключевые слова: проза, историография, источник, памятник, библиотека.

Abstract

The creation of Navoi's historical works made a great contribution to the development of Uzbek literature, in particular, to the revival and development of Uzbek prose. This article discusses the creation, development, stages of formation of historical prose and Navoi's place in it.

Key words: prose, historiography, source, monument, library.

Tarixiy nasrning musulmon sharqida yaratilgan va bizgacha yetib kelgan ilk namunalari arab adiblari qalamiga mansub. Tadqiqotchilar arab adabiyotida tom ma'nodagi tarixiy asarlarning yuzaga kelishi davrini IX-X asrlar deb ko'rsatadilar [1. 128-130]. Aynan shu davrda Ahmad ibn Yahyo al-Balazuriy (892-yilda vafot etgan), Muhiddin ibn Jarir at-Tabariy (923-yilda vafot etgan), al-Ma'sudiy (vafoti taxminan 956-y.) kabi tarixnavislar yetishib chiqqan va o'zlarining tarixiy nasr taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan asarlarini yaratgan edilar. Bunga qadar eng tarixiy ma'lumotlar va bilimlar diniy asarlarda o'z aksini topgan va ular orqali yetib kelgan. Insonlar tarixning eng qadimgi davrlari haqidagi tasavvurlarni dastlab ilohiy kitoblar hamda payg'ambarlar haqidagi qissalardan olganlar. Keyingi davrlarga oid ma'lumotlar esa musulmon sharqida sahobalarga, din arboblarga, xususan, islom dinining tarqalishi, bu yo'lda olib borilgan kurashlarda muhim rol o'ynagan shaxslar hayoti va faoliyati yoritilgan manbalardan o'rin olgan. Umuman, din bilan tarix o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bu holga sharq tarixchilari ham, yevropalik tarixchilar ham e'tibor qaratganlar. O'zining «Tarix apologiyasi» asari bilan XX asr Yevropa tarix fanida katta iz qoldirgan ulkan fransuz olimi Mark Blok xristianlik va tarix xususida mulohaza yuritar ekan, shunday deb yozadi: «Tarixdan hech nima olmagan diniy tajribani tasavvur qilish mumkin, bu o'z-o'zidan ayon. Sof deistning xudoga ishonishi uchun ichki bir yog'duning o'zi kifoya. Ammo xristianlar xudosa emas. Zero, xristianlik – men bu haqda eslatib o'tgan edim - o'z mohiyatiga ko'ra tarixiy din, ya'ni uning barcha aqidalari kechmishga asoslangan» [2.20].

O'rta Osiyolik tarixchi Muhammad Haydar «Tarixi Rashidiy» asarining muqaddimasida Qur'ondagi oyatlarning uchdan bir qismi

tarixdan xabar berishini ta'kidlaydi: «Bulardan keyin o'tkir ko'zlilar nazariga va donishmandlar ko'ngliga maxfiy qolmagaykim ... Qur'oni karim ... uch qismga bo'linadi: birinchisi, buyuk va muqaddas Tangrining yakka-yagonaligi; ikkinchisi, Muhammad (s.a.v.) shariatining hukmlari; uchinchisi, tarixlardan tarkib topgandir. «Uni faqat tahoratli pok kishilargina ushlarlar» degan oyat maqsadlarining uchdan bir qismi qadimdan o'tganlarning ahvollarini bilishdan iboratdir» [3.52].

Xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga oid katta materialni o'z ichiga olgan diniy adabiyot (payg'ambarlar, sahobalar va ularning faoliyatiga, islom lashkarboshlarining hayotiga bag'ishlangan asarlar) o'ziga xos manbalar bo'lib xizmat qilishi bir paytda tarix fanining, tarixnavislikning yuzaga kelishi va taraqqiy topishiga ham zamin yaratdi hamda unga katta ta'sir ko'rsatdi. Biz ularda aks etgan g'oyalar va an'analar ta'sirini tarixnavislik mustaqil fan sifatida shakllangan davrlarda yozilgan tarixiy nasr namunalarida ham ko'rishimiz mumkin. O'rta asr Sharq tarixnavislarining o'z asarlarini avvali ofarinishdan boshlashlari, payg'ambarlar tarixining kiritilishi va boshqa bir qator xususiyatlar shular jumlasidandir.

XI-XII asrlardan boshlab Iroq, Fors, Xuroson, Shimoliy Hindiston va Turkistonda forsiy tildagi nasr rivoj topa boshladi va keyingi darlarda ushbu hududlarda yaratilgan asarlarning katta qismi shu tilda yozildi. Umuman, XVII asrgacha arab, turkiy, fors tillarida yaratilgan yozma manbalarning barchasini yaxlit olib qaraladigan bo'lsa, ulkan hajmdagi tarixiy adabiyot yuzaga kelganligi ma'lum bo'ladiki, ular sonining ko'pligi, salmog'i va ahamiyati o'sha davr adiblarining o'zlari tomonidan ham e'tirof etilgan edi. Jumladan, Abulg'ozixon birgina Chingizxon va uning avlodlariga bag'ishlangan tarix kitoblari haqida so'z yuritir ekan, shunday yozadi: «Muarriflar turkiy va forsiy tili birlan onlarning podshohlik qilgan va tug'gan va o'lgan tarixlarini, yaxshi va va yomon qilgan ishlarini yozib tururlar... Shundaq qila-qila Chingizxon avlodidin har yurtda o'tgan podshohlarning otlarig'a ba'zilarig'a o'n tarix, ba'zilarig'a yigirma tarix va ba'zilariga o'ttiz tarix aytib tuturlar. Eron birla Turonda o'tgan Chingizxon o'g'lonlarining otlarina aytilg'an tarixlardan ushbu zamon faqirning oldinda o'n sakkiz mujallad hozir turur» [4.11].

Abulg'ozixon, umuman, sharqda tarixiy asarlarning ko'p yozilganligiga ham e'tibor qaratadi va buni «Odam zamonidin beri to bu damg'acha ul choqli tarixlar aytilg'an tururkim, hisobini Tangri bilur», – deya mubolag'ali bir tarzda ifodalaydi [4].

Yuqorida tilga olingan mintaqalarda turkiy sulolalar hukmronlik qilgan davr tarixnavislik taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutishi va aynan shu asrlarda tarix fani ravnaq topgani diqqatga sazovordir. Xususan, Temuriylar hukmronligi yillarida tarixiy nasr misli ko'rilmagan darajada yuksaldi. Mazkur davrda yaratilgan manbalarning ko'pligi, ahamiyati, dunyoning turli mintaqalarida keng tarqalgani, ularni to'plash va ilmiy o'rganish zarurati bir qator tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilganligi buning yaqqol dalilidir [5,199].

Temuriy hukmdorlarning topshiriqlari, tashabbuslari, rag'batlantirishlari, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari tufayli dunyo yuzini ko'rgan bu asarlarning katta qismi shunchaki manbalar emas, tarixiy nasrning klassik namunalari edi. Sulolaning ayrim vakillari esa bevosita o'zlari, o'z ijodlari bilan bu sohaga hissa qo'shdilar. Mirzo Ulug'bek «To'rt ulus tarixi»ni yozdi. Buyuk shoir, shoh va adib Zahiriddin Muhammad Bobur tarixiy, memuar, avtobiografik va badiiy nasr xususiyatlarini o'zida birlashtirgan tarixiy adabiy obida – «Boburnoma»ni yaratdi va o'zbek nasrini yuksak cho'qqiga olib chiqdi.

Tarixiy nasrning uzoq asrlik taraqqiyoti davomida sharqda ko'plab yozma obidalar paydo bo'ldi. Ular turli davrlar va sharoitlarda, har xil shaxslar tomonidan yozilgan bo'lib, o'z tamoyillari, maqsad va vazifalariga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi turli tipdagi asarlar edi. Tarixiy nasrning boshqalardan oldinroq yuzaga kelgan va keyinchalik ham yaratilishi davom etgan turi - bu umumiy tarix tipidagi asarlardir. Davriy va geografik qamrovining kengligi, asar asosida teologik tamoyillarning yotishi ularga xos asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Yozma tarixiy yodgorliklarning boshqa bir guruhini u yoki bu hukmdorning yoxud tarixiy shaxsning faoliyatini yoritib berishga qaratilgan tarixiy hamda tarixiy-biografik asarlar tashkil etadi. Bundan tashqari tarixiy nasr namunalari hududiy (biron bir viloyat, mintaqa, shahar tarixiga bag'ishlangan), sulolaviy (u yoki bu sulola tarixini bayon qiluvchi), tabaqaviy tamoyillar asosida ham yaratilgan.

Tarix asarlari turli ijtimoiy guruhlariga mansub mualliflar tomonidan yozilgan va tabiiyki, ularda muallifning jamiyatdagi mavqei, hayotiy pozitsiyasi, qarashlari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar ham yuzaga kelgan. X.A.R. Gibb arab tarixnavisligini tadqiq etar ekan, unda tarixiy asarlar, asosan, ikki guruh – olimlar va saroy amaldorlari tomonidan yaratilganini va bunda siyosiy tarixni yozish ikkinchi guruh qo'liga o'tib qolganini qayd etadi [1.137]. Uning fikricha, bu hol tarixiy nasr namunalari mazmuni, g'oyasi va shakliga ta'sir ko'rsatgan va ularda

muallif mansub bo'lgan sinfning biryoqlama ijtimoiy, siyosiy, diniy qarashlarining ustunlik qilishiga olib kelgan. Ushbu mualliflarning asosiy diqqat-e'tibori hukmdorlar faoliyatini, saroy hayotini yoritishga qaratilgan edi. Ayni paytda Gibb saroy munshiylari tomonidan yozilgan asarlarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ular rasmiy hujjatlardan, shuningdek, saroy doirasiga mansub kishilardan olinganligini ham ta'kidlab o'tadi [1.137]. Ingliz olimining tarixiy asarlarda muallif shaxsi, uning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligining ahamiyatga ega ekanligi haqidagi mulohazalariga to'la qo'shilish mumkin.

Tarixiy nasrning yuzaga kelishi va rivojlanishi, adiblarning tarix fani, uning ahamiyati, maqsad va vazifalarini qanday anglaganliklari, tarixiy asar yozish tajribasiga oid yuqorida bayon qilingan fikrlar shundan dalolat beradiki, sharq tarixnavisligi o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, o'ziga xos tajriba va an'analar asosida rivojlangan. Turkiy tilda yaratilgan tarixiy nasrning hozir bizga ma'lum, qo'limizda mavjud bo'lgan ilk namunalari buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy qalamiga mansub «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo» asarlaridir.

Shuni ta'kidlash joizki, tarixiy nasrimizning vujudga kelishi va rivojlanishini o'zbek adabiyotining taraqqiyotidan ajratib olib qarab bo'lmaydi. Shu ma'noda Alisher Navoiyning tarixiy asarlarining yaratilishi ham XV asrda o'zbek adabiyotida yuz bergan yuksalish, xususan, o'zbek nasridagi jonlanish, uning taraqqiy topishi bilan bog'liq bo'lib, ana shu jarayon tomonidan taqozo etilgan edi.

XV asrda o'zbek nasri bir qator asarlar bilan boyidi. Yusuf Amiriyning «Bang va chog'ir arosinda munozara», Yaqiniyning «O'q va yoy arosinda munozara», Husayn Boyqaro «Risola»si, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Pahlavon Mahmud», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat», «Vaqfiya», «Muhokamat ul -lug'atayn», «Mezon ul-avzon» kabi asarlari mana shu davrning mahsuli bo'lib, o'zbek nasrining rivojlanish va yuksalish darajasini belgilovchi, uning yutuqlarini o'zida namoyish etuvchi adabiy, tarixiy obidalaridir. Xususan, «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam» asarlarining yaratilishi o'zgacha bir ahamiyatga molik hodisa edi, zero, bu hol o'zbek tilida tarixiy nasr yuzaga kelayotganligidan dalolat berardi. O'zining mazkur asarlari bilan Navoiy o'zbek tarixiy nasriga asos soldi va uning keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun poydevor yaratib berdi.

Shu o'rinda bir fikrni ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Yuqoridagi so'zlardan Navoiyga qadar turkiy tilda tarixiy asarlar yozilmagan, degan xulosa chiqmaydi. Bunday asarlar yozilgan, lekin, afsuski, saqlanib qolmagan va bizgacha yetib kelmagan. Navoiyga ham ular ma'lum bo'lmagan. Biz Navoiyga qadar ham turkiy tilda tarixiy asarlar yaratilganini faqat ayrim faktlar orqali bilamiz. Ayrim dalillar turkiy tilda yozilgan tarix kitoblari Temuriylar davridan ancha oldingi zamonda ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan, tadqiqotchilar Abu Bakr ibn Oybek at-Davdariyning 1309-yilda yozilgan tarixiy asaridagi bir ma'lumotga e'tibor qaratganlar. Unga ko'ra, Abu Muslim Xurosoniyning kutubxonasida o'g'uzlar tarixiga oid bir kitob mavjud bo'lgan va unda kitobning turkiy tildan tarjima qilinganligi qayd etilgan ekan. Bunday kitoblar Navoiyga yaqin davrda ham yaratilgan. Ayrim manbalarda xabar qilinishicha, Safiuddin Xuttaloni degan muallif Amir Temurga bag'ishlab turkiy tilda asar yozgan. H.A.R. Gibb o'z kitobida amir Temur haqida turkiy tilda yozilgan "Ta'rix xoniy" degan asarni tilga oladi. Lekin bu nasriy emas, she'riy asar bo'lgan. U bizga hozirga qadar ma'lum emas. Nizomiddin Shomiy o'z «Zafarnoma»sini yozishda turkiy manbalardan foydalanganini qayd etgan. Xuddi shunday e'tirof Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari muqaddimasida ham mavjud. Yazdiy o'zi foydalangan turkiy asarlarni «Sohibqiron haqidagi hikoyalar» deb ataydi. Ularni ko'rib chiqish va «Zafarnoma»da foydalanish uchun ajratib olish maqsadida maxsus guruh tuzilgan. Bundan ularning katta hajmda ekanligi anglashiladi. Afsuski, bu hikoyatlarning keyingi taqdiri ma'lum emas. Nima bo'lganda ham turkiy tildagi tarixiy asarlarning hozir qo'limizda mavjud ilk va o'z davrida ham ma'lum bo'lgan hamda e'tirof etilgan namunalari «Tarixi anbiyo va hukamo» va «Tarixi muluki Ajam» asarlari bo'lib, shu ma'noda biz Alisher Navoiyni tarixiy nasrimizning ham asoschisi deb ayta olamiz.

Alisher Navoiy o'zbek tili va adabiyotini, shu jumladan, o'zbek nasrini har tomonlama rivojlantirish vazifasini o'z oldiga qo'yar ekan, bunda birinchi navbatda sharq adabiyotida mavjud bo'lgan barcha nasr turlarida ijod qilish va o'zbek tilida ularning yuksak namunalarni yaratishga intildi. Adibning ona tilida insholar yozib, "Munshaot" tuzgani, tazkiralar yaratgani, ilmiy risolalar yozgani buning yaqqol dalilidir. Shular qatorida u o'zbek tilida tarixiy asarlar ham bitib, o'zbek tarixiy nasrini yuksaltirdi. Bu o'rinda Navoiyning buyuk mutafakkir, davlat arbobi sifatida tarix ilmining ahamiyatini yaxshi tushungani, binobarin, u tarixni, tarixiy bilimlarni xalqqa yetkazish, xususan, arab va fors tillarini

bilmaydigan aholining tarixiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish zaruratini chuqur his etgani ham muayyan rol o‘ynaganini e’tirof etish zarur. Yuqoridagilardan tashqari shoirning ijodiy faoliyati, jumladan, “Xamsa”ning yaratilishi bilan bog‘liq jarayonlar xam unda tarix faniga, tarixiy bilimlarga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni oshirgan. Ma’lumki, Navoiy o‘ziga qadar yaratilgan “Xamsa”larni, mulliflarning tajribalarini, dostonlarning tarixiy asoslarini, syujetlarning tarixiy ildizlarini sinchiklab o‘rgangan. Mana shu jarayonda u tarixiy manbalarga murojaat qilgan, ko‘plab tarixiy asarlarni ko‘rib chiqqan, tarixiy bilimlarni o‘zlashtirgan, tarix kitoblaridagi ixtiloflarni, qusurlarni ham ko‘rgan hamda ularning sabablarini anglab yetishga harakat qilgan. Bu haqda “Saddi Iskandariy”ning XI bobida shoir shunday yozadi:

*Ko‘p ettim tavorix o‘qur sori mayl,
Hamonoki bor erdilar to‘rt xayl.*

*Ki, tarix tahririni etgan raqam,
Bitibdur alarni muluki Ajam.*

*Agarchi ko‘p o‘lmishdurur ixtilof,
Ki, bor ixtilof aylaganlar maof.*

*Ki solmishdur imtidodi zamon,
Havodiski, om aylamish osmon.*

*Tavorix vaz‘ig‘a behad futur,
Ki andin bu fan ichra bo‘lmish qusur.*

Bularning barchasi adibning keyinchalik tarixiy nasrga qo‘l urishiga, tarixiy asarlar yaratishiga zamin bo‘lib xizmat qilgani shubhasizdir.

“Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo”da sharq nasri an’analarining ta’siri ham, Navoiyning novatorligi ham namoyon bo‘ladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu ikki asar aslida Navoiy yaratmoqchi bo‘lgan ulkan bir tarixiy asarning fragmentlari, to‘g‘rirog‘i, muqaddima qismidir, ya’ni Navoiy qandaydir sabablarga ko‘ra o‘z ijodiy niyatini to‘liq amalga oshira olmagan. Tarixiy asarlarga bunday muqaddimalar yozish o‘rta asr sharq tarixnavisligida Navoiyga qadar shakllangan an’ana bo‘lib, bunda so‘z avvali ofarinishdan va payg‘ambarlar tarixidan boshlanadi. Hozirgi zamon o‘quvchisi yoki tadqiqotchisi nazarida bu bir

muncha nomaqbul bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin masalaga kengroq yondashib, chuqur va har tomonlama mulohaza qilinganda bu o'rinda muayyan bir mantiq borligi ayon bo'ladi, zero tarix fani faqat o'tmishda yuz bergan voqea va kechmishlarnigina emas, balki tamaddun tarixini, insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyatini ham o'rganishga da'vat etilgandir. Din esa ma'naviy madaniyatning bir shakli hamda ajralmas uzviy qismi hisoblanadi. Qolaversa, o'rta asr tarixchilirining imkoniyatlari ham shuni taqozo etgan. Eng qadimgi davrlarni ham qamrab oluvchi tarixiy asar yaratishni niyat qilgan o'rta asr muallifi, eng avvalo, diniy manbalarga, muqaddas kitoblarga murojaat qilar edi, zero, bu mavzuga doir, olamning ibtidosi xususida ma'lumot beruvchi boshqa manbalar bo'lmagan. Tabiiyki, bu hol insoniyat tarixining eng qadimgi davrini yuqorida aytib o'tilgan manbalar asosida talqin qilinishiga olib kelgan hamda bu talqin hajman ancha katta, hatto alohida asar sifatida qaralishi mumkin bo'lgan muqaddimalarda o'z aksini topgan. Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining muallif yaratmoqchi bo'lgan ulkan, keng qamrovli tarixiy asarga muqaddima sifatida yozilgani uni payg'ambarlar haqidagi boshqa qissalardan farqlab turuvchi qator xususiyatlarni yuzaga keltirgan. O'z navbatida "Tarixi muluki Ajam" ham o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. Har ikki asar ham yuqorida aytib o'tilganidek, o'zbek tilidagi tarixiy nasrning bizga ma'lum bo'lgan ilk namunalari ekanligi bilan bir qatorda Sharq nasrining, o'rta asrlar tarixnavisligining o'ziga xos qimmatli namunalari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ҳ.А.Р. Гибб.Арабская литература. М., 1960.
2. Марк Блок. Апология истории. Москва, «Наука», 1986.
3. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Тошкент. – 2010. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамова таржимаси.
4. Абулғозий. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Маҳмудов. - Т., Чўлпон. - 1992.
5. В.В.Бартольд. Сочинения. Т. 2. Ч.2. Мир Али Шир и политическая жизнь. – М., 1964.

AMIRIYNING ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIGA BOG‘LAGAN TAXMISLARI

Zebo QOBILOVA,
Qo‘qon DPI professori,
filologiya fanlari doktori (O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Amiriyning Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan taxmislariga xos xususiyatlar haqida so‘z boradi. Shuning barobarida kuzatish va tahlillardan kelib chiqib, xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, adabiy ta‘sir, muxammas, taxmis, an‘ana, novatorlik, badiiy til, uslub, poetika.

Аннотация

В статье говорится об особенностях предположений Амири, приписываемых газелям Алишера Навои. Представлены выводы из наблюдений и анализов.

Ключевые слова: литературная среда, литературное влияние, значимость, допущение, традиция, новаторство, художественный язык, стиль, поэтика.

Abstract

The article talks about the characteristics of Amiri's assumptions attributed to Alisher Navoi's ghazals. Conclusions from observations and analyzes are presented.

Key words: literary environment, literary influence, significance, assumption, tradition, innovation, artistic language, style, poetics.

O‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga mislsiz hissa qo‘shgan shoh va shoir, ilm va adabiyot homiysi, o‘z mamlakatidagi tinchlik va barqarorlikning kafili, ajoyib shaxs – Umarxon Amiriyning ijodini har tomonlama o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridan. Negaki, XIX asrda mumtoz adabiyotimizda ikkinchi yuksalish davri, Vadud Mahmud ta‘biri bilan aytganda, “ikkinchi oltin davr”ni boshlab bergan va yetakchilik qilgan Amiriyning ijodiy laboratoriyasini o‘rganish, ta‘sirlanish va ta‘sir ko‘rsatish, an‘ana va novatorlik, til va uslubdagi yangiliklar kabi masalalarni tadqiq etish uning davri adabiy muhiti haqida aniq tasavvur paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Qo‘qon adabiy muhitida eng ko‘p nazira bog‘lanadigan, ilhomlanish va tatabbu‘ga sabab

bo‘lgan asosiy manba – bu Amiriy g‘azallari hisoblanadi. Zamon shohining g‘azallari payravligida shohona g‘azallar yaratish davr adabiy muhiti shoirlari uchun sevimli mashg‘ulotga aylangan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, Amiriy g‘azallari sof adabiy mezonlar asosida tekshirilganda ham, moziydagi she’riyatning eng sara namunalaridan bo‘lib qolaveradi. Agar Amiriy she’rlari badiiy jihatdan yuksak, ma’naviy olami rangorang, fashohat bobida o‘rnak olsa arziydigan she’rlar bo‘lmaganida, Fazliy, Sho‘xiy, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy kabi katta iste’dod sohiblari unga izdoshlik qilmasdilar.

Amiriy – zullisonayn shoir. O‘z davrining munavvarfikrlari kabi u Malikulkalom Lutfiy, Mir Alisher Navoiy, Mavlono Fuzuliy bilan bir qatorda Xo‘ja hofiz Sheroziy, Soib Tabriziy, Mirzo Bedil kabi fors adabiyotining yetuk namoyandalari asarlaridan ilhomlandi, ularning ijodiy tajribalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirdi, payravligida yangi asarlar yaratishga erishdi. Amiriyga boshqa salaflarining ta’sirini o‘z o‘rnida e’tirof etgan holda, aytish kerakki, she’riyat bobida uning asosiy ustozlari va ma’naviy piri – bu Alisher Navoiy hazratlari hisoblanadi. Nafaqat Amiriyning o‘zi, balki “Qo‘qon xoni Umarxon tegrasida yig‘ilgan shoirlarning hammalari Navoiyning sodiq shogirdlari bo‘lib qoldilar” [1, 175]. Shoir Dilshod ham “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) asarida Qo‘qon adabiy muhiti namoyanlari xususida fikr yuritarkan, “Ijod yo‘lida aksar tab’ egalari buyuk amir va adabiyot shohi Navoiy g‘azallarini o‘rgandilar” [2, 85], – deb ma’lumot bergan edi.

“Sharq adabiyotida Bobosulton Navoiy, Mullo Shamsiddin Muhammad Navoiy, Mir Muhammad Sharif Navoiy, Baqoiy – Navoiy, kabi Navoiylar o‘tgan, biroq har qaysisi o‘zicha Navoiy bo‘lgan, va birortasi ham Alisher Navoiy bo‘la olmagan” [3, 79]. She’riyat sultoni Alisher Navoiy yaratgan “shavqangiz va muhabbatomiz” g‘azallar, ulardagi takrorlanmas va jarangdor qofiyalar, go‘zal ifodalar Amiriyning diqqatini o‘ziga tortgan edi. Amiriyning o‘zi g‘azallarida bu haqda bir necha marta faxr va ehtirom ila bu holatni qayd qilib o‘tadi. Jumladan, o‘z asarlarini Navoiy g‘azallariga nisbatan shunchaki bir qoralama ekanligini: “Bu g‘azalni zeri mashqidur Navoiy daftari” [4, 336] misrasi orqali kamtarlik bilan ifoda etadi.

“Zermashq” o‘laroq vujudga keladigan muxammaslarga nazar soladigan bo‘lsak, bunda ham Navoiy g‘azallariga bog‘langan taxmislari Amiriy devonida yetakchi o‘rin tutganiga guvoh bo‘lamiz. Turkiy muxammaslaridan 24 tasi aynan Navoiy g‘azallariga bog‘langanining o‘zi

Amiriyning “cherik chekmay Xitodan to Xuroson”ni qalami bilan fath etgan Navoiy she’riyatiga muhabbatini ko’rsatadi.

Amiriyning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan taxmislarining umumiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Amiriy taxmis bog‘laganning yarmidan ko‘pi – 13 tasi muraddaf (radifli) g‘azallar hisoblanadi. Radifli g‘azalga taxmis bog‘lash alohida mahorat talab qiladi. Mantiqiy urg‘uni takror bo‘lib keladigan bir so‘z yo bir iboraga yo‘naltirish, radif bo‘lib kelgan so‘zning turli ma‘no-mazmun tovlanishlarini besh misrada ochib berish, eng muhimi – tugal ma‘noni ifoda etgan bir baytni yangi mazmun-mohiyat bilan boyitib borish hammaning qo‘lidan kelaveradigan ish emas. Amiriy bu yumush naqadar mashaqqatli ekanligini bilgan holda jur‘at bilan ustozining g‘azalini beshlashtirishga kirishadi va buni muvaffaqiyat bilan uddalaydi.

2. Muraddaf g‘azallardan tashqari, muxammaslar tarkibida radiflangan alohida bandlar ham juda ko‘p uchraydi. Masalan, “Ko‘nglum o‘rtansun, agar g‘ayringga parvo aylasa” misrasi bilan boshlanadigan g‘azalga bog‘langana muxammasning 10 bandidan 7 bandi (“aylasa”, “o‘lay”, “chiqsun ko‘zum”, “o‘lsun tilim”, “bir shu‘ladur”, “mug‘bacha”, bo‘lma nechakim”) radifli shaklda keltiriladiki, bu ham Amiriyning she’r texnikasini naqadar puxta o‘zlashtirganidan guvohlik beradi. Bu holatni biz deyarli barcha muxammaslarda uchratamiz. Navoiyga bog‘langan muxammaslardan faqat “Yo‘q damekim furqati jonimg‘a bedod aylamas” hamda “Masihodin labing afsah, quyoshdin orazing ahsan” misrasi bilan boshlanadigan g‘azallarda radiflangan bandlar uchramaydi.

3. Qofiya tizimida ham Amiriy Navoiyga izdoshlik qiladi. Misraning qofiyasini ta‘minlovchi so‘z etimologik jihatdan qaysi tilning leksik qatlamiga mansub bo‘lsa, Amiriy aynan o‘sha qatlamdagi so‘zlarni qofiya sifatida keltirishni ma‘qul ko‘radi. Masalan, Amiriy turkiy devonidagi “Tushti savdolar boshimg‘a, xattu xolingni ko‘rub” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasining uchinchi bandida Navoiy qo‘llangan “quyosh” so‘ziga “yosh”, “qosh”, “bosh” kabi sof turkiy so‘zlar qofiya vazifalarini bajargan bo‘lsa, beshinchi bandeda Navoiy qo‘llagan “takallum” so‘ziga arabcha qofiya tizimini qo‘llashni muvofiq deb bilgan:

Moni’ o‘ldi yoshima, vasling tarahhum ayladi,

Shomi hijrondin quyoshdek raf‘i anjum ayladi,

Gah itobu noz aylab, gah tabassum ayladi,

Nargising afsun, gulbarging takallum ayladi,

Aqli kul topti firib, ul makri oliyni ko'rub.

4. Navoiy g'azallari mavzu jihatdan juda rang barang. Ammo Amiriy faqat oshiqona g'azallarga taxmis bog'lashni ma'qul ko'radi. Uning muxammaslarida hasbi hol, orifona, hamd va na't mavzularidagi she'rlarni ko'rmaymiz. Bu ham Amiriyning ijodga munosabatini bildiruvchi jihatlardan biri hisoblanadi. Negaki, Navoiyning o'z davri malikulkalomi – Mavlono Lutfiy g'azallariga bog'langan taxmislariga nazar soladigan bo'lsak, Navoiy aynan hamd va na't mavzusidagi g'azallarga murojaat qilganini ko'ramiz. Bu bilan Navoiy Lutfiyni shunchaki bir shoir emas, balki taqvoli, valiysifat bir ulug' inson ekanligini eslatmoqchi bo'lgandek tuyuladi. Bu farazimizga “Nasoyim ul-muhabbat”da 770 avliyo sirasida Mavlono Lutfiyni ham zikr etgani qo'shimcha dalil bo'lib xizmat qiladi. Amiriy esa, Navoiy siymosida eng avvalo shoirni ko'rardi. Uning go'zal she'rlaridan zavqlanardi, shoirlik dahosiga ta'zim va ehtirom holatda turib, shu zavqni boshqalarga ham muxammaslari orqali ulashgisi kelardi.

5. Taxmislar 5 banddan 11 bandgacha tuzilgan. Amiriy imkon boricha g'azalni to'liq beshlashtirish yo'lidan borgan. Barcha baytlarga taxmis bog'lash bir tomondan muxammas bog'lovchining shoirlik mahoratini belgilasa, ikkinchi tomondan, taxmis bog'lanayotgan g'azal to'liq holda kelajak avlodga etkazishning muhim vositasi hisoblanadi.

6. Amiriy taxmis bog'lash jarayonida Navoiy qo'llagan obraz va timsollar hamda leksik qatlamdan foydalanishga harakat qiladi. Agar Fuzuliyga bog'lagan taxmislarida o'g'uzcha sheva elementlari (“cho'x”, “qamu”, “santak”, “o'landan so'r”) qo'llanilgan bo'lsa, Navoiy g'azallariga bog'langan taxmisalarda sof o'zbekcha so'zlar va iboralar qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz.

7. Badiiy san'at qo'llashda ham Amiriy Navoiyga to'laqonli izdoshlik qilgani, Navoiy qo'llagan lafziy va ma'naviy san'atlarni yangi imkoniyatlarini namoyon etgani ham Navoiyning bu shogirdi she'riyat bobida ko'zga namoyon muvaffaqiyatlarga erishganiga yana bir dalildir. Masalan, “Qasrning har kunguri uzra balo toshimudur?” misrasi bilan boshlanadigan g'azalda tajohuli orif san'atining yangi-yangi qirralari namoyon bo'lgan bo'lsa, “Bahor ayyomi keldi, o'ldi olam tozau xurram” misrasi bilan boshlanadigan muxammas to'liq ichki saj' asosida yaratilganiga guvoh bo'lamiz:

Uzori bodadin gulgun, yuz uza kokuli sunbul,

Falakni atlasini ul gul samandi uzra bo'lsun jul,

Dedim: “Har yon ne chindur bul?” Dedi: “Ul turrai kokul”,

Qo'rib ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin g'ulg'ul.

Albatta, bir maqola hajmida barcha taxmislarning ma'no-mohiyati, badiiy olami, o'ziga xosligini qamrab olish mushkul. Ammo mana shu birlamchi xulosalar ham Amiriyning o'ziga xos dilbar shoir ekanligi, Navoiyni to'liq anglagan, ma'rifat aylagan, his etgan holda unga ergashganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild (Nashrga tayyorlovchi H. Boltaboyev). - T.: Ma'naviyat, 2006. - 112 b.
2. Dilshod. Tarixi muhojiron / Dilshod. Anbar otin. O'zbek shoiralari bayozi (Tuzuvchi M. Qodirova). - Toshkent: Fan, 1994. – 85 b.
3. V. Abdullayev. Navoiy va Samarqand shoirlari. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. Toshkent, 1968. 79 b.
4. Amiriy. Devon. Ikki jildlik. 1-jild. O'zbekcha she'rlar. – Toshkent: Tamaddun, 2017. – 336 b.
5. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami 10 jildlik / Nashrga tayyorlovchilar : H. Sulaymon, I. Haqqul; Mas'ul muharrir S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2011. – J.1: G'aroyib us-sig'ar. – 804 b
6. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami 10 jildlik / Nashrga tayyorlovchilar : H. Sulaymon, I. Haqqul; Mas'ul muharrir S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2011. – J.2 : Navodir ush-shabob. – 772 b.
7. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami 10 jildlik / Nashrga tayyorlovchilar : H. Sulaymon, S. Rafiddinov; Mas'ul muharrir I Haqqul. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2011. – J.3. Badoe' ul-vasat. – 764 b.
8. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami 10 jildlik / Nashrga tayyorlovchilar : H. Sulaymon, I Haqqul; Mas'ul muharrir S. Rafiddinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2011. – J.4. Favoyid ul-kibar. – 764 b.
9. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1990. – 101 b.

QO‘QON ADABIY MUHITIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK

Baxtiyor FAYZULLOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
akademik Bobojon G‘afurov nomidagi Xo‘jand
davlat universiteti (Tojikiston)
b.fayz.1961@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada Qo‘qon adabiy muhitidagi tatabbunavislik taraqqiyoti xususida fikr yuritilgan.

Tayanch sez va iboralar: an‘ana, ta‘sir, mahorat, g‘azal, tatabbu, talqin, vazn, qofiya, radif.

Аннотация

В статье рассматривается развитие татаббунавизма в Кокандской литературной среде.

Ключевые слова: традиция, влияние, своеобразие, талант, газель, татаббу, сравнение, размер, рифма, редиф.

Abstract

The article discusses the development of tatabbunavism in the Kokand literary environment.

Key words: tradition, follower, influence originality skill, ghazal, tatabbu, vazn, rhyme, radif, interpretation, emulate, comparative analysis.

An‘anaviylik badiiy adabiyotning muhim belgilaridan biridir. Chunki adabiyot taraqqiyotining o‘zak nuqtalaridan birini an‘analar tashkil etadi. Bu hol mumtoz adabiyotda, ayniqsa, ravshan ko‘zga tashlanadi. Buni birgina tatabbunavislik an‘analarida ham ko‘rish mumkin. Tatabbunavislik butun Sharq mumtoz adabiyotida, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida, ayniqsa, Qo‘qon adabiy muhitida ham chuqur tomir otgan bo‘lib, mustahkam va boy an‘analarga ega ekanligi ko‘zga tashlanadi.

XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti eng katta va jo‘shqin adabiy jarayon sifatida shakllandi hamda faoliyat ko‘rsatdi. Undagi rang-barang ijodiy faoliyat jarayonining markazida tatabbunavislik turgani va u o‘zbek mumtoz she‘riyatiga katta mahsul bergani hamda adabiyotimiz taraqqiyotidagi muhim ulush qo‘shgani g‘oyat ahamiyatlidir. Bu davr adabiy jarayonida salaflar she‘riyatiga tatabbunavislik uch yo‘nalishda

rivojlandi. Uning birinchisi, o‘zbek mumtoz shoirlari, xususan, Navoiy, Bobur va Huvaydo she‘rlariga tatabbu bog‘lash. Ikkinchisi, fors-tojik shoirlari, xususan, Hofiz, Jomiy va Bedil she‘rlariga tatabbunavislik. Uchinchisi, ozarbayjon shoiri Fuzuliy she‘riyatiga tatabbu bog‘lash shaklida rivoju ravnaq topdi. Bu uch yo‘nalishdagi tatabbunavislik Qo‘qon adabiy muhitida ham, shuningdek, Xiva va Buxoro adabiy muhitlarida ham izchil davom ettirildi. Biroq alohida qayd etish lozimki, bu davrda ham barcha adabiy muhitlarda Alisher Navoiy ijodiga, xususan, uning g‘azallariga tatabbu bog‘lash g‘oyatda faol bo‘ldi. Buni barcha shoirlar va hatto shoirlar ijodida ham yaqqol kuzatish mumkin. Shulardan biri, bu davrda faol ijod etgan, hatto shoira Mohlaroyim Nodiraga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiydir.

Uvaysiy ijodida Navoiy, Fuzuliy va Mashrab an‘analari izchil davom ettirildi. Ayniqsa shoira Uvaysiy ijodida Navoiy she‘rlariga tatabbu va taxmislari salmoqli o‘ringa ega. Shoiraning “Gila”, “Kokuling”, “Tushdi o‘t”, “Isi” singari tatabbulari Navoiy g‘azallariga bog‘langan bo‘lib, ularda Uvaysiy Navoiyning mazmun hamda shaklga doir an‘analarini ijodiylik bilan rivojlantirgan. Chunonchi, shoiraning “Isi” radifli tatabbusida Navoiyning shu radifda yozilgan g‘azalidagi mavzu, vazn, qofiya va obrazga doir an‘analar rivojlantirilgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Navoiy g‘azali ramali musammani mahzuf vaznida bo‘lib, muhabbat mavzuidadir. Uvaysiy tatabbusi ham Navoiy g‘azali vaznida va o‘sha mavzuda bitilgan. Tatabbuda Navoiy g‘azalidagi qofiyaga ohangdoshlik ham mavjud. Uvaysiy o‘z tatabbusida hatto Navoiy she‘ridagi *rayhon* va *Kan‘on* singari qofiya so‘zlarni takroran qo‘llaydi. Biroq shoira ularga yangi ma‘no yuklaydi. Voqean, Navoiy lirik qahramoni hijronda jonsiz holatga kelgan paytda, ma‘shuqaning yuz va labi ustidagi xat-mayin tuklardan esgan nasim unga yangidan jon bag‘ishlar ekan, endi u gul va rayhon isini rad etsa, Uvaysiy lirik qahramonini esa sahar payti rayhon isi uyg‘otadi. Zero, unda yor isi jilva qilardi. Yoki Navoiy lirik qahramoni yor hajrida yig‘layverib ko‘zdan ajralgach, gulning o‘zi va isidan bahra olib, ko‘zi ochiladi. Shoir tasviricha, bu narsa farzandi Yusuf hajrida yig‘layverib, ko‘zidan ajralgan Ya‘qub payg‘ambarning Kan‘onga yuborilgan ko‘ylakni ko‘ziga surtgach va undan o‘g‘li isini tuygach ko‘zlari ochilganga o‘xshaydi.

Shu tarzda Navoiy faol badiiy san‘atlardan tashbih va talmehdan foydalanib qo‘llagan adabiy timsollarining yangi qirralarini ochsa, Uvaysiy ham Navoiy fikrlarini takrorlamagan holda an‘anaviy timsollarga

yangi ma'nolar yuklab, mavzuning chuqur ochilishida ulardan mohirlik bilan foydalanadi.

Qayd etish lozimki, garchi Navoiy she'rida ham, Uvaysiy tatabbusida ham muhabbat mavzusi tasvirga tortilgan bo'lsa-da, ularda farq bor. Navoiy she'ridagi muhabbat tasvirida so'fiyona mazmun kuchli. Uvaysiy tatabbusida esa dunyoviy muhabbat tasviriga ko'proq urg'u berilganligi ma'lum bo'ladi.

Shoira lirik qahramon ishq, hijron azoblari, vasl lazzati va undan keyingi mashaqqatlarni tazod san'ati orqali hayotiy tasvirlashga harakat qiladi. Shoir talqinicha, vasl bor joyda, hijron bor. Axir tabassumdan keyin ko'z yoshi keladiku! Biroq har qanday holatda ham ishq yuksakdir. Ishq oshiqni ma'shuq, ma'shuqni oshiq qilishi mumkin. She'r lirik qahramoni ayol. Lekin ishq uni Majnun qilgan. Ishq tufayli u ham Zulayho holiga tushgan. O'ngida ko'rolmagan sevgilisi va hatto uning iforiga tushida yetishni orzu qiladi. Ishq azoblaridan bemor holga kelgan lirik qahramon ishqning o'zidan davo istaydi. Bu davo esa visoldandir. Lirik qahramon uchun visol Luqmoni hakimdir. Xayriyatki, uning isi yetishyapti:

*Yusufi soniy firoqidin ne tong topsam xabar,
Uyqu ichra chun Zulayhoga etib Kan'on isi.
Za'fedi jismim muhabbat ranjidan bir necha kun,
Shukrilillah, keldi tandin ushbu dam Luqmon isi [4.84].*

Shoira har ikkala baytda ham talmeh san'atini qo'llab, lirik qahramonning ishqiy kechinmalarini yorqin aks ettirishga erisha olgan. Shoira talqinicha, ishq qudratli kuchga ega. Buni shoira "Kerakmazmi sango?" radifli ikkita tatabbusida ham mahorat bilan chizgan. Ular Fuzuliyning shu radifdagi g'azaliga bog'langan bo'lib, mazmunan biri ikkinchisini to'ldiradi. Uvaysiyning "Kokuling", "Tushti o't" singari Navoiy g'azallariga bog'lagan tatabbularida ham ishqning ana shunday so'fiyona badiiy talqinlarini ko'rish mumkin.

Shuningdek, bu davr she'riyatida Muqimiy ham Navoiy she'riga javobiya tarzida "Bor" radifli tatabbu yozgan. Ammo u Navoiyning boshqa she'riga, aniqrog'i, "Badoye' ul-vasat" devonidagi 145- raqamli g'azalga tatabbudir [5.151]. Unda Navoiy she'ridagi vazn – ramali musammani maqsur, radif, mavzu va qofiya hamohangligi saqlangan. Muqimiy hatto Navoiy qo'llagan uchta qofiya - *ori, nori va zunnori* so'zlarini aynan takrorlagan. Navoiy she'ri o'z gulruxsoriga ega bo'lgan oshiq endi har qanday sarvu gul hamda bog' sayridan voz kechsa arzishini ta'kidlash bilan boshlanadi. Keyingi baytlarda bu fikrning turli qirralari ochilgan, so'nggi ikki baytda so'fiyona qarash olg'a suriladi. Ya'ni faqr

yo'lini tanlagan solik uchun bu dunyoga bog'liqlik og'irlik qiladi. Shu sababli barcha bog'lanishlardan uzilib, "Ul sori", ya'ni poklik manzilining shohi Haq sari bormoq lozim. Faqr yo'liga kirish uchun vobastalikdan uzilgach esa, tuproq kabi xoksorlikni ham egallash lozim bo'ladi. Ulug' shoir shu tarzda tasavvufning muhim nazariy masalasidan birini badiiy talqin qiladiki, shu bilan g'azal boshidagi ma'shuqning Haq, oshiqning esa solik ekanligi ma'lum bo'ladi. Muqimiy tatabbusi esa bunday emas. U dunyoviy mazmundagi she'r. Tatabbuda boshdan – oxir hayot mahbubasi, uning g'oyatda go'zalligi, shu sababli oshiq-larining ko'pligi va turli-tumanligi, kim agar shunday go'zalga erishsa, har qanday pariga ko'ngil qo'yishdan or etsa arzishi g'oyat ishonarli tarzda tasvirlangan. Lirik qahramon ham hayotiy shaxs. Uningcha, "Sham beparvona, gul bebulbulu bequmri sarv bo'lmas".

Shunday ekan, hayotdagi har bir inson ham xayoliy mahbubga emas, hayot go'zaliga ko'ngil qo'yib, u bilan bo'lgani ma'qul. Lirik qahramon ishq, oshiqlik va ma'shuqlikni ana shunday hayotiy tushunadi. Bunday tasvir ko'rinishi umuman Muqimiy ijodiga va, shuningdek, bu davr ijodkorlarining aksariyatiga xos edi.

Muqimiy tatabbusidagi ma'shuqa siymosi g'oyatda jonli tasvirlangan. U - go'zal, shu bilan birga, nihoyatda sho'x va hozirjavob hamdir. O'z oshig'i bilan emin - erkin gaplashadi. Uning oshiqona iltimoslariga hazil bilan ko'p ma'noli javob beradi. Uning o'zining tutishi, noz va so'zlari g'oyatda yoqimli va hayotiydir. U oshiqqa azob beruvchi, hijronda uni qiynovchi, ag'yorga iltifot qilib, haqiqiy oshig'ini g'amga duchor etuvchi an'anaviy ma'shuqa timsoliga o'xshamaydi. Aksincha, oshig'iga muhabbat bilan javob qaytaruvchi, sevilganidan shod, biroq yoqimli nozu karashmalar qilib, ham o'zi rohatlanuvchi, ham oshig'ini zavqlantiruvchi hayotiy go'zaldir. Shoir oshiq va ma'shuq uchrashuvi va munosabatining bir lahzasini shunday chizadi:

Bog'i vaslidin uzarga olma qilsang iltimos

Nozlar birla degaykim: -Olma yo'qtur, nori bor [6.185].

Baytda ma'shuqa bog'bon qiz sifatida chizilgandek taassurot qoldiradi. U o'z oshig'i bilan bog'da uchrashgan. Shoir "Bog'i vasl" iborasida ham uchrashuv joyini, ham yorning go'zal siymosini chizgan. Baytning ikkinchi misrasidagi "olma yo'qtur" iborasida iyhom, "nori bor" iborasida esa lutf san'ati qo'llangan. Olma yo'qtur iborasi avvalo, olma yo'q, ya'ni olma mevasi yo'q ma'nosida kelgan bo'lsa, soniyan, ol ma deyish yo'q, ya'ni yor visoliga yengilgina erishish yo'q, unga erishish yo'lida ham ko'p ranju mashaqqatlar mavjud ma'nosida berilgan. Nori bor

iborasi esa avvalo nari bor, ya'ni olma so'ragan oshiqqa yorning yo'q, bor ket degan munosabati ma'nosida bo'lsa, ikkinchidan, olma yo'q, ammo anor bor degan javobi tarzida ham berilgan. Oshiq va ma'shuqaning visol bog'idagi uchrashuvi, o'zaro samimiy va hazilga yo'g'rilgan munosabatlari g'oyatda hayotiy chizilgan. Biroq Muqimiy tatabbularining hammasi ham muvaffaqiyatli chiqqan deb bo'lmaydi. Masalan, shoirning "Ko'rmay" radifli tatabbusi haqida shunday deyish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, Muqimiy ijodida ham shakllanish davrining nisbatan xomroq namunalari bo'lishi tabiiy. Ammo shoirning Navoiy g'azallariga bog'langan "Bo edi", "Kim desun", Amiriy g'azaliga bog'langan "Qil" radifli va boshqa ko'plab tatabbulari ham borki ular mahorat bilan yaratilgan ijod namunalari deyish mumkin.

Bulardan ma'lum bo'ladiki, XIX asr birinchi yarmi she'riyati o'zbek, tojik va ozarbayjon mumtoz adabiyotlarining boy va yuksak badiiy an'analari asosida rivojlanganini ko'rsatadi. Muhimi shundaki, bu adabiy an'analar rivojida tatabbunavislik alohida o'rin tutadi. Chunki bu davrda tatabbunavislik boshqa davrlarga nisbatan g'oyat keng qirrali bo'ldi. Agar o'zbek she'riyatida Alisher Navoiy birinchi bo'lib tatabbunavislikni maxsus adabiy yo'nalish darajasiga ko'tarib, tatabbulardan devon tuzgan bo'lsa, undan keyin ham bu an'ana davom etdi. Voqean, XIX asr va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhitida tatabbunavislik adabiy yo'nalishi g'oyat keng rivojlandi. Shuning natijasida, 1821- yilda Qo'qonda Fazliy Namangoniy tomonidan tuzilgan "Majmuai shoiron" tazkirasi boshdan-oxir tatabbulardan iborat bo'ldi.

Agar XVII-XVIII asrlarda tazmin tatabbu, mazmunda pand-nasihat kuchli bo'lgan mav'iza tatabbular yozish keng tus olgan bo'lsa, XIX asr birinchi yarmi tatabbunavisligida so'z o'yinlari, she'riy san'atlar va, umuman, shakl unsurlari ustunlik qiluvchi masnu' tatabbular yozish avj oldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa, ma'noga e'tibor berish kuchayishi tufayli mazmun va shakl birligi aks etuvchi matbu' tatabbular yaratish ommalashdi.

Shunday qilib, XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari tatabbunavisligi jarayonida o'zbek she'riyati ham mazmunan, ham shaklan boyishida Alisher Navoiyning ijodi muhim adabiy manba bo'lib xizmat qildi. Natijada tatabbunavislik tufayli boshqa xalqlar adabiyotidagi badiiy-g'oyaviy yetuk asarlar bilan bellashadigan va hatto ko'p jihatdan ulardan ustunlik qiluvchi mumtoz asarlar paydo bo'ldi. She'riyatimiz, ayniqsa, g'azalchilik borasidagi tatabbunavislik yuksak muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu borada yaratilgan mumtoz lirik asarlar o'z davrida va keyingi davrlarda

ham badiiy ijodning yuksak namunalari sifatida e'tirof etilib, barcha zamonlarda ijodkorlar uchun adabiy ilhom manbai bo'lib qoldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Шодиев Э. Навоий татаббуъларига оид баъзи мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2 сон.
2. Навоий А. Лисонут тайр. (Насрий баёни билан) – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Нашриёт –матбаа бирлашмаси, 1991.
3. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърлятида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари (XVII- XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида). *Монография* - Тошкент: “Тамаддун”, 2021.
4. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983.
5. Навоий А. Хазойин ул – маоний. Учинчи девон. Бадоеъ ул - васат. -Тошкент: “ TAMADDUN ”, 2011.
6. Муқимий. Танланган асарлар. 2 томлик. 1 – том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960.
7. Абдуқодиров А. Навоийнинг татаббуънавислик маҳорати // Ўзбек адабиётшунослиги масалалари, 6 – китоб. – Хўжанд: Раҳим Жалилномидаги Давлат нашриёти, 1997.
8. Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 1-сон.
9. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. - Тошкент: Фан,1979.
10. Шарқ мумтоз поэтикаси. Биринчи китоб. – Тошкент: ЎСЭ, 2008.
11. Низомии Ганҷавӣ. Хамса. Махзану-л- асрор, Хусраву Ширин. Ҳайатҳои мушовара ва таҳририяи 50-чилдаи осори классикон ва муосирон аз силсилаи “ *Ахтарони адаб*”, 19. – Душанбе: “Адиб”, 2012.
12. Шайх Фаридуддин Аттор. Мантикут тайр (Қуш тили). Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол КАМОЛ таржимаси. - Тошкент: Фан, 2006.
13. Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут – тайр. Насрий баён. Форсийдан Нажмиддин Комилов ва Маҳкам Маҳмудов таржимаси.-Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006.
14. Навоий А. МАТ (Мукаммал асарлар тўплами) 20 томлик, 12 том. “Лисонут тайр” -Тошкент: Фан, 1996.

HUVAYDO IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI

Ergash OCHILOV,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: e-ochilov@mail.ru. Tel.: 99894-6204764

Annotatsiya

Maqolada Navoiy adabiy merosining Huvaydo ijodiga ta'siri izdosh shoirning buyuk salafi g'azallariga tatabbulari hamda turli janrdagi asarlaridan ilhomlanib yaratgan mushtarak baytu misralarining qiyosiy tahlili orqali ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Navoiy, Huvaydo, an'ana, adabiy ta'sir, tatabbu, mavzu, talqin, timsol, o'ziga xoslik, mahorat.

Аннотация

В статье показано влияние литературного наследия Навои на творчество Хувайдо, его татаббу (написание газелей вслед за другим поэтом) с газелями предшественника и сравнительный анализ общих стихов, вдохновленных его произведениями разных жанров.

Ключевые слова: Навои, Хувайдо, традиция, литературное влияние, вкус, тема, интерпретация, символ, оригинальность, мастерство.

Abstract

The article shows the influence of Navoi's literary heritage on the work of Huvaido, his tatabbus (writing ghazal by following another poet) to ghazals of the predecessor and the comparative analysis of common verses inspired by his works of various genres.

Key words: Navoi, Huvaido, tradition, literary influence, tatabbu, theme, interpretation, symbol, originality, skill.

Huvaydo turkiy she'riyat sultoni Alisher Navoiy ijodidan ham keng bahramand bo'lib, undan mahorat sabog'ini olgan, badiiy barkamol g'azallaridan ilhomlanib, ularga qator tatabbular qilgan, turli janrdagi asarlari ta'sirida mushtarak baytu misralar tizgan, buyuk salafining ko'plab g'oyayu fikrlari, timsolu tashbehlarini davom ettirib, ularni boyitgan, yangidan-yangi qirralarini ochgan.

Huvaydo Navoiyning "oqibat", "topmadim". "aylab", "arz", "hanuz", "qilg'il", "topmadim", "keldimu", "bo'lmasa" kabi qator g'azallariga tatabbular qilgan. Lekin bu tatabbular o'ziga xosligi va ohorliligi bilan

ajralib turadi. Jumladan, “topmadim” radifli g‘azali mana bunday boshlanadi:

*Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo, mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim [1,1,433].*

Huvaydo esa o‘z tatabbusida salafi g‘azalidagi vazn va radifni, shuningdek juz‘iy tafovut bilan qofiya tizimini ham saqlaydi, ayni paytda o‘ziga xos ohorli g‘azal yaratadi:

*Dunyoni kezdim yurub, dardimga darmon topmadim,
Arz etarga dod deb bir adli sulton topmadim [3,158].*

Navoiy g‘azalida ijtimoiy motivlar bir qadar ustuvor: zamon va zamon ahlidan shikoyat ishqiy ohanglar bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘lsa, Huvaydo tatabbusi asosan ishqiy mavzuda hamda u sitamgar mahbuba va uning hajrida chekkan azoblari tasviriga bag‘ishlangan. Navoiy g‘azalida ijtimoiy va ishqiy ohanglar o‘zaro o‘rin almashib tursa, Huvaydoda matladan keyin to‘laligicha ishqiy mavzu davom etadi. Fikrimizning dalili sifatida har ikki g‘azalning maqtalarini keltirib o‘tish mumkin:

Navoiy:

*Ul amon ichinda bo‘lsun, ey Navoiy, garchi men
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.*

Huvaydo:

*Ey Huvaydo, ishq dardi turfa qattig‘, bedavo,
Yig‘lamoq, dil o‘rtamakdin o‘zga darmon topmadim [3,159].*

Alisher Navoiyning:

*Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab,
Xiromi sur‘atidin gul uza xaydin gulob aylab [1,4,64], –*

matlasi bilan boshlanadigan mashhur g‘azali bor. Huvaydo ayni shu g‘azal ohangida, lekin mutlaqo boshqa qofiya va radifdagi g‘azal yaratadi. Chunki bu g‘azalni o‘qir ekansiz, nariga g‘azal xayolingizga kelaveradi:

*Tun oqshom keldi kulbanga nigori mehribon yolg‘uz,
Olib burqa‘ jamolidin, o‘zin qildi ayon yolg‘uz [3,95].*

Har ikki g‘azal ham hazaji musammani solim vaznida.

Bu g‘azal aynan tatabbu va nazira bo‘lmasa ham, bevosita ta‘sir va ilhom samarasi ekanligi shubhasiz.

Voqeabandlik asosiga qurilganligi ham bu o‘xshashlikni yanada mustahkamlaydi. Qiyoslang:

Navoiy:

*Kulub o‘ltirdi-yu, ilkim chekib, yonida yer berdi,
Takallum boshladi har lafzini durri xushob aylab –
Ki: ey zori balokash oshiqim, mensiz nechuktursen?*

Men o'ldum lolu ayta olmadim mayli javob aylab.

Huvaydo:

*Kulub, ohista-ohista kelib, uyqudin uyg'otti,
"Sahar bo'ldi, yotarsanmu?" – dedi shirinzabon yolg'uz.
Qo'limdan ushlabon aydi: "Na holing kechti yozu kuz,
Kuyub hajr o'tida bo'lg'on, ayo notavon yolg'uz?"*

Huvaydo ayni g'azalga bevosita ham tatabbu qilgan. U o'zi asos bo'lgan g'azal yozilgan vazn, qofiya va radifda:

*Ko'rung ul shahsuvorimni kelur nozu itob aylab,
O'zig'a bosh kesib, qonimni to'kmakni savob aylab [3,45].*

Navoiy g'azali 9, Huvaydoning unga tatabbusi esa 7 baytdan iborat.

Har ikki g'azal ham hazaji musammani solim vazni (mafoiylun mafoiylun mafoiylun) da.

Qofiya tartibi aynan saqlangan: Navoiyda – shitob, gulob, tanob, iztirob, xushob, javob, itob, hijob, xarob, xob. Huvaydoda – itob, savob, shitob, sharob, shitob, pechu tob, azob, mustajob. Navoiyda 10 ta, Huvaydoda 8 ta so'z qofiya bo'lib kelgan. Huvaydoda shundan faqat ikki qofiya takrorlangan: shitob, itob. Shu bilan birga unda shitob so'zi ikki marta qofiya bo'lib kelgan.

Navoiy g'azali voqeabandlikka asoslangan, Huvaydo tatabbusi esa mahubaga murojaat asosiga qurilgan.

Navoiy g'azali ma'shuqning oshiq kulbasiga tashrifi tasviriga bag'ishlangan bo'lsa, Huvaydo tatabbusi yordan shikoyat talqinidan iborat.

Navoiyning to'rtala devonida "oqibat" radifli to'rtta g'azal mavjud. Ajabki, har to'rtala g'azal ham 72-raqam bilan joylashtirilgan. Yanada qizig'i, har to'rtala g'azal ham bir vaznda – ramali musammani maqsurda. Huvaydo tatabbusi ham shu vaznda. Qofiya tizimiga ko'ra Huvaydo ularning birinchisiga tatabbu qilgan.

G'azal ham, tatabbu ham 8 baytdan ibrat.

Qofiya tizimi aynan saqlangan. Faqat Huvaydo "-m" egalik qo'shimchasini qo'shgan. Qofiyalar: Navoiyda – *begona, afsona, devona, dona, vayrona, paymona, parvona, jurmona, na*. Huvaydoda – *devona, parvona, begona, mastona, tiflona, hamxona, vayrona, hayrona, har yona*. Bu qofiyalardan 4 tasi Huvaydoda ham keladi: *begona, devona, vayrona, parvona*. Lekin Huvaydo o'z tatabbusi uchun ta'sir va turtkini Navoiydan olgan bo'lishiga qaramay, taqlid doirasida qolib ketmay, o'ziga xos ohorli asar yaratadi – bunga g'azal va tatabbuni baytma-bayt muqoyasa qilib ham ishonch hosil qilish mumkin Jumladan, matlada Navoiy oshno yorning begonaga aylangani-yu, uning firog'ida telbaligi elga afsona bo'lganligi

xususida so'z yuritsa, Huvaydo go'zal mahbubaning husni shamiga parvona bo'lib, oqibat uning ishqida devona bo'ldim deb mubolag'a qiladi:

Navoiy:

*Ohkim, ul oshno begona bo'ldi oqibat,
Hajridin bexudlug'um afsona bo'ldi oqibat [1,1,93].*

Huvaydo:

*Ey, sani ishqing bilan devona bo'ldum oqibat,
Sham'i husning ustida parvona bo'ldum oqibat [3,52].*

“Begona” qofiyali bayt esa Huvaydo g'azalida matladan keyin kelib, sening ishqingga oshno bo'ldimu jumla jahonga begona bo'ldim ma'nosida keladi:

*Tushti ko'nglim ichra darding telbalardek, ey pari,
Kulli olamdin kechib, begona bo'ldim oqibat.*

Xuddi shunday, “vayrona” qofiyali baytlar ham o'zaro farq qiladi. Odatda, vayronada ganj bo'ladi va uni ajdarho qo'riqlab yotadi. Navoiy esa husn ganji, ya'ni go'zal mahbuba o'zini tark etib, g'ami – ajdarhosi qoldi deb kinoya qiladi. Binobarin, bizning vayrona ajdarhoning uyiga aylandi deb yor g'amini ajdarhoga o'xshatadi:

*Borg'ali ul husn ganji g'am buzug' ko'nglumdadur,
Ajdahoyi bizing vayrona bo'ldi oqibat.*

Huvaydo esa yor ishqida xaloyiqdan uzilib, xilvatni makon tutgani va shu tariqa boyo'g'li kabi maskani vayrona bo'lganligiga ishora qiladi:

*Elu yurtumdin kechib, uzlatninishlik xo'qilib,
Chug'z yanglig' sohibi vayrona bo'ldum oqibat.*

Shu tariqa, Huvaydo tatabbu bahona o'ziga xos ohorli g'azal yaratganligi ma'lum bo'ladi.

Navoiyning “arz” radifli g'azaliga tatabbusida esa Huvaydo vazn (ramali musammani maqsur) va radif (“arz) ni aynan saqlab, qofiya tizimini o'zgartiradi:

Navoiy:

*Ey sabo, jonim halokin ayla jononimg'a arz,
Yo'qki, jismi notavon ahvolin et jonimg'a arz [1,1,300].*

Huvaydo:

*Borsang, ey bodi sabo, holimni qil yoringa arz,
Man g'aribi xastadin yori jafokorimga arz [3,108].*

Har ikki g'azal ham saboga murojaat asosiga qurilgan bo'lishiga qaramay, ular bir-birini takrorlamay fikru tuyg'ular oqimi boshqa-boshqa o'zanda davom etadi.

Huvaydo Navoiy asarlari mutolaasidan olgan ilhomlari natijasida unga o'xshatib qator baytu misralar ham ijod qilgan. Ularda izdosh shoir buyuk salafining muayyan fikru tuyg'ularini davom ettirib, kengaytiradi va chuqurlashtiradi, timsolu tashbehtarining esa yangi qirralarini kashf etadi. Boshqacha aytganda, o'ziga turtki berib, ilhom bag'ishlagan fikru tashbehtarining o'ziga xos ohorli badiiy talqinlarini yaratadi.

Dunyoni qoralash, tanqid qilish – mumtoz adabiyotda asosiy o'rin tutadi. Bu diniy-tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq. Unga ko'ra dunyoga ortiqcha mehr qo'yish insonni Haq yo'ldan ozdiradi, Parvardigoridan begonalashib, tubanlashuviga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham irfoniy adabiyotda dunyo ko'pincha nozu ishva bilan oshiqlarini yo'ldan uradigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan xiyonatkor ma'shuqaga o'xshatiladi; paranji-chachvon ichida go'yoki sarvqad va go'zal ko'rinadigan, aslida esa qaddi bukchaygan, tishlari to'kilgan qari kampirga qiyoslanadi; talabgorlarini sehru jodu bilan tuzoqqa tushirib, o'z yo'rig'iga yurgizadigan, xohlagan ko'yiga soladigan jodugar, alvasti, zol, ajuza qiyofalarida tasvirlanadi. Jumladan, Navoiy ko'plab g'azallarida dunyoni makru hiyla tajassumi bo'lgan go'zal kelinchak, yosuman kampir timsollarida jonlantiradi. Barcha yomonlik, yolg'on, riyo timsoli bo'lganligi uchun g'azallaridan birida dunyoni hatto islomdagi har to'rtala mazhab bilan uch taloq qo'yganligini aytgan edi:

*Dahr zolin to'rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni [1,1,655].*

Bu yerda dahr zoli – ko'pni ko'rgan qari dunyo, majozan esa yosuman kampir bo'lsa, to'rt mazhab – sunniylikdagi hanafiylik, molikiylik, shofe'iylik, hanbaliylik mazhablari. Lirik qahramon shu tariqa dunyo otlig' jodugarni to'rtala mazhab hukmi bilan uch marta taloq qilish orqali o'zini bu alvastining tuzog'idan qutqarib, najot topgani – erkin va ozod insonga aylanganini yengil nafas olib ta'kidlamoqda.

Quyidagi baytida Huvaydo ham ustoziga hamfikrlik qiladi va bu dunyo toza kelinchakdek nozu jilva qilib, seni o'z tuzog'iga tushirmoqchi bo'ladi, lekin sen bu makkoraga sira nigohingni tashlama deb uqtiradi:

*Bu dunyo navarusedek sani aldar qilib jilva,
O'shal makkoradin zinhor san qat'i nazar qilg'il [3,147].*

Dunyo – ko'hna rabot, dunyo – motamxona, dunyo – hasratxona kabi ta'riflar ham Sharq mumtoz she'riyatida an'ana tusini olgan bo'lib, ular Navoiy she'riyatida haddi a'losida o'zining rang-barang badiiy talqinini topgan. Bunday yondashuvlarni Huvaydo ijodida ham ko'p ko'ramiz.

Jahon bir mahzi hasratxonadur – hasratda el ketti,

Ko'zungdin ashki hasratni qil emdi dam-badam paydo [3,27].

Huvaydoning agar Ka'bani tavof qilmoqchi bo'lsang, ko'ngillar Ka'basini tavof qil mazmunidagi:

Gar tavfi Ka'ba qilmoq, ey ko'nglum, istar ersang,

Qil tavfi Ka'bai dil, ey porso Huvaydo [3,36], –

bayti Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi olamning qiblasiga bo'lishiga qaramay, Ka'baning ko'ngil Ka'basichalik qadri yo'qligi haqidagi mashhur misralarini esga soladi:

Ka'baki, olamning o'lub qiblasiga,

Qadri yo'q onchakim, ko'ngul ka'basi [1,6,62].

Bu tasavvufdagi ko'ngilni ulug'lash an'alariga borib taqaladi. Ko'ngilning hamma narsa, hatto Ka'badan ham ustun qo'yilishining sababi shundaki, tasavvufda Oллоhdan keyin ko'ngil turadi. To'g'ri, Ka'ba – Oллоhning uyi, lekin u zohiriy, ramziy uy, uning haqiqiy uyi – insonning ko'ngli. Dunyo va nafs g'uborlaridan poklangan, ko'zguday musaffo holga kelgan ko'ngilda Oллоh jamoli jilvalanadi.

Huvaydoning:

G'aribni ko'nglini buzmak gunohini beadam ermish.

Kaforat bo'lmag'ay yuz Ka'bani qaytib bino qilsang [3,136], –
misralari esa Navoiyning:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay [1,3,626], –

bayti bilan mushtarak.

Albatta, bu fikr talqinida har bir shoir o'ziga xos ohorlilikka erishgan: Navoiy baytida bir siniq ko'ngilni ko'tarish Ka'bani obod qilishga tenglashtirilsa, Huvaydo bayti buning aksi – u bir g'aribning ko'nglini sindirish eng og'ir gunoh bo'lib, yuzta Ka'ba qurib ham uning tovonini to'lab bo'lmasligiga urg'u beradi.

Bu ikki bayt o'zaro tazod hosil qiladi: birida siniq ko'ngilni ko'tarish Ka'bani obod qilishga qiyoslansa, ikkinchisida bir g'aribning ko'nglini sindirsa, keyin yuzta Ka'ba qurib ham bu gunohni yuvib bo'lmasligi ta'kidlanadi. Lekin har ikki bayt ham ko'ngilni ulug'lashga qaratilgan.

Mahbubaning beqiyos yuzini Ka'baga, qayrilma qoshlarini mehrobga tashbeh etish Sharq mumtoz she'riyatida bir an'ana tusini olgan. Ayni an'ana asosida Navoiy shoirlik mahoratini mahsuli bo'lgan betakror bir bayt ijod qiladi:

To xayoling ko'z dadur – ko'z uyi go'yo Ka'badur –

Kim, turub atrofidin kirpiklarim aylar namoz [1,4,221].

“To ko’zda xayoling mujassam ekan, ko’z uyi go’yoki Ka’baga o’xshaydi, kipriklarim esa uning atrofida turib namoz o’qiydi”.

Huvaydo esa: “Yuzingdan pardani ko’tarki, qoshingning mehrobini ko’rib, sening husning qiblasiga qarab, har dam namoz qilay”, – deya bu ohorli tasvirning yangi bir talqinini yaratadi::

Parda olg’il oy yuzungdin – qosh mehrobin ko’rub,

Qiblai husnung sari har dam boqib, aylay namoz [3,92].

Alisher Navoiy bir qator baytlarida ma’shuqa labi hasratidan ilma-teshik bo’lgan ko’nglini asalari uyasiga o’xshatadi – bu teshiklar garchi jarohat izlari bo’lsa-da, ular yor xayolining shavqi bilan go’yoki asalga liqliq. Ya’ni mahbuba labi xayoli asal kabi ularni to’ldirgan. Chunonchi:

Zanburning evi kibi ko’nglum teshuk-teshuk,

La’ling xayoli har teshuk ichinda bol ekin [1,1,490].

“Ko’nglim asalari uyasi kabi teshik-teshik, lekin labingning shirin xayoli ularni bamisoli asal bo’lib to’ldirgan”.

Yoki:

Ey, ko’ngulda shahdi la’ling hasratidin yuz teshuk,

Har teshukdur shahd zanburi uyi yanglig’ chuchuk [1,1,356].

“Ey, sening shirin labing hasratidan ko’nglimda yuz teshik paydo bo’ldi, lekin har bir teshik asalari uyalari kabi asalga liq to’la”.

Huvaydo ham bir necha baytlarida ko’nglidagi choklarni asalari uyasiga o’xshatadi, lekin bu teshiklar, Navoiy tasvirlaridan farqli o’laroq, har tomondan yuzlangan sitamlar tig’idan paydo bo’lgan:

Yurokim xonai zanbur kibi bo’ldi shigof,

Har tarafdin tegibon ko’ksun uza tig’i sitam [3,174].

“Har tarafdan sitam tig’i yog’ilib, yuragim asalari uyasidek teshik-teshik bo’ldi”.

Boshqa bir baytida esa shoir asalari uyasidek chok-chok bo’lgan ko’ngliga qayrilmaqosh go’zaldan muruvvat o’tinadi:

Yurokim bo’ldi jarohat xonai zanburdek,

Marhamat qilsang na bo’lg’oy, ey mahri qayrilma qosh? [3,104]

Mayda yor aksining jilvalanishi haqidagi baytu misralar Navoiy ijodida juda ko’p uchraydi. Chunki irfoniy she’riyatda yor – Xudo, may – muhabbat, qadah – ko’ngil timsoli bo’lib keladi. Qadah qancha toza bo’lsa, may shuncha tiniq ko’rinadi. Shunga o’xshab, dunyo g’uborlaridan poklangan ko’ngilda ham Haq nuri jilvalanadi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” devonlar turkumining ilk g’azalidayoq:

Ashraquat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo,

“Yor aksin mayda ko’r!” – deb, jomdin chiqti sado [1,1,22], – deb yozgan edi. Ya’ni: “Quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari porlab ko’ringanida qadahdan: “Yor aksini mayda ko’r!” – degan sado chiqdi”.

“Jom moddiy dunyo va may esa Yorning tajalliysini aks etiruvchi va unga bog’langan ko’ngil ishqig’i tug’yonini anglatuvchi timsollar ekan, bunda uch ma’no bir-biri bilan bog’liq holda zuhur etdi: 1) ilohiy nur jilosi; 2) dunyo; 3) inson qalbi. Inson agar faqat dunyo tashvishlari (zangi) bilan bog’lansa, u ilohiy nurdan bebahra qoladi. Holbuki, insonning oliy maqsadi – o’z Asliyatini idrok etish va unga qaytishdir. Shu bois u ko’ngil g’uborlarini yuvib, uni Olloh nuri aks etgan jomga aylantirishi lozim, chunki ana shu darajaga yetgan odam dunyoning o’zi Olloh jamoli aks etgan mazhar va jom ekanini anglab etadi” [2,15].

Keyin u ko’plab baytlarida bu mavzuni davom ettirib, rivojlantirdi va uning yangidan-yangi qirralarini ochdi. Jumladan, quyidagi baytida “Kishining dunyo va nafs g’uborlaridan pok bo’lib, musaffo holga kelgan ko’ngli Haq jamoli jilva qiladigan ko’zguga aylanadi”, – deb yozadi:

*Yor aksining o’lub jilvagahi,
Kishikim xotiri mir’oti orib [1,2,70].*

Huvaydoning qator baytlarida ham ayni irfoniy haqiqatning badiiy talqinini ko’ramiz. Jumladan, mutasavvifning mana bu misralari salafining ilk g’azalining matlasiga hamohang jaranglaydi.

*Bir sado chiqdi qadahdin: “Yorni ko’r mayda”, – deb,
“Ko’ra olmassan, – dedi, – to etmaguncha mayni sof” [3,116].*

Boshqa bir baytida esa: “Ko’ngil Haq ko’zgusi hisoblanadi – unga muhabbat bilan sayqal berish kerak – agar bu ko’zgu xira tortsa, yor unga nazarini solmaydi”, – deydi bu boradagi fikrlari shodasiga yangisini tizib:

*Ko’ngul oyinai Haqdir, muhabbat birla sayqal ur,
Nazar solmas ango yorim qilur oyina kir paydo [3,29].*

Navoiy qator baytlarida hijronning o’limdan ham og’irligini aytib, jonondan judo qilguncha jondan judo qilishini so’raydi:

*Hajr o’lumdin talx emish, mundin so’ng, ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg’uncha jonondin judo.
Bo’lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag’il
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo [1,1,59].*

Huvaydo esa bu tashbehni rivojlantirib, uni qiyomat bilan bog’laydi: qiyomat kunini eng og’ir deydilar. Aslida yorning yoridan judo bo’lishining o’zi qiyomat ekan deydi:

*Base qattig’ dedilar, do’stlar, ro’zi qiyomatni,
Qiyomat ul ekandur: yor yoridin judo bo’lmoq [3,119].*

Ra'no gulining ikki xil – qizil va sariq gullashidan kelib chiqib, Navoiy uni munofiq, ikkiyuzlamachi timsolida gavdalantiradi:

Ikki yuzluk bo'lmakim, bu bog'ning ra'no guli

Gar qizarur bir yuzi, lekin yana bir sorg'orur [1,1,195].

“Bog'dagi ra'no gulining bir yuzi qizarsa, bir yuzi sarg'ayadi – sen sira u kabi ikki yuzli bo'lma”.

Huvaydo esa bu timsolning ma'no doirasini nihoyatda kengaytirib, dunyoni ra'no guliga nisbat beradi:

Dunyani kori du rang – har kimga bir rang ko'rsatur,

Bo'lmag'il g'ofil guli ra'noni sen yak so'ko'rub [3,47].

“Dunyo aslida ikki tusli bo'lib, har kimga boshqa bir tusda namoyon bo'ladi – shunday ekan, sen ra'no gulining faqat bir rangini ko'rib, aldanib qolma”.

Huvaydo ijodida yana Navoiy ijodida keng qo'llaniladigan quyun, nojins, o'zlik, falak zoli kabi so'z va timsollarga ham ko'p duch kelamiz.

Huvaydo “Xamsa”dan ham yaxshigina xabardor bo'lgan ko'rinadi. Chunki shoirning ayrim baytlari Navoiy dostonlaridagi ba'zi lavhalar va rivoyatlarga ham ishora qiladi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonining falak hay'atidan shikoyatu dunyo lo'batidan kinoyatga bag'ishlangan, mutafakkir shoirning charxning kajraftorligiyu jahonning buqalamunligi, boshqacha aytganda, hayotga va dunyoga munosabatini o'z ichiga olgan 14-maqolatiga 7 iqlimni olgan Iskandarning ham dunyodan quruq qo'l bilan ketganligi haqidagi haqidagi hikoyat ilova qilinadi. Hikoyatda keltirilishicha, Iskandar taxtga o'tirgach, jahonda u tasarrufiga kiritmagan joy qolmadi. Dunyoning barcha shohlari uning qullug'ini ado etishni o'zlariga sharaf deb biladilar. 7 ko'ku 7 iqlim uning tasarrufida bo'lib, jahonni ko'rsatuvchi jom uning uchun oddiy ko'zgu edi. Buning ustiga,

Ham shoh o'lub, ham valiyu ham nabi,

Hikmat ila ila ham tuz o'lub mashrabi.

Shunday jahongir shoh, Xudo yarlaqan zot ham ajal oldida ojiz qolib, vasiyat qiladiki: “Meni ko'mish uchun qabristonga olib borayotganda tobutdan bir qo'limni tashqariga chiqarib qo'ying, toki unga boqqan kishilar ibrat olsinlar. Yetti iqlimni olgan, 7 falak mushkulini hal qilgan kishi ham oxir-oqibat bu dunyoni tark etib, quruq qo'l bilan u dunyoga boradi. Dunyo molu mulkini havas qilganlarga menday jahongirning dunyodan quruq qo'l bilan ketgani ibrat bo'lsin!” [1,6,22–24]

Huvaydoning: “Bu dunyo mulkiga kelib na bir narsa orttirdimu na bir ko'nglim to'lgulik ish qildim – dunyodan quruq qo'l bilan ketayotganimga

yig'layman", – mazmunidagi mana bu bayti ayni rivoyatning mantiqiy xulosasi yanglig' jaranglaydi:

Bu dunyo mulkig'a keldim – na topdim man, na ish qildim,

Ko'runlar, dasti xoli dunyodin yong'onga yig'layman [3,181].

Ma'lumki, Majnun Layli ishqida sahroni makon tutganida, Farhod esa Shirin tufayli Xusrav tomonidan Salosil qo'rg'onida bandi qilinganida ularning hamrozu hamsuhbati jonivorlar edi. Navoiyning o'zi ham g'azallaridan birida ishqdagi ahvolini mazkur mashhur oshiqlar taqdiriga o'xshatib: "Men ham telbalik zanjirining rasvosi bo'ldim, mening ham tegramda Farhodu Majnun kabi bir suruk yig'ilgan", – deb mubolag'a qiladi:

O'yla zanjiri junun rasvosimenkim, har zamon

Tegrama Farhodu Majnundek yig'ilmish bir suruk [1,1,356].

Bu bilan ulug' shoir tafakkur sohibi hisoblanmish odamlar Farhodu Majnunni tushunmaganlari holda, ongsiz va tilsiz hayvonu qushlar ularga hamdard bo'lganlari misolida Ollohni aql vositasida bilib bo'lmaydi, unga faqat ko'ngil bilan yetish, uni yolg'iz sezgilar yordamida his qilish mumkin, degan so'fiyona haqiqatni bayon etgan. Farhod va Majnun haqidagi dostonlarda ham, keltirilgan baytda ham jonivorlarning ilohiy ishqdan bebahra kishilardan ustun qo'yilishiga sabab shu.

Ko'ngli zamon ahlidan ozurda bo'lgan Huvaydoning ham bir baytida: "Vahshiy hayvonlar kabi zamona ahlidan uzoq bo'lib, Majnun singari kiyiklar bilan hamdam bo'l!" – deb hasratidan chang chiqadi:

Zamona xalqidin bo'lg'il yiroqroq vahshilar yanglig',

Yurub sahroda Majnundek kiyiklar birla hamdam bo'l [3,148].

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonining ukasi Darveshaliga bir necha pandu o'git tariqasida yozilgan faslida, jumladan, mana bunday bayt bor:

Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,

Navoiy yomon bo'lsa sen yaxshi bo'l [1,8,518].

Huvaydoning quyidagi baytida ayni shu misralarga hamohanglikni ko'ramiz:

Sani har kim yomon desa, Huvaydo, kelmasun qahring,

Degil, ore, yomondurman, anga ayg'ilki, san yaxshi [3,244].

Bu ikki shoir o'rtasidagi mushtarak jihatlardan yana biri – ular ijodida mav'iza she'rlar hamda hikmat va nasihat yo'sinidagi baytu misralarning yetakchi o'rin tutishi. Ma'lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoir sifatida Olloh–Olam–Odam munosabatlarini teran badiiy talqin qilib, ko'plab mav'iza she'rlar, falsafiy mushohadalari mahsuli bo'lmish hikmatli baytu

misralar tizgan. Orif shoir sifatida Huvaydo ijodida ham pandu nasihat yetakchi o'rin tutadi. Chunki Navoiy kabi Huvaydo ham so'zni ma'rifat quroli deb bilgan. Lekin Navoiyda falsafiy mulohazalar hayotiy kuzatishlar bilan uyg'unlashib ketgan bo'lsa, Huvaydoda diniy qarashlar turmushdan chiqarilgan xulosalar bilan omuxta bo'lib ketadi. Shu bilan birga, Navoiy o'z fikrlarini ramzu tashbehlar pardasiga o'rasa, Huvaydo ko'pincha ochiq bayon etadi.

Ma'lum bo'ladiki, Navoiy ijodi Huvaydo uchun o'ziga xos mahorat maktabi bo'lgan. U o'zining buyuk salafidan ta'sirlanib va ilhomlanib, uning g'azallariga qator tatabbular qilgan, ko'plab mushtarak baytu misralar tizgan – ularda buyuk salafining muayyan fikru qarashlarini chuqurlashtirgan va kengaytirgan, ularning yangidan-yangi qirralarini ochgan, timsolu tashbehleri silsilasini esa yanada boyitgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy (2011). To'la asarlar to'plami, X jildlik – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Komilov N. (2012). Ma'nolar olami safar (Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar). – Toshkent: “Tamaddun”.
3. Xojanazar Huvaydo (2005). Devon (Nashrga tayyorlovchilar: I.Abdulloh, Q.Ro'zmatzoda). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”.

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN”NING AVVALG'I MAQOLOTI XUSUSIDA

**Burobiya RAJABOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi**

Annotatsiya

Maqolaga Navoiyning Jomiy sharafiga bag'ishlab memuar xarakterda yozgan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining “Avvalg'i maqolat” fasli asos qilib olingan. Unga xotiralar fonida yozilgan ikki ulug' siymoning ibratli hayoti, buyuk shaxsi, ijodi, ruhiyatida o'zaro mushtaraklik kasb etgan ibratli ishlar, nodir voqealar, ta'sirli nutqlari, iltifotlari tasvirlangan to'rtta hikoya-naql tahlil va talqin qilingan. Maqolada yana Temuriylar Renessansi davrida badiiy adabiyot, madaniy muhit, kitob mutolaasi, ustoz

va shogirdlik munosabatlari, bunyodkorlik kabi ijtimoiy, ma'rifiy masalalar ham yoritilgan.

Kalit soʻzlar: memuar asar, uslub, buyuk siymo, madaniy muhit, mushtaraklik, tasvir.

Abstract

The article is based on the chapter "Avvalg'i maqolot" of "Khamsat ul-mutahairin", written by Navoi in his memoirs in honor of Jami. 4 narrative stories were analyzed and interpreted, describing an exemplary life, a great personality, creativity and spirit of two great personalities, written against the background of memories, exemplary deeds, rare events, impressive speeches and compliments. The article highlights art literature, cultural environment, reading books, teacher-student relations, creativity and other social and educational issues of the Timurid Renaissance.

Key words and phrases: memoirs, style, great figure, cultural environment, community, image.

Alisher Navoiy buyuk zamondoshi, ustoz Abdurahmon Jomiy sharifiga bag'ishlab yozgan hamda navoiyshunoslik va jomiyshunoslik fanlari uchun muhim manba hisoblangan "Xamsat ul-mutahayyirin" asari obrazlar olami, voqea-hodisalar tasviri, bayoni, lirik janrlarning boyligi bilan hamda tuzilishi jihatidan aynan shu memuar uslubda yozilgan "Holati Sayyid Hasan Ardasher" va "Holati Pahlavon Muhammad"dan ancha farq qiladi. Har uchala asar ham "Navoiyning memuar (xotiralar) janridagi muhim hissasi bo'lib qoladi"[2, 238]. Muallifning o'zi ham kitobda asarning kompozitsiyasi – "Muqaddima", "Avvalg'i maqolat", "Ikkinchi maqolat", "Uchunchi maqolat" va "Xotima"si xususida maxsus izoh yozgan. Chunonchi: "Muqaddima – alarning nasablariyu valodatlari va soyir avqotlarining sulukiyu bu faqir alar xizmatlarig'a qachon musharraf bo'lg'onim. Avvalg'i maqolat – alar bila bu faqir orasida o'tgan ittifoqiy umur (ishlar, voqealar), g'arobatliq (ajoyib, nodir) so'zlarkim, andin alarning bu faqirg'a xususiyat va iltifotlari ma'lum bo'lur. Ikkinchi maqolat – alar bila bu faqir orasida bitilgan ruq'alar bobidakim, holo alarning kulliyotida mazkurdurur va munshaotlarida masturkim, faqir javob bitibmen yo aks. Uchunchi maqolat – kutub va rasoil bobidakim, alarning musannafotidur va bu faqir alarning ta'lifig'a boisu tasnifig'a sabab bo'lubmen va bu ma'ni hamul kutubning ko'prog'ida zohirdur. Xotima – ul kutubu rasoil bobidakim, bu faqir alar xizmatida ta'lim va istifoda yuzidin o'qubmen va alarning hayotlarining oxirining tarixi va ul holot kayfiyati"[1, 8-9].

“Xamsat ul-mutahayyirin” asarining davriy nashrlari atoqli navoiyshunoslardan P.Shamsiyev va S.G‘aniyevalar tomonidan tayyorlangan va aytish mumkinki, ushbu nashrlar mazkur asarning o‘quvchilar orasida keng ommalashuviga katta xizmat qilgan. O‘rganishimizga ko‘ra, birinchidan, “Xamsat ul-mutahayyirin” asari yuzasidan olib borilgan dissertasiya, kitob, maqola xarakteridagi aksariyat ilmiy talqiqotlar ham ana shu nashrlarga asoslanganidan, ikkinchidan esa “Xamsat ul-mutahayyirin”ni mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidanda o‘rganish, tadqiq qilish qizg‘in davom etayotganidan voqif bo‘ldik.

“Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, asarda boshdan oxiriga qadar muallifning Abdurahmon Jomiyga bo‘lgan cheksiz va samimiy hurmati yaqqol sezilib turadi”[3, 274]. Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin”ning “Avvalg‘i maqolat” faslida biri-biridan ibratli, qiziqarli 15 ta hikoya (naql) bitgan. Demak, biz ushbu maqolada muallif “Xamsat ul-mutahayyirin”ning “Avvalg‘i maqolat” faslida yozgan to‘rtta voqea, xabar xususida gapirmoqchimiz. Unda Temuriylar davlati boshqaruvida bo‘lgan Xuroson davlati madaniyati, adabiy muhit, ilm-fani ham batafsil tasvirlangan. Birinchi xabarda Navoiy va Jomiyning Xoja Abdulloh Ansoriy (Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad – so‘fiylik tariqatining yirik arbobi va nazariyotchilaridan biri, Ansoriy Hirotiy, Piri Hirot laqablari bilan mashhur bo‘lgan. Navoiy allomaga “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida alohida fiqra bag‘ishlagan)ning munojot ohangida bitilgan “Ilohiynoma” nomli risolasining mutolasi bobida. Ustoz S.G‘aniyeva Navoiy “Ilohiynoma”ni “Munojot risolasi”[4,12] deb ta’riflashini ham aytib o‘tgan.

Agar mazkur voqea bayoniga e’tibor qilsak, “Avvalgi maqolat”da tasvirlangan ushbu voqeada, birinchidan, asosiy qahramonlar sifatida Shayx Abdullo kitobdor, Navoiy va Jomiyning muborak nomlari tilga olingan va majlisda hozir bo‘lganlar haqida ham ishora bor. Ikkinchidan, ikki ulug‘ siymolarning fe’li, salim tab’idagi o‘xshash jihatlardan biri, ya’ni, o‘ziga ma’qul bo‘lgan, qiziqish bildirgan mazkur risolani Jomiy ham, Navoiy ham bir qo‘lga olishda o‘qib chiqqani xususida gapirilgan. Uchunchidan, tasvirda Navoiy o‘zining va Jomiy, Abdulloh kitobdor nutqidan unumli foydalanilgan, to‘rtinchidan esa yana unda Temuriylar Uyg‘onish davri madaniy muhiti, o‘qishli kitob sehri, kitob savdosi, kitobga munosabat, kitobxonlik kabi ijtimoiy, ma’rifiy masalalar ham qalamga olingan. Abdullo kitobdor shayx ul-islom Abdulloh Ansoriyning “Ilohiynoma” risolasini sotish maqsadida Navoiy huzuriga olib keladi va risolani unga qoldiradi, buyuk mutafakkir risola bilan tanishish uchun uni

qo‘liga oladi va sekin-asta varaqlay boshlaydi. Bu jarayon to‘g‘risida Navoiyning o‘zi maroq bilan bayon qilgan: “...Faqir ul risolaning avval sahifasin ochib, xutba (Kitobning boshidagi hamd qismi – B.R.) sin o‘qumoq bunyod qildim, bu xayol bilakim, bir sahifa yo g‘oyatash bir varaq o‘qulg‘ay, andoqki el ma‘hudidur, so‘zning xo‘blug‘ va ravonlig‘idin hech erda bas qila olmadim, to risolakim, ikki juzvdin ortug‘roq edi – itmomg‘a etti. Majlis huzzori (hozir bo‘lgan kishilar) voqif bo‘lub, taajjub qildilarkim, bir risolakim, ikki juzvg‘a yaqin, balki ortug‘roq bo‘lg‘ay, bir tavajjuh bila boshtin-oyoqqacha o‘qumoq xoli az g‘arobat emas.”

Navoiyning asarda yozishicha, ertasi kuni Jomiy Navoiyning uyiga tashrif buyuradi va kutubxonasiga kirar ekan, uning ish stolida turgan Abdulloh Ansoriyning ikki qismdan iborat “Ilohiynoma” risolasiga ko‘zi tushadi: “Tonglasi hazrati Maxdum bandaxona(Qulning uyi, matnda kamtarlik yuzasidan mening uyim ma‘nosida ishlatilgan – B.R.)g‘a tashrif kelturdirlar. Ul risola hozir erdi, olib ochib, muborak nazarlarini soldilar. “Alar tabassum qilib, dedilarkim: “Ajab amri ittifoqiy bizning va sizning oraliqda voqe‘ bo‘lg‘on ermish: ikki yo uch kun burunroq Mavlono Shayx Abdulloh ushbu risolani bizning qoshimizga kelturub erdi, biz dog‘i avvaldin bunyod qilduk, oxirig‘a degincha hech erda turmoq bo‘lmay tugandi”.

Ushbu ibratli, zavqli xabar tasviri ba‘zi guvohlar bilan Abdulloh kitobdor o‘rtasida kechgan suhbat bilan yakun topgan: “Tonglasi Mavlono Shayx Abdulloh keldi, to kitobin yo bahosin olg‘an. Ba‘zi anga ayttilarkim: “Falon (ya‘ni banda) bu kitobni avvaldinkim o‘qumoq bunyod qildi, tugaguncha ilikdin qo‘ymadi”.

Ul taajjub yuzidin dedikim: “Hazrati Maxdumiy xizmatlarig‘a ham eltib berdim, alarg‘a ham ushbu hol voqe‘ bo‘ldi” [1, 14-15].

Navoiy va Jomiy shaxsini ulug‘lovchi, ruhiyatlaridagi o‘zaro mushtarak jihatlarini ochib beruvchi ikkinchi voqeani mutolaa qilar ekanmiz, tasvir syujetida xattot Mavlono Abdussamad, Abdurahmon Jomiy, Navoiy, Sulton Ya‘qub kabi tarixiy shaxslar esga olinganiga guvoh bo‘lamiz. Navoiyning shaxsiy kutubxonasi [5, 46-53]da faoliyat olib borgan xattotlardan biri Mavlono Abdussamad tomonidan Abdurahmon Jomiyning sal avvalroq tartib bergan va Navoiy kutubxonasida bo‘lgan devonini yana qayta ko‘chirilishi bilan bog‘liq ham ibratli, ham qiziqarli, ham muhim voqea, adabiy aloqa tafsiloti berilgan. Ayniqsa, muallif asar xarakteridan kelib chiqib, voqealar tasvirida Jomiy nutqini “Alar ayttilar”, “ayttilarkim” va o‘zining nutqini “faqir dedimkim”, ikki o‘rtada bo‘lib

o'tgan munozara, muhokama, murosa jarayonini esa "Guftu shunid ko'p o'tti" deb aniq, tiniq bayon qilishga harakat qilgan. Ya'ni: "Bir qatla faqir alarning qadimiy devonin Mavlono Abdussamadg'akim, zamonning xushnavislaridindur va xush tab' ham bor, buyurub erdim va ulcha maqdur takallufdur qililib erdi. Devon tugangandin so'ngra alar xizmatig'a eltib, muqobala istid'osi qilildi. Alar ayttilar: "Bir-ikki kun munda turdik. Biz miqdore mulohaza qilali. Kotibin xushtab' kishi derlar. Shoyadki, ehtiyot qilib erkinkim, muqobala qilurg'a ehtiyoj bo'lmag'ay".

Tonglasi faqir alar xizmatig'a yettim, ayttilarkim: "Bu kitobni g'arib nav' bitibdur, anga o'xsharkim, iltizom (majburiyat) qilmish bo'lg'aykim, g'alatsiz (savh, xato, yanglish) misra' bitmagay, ba'zi yerda biror-ikkiror, balki ortuq ab'yot ham tark qilibtur, o'zi-o'q munda bo'lsa, chun xushnavis kishidur, ko'p ehtiyot jihatidin shoyad xeyli ro'zgori (tirikchiligi) zoye' bo'lg'ay".

Guftu shunid ko'p o'tti, oxir faqir dedimkim: "Agar sizning muborak qalamingiz bila isloh topsa mujibi mubohot va zebu ziynat bo'lur". Oqibat qaror anga tuttikim, o'z muborak qalamlari bila isloh qilg'aylar. Had va nihoyatda ortuq g'alatlar erdikim, ham hak va ham isloh qildilar, to itmomg'a etti, devonning oxirida bu qit'ani bitib erdilarkim:

Xushnavise chu orazi xubon,

Suxanamro ba xatti xub orost.

Lek har jo dar o'zi sahvi qalam

Goh chize fuzudu gohe kost.

Kardam islohi on bo xati xesh,

Garchi nomad chunonchi dil mexost.

Har chi u karda bud bo suxanam

Ba xati u qusur kardam rost³¹

Qit'a mazmuni:

Bir xati chiroyli (kotib) go'zallar yuzidek qilib,

So'zlarimni bezab chiqdi.

Lekin u har joyda qalami xatosi bilan,

Goh bir narsa orttirdi, goho esa, tushirib qoldirdi.

Men o'z xatim bilan uni tuzatib chiqdim.

Garchi noqulay bo'lsa-da, ko'ngil tilagandek bo'ldi.

U mening so'zlarimni ne chog'lik buzgan bo'lsa,

Men uning xatiga shunday qusur etkazdim.

Tarixiy, adabiy manbalardan ma'lumki, Navoiy ham ijodkor, ham davlat arbobi sifatida oqquyunli turkmanlar sultoni Sulton Ya'qub bilan munosabatlari juda yaxshi bo'lgan. Qizig'i shundaki, Sulton Ya'qub

Navoiyga yo‘llagan maktubida undan kitob so‘rab murojaat qilgan bo‘ladi. Navoiy unga shaxsiy kutubxonasiga qo‘yilgan Jomiyning o‘zi qayta tuzatgan devon nusxasini hadya sifatida jo‘natadi hamda maroq bilan maktubda bo‘lib o‘tgan voqeani ham batafsil bayoni qiladi: “Sulton Ya‘qub faqirdin kitob tilaganda andin nafisroq kitobim yo‘q erdikim, har misraida ul hazratning muborak qalami kirib erdi va alarning – o‘q qudsiy osor anfosi erdi – yibordim va bu bitilgan kayfiyatni sharh bila bitidim. O‘qub, xushvaqtlig‘lar qilib, qit‘ani yod tutub, maktubda minnatdorlik izhor qilib erdilar”. Ko‘rinadiki, Sulton Ya‘qub bu nodir kitobga ega bo‘lganidan nihoyatda mamnun bo‘ladi, hatto, u Jomiy bitgan qit‘ani yod ham oladi va o‘z xursandchiligini, cheksiz rahmatini izhor qilib Navoiyga javob xatini ham yuboradi.

Navoiyning asarning “Avvalg‘i maqolat – alar bila bu faqir orasida o‘tgan ittifoqiy umur (ishlar, voqealar), g‘arobatliq (ajoyib, nodir) so‘zlarkim, andin alarning bu faqirg‘a xususiyat va iltifotlari ma‘lum bo‘lur”, deb aytilganlari bilan bog‘liq xotiralarini o‘qishda davom qilar ekanmiz, biz ushbu maqolamizda Navoiy va Jomiy hayoti, ijodi, shaxsiy hayotlari, fazilat, mahoratlari to bizgacha ham, bizni ham hayratga solgan uchinchi hayotiy hikoyani talqin va tahlil qilar ekanmiz, hikoyada bo‘lib o‘tgan voqea muallif tilidan hikoya qilingan, qahramonlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan lutf, e‘tirof, samimiyatga qurilgan uchta dialog ham bor. Hikoya qatnashchilari sifatida esa Sulton Husayn Boyqaro, Jomiy, Navoiy, bog‘bon Sulton G‘iyos kabi qahramonlar siymosini ko‘ramiz. Navoiy unda Temuriy hukmdorlarga xos bunyodkorlik, shaharsozlik madaniyati, xususan, Sulton Husayn Boyqaro inaugurasiyasi o‘tgandan so‘ng Hirotda barpo qila boshlagan “Jahonoro” bog‘ining tarhi bilan bog‘liq bir ibratli voqea bayon qilingan. Demak, voqea 1469-yil mart oylarida bo‘lib o‘tgan. “Jahonoro” bog‘ining bosh bog‘boni bo‘lgan Sulton G‘iyos manzarali bog‘dorchilikda ekiladigan 104 ta sarv (Sarvdoshlar oilasiga mansub igna bargli o‘simliklar turkumi, doim yashil manzarali, balandligi 30 metrga etadigan daraxt, sarvlar bog‘larda manzarali o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Juda chiroyli shaklda o‘sishi tufayli Sharq mumtoz she‘riyatida majoziy ma‘noda sarvqomat yor obrazini tasvirlashda ko‘p qo‘llanilgan.) daraxti ko‘chatlarini sotib olgan bo‘ladi va arab yozuvdagi “qad” so‘zining harflari miqdori abjad hisobida 104 bo‘lishi aytilgan. Chunonchi: “Podshoh ul yilki Xuroson taxtin olg‘ondakim, “Jahonoro” bog‘i tarhin soldilar. Bir panjshanba kuni ul hazrat xizmatlarida Gozurgohidin (Gozurgoh – Hirotda tog‘ etagidagi xush manzara maydon.) Dasht yuzi bila Xiyobon (Xiyobon – Hirotning markaziy ko‘chasi.) sori

boriladur erdi. Sayyid G'iyoskim, ul bog'ning ta'miri va bog'bonlig'i ang'a mutaayyin erdi, yo'lda yo'luqtikim, arobalarg'a ulug'roq sarv yig'ochlarin bog'lardin sotun olib, qo'ngarib yuklab, "Jahonoro" bog'iga eltadur erdi: Ul Hazratg'a salom berib, iltifot qilib, mutoyaba bila dedilar:

– Yana hech sarv yig'ochi qoldimu? Ne, buyla sarv yig'ochi yuklabsen, oyo necha yig'och bo'lg'ay?

Ul dedikim:

– Sanabbiz, yuz to'rt adaddur.

Alar dedilarkim:

– Ajab adaddur.

Faqir dedikim:

– Munosib adaddur, nechunkim, "qad" adadi bila munosibdur.

Alar dedilarkim:

– Rostdur, – dag'i faqirni tahsin qildilar" [1, 18-19].

Ko'rinadi, yo'l ustida bo'lib o'tgan suhbatda ham, birinchidan, Navoiy va Jomiyning zakiyligi, hozirjavobligi aks etgan bo'lsa, ikkinchidan, ulug' Navoiy ustozini buyuk Jomiy bilan bog'liq ushbu lavhani yozishiga uning "Rostdur" deb aytgan tahsini sabab bo'lgan bo'lsa, ne ajab.

Asarning "Avalg'i maqolat" faslida Navoiy Jomiy portretini chizishda davom qilar ekan, mahoratli muallif ayrim zamondoshlari yoki ularning farzanlarining bevaqt vafoti bilan bog'liq bo'lgan motam kunlari va bu kabi g'amli, qayg'uli damlardagi ayanchli ahvoli, ruhiyatini ham yoritishga harakat qilgan. Bu holatga misol sifatida kitobdan Jomiyning Sayfiddin Muhammad nomli o'g'lining va Sulton Husayn Boyqaroning 11 nafar o'g'illaridan biri – Muzaffar Husayn Mirzoning Ahmad Husayn nomli o'g'lining bevaqt vafoti yoki ushbu asar xotimasida 78 yoshli Jomiy vafoti, uning dafn marosimi hamda aza sohiblariga qarata aytilgan taskin, ta'ziya bildirish, yo'qlov, marsiyalar bitish tasvirini eslash kifoya.

Yo'qlov mavzusidan kelib chiqib, "Xamsat ul-mutahayyirin" asarining "Avalg'i maqolat" faslida motam mavzusi aks etgan ta'sirli, ibratli to'rtinchi lavhaga diqqat qilsak: "Qurrat ul-ayni saltanat Muzaffar Husayn mirzoning Ahmad Husayn otlig' farzandi Tyengri rahmatig'a borganda alar azo so'rar dastur bila "Bog'i Safed" g'a kelib erdilar. Faqir ul aziz farzand marsiyasi bila ul aziz ota duosi bobida bu baytni aytib erdimkim:

Gar sham' murd, mehri falakro mador bod,

Gar qatra rext, obi baqoro qaror bod¹⁸.

(Bayt mazmuni:

Sham' o'chsa ham osmon quyoshi aylanib tursin,
Qatra to'kilsa ham boqiylik suvi barqaror bo'lsin.)

Ul Hazrat xizmatlarida astag'ina o'qudum. Sultonzoda majlislarida alar davot va qalam va qog'oz tiladilar, dag'i bu baytni bitidilarkim:

*Farzand mevayest zi shoxi daraxti umr,
Gar z-on ki meva rext, shajar poydor bod¹⁹.*

(Bayt mazmuni:

Farzand umr daraxti shoxidagi bir mevadir,
Agar undan meva to'kilsa, daraxt doimo bo'lsin.)

Va sultonzoda niyozmandlig'lar qilib, bu baytning musavvadasin olib, azim ta'zimlar qilib uzottilar" [1,19-20].

Lavha xotimasidan ma'lumki, Jomiy Muzaffar Husayn Mirzoning shohona iltifotiga musharraf bo'ladi, ya'ni, taskin, yupanchga yo'g'rilgan Jomiy yozgan baytning dastxati – qoralama nusxasini o'zida olib qoladi va uni ulug'lab, shaxsan o'zi kuzatib qo'yadi.

Xulosa shuki, biz bir maqola doirasida tahlil va talqin qilgan to'rta ibratli, ta'sirli voqealar bayonida, birinchidan, Navoiy ulug' Jomiyning eslab, xotira fonida buyuk zamondoshi, ustozining siymosini mahorat va mehr bilan tasvirlaganiga, ikkinchidan, har ikkovining hayoti, shaxsi, ijodi ruhiyatida o'zaro mushtaraklik kasb etgan ibratli ishlar, nodir voqealar, hikmatli so'zlariga guvoh bo'ldik. Xulosamiz xotimasini Navoiy asarning "Avvalg'i maqolati"da buyuk zamondoshi Jomiyga nisbatan sog'inch, hijron, hasrat, o'kinch va e'tirof tuyg'ulari bilan "Xushe ul zamonkim, zamon mundog' buzurgvorlar sharif vujudlari bila orosta va davron mundoq rafe' miqdorlar xilqatlari bilan piyrosta erdi", deb bitgan fikrlari bilan yakunlashga harakat qildik .

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Алишер Навоий.. Хамсат ул мутахаййирин. МАТ. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999.
2. Иззат Султон..Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010.
3. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. 2-том. – Тошкент: Фан. 1977.
4. Ғаниева С. Навоий ёга олган асарлар. – Тошкент: ТошДШИ нашриёти, 2014.
5. Ражабова Б.Навоийнинг шахсий кутубхонаси. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент: , 2023.

ALISHER NAVOIY HAQIDAGI AYRIM ASARLAR XUSUSIDA

Otabek JO'RABOEV,
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat
adabiyot muzeyi direktor o'rinbosari,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
atabekrj@gmail.com
Orcid ID: 0000-0001-9997-1488

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy haqidagi yaratilgan ko'plab adabiy va tarixiy asarlar haqida qisqa ma'lumot berilgan. Ba'zi asarlar tahlil doirasiga tortilgan. Jumladan, Bobur, Vosifiy, Davlatshoh, Husayniy va boshqalar asarlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, tarix, talqin, abjad, manba.

Аннотация

В статье дана краткая информация о многих литературно-исторических произведениях, созданных об Алишере Навои. Некоторые работы включены в предмет анализа. В частности, были изучены произведения Бабур, Васифе, Давлатшаха, Хусайни и других.

Ключевые слова: Навои, история, интерпретация, абджад, источник.

Abstract

The article provides brief information about many literary and historical works created about Alisher Navoi. Some works are included in the scope of analysis. In particular, the works of Babur, Wasify, Davlatshakh, Husayniy and others were studied.

Key words: Navoi, history, interpretation, abjad, source.

Millat va vatan tarixida o'chmas iz qoldirgan daholar har bir xalq tarixida topiladi. Lekin asrlar osha xalqning ma'naviy butunligi va borlig'i uchun kurashgan va o'z nomini oltin harflar bilan yozdira olgan ulug'lar u qadar ko'p emas. Ana shunday muhtaram zotlardan biri Alisher Navoiy haqida tarix davomida yaratilgan asarlar borasida to'xtalsak. Bular:

- 1) Alisher Navoiy haqidagi maxsus asarlar;
- 2) doston va tarixiy asarlardagi Navoiyga bag'ishlangan bob yoki qismlar;
- 3) tazkira va ilmiy asarlar.

Birinchi toifadagi asarlar sirasida ilk galda, G'iyosiddin Humomiddin Xondamir (1475-1535) qalamiga mansub "Makorim-ul-axloq" (Olijanob sifatlar) asarini keltirish kerak.

Navoiy tarixchi Mirxondga o'zining boy kutubxonasidan unumli foydalanishga va moddiy jihatdan ehtiyojmand bo'lmasligiga ham sharoit yaratib bergan. Yana, shunday hodisa Mirxondning nabirasi Xondamir bilan ham ro'y beradi. Keyinchalik Xondamir ham Navoiyning to'la e'tibori va homiyligi ostida ijod qilgan, uning ixtiyorida Navoiyga mansub nodir manbalarga to'la kutubxona bo'lib, o'ziga kerakli eng noyob kitoblarni shu yerdan topar edi; Navoiy hayotlik chog'ida (1500) unga bag'ishlangan "Makorim-ul-axloq" asarini yozishni ham boshlagan.

Biroq, ulug' shoirning bevaqt vafoti tufayli uni taqdim etolmagan. Shunisi qiziqki, Navoiy aynan Xondamirning qo'lida jon beradi. Bu betakror daho insonning vafoti esa yosh tarixchini chuqur qayg'uga soladi va bir qancha vaqt qo'li ishga bormay ham qoladi. Faqat Sulton Husayn Boyqaroning talabi bilangina u mazkur asarni tugatadi [1.29].

Asar Navoiy hayoti, ijodiy merosi, ijtimoiy-siyosiy va homiylik faoliyati haqida birmuncha batafsil ma'lumot beruvchi manbadir. Navoiy kutubxonasida xodimlik qilgan Xondamir shoir va uning fazilatlarini yaxshi bilardi. Shu bois uning bu memuar asari dalillarga boyligi va qiziqarli ekanligi bilan ajralib turadi.

Asar muqaddima, o'n maqsad (bob) va xotimadan iborat. Ularda Navoiyning tavalludidan vafotiga qadar bo'lgan ma'lumotlar lo'nda va go'zal tarzda bayon etilgan. Shoirning yuksak axloqiy fazilatlarini nafaqat sanalgan, balki ularga aniq misollar ham keltirilgan. Bu haqda to'xtalish ortiqcha. Zeroki, asarning o'zbekcha tarjimasi bir necha bor chop etilgan (1940, 1949, 1967, 2015). Akademik I.Sulton ta'rifi bilan aytganda: "Makorim-ul-axloq"da Navoiyning biografiyasi emas, balki uning tarixi, xarakteristikasi masalasi birinchi o'rinda turadi.

Sulton Husayn mirzoning ham Navoiyga maxsus bag'ishlangan "Risola"si mavjud. Hajman qisqa, ammo Navoiy ijodiyoti haqida juda muhim ma'lumotlarni bera oluvchi bu asarda Husayn Boyqaro baland ohang va mukammal uslubda shoir asarlariga yuksak baho beradi. Taxminlarga ko'ra, bu asar Navoiy "Xamsa"ni yozib tugatgan – 1485-yil yaratilgan. Aynan unda:

"...Mir Alisher aslahal-lahu sha'nahukim, taxallusi Navoiyg'a mashhurururu ash'orida bu taxallusi mastur, turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi... Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojizturur..." tarzidagi ajib ta'riflar o'rin olgan [2.13].

Yana Navoiyga bag‘ishlangan asarlar qatoriga alohida she‘rlarni ham kiritish mumkin. Misol uchun, Davlatshoh Samarqandiyning mulamma‘ (o‘zbekcha-forscha) qasidasi ma‘lum. Jumladan unda shunday satrlar bor:

*Bo‘ldi zohir kufri imon kufri zulmat nuridin,
Shoh xovaridin hazimat qildi xayli barbari...
To maloik did ro‘yat, sajdahoi shukr kard,
Aksi ruxsorat chu paydo, gasht, pinhon shud pari...
Chun malomat mantiqi to‘ti nadorat holate,
Bo labat shakkartare chi bud, chu tu shirintari...
Tiyning, yo Rab, maloikdinmudir kim dunyoda,
Bo‘lmadi zohir saningdek davri ayyomda pari...
Osmoni ma‘dalat, xurshidi din, bahri sharaf,
Onki xo‘rda go‘shmolash go‘shi charxi chanbari.
Mazhari davlat Alisher, ulki sheri Haq erur,
Har maolikda aning fathu saodat yovari!.. [3. 195-196]*

Yoxud Navoiyning yaqin do‘stlaridan bo‘lgan Mavlono Fasihiddin Sohibdoronning katta hajmli tarkibbandi ham bor. Ushbu she‘rning har bayti birinchi misrasidan shoir tavallud tarixi (hijriy 844) va ikkinchi satridan esa vafot yili (hijriy 906) abjad hisobida kelib chiqadi. Ushbu tarkibband-ta‘rixda Navoiydek zotning dunyoga kelishi qanchalik xayrli va quvonchli bo‘lgan esa, uning vafoti zamondoshlarini shunchalik chuqur g‘am-g‘ussaga ko‘mib ketgani ta‘kidlanadi.

Yana Xondamir, Sulton Ibrohim Amoniy, Fasihiddin Muhammad Nizomiy Oxund, Kamoliddin Sulton Husayn, Mavlono Darvish Ali kabilarning ham shunday ta‘rixlari ma‘lum. “Tarixi tom” asarida muallifi noma‘lum bir ta‘rix keladiki, unda hazrat Navoiy quyoshga o‘xshatilib, u bu dunyodagi juda ko‘p xayrli amallari evaziga jannati bo‘lganligi ta‘kidlanadi. Bu esa Navoiy siymosining tarix ahli nazdida nurli ekanligi va o‘zining esa chin ma‘noda pok insonligiga ishoradir.

*Miri xurshidsifat Mir Alisheri shahir,
Raxt ba bast chu zi-i zoviyai purmehnat.
Soli ta‘rix vey az manzili o‘po‘rsidam:
Omad ovoz zi Firdavs, ki: “Jannat, jannat!” [4.63]*

Ya‘ni:

Quyosh sifatli mashhur (zot) Mir Alisher,
Bu azob to‘la zoviya (dunyo)dan butunlay ko‘chdi.
Ta‘rix yili va manzilini so‘rasam,
Firdavs bog‘idan ovoz keldiki: “jannat, jannat”.

Matndagi “jannat” soʻzining ikki marta kelishi abjad hisobida 906ni – Navoiy vafot etgan yilni koʻrsatadi.

Navoiyning mansabga tayinlanishi, Hirot va uning atrofida qurdirgan koʻplab inshootlar sanasi haqidagi taʼrixlar ham maʼlum. Mavlono Atoulloh Roziy va Amir Burhoniddinning Navoiy amirlik mansabiga tayin etilishi munosabati bilan, Mir Husayn Muammoiy, Darvish Ali tabib, Qozi Ixtiyoriddin, Mir Burhoniddin Atoulloh kabilarning Navoiy qurdirgan madrasalar bitishi va u yerda dars berilishi munosabati bilan taʼrixlar aytganlar. Ulardan Mir Atoulloh hijriy 891 (milodiy 1486) yil Navoiy qurdirgan bir madrasaga bagʻishlangan taʼrixida:

Chun madrasa soxt Mir bo ilmu adab,

Farmud murod ifodai ahli talab.

Chun dar shashumi mohi Rajab kard ijlos,

Taʼrix talab az “shashshumi mohi Rajab” [5.20].

Yaʼni:

Ilmu adab egasi Mir (A.Navoiy) madrasa qurdirib,

Derdiki, murod (istak) talab ahlini oʻqitmoqdir.

Rajab oyining oltinchisida darsga oʻtish boshlandi

Taʼrix talab qilsang: “Rajab oyining oltinchisi”dan qidir.

Bu oʻrinda Navoiyning qurdirgan madrasadan asosiy maqsad ilm ahlini ehtiyojini qondirish ekanligi uqtilarmoqda. Shu bilan birga, yana bir muhim jihat ham borki, haqiqatan, Amir Alisher Navoiy nafaqat oʻzi qurdirgan madrasa-yu boshqa binolar tufayligina emas, balki katta ilm va yuksak adabga sohibligi bilan ham hurmat qozonolgan zot edi.

Ikkinchi xil asarlar ham birmuncha boʻlib, ular quyidagilardir:

Mavlono Abdurahmon Jomiyning “Fotihatush-shabob” devoni, “Layli va Majnun” va “Haft paykar” dostonlarida ham Navoiyga yuksak taʼrif berish barobarida, uning ijodiy dahosiga ham juda yuksak baholar berilgan.

XV-XVI asrlar tarixini aks ettiruvchi muhim tarixiy asarlarda ham Alisher Navoiy hayoti, ayniqsa siyosiy arbob sifatidagi faoliyatiga doir juda koʻplab muhim maʼlumotlar aks etgan. Jumladan, Muhammad ibn Xovandshoh Mirxond (1433-1498) oʻzining “Ravzat-us-safo fi siyari-l-anbiyo val-muluk val-xulafu” (Nabiylar, maliklar va xalifalar tarjimai holidi soflik bogʻi) asari. Aslida, ushbu mashhur asarini Mirxond Navoiyning maslahati va rahbarligi ostida yaratgan. Aynan unda Navoiyning “sohib tadbirligi”, Yodgor mirzoga qarshi “muhorabalardagi ishtiroki”, amirlik mansabi, Astrobodga borishi, ukasi Darvish Alining isyoni, Badiuzzamon va Muzaffar mirzo oʻrtalaridagi muxolafatni bartaraf

etishi, Mo‘min mirzoning qatli, hajga jo‘nashi, ammo Mashhaddan Sulton Husayn chaqirtirib kelishi haqidagi tarixiy hodisalar zikr etilgan.

Mirxondning nabirasi Xondamir “Makorimul-axloq”dan tashqari yana uchta tarixiy asarida Navoiyni birqancha o‘rinlarda yodga oladi. Xususan, Xondamir Navoiy rahnamoligida, olti oy (1499) ichida yozib tugallagan, ilk tarixiy asari “Xulosat-ul-axbor fi ahvoli-l-axyor” (Xayrli kishilar ahvolidagi jahon xabarlarining xulosasi)da Navoiy haqida juda muhim tarixiy hujjat va ma‘lumotlarni keltiradi. Masalan, Hirotda Navoiy insho etgan binolar, obod qilgan ziyoratgohlar, Navoiyga do‘st va uning himmatidan bahramand bo‘lgan olim, shoir, xattot, san‘atkor va boshqalar haqida.

Xondamir qalamiga mansub vazirlar haqidagi “Dasturul-vuzaro” asarining bir necha sahifalarida Navoiyning vazirlik maqomidagi yaxshi ishlari va siyosiy faoliyatiga ta‘riflar bersa, o‘z zamonasining eng muhim asarlaridan hisoblanadigan “Habib-us-siyar”da Sulton Husayn davri tarixining juda ko‘p o‘rinlarida Navoiy tilga olinadi yoki aynan u bilan bog‘liq tarixiy voqealar hikoya qilinadi.

Mazkur asarning ahamiyatli yana bir jihati shundaki, Xondamir avvalgi asarlarda yoritishni unutgan yoki kam to‘xtalgan Navoiy bilan bog‘liq voqea-hodisalarni batafsil keltiradi, uning tarixiy siymosiga aniqroq chizgilar tortadi.

Aytaylik, Alisher Navoiy barcha amalu mansablarga o‘z ixtiyori bilan kelgan emas, aksincha, ulardan iste‘fo berishda esa o‘z ixtiyori bilan yo‘l tutgan. “Habibus-siyar”da keltirilishicha, Navoiy muhrdordik lavozimidan *“iste‘foga chiqdi va amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suxayliyni muhrdor qilib tayinlashni podshohdan iltimos qildi”*. Sulton Husayn uning bu iltimosini qabul qiladi va hijriy 876-yilning sha‘bon oyida (1472-yil, yanvar) Navoiyni yuqoriroq mansabga “devoni oliy amirligi”ga tayinlamoqchi bo‘ladi. Navoiy bu mansabni ham rad etib, vaj va sabab keltirsa-da, *“hoqonning munosib xohishiga binoan devoni oliy amirligi mansabini egalladi”* [6.121].

Bu o‘rinda bir muhim jihat – Navoiy tabiatidagi kamtarlik bo‘lib, u mansablar sari intilishni emas, xudbinlik qilmay ezgulikka xizmat qilishni hayotda maqsad qilganligiga urg‘u berilmoqda. Muallifning xolisligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Negaki, Xondamir ushbu asarini 1515-1523-yillarda yozgan. Bu davrda Sulton Husayn saltanati ham, temuriylar davri ham tugagan edi. U tarixiy haqiqatni, ulug‘ shoirimizning tarixdagi bor bo‘yini ko‘rsatishga intilgan.

Navoiyning yana ikki kichik zamondoshi o‘zlarining munosib tarixiy asarlarida u haqida juda unikal va qiziqarli dalillarni keltirganlar. Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) “Boburnoma”si va Zayniddin Vosifiyning (1486-1566) “Badoye’-ul-vaqoye” asarida Navoiy xarakteri va shaxsiyatini ochib, bir necha voqea va mulohazalar keltirilgan. Shunisi qiziqki, har ikki muallif ham Navoiyning nozikta’bligi va oliy xulqi haqidagi o‘rinlarga diqqat qiladilar.

Garchand, “Badoye’-ul-vaqoye”dagi hikoyalar ko‘proq badiiylik kasb etsa-da, ularda hujjatlilik va tarixiylik ham aks etib turadi. Vosifiy “Amir Alisher mijozi nazokati va latofati”, Navoiyning atrofdagilarga lutfu hazillari, “Navoiy ta’bida nafsoniy shahvat ruhiy lazzatga maylning cheklangani”, Binoiy bilan munosabati va yana boshqalar haqida hikoya qiladi.

“Boburnoma”da esa hijriy 911 (milodiy 1505-1506) yil voqealari bayon etilar ekan, Sulton Husayn mirzo umarosi qatorida Navoiy ham tilga olinadi va muhim ma’lumotlar keltiriladi. Keyingi sahifalar osha ham Alisher Navoiy turli voqealar munosabati bilan eslanadi. Bobur yozadi: *“...Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar...”*[7.132]

Bu o‘rinda Husayn Boyqaroga munosabati va unga bog‘liqligi nuqtai nazaridan Navoiy eslanayotgan bo‘lsa-da, Bobur juda muhim jihatga diqqat etmoqda. Ya’ni, podshohning har bir umarosi yoki begi uning “musohibi” (suhbatdoshi) bo‘lolmasligi va Navoiy aynan shunday yaqin ekanligi, ularning bu yaqinligi bolalikdan boshlanganini uqtirilmogda.

Shundan so‘ng, Bobur yana juda qisqa va asosli mulohazani beradi: *“Xususiyat bisyor ekandur.”* E’tibor bering, Navoiy va Sulton Husayn ko‘p xususda bir fikrdagi, o‘xshashliklari bisyor do‘st ekan. Aynan shunday to‘xtamni hech bir tarixchi bermagan edi. Yoki yana, tarixiy asarlarning aksarida Navoiy juda maqtalsa-da, undagi ikki xususiyat – nozikmijozlik va tez ranjishga maxsus urg‘u berilardi. Bobur esa ana shu jihatlarga ham nuktadonlik bilan javob topadi. Uning ta’kidlashicha:

“Alisherbekning mijozi nozukluk bilan mashhurdir. El nazokatini davlatining g‘ururidin tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur...”

Talqinga ko‘ra, xalq Navoiy tabiatidagi nozikmijozlik (nozik his-tuyg‘ular, suhbatdosh va do‘stni chertib-chertib tanlash, nafis va go‘zal narsalarni suyush, tavoze’, ozoda va sarishtalik kabi) xususiyatini o‘ta davlatmand va yuqori mansabga ega bo‘lgani uchun g‘urur-kibrga

berilgan, deya tasavvur qilardi. Yo‘q, aslo unday emas ekan. Bunday sifat u zotda tug‘madir. Chunki Samarqandda moddiy qiyinchilik bilan kechgan to‘rt yil davomida ham xuddi shunday “nozuk mijoz ekandur”.

Na Mirxond, na Xondamir, hatto keyinchalik Vosifiy va boshqalar ham aynan Navoiy shaxsiyatidagi ajib jihatlarni Boburchalik bu tarzda nozik kashf etib, bayon qilmagan edi. Umuman, Boburning Navoiyga munosabat, qarashlar va talqini boshqalarnikidan realligi va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Boburning xolavachchasi Muhammad Haydar mirzoning (1503-1551) “Tarixi Rashidiy” asarida “Mir Alisher zikrida” nomli parcha mavjud. Biroq undagi ma’lumotlar avvalgilarni deyarli qaytarig’idir. Umuman olganda, keyingi tarixiy asarlarda birmuncha takrorlar seziladi.

Ammo unchalik mashhur bo‘lmagan yana bir tarixiy asar borki, undagi ayrim dalillar yangiligi va qiziqarli ekanligi bilan ajralib turadi. Bu asar Abdulmo‘minxon ibn Abdullaxon (1598-yil vafot etgan) qalamiga mansub “Tom-ut-tavorix”dir. Atoqli navoiyshunos, prof. A.Hayitmetovning aniqlashicha, bu asarning yagona qo‘lyozmasi bo‘lib, uning uch sahifasida Navoiy hayoti bilan bog‘liq ba’zi muhim ma’lumotlar, jumladan, uning otasi, Samarqanddalik davri, Hirotga qaytishi, so‘nggi yozgan she’ri va vafoti haqida bildirilgan [8. 109-118].

Misol uchun, unda ta’kidlanishicha, shoirning otasi G‘iyosiddin Kichkina “bisyor saodatmand va nek (yaxshi) niyatlik”, olijanob kishi bo‘lgan va qo‘lga tushgan bandi (asir)larni xun pulini o‘z yonidan to‘lab, ozod qilib yuborar ekan. Yana, Navoiy vafot etishidan biroz avval yozgan g‘azalidan uch bayt keltiriladiki, bu she’r boshqa manbalarda uchramaydi. Uning maqta’si:

*Ey Navoiy, qil fido, jonongakim jon, lof erur,
Oshiq o’zni ishq da’vosida mashhur aylamak.*

Uchinchi xil asarlar ya’ni, tazkira va ilmiy asarlar ham birmuncha. Tazkiralar – Davlatshoh Samarqandiyni (1435-1495) “Tazkirat-ushshuaro”, Kamoliddin Husayn Gozurgohiyning (XV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari) “Majolis-ul-ushshoq”, Faxriy Hiraviyning (1497-1559) “Ravzat-us-salotin”, Hasanxoja Nisoriyning (1516-1597), “Muzakkiri ahbob”, Sodiqbek Sodiqiyning (1533-1610) “Majma’-ul-xavois”, Sharafuddin Roqimiyning (XVII asr) “Tarixi tom” kabilardir.

Shu bilan birga, Boburning aruzshunoslikka oid bo‘lgan muhim asari – “Aruz risolasi”da ham Navoiyning bir qancha she’rlaridan keltiriladi, ayrim fikrlar bildiriladi. Ammo bu sof ilmiy asar bo‘lgani uchun Navoiy hayoti va shaxsiyatiga oid ma’lumot va fikrlar berilmagan.

Tazkiralarda esa aksincha, Alisher Navoiyni asosan shoir sifatida yod etiladi, asarlaridan ayrim namunalar beriladi. Shuningdek, shoir bilan bog‘liq ba‘zi tarixiy voqea va hodisalarga ham ishoralar beriladi, tahlil qilinadi. Masalan, Davlatshoh o‘z tazkirasida Navoiyni ta‘riflashni shunday talqin qiladi:

“Oftobni ta‘riflash aql qisqaligidan nishona, toza mushk fazilati xususida qissani cho‘zish johillik alomatidir. Bu ulug‘ amirning maqbul ishlari va qutlug‘ zikri rub‘i maskunning barcha mamlakatlarida ma‘lum, fazilatining dabdabasi va oliy himmatining kamoloti butun olamga yoyilgandir. Bu xususda nima deyilsa ham ibrat bo‘lg‘usidur...” [3.188].

Umuman olganda, tazkiralarning mualliflari Navoiy dahosi va shaxsiga bo‘lgan yuksak ehtiromlarini turlicha izhor etganlar. Misol uchun, bir qancha bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan “Majolisul-ushshoq” (ikkinchi nomi – “Tazkirai urafo”) muallifi – Amir Kamoliddin Navoiy haqidagi hikoyasini “*Xusravi iqlimi suxanoroyi...*” (so‘z iqlimining Xusravi) deya boshlaydi va ulug‘ shoirga bo‘lgan samimiy e‘tiqodini yashirmagan [9. 335-338].

Hasanxoja Nisoriy esa uni tushda ko‘rgani, Navoiy undan she‘rlaridan yod bilish-bilmasligini so‘rganligi, iltifot qilganligini aytadi [10. 135].

Faxriy Hiraviy esa: “*Amir Alisher – mag‘firatpanohiy. Uning ahvolining sharhi shu qadar ko‘pligidan bayon chegarasiga sig‘maydi...Uning ulug‘ligi quyoshdek ayondir...*” deydi [11. 108-109].

Ta‘kidlash lozimki, tazkiralarda bir fikr hamisha bosh planda aks etgan, u ham bo‘lsa – Navoiy turkiy va forsiy she‘riyatda mukammal asarlar yaratgan, tabiatining quvvati va qobiliyatining kengligini vasf etib tugatib bo‘lmaydi; u oftob-quyoshdir, uni ta‘riflash ortiqchadir.

Demak, miniatyuralarda aks etgan haqqoniy tasvir – Navoiy siymosi, nafaqat nazm quyoshi, balki insoniylik, olijanoblik, saxovatpeshalik va ilmu adab oftobi o‘laroq tarix davomida ham tasavvurlarda shakllanib qolgan. To hanuz, bu quyosh biz avlodlarga o‘z nurlarini taratmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Аlisher Navoi. Сборник статей. –Москва-Ленинград: АН, 1946.
2. Хусайн Бойқаро. Рисола. Нашрга тайёрловчилар: А.Рустам, К.Хасан. –Тошкент: Шарқ, 1991.
3. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Форс тилидан Б.Аҳмедов таржимаси. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

4. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. 2-том. –Тошкент: Фан, 1977.
5. Маҳмуд Ҳасаний. Таърихларда Навоий васфи. –Тошкент: Ғ.Ғулом НМБ, 1991.
6. Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Аҳмедов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. –Тошкент: Шарқ, 2002.
8. Ҳайитметов А. Ҳаётбахш чашма. Мақолалар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974.
9. Амир Камолиддин Ҳусайн Гозургоҳий. Мажолис-ул-ушшоқ. Ба аҳтимоми: Ғуломризо Табатабойи Мажид. –Техрон, 1376 (1998).
10. Ҳасанхожа Нисорий. Музақкири аҳбоб. Форс тилидан И.Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993.
11. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик, 16-жилд. –Тошкент: Фан, 2000.
12. Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 2. Мир Али-Шир и политическая жизнь. –Москва: Наука, 1964.
13. Бертельс Е.Э. Навои. –Москва-Ленинград: АН, 1948.
14. Великий узбекский поэт. Сборник статей. –Ташкент: УзФАН, 1948.
15. Жўрабоев О. Алишер Навоийнинг тарихий тафаккури // “Ўзбекистон тарихи” журнали. 2015. №1.
16. Жўрабоев О. Навоий ва тарих. (Рисола) -Тошкент: Tamaddun, 2016.
17. Зайниддин Восифий. Бадоеъ-ул-вақоеъ. Форсийдан Н.Норкулов таржимаси. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
18. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари.–Тошкент: Бадиий адабиёт, 1969.
19. Иззат Султон. Асарлар. Тўрт томлик, учинчи том. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973.
20. Levend A.S. Alişir Nevai. I cilt. Hayatı, sanatı ve kişiliği. –Ankara: Türk tarih kurumu basimevi, 1965.
21. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. –Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1963.
22. Навоий ва ижод сабоқлари. Мақолалар тўплами. –Тошкент: Фан, 1981.
23. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. –Тошкент: Akademnashr, 2011.
24. Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. –Тошкент: Muharrir, 2011.

25. Гиёсиддин Хондамир. Макорим-ул-ахлоқ. Форсчадан М.Фахридинов ва П.Шамсиев таржимаси. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1967.
26. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. –Тошкент: ЎзФАН, 1959.

АЛИШИР НАВАИ И СУФИЗМ

Салатин АХМЕДОВА,
Азербайджанский архитектурно-строительный университет,
доктор филологических наук, доцент (Азербайджан)

Резюме

Имея богатое наследие, творчество Наваи актуально и сегодня, несмотря на то, что прошли века, ведь он оставил после себя наследие, набор строк, мировой литературе. В статье рассказывается о жизни, творчестве Наваи, особенно представлениях и мнениях о произведении «Язык птиц» в других народных произведениях после него в литературе.

Ключевые слова: Алишир Наваи, литература, поэзия, суфизм.

Abstract

Having a rich heritage, Navai's work is still relevant today, despite the fact that centuries have passed, because he left behind a legacy, a set of lines, world literature. The article tells about the life, work of Navai, especially ideas and opinions about the work "Language of Birds" in other folk works after him in literature.

Key words: Alishir Navai, literature, poetry, Sufism.

Али-Шир Наваи, также известный как Низам-ад-Дин Али-Шир Херави (чагатайский тюркский / персидский: نظام‌الدين علی‌شیر نوايي), был тюркским поэтом, писателем, политиком, лингвистом, мистиком и художником, который был величайшим представителем чагатайской литературы. Под псевдонимом Фани (смертный) писал на фарси, но основные произведения создал под псевдонимом Навои (мелодический) на литературном чагатайском языке, на развитие которого оказал заметное влияние. Его творчество дало мощный толчок развитию литературы на тюркских языках, особенно чагатайской, и воспринявших ее традиций литературы на узбекском и уйгурском языках.

Наставник и друг Алишера Навои Абдурахман Джами (1414-1492), подчеркивая его тюркское происхождение, писал: «Хотя он был тюрком, а я таджиком, мы оба были близки друг другу».

Низамаддин Мир Алишер родился в семье чиновника государства Тимуридов Гиясаддина Кичкина, дом которого посещали видные деятели философской мысли и искусства того времени. Дядя Мир Алишера – Абу Саид – был поэтом; второй дядя — Мухаммед Али — был известен как музыкант и каллиграф. С юных лет Алишер воспитывался с детьми тимуридских семей; он был особенно дружен с султаном Хусейном, впоследствии главой государства Хорасан, тоже поэтом, меценатом.

В 1466-1469 годах Алишер Навои жил в Самарканде и учился в медресе. Здесь у него появилось много друзей. После прихода к власти своего друга тимурида Хусейна Байкара Алишер Навои вернулся в родной Герат.

Навои оказывал меценатство и финансовую поддержку ученым, мыслителям, художникам, музыкантам, поэтам и каллиграфам. При нем сформировался круг ученых и творческих людей, куда в числе прочих входили он сам, Джами, султан, писавший стихи под псевдонимом Хусайни, историки Мирхонд, Хондамир, Васифи, Давлятшах Самарканди, художник Бехзад, архитектор Кавам-ад-дин. По инициативе Навои и под его руководством в Герате велось строительство: на берегу канала Инджил возводились медресе, ханака, библиотека, больница.

Как мыслитель Алишер Навои был членом суфийского ордена дервишей Накшбанди. Следуя этике суфия, Навои соблюдал целибат и не имел гарема.

Творческое наследие Алишера Навои огромно и многогранно: оно включает около 30 крупных произведений - диванов (сборников стихов), поэм (дастанов), философских и научных трактатов. Используя многовековые культурные традиции мусульманских народов Средней Азии и Ближнего Востока, Алишер Навои создает совершенно оригинальные произведения.

Из-за его выдающейся поэзии на чагатайском языке многие во всем тюркоязычном мире считают Навои основателем ранней тюркской литературы. Его именем названы многие места и учреждения Средней Азии.

Лирические стихотворения трудно датировать, так как отклики на известные нам факты жизни поэта улавливаются в них довольно

редко, а событийность им совершенно не свойственна. «Сокровищница мыслей» — лирическая исповедь поэта, передающая всю гамму его переживаний. Наряду с внешним любовным планом в них присутствует и высший — одухотворенный по-суфийски и использующий традиционные образы чувственной лирики в метафорическом ключе. В то же время оригинальные метафоры Навои переплетаются с традиционными, почерпнутыми им из богатой традиции восточной поэзии.

Одной из своих главных задач Навои считал развитие литературного чагатайского языка (тюрков). Именно в лирике поэта тюркский стих достиг своих высот. художественная выразительность: его газели поражают филигранной отделкой деталей, виртуозным соблюдением формальных правил, смысловой игрой, свежестью образов, аллегорий и метафор. Благодаря лирике Навои фарси теряет статус единственного литературного языка. Однажды Бабур в книге «Бабур-наме» сказал о языке навои:

Поэт также составил так называемую «Диван-фани» — сборник лирических стихов на фарси. Богатство тюркского языка доказано многими фактами. Талантливые поэты, вышедшие из народной среды, не должны раскрывать свои способности на персидском языке. Если они могут творить на обоих языках, то все же очень желательно, чтобы они писали больше стихов на своем родном языке. И далее: «Мне кажется, что я утвердил великую истину перед достойными людьми тюркскими народами и они, зная настоящую силу своей речи и ее выражений, прекрасные качества своего языка и его слов, избавились от пренебрежительных нападок на их язык и речь теми, кто слагает стихи на персидском языке.»

Вопросы теории словесности и стихосложения поднимаются в трактате «Шкалы размеров». Теоретические положения и само творчество Алишера Навои оказали огромное влияние как на развитие узбекской и уйгурской литературы на чагатайском языке, так и на развитие других тюркоязычных литератур (туркменской, азербайджанской, турецкой, татарской).

В конце жизни Алишер Навои пишет аллегорическую поэму «Язык птиц» («Парламент птиц» или «Симург») и философско-аллегорический трактат «Возлюбленный сердце» посвященный лучшему устройству общества. В книге раскрывается влияние произведений Юсуфа Баласагуни и Гулистана Саади. Книга осуждает жестоких, невежественных и безнравственных правителей и

утверждает идею централизации власти в руках справедливо просвещенного правителя. На протяжении всей своей жизни Алишер Навои совмещал литературную и политическую деятельность. Будучи человеком высокого положения, он внес значительный вклад в улучшение социально-экономической жизни страны; покровительство науке, искусству и литературе; всегда старались установить мир и согласие. «Язык птиц» — шедевр восточно-тюркской литературы (ныне узбекской), написанный одним из самых выдающихся поэтов Средней Азии Алишером Навои незадолго до своей смерти в 1501 году. История начинается с птиц мира, понимая, что они далеки от своего короля, и поэтому они начинают свое трудное путешествие с помощью мудрой птицы Удада в качестве их проводника. Удад выслушивает их жалобы и оправдания по пути и призывает их искать настоящую жизнь, даже если путешествие иногда бывает болезненным. Эта эпическая поэма в прозаической форме содержит множество анекдотов и рассказов из устной истории Шелкового пути и ислама.

Эта история призывает людей подняться над любым оправданием, которое они могут иметь в своем духовном паломничестве. Алишер Навои (1411-1501) известен в Средней Азии своими многочисленными сочинениями и прочным влиянием в Узбекистане, а также в современных республиках Центральной Азии. В современном Узбекистане Навои почитается превыше всех других поэтов и его присутствие до сих пор обнаруживается - его именем названы улицы, музеи и даже провинция и город. Его пословицы встречаются по всей Средней Азии, и он считается отцом узбекского языка. Его слова за мир и против угнетения сегодня так же актуальны, как и 5 веков назад. Навои жили в Герате, Афганистан. Его сочинения, пожертвования и его жизненный пример оказали неизгладимое влияние в Центральной Азии. В «Языке птиц» мы знакомимся с тем, что наваи считали важным в жизни. Это мир любви, который выходит за рамки разумного и готов вытерпеть все ради любимого. Эта книга для всех, кто ценит великую историческую литературу, а также для тех, кто нуждается во вдохновении в своем собственном паломничестве по жизни.

Один из лучших поэтов-вдохновителей, которых я нашел, — выходец из Центральной Азии 15 века по имени Алишер Навои. Его имя Навои буквально означает «владелец пения». Он жил с 1441 по 1501 год в основном в Герате, Афганистан, и является одним из

величайших поэтов Великого шелкового пути. «Статус мирового уровня приобрели таджикская, узбекская и туркменская литературы в произведениях Абд ар-Рахмана Джами, Алишера Навои и Махтумкули соответственно». премьер-министр. Он также был хорошим распорядителем своего высокого положения и помог основать многие необходимые институты. «Считается, что Навои основал, восстановил и наделил не менее 370 мечетей, школ, библиотек, больниц и других благочестивых и благотворительных учреждений только в Хорасане». Центральная Азия. Сегодня в современной стране Узбекистане его почитают выше всех других поэтов. Имя Алишера Навои на слуху у всей страны. Его именем названы главные улицы, театры, музеи, парки и даже провинция и город. Его пословицы на языке узбеков, туркмен и таджиков. Его считают отцом узбекского языка и одним из величайших поэтов Средней Азии. В своих шести эпических поэмах и более чем 100 000 поэтических строк он писал страстно за правду и любовь и яростно против угнетения. Одним из величайших источников для всех, кто ищет богатства человеческой жизни и деятельности, являются такие редкие поэты, как Навои, которые страстно проживают то, что так красноречиво делятся с нами словами. Всю свою жизнь Навои посвятил поиску и творческому раскрытию смысла и красоты жизни не только словами, но и жизнью. Сад определяется как хороший или плохой по плодам, которые он производит.

Любовь к Навои – это одновременно высокое, одухотворенное и изысканно-эротическое, земное чувство, которое подчиняет себе человека и лишает его свободы. И, в то же время, это не порождает у поэта пессимизма, так как любовное страдание понимает Навои как основу духовного возрождения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. Советская тюркология (1975). Изд-во Коммунист. Москва.
2. Навои А. Зеница ока: [Стихи]. (1991). Ташкент Изд.-полигр. об-ние им. Гафура Гуляма,
3. Навои А. Язык птиц / Пер. С. Н. Иванов. (2007). 2-е изд. — СПб.: Наука.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA IRFONIY G‘OYALARNING TURKIY TALQINI

Zulayho RAHMONOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Turkiy tasavvufiy adabiyotning tom ma‘noda shakllanishi Hoja Ahmad Yassaviy nomi bilan bog‘liq. Ammo Alisher Navoiy ijodining tasavvufiy maslakning turkiy ifodasi takomilida alohida o‘rni bor. Mazkur maqolada irfoniy g‘oyalarning turkiy talqinlarida Navoiyning shoirlik mahoratidan bahs yuritilgan. Turkiy so‘zlarning istiloh darajasiga ko‘tarilishi, turkiy ruhning ustuvorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tariqat, tasavvuf, ma‘rifat, ko‘ngil, o‘zlik, er, eran, ruh, nafs.

Аннотация

Буквальное формирование тюркской мистической литературы связано с именем Ходжи Ахмеда Яссави. Но особое место в совершенствовании турецкого выражения мистического маслака занимает творчество Алишера Навои. В данной статье рассматриваются поэтические способности Навои в турецких интерпретациях мистических идей. Подчеркивается подъем турецких слов до уровня терминов, приоритет турецкого духа.

Ключевые слова: секта, мистицизм, просветление, разум, самость, эр, эран, дух, самость.

Abstract

The literal formation of the Turkic mystical literature is associated with the name of Khoja Ahmed Yassavi. But a special place in the improvement of the Turkish expression of the mystical maslak is occupied by the work of Alisher Navoi. This article discusses the poetic abilities of Navoi in Turkish interpretations of mystical ideas. The rise of Turkish words to the level of terms, the priority of the Turkish spirit is emphasized.

Key words: sect, mysticism, enlightenment, mind, self, er, eran, spirit, self.

Fors va arab so‘fiyona she‘riyatining paydo bo‘lishi va tadrijiy bir shaklda mukammallikka erishuvi Bobo Tohir (vaf. 1010), Abu Said Abul Xayr (vaf. 1049), Hoja Abdulloh Ansoriy (vaf. 1088), Hakim Sanoiy (vaf.

1131), Umar Al-Foriz (vaf. 1235) nomlari bilan bog‘liq. Ular tasavvufiy tushunchalarning she‘riyatdan o‘rin egallashida boshlovchilardan bo‘ldi. Turkiy adabiyotdagi ilk ma‘rifiy dostonlar “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” zuhdiy g‘oyalarni aks ettirsa-da, chinakam turkiy tariqat asoschisi va turkiy so‘fiyona she‘riyatning boshlovchisi Xoja Ahmad Yassaviydir. Yassaviyshunos Ibrohim Haqqul bu haqiqatni “Ahmad Yassaviy” risolasida: “Ahmad Yassaviy o‘z ona tilini birinchi bo‘lib tariqat tili maqomiga ko‘tardi. Shuning uchun she‘rlaridagi har bir so‘z va har bir ibora islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurli va ilohiydir”, – deya ilmiy asoslagandi. Ta‘kidlash joizki, Ahmad Yassaviy asarlari asrlar osha xalq tili, xalq ohangiga yaqinligi bilan butun turkiy xalqlar qalbidan chuqur o‘rin egalladi. Shubhasiz, turkiy tasavvuf adabiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi Yassaviy nomi bilan bog‘liqdir. Mahmud As‘ad Jo‘shon hazratlari “... Yo‘lni hazrat Yassaviy ochgan, Yunus Emro esa shu yo‘ldan yurganlardan biri”, – degan edi. Darhaqiqat, Yunus Emro hikmatnavislikda ustodi Ahmad Yassaviy kabi so‘fiyona she‘riyatga, irfoniy tasavvufiy adabiyotga turkiy tilning jozibasini olib kirdi. Tasavvufiy zavq-shavq uning ilohiylarida turkona ruhni aks ettirdi. She‘r ritmi, jazbayu hassosiyat, axloq tarbiyasida turkiy evrilish bo‘ldi. Natijada, turkiy til orqali tasavvuf hikmatlari xalq yuragiga yanada yaqinlashdi.

Biroq badiiy-irfoniy adabiyotdan so‘z ketganda, turkiy olamda Alisher Navoiyning alohida o‘rni bor. Mutasavvif shoir tasavvufiy maslak va tushunchalarni bemisl san‘atkorlik bilan ifoda etdi. Avvalo, mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodiyoti Alloh taologa muhabbat, Unga chin qullikning ifodasidir. Aslida bu asarlar bani basharning nafsini tanishi hamda ma‘rifatulloh va ishqullohga erishishini ko‘rsatadi, biroq bu talqinlarda turkiy ruhning mavjudligi muhimdir. Navoiy adabiy tilda forsiy va arabiy so‘zlarni keng qo‘lladi va ta‘kidlash joizki, ularning turkiy tilda ishlatilishini qonunlashtirdi. Biroq unda turkiy tasvir va talqin hamisha ustuvor bo‘lgan. Avvalo, Navoiy Yaratuvchi, Birubor Alloh taoloni ba‘zan turkiy Tengri lafzi bilan ataydi.

Tengri chun odamni maxluq ayladi,

O‘zni oshiq, oni ma‘shuq ayladi[1: 181],–

satrlarida shoir Yaratuvchi, Odam, ishq, oshiq, ma‘shuq haqida komil bir tasavvur uyg‘otgan. Adabiyot hamida axloqqa erishish, xotami nabiy Rasululloh (sav) xulqi bilan xulqlanishdir. Albatta, bu insonning foniy dunyodagi ma‘naviy valodati hisoblanadi. Ushbu ma‘naviy safar natijasida hadisi sharifda aytilganidek: “Allohga xuddi Uni ko‘rib turgandek, agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turgandek ibodat qilish”ga, ya‘ni Ehson

maqomiga erishiladi. Shu ma'noda tariq, tariqat tasavvufda bir istilohdir. Navoiy tariqat mazmun-mohiyatini turkiy "Yo'l" so'ziga yuklaydi. Va uning asarlarida "yo'l" istiloh darajasiga ko'tarilib, hatto "Haq yo'li", "Tengri yo'li" birikmalari ham qo'llaniladi. "Mahbub ul-qulub"da o'qiymiz: "Tavakkul Haq yo'lida vosita asbobin raf' qilmoqdur va vasila hijobin daf' qilmoq... Tavakkul ahlikim, maqsud vodiysig'a qadam qo'yubdurlar yo'l zodi Haq xoni ehsonidin bilibdurlar". Nafs tarbiyasidagi ma'naviy yo'l xaritasi "Lison ut-tayr" asarida bosqichma-bosqich ko'rsatilgan. Va bu yo'llarni bosib o'tishdagi hollar tasvirlangan. Bir o'rinda shoir shunday deydi:

*Yo'l g'amidur maqsadu maqsud uchun,
Kim yer ul g'amni ko'ngul behbud uchun.
Ondakim yo'qtur bu g'am — er ermas ul,
Zod g'amdin topti qat' etgan bu yo'l.*

Bu yo'lning ozig'i dardu balodir. Uni chekkuvchi esa qalbdir. Navoiychalik turkiy Ko'ngil so'zini ta'rif tavsif aylagan boshqa shoirni uchratish mushkul. Tasavvuf ishq va irfon safaridir. "Hayrat ul-abror" dostonida esa bu yo'lchilikning betakror tasvirini ko'ramiz. Ma'lumki, dostonning XVII bobi "Ko'ngil ta'rifida..." deb ataladi va shoir azalda Xoliqning maqsadi Odami xokiy emas, balki ko'ngil ganjinasi ekanligini, shu bois kasbi kamolot aynan ko'ngilga, ruhga xosligini ta'kidlaydi:

*Solik ani arshi muallo dedi,
So'fi ani olami kubro dedi.
Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi.
Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh[2: 73].*

Solik uchun "arshi muallo", so'fiy uchun "olami kubro" sanalgan, xaloyiqqa sajdagoh olam Ka'basidan ko'ra Xoliqqa jilvagoh ko'ngil ka'basi qadrliroq ekanligi ko'ngil safarining badiiy talqini bo'lgan "Lison ut-tayr"da shunday bayon qilinadi:

*Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilsim ichra o'zin pinhon qilib.
...Aylaganda rozning ganjini arz,
Ne samo aylab qabul oni, ne arz.
G'ayri insonkim qilib oni qabul...
Ham zalum aylab xitobin, ham jahul.*

Anglashilmoqdaki, Navoiy butun koinotni yaratishdan maqsad inson, insondan g'araz esa maxzani irfon, Allohning omonatini qabul aylagan

KO'NGIL ekanligidan bahs etmoqda. Bu haqda Qur'oni karimda ham shunday deyiladi: "Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog'larga taklif etdik. Ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u o'ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)". Arzu samo, buyuk tog'lar qo'rqib qabul etmagan omonatni ahli zohir – Shariat, ahli botin esa – Ishq, deya tafsir etdilar. Atoyi hazratlari ham:

Yer, ko'k tahammul aylamagan ishq amonatin,

Joni hazini xastayi Odamg'a bog'ladi,–

deydi. "Ham zalum, ham jahul"ligi sabab omonatni qabul qilgan Inson Allohning yerdagi xalifasi bo'ldi. Tariqat ko'ngilni omonatga xiyonat etmaslik uchun tarbiyat etsa, adabiyot uning holat va kechinmalarini ifoda etadi. Adabiyotda Ko'ngil sayridan jozibalibroq hayrat yo'qdir. Navoiy buni ko'ngil hayratlarida ko'rsatib beradi. Natijada, turkcha ko'ngil so'ziga irfoniy mazmun baxsh etadi. "Avvalg'i hayrat"da hali vujudga kirmagan ko'ngil Adamdan malak olamiga tushib, uni sayr etadi. Birinchi hayrat – Xudoning borligini anglash, Yaratuvchisi kimligini fikr etish mushohada maqomidir. Ko'ngil "Ikkinchi hayrat"ida malak olamidan malakut olamiga tushadi hamda to'qqiz falakni kezadi. To'qqiz falakning bari Allohning zikrida ekanligini ko'radi va bu holdan yanayam hayratga to'ladi. Ikkinchi hayratdagi tasvirlar nafsi poklanib, ruhga sirdosh bo'lgan oshiq qullarning sayridir. Uchinchi daraja – nafsi mulhamadagi zokir nafaqat dunyoviy, balki uhroviy istaklardan ham voz kechadi. Basirati ravshanlashgan sayin olamlararo sayr etadi va butun koinotning zikridan ogoh bo'ladi. "Uchinchi hayrat"da esa Ko'ngil malakut olamidan badan mulkiga sayr etadi. Ko'ngilga doir tashbeh, ramzu majozlarning son-sanog'i yo'q. Biroq "Hayrat ul-abror"da o'ziga xos murojaatga guvoh bo'lamiz. Navoiy hali manzil makonini topmagan ko'ngilga "Xoja" deya murojaat etadi. Zero, insonning insonligi, uning yaratilishidagi maqsadga e'tibor qaratsak, ko'ngilning mohiyatini ushbu ta'rif to'la ochib beradi. Ya'ni insonning sohibi, xo'jayini ko'ngildir. Mabodo u vujudga qaram bo'lsa, ana shunda adashish, jaholat boshlanib, inson zalolatga yuz tutadi. O'zligidan, oliy haqiqatdan uzoqlashadi. Adamdan malak, malakdan malakut, malakutdan vujud olamiga kelgan ko'ngilning sayri qachon tugaydi? Tasavvuf va adabiyot mana shu savolga javob beradi va insonni so'nggi sayrga tayyorlaydi. Abadiyat tushunchasi va unga erishish imkoniyati bilan inson maxluqotlardan ajraladi. Insonlar abadiyat, hali oldinda boqiy hayot borligini anglashi bilan hayvondan farq qiladi. Bu yo'lchilikdan asosiy maqsad – abadiyat ozig'ini tayyorlash. Adabiyotning maqsadi insonga

nafsini tanitish, zotan “Nafsini tanigan Robbini taniydi”. Haqni tanish oson emas, to kishi nafsiga orif bo‘lmaguncha, o‘zini ham, Robbini ham taniy olmaydi. Ko‘ngil Allohni tanimasa, har kimni, har narsani sevadi, chunki u sevgi uchun yaratilgan. Qalb Xoliqqa qullik qilmasa, maxluqqa qul bo‘ladi, chunki u abd sifati bilan yaratilgan. Ko‘ngilni xojaligini anglash, shoir nazdida, nafsni poklashdir. Navoiyda nafs ham aksariyat turkiy “o‘z”, “o‘zlik”, “menlik” so‘zlari bilan beriladi. Turkiy tilda o‘z, o‘zlik so‘zlariga katta e‘tibor berishgan. “Devoni lug‘otit turk”da “o‘z”ning shakldosh so‘z sifatida ma‘nolari izohlanadi. Jumladan, uning insonning yurak va qoriga tegishli a‘zolar ekanligi, shuningdek, “o‘z qonuqi”ning – gavda ichida harakat qiladigan narsa, ruh ma‘nolari ham beriladi. Qur’oni karimda nafs kalimasi uch xil sifat bilan ta’riflanadi: avvalo, “Hech shubhasiz, nafs – Robbim rahm aylamasa, faqat yomonlikka qistovchi (Yusuf: 12/53)” ammora nafs, ikkinchi “Malomatchi nafsga qasamyod etamanki, (qayta tirilib hisob-kitob qilinursizlar (Qiyomat: /2)!”) lavvoma nafs va nihoyat, “Ey xotirjam, sokin jon. Ato etilgan ne‘matlardan rozi bo‘lgan va Alloh taolo tomonidan rozi bo‘lingan holingda Robbingga qaytgin (Fajr: 89/27-28)!” deya ta’riflangan roziya nafsdur. Navoiy asarlarida mana shu nafslar “menlik”, o‘zlik” so‘zlari bilan beriladi. Nafsning tasfiyasi o‘zlikni mahv etish bilan belgilanadi. Mana bu misol fikrimizning dalilidir:

*O‘zni o‘zluk qaydidin aylab xalos,
Topib o‘zdin o‘zgalikka ixtisos.
Menu o‘zruk shirkatin mendin itur,
Mahz tavhiding sari, yo Rab, etur.
Menda, yo Rab, qo‘yma menlikdin nishon,
O‘zlugungda mahv qil domonkashon.*

Tavhid yo‘lida o‘zruk og‘ir yuk ekanligi, undan xalos bo‘lgachgina fano eshiklari ochilishini shoir qayta-qayta ta’kidlaydi. Tavhid maqomi ham turkcha “birlik” kalimasi bilan beriladi:

*Kim Rasulillohg‘a bo‘lg‘och bu maqom,
Kim Buroqin ayladi gardunxirom.
Yetti birlik gavharidin toj anga,
Bo‘ldi vahdat poyasi me‘roj anga.*

“Lison ut-tayr”dagi bu go‘zal hol izohini anglatuvchi birlik lafzi quyidagi o‘rinda ham tavhidga ishora qilib tavhid maqomini anglatadi:

*Oshiqi mahzunu ma‘shuqi hazin,
Bo‘ldilar ishrat uyida hamnishin.*

*Andoq o'ldi birlik oyini ravo,
Kim ikilik o'rtadin bo'ldi sivo.*

Ma'naviy safarda riyozat chekib, nafsini tarbiya qilgan orif zotlarni ham turkcha er, eran deb ataydi. "Ma'lumki, jahondagi aytarli har bir xalq, el va millatning o'ziga xos fe'l-atvori, asosiy fazilatini ifodalaydigan so'z, istiloh va timsollari bo'ladi. Er kishi, erkak, mard, askar, bahodir, himmatli, ilohiy fayz va xosiyat sohibi, rahnamo kabi o'nlab ma'nolarda qo'llanib kelingan er va eran kalimasi turkiy xalqlar tili va tarixida shunday mavqega egadir. Boshqasini aytmaganda ham turkiy yozma va og'zaki adabiyotdan er, eran, alp eran, g'ayb eranlari obrazlari chetga surilsa, uning nafaqat milliy-tarbiyaviy, balki umuminsoniy mohiyati ham kuchsizlanib, hatto mahdudlashib qoladi. Ular tilga olinganda mumtoz she'riyatdan mardlik, matonat, hikmat, jasorat kabi boqiy haqiqatlar yorishib, yolqinlashib kelganday tuyuladi" [3: 3], – deydi I.Haqqul. "Turklar va mo'g'ullarning qadimgi dini" kitobida er so'zi haqida esa: "... Turkchada er nomining berilishi, albatta, ruhning butunlikka, mukammallikka erishganini belgilash uchundir. Bu ot aslida ruhning o'zidir. Turklar bu so'zga muhim ahamiyat berganlar. O'rxun yozma yodgorliklarida bu ahamiyat quyidagicha ifodalanadi: "Onam xotunning baxtiligi uchun eng kichik avlodim Kultegin ER otini olmishdir", – deyiladi. Sayri suluk – ruh sayri ekan, manzilni qat' etgan, maqsadiga erishgan fano ahli – eranlardir... Mahmud Qoshg'ariy esa "eran – er so'zining ko'pligidir", – deydi. Eran mumtoz adabiyotimizda murshidi komil yoki insoni komilning umumlashma obrazi. Navoiy erlarni shunday ta'riflaydi: "Shariat – jodaedur tuz, anda xoh kecha yuru, xoh kunduz. Sirotedur, bag'oyat mustaqim, anda oziqmoqdin ne vahm va ne biym. Har kimki, ul yo'lg'a ozim bo'lg'ay, ikki jahon saodati anga mulozim bo'lg'ay. Andin chiqqan itti, tuz borg'on maqsadg'a etti. Har solikkim, maqsadg'a yetibdur, bu yo'ldin chiqmay ketibdur. Qildin inchka, qilichdin itik yo'ldur. Har kim bu yo'lni mardona qat' qilsa, er uldur!" Demak, er so'zi turklarda ruh bilan bog'liq o'z qudrati va muqaddasligiga ega. Er faqat erkak emas, balki ruhiy – ma'naviy kamolotga erishgan, nafsini mag'lub etgan ma'rifat sohibidir.

Shubhasiz, A.Navoiy o'z ona tilining targ'ibotchisi va turkiy til yalovbardoridir. Turkiy tilning, deyarli, ming yillik taraqqiyotida "hech kim oncha ko'b va xo'b aytqon emas". Shoir badiiy janrlarning barchasida turkiy tilda ijod qilib, mazkur tilning badiiy, leksik, grammatik va stilistik imkoniyati kengligi va rang-barangligini ham amaliy, ham nazariy isbotlab berdi. Navoiy an'anaga, ularning til materiallariga tayandi, turkiy urug' va

qabilalarning shevalaridan keng foydalandi. Navoiy ijodida turkiy sheva va tillar qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki buyuk ijodkor tasavvurida juda ko‘p shevali turkiy til, xuddi shunday ko‘p shevali arabiy va forsiy tillar kabi imkoniyati bemisl ekanligi dalillanadi. Shuning uchun Navoiy o‘zi bilgan va eshitgan shevalar, turkiy dialektlar va tillar materiallarini birday aralash qo‘llaydi. Bu bilan qablarni fath etgan Navoiy asarlari barcha turkiy tillarga mansubligini o‘zi ham e‘tirof etgan:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo ‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxi farmoning ‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko ‘ngul bermish so ‘zumga turk jon ham,
Ne yolg ‘uz turk, balkim turkmon ham.*

Navoiy ijodiyotidagi ma’no va hol uyg‘unligi, tasvir va bayon sehri ham turkiy tilning imkon va imtiyozlarini ko‘rsatib berdi. Asarlari bilan tasavvufiy she’riyat obrazlar olamini kengaytirib, lirik qahramonning ruhiy rutbasini yuksaltirdi. “Siroj ul-muslimin”, “Nazm ul-javohir”, “Munojot” kabi asarlari ham diniy tasavvurni badiiy tafakkur vositasida shakllantirishga xizmat qilganligi ma’lum. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” hamda “Xamsa” tarkibidagi dostonlari esa epik tafakkur kengligi, turkiy ruhiyatning ustunligi bilan ajralib turuvchi sanoqli asarlardandir. Xulosa qilib aytganda, A.Navoiy ijodida maqolada *o ‘z, o ‘zlik, menlik, yo ‘l, birlik, ko ‘ngil, er, eran* kabi so‘zlarning irfoniy istiloh darajasida qo‘llanganligidan bahs yuritildi. Biroq bu mavzu ulkan tadqiqotni talab qiladi va turkiy til imkon va imtiyozlarini ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy A. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. Toshkent. Fan, 1996.
2. Navoiy A. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Haqqul I. Navoiy ijodida er va eran obrazi. O‘TA. 2019 yil 1-son. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.
4. Jo‘shon M.A. Haqiqiy sevgi. Tarjimon: M.Kenjabeq. – Toshkent: Movarounnahr, 2000.
5. Rahmonova Z. ishq, irfon va irshod. – Toshkent: “Tafakkur tomchilari”, 2021.

KUBRAVIYLIK TA'LIMOTI VA ALISHER NAVOIY IJODI

Ulbo'sin AMETOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
ametovau20@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi falsafiy fikrlar va axloqiy qarashlar Najmiddin Kubro ijodi va kubraviylik g'oyalari bilan chambarchas bog'liqligi tahlil etilgan. Kubraviylik tariqatidagi nazar masalasi Alisher Navoiy asarlari misolida izohlanadi.

Kalit so'zlar: Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, kubraviylik, nazar, adabiy an'ana, izdoshlik.

Аннотация

В статье анализируется тесная связь философских мыслей и нравственных воззрений в творчестве Алишера Навои с творчеством Нажмиддина Кубро и идеями кубраизма. На примерах творчества Алишера Навои раскрывается тема видения кубравском тарикате.

Ключевые слова: Нажмиддин Кубро, Алишер Навои, кубравия, назар, литературная традиция, следован.

Abstract

The article analyzes the close connection between the philosophical thoughts and moral views in the works of Alisher Navoi with the work of Najmuddin Kubro and the ideas of Kubraism. The issue of vision in the Kubravian order is explained in the example of the works of Alisher Navoi.

Key words: Najmuddin Kubro, Alisher Navoi, Kubravia, nazar, literary tradition, following.

Alisher Navoiy temuriylar saltanatining murakkab, ziddiyatli bir davrida yashab ijod etdi. Uning hayot yo'li, serqirra ijodiyoti, shuningdek, ham siyosat, ham adabiyot sohasidagi birday sermahsul faoliyatini belgilashda bularni, albatta, e'tiborga olish lozim. Alisher Navoiy dunyoviy ishlar bilan qanchalar mashg'ul bo'lmasin, ruhoniy hayotdan bir lahza bo'lsin chekinmagan. Navoiy tabiatidagi dunyo hoyu havaslaridan etak silkigan uzlatnishinlik, Yaratganga bo'lgan muroqabayu, doimiy bo'lish kabilar ham taqdiri azalda bitilgan xalq osudaligi, saltanat tinchligi kabi davlat ishlaridan forig' eta olmadi. Bu nafaqat do'sti Husayn

Boyqaroning taxtga kelishi, balki zamonasining qutbul aqtobi Xoja Ahror Valiy hamda piri komili Abdurahmon Jomiylarning iltimoslari, ma'naviy ta'sirlari natijasi edi. "Natijada ulug'lik osmonining ushbu quyoshi "Allohga itoat etingiz, Payg'ambarga va o'z'laringizdan bo'lmish boshliqlarga itoat etingiz!" oyatiga muvofiq ish tutib hamda "Bir soat qilingan adolat oltmish yillik ibodatdan afzaldir" hadisini mulohaza qilib, amirlik lavozimi va vazirlik mansabini o'zining qutlug' qadami bilan ziynatlatdi" [1]. Husayn Boyqaro saltanatidagi har qanday ezgulikda Navoiyning hissasi borligi aniqdir. Saltanatdagi adolat, insof, tinchlikni shoir Navoiy shaxsiyatisiz tasavvur etish mushkul. Uning siyosat olamidagi hayot madrasasidan olgan ta'limi bilan ma'naviy yo'lchilikda ruhoniylar yo'l boshchidan olgan tarbiyasi mushtaraklik hosil qilib, ruhoniyatida komillik hosil etdi. Tasavvufiy hayot, tariqat ta'lim-tarbiyasi Navoiy yoshligidanoq ongu shuuriga singdirildi.

Navoiy madrasa ta'limini ko'rgan, zohir ilmi – shariat bilan bir qatorda botin ilmi – tariqatdan ham bolaligidan xabardor bo'lgan. Bu esa biror bir piri komilning etagini tutish maslagini Navoiyda qat'iy lashtirgan. Ruhoniyatidagi bu ehtiyoj o'laroq, 1476-yilda naqshbandiylik tariqatining piri komillaridan hisoblanmish Abdurahmon Jomiylarga murid bo'ldi. Navoiyshunos Y.Is'hoqov: "Navoiy garchi Jomiy bilan tanishib, unga keyinroq qo'l bergan bo'lsa-da, biroq u yoshlikdanoq o'z davrining buyuk siymosi bo'lmish Jomiy asarlari bilan, shuningdek, naqshbandiylikning asosiy xususiyatlari bilan tanish bo'lgan va tanisha borgan. Jomiyga qo'l berishi esa yosh Alisher e'tiqodidagi uzoq evolyutsiyaning rasmiy natijasidir", – degan edi [2]. Alisher Navoiy naqshbandiylik tariqatining muridi bo'lsa-da, O'rta Osiyodagi mashhur tariqatlar yassaviylik va kubraviylik tariqatlarining ta'lim usullarini puxta o'rgangan. Chunki bu davrda uchta tariqat peshvolari o'z faoliyatini teng olib borganlar. Alisher Navoiy ham har uchala tariqat namoyandalarining badiiy adabiyotini sevib o'qigan va ularning ibratli hayot yo'li, tariqatidagi o'ziga xosliklar asarlarida aks etgan.

Shayxi Valitarosh Najmiddin Kubro va u hazrat asos solgan mashhur kubraviylik tariqatidagi Allohga qurbat hosil etuvchi usullar, solik hol va maqomlarini ifodalovchi ramz va timsollar Navoiy ijodiga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Najmiddin Kubroning valiylik shaxsiyati, "at-tariqatuz-zahabiya", ya'ni "Oltin tariqat" nomi bilan mashhur bo'lgan kubraviylik tariqatining ta'siri Navoiyning do'sti, hammaslagi darvesh shoh Husayn Boyqaroning quyidagi istagidan ham namoyon bo'ladi: "... Hazrat sulton hazrati oliylariga shunday arz qildilar: Bir safar sizning Xudo

ko'nglingizga solgan narsalarni so'zlovchi tilingizdan: "Qachonki jahondorlik kabi o'ta mas'uliyatli bu ishdan zeriksam, avliyolarning sarasi bo'lgan shayx Najmiddin Kubroning o'zidan nurlar taratuvchi maqbarasida istiqomat qiluvchi yoki ulug' Tangrining yaqini bo'lgan Xoja Abdulloh Ansoriyning (Alloh ularning qabrlarini tabarruk qilsin) tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchi bo'laman", degan gap chiqqan edi. Biroq endi sizning bu orzungiz ushalmaydigan bo'ldi, menga esa to'la xohish va rag'bat bilan Hijoz safariga borishimga ruxsat bermaydilar. Shunga ko'ra sizning qutlug' shaxsingiz vakolati bilan qolgan umrimni Ansoriyaning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o'tkazishimga va saroy mulozimligi ishidan butunlay bo'shashimga ruxsat bersangiz..."[1]. Nafaqat Navoiy, balki butun ma'rifat va mamlakat saltanatida Husayn Boyqaro o'z ta'sirini o'tkaza olgan shaxsiyatlardan edi. Uning "avliyolar sarasi Najmiddin Kubro"ga bo'lgan cheksiz hurmati, uning maqbarasida jorubkash bo'lish istagi, albatta, atrofidagilarni befarq qoldirmagan. Shuningdek, yana bir temuriy podshoh Ulug'bek Mirzo o'zining "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi", 1425) nomli tarixiy asarida Shayx Najmiddin Kubroni "Jami musulmonlarning a'losi" deya ta'riflaydiki, bu ma'lumotlar ham shayxning temuriylar hukmronligi davridagi obro'e'tibori, valiylik shon-shuhratidan ham darak beradi. Va Navoiyning ham ahli dil sifatida Najmiddin Kubro va Abdulloh Ansoriydek buyuk zotlar ostonasida darveshona hayot tarzini yashash orzusi bo'lganligiga shubha yo'q.

Buyuk bir shaxsiyat sifatida ham Najmiddin Kubroga Navoiyning e'timodi baland bo'lgan. Ayniqsa, shayxu avliyolar haqidagi "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham keng o'rin ajratilgan sanoqli shayxlardan biri Najmiddin Kubrodir. Ma'lumot Kuniyatlari Abuljannob, otlari Ahmad b. Umar Xeva'iy hamda mashhur laqablari haqidagi xabar bilan boshlanib, bu ko'z o'ngimizda shayxni zohir va botin ilmida zamonasining tengsiz bir allomasi sifatida gavdalantiradi: "Va debdurlarki, Kubro andin laqab bo'ldiki, yigitlik avonidakim, zohir ulumi tahsilig'a mashg'ul ermishlar, har kim bilakim, munozara va mubohasa qilsalar ermish – ul kishiga g'olib bo'lurlar emish. Shuning uchun unga "Tommat ul-kubro" laqabini berdilar. ... Keyinroq "Kubro" deb atay boshladilar" [3]. Najmiddin Kubroning yana bir laqablari borki, u ahli tasavvuf orasida ko'p tilga olinadi. Bu shayxi Valitarosh, ya'ni valiylarni voyaga yetkazuvchidir. U kishining suhbatidan, hatto nazaridan ham odamlar fayzu barokat olar edilar. Zamira Is'hoqova shayxning o'tkir nazari hamda nazarkardalikka erishgan inson, shuningdek, jonzotlar haqidagi fikrlarini "Nasoyim"da

keltirilgan manbalar orqali dalillab yozadi: “Shayxning qalbida ilohiy ilhom (vajd) qo‘zg‘alganda uning nazari kimga tushsa, shu kishi valiylik xislatiga ega bo‘lgan. Xonaqohga tomosha uchun kirib kelgan bir savdogar shayxni vujud holida ko‘radi. Najmiddin Kubroning muborak nazari savdogarga tushgach, savdogarning holati o‘zgarib, qalbida valiylik nurlari paydo bo‘ladi va kasbidan voz kechib, sulukka kiradi. Shayxning bashorati bilan tariqatdan nasiba topib, o‘z yurtiga borib tariqatdan so‘z ochadi...” [4]. Zero, tasavvuf ahli ham ulug‘ shayxlarning atrofida gilar xayolidan kechgan o‘y-fikrlarni, ko‘nglidagi kechinmalarni farosat va karomat nuri ila anglashi haqiqatini, nazarning o‘tkirliigi valiylikning bir darajasi ekanligini Najmiddin Kubro va uning nazari tushib holi o‘zgargan it voqeasi bilan isbot etadilar. Navoiy ham ko‘ngil yo‘lchiligi, sayru sulukka oid barcha asarlarida bundan foydalangan. “Lison ut-tayr”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Sittai zaruriya” kabi asarlarida batafsil to‘xtalsa, lirikasining turli janrlarida ushbu voqeaga talmeh va tamsil san’ati orqali ishorat qiladi. “Nasoyim” tazkirasida bu voqeani shunday qisqa bayon qiladi: “Bir kun ul Hazrat majlisida As’hobi kahf ahvolining taqriri va tahqiqi o‘tar erdi. Shayx Sa’diddin Humaviy q. s.ki, Hazrat Shayxning as’hobidindur, xotirig‘a o‘ttikim, oyo bu ummatda andoq kishi bo‘lg‘aymukim, suhbatitga asar qilg‘ay? Hazrat Shayx karomat nuri bila ma’lum qildilar va qo‘pub xonaqoh eshigiga borib turdilar. Nogoh bir it yetishdi va quyruig‘in tebratadur erdi. Alarning mubarak nazarlari ul it sori tushdi. Filhol baxshish topib, mutahayyir va bexud bo‘lub, shahrdin yuz evurdi va go‘ristong‘a mutavajjih bo‘ldi va boshin yerga surtar erdi” [3]. Bu valiylar uchun ulug‘ bir rutba bo‘lsa, murshidlar uchun zarur bo‘lgan maqomdir. Piri komillar muridining qalbidan kechadigan har qanday fikrdan ogoh bo‘lmog‘i kerak. Shundagina tariqatda ildam odim tashlash mumkin. Shayx bu ma’noda tengsiz bir rahnamo, beqiyos bir peshvo edi. Navoiy ham ma’rifat nazari ila buni e’tiborsiz qoldirmagan. Qalb tasfiyasidagi soliklar uchun daliliy ibrat ma’nosida buni teran tahlil etgan: “Va alarni Shayx Valitarosh ham debdurlar. Oning uchunki, vajdu hol g‘alabotida muborak nazarlari har kimga tushsa, valoyat martabasig‘a yetar ermish” [3]. Valiylarning quvvai nazari bilan odamlarda hollar o‘zgargan. Yomonlik ezgulikka, hasad havasga, manmanlik tavoze’ga aylangan. Shu bois ularning ruhiy himmatidan, suhbatlaridagi fayzi barokotlardan odamlar har doim umidvor bo‘lishgan. Chunki valiylarning irfon majlislarida bo‘lish orqali ruh tazkiya topgan va solik o‘zlikdan qutulib, o‘zlikka etgan, ma’nan qayta dunyoga kelgan. Bu ta’sir nafaqat insonlarda, hattoki hayvonlarda ko‘rinishi yana-da ta’sirliroq bo‘lgan:

*Sukr vaqti soldi chun bir kun nazar,
Ul nazardin bo'ldi bir it bahravar.*

*Oshnolig'din yetishti choshni,
Tortib itlik siyratidin boshni.*

*Yuz qo'yub shayx ollida qildi niyoz,
Barcha itlar uzra bo'ldi sarfaro.*

*Har qayon shahr ichra qilsa erdi mayl,
Itlar erdi girdida andoqki xayl [3].*

Shayxning muborak nazari bilan it barcha itlar orasida sarfaro bo'ldi. Bunday ta'sir kuchiga ega sohibi karomatlar, albatta, barcha zamonlarda ham kam uchragan. "Lison ut-tayr"da kitobxonni jalb etadigan ma'lumotlardan biri Sulaymon nazari bois Hudhud ruhoniyaatidagi holga urg'u berish uchun Alisher Navoiy itga nazari tushgan Najmiddin Kubro to'g'risidagi rivoyatni keltirganidir. "Lison ut-tayr" dostoni qushlardan biri mavqelar, maqomlar masalasida "yashirin sirlardan" voqif bo'lgan Hudhuddan so'raydi:

*"... Tengdurur chun borimizg'a bolu par,
Sen nedinsen boxabar, biz – bexabar?"*

*Bu tafovutni sarosar sharh qil,
Kim nedindur, bizga ravshan aylag'il..."*

Shunda Hudhud javobining avvalidayoq qushning savoliga:

*O'truda bu bo'ldi Hudhudning so'zi:
"Kim manga tushmish Sulaymonning ko'zi..."*

*Kimga-kim aylar nazar ahli safo,
Ul nazar tufrog'ni aylar kimyo" [3],–*

deya javob bergani va bu orqali Navoiy tasavvufdagi nazar masalasiga o'z asarlarida ko'p o'rinlarda urg'u berganiga guvoh bo'lamiz.

"Lison ut-tayr"dagi "Shayx Najmiddin Kubroning so'zi va itga tushgan ko'zi haqida"gi maxsus bobda ana shu voqea bayon qilinadi:

*...Yetkurur itga natija ul nazar,
Zotig'a solur kishilikdin asar,*

*Itgakim yetgay validin tarbiyat,
Qushqa ham tong yo'q nabidan tarbiyat... [5]*

Bir valiy zot nazari tufayli itda va qushda “maqom” hosil bo‘lgan ekan, Sulaymon payg‘ambar nazari tushgan Hudhudning boshqa qushlarga peshvo bo‘lishi shubhasizdir. Navoiy asarning ushbu bobida Najmiddin Kubroning nazari bilan bog‘liq ikkita voqeaga: Shayxning nazari tushgach holi o‘zgargan qush va it bilan bog‘liq voqealarga aynan ishora qiladi.

Kubroning iti bilan bog‘liq hikoya Navoiyning mumtoz adabiyotda an’anaviy voqealar tizimiga olib kirgan yangiligidir.

Najmiddin Kubroning nazarkardaligi tazkira va manoqiblarda, dostonlarda tasavvufdagi bosh masalalardan biri ekanligi bois voqelik tarzda ifoda etilsa, lirikada badiiy san’atning go‘zal namunasi bo‘lgan talmeh orqali ishoratlar qilinadi. Navoiyning olti qasidasini jamlagan “Sittai zaruriya”dagi “Ayn ul-hayot” (“Hayot bulog‘i”) qasidasida ham shoir Kubro va nazarkarda it voqeasiga ishorat qilib, o‘quvchi diqqatini jalb etadi:

Hast mashhur in, ki Nachmiddinvashoni ummatat,

Chazba baxshand az yaqin bar sag nazar to afganand.

Ma’nosi: shu ma’lumki, ummatingning Najmiddin (Kubro) sifat avliyolari agar itga nazar qilsalar, shubhasiz, unga jazba bag‘ishlaydilar. [6] Mutafakkir Navoiy shayxning nazarkardaligini yodga olib, yana bir bor nafs tarbiyasida yuksak martabaga erishgan valiy zotlarga ishorat qilmoqda.

Mutasavvif Alisher Navoiyning Najmiddin Kubro shaxsiyati va kubraviylik tariqati odob-arkonlariga muhabbati cheksiz bo‘lgan. Bu holat uning nafaqat asarlarida Najmiddin Kubro nomi qayta-qayta tilga olinishi yoxud ustoz va xalifalariga oid ma’lumotlarning keltirilishida, balki asarlarida irfoniy g‘oya va obrazlar uyg‘unligida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G‘iyosiddin Xondamir. (2015). Makorim ul-axloq. G‘afur G‘ulom.
2. Is’hoqov, Yo. (1965). Alisher Navoiyning ilk lirikasi. Fan.
3. Navoiy, A. (2001). MAT. 17-tom. Fan, 2001.
4. Is’hoqova, Z. (2011). Najmiddin Kubro. ABU MATBUOT-KONSALT.
5. Navoiy, A. (1991). Lison ut-tayr. G‘afur G‘ulom.
6. Navoiy, A. (2008). Sittai zaruriya. Fan.

NAVOIY SHE'RIYATINING UVAYSIY IJODIGA TA'SIRI

**Barno ISOQOVA,
mustaqil tadqiqotchi
(Qirg'iziston)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy hamda Jahonotin Uvaysiy ijodidagi mushtarak xususiyatlar, xususan, obraz, ramz, timsollar o'xshashligi alohida e'tiborga olindi. Shuningdek, mutafakkir shoir va Uvaysiy baytlarini muqoyasa qilish asnosida, shoira badiiyatiga Navoiyning o'tkazgan ta'siri haqida xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: may, soqiy, jshiq, nafs pokligi, solik, ishq va sir ahli.

She'rda o'quvchiga shavq bag'ishlaydigan, uning fikr-qarashlarini yangilashga ta'sir ko'rsata oladigan jozibali, mukammal mazmuni kashf etish qiyin hunardir. Biroq o'zbek adabiyoti tarixida ham shakl, ham mazmunga putur etkazmasdan, ikkalasining uyg'unligida bitilgan go'zal asarlar etarlicha. Professor A.Hayitmetov "Hayrat ul-abror"da uslub rang-barangligi“ degan maqolasida Navoiyning mana shu asari haqida fikr yurita turib, shunday deydi: «Masalan, Navoiy Allohning buyukligini, uning avvalda ham bor bo'lganini, keyin paydo bo'lmaganini, abadiylikini, uning oxiri ham yo'qligini «Boshlang'ich», «O'rtalik» va «Oxir» degan tushunchalar ungagina tegishli ekanini hamma narsalarning Yaratuvchisi ham, bosh manbasi ham shu Allohning o'zi ekanini izohlaydi” [7, 28].

*Ne bo'lib avvalda bidoyat sanga,
Ne bo'lib oxirda nihoyat sanga,
Avval o'zung, oxiru mobayn o'zung;
Barchaga Xoliq boriga ayn o'zung.*

Ilohiyat fanini, avvalo Qur'on va Hadislarni yuksak darajada tushungan kishigina bu xil masalalar yuzasidan shunday tiniq fikr yuritishi, yuqori she'riy iqtidorga ega bo'lgan odamgina bu fikrlarni shunday go'zal va ravon satrlarga joylashtirishi mumkin. Aynan shu fikrlarni Uvaysiyga va uning she'rlariga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin. Asosan, Navoiy va Uvaysiy she'riyatidagi may timsoli alohida e'tiborga molik jihatlardandir.

*La'ling zakoti may tutub tirguzmasang, ey mug'bacha,
Dayr ichra men bir hastani ranji xumor o'lturgusi.*

Mug'bachaga (sharob quyuvchi bolaga) «may tut», deya xasta dil (lirik qahramon)ning iltijosi Navoiyning ushbu baytida nechog'li jonli

tasvirlangan bo'lsa, Uvaysiy g'azalidagi ushbu ko'rinish shunday aks etadi:

*Uvaysiy tashnalig'din etti jon beziga, ey soqiy,
Dag'i mayxonani och, dayr piridan olib ruxsat [3, 79].*

Har ikkala shoirning qahramonlari hayotga hushyor ko'z bilan qarash uchun ilohiy ma'rifatdan bahra olish zarurligini anglab yetgan so'fiylardir. Shuning uchun ularga «may quy» deyish nechog'lik tabiiy bo'lsa, komil bir murshid (mug'bacha, soqiy, pir) qo'lidan «may» - ishq sharobini ichib mastlikka berilish shartdir. U hushyorlikda bilmaganini shu mastlikda anglagan, «Soqiy» himmati va marhamati ila ishq va ma'rifatdan yangi g'oyalar, haqiqatlarni topgan. «May» - ma'rifat nuri, haqiqiy ishq «sharobi». Bu «may»dan aql-hushini yo'qotgan odam dunyoga eng hushyor va teran nigoh bilan qarovchi haqshunosdir [4, 10].

Haq oshiqlarida malolat tuyg'usi yo'qolishi, musht berganga ta'zim bajo etish hollari o'sha mastlik oqibatidan yuzaga kelganki, ular qahrga mehr bilan javob bera oladi. Oshiq tomonidan yetkazilgan har qanday jabru sitamlarni xush kayfiyatda qabul qilguvchi bo'ladilar. Shuning uchun mayni tark etmaydilar:

*Dema mayni tark etki, sakda yuzi,
Bu ko'zgu aro jilvagardir manga [3,20].*

Qachonki, kishida nafs poklanib, bu dunyoning chirkin havaslaridan tonganida qalb shaffof ko'zguga aylanadi. Qalbdan atrofga ilohiy nur porlaydi. Ko'r ko'zning ochilishi kishi dilida jilva qiladi. Xuddi shu ko'zgu aro jilvagarlik Allohning nurli jamolini ko'z-ko'z qiladi. Go'zallik idroki va ishtiyogi tubdan o'zgaradi. Shu tarzda solik hamma narsa va hamma joyda "Robbi"ni ko'rib, unga talpinadi. Chunki ishq uning ko'nglida yolqin sochadi.

...Bizningcha, Navoiy ramz tilini angelaydigan mahramdan so'zlaganda ishq va sir ahlini tasavvur etgan. Shu toifaning vafo maslagiga tayangan. Keyingi baytdagi ma'no buni to'la tasdiqlaydi:

*Durdi zaxm o'lmish ichu toshim, qadah quy og'zima,
Soqiyo, ko'ksima loyidin dog'i yoq marhame.*

«Durd» - sharobning quyqasi, to'liq soflashmagan boda. «Soqiy» - piri komil, shayx. Baytdagi botiniy mazmun shunday: Muhabbat azobi «ichu toshim»ni abgor ayladi. Ey piri komil, fayzingni darig' tutma, ishq yo'liga yo'llagil meni. Bag'rimdagi zahmlarning tabibi ham faqat sening o'zing va so'zingdir» [6, 71].

Uvaysiy piri murshidlikning juda ko'p jihatlarini Navoiydan o'rgangan, unga ergashib, bir qator go'zal oshiqona, orifona g'azallar yaratgan:

*Bo'lub bexush, soqiy, sog'oringdin sirni fot etma,
Uvaysiy na uchunkim, ushbu may ichmoqdadir rojib.*

Yoki,

*Qadam mayxonaga qo'y, zohido, kavsarga yetguncha,
Ki mundog' tashnalikning daf'iga piri mug'on bois.*

Solikning Alloh yo'lidagi, uning vasli orzusidagi riyozatlarning eng avji - ilohiy ma'rifatga cho'mgan «behush» holdir. Uvaysiy ham ushbu maydan benasib qolmay, deb ichmoqdadir, bu sirni fosh etma, soqiy, deyishi ana shu pog'onaga ko'tarilgan holdir. «Majnun - Boyazid Bistomiy yo'lidagi oshiq. Bu buyuk tasavvuf shayxi sukra-mastlik, behudlik yo'lining tarafdori bo'lgan. Uning uqtirishicha, ilohiy sharob hisoblanmish Alloh muhabbatidan mastu mustag'raq bo'lgan, o'zini unutgan kishigina ilohiy ma'rifatni his qila oladi. Mast bo'lmagan odam – oshiq emas. Mumtoz adabiyotda may va mastlikning bu qadar avj pardada kuylanishining sababi shunda» [8, 142].

Jumladan, «Uvaysiyning ijodiy izlanishlari va natijalarida Alisher Navoiy dahosining ishtiroki bag'oyat faol bo'lgan. Navoiy Uvaysiyning ustozidir. U ulug' shoir lirik merosini qunt va muhabbat bilan o'rgangan, o'zicha uning badiiy mahorat yo'llarini tadqiq etgan. Uvaysiy oshiqona g'azalning ko'rkam namunalarini yaratgan ijodkor. Uning g'azallarida muhabbatga chaqiriq, muhabbatga sig'inish, uni ulug'lash, ulug'ligini she'riy obrazlarda talqin etish tamoyili yetakchilik qiladi» [5,12].

*Azal kunda asar etganda sirri may qulogimga,
Bugun, vah, dil bulog'i jo'sh urmoqlikda toshibdur.*

"May"-Olloh muhabbati timsoli bo'lsa, "Sirri may"- Ilohiy ishq sirlaridir. Lirik qahramonning "dil bulog'ida ilohiy ishq sirlari" shu qadar jo'sh urib, toshmoqda. Uvaysiy:

*Uvaysiy, olma botin zikru fikri yor yodidan,
Suluki ishq aro **be yodi** Haq yo'ldin adoshibdir.*

Uvaysiyning asosiy tasvirlaydigani Yor, ya'ni Allohdir. Lirik qahramon Yorning yodini tark etsa, ishq yo'lidan adashib ketadi. «Be» - arab alifbosidagi ikkinchi harf bo'lganligi sababli uni yod olganlar Haq yo'lidan adashadilar. Haqni esa faqat "alif" - "bir" bilan belgilaydilar. Bu Allohning yagonaligiga ishoradir. Ikki deganlar esa so'zsiz adashganlardir.

Navoiyning shoh gʻazallaridan biri boʻlmish “aylagach” radifli gʻazali bilan Uvaysiyning shu radifli gʻazali ham maʼno mazmuni va shakl jihatdan hamohangdir:

*Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Shamʼi ravshanroq boʻlur torin parishon aylagach.
...Ey Navoiy ishq agar koʻnglingni majruh etmadi,
Bas, nedurkim qon kelur ogʻizngdin afgʻon aylagach [1,105].*

Shoir lirikasining asosiy qismini ISHQ mavzusi tashkil etadi. Oshiq qalbi kechinmalari shoir lirikasida turli ifodalar orqali oʻziga xos tasvirlarga ega boʻlgan. Uvaysiy ham ISHQ mavzusini ijodining asosiy qismida yoritishga erishgan:

*Bu yuzu qad birla gar sayri guliston aylagach,
Sarvni pomol etib, gulni parishon aylagach.*

Maqtaʼsi:

*Noʻla, Vaysiy, jonini parvona yangligʻ oʻrtagay,
Oʻzni bu bazm ichra shamʼi shabiston aylagach [2,33].*

Har ikki gʻazal ham ramali musammani mahzuf, yaʼni foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon) vaznida yozilgan.

Taqteʼsi: - V - - | - V - - | - V - - | - V -

Radiflari ham qofiyalari ham bir xil, gʻoyaviy-badiiy jihatdan mushtarak. Navoiyda anbarafshon, parishon, qurbon, vayron, uryon, hayron, pinhon, afgʻon kabi mukammal soʻzlar qofiya boʻlib kelsa, Uvaysiyda guliston, parishon, afshon, toʻla qon, mehmon, anbarafshon, xiromon, shabiston kabi mustaqil soʻzlar gʻazal mazmuni va shakli mukammalligi uchun xizmat qilgan.

Navoiy:

*Lolazor ermashki, ohimdin jahongʻa tushti oʻt,
Yoʻq shafaqkim, bir qiroqdin osmongʻa tushti oʻt.
...Ey Navoiy, bilki ohe chekmisham beixtiyor,
Desalarkim, beshayi Mozandarongʻa tushti oʻt [1,89]*

Shoir lirik qahramon – Oshiq ohidan butun jahon lolazordek qizorib ketganini tasvirlar ekan, tajohuli orif sanʼatidan, yaʼni bilib bilmaslikka olib, oʻzini oʻzi “goʻyoki inkor” qilib, Yoʻq, Yerdagi lolazorning qizilligi kam, chamamda, Quyosh botayotganda qip qizil shafaqqa oʻt tushdi, deya latif oʻxshatish bilan tasvirlaydi.

Uvaysiy gʻazalida ham aynan shunday radif borki, Navoiy qahramonidan kam oʻt tushmagan ajib tashbehlar mavjud:

*Intizoring ohidin bu xonumona tushti oʻt,
Xonumon nedur, bu kecha jismu jona tushti oʻt.*

*...Qay kuni ishqing havosi topdi ko'nglimda qaror,
Ul sababdurkimki Marg'ilona tushti o't [2, 30].*

Shoira ham aynan tajohuli orif san'atidan mohirona foydalanib, Oshiq intizorligidan xonumonga o't tushganini, va yana o'zi bu tavsif bilan qoniqmay xonumon nima emish, jismu jonga o't tushganini go'zal ifoda etadi.

Navoiy Mozandarong'a Uvaysiy esa Marg'ilonga o't tushganini bayon qilar ekan, har ikkala g'azal ham lirik qahramonning ishq o'tida kuyganligini yangicha talqin, go'zal tashbeh, o'rinli mubolag'a bilan tasvirlaganlar.

Navoiy va Uvaysiyning yuqorida keltirilgan g'azallari she'riyat uchun eng an'anaviy bo'lgan ramali musammani mahzuf, ya'ni foilotun-foilotun-foilotun-foilon vaznida yozilgan.

Taqte'si: - V - - | - V - - | - V - - | - V - .

Jahonotin Uvaysiy Alisher Navoiyning "Hayf" radifli, "Ey quyosh, vasfin demaqdin...", "Ey orazi - nasrin, sochi - sumbul...", "Zuhdi toat shahdini..." deb boshlanuvchi g'azallariga go'zal muxammaslar bog'lagan. Uvaysiy may obrazini yaratishda salaflari an'analarini davom ettirgan holda, o'zbek ayoli sifatidagi oshiqning sarxushlik, mastlik holatini go'zal tarzda ifodalagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 1-жилд.
2. Увайсий. Девон.-Т., 1963.
3. А. Навоий. ғазаллари. Шарҳлар. Р. «Камалак». Т., 1991.
4. Ҳаққулов И. Абадият фарзандлари. -Т.. 1990.
5. Ҳаққулов И. Увайсий шеърляти. Т, 1982.
6. Ҳаққулов И. Шеърлят ва тасаввуф, Т. 1997.
7. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижод олами. -Т.. 2001.
8. Очилов Э. "Навоийнинг ижод олами", "Фан" 2001.

AN'ANA, ADABIY TA'SIR VA BADIY TASVIRDAGI YANGILANISHLAR

Dilmurod ASQAROV,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amiriyning ustoz salafi Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasi tahlil qilingan. Shuningdek, Navoiy boshlab bergan an'ana munosib davom ettirilganligi hamda Amiriy she'riyatining badiiyati, qofiyasi, vazni yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: muxammas, taxmis, an'ana, adabiy meros, ishq, qofiya, mavzu, vazn.

Аннотация

В данной статье анализируется интерпретация Амири газели его предшественника Алишера Навои. Возникли мысли о достойном продолжении традиции, заложенной Навои, его артистизме, рифме и ритме.

Ключевые слова: мухаммас, тахмис, традиция, литературное наследие, любовь, рифма, тема, ритм.

Abstract

In this article, Amiri's interpretation of the ghazal of his predecessor Alisher Navoi is analyzed. Thoughts were made on the worthy continuation of the tradition started by Navoi, his artistry, rhyme and rhythm.

Key words: muhammas, takhmis, tradition, literary heritage, love, rhyme, theme, rhythm.

Ma'lumki, muxammas Sharq mumtoz adabiyotining yetakchi she'riy shakllaridan biridir. Ayniqsa, XVIII–XIX asrlar o'zbek she'riyatida muxammasnavislik ancha rivojlangan. Shoirlar o'zlariga ustoz deb bilgan salaflarning badiiy jihatdan yuksak g'azallariga muxammaslar bog'laganlar. Ayniqsa, Xiva va Qo'qon adabiy muhitlarida muxammasnavislikka alohida e'tibor berildi. Muxammaslardan iborat maxsus bayozlar tuzilib, to'plamlar tartib berildi. Adabiyotshunos Y.Is'hoqov ta'biri bilan aytganda, muxammas o'zbek adabiyotida "g'azaldan keyin eng ko'p yaratilgan lirik janr"dir [3.127]. Qaysi bir

shoirning devonini qo‘lingizga olmang, uning o‘tmish va zamondosh so‘z san’atkorlarining o‘zini ta’sirlantirgan va ilhomlantirgan g‘azallariga bog‘lagan qator taxmislariga duch kelasiz. Bu dalillar muxammasnavislikning taraqqiyot darajasidan dalolat beradi.

Amiriy ijodini Navoiyning ta’sirisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Amiriyning, ayniqsa, mutafakkir shoir Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida bu ko‘zga yaqqol tashlanadi. Amiriy muxammas bog‘lanayotgan g‘azalning vazn, g‘oya, mazmun unsurlari bilan birga obrazlar tizimini ham munosib rivojlantira olgan. Jumladan:

Sahldur to‘bo demak, ra’no niholingni ko‘rub,

Yoki jannat bog‘i gulzori jamolingni ko‘rub [2.39].

misrasi bilan boshlanadigan g‘azalni badiiy tasvir va ifoda usuli jihatidan munosib davom ettirgan. To‘qqiz baytli mazkur g‘azalni Amiriy to‘qqiz bandli muxammasga aylantirgan. Muxammasning dastlabki bandi ma’shuqa go‘zalligini beqiyos tasviri bilan boshlanadi:

Tushdi savdolar boshimg‘a, xattu xolingni ko‘rib,

Vola o‘ldum, gisuyi sunbulmisolingni ko‘rub,

Sonuram xuldi barin, ruxsori olingni ko‘rub,

Sahldur to‘bo demak, ra’no niholingni ko‘rub,

Yoki jannat bog‘i gulzori jamolingni ko‘rub [1.366].

Oshiq ma’shuqaning qora xolini ko‘rgach, boshiga turli savdolar tushdi, ya’ni qora kunlari boshlandi. Sunbulmisol o‘rilgan sochlariga nazar tashlaganda esa hayronu lol bo‘lib qoldi. Ma’shuqaning qip-qizil yonog‘i misoli jannat, go‘zal qaddi-qomati esa jannat bog‘idagi gulzor, oshiq uning yorqin jamolini ko‘rganida jannatning eng oliy joyi (to‘bo) deb bilishiga shak-shubha yo‘q. Ma’shuqaning go‘zalligini ko‘rsatib berish maqsadida ijodkor tashbehi kinoyat san’atidan mohirona foydalangan. Navoiy yorning sarvdek qaddi va gulgun yuzini ta’riflasa, Amiriy ustozining fikrlarini to‘ldirgan holda, mana shu go‘zallikka zeb berib turgan qora xolini, shahlo ko‘zini, sunbul sochini, qizil yonog‘ini ham keltirib o‘tadi. Umuman olganda, Amiriy kitobxon ko‘z oldida jabr-sitamlardan aftodahol oshiq qiyofasini gavdalantiradi. Muxammasda radif sifatida tanlangan “ko‘rib” so‘zi ham hamma ishga bir qiyo boqish – Yaratganning tajalliysi sabab ekaniga ishora qilgan.

Ey malaksiymo nigorim, ko‘rsatib oydek jamol,

Ko‘zgudek hayron etib, qildi tilimni gungu lol,

Ruhparvar la’ling uzra to namoyon o‘ldi xol,

Ravzada kavsar qirog‘inda xayol ettim Bilol,

Yuz aro lab, lab uza shabrang xolingni ko‘rub [1.366].

Go'zal yorning ta'rif-u tavsifi davom etar ekan, lirik qahramon – oshiq uning bir qiyo boqishidan ko'zgudagi aksdek holga tushib, lom-mim deyolmay qolgani aytiladi. Keyingi misrada esa ruhga jon bag'ishlab, uni tiriltiruvchi lablari ustidagi xoli ham bu ishning sababchisi sifatida ko'rsatiladi. Misrada Amiriy tashbeh san'atidan mohirona foydalangan. Navoiy yorning oppoq, chiroyli yuzida labi, labi ustidagi qora xoli go'zalligini ta'riflab, fikrning jonli ifodasi uchun jannatdagi kavсар bulog'i, uning qirg'og'ida esa Bilol turganini aytadi – favqulodda go'zal o'xshatish qiladi. Bilolning habash ekanligi yor labi ustidagi shabrang xoliga, kavсар suvining tiniqligi uning yuziga qiyoslangan.

*Hasratingdan har qachonkim ko'zlarimdin chiqti yosh,
Yoshlig'idin el aro pinhon g'amimni etti fosh,
Charxdin yuz o'gurub, qo'ydi ayoging uzra bosh,
Sog'inur, oshiqligingga ro'baro' kelmish quyosh,
Ko'zguda mashshota har soat misolingni ko'rub [1.366].*

Ishq dardidan hasrat chekib, har vaqt oshiq ko'zlaridan yosh to'kiladi. Ko'z yoshlari oshiqning pinhona muhabbatini el-ulusga fosh qiladi. Shoirning qofiya hamda ilmi bade' san'tining mukammal bilimdoni ekani uning so'z tanlash mahoratida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Badda tasbe, tazod, tashbeh san'atlari fikrni ta'sirchan ifoda etishga yordam bergan.

*Nargising sha'nidadur, ey sho'x, afsun aylamak,
Ul sitamgarga ko'ngul naqdini topshurmak kerak,
Ko'rmadi bu gulshan ichra naxl qaddingdek falak,
Sarvdin qumri, ne tong, ram qilsa to'bodin malak,
Jilvayi had holatida e'tidolingni ko'rub [1.366].*

Ma'shuqaning ko'zlari haqida gap ketganda uning sho'xligi, afsun qiladigan sehrgar ekanligi, nargis guliga monandligi yodga olinadi. Yor jabr qiluvchi – sitamgar, shu sitamgarga oshiq o'z ko'nglini topshirgan. Inson ko'ngli Alloh yodi bilan mashg'ul bo'lgandagina, haqiqiy ishqqa loyiq bo'la oladi. Mumtoz adabiyotda yor qaddi sarvga mengzalishi ayon. Amiriy ma'shuqasi qaddini yosh niholga o'xshatib, badiiy tasvirni yanada boyitgan. Navoiy yorning qaddini jannatdagi tik daraxtga qiyoslar ekan, bunday malakni ko'rsa qumri o'zi oshiq bo'lgan sarvdan yuz o'girishini aytadi. Amiriy so'z qo'llashda salaflari bilan tenglasha olishini g'azallarida, muxammaslarida aniq ko'rishimiz mumkin. Badda yorning ko'zlari va qomati haqida so'z borganda, Amiriy nargis, sho'x, afsun so'zlarini bir misraga tizadi – mutanosiblik yuzaga keladi.

Moni' o'ldi yoshima, vasling tarahhum ayladi,

*Shomi hijrondin quyoshdek raf'i anjum ayladi,
Gah itobi noz aylab, gah tabassum ayladi,
Nargising afsun, gulbarging takallum ayladi,
Aqli kul topti firib, ul makri oliyni korub [1.366].*

Amiriy tazod san'ati vositasida fikrni jonlantira olgan. Hijron shomi qorong'ulikka qarab harakat qilar ekan, yorning quyoshdek yuzi oshiqning qorong'u kechasini yoritadi. Ma'shuqaning kayfiyati o'zgaruvchan: goh ta'na qiladi, goh tabassum bilan yoriga iltifot ko'rsatadi.

*Necha izhor aylar ul bebok jabru kiyn mango,
Qolmadi bedodidin toqat bila tamkin mango,
Bermadi hargiz surur ayomi ham taskin mango,
Elga ishratdur yangi oy ko'rsalar, lekin mango,
Yuzlanur oshuftalig' mushkin hilolingni ko'rub [1.367].*

Go'zal mahbuba oshiqning shuncha ishq izhorini eshitib ham jabrini tindirmaydi. Oshiqda bu sitamlar sababidan toqat ham, sabr ham qolmaydi. Ma'shuqa bazm uyushtirib, bunga oshiqni taklif qilsa ham, lirik qahramonning dardli ko'ngliga bu bazmu jamshid surur bermaydi. Mazkur muxammasda Amiriy ba'zi bandlardagina radifdan foydalangan. Mango radifi orqali oshiqning yor jabru sitamlariga iltifoti ham ifodalangan.

*May quyoshi topti to miyno sipehrdin zavol,
Rindlarg'a qolmadi maysiz madori qiylu qol,
Baski cho'q maxmurlikdur boisi huznu malol,
Netting, ey soqiyki, o'zdin bordim andoqki zulol,
Olib ichmasdin burun jomi zulolingni ko'rub [1.367].*

Mazkur bandda may, rind, soqiy, jom timsollarining qo'llanishi unda ilohiy ishq mavzusi bayon qilinganiga ishoradir. Adabiyotshunos M.Asadov [4.352] o'z tadqiqotlarida ushbu obraz va timsollarning mazmun-mohiyatiga atroflicha to'xtalib o'tgan. Mumtoz adabiyotda may ilohiy ishq ifodasi hamdir. May Haq jamolining bir timsoli. Ishq mayining jomga quyilishi, uning tiniqligi va tozaligi Haqqa bo'lgan chin oshiqlikning belgisi. Rind obrazini keltirish orqali ishq va ishqqa tashnalik, visoldan umidvorlik kayfiyati poetik ifoda etilgan.

*Ey ko'ngul, ishq ichra xush tut o'zni yuz ishrat ila,
Bevafolig' gar ko'rarsan, qilma olamdin gila,
Zulmlar chekding Amiri husndin, vaslin tila,
Sudra ul yon, ey Navoiy, o'zni muhlik za'f ila,
Shoyad etgay rahm ul qotil, bu holingni ko'rub [1.367].*

Ko‘rinadiki, so‘ngi bandda shoir ishq maskani – ko‘ngilga murojaat qilib, yuz ishrat bilan ishqdan sarmast bo‘lishini, agar bevafoqlik ko‘radigan bo‘lsa, olamdan gina qilmasligini nido san’ati vositasida bayon etadi.

Xullas, Amiriy ustoziga munosib izdosh. Buni yuqorida tahlili keltirilgan muxammas ham tasdiqlaydi. Amiriy muxammaslarini o‘rganish esa an’ana va izdoshlik masalalari bilan birga, shoirning badiiy mahorati, ijodini ichdan nurlantirib turgan asl haqiqatlar mohiyatni teran tushunishga ham yo‘l ochadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Amiriy. Devon. I. O‘zbekcha she‘rlar / Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov.– Toshkent: Tamaddun, 2017. 464 b.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-жилд. Фавойид ул-кибар. Фан, 1990.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014, – Б. 127.
4. М.Асадов. Соқийнома: тарих ва поэтика. Т.: Тафаккур, 2020. Б.352

ALISHER NAVOIY ASARLARI POETIKASI

ALISHER NAVOIYNING MUAMMOSHUNOS SHOGIRDI VA UNING MILLIY ADABIYOT TARIXIDAGI O'RNI

Hamidulla BOLTABOYEV,
filologiya fanlari doktori, professor,
O'zMU (O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy muammoshunos sifatida e'tirof etgan Yusuf Badiiy ijodiga munosabat, u haqdagi tazkiranavis va adiblarning qarashlari tahlil qilinadi. Navoiy da'vati bilan Hirotga kelgani asoslanib, Yusuf Badiiyning "Risolai muammo"dan boshqa bir qancha risolalar bitgani ko'rsatiladi. Badiiyning "Devon"i haqidagi qarashlarga aniqlik kiritilib, uning shoir va olim sifatida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o'rni belgilanadi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, muammo janri, muammoshunoslik, "Mufradot", Yusuf Badiiy, "Risolayi muammo", qasida, milliy adabiyot.

Аннотация

В статье анализируется отношение к творчеству Юсуфа Бидии, признанного Алишером Навои проблемологом, и мнения о нем писателей и писателей. На основании того, что он приехал в Герат по приглашению Навои, показано, что другие трактаты Юсуфа Бадия были закончены. Уточняются мнения о «девоне» художника, определяется его место как поэта и ученого в истории узбекской классической литературы.

Ключевые слова: классическая литература, проблемный жанр, проблемология, «Муфрадот», Юсуф Бадий, «Рисолайская проблема», ода, национальная литература.

Abstract

The article analyzes the attitude to Yusuf Bidi's artistic work, recognized as a problemologist by Alisher Navoi, and the views of writers and writers about him. Based on the fact that he came to Herat at the invitation of Navoi, it is shown that Yusuf Badi's other treatises were finished. The opinions about "Devon" of the artist are clarified, and his place as a poet and scientist in the history of Uzbek classic literature is determined.

Key words: classical literature, problem genre, problemology, "Mufradot", Yusuf Badiiy, "Risolayi problem", ode, national literature.

Ulug‘ o‘zbek shoiri, qasida va muammo janrlari ustasi, adabiyotshunos va lug‘atshunos olim Yusuf Badiiy Andijoniy haqida ma‘lumot istaganlar dastlab ensiklopediya va lug‘atlarga murojaat qiladilar. Taassufki, millat ko‘zgusi bo‘lgan “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” shoir haqida hech qanday ma‘lumot berilmagan. “Alisher Navoiy “Qomusiy lug‘at”i “Badeiy Mavloni Yusuf (Andijon – 1485, Saraxs) – fors-tojik shoiri” deb tanishtiradi [1.88]. Tabiiyki, dastlabli ma‘lumotning o‘zi ta‘bingizni xira qiladi. O‘zi Andijonda tug‘ilgan bo‘lsa, bu shahar haqida Boburshoh “Eli turkdur. Shahri va bozorida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur...” deb yozgan [2.34] bo‘lsayu, qomusiy lug‘at muallifi hech bir asossiz Yusuf Andijoniyni “fors-tojik shoiri”ga chiqarib qo‘ygan bo‘lsa. Hatto uning taxallusi o‘zbekchada, Navoiy asarlarida “Badiiy” tarzida berilsa ham qomusdagi maqola muallifi uni negadir tojikcha talaffuz bilan “Badeiy” deb yozgan, tabiiyki, bunday yozuvni ko‘rgan har bir o‘quvchi uni “fors-tojik” ga mansub bo‘lsa kerak, deb gumon qilishi mumkin. To‘g‘ri, maqolada shoirning fors tilida yozgan bayti keltirilib, muammoga doir risolasi tilga olinadi. Biroq Alisher Navoiy ham fors tilida she‘rlar bitgan, muammo ilmiga doir risolasini fors tilida yaratgan, bu bilan “fors-tojik shoiri” bo‘lib qolmoqda-ku. Agar yozgan asarlari tilini asos qilib olsak, unda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino... – arab, Najmiddin Kubro – arab va fors, Ch.Aytmatov – rus bo‘lib qoladi. “Qomusiy lug‘at”dan “Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirotga kelib, Navoiy boshliq adabiy muhitda tarbiya topgan” degan ma‘lumot olamiz.

Yusuf Badiiy Andijoniy haqidagi ilk ma‘lumot Navoiyning “Majolisun-nafois» tazkirasida berilgani mutaxassislariga ma‘lum. Shuningdek, “Xulosatu-l-axbor”, “Habibu-s-siyar” (Xondamir), “Boburnoma” va “Aruz risolasi” (Bobur) asarlari ham Badiiy haqida ma‘lumot beruvchi tarixiy manbalar sanaladi. Navoiy Samarqandda (1465-69) ekan, u bilan tanishgan, “Faqir tahsil uchun Samarqandg‘a borg‘anda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo‘lur erdi. Sig‘arisin jihatidin she‘rida xomlik bo‘lsa, faqir isloh qilur erdim. Bot buzurgmanish va mutasavvir yigit bo‘ldi va Xurosong‘a kelib ko‘p salohiyatlar ham kasb qildi. Faqirdin o‘zga kishi aning she‘rida so‘z ayta olmas erdi. Bu matla’ aningdurkim:

*Gar badg‘in obu havo ko‘yat buvad manzilga ham,
Ne zuloli Xizr boyad ne dami ruhullaham¹.*

¹ Tarjimasi: Agar kўчанг шу сув ва ҳавоси билан менинг манзилим бўлса, на Хизр суви, на ўлик тирилтира оладиган [Исо] нафаси керак бўлади. Бу ва кейинги байт таржимаси С.Ғаниевага тегишли.

«Mir'ot us-safo» (“Soflik oyinasi” – H.B.) qasidasi tatabbuida bu bayti yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

*Duri maqsud jo ‘yon majma ulg‘bahrayn shud sufi
Ki, bahre dar ast az chashmai har chashmi giryonash².*

Muammo risolasi bitib, anda ko‘p ish qilibtur. “Mansur“ ismig‘a bu muammo aningdurkim:

مراز ان شد منور خانه چشم
که آمد دوست در کاشانه چشم³[3.43]

Saraxsda favt bo‘ldi. Mazori hazrat Shayx Luqmon xonaqohidadur [4].

Badiiy haqida xabar bergan ikkinchi manba Xondamirning “Habibu-s-siyar fi axbori afrodi bashar” asari bo‘lib, uning “Saltanat va davlat sharafi Hazrat Sulton Husayn Mirzoga zamondosh bo‘lgan sayyid, naqib, mashoyix, ulamo va fuzalo zikrida” bo‘limiga yuzlanamiz: “Mavlono Yusuf Badiiy – Andijon viloyatidan. Kichik yoshligida u yerdan Samarqandga borib, ilm-fan o‘rgangan. Mansur xoqonning adolatli zamonida Movarounnahr o‘lkasidan Hirotda tashrif buyurib, Amir Alisherning mehribonligi soyasi ostida orom topdi. Aruz ilmi, sanoye‘i (badoye‘), muammo fanidan sohibi vuquf edi. Muammo qoidalari bayonida bir foydali risola yozdi. Bu matla’ uning o‘sha manzumoti jumlasidan” deyilib, “Majolis...”da berilgan ilk bayt takrorlanadi [5.78].

Ushbu manba yuqorida Navoiy bergan ma‘lumotlarni to‘ldiradi, ya‘ni Andijondan Samarqandga kichik yoshligida borib qolgani, u yerda ilm o‘rgangani qayd etilib, “Mansur xoqon⁴ning adolatli zamonida”, Hirotda kelgani va Navoiyning “mehribonligi soyasida” ijod qilgani aytiladi. Navoiy tilga olgan aruz, muammo ilmlari qatoriga Xondamir “sanoye”ni ham qo‘shadi. Xondamir hijriy 897-yili vafot etganini aniq ko‘rsatgan, bu sana milodiy yil hisobida 1491/92-yilga to‘g‘ri keladi. (“Qomusiy lug‘at”da 1485 (?) deb ko‘rsatilgan).

Xondamirning boshqa bir “Xulosatu-l-axbor” asarining “Hidoyatli Amirning ayyomi davlatida doru-s-saltana Hirotda istiqomat qilgan va

² Tarjimasi: Agar kўчанг шу сув ва хавоси билан менинг манзилим бўлса, на Хизр суви, на ўлик тирилтира оладиган [Исо] нафаси керак бўлади.

³ Мени кўзум шундин нурлик бўлдиким, дўст туткан махбубим кўзум хонасида келди. Муаммони Гулшаний домла ечиб кўрсатган: Исм моддаси “منور” (“мунаввар”) ҳамда “در” (“дар”) сўзларидур. Чунончи “منور” (мунаввар) тансиси амали билан зоҳирдур. “در” (“дар”) лафзини муродифи “فی” (“фи”) дур. Мазкур “فی” (“фи”)ни жуммал ҳисобида (90) тўқсон ададдур. Уни рақами “ص” (“сод”) ҳарфидур. Мазкур “ص” (“сод”) ҳарфи мазкур ҳосил бўлган “منور” (“мунаввар”) да дил бўлиб кирганда “منصور” (“Мансур”) бўлур. Бу ҳақда қаранг: Алишер Навоийнинг муammo жанридаги туркигўй халафи / Нашрга тайёрловчи Ж.Жўраев. Т.: Фан, 2009. Б. 43.

⁴ Хусайн Бойқаро кўзда тутилган. Навоий келтирган муammo “Мансур” исмига битилганини эътиборга олсак, муammонинг ечимидаги исм Султон Хусайн Бойқарога ишора.

hozir (hijriy 905 – H.B.)da Tangri taoloning hukmi bilan dunyoning mehnat saroyidan jannatga ko‘chgan ulamo va fuzalodin ba‘zilarining zikri” bobida yana shunday eslanadi: “Mavlono Yusuf Badiiy ta’bi va zehnining nuqsonsizlig‘i bilan ma’lum, doimo olijanob, sulton hazratlarining yaqin do‘sti Amir Alisher mulozimatida kun kechirgan, uning in’omu ehsonlaridan bahramand bo‘lgan, vafoti 897” [6.65] (milodiy 1492 – H.B.).

Ayni davrda yaratilgan uchinchi manba “Boburnoma”ning 911/1505-06-yillar bayonida Sulton Husayn Mirzo xususida so‘z yuritib, “Shuarodin” zikrida “...Yana Yusuf Badiiy edi, Farg‘ona viloyatidindur, qasidani yomon aytmas ekandur” deya qisqa xabar bergan [7.139]. Bobur “Aruz risolasi”da Ramal bahrining 59 vazniga misol tariqasida yuqorida Navoiy tilga olgan matla’sini bir oz o‘zgarish bilan keltirgan [8.148]. Avvalroq baytning vazni xususida so‘z yuritib, “Bu vazn (ramal – H.B.) forsiy va turkiyda ko‘p shoyi’dur... Xoja Xisrav Dehlaviyning “Daryoyi abrori” bu vazndadur ulug‘ shoirlar lahu aksar tatabbu’ qilibturlar. Mir Alisher Navoiyning “Tuhfatu-l-afkor”ining matla’icha kam voqi’ bo‘lubtur”, deb yozgan va “Daryoi abror”ga tatabbu’ qilgan Navoiydan tashqari, Hasan (Dehlaviy), Hofiz, Kamol (Xo‘jandiy), Jomiy, Kotibiy, Salmon Sovajiy, Osafiy, Hiloliy, Shoh La’li Badaxshon, Shoh ibn La’li, Sayfi Yodgorbekdan keyin Yusuf Andijoniy yuqoridagi matla’sini misol qiladi. Boburning vazn haqidagi anglatmalaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Navoiy keltirgan matla’ Yusuf Andijoniy qasidasidan olingan ekan. Biroq Bobur uning boshqa bir asari Amir Xusravning “Mir’otu-s-safo” qasidasiga tatabbu’ tarzida yozilganini aytadi va ikkinchi bir matla’ni keltiradi. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, Navoiy shoir Yusufning ikki qasidasini bilgan, xar ikkisi ham Amir Xusravning qasidalariga nazira qilingan. Ulardan biri “Daryoi abror”ga, ikkinchisi “Mir’otu-s-safo”ga tatabbu’ tarzida yozilgan. Navoiy ma’lumot tugal bo‘lsin uchun shoirning ikki qasidasining matla’ (birinchi bayt)larini o‘z tazkirasiga kiritgan.

Navoiyning “Majolis...” asaridan keyin uning ta’sirida yozilgan forsiy va turkiy tazkiralarda Navoiy bergan ma’lumot doirasi bilan cheklaniladi. Biroq Hasan Chalabiy Xinolizoda (1546-1604) “Tazkiratu-sh-shuaro” asari (1585-1586)ning 3-asl shoirlar bobida Navoiy g‘azallariga tatabbu’ bog‘lagan Ahmad Posho qatorida *Badiiy*ni keltiradi. Bundan tazkiranavis Badiiy baytini “Tuhfatu-l-afkor”ga tatabbu’ qilib yozgan, deb tushungan [9.56-64].

XX asr manbalaridan Ozarboyjonda chiqqan Farhod Og‘azoda tomonidan qisqa tarjimai hol “Adabiyot majmuasi”da chop etilgan [10.27]. Navoiy tarjimai holidagi (1914) “Alisher Navoiy Samarqandda mo‘tabar ash‘or sohibi Mavlono Yusuf Badiiy Andijoniy bilan tanishdi” deb yozilgan [11.129-132]. Ayni ma‘lumot 1914-16-yillar davomida “Dirilik” (“Tiriklik”) jurnalining bir necha sonida e‘lon qilingan tarjimai ahvoli ham ushbu ma‘lumot takror keltirilgan.

Tojik olimlari U.Toirov va S.Saidalining “Qomusi qofiya va aruzi she‘ri a‘zam”ida shunday ma‘lumot bor: “Bade‘n Mavlono Yusuf (sanai tavallud noma‘lum – vaf. 1485, Saraxs), fors-tojik aruzshunosi va donishmandi... zamonidagi donishmand kishilarining oldingisi bo‘lib, aruz va muammo ilmlarida dastbulo bo‘lgan. Muammo va aruz qoidalari bayonida risolalar ta‘lif qilgan” [12.82]. Bu xabar qaysi manba asosida ekani noma‘lum, biroq mualliflar “aruziy risola”si borligi ham aytmoqda. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, “Qomusiy lug‘at”dagi fikrlar, asosan, ushbu adabiyotdan olingan, uning vafot sanasidagi xatolik ham ayni bir xil. Natijada Yusuf Badiiy Andijoniy tojik olimlari yozganidek, “fors-tojik shoiri”ga aylanib qolgan.

Biz ham yuqoridagi manbalar asosida “Adabiyot ensiklopediyasi”da vafot yilini 1492 deb belgilagan holda, uning risolalari “saqlanmagan” degan fikrni takrorlagan edik [13]. Keyingi kuzatishlar davomida aniqlandiki, Yusuf Badiiy Andijoniyning “Muammo risolasi” O‘zRFA Sharqshunoslik institutida saqlanar ekan. Zukko muammoshunos olim, filologiya fanlari doktori Jaloliddin Jo‘rayev O‘zRFA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar xazinasidagi muammoga oid risolalarni sinchiklab o‘rganganda, Yusuf Badiiy Andijoniy nomi bilan bog‘liq ikki risolani ko‘radi. Ular 2893/IV va 9005/VI raqamli qo‘lyozmalardir. Katalogda رساله معمای بدیعی – چهل اسم (Badiiyning “Muammo risolasi”, 40 ismga) tarzida ko‘rsatilgan. Asar muammo janriga oid boshqa risolalar bilan birga bir jildda kitobat qilingan. Tadqiqotchining aniqlashicha, “136a varaqda qora qalam bilan noma‘lum kishi tomonidan mayda arab yozuvida معمای بدیعی بقلم مولف (Badiiy muammolari muallif qalami bilan yozilgan) so‘zlari bitilgan. Asar nihoyasidagi:

و الحمد لله على الاتمام و الصلواه على نبيه عليه السلام. حرره الفقير بدیعی. [14.140a]

(Mazmuni: Tugagani uchun Allohga hamd va nabi alayhissalomga salavot bo‘lsin, Faqir Badiiy yozdi) ishoralari ham buni tasdiqlaydi.

Asar tarkiban basmala, hamdala, na‘t va sababi ta‘lif hamda asosiy qismdan iborat. Sababi ta‘lifda ayilishicha, muallif kishida malollikka sabab bo‘ladigan muammo ta‘rifi, amallar bayoni kabilardan xoli bo‘lgan,

faqat muammo yuzasidan tasavvur hosil qila oladigan qirq muammoni keltirishni maqsad qilganligini zikr etgan (136b-137a). Shundan keyin qayd qilingani kabi turli nomlarga yozilgan muammolar berilgan. Hoshiyada keltirilgan misol qaysi qoidaga to‘g‘ri kelishi qizil rangda qayd qilib borilgan ” [15.2].

Shuningdek, O‘zRFA Sharqshunoslik institutida Yusuf Badiiy nomi bilan bog‘liq bir necha lug‘atlar uchraydi. Bular 9 nomda: “Tajnisu-l-lug‘ot” (11518/VI, 10455/XIV, 11807/II), “Risolai lug‘ot” (1380/II), “Se lug‘oti Badiiy” (10088/VII), “Qasida dar halli lug‘ot” (3223/II), “Salasa se lug‘at” (9987/II), “Manzum dar bayoni lug‘ot” (8574), “Nazmu-l-salosa fi-l-lug‘ata” (3809/II), “Nazmu-l-salasot”(4818/III), “Lug‘ot” (5250/III) nomlari bilan etib kelgan. Ular orasida nisbatan tanilgani “Tajnisu-l-lug‘at”da 100 fiqraning har birida uchtadan tajnis so‘zlar berilib, ularning ma’nolari ochib berilgan. “Qasida dar halli lug‘ot” esa nazmda bitilgan. Deyarli hamma lug‘atlar Badiiy tomonidan yozilgani aniq ko‘rsatilgan. Masalan, so‘nggi qo‘lyozmada shunday baytlar bor:

این چنین لفظ بدیعی را بدیعی نظم کرد
تا بود در روزگار از وی همی نام و نشان

هست در وادی عرفان تشنه ز آب مغفرت
ساز سیرابش الهی ای آله انس و جان [16]

Erondagi vikipediyalarda shoir Yusuf Badiiy haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ular Samarqandda yashaganini inobatga olib, “Andijoniy-Samarqandiy” nisbasi bilan tilga oladi va vafot sanasini milodiy 1492 deb ko‘rsatadi hamda “Kitobxonai madrasai fuqaho”da “Devoni Badiiyi Andijoniy-Samarqandiy” saqlanishi haqida ma’lumot beriladi [17].

Boshqa bir manbada Xondamir Navoiy xabarlariga tayanib, so‘nggi yillarda yozilgan tazkiralarda, jumladan, Vola Dog‘istoniyning “Riyozu-sh-shuaro” (“Kitobxonai Milliyi mulk”da 4301 raqami bilan saqlanadi) tazkirasida umrining oxirida Saraxsda yashagani uchun “Badiiy Saraxsiy” nomi bilan zikr etilgan. Ma’lumotnomada shunday fikrlar bor: “Muammo fani ustasi bo‘lgan, “Sharhi muammo” va boshqa nujum ilmiga bag‘ishlangan asar (!) yozgan. Bu risola 894/1489-yili yozilgan bo‘lib, 10 shajaraga bo‘linadi. Asarning bir qo‘lyozmasi Panjobdagi Husayn kutubxonasida saqlanadi (3j). “Mir‘otu-s-safo” qasidasi mashhur. Shoirning “Salasoti manzum” yoki “Nisobi musallas” asarini yozgan” [18](bu asar Toshkentda saqlanadigan qshlyozmalar tarkibida ham

uchraydi) deb yozilgan. Shuningdek, Davlatshohning “Tazkiratu-sh-shuaro”, Muhammad Muhsin Oqobuzurg Tehroniyning “Az-Zariya ala tasonifi-l-shia” (Bayrut, 1983), “Forsiy dar Eron va dar zaboni forsiy to poyoni qarni dahhumi hijriy” (“Eronda forsiy va hijriy X asrgacha fors tilida asar bitganlar”, Tehron, 1363), A.Xayyompurning “Farhangi suxanvoron” (Tabriz, 1340) asarlarida ham ma’lumotlar borligi ko’rsatilgan [19].

Ko’rinadiki, ushbu manbalarni ham qiyosan o’rganishga ehtiyoj bor. Lekin biz o’rgangan manba adabiyotlar shunday xulosa qilishga imkon beradi:

Mavlono Yusuf Badiiy Andijoniy bolalikda Samarqandga kelgan (“Samarqandiy” nisbasi shuning uchun qo’shilgan), Qozizoda Rumiymadrasasida tahsil olgan. Navoiy bilan ko’rishgan, she’rlaridagi ayrim nuqsonlarni faqat Navoiygina isloh qilib bergan. Husayn Boyqaro uni Hirotda chorlagan (Husayn Boyqaroga – “Mansur” muammo bag’ishlagani bunga asos bo’ladi). Navoiy homiyligida yashab ijod etgan, “Devon” tuzgan (“Kitobxonai madrasai fuqaho”). Xusrav Dehlaviy va Navoiyga tatabbu’ qilib qasidalar bitgan. “Risolayi muammo” asari mashhur (uning qo’lyozmalari Toshkentda saqlanadi). “Tajnisu-l-lug’ot” (11518/VI, 10455/XIV, 11807/II), “Risolai lug’ot” (1380/II), “Se lug’oti Badiiy” (10088/VII), “Qasida dar halli lug’ot” (3223/II), “Salasa se lug’at” (9987/II), “Manzum dar bayoni lug’ot” (8574), “Nazmu-l-salosa fi-l-lug’ata” (3809/II), “Nazmu-l-salaso” (4818/III), “Lug’ot” (5250/III) nomlari bilan etib kelgan 9 ta lug’at tuzgan (ularni o’rganish asnosida ayrimlari takror bo’lganini kuzatish mumkin). Badiiy san’atlar (Xondamir), aruz (Navoiy, Bobur) va nujum ilmiga (Tehron vikipediyasi) oid risolalar bitgan. Yusuf Badiiy Andijoniyning “Muammo risolasi” va “Tajnisu-l-lug’at” asarlari o’zbek tiliga f.f.d. J.Jo’rayev tomonidan tarjima qilingan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Алишер Навоий. қомусий луғат / Мақола муаллифи Э.Очилов. Т.: “SHARQ” НМАК, 2016.
2. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: “Шарқ” НМАК, 2002.
3. Алишер Навоийнинг муаммо жанридаги туркигўй халафи / Нашрга тайёрловчи Ж.Жўраев. Т.: Фан, 2009.
4. Алишер Навоий. Мажолису-н-нафоис, МАТ. 13-жилд / Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева. Т.: Фан, 1997.

5. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабибу-с-сийар фи ахбори афроди башар (Башар аҳли сийратларидан хабар берувчи дўст). Форс тилидан Ж.Ҳазратқулов, И.Бекжонов таржимаси / Т.: Ўзбекистон, 2013.
6. Навоий замондошлари хотирасида. Т.: Фан, 1986.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: “Шарқ” НМАК, 2002.
8. Бобир. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Т.: Фан, 1971.
9. Eyduran A. Kinalizade Hasan çalabi. Tezkitetuşuşuara. IncelemeґTenkidli Metin. GUCBE, Doktora Tezi. Ankara, 1999; Şair Tezkireleri / Haz. [Haluk Ipekten] Mustafa Isen, Filiz Kiliç, I. Hakki Aksoyak, Aysun Eyduran. Ankara, 2002.
10. Aғzadə F. Əlişir Nəvai // Dirilik. 1914. № 2. s. 33-34: Қайта нашри: Əlişir Nəvai Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında. Məqalələr toplusu. Bakı: Qartal, 2009.
11. Tour Y., Сайдали С. Қомуси қофия ва арузи шеъри Ачам. Ч.І. Душанбе: Ирфон, 1994.
12. Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси. –Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2015.
13. Бадиий. Рисолаи муаммо. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди. 2893/IV рақамли қўлёзма. 140а-варақ.
14. Жўраев Ж. Юсуф Бадиий Андижонийнинг “Муаммо рисоласи” ҳақида.
15. Қўлёзма. ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи.

Gazeta va jurnallar:

11. Бу ҳақда қаранг: Болтабоев Ҳ. Алишер Навоийнинг илк юбилеи // Жаҳон адабиёти. 2016. №2. Б.129-137.

Internet saytlar:

12. www.eshia.ir; www.howza.net
13. www.howza.net
14. www.dictionary.abadis.ir

NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G‘AZALLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI

Nazora BEKOVA,
BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori (Dsc)
bekova.nazora@mail.ru

Аннотация

Maqolada Alisher Navoiyning turkiy va forsiy g‘azallarida iqtibos san‘atining mohirona qo‘llanilganligi xususida fikr yuritilgan. Ulug‘ shoirning aksariyat baytlari ilohiy-islomiy g‘oyalar zaminida vujudga kelgan. Agar har bir g‘azalning botiniy ma‘nolari ilohiy kitob bilan birgalikda qiyoslab, jiddiy tadqiq etilsa, hazrat Navoiy ijodiyoti mahsuli bo‘lgan qator she‘rlar ilohiy kitobning ma‘rifiy-badiiy sharhi ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Alisher Navoiy she‘rlarida ochiq talmeh bilan birga mazkur badiiy san‘atning yashirin ko‘rinishiga ham tez-tez murojaat qilingan. Talmeh, iqtibos, tafsir kabi ilohiy-irfoniy ifoda shakli Alisher Navoiy hamd g‘azallari uchun faol hodisadir. Abdurahmon Jomiy hamd g‘azallari uchun yetakchi hisoblangan tazmin san‘ati ulug‘ Navoiy ijodida juda kam uchraydi.

Kalit so‘zlar: iqtibos, Qur‘on, hadis, “Arba‘in”, turkiy g‘azallar, forsiy g‘azallar, zullisonayn, fano, faqrlik, payg‘ambar, Muhammad(s.a.v.), Iso(a.s.), Yusuf(a.s.), Xizr, Namrud, komil inson, ishq.

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос мастерского использования цитат в газелях на тюрском и персидском языках Алишером Навои. В идеях великого мастера сформированные на религиозных и сверх естественных силах отразились в его творчестве. Алишеру Навои удается по способам талмех (талмех-способ приведения примеров в Восточной литературе) раскрыть скрытые выражения искусства слова. Своеобразие газелей Алишера Навои умение выражать по способам цитат, изложений и средствам суфийских воззрений.

Ключевые слова: цитаты, Коран, хадисы, “Арбаин”, тюркские газели, персидские газели, двуязычный, небеса, бедность, пророк, Мухаммад, Исус, Юсуф, Хизр, Намруд, идеальный человек, любовь.

Abstract

The article describes the skillful use of quotation art in Turkish and Persian poems by Alisher Navoi. Most of the byts of the great poet were born on

the basis of theological and Islamic ideas. If the ghostly meanings of each poem are compared together with the divine book, it will be assured that a number of poems are the product of Navoiy's creative work are spiritual and literary interpretations of the divine book. The poetry of Alisher Navoi is often referred to the hidden form of this art, along with an explicit interpretation. Divine-eloquent expression such as the Talmud, the quotation, the tafsir, is an active event for the ghosts of praise of Alisher Navoi. Abdurahmon Jomiy, the leader of the poems of praise, is very rare in the works of the great Navoi.

Key words: quotation, the Koran, Hadis, "Arbain", Turkic gazals, Persian

gazals, bilingual, poverty, prophet, Muhammad, Iesus, ideal person, love.

"Ilm o'zlashtirmoq", ustod Sadridin Ayniy ta'biricha, "otash porasi olmoq" ma'nolaridagi bu so'z (iqtibos) Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'atidir. Musulmon mintaqa adabiyotida bu san'atga keng murojaat qilish orqali aytilmoqchi bo'lingan fikrga quvvat berish hodisasi o'ziga xos qadimiy an'anadir. Uning nurli izlarini hadislariga bag'ishlab yozilgan "Arba'in"larda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiy "Arba'in"i hadisidagi mana bu qit'ada ham o'sha hodisa yorqin ko'zga tashlanadi:

*Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'in visoli istar esang
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.*

Ko'rinadiki, mazkur qit'a satrlari mag'ziga Muhammad Rasullulloh(s.a.v.)ning "Al-jannatu tahta aqdami umma hatinum", ya'ni "Jannat kaliti onalar oyog'i ostidadir" hadisi sharifining mazmuni singdirilgandir. Bunday mayl-Qur'on oyatlari va hadis g'oyalariga murojaat Alisher Navoiyning turkiy va forsiy g'azallarida ham kuzatiladi. Ulug' shoirning ba'zi g'azallarida zohiran Qur'on oyatlariga ishora ko'zga tashlanmaydi. Biroq o'shanday misralar teranroq nazardan o'tkazilsa, ular zamiriga Qur'oniy g'oyalar singdirilganligi ayonlashib qoladi. Jumladan, quyidagi baytda o'shanday mayl kuzatiladi:

*Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko'nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo [3, 5].*

Mazkur bayt mag‘zida Yusuf surasi 101-oyati karimasining mazmuni yashirindir. Mazkur oyatda xabar beriladi: «(Yo Rabbi) Meni musulmon holimda jonimni olgin va meni ham solih bandalarning qatoriga qo‘shgin».

*Sen etting sham ‘u gulda jilvakim, parvonavu bulbul
Biri kuydi, biriga bo‘ldi yuz dardu balo paydo [2, 8].*

Mazkur baytning "Nur" surasi 41-oyati bilan mantiqan aloqadorligiga ahamiyat berilsa, yuqoridagi fikrlarga yanada yaqqolroq ishonch hosil qilinadi. Qur‘oniy oyat quyidagicha aks-sado beradi: «(Ey Muhammad) Ollohga osmonlar va erdagi bor jonzot ham, (samoda) saf tortgan qushlar ham tasbih aytib-poklanishini ko‘rmandingizmi?» .

Alisher Navoiy ikki tildagi g‘azallarining ko‘pchiligida faqrlik ulug‘lanadi, baqoni istagan kishi avvalo fano bo‘lishi zarurligi uqtiriladi:

*Biror yetti sangakim o‘zlugi dashtini tay qildi,
Baqo istar kishi avval kerak qilsa fano paydo [3, 199].*

Mazkur baytda "Kimki o‘zining foniyligini bilsa, Rabbining boqiyiligini biladi" va "Farqlik mening madori iftixorimdir va qiyomat kunida men uning-la faxr eturman" hadislarining mazmuni o‘zlashtirilganligini payqash qiyin emas.

*Nafs xor etmish Navoiyni, aziz et faqr birla,
Ey jalolu rahmatingdan gar zalilu gar muazzaz .*

Forsiy devondan keltirilgan quyidagi misralarda ham mazkur g‘oyaga hamohang badiiy talqinga guvoh bo‘lamiz:

*Chu sarkashest tariqi riyo, sari Foni,
Shavad ba dayri fano xoki oston, yo Rab [5, 120].*

Mazmuni: Ey Rabbim, riyo yo‘li-o‘jarlik yo‘lidir, shuning uchun

Foniyning boshi fano dayrining ostonasida tuproq bo‘lsin.

Pinhonu nihondan ogoh eng adolatli zot faqat Ollohdir. Namrud boshchiligidagi mushriklar Ibrohim alayhissalomning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, olovga otadilar. Jabroil alayhissalom undan "biror tilaging bormi?" - deb so‘raganida "Parvardigorim o‘zi ahvolimdan ogoh", deb faqat Ollohdan madad so‘rab, sabr qilgan ekanlar va Olloh " Biz aytdik: «Ey olov, sen Ibrohim uchun salqin va omonlik bo‘l!" (Anbiyo, 69-oyat) – zikr qilingan farmonni yuborgan, olovning yorug‘i rolib, issig‘i yo‘qolgan. Turkiy va forsiy devondan olingan quyidagi baytlar orqali shoir har bir kishining pinhonu nihon sirlaridan faqat Ollohgina xabardorligini uqtirmoqchi bo‘lib, Ibrohim alayhissalom hayoti bilan bog‘liq yuqoridagi voqealarga ishora qilgan:

*Sabur ismi bilan qilsang tajalliy,
Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro [1, 12].*

“Devoni Foniy”da bu Qur’oniy qissaga quyidagicha ishora qilinadi:
To biso‘zam hamagi hastin xud ro‘ vo kun,
Z-on gulistoni Xalil otashi gulnor biyor [5, 46].

Mazmuni: Ey jonon, yuzingni och-u Xalil gulistoni (olovi) dan
Otashin gul keltir, borlig‘imni yondiray.

Qorun mol-mulkka hirs qo‘yib havolanadi va oxir-oqibatda behad sarvatlari bilan yo‘q bo‘ladi. Bu haqda “Qasas” surasining 84-oyatida o‘qiymiz: “Kim yaxshilik bilan kelsa, bas, uning uchun (qilgan yaxshiligidan) yaxshiroq (mukofot bo‘lur). Kim yomonlik bilan kelsa, bas, yomonliklar qilgan kimsalar faqat o‘zlari qilgan yomonliklari bilangina jazolanadilar”. Quyidagi baytda shu oyati karimaga ishora qilish orqali talmeh san’ati hosil bo‘lgan:

*Muncha hashmat topmog‘ingdin so‘ngra birovni qulung,
Joh ila muknatda Qorunga tavongar bo‘ldi tut [3, 18].*

Shuningdek, Xizr, Nuh, Iso, Sulaymon, Qorun nomi bilan bog‘liq Qur’oniy qissalarga murojaat orqali Mir Alisher g‘azallarida talmeh san’ati qo‘llangan. Bunday mayldan kuzatilgan bosh maqsad Olloh taoloning mislsiz kuch-qudratini ko‘rsatishdan iboratdir. Bu badiiy timsollar ostida «Haq–Inson» munosabatlari juda yuksak san’at bilan yashirinib keladi.

*Zahri firog‘ingdin qayu oshiqki bo‘ldi talxkom,
No‘shi visoling etmasa, Iso anga topmas davo [3, 69].*

Shunga o‘xshash ifoda uslubini ”Devoni Foniy” misralaridan keltiramiz:

*Chun Masiho ruhbaxshon boshad on jo az nafas,
To ba izzat dar bisotash neh nafasro, dor pos [6, 82].*

Mazmuni: Iso singari u erda nafasidan jon baxsh etuvchilar bor,

Uning bisotiga izzat bilan oyoq bosu nafasingni saqla.

Iso alayhissalom davrida tabobat ilmi shunday darajada taraqqiy qilgan ekanki, bironta ham dard davosiz hisoblanmagan emish. Iso (a.s.) mo‘jizaviy nafasi bilan o‘liklarga jon baxsh bu jarayonga quvvat bergan ekan. «Oli Imron» surasining 49-oyatida shunday xabar beriladi. “Men (o‘zimning Haq payg‘ambar ekanligim haqida) sizlarga Parvardigoringizdan oyat-dalil keltirdim: Men sizlarga loydan qush timsolini yasab unga tuflasam, u Ollohning izni-irodasi bilan haqiqiy qush bo‘ladi. Va yana ko‘r, pes kasallarini tuzata olaman va Ollohning izni bilan o‘likni tiriltiraman hamda sizlarga yeydigan va uylaringizda saqlaydigan narsalaringizni aytib berishga qodirman. Agar mo‘min bo‘lsangizlar, albatta, bu ishlarda sizlar uchun aniq oyat-dalillar bordir”. Ya’ni agar Olloh bu karomatni unga ato etmaganida, hayratli mo‘jizalar

sirini ochishni xohlamaganida, Iso(a.s.)ning qo‘lidan bir kishiga ham shifo berish kelmasdi. Mavjudotdagi barcha ajoyibotlar Ollohning amridadir. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining "Faqr fano vodiysi vasfi" bobida bu masala xususida yanada keng badiiy mushohada yuritadi.

Xizrning "obi hayvon"dan bahramand bo‘lib, abadiy tiriklikka erishgani, Nuh(a.s.)ning xatarlardan xalos qolishi, Iso(a.s.)ning tiriltiruvchi nafasi – bularning barcha-barchasi Ollohning inoyati, mo‘jizaviy san’atidan dalolat. Ulug‘ shoirning ta’kidicha, agar Olloh istamasa, Uning amriga muvofiq kelmagan ish hechdir, Namrud, Qorun, Fir’avn singari o‘zini qudratli sanagan xudparastlar Uning qahridan omon qololmaydi, albatta. Quyidagi baytda shu haqidagi oyatlarga ishora ketadi:

Nega olam o‘rtadi, husnung o‘tidin lam’ ai,

Tushmagan bo‘lsa jamoli Yusufi Kan’on aro [3, 56].

Qur’on tarkibidagi katta suralardan biri - o‘n ikkinchi, ya’ni Yusuf(a.s.) qissasidir. Ma’lumki, ilohiy kitoblarda (Tavrot, Zabur, Qur’on)da Yusuf alayhissalom go‘zallik timsoli sifatida ulug‘lanadi. Bu baytda Ollohning go‘zalligi Yusuf(a.s.)da aks etganiga ishora qilinmoqda. "Devoni Foniyy"da ham xuddi o‘sha mazmunning quyidagicha ifodasini uchratamiz:

Orazi Yusuf namuda lam’ ai ro’ yat,

Z-i shuda mash’ufu zari ishq Zulayxo [5, 10].

Ravshan bo‘layotirki, ulug‘ shoirning har ikkala tildagi g‘azallarida g‘oyaviy – mazmun, badiiyat nuqtai nazaridan uyg‘unlik ustuvordir. Zulayxoning Kan’on shahzodasiga ishq tushishi Yusuf surasining 30-oyati karimasida o‘z ifodasini topgan. "Tafsiri Jalolayn"da qayd etilishicha, Yusuf alayhissalomga dunyodagi husnning yarmi berilgan”.

Qator hamd g‘azallarda va "Ruh ul-quds"qasidasining nasib qismida Olloh taoloning ilohiy qudrati tufayli tun-kun, yeru osmon, oyu quyoshning bir muntazamlikda harakat qilishi masalasi yoritilgan. Butun borliqda-tabiatdagi eng mayda jonzotdan tortib, bahaybat mavjudotning shaklu shamoyiligacha– barcha-barchasida Ollohning qudrati zohir. Tun-kun, quyosh-oy, sayyora va yulduzlar Ollohning amriga itoat etib harakat qiladilar. Zero, yaratmoq va amr etmoq Uning O‘zigagina xosdir:

Chi qudratest, ki dar borgi charxi baland,

Nagashta be sababi o‘zi zarra to bayzo [7, 6].

Mazmuni: Ajab qudratdirki, yuksak charx qasrida quyoshdan eng kichik zarragacha o‘sha mo‘jiza tufayli paydo bo‘lgandir.

Xuddi shu mohiyatning o‘zi hamd g‘azalda quyidagicha aks etgan:

Yuzung ko‘z gusidin olamda yuz nuru safo paydo,

Quyosh andin aningdekkim quyoshdin zarra nopaydo [2, 7].

Islomiy ta'limot, uning muqaddas ilohiy kitobida mazkur haqiqat qayta-qayta ta'kidlanadi. Ana o'sha ilohiy nur hamd g'azallar va "Ruh ul-quds" qasidasi baytlariga ham chuqur singdirilgan. Shu jihatdan "Yunus" surasining 3 va 5-oyati karimalari ahamiyatlidir: "Albatta, Parvardigoringiz osmonlar va Yerni olti kunda yaratib, so'ngra O'z arshini egallagan Ollohdir. U (Olloh) quyoshni ziyo sochuvchi, oyni yorug'lik qilgan va sizlar yillarning sanog'ini hamda (vaqtlarning) hisobini bilishlaringiz uchun uni (ya'ni oyni bir qancha) manzil-burjlarga bo'lib qo'ygan zotdir. Hech shak-shubhasiz, Olloh bu (borliqni) Haq (qonun va maqsad) bilan yaratdi. U zot biladigan qavm uchun O'z oyatlarini mufassal bayon qilur" [8, 133].

Alisher Navoiy "Ruh ul -quds" qasidasining 2-va 118-baytida "Yosin" surasining 82-oyati ("Biron narsani (yaratishni) iroda qilgan vaqtida Uning ishi faqatgina "Bo'l" demoqlikdir. Bas, u (narsa) bo'lur-vujudga kelur")ga ishora qiladi: "Innama amruhu iza aroda shay'an an yaqula lahu kun fa yakun".

*Chi xomaest, ki dar korgohi «kun fayakun»,
Nagashta be raqami o'zi qatra to dar'yo...
Ba payh kamtar az on metavoniyash, ki kunt,
Chunon nabud, ki nabuvad asar az o'paydo [7, 6].*

Mazkur mohiyatni iqtibos san'ati asosida "Badoye' ul-vasat"ning 2-g'azalida o'qiymiz:

*Irodang birla taqdiring o'lg'ay ikki kavn ichra,
Agar bo'lsa fano zohir va gar bo'lsa baqo paydo[3, 23].*

Qasidaning 10-23-baytlarida odam jismi (to'rt unsur, to'rt xilt) va olam tuzilishi (to'rt fasl) orasidagi yaqinlik, insonning yaratilishi, ichki va tashqi a'zolari vazifasi, mo'jizaviy mukammalligi xususida fikr yuritiladi.

*Chu soz kardy tarkibi jismi insony,
Zi xok ta'biya soxty ba zebu baho [7, 7].*

Yuqoridagi (10-23) baytlarning tayanch manbai sifatida "Naba" (6-oyat), "Infitor" (7-8-oyat), "Inson" (28-oyat), "Balad" (8-9-oyat), "Tiyn" (4-oyat), "Vas-saffot" (11-oyat), "Baqara" (29-oyat), "Hijr" (26-oyat) kabi suralarni ko'rsatish mumkin. Ulug' shoir insonni mumtoz etgan ilohiy imkoniyatlarga alohida urg'u beradi:

*Bas, on gahe ba ulumash chu rahnamun gashty,
Naxust kardy ta'limi allamal-asmo [7, 9].*

Uning (insonning) ilm o'rganishi uchun rahnamolik qilgan chog'ingdayoq, dastlab azaliy ismlarga amal qilish ta'limini (O'zing) berding.

"Allamal-asma" "ismlarni o'rgatdi" demakdir. Bu birikma "Baqara" surasining 31-oyatidan: "Va u zot odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qilib dedi: "Agar xalifalikka bizhaqdormiz, degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini menga bildiring!" [8, 15].

Oллоh insonni boshqa mavjudotlardan alohida ajratib, ilmu irfon xazinasi sifatida o'n sakkiz ming olamni uning uchun yaratgan:

*Bo'lub sifatingga mazhar jami' maxluqot,
Alar mufassalu insonni aylading mujmal"* [2, 266].

"Ruh ul-quds"da esa olami sug'ro quyidagicha ta'riflanadi:

*Dar on ajuba namudory az hama kardy,
Amonatatro ham dodiyash ba rasmi xifo* [7, 10].

Mazkur baytlar esa Baqara surasi 151-oyatining (Men banda qalbiga muhabbat bo'lib kirgan yashirin xazinaman") va "Lav laka", "Kuntu kanzan" kabi qudsiy hadislarning badiiy-ma'rifiy talqinidir.

Misollardan ayonlashayotirki, iqtibos san'ati Alisher Navoiy hamd g'azallari uchun faol hodisadir. Uulug' shoirning aksariyat baytlari ilohiy-islomiy g'oyalar zaminida vujudga kelgan. Agar hazrat Navoiy juda ko'p g'azallarining botiniy ma'nolari ilohiy kitob bilan birgalikda qiyoslab, jiddiy tadqiq etilsa, hazrat Navoiy ijodiyoti mahsuli bo'lgan qator she'rlar ilohiy kitobning ma'rifiy-badiiy sharhi ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 3-том. Фаройиб ус-сиғар. -Т.: Фан, 1988. –Б.613.
2. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 4-том. Наводир уш-шабоб.-Т.: Фан, 1989. –Б.557.
3. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 5-том. Бадоеъ ул-васат. -Т.: Фан, 1990. –Б.541.
4. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. -Т.: Фан, 1990. 199-бет. –Б.564.
5. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 18-том.Девони Фоний.- Т.: Фан, 2002. –Б.549.
6. Навоий Алишер . МАТ. 20 томлик. 19-том. Девони Фоний.- Т.: Фан, 2003. –Б.598.

7. Навоий Алишер. Руҳ ул-қудс. Сўзбоши, насрий баён, изоҳ ва луғат билан нашрга тайёрловчилар Р.Воҳидов, Н.Бекова. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –Б.60.
8. Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). –Т.: Чўлпон, 1992.
9. Ғазолий Зайниддин Муҳаммад. Кимиёи саодат. –Т.: Камалак, 1995. –Б.63.
10. Бекова Назора. Алишер Навоий шеърлятида ҳамд поэтикаси. Монография. –Тошкент : «Фан», 2006. -148 бет.
11. Бекова Назора. Навоийёна ҳассослик. Монография . –Тошкент : «Фан» 2007, -92 бет.
12. Bekova N. Potential of language and artistic art //SychosocialP international journal of Psychsocial rehabilitation/ ISSN: 1475-7192.Yanuar. 2020. –(Scopus). –Pag .416-421.
13. Bekova N. Ali Sir Nevai'nin Divan-I fani adli eseri uzerine yapilan calismalar // Turk edebiyati dergisi, 2011, №4. – Sah. 48-49.
14. Bekova N., Khudoyorova N. Autonomous ghazals of Alisher Navoi // International scientific and practical online conference on human resources: problems, solution, perspectives/ JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed journal. USSN:2581-4230/ Journal Impact Factor 7.232.www.journalnx.com. –Pag .163-165.
15. Bekova N., Khudoyorova N. Muxtara - an example of discovery and invention (on the example of Foni's poems) // European journal of Molecular Clinical Medicine / ISSN 2515-8260. Volume 08, Issue 01, 2021, –(Scopus). – P.1463-1468.
16. Bekova N., Khudoyorova N. ORIENTAL POETRY AND NAVOI-FONI POETRY. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 03 2022.9923.DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I3.1146. P.9923-9927.

NAVOIY G‘AZALLARIGA XORAZMLIK SHOIRLARNING MUXAMMASLARI XUSUSIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Dilshod G‘AYIPOV,
Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti dekani,
filologiya fanlari doktori, dotsent
dilshod_gayipov@mail.ru +999819970073

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi muxammasnavislik an‘anasi xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy g‘azallariga xorazmlik shoirlar tomonidan bog‘langan muxammaslar, ulardan ba‘zilarining mavzu doirasi, g‘oyaviy yo‘nalishi, taxmisnavis ijodkorlardan ayrimlarining badiiy mahorati haqida so‘z boradi. Navoiy g‘azallariga muxammaslar jamlangan “Avvalgilarga o‘xshamas” to‘plami haqida ham ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, g‘azal, muxammas, taxmis, mavzu, g‘oya, mahorat, to‘plam.

Аннотация

В данной статье рассматривается специфика традиции по созданию стихотворений в жанре мухаммас в узбекской литературе. Также приводится анализ мухаммасов, посвященных хорезмскими поэтами газелям Алишера Навои, идейно-тематическая направленность некоторых произведений жанра мухаммас; исследуются особенности художественного мастерства некоторых поэтов, творивших в жанре тахмис. Приводится информация о сборнике «Avvalgilarga o‘xshamas», в котором собраны мухаммасы, посвященные газелям Навои.

Ключевые слова: Навои, газель, мухаммас, тахмис, тема, идея, мастерство, сборник.

Abstrakt

This article discusses the tradition of mukhammasnavis in Uzbek literature. In addition, it will be discussed about the ghazals of Alisher Navoi, the themes and ideological direction of some of them, and the artistic skills of some of the poets of Khorezm. Information is also given about the collection "Avvalgilarga o'xshamas", which includes ghazals of Navoi.

Key words: Navoi, ghazal, mukhammas, takhmis, topic, idea, skill, collection.

Sharq she'riyatining ulug' ijodkorlaridan biri Alisher Navoiy chinakam ma'noda turkiy she'riyat quyoshi edi. Uning boy adabiy merosi keyingi davr ijodkorlari uchun namuna, ilhom manbayi bo'ldi. Shoir she'rlariga bog'langan tatabbu'lar, payravlar fikrimizning isbotidir. Alisher Navoiy she'riyati Xorazm adabiy muhiti vakillarini ham o'ziga rom etdi. Ular orasida Navoiy gazallariga tatabbu' bitmagan, muxammas bog'lamagan ijodkor yo'q hisobi. Aynan muxammaslar haqida gap ketganda, Alisher Navoiy g'azallariga xorazmlik shoirlardan Muhammadniyoz Nishotiy, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim, Munis, Kiromiy, Ogahiy, Rojiy, Komil, Otaniyoz Niyoziy, Ahmad Tabibiy va boshqa ijodkorlar go'zal muxammaslar bog'lashgan. 2021-yilda taniqli shoir, jurnalist, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Oshiq Erkin tomonidan "Avvalgilarga o'xshamas" nomli muxammaslar to'plami nashrdan chiqarildi. Bu to'plamga Alisher Navoiy g'azallariga o'zbek shoirlari tomonidan bog'langan muxammaslar kiritilgan. Shunisi muhimki, zahmatkash shoir va adabiyot fidoyisi Oshiq Erkin mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz vakillaridan 114 nafarining muxammaslarini ushbu to'plamga jamlagan hamda g'oyat savob va xayrli ishga qo'l urgan. Bir jihatni alohida ta'kidlash joizki, bu ish yana davom ettirilsa, nashrga tayyorlangan to'plamlar yirik tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qilardi. Bu to'plamga xorazmlik shoirlardan Muhammadniyoz Nishotiy, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim, Munis, Kiromiy, Ogahiy, Komil, Otaniyoz Niyoziy, Bayoniy, Ahmad Tabibiy, Ilyos So'fi, Avaz O'tar, Komil Devoniy, Chokar, Mahbubiy, Oshiq Erkin, Qurbon Muhammadrizo, Davlatyor, Komil Avaz, Omon Matjon, Otabek Ismoilov, Shoir Shamslarning Navoiy g'azallariga bitilgan g'azallari kiritilgan. Bu muxammaslarning ko'pchiligi o'ziga xos badiiy mahorat mahsuli ekanligi bilan ajralib turadi.

Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslar orasida Munis taxmislari badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Munis Navoiyning bir qancha g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Navoiy g'azallariga muxammaslar to'plamiga kiritilgan Munisning taxmisi ham badiiy mahorat mahsulidir. "Bu kecha sahni gulistonda bizing jononadur" deb boshlanuvchi muxammas ishqiy mavzuda bo'lib, ushbu taxmisga rindona ohanglar ham singdirib yuborilgan:

*Bu kecha sahni gulistonda bizing jononadur,
Ilkida jom-u surohiy, shevasi mastonadur,
Boda tobidin yuzi har lahza gul-gul yonadur,
Shu'lai ruxsorig'a ko'nglim qushi aylonadur,*

Tong emas gul sham'ig'a bulbul agar parvonadur [2;36].

Shoir guliston sahnida turgan yorini tasvirlar ekan, uning go'zalligini, qo'lidagi may to'la jomini, mag'rur-u mastona so'zlarini, boda tobidan gul-gul yonayotgan yuzlarini, o'zgacha zavq va shavq bilan qalamga oladi. Yuqoridagi ma'noni o'zida jamlagan Munis misralari Navoiyning yuzi shu'lasida atrofida ko'ngil qushi aylanishi, gul sham'iga esa bulbul parvonligini zo'r mahorat bilan tasvirlagan misralariga juda mos tushgan. 7 bandli muxammas Navoiy va Munis fikriy olamida o'xshashlik borligini isbotlagan hamda oshiqona va rindona mavzuda har ikkala shoir qarashlari bir-biriga mushtarakligi ham oydinlashgan.

Navoiy g'azallariga bog'langan muxammaslar orasida Ogahiy taxmislarining ham munosib o'rni bor. Ma'lumki, Ogahiy muxammaslari sonini F.G'anixo'jaev 84 ta, A.Abdug'afurov 90 ta deb ko'rsatadi. Ogahiy mustaqil muxammaslar yozish bilan birga (10), ulug' Navoiy g'azallariga ham muxammaslar bog'ladi (31), uning she'riyatdagi san'atidan, dahosidan bahramand bo'ldi. Ogahiy taxmisleri mumtoz adabiyotimizda o'zining munosib o'rniga ega. Bu o'rinda g'azal va muxammas munosabatiga doir bir jihat diqqatni tortadi. Odatda, muxammas, xususan, uning taxmis shakli janriy tabiatiga ko'ra g'azaldagi fikrni kengaytirish, yangicha qarashlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Bu jarayonda har ikkalasi ham mushtarak xususiyatga – oniy va xotiraviy lirik kechinmaga asoslanadi [7; 87].

Ogahiyning Navoiy g'azallariga bitilgan muxammaslari ichida ijtimoiy-falsafiy mavzuda yozilgan, ta'bir joiz bo'lsa, shohmuxammas sifatida e'tirof etishga arzigulik "Bila" radifli taxmis bor. Bu muxammasda ifodalangan mazmun-mohiyat insoniylik nizomnomasi, desak xato bo'lmaydi. Chinakam odamiylik asosi ushbu muxammasda jamlangan. Ana shu taxmisning eng go'zal bandlaridan biri quyidagicha:

*Ahli dunyokim erurlar odamiylikdin yiroq,
Peshasi ozor-u minnat, odati kin-u nifoq,
Xushing o'lsa bu so'zimga sidq ila tutg'il quloq,
Bo'lmoq itlar mun'imi tan to'ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilguncha semiz nokaslar in'omi bila [2;56].*

Ogahiy dunyo ahlini odamiylikdan uzoqda bo'lgan kimsalarga qiyoslaydi. Ularning qiladigan ishlari ozor, minnat, odatlari kin, nifoq solish ekanligini ta'kidlaydi. Zamona ahliga murojaat qilar ekan, aql-zakovating bo'lsa, bu so'zlarga chin dildan quloq sol, deya uqtiradi. Ogahiy fikrlariga esa Navoiyning:

Bo'lmoq itlar mun'imi tan to'ma aylab yaxshiroq,

Tanni qilguncha semiz nokaslar in'omi bila

bayti nihoyatda mos tushgan.

Xullas, “Bila” radifli muxammas o‘zbek adabiyotidagi ijtimoiy-falsafiy mavzudagi eng badiiy mukammal g‘azallardan biridir.

Navoiy g‘azallariga bitilgan badiiy yetuk muxammaslar orasida Komil Xorazmiyning taxmislari ham alohida ajralib turadi. Komil Xorazmiy (1825-1899) Alisher Navoiyni she’riyatda o‘ziga ustoz deb bildi. Navoiyning ko‘plab g‘azallariga naziralar bog‘ladi, tatabbu‘lar bitdi. Bu xususda adabiyotshunoslikda qisman fikrlar bildirilgan. Jumladan, M.Yunusov, G‘.Karimov, A.Hayitmetov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida to‘xtalganlar. Yana bir adabiyotshunos M.Salayeva o‘zining “Navoiy va Xorazm shoirlari” asarida: “Navoiy lirikasining Komil she’riyatiga ta’sirini, avvalo, Komil Xorazmiyning o‘z g‘azaliyotida ifoda etilgan estetik qarashlari bilan Navoiy qarashlari hamohangligida ko‘rish mumkin” [7;63] degan edi. Darhaqiqat, Komil she’riyatida A.Navoiy ijodi ta’siri yaqqol seziladi. Buni Komil tomonidan bitilgan “Ne tong, Komil Navoiy yanglig‘ o‘lsa so‘z aro sarmast” misrasi ham isbotlaydi.

Alisher Navoiyning “Navodir un-nihoya” devonida “Bo‘lmangiz” radifli go‘zal g‘azal bor. Bu g‘azal falsafiy-didaktik ruhda yozilgan bo‘lib, shunday boshlanadi:

Do‘stlar, olam eliga yor-u hamdam bo‘lmangiz,

Yor ila hamdam demangkim, oshno ham bo‘lmangiz [1;187].

Hazrat Alisher Navoiyning ushbu g‘azaliga Komil Xorazmiy muxammas bog‘lar ekan, ulug‘ ustozning purma’no fikrlariga monand misralar bita olgan va o‘zining iste’dodini namoyon etgan. Komil ijodidagi misralarga hamohang tarzda shunday yozadi:

Zinhor el ixtiloti birla xurram bo‘lmangiz,

Mehnati har dam fuzun-u rohati kam bo‘lmangiz,

Men kabi bori nadomatdin qadi xam bo‘lmangiz... [4;24]

Biz Komil Xorazmiyning hayot yo‘liga nazar tashlab ham uning nihoyatda elparvar, yurtparvar davlat arbobi bo‘lganligini bilamiz. Uning bu yuksak insoniy fazilati ijodiga ham ko‘chgan. Shoir muxammasda ham xalq dardi bilan yonib yashaydi. U zinhor elning kelishmovchiligidan shod bo‘lmaslikni uqtiradi. Elning mehnati g‘amli, rohati kam bo‘lmasligini, o‘zi kabi nadomat yukidan qaddi egilmasligini istaydi. Komil Alisher Navoiyning olam eliga yor-u hamdam, nafaqat yor-u hamdam, hatto oshno ham bo‘lmanglar, degan ibratomuz fikrini g‘oyaviy jihatdan rivojlantira olgan. Shu o‘rinda, “Olam eli” birikmasi xususida to‘xtalmoq joiz. Savol tug‘iladi, Navoiy nima uchun olam eli bilan yor-u hamdam bo‘lmaslikka

da'vat qiladi? Nahotki, bu dunyo ahli do'st, hamdam, oshno bo'lishga arzimasa? Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, olam eli deganda, bu olamga muhabbat qo'yganlar nazarda tutilmoqda. Taniqli adabiyotshunos N.Jabborov yozadi: *"Tasavvufda tarki dunyo yo'q. Tasavvuf ta'limotida ham, uning zaminida vujudga kelgan tasavvuf adabiyotida ham dunyoni emas, dunyoga bo'lgan muhabbatni tark etishga da'vat qilinadi. Bu esa jamiyat hayotini haqsizlik va jinoyatdan, qabohat va jaholatdan asrashda alohida ahamiyatga ega"* [3;72]. Darhaqiqat, N. Jabborov fikrlarini "Olam ahli" ifodasiga tatbiq qilish o'rinlidir.

Muxammasning ikkinchi bandi quyidagicha:

*Olam ahlidin vafo osorini qilmang gumon,
Naqd umrim sarf etib, qildim alarni imtihon,
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,
Oshnolig' aylabon o'z joningizg'a har zamon,
Boisi yuz ming balo-u mehnat-u g'am bo'lmangiz [4;24].*

Komil birinchi bandedagi fikrlarini davom ettirarkan, olam ahlidan vafo kutmaslikni, umrini sarflab, ularni imtihon qilganligini yozadi. Albatta, olam ahlidan uzlatga qochishni uqtiradi. Keyin yana Navoiy fikrlariga navbat keladi. U ham ahli olamga oshnolik qilib, o'z joniga yuz ming balo, mehnat, g'am bo'lmaslik haqida yozadi.. Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratmoq joiz. Shoir nima uchun uzlatga qochishga chorladi? ...G'azzoliy fikricha, uzlat mutafakkir insonlar uchun zaruriy ehtiyojdir. Inson bot-bot yolg'iz bo'lishni, o'z-o'zi bilan yakka qolib, fikr daryosiga cho'mishni, dunyo tashvishlaridan vaqtincha forig' bo'lgani holda, tafakkuriy idrokka berilishni xohlaydi [5;98]. Darhaqiqat, Komil Xorazmiy nazdida inson uzlatga qochsa, o'zlikni anglaydi.

Xullas, Navoiy g'azaliga bog'langan bu muxammas falsafiy-didaktik she'riyatning go'zal namunasi. Bunda shoirlarning olam, ahli olam, xususan, bevafo mahbublar, fitnachi parivashlar xususidagi qarashlari o'z aksini topgan. Dunyoga mehr qo'ygan, o'zligini unutgan ahli olamni ikkala ijodkor xarobot ahliga qarama-qarshi qo'yadi.

Ma'lumki, Navoiy an'anaviy ishq mavzusida sermahsul qalam tebratgan, g'ayb sirlari, samoviy insoniy hislar olamida takomil topgan g'azaliyotiga Otaniyoz Niyoziy (1844-1928) bir necha muxammaslar bitgan. Baytlari adabiyot ixlosmandlariga yod bo'lib ketgan: "Ko'nglum o'rtansun agar, g'ayringga parvo aylasa", deb boshlanuvchi Navoiy g'azaliga Niyoziy muxammas bog'lagan. Navoiy ishq haqiqiyini qalamga olar ekan, o'zi mansub bo'lgan naqshbandiya tariqati ahkomlarini ham

g'azalga singdiradi. Naqshbandiya tariqatining shiori: "Dil ba yoru dast bakor", ya'ni "Qo'ling ishda, ko'ngling Oллоhda bo'lsin" demak.

Naqshbandiya tariqati uzlatga chekinib, jahr qilishni, ya'ni ovoz chiqarib zikr qilishning tarafdori emas. Shu sabab Navoiy ushbu misralarni yozgan:

*G'ayr zikrin oshkor qilsa, lol o'lsun tilim,
Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa.*

Maqsad aniqki, oshiq oshkora zikr qilishni istamaydi. Shuni e'tirof etish joizki, Niyoziy yuqoridagi misralarga yangicha ruh beruvchi satrlar bitgan:

*Xotirimga boshqa yodi kelsa, xok o'lsun dilim,
Ham uzulsin g'ayriga gah xam qilur bo'lsam belim,
Ham qurib qolsun badanning maddasi bo'lgan gilim... [6;118]*

Niyoziy inson yaralishining tuproqdan – gildan ekanligini ham qalamga oladi. Navoiyning hammaslagi sifatida Niyoziy badiiy talqinda ham o'ziga xoslik yaratdi: "Orzu bo'ldi azaldin ko'ngluma ishqing fani", "Bu ajab husn guli aslo xazondin so'lmag'ay", deyish bilan shogirdlik kalomini aytdi.

*Turfadur Majnunliqim holimni bilmasdur habib,
Bir nafas bo'lmas rifoqatdin mango hargiz nasib,
Volalig' dashti aro endi bo'lubdurman g'arib,
Kelturung raf'i jununing'a parixon, ey tabib,
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa [6;119]
Muxammas shunday yakun topadi:
Zoli dunyo fikrida sarg'arma, so'lma nechakim,
Ey Niyoziy, aldanib uzrinib kulma nechakim,
Inqiyod aylab, aning yuziga kulma nechakim,
Dahr sho'xiga Navoiy sayd bo'lma nechakim,
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa [6;119].*

Navoiyning talqinicha dahr sho'xi - olamning aldamchi o'yinlari, ehtiros-u hislariga sayd bo'lmoqlik fojia. Niyoziy esa "Zoli dunyo fikrida sarg'arma, so'lma, nechakim", deydi. Bu fikr Navoiy talqinining yana bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'rinadiki, ustoz fikriy olami shogirdlarga ilhombaxsh tuyg'u sifatida zohirlanadi.

Shoir Niyoziy buyuk shoirlar g'azallariga muxammaslar bog'lar ekan, ular fikriy olami, dunyoqarashi, anglaganlarini mantiqan davom ettirishga erishadi. Ular ijodidan g'azal tanlaganida ustozlari maqsad-muddaolarini anglab etadi, fikrlarini chuqurlashtirish, takomillashtirishga intiladi.

Xullas, Alisher Navoiy ijodi keyingi davr shoirlari uchun ilhom manbai bo'ldi. Ular Navoiy dahosidan namuna oldilar va davrining iste'dodli ijodkorlariga aylandilar.

O'zbek adabiyotidagi muxammasnavislik an'anasi Navoiy ijodi ta'sirida yana ham taraqqiy etdi. Bu tadrijiy takomilda xorazmlik shoirlarning ham munosib o'rni bor. Ayniqsa, Nishotiy, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim, Munis, Ogahiy, Kiromiy, Komil, Bayoniy, Otaniyoz Niyoziy, Tabibiy va boshqalar Navoiy g'azallariga badiiy etuk muxammaslar bog'ladilar. Ulug' shoir ilgari surgan umumbashariy g'oyalar xorazmlik ijodkorlar tomonidan targ'ib etildi, badiiy ifodada, tasvirda yangilanishga qo'l urildi. Bir so'z bilan aytganda, ular muxammasnavislikda ham o'z mahoratlarini namoyon etdilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. (1987). Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. Fan.
2. Alisher Navoiy. (2021). Avvalgilarga o'xshamas. Alisher Navoiy g'azallariga muxammaslar. Yosh kuch.
3. Jabborov N. (2021). Maoniy ahlining sohibqironi. Adabiyot
4. Komil Xorazmiy. (1961). Tanlangan asarlar. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). Badiiy adabiyot.
5. Komilov N. (1996). Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. Yozuvchi.
6. Otaniyoz Niyoziy. Qo'lyozma. Shoirning avlodlari qo'lidagi devon.
7. Salayeva M. (1993). Navoiy va Xorazm shoirlari. Murabbiy
8. Sarimsoqov. B. (2004). Badiiylik asoslari va mezonlari.

“HAYRAT UL ABROR” DOSTONIDA KO'NGIL TALQINI

Zilola AMONOVA,
BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.d.,

Zarina NAFETDINOVA,
Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sining ibtido dostoni bo'lmish “Hayratul abror” dostoni tarkibidagi ko'ngil bobi g'oyaviy-badiiy tahlilga

tortiladi. Tahlil davomida nasriy bayon va sharhlashga ham e'tibor qaratiladi. Shuningdek, shoirning badiiy mahorati bilan bog'liq mulohazalar ham beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Xamsa", "Hayratul abror", ko'ngil, sharh, nasriy bayon, badiiy mahorat.

Аннотация

В статье идейно-художественному анализу подвергается центральная глава эпоса Алишера Навои «Хамса» «Хайратуль аброр», являющаяся началом эпоса «Хамса». Прозаическое описание и комментарии также подчеркиваются на протяжении всего анализа. Также дается обзор художественного мастерства поэта.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Хамса», «Хайратуль Аброр», сердце, комментарий, прозаическое описание, художественное мастерство.

Abstract

In the article, the heart chapter of Alisher Navoi's "Khamasa" epic "Hayratul Abror", which is the beginning epic of "Khamasa", is subjected to an ideological and artistic analysis. Prose description and commentary are also emphasized throughout the analysis. A review of the poet's artistic skills is also given.

Key words: Alisher Navoi, "Khamasa", "Hayratul Abror", heart, commentary, prose description, artistic skills.

Ma'lumki, inson Sharq mumtoz adabiyotida jami yaratiqlar orasida eng buyuk, sharaf toji bilan siylangan yuksak maqom egasi sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, inson ko'ngli va uning ta'rifiga bag'ishlangan asarlar yoki asarlar tarkibida maxsus boblar ham yaratilgan. Mazkur an'ana Alisher Navoiy tomonidan ham o'ziga xos tarzda davom ettiriladi. Shoir "Hayrat ul abror" dostonida ko'ngil ta'rifi uchun maxsus bir bob kiritadi. Ko'ngil ta'rifi dastlab nasriy sarlavha bilan boshlanadi:

Ko'ngul ta'rifidakim, ko'ngul tilagandek qililmaydurur va aning vasfin sohibdilliqg'a mavsuf bo'lg'on kishidin o'zga kishi bilmay durur. Ko'ngulsiz roqim xomasin raqamkash qilmoq va bu raqam savodi bilan ko'nglin xush qilmoq (..).

Tabdili: Ko'ngul ta'rifidakim, ko'nguldagidek ta'rif qilish qiyin va uning sifatlarini sof ko'ngulli kishidan boshqa odam bilmaydi; g'amgin qalamkash qalamini ishga solmoq va shu qalamning qora yozuvlari bilan ko'ngulni xushlamoq .

Nasriy sarlavhadan so‘ng, ko‘ngil ta‘rifi berilgan baytlar boshlanadi. Subhi azal – Alloh odam xokini guliston sun’ (yaratdi) etdi. Shoir Alloh yaratgan gulistonda nasim – yoqimli shabada esdi. Bu gulistonda sunbulu sarvi gulu rayhon borligini tanosib orqali ifoda etadi:

*Subhi azal qildi chu dehqoni sun’,
Odamiy xokiyni gulistoni sun’.
Esti nasimi bu guliston sari,
Sunbulu sarvi gulu rayhon sari,*

Ayni misralardan so‘ng, shoir insonga ruh berilganligiga ishora qilib, “tan gulshaniga kirdi ruh”, deya etirof etadi:

*Kim bu rayohing‘a etishti futuh,
O‘ylaki tan gulshanig‘a kirdi ruh.*

Alloh maxluqotlari orasida eng buyugi insondir. Bu fikr “Tin” surasining 4-oyatida o‘z ifodasini topgan: “Batahqiq, Biz insonni eng yaxshi suratda yaratdik”. Insonga Xoliq ilohiy ruh ato etgan. Alloh amri bilangina jon, ruh Odamga o‘rnashdi. Mazkur fikrlar Qur‘oni Karimning “Sajda” surasining 9-oyatida “So‘ngra uni rostladi va uning ichiga O‘z ruhidan pufladi...”. “Qisasi Rabg‘uziy”da ham bu voqea quyidagicha ifodalangan: “... Jonga yorlig‘ bo‘ldikim, Odamning taniga kirgil teb”. Alisher Navoiy o‘z mulohazalarini davom ettirib, Allohning olamni yaratishdan maqsadi – inson, insonni yaratishidan “g‘araz” – maqsad esa KO‘NGILni yaratmoq edi, deydi:

*Ermas edi anda g‘araz hech gul,
G‘ayri ko‘ngulkim, g‘araz erdi ko‘ngul.*

Shoir ko‘ngil ta‘rifida tashbehlarning eng sarasini, ohorlisini ishlatadi. Ya‘ni jism gulshan bo‘lsa, ko‘ngil undagi g‘unchadir:

*Eyki ko‘ngul vasfi bayon aylading,
Sen bu ko‘ngulni ne gumon aylading.
Gulshani jisming aro gul g‘unchasi,
Bitsa gumon etma ko‘ngul g‘unchasi.*

Ko‘ngil so‘zining tilimizda arabcha va forsha dil, qalb kabi sinonimlari mavjud bo‘lsa-da, bu so‘zlarga nisbatan keng qo‘llanuvchi hamda poetik timsol darajasiga ko‘tarilgani ko‘ngildir. Lug‘atlarda “ko‘ngil – kishining his – tuyg‘u kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil, xotir, yod, fikr, xayol, ixtiyor, har narsaning markazi, o‘rtasi – deb sharhlangan”. Qolaversa, xalq og‘zaki ijodida ham ko‘ngil bilan bog‘liq “ko‘ngil bermoq”, “ko‘ngil olmoq”, “ko‘ngil ko‘yi” kabi bir qancha iboralarning mavjudligi yoki xalq qo‘shiqlarida ko‘ngilning tarannum etilishi ham mazkur tushunchaga so‘z san‘atining barcha sohalarida keng murojaat qilingani ko‘rsatadi. Mumtoz

adabiyotimizda ham ko‘p qo‘llanilgan poetik timsollardan biri. Hazrat Navoiy ham lirik she‘rlari bilan bir qatorda “Hayrat ul- abror” da maxsus bob ajratganligi bejiz emas. Shoir ko‘ngil ta‘rifini davom ettirar ekan, ruju‘ asosida fikr rang-barangligiga erishgan. Chunki yuqoridagi misrada ko‘ngilni g‘unchaga tashbeh qilgan bo‘lsa, keyingi baytda “g‘uncha emas, qon erur, yo bo‘yalib qon aro paykon” deya ta‘riflaydi:

*G‘uncha emaskim, bu ko‘ngul qon erur,
Yo bo‘yalib, qon aro paykon erur.*

Ma‘lumki, ko‘ngil so‘zi so‘zi tilshunoslik nuqtai nazardan mavhum ot so‘z turkumiga mansub sanaladi. Navoiy ham ko‘ngilning na shakli, na rangi, na bo‘yi (hidi) bor, ammo har nedin kerak ekanligiga keyingi baytda urg‘u beradi:

*Yo‘qki, bu bir shakl durur rangu bo‘,
Har ne kerak bo‘lsun, agar bo‘lsa bu.*

Ko‘ngil sifatlarini davom ettirgan shoir har nimaki yaratiliq joni bor, jismning joni esa bu g‘unchasifat ko‘ngilda ekanligini, ammo bu ko‘ngil ham dajjol (eng yaramas, eng vahshiy, inson dushmani)da ham, nabi (payg‘ambar)da ham mavjudligini ta‘kidlash bilan ko‘ngilning turli shaxslardagi turli mavqeiga ishora qiladi:

*Gar bu durur har nimakim joni bor,
Jismida bu g‘uncha sifat qoni bor.
Ham oni dajjol topib, ham nabi,
Iysi bila tengmu bo‘lur markabi?
Gar bu esa Xoja, o‘zin muttasil —
Qaysi ko‘ngul birla degay ahli dil*

Navoiy ko‘ngilga katta e‘tibor qaratar ekan, qaysi ko‘ngil muttasil o‘zni desa, ya‘ni o‘z manfaati uchun jazm qilsa, unday ko‘nguldan “to‘ngul”-umid uz, - deydi. Bu o‘rinda mutasavvuf Ahmad Rifoyniing quyidagi fikrlarini eslash joiz: “Qalb bir go‘sht parchasidir. Ayni paytda shu bir parcha go‘sht, ya‘ni qalb nurlar yig‘iladigan joy erur. Allohning yaratgani yaxshilik va yomonlik bir yerga to‘planadigan maskandir. Ayni shu zaylda aks ettirgani yaxshilik va yomonlik tuyg‘usiga qarab qalb bir qiymat kasb etar”. Navoiyshunos olim R.Vohidov “Har qalay xazina (ko‘ngul) bag‘ridagi ezgulik yoxud yovuzlik urug‘larining qay tomonga qarab harakatga kelishi dunyo muvozanatini belgilaydi. Insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, himmat, shafqat, samimiyat va odamiylik munosabatlari ham ko‘ngulga bog‘liqdir” – deb yozadi. Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodida ham ko‘ngil insoniylik asosi sifatida e‘tirof etilgan “Ko‘ngil kirini yetti daryoda

yuvsa ketmas” kabi maqollar borki, ko‘ngil uchun poklik va soflik muhimligi aks etib turadi:

*Bu xud emas jazm sen istar ko‘ngul,
Gar bu ko‘ngul bo‘lsa sen andin to‘ngul.*

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ko‘ngil so‘zi – yurak, qalb, dil so‘zlari bilan ma’nodosh. Ammo ko‘ngil barchasidan keng qamrovli va ustundir. Bu ustunlikni ham xalq og‘zaki ijodi namunalarida, ham mumtoz adabiyot durdonalarida ko‘rishimiz mumkin. Navoiy ham ayni masalalarni keyingi baytda zikr etib, ko‘ngilning “bo‘stoni roz” (bo‘ston -bog‘, gulzor, chaman; roz - yashirin, maxfiy) ekanligini, shuningdek, quds (poklik, tozalik, muqaddas) harimida jilvasozligini ta’riflaydi:

*Buki ko‘ngul dersen erur bu yurak,
Ism ko‘ngul birla anga mushtarak.
Ko‘ngul erur bulbuli bo‘stoni roz,
Quds harimida bo‘lub jilvasoz.*

Qolaversa, shoir nazdida jannati a’loning “royiha”si (yoqimli hid, is) ham ko‘ngil, “partav” (yorug‘liq nuri) “misboh” (nur)i “tajallo” (jilvalangan) etgan ham ko‘ngildir:

*Royihai jannati a‘lo ham ul,royiha
Partavi misbohi tajallo ham ul.*

Navoiy ko‘ngil ta’rifiga xotima yasar ekan, yuqorigi baytlarida keltirgan “so‘fiyi sohib dil” haqidagi mulohazalariga ham yakun yasaydi. Ya’ni uning (“so‘fiyi sohib dil”ning) etagini tutmoq uchun “emas dast ras”- qo‘l yetmaydi, faqat Navoiyga “bir rishta” – ip, bog‘liqlik bo‘lsa bas. Navoiy bu o‘rinda jon ipining haqiqiyat, asliyat, hayyi mutlaq (Alloh), ya’ni o‘sha buyuk nur rishtasiga ulab yuborilishidan umidvor tarzda yakunlaydi:

*Gar etagin tutmoq emas dast ras,
Tushsa Navoiy sari bir rishta bas.*

Xulosa qilib aytganda, Sharq mumtoz adabiyotida alohida timsol darajasiga ko‘tarilgan obrazlardan biri ko‘ngildir. Chunki insonni yaratgan Xoliqi olam uning qalbini nazargoh qilib belgiladi. Bu esa ko‘ngilni yuksak maqomga ko‘tardi. Hatto olamlar qiblasining ko‘ngil ka’basicha qadri yo‘q. Shuning uchun barcha ijodkorlar, jumladan, Alisher Navoiy o‘z asarida ko‘ngilga maxsus bob ajratdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 – жилд. Тошкент: Фан, 1985. – 634 бет.

2. Amonova Zilola Qodirovna, Akhrorova Zufnunabegim Rizvonovna. The Role of Romantic Poems in Husseini's Work. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2022/5/4, Stranitsy 126-131
3. Navoiy Alisher. XX jildlik. VII jild. Hayrat ul -abror. –Toshkent, 1990 – 389 s.
4. Tojiboyeva Ozoda. Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: prinsiplari, mezonlari, usullari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2019.
5. Bozorova N. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi. –T.:Fan. 2009.

ALISHER NAVOIY IJODIDA “YUSUF VA ZULAYHO” MAVZUSI

Dildoraxon ABDULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori, dotsent,
Andijon davlat universiteti
dildora.abd@mail.ru (+998 90 544 70 28)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi Yusuf a.s. bilan bog‘liq voqea tahlilga tortilgan. Alisher Navoiy asaridagi bu sayyor syujet Qur‘oni karim hamda boshqa “Yusuf va Zulayho” nomli badiiy dostonlar bilan qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiyning nasriy va ilmiy asarlari, “Tarixi anbiyo va hukamo”, Yusuf payg‘ambar qissasi, “Yusuf va Zulayho” dostoni.

Аннотация

В статье анализируется мотив о пророке Юсуф в произведение Алишера Навои “Тарихи анбиё ва хукамо” (“История о пророках и правителях”). Этот бродячий сюжет в творчестве Алишера Навои сравнивается со Священным Кораном и другими эпосами под названием «Юсуф и Зулейха».

Ключевые слова: прозаические и научные произведения Алишера Навои, «Тарихи анбиё ва хукамо», повесть о пророке Юсуфе, эпос «Юсуф и Зулейха».

Abstract

In the article Yusuf a.s. the incident related to is analyzed. This traveling plot in the work of Alisher Navoi is compared with the Holy Qur'an and other epics called "Yusuf and Zulayha".

Key words: prose and scientific works of Alisher Navoi, "Tarihi anbiyo va hukamo", the story of the Prophet Yusuf, the epic "Yusuf and Zulayha".

Hazrat Alisher Navoiyning ilmiy-filologik asarlaridan biri "Tarixi anbiyo va hukamo" asari bo'lib, unda tarixda o'tgan payg'ambarlar va hukmdorlar haqida bayon qilingan. Shoirning "Yusuf va Zulayho" mavzusida masnaviyi bo'lmasa-da, "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Yusuf a.s. qissasiga keng o'rin berilgan. Sharq adabiyotida mashhur bo'lgan bu sayyor syujet "Yusuf va Zulayho" bo'lib, dastlab diniy manbalardan Tavrot, Injil, Qur'oni karim kabi kitoblarda uchraydi.

"Yusuf" surasi Qur'oni karimning 12-surasi bo'lib, u 111 oyatdan iborat, "eng go'zal qissalardan" deb tavsiflangan. U Payg'ambarimiz janobi Muhammad s.a.v.ning boshiga musibat tushganida, tog'asi Abu Tolib hamda zavjasi Xadicha vafot etgan kunlarida Makkada nozil bo'lgan. Yusuf a.s.ning mushkul taqdiri va uning qiyinchiliklarni sabr bilan yenggani haqidagi voqealar Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ga ma'lum qilingan. Ushbu surani musibatga duch kelganlar eshitsa, qalbi taskin topishi haqida so'z yuritiladi.

Payg'ambar Yusuf a.s.ning badiiy adabiyotdagi obrazi qissa va dostonlarda yaratilgan. Bu mavzuni arab va fors tillarida Firdavsiy, as-Saolibiy, Ibn Sino, Kisoiy, A.Jomiy, turkiy tilda esa Qul Ali, Sayyod Hamza, N.Rabg'uziylar qalamga olganlar. Xalq dostonlari sirasida ham "Yusuf va Zulayho" dostoni yaratilgan.

Alisher Navoiy bu mavzuda doston yozmoqchi bo'lgan bo'lsa ham, lekin ushbu niyati amalga oshmagan. Xorijlik olim E.Bloshe Parijdagi "Yusuf va Zulayho" dostoni qo'lyozmasini o'rganar ekan, xalifa Aliga berilgan "sher" sifatini o'qib, "Alisher" nomini chiqargan va asar Alisher Navoiy qalamiga mansub degan edi. F.Sulaymonova E.Bloshening fikriga tayanib, maqola e'lon qilib, asar Navoiy qalamiga mansub bo'lsa kerak, degan fikrni beradi [3;148-151]. E.Shodiyev "Sharq yulduzi" jurnalida maqola e'lon qilib, asarni Navoiy qalamiga mansub deydi. Biroq bu fikrlar mulohaza bo'yicha qolib, shoirning bu mavzuda doston yozganligi o'z tasdig'ini topmagan.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida payg'ambarlardan yigirmanchi o'rinda Yusuf a.s. haqida ma'lumot keladi. Yusuf a.s. bilan bog'liq voqeani Ya'qub a.s. qissasidan "mashhurroq qissa" ekanini, uni bayon qilishga ehtiyoj borligini, chunki bu qissaning "g'arobat va shirinligi" sababli "akobirlar", ya'ni kattalar, avvalgi shoirlar ham nazmda, ham nasrda ijod qilganlari, "bayonida sehrlar"

ko'rsatganlarini ta'kidlaydi. Ustoz shoirlardan dastlab Firdavsiy Tusiy, keyin Abdurahmon Jomiylar Yusuf a.s.ning husnini ta'rif qilganlari, bu mavzudagi asarlarining fazilati, badiiyati, mukammalligi ta'rifiga hojat yo'qligini aytadi. Xoja Mas'ud Iroqiy degan shoirning bu mavzuda she'riy shaklda asar yozgani, "balog'at" (badiiyat)ning "dodin bergani"ni aytib o'tadi. Yana boshqa shoirlar ham asarlar yozganini ta'kidlaydi. So'ngra agar o'zining umri yetsa bu qissani yozib oxiriga yetkazish orzusi borligini aytadi: "Komi xotirg'a bu orzuni kechirurkim, inshoolloh umr omon bersa, turk tili bila o'q kofur chun varaq uzra xomayi mushkin shamomani surgay. Va bu qissa nazmni ibtido qilib, intihosig'a yetkurgay.

Haq bu tavfiqni nasib etgay,

Yo nasib ulcha tangridin yetgay" [1;122].

Hazrat Navoiyning ijodiy rejasiga kirgan "Yusuf va Zulayho" mavzusi Yusuf a.s haqidagi qissalar asosiga qurilishi, asarga nazm shakli tanlanishi, uning turkiy tilda yaratilishi haqida so'z bormoqda.

Alisher Navoiy Yusuf a.s.ni bani odam jinsining chiroylirog'i deb ta'rif qiladi. Bir kuni Yusuf a.s. o'zini ko'zguda ko'rib, husnidan mag'rurlanib, men agar qul bo'lsam, bahomni kim bera olar edi, deydi. Yusuf a.s.ning go'zalligi shu qadar ediki, go'zallikning yuz qismdan to'qson to'qqiz ulushi Alloh taolo tomonidan unga berilgan edi. Yana bir manbada Yusuf a.s. go'zalligidan yuziga bir necha qavat parda tutib yurishi, Misr xalqi ocharchilikda qolganida bir qavatini yuzidan ko'targani sababli xalq uning jamoliga maftun bo'lib, yetti yilni shu zaylda o'tkazib yuborgani keltiriladi.

Ko'zguda o'zining go'zalligini ko'rish folklorga xos elementlardan biridir. Xususan xalq ertaklarida ko'zgu go'zallikni ifodalovchi poetik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Ko'zgu unsuri va go'zallik tushunchasining yonma-yon kelishi ham mantiqiy asosga ega.

Yusufning ko'zguga boqib o'z husnidan g'ururlanishi bayonida uning tengsiz go'zalligi anglashilsa, ikkinchi tomondan o'quvchida o'ziga yuqori baho bergan Yusuf taqdiriga qiziqish yanada kuchayadi. Ushbu g'ururlanish lavhasi boshqa adib va shoirlar ijodida uchramaydi, faqat Alisher Navoiy asarida mavjud. O'z husnidan mag'rurlanish, manmanlik nafs qutqusi bo'lib, buning salbiy oqibatlari Yusuf a.s. taqdirida ko'rinadi. Takabburlik va manmanlik Haq taolo tomonidan jazolanishini shoir ta'kidlaydi: "Haq taolo g'ayrat ko'rguzub, andoq qildikim..." Yusuf a.s.ni akalari karvonboshiga o'n etti qalb diramga sotadilar. Karvonboshi Molik binni Zi'ar Xazoiy esa Yusuf a.s.ning vazniga yetti baravar miqdordagi mushk evaziga Misr Aziziga sotadi [1;123].

Qur'oni karimda Ya'qubning Yusufga mehr-muhabbati boshqa o'g'illaridan ko'ra ortiq bo'lishi adovatni paydo qiladi. "Tarixi anbiyo va hukamo"da esa Ya'qub Yusuf a.s.ning ko'rgan tushini, ya'ni oy va quyosh, o'n bir yulduzning Yusufga sajda qilganini "otayu onang va qardoshlaring senga muhtoj bo'lg'aylar", deb ta'bir qiladi. Bu tushni va uning ta'birini eshitgan Yusuf a.s.ning akalari undan qasd olishni niyat qiladilar. Ya'qubga o'zlarini mushfiq ko'rsatib, Yusufni dashtga olib borishga ruxsat oladilar. Qur'oni karimda otaning Yusufni bo'ri yeb ketishidan xavotirda ekani aytiladi. Ya'qubning ana shu xavotiri akalarga tayyor bahonai sabab edi. Ikkala manbada ham akalarning Yusufning ko'ylagi qo'y qoniga bulab, otaga, Yusufni bo'ri edi, deb yolg'on gapirgani keltiriladi. Alisher Navoiyda chohga tashlangan Yusufni qutqarib olgan karvonboshidan akalari "bizning qulimiz edi" deb o'zlariga qaytarib olishi va unga sotishi bayon qilinadi. Qur'oni karimda esa Yusufning akalaridan biri uni o'ldirmasdan quduqqa tashlashni aytadi. Yusuf quduqda uch kun qolib ketadi hamda karvon o'tayotganida suv olish uchun quduqqa chelak tushirganlarida Yusuf chelakka osilib chiqadi. Karvon Misrga yetib kelgach, Yusufni arzon bahoga, bir necha tangaga sotib yuboradilar. Chunki Yusufning egasi chiqib qolishidan qo'rqqan edilar. Qur'oni karimda Misr shahri hokimi Qitfiyr bo'lsa, Navoiy asarida Misr Azizidir.

Alisher Navoiy talqinidagi Yusuf payg'ambar qissasi boshqa shoirlarning shu mavzudagi qissa va dostonlaridan farq qiladi. Bu qissa haqida u Qur'oni karim, "Qisas ul-anbiyo" va xalq rivoyatlari asosida keltiradi. Qur'oni karimda Yusuf a.s.ning tushni ta'bir qilish qobiliyati Qitfiyrning uyiga kelganida paydo bo'ladi. "Mana shunday qilib (ya'ni o'limdan, chohdan qutqarib va Misr hokimining ko'nglini moyil qilish bilan) Yusufni – unga barcha tushlarning ta'birini bildirish uchun, - o'sha yerga (Misr hokimining uyiga) joylashtirib qo'ydik"(12:21).

"Tarixi anbiyo va hukamo"da esa Zulayho Misr Aziziga aytirib, Yusufni zindonga tashlatganida, ya'ni zindonda unga tush ta'biri qilish Tangri taolo tomonidan buyuriladi. Zindondagilardan soqiy va bakovul Yusufga soxta tush aytadilar. Ikkisining soxta tushini Yusuf ta'bir qilganda, ular, biz bu tushni ko'rmagan edik, yasagan edik, deyishadi. Yusuf ularga: "Tangri taolo taqdiri mening taqririm bila muvofiq tushubdur", deydi va tush ro'yobga chiqadi. Mazkur lavha ham boshqa "Yusuf va Zulayho" dostonlaridan farq qiladi. Mahbuslikdan ozod bo'lgan soqiyga Yusuf o'zini zindondan chiqishi haqida: "Meni Malik Rayonga borib aytsang", deydi.

Alisher Navoiyga ko'ra, Yusuf ozod bo'lishini Tangri taolodan so'ramay, "mahluqni vasila qilgan"i uchun "Haq taolo g'ayratdin yana yillar ani zindonda asraydi" [1;125]. Mushkul va musibatli onlarda iltijo odamga emas, Yaratganga qaratilishi zarurligi shoir tomonidan ta'kidlanmoqda.

"Tarixi anbiyo va hukamo"da tush voqeasi to'rt o'rinda kelib, o'ziga xos tasvirlangan. Bu tushlarning ta'biri voqealar davomida ro'yobga chiqadi. Yusuf a.s. zindonda ekanida soqiy soxta tushini "bir bog'da uch xo'sha uzum ko'rdum, ul uzumni siqsam, filhol chog'ir bo'ldi va ani malikka tuttum, ichib manga iltifot va tahsin qildi" deb aytib beradi. Qur'oni karimdagi soqiyning "Men tushimda sharob tayyorlayotgan emishman" degan jumla Alisher Navoiy tomonidan rivojlantirilib, kengaytirib bayon qilingan. Soqiyning uchta novdada uzumni ko'rishi, uzumni siqib chog'ir tayyorlashi va uni malik (podsho) ichib soqiyga rahmat deb, ma'qullashida ham ijobiy ishora bor. Uchta xo'sha – uch kundan keyin soqiyni malik Rayon huzuriga chorlashi bo'lsa, chog'ir – xursandchilik, xurramlik belgisi hamda podshoning chog'irni soqiy qo'lidan olib ichishi – ko'rsatilajak marhamatdir.

Qur'oni karimda novvoy yigitning tushi quyidagicha: "Men boshim ustida non ko'tarib turganmishman, qushlar undan eyayotgan emishlar". Alisher Navoiyda esa novvoy o'rnida bakovul keltiriladi hamda tush voqeasi kengroq tasvirlanadi: "Malik matbaxidin uch xonda non boshim ustida ko'rdum va osmondin qushlar boshing'a qo'nub, ul nonlarni edilar" [1;124]. Qushlarning boshga qo'nib, nonlarni yeyish holati tasviri ofatning boshga yog'ilishiday taassurot uyg'otadi. Soqiyga Yusuf a.s. malikka borib men haqimda ayt, degan iltimosi soqiyning yodidan chiqqani sabab Yusuf a.s. zindonda bir necha yil qolib ketishi Qur'oni karimda aytilgan bo'lsa, Alisher Navoiyda bu muddat yetti yil deb ko'rsatiladi. Yetti yildan so'ng malik Rayon tush ko'radi: "...yetti semiz qo'yni yetti oruq qo'y edilar va yetti toza ko'kargan xo'shani yetti quruq xo'sha chirmoshib, betarovat qildi". Qur'oni karimda: "Men tushimda yettita oriq sigir yettita semiz sigirni yeyayotganini va yettita yashil boshqoq bilan birga boshqa qurigan (yetti boshqoq)ni ko'rdim" [2;161].

"Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlar va boshqa manbalarda Misr Azizi vafotidan keyin Yusufning Zulayhoga uylanishi va Misr taxtiga chiqishi voqealari bayon qilinsa, Alisher Navoiyning mazkur asarida Zulayhoning eri uni taloq qiladi hamda Malik Rayon Yusufni podsho qilib ko'taradi. Mamlakatdagi qurg'oqchilik yillari o'tgandan keyin Yusuf Zulayhoga uylanadi. Voqea so'nggida Ya'qub a.s.ning vafoti haqida: "Bir

rivoyat bila o'n yetti yildin so'ngra, bir rivoyat bila yigirma to'rt yildin so'ngra Ya'qub a.s. Tengri taolo rahmatig'a bordi", deyiladi. Demak, Alisher Navoiy "Yusuf va Zulayho" mavzusidagi qissa va dostonlarning bir necha namunalari bilan tanish bo'lgan.

"Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlarning xotimasida syujet boshida berilgan Yusufning tushi ro'yobga chiqishi bilan yakunlansa, Alisher Navoiyda esa Ya'qub vafotidan so'ng Malik Rayon ham vafot etgani, Qobus nomli kofir Misr taxtiga chiqqani, uni Yusuf a.s. islomga da'vat qilgani, o'zining so'nggi manzilini Nil daryosida Misrdan bir yig'och uzoqlikdagi makonda tayinlagani hamda vafot etgani haqida xabar beriladi. Isroil ahli Ya'qub a.s.ning avlodlari va isboti o'n bir o'g'li bo'lganligidir. Yusuf a.s. haqidagi qissa quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

*Bordi Yusuf, qolmasdin Qobus ham bo'lmay adam,
Ichtilar jomi fano siddiq ham, zindiq ham.*

"Tarixi anbiyo va hukamo" asaridagi Yusuf a.s. haqidagi voqealar Alisher Navoiygacha ham payg'ambarlar haqidagi qissalarda yoritilgan bo'lib, bu mavzuni yoritishda shoir Qur'oni karim, "Qisas ul anbiyo"lar, "Yusuf va Zulayho" dostonlari, xalq og'zaki ijodidagi rivoyat va qissalarga tayangan. "Tarixi anbiyo va hukamo"da "Yusuf va Zulayho" mavzusi boshqa payg'ambarlar tarixiga nisbatan keng yoritilgan. Bu mavzu Alisher Navoiy tomonidan boshqa dostonlarga nisbatan qisqa bayon qilingan bo'lsa-da, shu orqali shoirning "Yusuf va Zulayho" syujeti haqidagi yondashuvlari haqida, yozilishi rejalashtirilgan dostonning taxminiy tarxi uchun asos to'g'risida xulosalar olish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. (2000). Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 16 j. Tarixi anbiyo va hukamo. Fan.
2. Qur'oni karim. (1992). Cho'lpon.
3. F.Sulaymonova. (1973). Navoiyga nisbat berilgan "Yusuf va Zulayho" dostonining Parij qo'lyozmasi haqida. "Adabiy meros, manba va tadqiqotlar". Fan.

ISKANDARNING SHOXI BO‘LGANMI?

Ilyos ISMOILOV,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti,
ismoilovilyos891@gmail.com
+998935872589

Annotatsiya

Iskandar mavzusi qadimiy ildizlari va hayratomuz mazmun-mundariyasi bilan asrlar davomida dunyoning ko‘plab xalqlarini o‘ziga rom etgan. Bu mavzuda ko‘plab qarash-u talqinlar yuzaga kelgan, ularning orasida mistik tabiatga ega, insonning ilohiyot bilan aloqadorligiga ishora qiluvchilari ham bo‘lgan. Jumladan, shox (rog) motivi mavzu tarixida alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lib, u folklor va yozma adabiyotda keng tasvirlangan. Maqolada ushbu motivning genezisi va Sharq adabiyotidagi talqinlari o‘rganilgan. Iskandar va Zulqarnayn qissalarining qo‘shilib ketish jarayoni, shox motivining bu jarayondagi o‘rni va talqinlari ko‘rsatib berilgan. Iskandarning shoxi bor degan tasavvurlarning manbalari aniqlanib, ularning Sharq adabiyotiga ta’siri masalalari yoritilgan. Shox motiviga oid bahslarga munosabat bildirilgan, uning Sharq adabiyotidagi turli talqinlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Iskandar (Aleksandr), shox, folklor, adabiyot, talqin.

Аннотация

Тема Искандера веками увлекала многие народы мира своими древними корнями и захватывающим содержанием. На эту тему возникло множество взглядов и толкований, среди которых есть толкования мистического характера, указывающие на связь человека с божественным. В частности, особое значение в истории этой темы приобрел мотив рога, который широко описан в фольклоре и письменной литературе. В статье рассмотрены генезис этого мотива и его интерпретации в восточной литературе. Показан процесс слияния сюжетов об Искандере и Зулкарнайне, роль и интерпретации мотива рога в этом процессе. Выявлены источники представления о том, что у Искандера был рог, и освещены вопросы их влияния на восточную литературу. Приведены реакции на споры о мотиве рога, проанализированы его различные трактовки в восточной литературе.

Ключевые слова: Искандер (Александр), рог, фольклор, литература, интерпретация.

Abstract

For centuries, the theme of Iskander has captivated many peoples of the world with its ancient roots and fascinating content. Many views and interpretations arose on this topic, among which there are interpretations of a mystical nature, indicating the connection of man with the divine. In particular, the motif of the horn, which was widely described in folklore and written literature, has acquired special significance in the history of this topic. The article concerns the genesis of this motif and its interpretation in Eastern literature. The process of merging the stories about Iskander and Zulkarnain, the role and interpretation of the horn motif in this process were shown. The sources of the idea that Iskander had a horn were revealed, and the issues of their influence on Eastern literature were highlighted. Reactions to disputes about the motif of the horn were given, as well as its various interpretations in Eastern literature were analyzed.

Key words: Iskander (Alexander), horn, folklore, literature, interpretation.

Sharq xalqlarida podsho Iskandarning boshida shoxi bo'lgan degan tasavvur mavjud. Shu qarash asosida turli afsona-yu ertaklar to'qilgan, badiiy talqinlar yaratilgan. Masalaning ontologik tafakkur darajasi bilan bog'liq jihatlari mavjud bo'lib, qadimgi xalqlarda podshohlarga xudolar, osmonlar homiylik qilishi haqida ishonch, ularga sirli kuch-qudrat sohibi sifatida qarash mavjud bo'lgan, shuning natijasi o'laroq shohlarda noodatiy belgilar mavjud deb ishonilgan. Sharqshunos Y.E.Bertels aytadiki, "shox eng qadimgi davrlardayoq Yaqin Sharqda ilohiy qudratning ramzi bo'lgan. Suzadan topilgan yodgorlik toshidayoq Naram-Sin ikkita shox bilan tasvirlangan" [3, 290]. Bu kabi tasavvurlar zamirida mutlaq hukmdorni ilohiylashtirish yoxud uning ilohiyot bilan aloqasini ko'rsatish psixologiyasi yotadi. Bu juda katta masala bo'lib, bizni uning bu tomoni emas, balki shox motivining mavjud manbalar, Iskandar timsoli va obraziga oid asarlardagi talqinlarining tarixiy rivoji ko'proq qiziqtiradi. Shubhasiz, Iskandar mavzusida shox motivi to'g'risidagi tasavvurlar o'z-o'zidan paydo bo'lmagan va qadimiy ildizlarga tayanadi.

Iskandarning shoxi bor degan tasavvur sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan bo'lib, afsona-yu ertaklarda Iskandarning boshida shoxi borligi, Iskandar uni sir tutishga harakat qilgani, lekin baribir oshkor bo'lgani aytiladi. Biroq yozma adabiyotda bunday qarashlar u qadar ommalashgan emas. Adiblar bunday uydirmalarga qo'shilavermagan, aksincha, ularning

yanglish tasavvurlar hosilasi ekanini ko'rsatishga urg'u berishgan. Masalan, Alisher Navoiy Iskandar mavzusiga ko'p murojaat etgan, bu borada maxsus doston yozgan bo'lsa-da, shox motivini tasvirlamagan, bu haqda so'z ochmagan. Yoki Nizomiy Ganjaviy "Iskandarnoma"da Iskandar va uning ikki tomonida farishtalar turgani chizilgan surat dunyoda keng tarqalgani, arablar suratga qarab, farishtalardan birini Iskandar deb gumon qilgani va ana o'sha farishta suratda ikki shoxli qilib tasvirlangani, shu uchun Iskandarni Zulqarnayn deb atashgani haqida yozadi [5, 323 – 326].

Sharqda Iskandarning shoxi bor tarzidagi qarash-u talqinlar, aslida, Zulqarnayn nomi va masalasi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Qur'onning "Kahf" surasi nozil bo'lgach, undagi Zulqarnayn qissasi, xususan, Zulqarnayn so'zining ma'nosini sharhlash bahonasida turli bahslar yuzaga chiqqan. Masalan, Zulqarnayn so'zi *G'arb-u Sharqni egallagan, ikki shoxli, ikki kokilli, ikki uzun quloqli, jomi Jamga ikki qo'llab qilich urgan, ikki qarn yashagan odam* ma'nolarini anglatishi taxmin qilingan. Garchi mazkur munozaralar Zulqarnayn ismiga oid bo'lsa-da, u doiraga Iskandar nomi ham qo'shib yuborilgan. Holbuki, Qur'on va sahih hadislarda Iskandar nomi tilga olingan emas [7, 302 – 303; 1, 401 – 402; 2, 393]. Buning sababi shuki, ilk islom muarrix-u mufassirlari Qur'ondagi Zulqarnaynning kimligini aniqlashtirishga intilib, Aleksandr (Iskandar) haqidagi soxta afsona-yu rivoyatlarga duch kelishgan. Isroiliyotdan boxabar odamlarning naqlariga ergashishgan, natijada sekin-asta "Zulqarnayn bu – Iskandar" tarzidagi noto'g'ri qarashlar shakllana boshlagan. Zulqarnayn va Aleksandrni bir shaxs deb tasavvur qilish oqibatida Zulqarnaynga oid farazlar, jumladan, *ikki shoxlilik* Iskandarga ham nisbat berila boshlagan. Ikki shoxli Iskandar to'g'risidagi tasavvurlarning Sharqdagi manshasi aynan ushbu bahslardir. Shu tariqa, bir chalg'ish ikkinchi yanglishishni keltirib chiqargan.

Zulqarnayn so'zi aslida qanday ma'noni anglatadi? Agar bu so'z va qissa shox motivi bilan aloqador bo'lmasa, shox motivi mavzuga qanday qilib qo'shib qolgan? Dastlabki savolga javob shuki, "Zulqarnayn" so'zi arab tilida turli ma'nolarni bildiradi. Shunga ko'ra, u so'z mana bu ma'noni bildiradi, deb qat'iy aytish qiyin. Biroq so'z "Kahf" surasida "G'arb-u Sharqni bo'ysundirgan shaxs" ma'nosida qo'llangan deyishga yetarli asoslar mavjud, chunki Muhammad s.a.v.ga aynan "G'arb-u Sharqqa qadami yetgan shaxs kim" tarzida berilgan savolga javoban Zulqarnayn qissasi nozil bo'lgan [4, 108]. Bundan tashqari, Qur'ondagi

Zulqarnayn qissasida shox timsoli, u bilan bog‘liq biror qayd mavjud emas.

Ikkinchi savolga javob shuki, shox motivining ushbu bahs doirasiga qo‘shilib qolishi Aleksandr haqidagi ikki xristian afsonasi bilan bog‘liq [8, 144 – 158, 163 – 200]. Ya’ni g‘arblik tadqiqotchilar Aleksandr haqidagi mazkur soxta xristian afsonalardan birini suriyalik ilohiyotchi olim Serulik Yaqubga (milodiy VI asr boshlari) nisbat berish orqali, bu afsonalar Qur’on nozil bo‘lishidan oldin to‘qilgani va Zulqarnayn qissasi yuzaga kelishiga asos bo‘lganini da’vo qilishadi [6, 30 – 33]. Ayni afsonalarda esa Xudo dunyoda tartib o‘rnatish uchun Aleksandrning boshida ikkita shox o‘stirgani hikoya qilinadi. Ammo bir guruh g‘arblik olimlar bu afsona Yaqubga noto‘g‘ri nisbat berilgani, til xususiyatlari afsonalar ancha kech yaratilganini isbotlashdi [8, lxxvii]. Qolaversa, bu afsonalar mavjud bo‘lgan eng qadimiy qo‘lyozma XVIII asrga oid. Shu bois Aleksandr haqidagi mazkur ikki xristian afsonasi “Kahf” surasi nozil bo‘lganidan so‘ng, islomga qarshi kayfiyatdagi shaxslar tomonidan to‘qib chiqarilgani haqiqatga yaqinroq. Shu ma’noda, ikki xristian afsonasining “Kahf” surasiga daxli yo‘q, biroq ushbu afsonalarning islom muarrix-u mufassirlari, shoir-u adiblari asarlariga ta’sirini rad etib bo‘lmaydi. Aynan mazkur toifa o‘z asarlarida ikki xristian afsonasi tafsilotlaridan foydalandi, bu sirada Aleksandr (Iskandar)ning ikki shoxliligi haqidagi tasvirlar ham mavjud. Natijada Iskandar mavzusining Sharqdagi evolutsiyasida shox motivi muhim tarkibiy qismga aylanib ketdi.

Masalaning ikkinchi jihati, ya’ni Aleksandrning boshida ikki shoxning o‘sib chiqishi haqidagi tasavvurlarning genetik asoslari ham e’tiborga molik. “Aleksandrning boshidan ikkita shox o‘sib chiqqan” tarzidagi tasavvurlarni aks ettiruvchi ikki afsona xristian dunyoqarashga ega shaxslar tomonidan to‘qib chiqarilgan bo‘lib, buni afsonadagi Bibliyadan olingan iqtiboslar, yahudiylik tushuncha va qarashlarining ustuvorligi tasdiqlaydi. Tabiiyki, mazkur afsonalar ham birdaniga paydo bo‘lib qolmagan, ular ham muayyan asoslardan o‘sib chiqqan. Bizningcha, ushbu afsonalarning manbasi Misr mifrligiyasi asosida qayta ishlangan Psevdo-Kallisfen an’anasidir. Psevdo-Kallisfenga ko‘ra, Aleksandr Misr hukmdori, kohin Nektanebus bilan Makedoniya malikasi Olimpiyaning g‘ayriaxloqiy munosabatidan tug‘ilgan farzand. Nektanebus kohin bo‘lgani uchun o‘zining shaxvoniy istaklarini turlicha pardalab, Olimpiyani o‘ziga moyil qiladi va uning yotog‘iga bir necha bor iloh Ammon qiyofasida kiradi. Nektaneb Olimpiyani avrab, tunda uning huzuriga keluvchi Liviya ilohi Ammon haqida so‘zlar ekan, Ammonni ikki

shoxli shaxs qiyofasida tasvirlab beradi [8, 7]. Yoki Nektaneb Olimpiya bilan qilgan axloqsizliklarini sun'iy tushlar vositasida pardalaydi, xususan, Nektaneb Filipp urushda bo'lgan paytda Olimpiyaning homilador bo'lib qolishini izohlash uchun sehr orqali Filippga tush ko'rdiradi. Filipp tushida o'rta yoshdagi, qo'chqordek shoxlari bor Ammonning Olimpiya bilan yotgani, Olimpiya qornidagi homila uning zurriyodi ekanini ko'radi. Keyin ta'birchilar ham homila Ammondan ekanini tasdiqlashadi [8, 8 – 9]. Aytish mumkinki, ikki xristian afsonasidagi Aleksandrning boshidan ikki shoxning o'sib chiqishi haqidagi qaydlar ayni mana shu tasvirlar asosida paydo bo'lgan. Psevdo-Kallisfendagi ushbu tasvirlar zahirida esa, shubhasiz, Misr mifologiyasi yotadi. Qadimgi Misr mifologiyasiga ko'ra, Am(m)on osmonning yashirin xudosi deb ishonilgan hamda qo'chqor va g'oz uning muqaddas hayvonlari hisoblangan. Albatta, Ammonning ikki shohli odam qiyofasida tasvirlanishi bilan qo'chqor uning muqaddas hayvoni sanalishi o'rtasida aloqadorlik bor. Ammon va uning qo'chqori to'g'risidagi qaydlarning bevosita Iskandar mavzusining Bibliyadagi asoslariga ishora qilishi esa yanada e'tiborli.

Aytish mumkinki, Psevdo-Kallisfen an'anasida Aleksandrning aynan xudo Ammon farzandi sifatida talqin etilishi bevosita Bibliyadagi Daniil payg'ambar qissasida kelgan Aleksandr haqidagi bashoratlar bilan aloqador. Chunki har ikki holatda shox motivi Aleksandr bilan bog'liq holda kelgan. Xronologik nuqtayi nazardan Aleksandr haqida ma'lumotlar uchrovchi ilk diniy manba Bibliya bo'lib [9, 942 – 946], eramizdan avvalgi XIII asrdan to I asrga qadar ibroniy tilida yozilgan deb hisoblanuvchi "Eski Ahd"ning "Muqaddas yozuvlar" (Ktuvim) qismidagi "Daniil" kitobida Aleksandrga oid ilk ma'lumotlar uchraydi. "Daniil" kitobining muallifi Daniil (Doniyor) payg'ambar deb qaraladi, lekin aksariyat bibliyashunoslar fikricha, bu kitob Danil yashagan davrdan ancha keyin yozilgan. Daniil eramizdan oldingi VII – VI asrlarda yashagan, lekin filologlar kitobning tili, undagi grammatik shakllar IV asrdan keyingi davr tiliga juda yaqin ekanini tasdiqlashadi.

"Daniil" kitobiga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda kelajak haqida sirli uslubda hikoya qilinadi, bayonda allegorik xarakter, ramziylik bo'rtib turadi. Mazkur jihatlar Aleksandr haqidagi xabarlarini tushunishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. "Daniil" kitobining 7-bo'limi bevosita Iskandar mavzusidagi "shox" (muguz) motivi bilan aloqador bo'lib, unda qadimgi davr hukmdorligi, podshoh va shox motivlari o'zaro bog'liq holda tasavvur qilinganini ko'rish mumkin: "... Bundan keyin tundagi vahiyda men qo'rqinchli, dahshatli va benihoya kuchli bo'lgan

to‘rtinchi maxluqni ko‘rdim. U o‘z qurbonlarini temir tishlari bilan g‘ajib, parchalab tashlardi. Qoldiqlarini esa oyoqlari bilan bosib ezardi. Uning o‘nta shoxi bo‘lgani uchun, u oldingi maxluqlardan ajralib turar edi. Men maxluqning shoxlarini tomosha qilib turganimda, ularning orasidan o‘sib chiqayotgan yana bir shoxchani ko‘rdim. Unga joy berish uchun oldingi o‘nta shoxdan uchtasi tag-tugi bilan uzilib tushdi. Bu yangi o‘sib chiqqan shoxning inson ko‘zlariga o‘xshagan ko‘zlari va takabburona gapiradigan og‘zi bor edi” [9, 942 – 944]. Daniilning bu tushi shunday tushuntiriladi: “Suhbatdoshim menga shunday dedi: “To‘rtinchi maxluq bu yer yuzida hukmronlik qiladigan to‘rtinchi shohlikning timsolidir. Bu shohlik boshqa shohliklardan ajralib turadi. U butun dunyoni g‘ajib, ezib parcha–parcha qiladi. Maxluqning o‘nta shoxi — shohlikni boshqaradigan o‘nta hukmdordir. Keyinchalik taxtga yangi bir hukmdor o‘tiradi. Bu hukmdor oldingi o‘nta hukmdordan ajralib turadi va uchta hukmdorni taxtdan tushiradi. ...” [9, 942 – 944]. Umuman olganda, bu yerda *shohlik* va *shox* masalalari o‘zaro bog‘liq holda tasvirlanadi. Yana bir qiziq jihat shuki, keyingi bo‘limda Doro va Aleksandr haqida majoziy hikoya qilinar ekan, ular aynan shoxli hayvonlar – qo‘chqor (Doro) va taka (Aleksandr) timsolida tasvirlanadi. “Shox” motivi yana bu ikki hukmdor sarguzashti bilan bog‘liq holda tilga olinadi.

8-bo‘limda Daniil qo‘chqor va echki haqidagi xabarni shunday bayon qiladi: “Shoh Belshazar hukmronligining uchinchi yilida menga yana bir vahiy keldi. Bu vahiyda men Elam viloyatidagi Shushan qal’asida, Uloy daryosining bo‘yida turgan ekanman. Men daryo bo‘yida bir qo‘chqor turganini ko‘rdim. Uning ikkita uzun-uzun shoxlari bor ekan. Ikkinchi bo‘lib chiqqan shox birinchisiga qaraganda uzunroq ekan. Qo‘chqor o‘zini g‘arb, shimol va janubga urib, yo‘lida duch kelgan hamma narsani suzar edi. Hech qanday hayvon unga bas kela olmas, uning qurbonlarini qutqara olmas edi. Qo‘chqor xohlagan ishini qilar, kuchi tobora oshib borar edi. Buni tomosha qilib turganimda, g‘arb tomondan bir taka ko‘rindi. Yelday uchib kelayotgan bu takaning tuyoqlari go‘yo yerga tegmayotganday tuyular edi. Uning ikki ko‘zi orasida ulkan bir shox bor edi. U quturganicha qo‘chqor tomon yugurdi–da, qahr–g‘azab bilan unga tashlanib, suzdi. Takaning zarbasi zo‘rligidan, qo‘chqorning ikkala shoxi sinib tushdi. Qo‘chqor takaga bas kela olmadi. Taka uni yerga yiqitib toptadi, hech kim qo‘chqorni undan qutqara olmas edi. Taka nihoyatda kuchayib ketdi, ammo kuch–qudrat cho‘qqisida uning ulkan shoxi sinib tushdi. Sinib tushgan shoxning o‘rniga dunyoning to‘rt tomoniga qayrilgan to‘rtta katta shox o‘sib chiqdi. ... Men ko‘rgan vahiyning mag‘zini

chaqmoqchi bo‘lib, boshimni qotirib turganimda, birdaniga oldimda odam qiyofasidagi allakim paydo bo‘ldi. ... U gapirayotganda, men hushimdan ketib, yuz tuban yerda cho‘zilib yotgan edim. Ammo u qo‘lini tekkizib, meni turg‘izib qo‘ydi–da, shunday dedi: eshit, men senga oxirzamon paytida sodir bo‘ladigan narsalarni ayon qilaman, o‘sha davrda Xudo O‘z g‘azabini yer yuziga sochishni belgilagandir. Sen ko‘rgan ikki shoxli qo‘chqor — bu Midiya va Fors shohliklaridir. Taka esa Yunon shohligidir. Ikkala ko‘zining orasidagi ulkan shox — bu Yunon shohligining taxtida o‘tiradigan birinchi hukmdordir. Sinib tushgan shoxning o‘rniga chiqqan to‘rtta shox — Yunon shohligi to‘rt qismga bo‘linishini bildiradi. Taxtga o‘tirgan to‘rtala hukmdor oldingi hukmdorga qaraganda zaifroq bo‘ladi” [9, 945 – 946].

Ta’kidlaganimizdek, Daniil payg‘ambar kitobi ramziy-allegorik tasvir uslubi bilan ajralib turadi. Undagi “to‘rt boshli bars”, “to‘rt shoxli taka” allegorik tarzda Aleksandr va uning imperiyasi haqidagi bashoratlar deb qaraladi. Ushbu xabarlardagi asosiy tezis hukmdorlik, ammo barcha fikrlarda hukmdorlik, podshohlik “shox” (muguz, rog) timsoli vositasida tasvirlangani e’tiborga molik. Xabarlar ta’birida qo‘chqorning ikki shoxi Midiya va Fors shohligi, ya’ni Doro saltanatining, takaning yakka shoxi (yedinorog) esa Yunon saltanati, ya’ni Aleksandr hokimiyatining allegorik ifodasi ekani ochiq aytilmoqda. Echkining peshonasidan o‘sib chiqqan ulkan shoxning kuch-qudrat cho‘qqisida, tezda sinib, o‘rnidan dunyoning to‘rt tomoniga qaragan to‘rt shoxning o‘sib chiqishi – Aleksandr saltanatining shiddat bilan kuchayishi, lekin uzoqqa cho‘zilmasligi, uning saltanati o‘zidan so‘ng to‘rtga bo‘linib ketishini anglatadi. Tarixdan ma’lumki, Aleksandrning imperiyasi o‘zidan so‘ng sarkardalari Ptolemey, Kassandr, Lisimax va Antiox (Selevk)lar tomonidan bo‘lib olingan. “Tarixiy dalillarga ko‘ra, Fors shohi o‘z qo‘shinini boshqara turib, o‘z boshini qo‘chqorning boshi (ko‘rinishidagi dubulg‘a-bosh kiyim) bilan bezatgan, shundan kelib chiqilsa, qo‘chqor tasviri forsiy simvolizm bilan bog‘liq bo‘lishi kerak” [10].

Xulosa qilib aytganda, mana shunday tasvir va talqinlar asosida sharq adabiyotiga *Iskandarning shoxi bor* degan tasavvurlar transformatsiya bo‘lgan va keng tarqalgan, bu haqda yangidan-yangi yangilash tasavvurlar ko‘payib borgan. Bu motiv sharq xalqlari orasida, ayniqsa, Qur’on nozil bo‘lganidan so‘ng keng yoyilgan. Bunga Qur’ondagi “Zulqarnayn” ismi sabab bo‘lgan. Islom ta’limoti tushgach, Qur’onda xabari kelgan Zulqarnayn shaxsini Eski Ahdda “bir shoxli” taka timsolida bashorat qilingan Aleksandr bilan bitta shaxs deb tushunish, “Zulqarnayn” arab

tilida “ikki shoxli” ma’nosini anglatadi deb bilish natijasi o‘laroq sharq xalqlarida, xususan, adabiyotida Aleksandrni “Iskandar Zulqarnayn” tarzida nomlash, Iskandar yoki Zulqarnaynning (ikki) shoxi borligi, u haqda ilohiy kitoblarda vahiyalar kelgani uning ilohiy kuch-qudrat sohibi ekaniga ishora qilishi to‘g‘risida ertaklar, afsona-yu rivoyatlar yuzaga kelgan. Ayni shox motivi Iskandar mavzusining muhim tarkibiy qismi sifatida sharq xalqlari folklori va yozma adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, jumladan, unga oid muhim talqinlar xamsanavislik an’anasida ham paydo bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ал-Бухорий, Имом Исмоил. (1997). *Саҳиҳи Бухорий. 2-жилд*. Арабчадан Хожа Музаффар Набихон ўғли ва Хожа Баҳтиёр Набихон ўғли таржимаси. Қомуслар бош таҳририяти.
2. Ал-Бухорий, Имом Исмоил. (1992). *Саҳиҳи Бухорий. 4-жилд*. Арабчадан Абдулғани Абдуллоҳ таржимаси. Қомуслар бош таҳририяти.
3. Бертельс, Е.Э. (1965). *Избранные труды. Том 4. Навои и Джамии*. Наука.
4. Er-Râzî, Fahreddin. (1993). *Tefsir-i Kebir (Mefâtîhu’l-Gayb). 15. (Cilt)*. Tercüme: Prof. Dr. Suat YILDIRIM, Prof. Dr. Lütfullah SEBECİ, Doç. Dr. Sadik KILIÇ, Öğr. Gör. C. Sadik DOĞRU. HUZUR.
5. Ганчавй, Н. (2012). *Хамса: Искандарнома*. Адиб.
6. Nöldeke, Theodor. (1890). *Beiträge zur Geschichte des Alexanderromans*. In Commission bei F. Tempsky.
7. *Қуръони карим (маъноларининг таржимаси)*. (2001). Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Тошкент ислом университети.
8. *The History of Alexander the Great, being the Syriac Version of the Pseudo-Callisthenes*. (1889). Edited from five manuscripts, with an English translation and notes by Ernest A. Wallis Budge. At the University press.
9. *The Holy Bible*. (2000). New international version. Gideon.
10. [Толкование Далласской семинарии](https://bible.by/dallas/27/8/). URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

MAZMUNDAGI O`XSHASHLIK VA TASVIR XILMA-XILLIGI (Navoiy she'riyati asosida)

Tohir XO`JAYEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti
tohirrashidovichxojaev@gmail.com

Аннотация

Ushbu maqolada Navoiy she'riyatiga oid ba'zi mulohazalar "Navodir un-nihoya" devoni asosida bayon qilingan. Shoir she'riyatining e'tibor beriladigan jihatlari ko'rsatilgan. Shulardan biri bo'lgan mazmunan yaqin, ammo tasvirda farqlanadigan baytlar aniqlanib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Navoiy, she'riyat, "Navodir un-nihoya", devon, g'azal, bayt, so'z, birikma, obraz, mazmun, tasvir.

Аннотация

В данной статье представлены некоторые комментарии к поэзии Навои на основе поэмы «Наводир ун-нихоя», показаны примечательные стороны творчества поэта.

Ключевые слова: Навои, поэзия, «Наводир ун-нихоя», деван, газель, стих, слово, сочетание, образ, содержание, образ.

Abstract

This article contains some comments on Navoi's Navodir un-nihoya. Some minor spelling errors in the publication, aspects that need to be considered, famous ghazals and verses from the devon, and concepts that make sense of the Navoi period are taken into account.

Keywords: Navoi, "Navodir un-nihoya", devon, ghazal, byte, word, compound, image, period, proverbs.

Navoiy she'riyati, devonlari haqida ko'pdan ko'p mulohazalar bildirilgan. Maqola, tadqiqotlar yaratilgan. Hali qilinadigan ishlar, o'rganiladigan jihatlari anchagina. Ana shu tomonlar "Navodir un-nihoya" devoni asosida yoritishga harakat qilindi. Oliy o'quv yurti talabalariga "Navoiyshunoslik" fani o'qitilmoqda. G'azallar tahlili jarayonida talabalar bilishi zarur bo'lgan, ba'zi tushuncha, istiloh, obrazlar mohiyatini anglashda qiynalayotgani oydinlashdi. Mana shularni yoritishda kichik maqoladan tortib, yirik tadqiqotgacha zarurligi muhim ishlardan hisoblanadi. Devonni o'qish asosida (Navoiyning boshqa devonlari ham) quyidagilarga e'tibor berish, tadqiq va tahlil etish zarurligiga e'tibor qaratildi:

1. Devondagi bugungi kunda xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan va keng tarqalgan g‘azallarni aniqlash va guruhlash.

2. Ko‘pchilik kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladigan va yod olinayotgan baytlarga e‘tibor qaratish.

3. O‘quvchilar, talabalar anglamayotgan, tushunilishi qiyin bo‘lgan tushuncha, so‘z, birikma, obraz va boshqalarni sharhlash.

4. Navoiy ijodi, asarlarida ko‘p uchraydigan fikr, tushuncha, bir-biriga yaqin mulohaza, umuman, variantlilikka nazar tashlash.

5. Devondagi g‘azallarda hayotiy hodisa-voqealar, inson kechinmalari, xalqimiz urf-odatlar bilan bog‘liq tasvirlar talqini.

6. Devondagi she‘rlarda hikmatli gaplar, maqollarning singdirilishi.

7. Navoiy davri, u davr kishilari hayotini his qilish maqsadida devondagi g‘azallarda tilga olingan liboslar, kiyimga e‘tibor qaratish va hokazo.

Ushbu maqolada mana shu guruhlashdagi to‘rtinchi masala - Navoiy ijodi, asarlarida ko‘p uchraydigan fikr, tushuncha, bir-biriga yaqin mulohaza, umuman, variantlilikka nazar tashlash. Navoiy she‘riyatida mazmunan yaqin, bir tushuncha doirasidagi fikrlar ko‘p uchraydi. Uni variantlilik deb atash to‘g‘ri bo‘lar. Tasvirda esa, bir oz farq, shakliy har xillik mavjud. Quyosh botgach, yulduz paydo bo‘lishi, ishqda shohu gado tengligi, vafo qilib, jafo ko‘rish, ishq daryosi poyonsiz, quyoshga qarasa ko‘z qamashishi, oy-kun ota-ona, bir eshik yopilsa, yuz eshik ochiladi, gulning vafosi yo‘q, baqo istasang, fano yo‘lin tut, ishq aro Farhod ila Majnun, uyatdin gul qizarishi, yig‘lamoqqa boda bahona, pok ko‘z, pok ko‘ngul, yangi olam yaratish, ko‘zlarga tong otguncha uyqu kelmasligi, may qayg‘uni o‘ldiradi, hay deguncha umr o‘tadi, bir ko‘zi Sayhun, Dajla, dam bu damdur, boda ich, o‘z-o‘zi bilan gaplashish, dudi ohdin sobitu sayyora qizarishi kabi tushunchalar doirasida ko‘pdan ko‘p mulohazalar bayon qilingan. Mazmun ana shular atrofida aylansa, uni ifodalashda turlicha shakl, tasvir, qiyoslardan foydalanilgan. Bular Navoiyning lirik qahramon holati, ma‘shuqa va boshqa obrazlar kechinmalarini berishda muhim vazifani bajargan. Unda shoir uslubi, tasvirdagi o‘ziga xoslik, topqirlik, so‘z boyligi, tashbehlardagi ranginlik va boshqalar namoyon bo‘ladi.

Navoiy asarlarida eng ko‘p uchraydigan tushunchalardan biri **vafo** va uning zidi bo‘lgan **jafodir**. Shoirning dostonlari, ayrim nasriy asarlari va, ayniqsa, she‘riyatida bularning turfa talqinlarini kuzatamiz. Vafo bu lirik qahramon –oshiqning asosiy sifati. Jafo esa, ma‘shuqa, davr, davr kishilari, dunyo, raqib, nafs va boshqalarga xos. Navoiyning yuzlab baytlarida bu

ikki soʻz deyarli yonma-yon keladi. Ayni paytda ularning qiyosi, nisbati, meʼyori keltiriladi. Bir vafoga yuz jafo, ming jafo, yuz ming jafo va hokazo. Mana bu baytda oshiq vafosiga qaytadigan jafoning eng baland darajasi keltirilgan: “yuz ming jafo”:

*Kimga qildim bir vafokim, koʻr madim yuz ming jafo,
Ey koʻngul, gar xud havasdur ishq bu miqdor bas (1,*

B.201).

Ikkinchi tomoni bu misralarda variantlilik ham bor. Birinchi misradagi “Kimga qildim bir vafokim...” jumlasini koʻp uchraydi. Boshqa bir baytlarda mazmun oʻzgarib keladi. Shoirning mashhur “Topmadim” radifli gʻazalini eslaylik. Mana bu baytlarda ham shu mazmundagi fikr:

*Aytmonkim har vafo qilsam jafoye qilmasun,
Har vafogʻa ming jafo, gar aylamas izhor bas.
Har vafogʻa ming jafo ham qilsa qilsun munchakim,
Yor anga mahrumu mahram boʻlmasa agʻyor bas (1,*

B.207).

Vafo va jafo tushunchalarining bir necha mazmun va tasviri. Har vafo va ming jafo. Lirik qahramon yor jafolaridan qoʻrqmaydi. Birinchi baytda oshiq maʼshuq jafo qilsa mayli, lekin haddidan oshib ketmasligini istasa, keying baytda fikr yanada rivojlantirilib, ming jafo qilsa ham mayli, faqat agʻyor bilan mahram boʻlmasa bas.

Navoiyning koʻp baytlarida olam, olam ahlida vafo yoʻq degan mazmun bayon qilinadi. Ushbu baytda ana shu fikr:

*Yuz jafo tong yoʻqki ul nomehribondin koʻrgamen
Kim, vafo koʻrmish birovdinkim men ondin koʻrgamen (1,*

B.412).

Bu misralarda yordan oshiqqa yetadigani “yuz jafo”. Lirik qahramon maʼshuqadan nomehribonlik, yuz jafo koʻrsa ham ajablanmaydi. Chunki bu olamda hech kimda vafo yoʻq-da. Boshqa baytda “yuz vafo aylab xaloyiqqa, ming jafo” koʻrgani ham taʼkidlanadi. Bunaqa yaqin mazmun va tasvirdagi har xillik Navoiy sheʼriyatida tez-tez koʻzga tashlanadi.

Navoiy asarlarida “ishq daryosi poyonsiz” tushunchasi ham koʻp tilga olinadi. Eng mashhuri mana bu bayt:

*Ishq daryosigʻa, eykim, kirding,
Bilki, bu bahr erur poyonsiz (1, B.183).*

Ishqni bahrga oʻxshatish anʼana. Bu uning kengligi, har jihatdan ulkanligiga ishora. Boshqa bir baytda vodiya oʻxshatiladi. Bunda ham kenglik:

Ishq vodiysi ajab vodi erurkim, har moʻr

Anda sher afkanu har pashsha erur pil afkan (1, B.386).

Bir o‘rinda ishqni dengiz, bahr, vodiya qiyoslansa, boshqa baytda uning kuchi, xususiyati bayon qilinadi. Ishq shunday kuchga egaki, chumolini sher, pashshani filga aylantira oladi.

Navoiyning hamma sevib yod olgan, mashhur baytini yaxshi bilamiz. “Orazin yopg‘och...” deb boshlanuvchi bayti nazarda tutilmoqda. Quyosh va oy holati. Biri ketsa, ikkinchisining paydo bo‘lishi. Bu oshiq holatini ifodalashda asosiy tashbih hisoblanadi. Oshiq ko‘z yoshlari yulduzga, ma’shuqa yuzi quyoshga o‘xshatiladi. Bu tasvirning boshqacha shakli mana bu baytda keltirilgan:

*Yulduz itgandek quyosh yog‘dusig‘a itti quyosh,
Orazing xurshidi chun qildi tulu‘ ul yog‘duda (1, B.18).*

Quyosh chiqqach, yulduz ko‘rinmaydi. Bu hayotiy manzara. Ana shu holatdan shoir boshqacha xulosa chiqaradi. Quyosh chiqsa, yulduz yoki yulduz chiqsa, quyoshning ko‘zga ko‘rinmasligi bor narsa. Mazkur baytda yanada boshqacha tasvir. Shoir ta’kidicha, quyosh nuridan yulduz yo‘qoladi. Endi yor yuzi ta’sirida quyosh ham ko‘rinmay qolgani bayon qilinmoqda.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu fikrlar shoir g‘azallarini sinchiklab o‘rganish, mazmun yaqinligi va shakl, tasvir xilma-xilligi namoyon bo‘ladigan baytlarni aniqlab, badiiy mahorat qirralarini chuqur tadqiq etishga yo‘naltiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy, A. (1987). Navodir un-nihoya. Fan.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI ETNIK NOMLARNING LISONIY-BADIIY AHAMIYATI

**Sirdaryoxon O‘TANOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan bir qator urug‘ nomlari haqida bahs yuritilgan. Jumladan, arlot, mang‘it, jaloyir urug‘larining adabiy-lisoniy xususiyatlariga to‘xtab o‘tilgan. Shoir

asarlarida qo'llanilgan mazkur istilohlar o'zbek xalqining etnik-madaniy tarixi nechog'li boy ekanligini ko'rsatuvchi manba ekanligi dalillangan.

Kalit so'zlar: urug', qabila, elat, millat, ulus, shajara, etnik madaniyat, arlot, sulduz, mang'it, jaloyir.

Аннотация

В данной статье рассматривается ряд родовых имён, встречающихся в произведениях Алишера Навои. В частности, обсуждаются литературно-языковые особенности родов арлот, мангит и джалоир. Доказано, что эти термины, используемые в творчестве поэта, являются источником, показывающим, насколько богата этнокультурная история узбекского народа.

Ключевые слова: род, племя, natsiya, улус, семья, этническая культура, арлот, сулдуз, мангит, джалоир.

Abstrakt

This article discusses a number of generic names found in the works of Alisher Navoi. In particular, the literary and linguistic features of the Arlot, Mangit and Jaloir clans are discussed. It is proved that these terms used in the poet's work are a source showing how rich the ethno-cultural history of the Uzbek people is.

Key words: clan, tribe, nation, ulus, family, ethnic culture, arlot, sulduz, mangit, jaloir.

Turkiy xalqlar tarixida Alisher Navoiy yirik san'atkor sifatida mavqe qozongan. Uning ijodiy merosi nihoyatda keng ko'lamli ekanligidan hamma vaqt turli yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib boriladi. Bugungi kungacha adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, etika-estetika, etnografiya, falsafa, din, madaniyat, axloq, pedagogik nuqtai nazardan ko'plab ilmiy yangiliklarga erishilgan.

Olib borilgan ilmiy kuzatishlar ulug' mutafakkirning to'rt devondan iborat "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti hajman ulkan bo'lishi bilan birga mazmunan salmoqdor asarlarni jamlaganini tasdiq etadi. Jumladan, devonlarda ayrim millat, elat va urug' nomlariga tez-tez duch kelinadi. To'g'ri, ular bugungi kungacha fanda tilshunoslik aspektida qator olimlar tomonidan maqola, dissertasion ish shaklida tadqiq etilgan. Biz o'z izlanishlarimizga asoslanib, mazkur ishlarning yutuqlarini qamrab olgan holda adabiyotshunoslik mezonida uyg'unlikda qiyoslashlar olib bordik. Natijada, Alisher Navoiy devonlarida mavjud *armani, mo'g'ul, tojik, turk, charkas, qiyot, o'zbek, qo'ng'iroq, hindu, arlot, barlos, tarxon, sulduz* va

boshqa yuzlab millat, urug‘ va qabila nomlari lirik asarlar tarkibida xilma-xil ma’noviy vazifalarni bajargani ma’lum bo‘ldi.

Arlot 92 o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lib, Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» asarida yozilishicha, A.ning ma’nosi: «Aning ma’nosi otaning sevar o‘g‘li temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nasli tururlar» (40-6.). Manbalarga ko‘ra, Chingizxon tomonidan Chig‘atoy ulusini harbiy himoyasi uchun ajratilgan 4 ming kishilik qo‘shin boshliqlaridan biri ham A. urug‘idan (qolgani *jaloyir, barlos, qavchin*) bo‘lgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Shim. Afg‘oniston hududiga o‘rnashganlar. Keyingi asrlarda hoz. O‘zbekistonning jan. viloyatlari, shuningdek, Xorazmga ko‘chib o‘tganlar. Bu nom hoz. vaqtda etnonim va ba’zan toponim sifatida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko‘proq uchraydi.

Navoiyning lirik va epik asarlarida qator o‘rinlarda arlot etnik urug‘ nomini tashigan. Jumladan, shoir devonlarida mahbubaning sho‘x-shaddodligi, o‘xshashi yo‘q dilbarligini A., barlos, tarxon, sulduz urug‘larini tilga olish bilan yanada yorqinroq, ta’sirchanroq tasvirlashga erishgan. Bunda arlot yoki boshqa nomlar mazkur urug‘ vakillariga xos xislat va fazilatlarini alohida ta’kidlashga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, Chig‘atoy ulusiga rahbarlik uchun yuborilgan to‘rt qo‘shin boshliqlarining misralarda ketma-ket qalamga olinishi yuqorida aytib o‘tilgan tarixiy ma’lumotni tasdiqlaydi.

Kim ko‘ngul sayd etsa, lo‘liy bo‘lsakim tut mug‘tanim,

Aytman arlot yo barlosdin mirzoda top. [4:68.]

Navoiy sevdi bir lo‘liyni kezdik rub‘i maskunda,

Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz. [4:203]

Sanamlar husnidin maqsud yor o‘lmish Navoiyg‘a,

Agar barlos, agar tarxon, agar arlot, agar sulduz. [5:212]

Yoki mana bu misralarda yana bir boshqa manzara diqqatni tortadi:

Ey Navoiy, meni zor ayladi bir lo‘livash

Kim, ham arlot unut bo‘ldi manga, ham bilgut. [6:70]

Baytlar mazmunidan anglanishiga ko‘ra, garchi lirik qahramon ishqi tushgan lo‘livash – sho‘x ma’shuqaning qaysi urug‘dan bo‘lishi unchalik e’tiborga molik emasdek ko‘rinsa-da, arlot va boshqa urug‘ nomlarining qayta-qayta eslanishi bu qavmlarga mansub yigit va qizlarning g‘oyatda latofatli, diltortar, jasur bo‘lganliklarini ko‘rsatib turibdi. “Vaqqfiya” asaridan olingan quyidagi parcha ham fikrimizni quvvatlaydi: “... *Chun zamonning azimushshon sodot va fuzalosi va davronning karimulxulq*

quzot va ulamosi va temuriynajod shahzodalar va «barlosiy» nihod ozodalar va «arlotiy» ismlik sadrnishinlar va «tarxoniy» rasmlik ayshguzinlar va «qiyot» nasablik mutaayyinlar va «qo'ng'irot» hasablik mutamakkinlar va «uyg'uriy» sifot baxshilar va «uyg'ur»chargalik yaxshilar va «cho'li»lik biyobonida jonsiporli qilg'on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg'on jonsiporlar va «jaloyir» g'avg'osi va «qavchin» alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig'a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug'lig'a payvand qildilar". Navoiyning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaro taxtga chiqqach, turli mansab va lavozimga tayinlovlar amalga oshirgan, "azimushshon fuzalo, qozi, olim, shahzoda va turli kiborlar orasida "Arlotiy" ismlik, ya'ni arlot urug'iga mansub sadrnishinlar – sardor yoki boshliqlar ham borligini alohida qayd qiladi.

Shuningdek, Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida Hoji Shayx a. r.ga bag'ishlangan fiqrada uning Yusuf atoning o'g'li ekanini, o'z ishida otasidan ham ziyoda mohir bo'lgani, zamonasining ulug' insonlari o'zlarini Hoji Shayxga murid hamda suhbatdosh sanashlarini, shu bilan birga, Arlot ulusi va Tarxon elining ulug'u kichigi unga chin ixlos bilan iqtido qilishlari haqida xabar beradi[3:439.]. Manbalardan ayon bo'lishicha, temuriylar davlati paydo bo'lish arafasida *qarluq, chig'il, o'g'uz, yog'mo, qipchoq, barlos, qovchin, arlot, jaloyir* kabi turkiy qabilalar mavqei oshib bergan.

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida mang'itlarning o'zbeklar bilan birgalikda Doro lashkarlari tarkibida Iskandarga qarshi janglarda ishtirok qilganligini, ramziy ma'noda, o'z davri tarixi nuqtai nazaridan juda to'g'ri badiiy ifodalab bergan:

*Yana mang'it o'zbek bila yondoshib,
Iki zulfdek tuzlari chirmashib [7:157].*

Darhaqiqat, XIII a. boshlarida Chingizxon qo'shinlari tarkibida Dashti qipchoqqa kelib qolgan mang'itlar XIII-XIV a.da Volga va Ural daryolari oralig'ida yashab, o'z qabilaviy butunliklarini saqlab qolganlar, lekin o'zlarining mo'g'ul tilini saqlab qola olmay, Qipchoqlar ta'sirida turkiylashib ketganlar[12:45.]. Mang'it qabilasi uch aymoqdan iboratdir: Oq mang'it, Qora mang'it, To'q mang'it. Shuningdek, Och mang'it, Chala mang'it, Boygundi mang'it urug'lari ham mavjud. Ular o'zbek, qoraqalpoq, no'g'ay, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlarda qabila, urug' nomi sifatida uchraydi. Bulardan tashqari, Temirxo'ja, Isoboy, Gaulak, Ko'sa, Toz, Qorabayir, Baqirchi, Kula, Tamg'ali, Mang'it Qozoq, O'n ikki

cho‘qay, Gala botir, Beshkal, Chobakchak, Uz, Uvolay va b. mang‘itlar Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. Mang‘itlar 1428-y.da o‘zbek xonligi tarkibiga kirib, o‘zbek xalqi tarixida muhim o‘rin egallagan[13:220.].

Barlos (barulas, ballos)lar ham o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. 13-a. 2-yarmida Ila(Ili) daryosi bo‘ylaridan Qashqadaryo vohasiga ko‘chib kelgan[9:346]. 14—15-a.larda shu voqa aholisining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Amir Temur barlos qabilasidan bo‘lib, sarkarda va viloyat amirlarini asosan shulardan tayinlagan. Barloslarning bir guruhi *temuriylar* va *boburiylar* davrida Afg‘oniston va Hindiston hududiga ko‘chib o‘tgan. Barloslar turkiy tilning qorluq-chigil lahjasida so‘zlashgan[11:88].

Navoiy asarlarida, xususan, devonida barlos nomiga bir necha o‘rinlarda duch kelinadi. G‘azallarda, ko‘pincha, barlos termini Tarxon urug‘i bilan birga qo‘llanganini ko‘rish mumkin:

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini

Kim, berur ko‘nglumga holo molish ul sho‘xi malash. [1:262]

Solmoq o‘t barlosu tarxon orazi ne sudkim,

Bizni kuygan chehra birla bir yasoqi kuydurur. [6:144]

Ey Navoiy, piri soqiyvashqa andoq men xarob

Kim, unutmishmen jahon tarxon ila barlosidin. [6:466]

Shuningdek, ijodkor aksar o‘rinlarda muayyan urug‘ nomi bilan bog‘liq biror kechinmani badiiy so‘zda manzaralashtirar ekan, ma’shuqa tilga olinayotgan urug‘ nomiga Lo‘li, Lo‘livash qarshi qo‘yiladi. Bu esa Navoiy asarlarida tilga olingan urug‘ vakillari jang-u jadalda ham, aql-u husnda ham tengsiz bo‘lib, doim kishilarni hayratga solib kelgani ma’lum bo‘ladi.

Navoiy sevdi bir lo‘liyni kezdeg rub‘i maskunda,

Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz [4:203].

Alisher Navoiy “Vaqfiya” asarida “Barlosiynihod ozodalar” tarzida ibora qo‘llar ekan, Husayn Boyqaroga tobe’ bo‘lgan bekozoda va amaldorlar safida barlos amirlari ham bo‘lganini maxsus qayd etib o‘tgan.

Bilgutlar ham turkiy (chig‘atoy) urug‘lardan birining nomi. Zero, Navoiy “Chor devon”ida o‘zbek xalqining 50 dan ortiq urug‘ nomlari tilga olingan bo‘lib, o‘sha davrdagi o‘zbek urug‘larining ijtimoiy holati, siyosiy mavqei haqida ham batafsil ma’lumotlar yozilgan: Jumladan, bilgut atamasi shoirning “Navodir ush-shabob”, “Favoyid ul-kibar” devonlarida uchraydi.

Ey Navoiy, meni zor ayladi bir lo‘livash

Kim, arlot unut bo'ldi manga, ham bilgut [6:72].

Lirik qahramon – oshiqning bir lo'livash mahbubaga bo'lgan ishq shu qadar kuchliki, unga boshqa barcha-barchani, urug'-qabilalar orasida husnu jamolda tengsizligi bilan shuhrat qozongan *arlot, bilgut* qizlarini ham unuttirdi.

Shuningdek, Amir Alisher asarlarida qo'llanilgan jaloyirlar turkiy xalqlardan biri sanalib, Rashiduddin yozishiga ko'ra, J. 12-a.da Onon va Kerulen daryolari bo'yida yashashgan. Ular 10 bo'lakka (qabilaga) bo'lingan, har bir qabilaning o'z sarkardasi (qabila boshlig'i) bo'lgan. Jaloyirning katta bir qismi kidonlar b-n bo'lgan urushda yengilgach, Chingizxon ajdodlariga tobe bo'lgan. Chingizxon hukmronligi davrida, jaloyirdan bir qancha e'tiborli beklar va lashkarboshilar yetishib chiqqan[10:89.]. O'rta Osiyo va Qozog'istonda yashovchi jaloyir keyinchalik o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz millatlari tarkibiga kirgan. Abulg'ozixon "Shajarai turk" asarining "Mo'g'ul ellarining zikri" deb ataluvchi qismida 26 nomdagi urug' va qabilalarning eng so'nggi o'laroq jaloyirni sanaydi [8:40.].

"Vaqfiya"da Husayn Boyqaro taxtga o'tirishi munosabati bilan uning xizmatiga kirgan yuksak martabali amir va beklardan bahs yuritadi. Shoir ularning har biriga podshohona inoyat va munosib mansab berilganini ham yozar ekan, jaloyir g'avg'oli kishilarga ham uyg'un amallar berilganini alohida ta'kidlaydi: "*Chun zamonning azimushshon sodot va fuzalosi va davroning karimulxulq quzot va ulamosi va temuriynajod shahzodalar va «barlosiy» nihod ozodalar va «arlotiy» ismlik sadrnishinlar va «tarxoniy» rasmlik ayshguzinlar va «qiyot» nasablik mutaayyinlar va «qo'ng'irot» hasablik mutamakkinlar va «uyg'uriy» sifot baxshilar va «uyg'ur»chargalik yaxshilar va «cho'li»lik biyobonida jonsiporli qilg'on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg'on jonsiporlar va «jaloyir» g'avg'osi va «qavchin» alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig'a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug'lig'a payvand qildilar"[2:249.].*

Demak, Alisher Navoiy bergan ma'lumotga ko'ra, XV asr Xuroson tarixiy-siyosiy muhiti haqida tasavvurlar boyiydi, shuningdek, bu dalil Husayn Boyqaro o'z saltanatini boshqarishda qator qabilalarning vakillariga tayangani va har qaysiga muvofiq amallar berib, harbiy mahorat egasi bo'lganini tasdiqlaydi. Ko'rinadiki, shoir xalq orasida ko'p bo'lgan, aksar o'zbek urug'larining nomlarini, muayyan elatlarning

ijtimoiy mavqei, ko‘rinishi, yurish-turishini yaxshi bilgan. Bu esa uning asarlari o‘rta asrlardagi turkiy xalqlarning etnografiyasi, madaniyati haqida yorqin tasavvur beruvchi beqiyos adabiy manbaligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. TAT. 10 j-lik. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Alisher Navoiy. TAT. 10 j-lik. 9-jild. Vaqfiya. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Alisher Navoiy. TAT. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
4. Alisher Navoiy. TAT. 2-jild. Navodir ush-shbob. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
5. Alisher Navoiy. TAT. 3-jild. Badoye‘ ul-vasat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
6. Alisher Navoiy. TAT. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
7. Alisher Navoiy. TAT. 8-jild. Saddi Iskandariy. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
8. Abulg‘oziy B. Shajarayi turk, T.: “Cho‘lpon”, 1992.
9. Barlos. O‘zME. 1-jild. – T., 2002.
10. Jaloyir. O‘zME. 2-jild. – T., 2003.
11. Zaki Validiy To‘g‘on. “O‘zbek urug‘lari”. – T., 1992.
12. Mirza Abd-al-Azim Sami, Tarix-i salatin-i mangitiya, M., 1962
13. Ochil Bo‘riyev. Mang‘it. O‘zME. 5-jild. – T., 2003.
14. Traktat Axmada Danisha, Istoriya mang‘itskoy dinastii, per. i predisl. I. A. Nadjafovoy, Dushanbe, 1967.

ALISHER NAVOIY MUG‘ANNIYNOMALARI MURAKKAB STRUKTURALI JANR SIFATIDA

**Dilrabo KAZAKBAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy mug‘anniynomalari murakkab strukturali janr sifatida tahlilga tortilgan. Mug‘anniynomalar murakkab strukturali janr ekanligi ilmiy-nazariy fikrlar asosida dalillangan.

Kalit soʻzlar: Navoiy, mugʻanniynomalar, poetika, murakkab strukturali janr.

Аннотация

В данной статье стихи Алишера Навои анализируются как жанр со сложной структурой. На основе научных и теоретических представлений доказано, что стихотворение представляет собой жанр со сложной структурой.

Ключевые слова: Навои, поэтика, жанр со сложной структурой.

Abstract

In this article, the poems of Alisher Navoi are analyzed as a genre with a complex structure. It has been proven on the basis of scientific and theoretical ideas that poems are a genre with a complex structure.

Key words: Navoi, poetics, genre with complex structure.

Adabiy janrlar va ularning adabiy jarayondagi oʻrni adabiyotshunoslik uchun doimo asosiy tadqiqot obyektini boʻlib kelgan. Shunga qaramay, mumtoz adabiy janrlar masalasi doimo murakkabligicha qolgan.

Mumtoz adabiyotda adabiy tur tushunchasi oʻziga xos ifoda shakllariga ega. U koʻproq adabiy tur nuqtai nazaridan emas, balki janrlarga munosabat hamda ifoda shakllari nuqtai nazaridan rivoj topgan.

Alisher Navoiy ham adabiy turlar masalasiga ifoda shakllari nuqtai nazaridan qaragan va buni adabiy navʼlar deb atagani holda sheʼriy janrlarni sinf istilohi bilan bergan. Sheʼriy shakllarning janr xususiyatlari Navoiy talqinlarida ularning aruziy xususiyatlari bilan bogʻlab tushuntirilgan.

Har bir poetik janrning oʻz qatʼiy strukturasi mavjud boʻlib, muayyan asarning badiiyatini oʻrganish bilan birga uning janr xususiyatlarini tadqiq etish dunyo adabiyotshunosligida qabul qilingan. Mumtoz janrlar tarkibiy jihatdan turlicha boʻlishiga qaramay, ularning tabiati, asosan, oʻsha janrda yaratilgan asarlarning vazn, qofiya va band xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mumtoz sheʼriy janrlarga xos bu kabi jihatlarni oʻrganish ham bevosita adabiyotshunoslik ilmining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Murakkab strukturali janrlar masalasi dastlab Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balogʻa” asarida koʻrilgan. Alloma mumtoz sheʼrning asosiy 10 navʼini keltirish barobarida struktural jihatdan bir-biriga yaqin boʻlgan sheʼr shakllarini bir navʼ sifatida berishidir. Masalan, ruboiy va tuyuq, tarjiʼband va tarkibband, barcha musammat shakllarini bir navʼga birlashtirib taqdim etgan. Bular orasida ruboiy va tuyuqqa

nisbatan struktural jihatdan murakkab deb qaralmasa-da, tarji'band va tarkibband, ayniqsa, musammat shakllarini bir nav' orqali yuzaga kelganini o'rinli asoslab ko'rsatgan.

XX asr boshlarida butun mumtoz she'riyat sintez qilinar ekan, bu holatni biz Fitratning ilmiy asarlarida ko'ramiz. Fitrat "Adabiyot qoidalari", "Fors shoiri Umar Xayyom" va "Aruz haqida"gi asarlarida garchi mutatavval janrini alohida ko'rsatmagan bo'lsa ham, ayrim adabiy janrlar, xususan, masnaviy va musammat turlarining murakkab strukturasiga ishora qilgan. "Adabiyot qoidalari"da manbalarda murakkab strukturali janrlar sifatida qaralgan mumtoz she'r shakllaridan qasida, masnaviy, musammat, tarji'band, tarkibbandni umuman izohlash bilan cheklangan [1. B.39-43]. "Fors shoiri Umar Xayyom" risolasida esa masnaviy, qasida xususida kengroq to'xtalib, ularning janr xususiyatlarini ko'rsatar ekan, keng epik ko'lamdagi mazmuni ifodalash uchun masnaviy shakli qulay bo'lganini yozadi: "... nazmning bu shakli shoirg'a ozodlik beradi (qofiya jihati nazarda tutilgan). Turli hikoyalar, dostonlar, va'z-nasihatlarga oid uzun asarlar yozish uchun nazmning masnaviy shakli boshqa shakllarga qarag'anda qulayroqdir" [2. B.136].

Mumtoz adabiyotdagi mavjud murakkab strukturali janr deb qaralayotgan she'riy shakllarni turli jihatlarni hisobga olgan holda tasnif qilish mumkin. Tabiiyki, biz bu yerda prof. R.Orzibekov qo'llagan misralar miqdorini asos qilib olmaymiz. Chunki bu jihat ancha tor va o'z nomi bilan faqat miqdoriy munosabatni aks ettiradi. Tasnif asosiga mumtoz adabiy janrlar tasnifida amal qilinadigan bandga ko'ra munosabat, vazn, qofiya va maoniy munosabatlaridan kelib chiqib ish ko'radigan bo'lsak, tabiiyki, ancha aniqlikka va tabiiylikka erishishimiz mumkin.

1. *Band asosiga ko'ra murakkab strukturali janrlar: tarji'band, tarkibband, musammatni* farqlaymiz. Chunki hozirgi istilohda ham bandga ko'ra tasnif qilish tajribasi mavjud. Mumtoz janrlar poetikasiga yondoshilganda, mumtoz adabiyotda baytli she'riy shakllar va bandli she'riy shakllar mavjudligini kuzatish mumkin. G'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, fard *baytli* she'riy shakllar bo'lsa, tarji'band, tarkibband, soqiynomalar murakkab tuzilishga ega bo'lgan *bandli* she'riy shakllar hisoblanadi.

2. *Mazmun ko'lamiga ko'ra murakkab strukturali janrlar: masnaviy, noma, soqiynoma, mug'anniynoma.*

Bu tasnif bo'yicha murakkab strukturali janrlar mazmunning ko'lamdorligi, tarixiy yoki keng epik ko'lamdagi voqealar bayoni mo'ljallangani tufayli ularning aksariyati *masnaviy* deb yuritiladi. Shayx

Ahmad Taroziy ham bu holni quyidagicha keltiradi: “Va masnaviyda ham maqsud qissaning bayonidir, soʻzga qofiyani kelturmak kerak bu dushvordur”.

3. Qofiya asosiga koʻra murakkab strukturali janrlar: qasida.

Ushbu tasnifda qofiyaga urgʻu berilishining boisi shundaki, masnaviyda muallifning qofiya yaratish imkoniyatlari ancha kengdir. Chunki baytdagi har ikki misra oʻzaro qofiya etiladi, baʼzan takrorlarga ham yoʻl qoʻyiladi. Qasidada esa gʻazal kabi matlaʼdagi misralar oʻzaro qofiyalanadi va barcha baytlarning ikkinchi misralarida mana shu qofiya tizimi saqlanadi. Bu muallifdan ancha mahorat talab etadi. Chunki mazmunan qasida ham biror voqeani bayon qiladi yoki biror shaxsning vasfini aytadi.

Yuqoridagi tasnifga koʻra, mugʻanniynomalarni murakkab strukturali janrlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Mugʻanniynomalar oʻzbek adabiyotida deyarli oʻrganilmagan poetik janr hisoblanadi. Avvalo, mugʻanniynomalar keltirilgan manbalarni koʻzdan kechirsak, bu haqda navoiyshunos olimi S.Gʻanieva dastlab maxsus maqola qilganini qayd etish lozim [3.B.62-66]. Soʻngra Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi tadqiqoychisi L.Joʻraeva sanʼatshunoslik nuqtai nazaridan yondashgani maʼlum [4], boshqa tadqiqotlar uchramaydi. L.Joʻraeva adabiyotshunoslik ijodiyotning rang-barang janrlar turkumi bilan insoniyat maʼnaviyatini boyitib kelgan ulkan meros manbai va yirik janrlar boʻlmish doston, romanlardan tortib toki ruboiy, chiston va qitʼa kabi kichik janrlargacha har bir adabiy janrning oʻz mazmuniga asoslangan mezonlari yuzaga kelganligini taʼkidlaydi. Fikr davomida muallif Navoiy lirik merosidagi mugʻanniyga murojaat tarzida aytilgan gʻazallarni ham mugʻanniynoma sifatida keltiradi. Bizningcha, bu gʻazalning mavzu koʻrinishi xolos. Holbuki, mugʻanniynomalar, asosan, yirik epik asarlar tarkibida keladi.

Prof. Suyuma Gʻanieva oʻzining “Sharq mumtoz adabiyotida mugʻanniynomalar” maqolasidan maʼlum boʻladiki, mugʻanniynoma boshqa nomalardan farqli oʻlaroq muallifning oʻzi haqidagi maʼlumot, yaʼni kechirgan ichki tuygʻu va iztiroblarining oʻziga xos bayonidir. Sheʼriyatda muloqot uslubiga molik yoʻl, yaʼni mugʻanniydan oʻz holiga hamdardlik, ruhiy yordam soʻrash usulidir.

“Mugʻanniy” arabcha soʻz boʻlib, uning maʼnosi kuylamoq, kuylovchi demakdir (asosi “gʻanna”, “tagʻanna”). Mugʻanniy – mutrib, sozanda; ashulachi, xonanda; yana bir manbaʼda mugʻanniy (forscha ashulachi, sozanda) nagʻma chaluvchi sozanda, nagʻma bilan qoʻshiq aytuvchi xonanda kabi maʼnolarni anglatishi bayon etiladi. Mugʻanniy,

bir soʻz bilan aytganda, musiqachidir. Maʼlumki, musiqa inson qalbining eng nozik, ichki torlarini ham tebrata oladigan kuchga ega. Ruhiiy kayfiyat yoki holatni soʻz bilan ifodalashga ojiz boʻlib qolganda, musiqa “tilga kiradi” [5.B.662].

Demak, mugʻanniy insonning bevosita ruhiy holati bilan bogʻliq boʻlgan hissiyotlarini, tuygʻulari va kayfiyatini ifodalovchi kuyu qoʻshiqlar ijro etuvchi xonanda yoki sozanda. Mugʻanniynomalar esa ana shu holatlarni tasvirlash uchun qulay boʻlgan shakldir. Navoiy mugʻanniynomalarini “Saddi Iskandariy”da masnaviy shaklida koʻrish mumkin.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida mugʻanniynomalar keng koʻlamda oʻz ifodasini topganligini koʻrish mumkin. Dostonda 30ga yaqin mugʻanniynomalar keltiriladi. Mugʻanniynomalar dostonida ikki maqsadni yoritishda ishlatilganlagi kuzatish mumkin. Birinchisi dostonida fasl-qismlarni anglash, ikkinchisi bevosita muallif, yaʼni shoirning armonlari, dardlari, his-tuygʻulari haqida ham bilishga koʻmaklashadi:

*Mugʻanniy, hazin nagʻma bunyod qil,
Yigitlikning ayyomini yod qil*

*Ki, ul nagʻmadin toza hushe topay,
Sogʻinib yigitlikni joʻshe topay!*

*Navoiy, base kech ayilding, darigʻ,
Yigitlikni barbod qilding, darigʻ!*

Mumtoz adabiyotda mavjud mugʻanniynomalarning har biri oʻz oʻrni, maʼnolar tizimi va talqin mezonlariga ega va ularda asosan musiqa ilmi bilan bogʻliq masalalar ifodalanadi. Bu shakllarda, ayniqsa mugʻanniynomalarda musiqaning ruhiyatga taʼsiri masalasi alohida ahamiyatga ega. Shoir oʻzining ruhiy (asosan tushkun) kayfiyatini bayon etishi va musiqadan najot umid qilib, mugʻanniyga murojaat etishi mugʻanniynomalarning asosiy mezonini tashkil qiladi.

Mugʻanniynoma dastlab Sharq mumtoz adabiyotida Nizomiy Ganjaviy ijodiy merosida uchrasa-da, uning gʻoyat goʻzal namunalari Alisher Navoiyning dostonlaridan ham oʻqish mumkin. Mugʻanniynomalarda musiqiy iboralar, xususan, musiqiy janrlar, bastakorlik amallari, maqomot va cholgʻular nomi, ulardan taralgan kuy-ohanglar jilosi mahorat bilan taʼriflanadi. Bu shoirning musiqa ilmini teran anglaganligini bildiradi.

Demak, masnaviy shaklida yoziladigan asarlarning mazmunga ko‘ra turlicha bo‘lishini nazarda tutar ekanmiz, ular ko‘pincha, *noma* janrining ham imkoniyatlari shunda yuzaga chiqishini hamda mazmunga ko‘ra *mug‘anniynoma* (ayrim manbalarda *musannifnoma*) tarzida berilishini unutmaslik kerak. Shayx Ahmad Taroziy [6.B.19] masnaviy she‘r nav‘i haqida keltirsa-da, uning asosida yaratilgan noma, soqiynoma, mug‘anniynoma kabi janrlarga to‘xtalishni lozim ko‘rmaydi. Bu olimning bu kabi she‘riy shakllarni bilmaganidan emas, balki “Fununu-l-balog‘a”da o‘n asos she‘r nav‘larini ko‘rsatgan, uning davomida esa, “Va bu o‘n nav‘ she‘rkim zikr qilduq, har qaysida agar Tengri azza va jallag‘a hamd aytsalar, oni *tavhid* derlar. Va agar Muhammad Mustafo (s.a.v.)ni vasf qilsalar, *na‘t* derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru‘ qilsalar, *munojot* o‘qurlar. Va xulafoyi roshidinni ta‘rif qilsalar, *manoqib* va *manqabat* derlar. Agar salotin yo umaro yo vuzaroni *ugsalar madh* va *midhat* va *tamaddih* o‘qurlar. Va agar o‘lgan kishini zikr qilsalar, *marsiya* derlar. Agar kimarsani nafrin qilsalar, *hajv* va *mazammot* derlar. Va agar hazil qilsalar, *mutoyiba* derlar” kabi fikr bildiradi. Ko‘rinadiki, alloma nazarida noma, soqiynoma va mug‘anniynomalar ham yuqoridagi kabi munojot yoki manoqib, hajv yoki marsiya kabi o‘n nav‘dan hosil bo‘lgan shakllardir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. 4-jild. – T.: Ma‘naviyat, 2006.
2. Fitrat A. Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar. 4-jild. – T.: Ma‘naviyat, 2006.
3. G‘aniyeva S. Sharq mumtoz adabiyotida mug‘anniynomalar // Sharq taronalari. - T.: 2007.
4. Jo‘raeva L. Alisher Navoiy mug‘anniynomalari. – T., 2011.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. II jild. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Taroziy Shayx Ahmad. Fununu-l-balog‘a. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2017.

ALISHER NAVOIY IJODIDA NUR TIMSOLI TALQINI

Elnura QURBONOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti kichik ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
elnura.qurbonova@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada Qur'on va hadislarda ko'p uchraydigan nur atamasi va uning tasavvuf adabiyotiga kirib kelishi haqida qarashlar bayon qilingan hamda Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy ijodida nurning timsol o'laroq ifodalanishi xususida fikr-mulohazalar bildirilib, turli diniy-tasavvufiy manbalar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: Qur'on, hadis, nur, tasavvuf she'riyati, timsol, nafs, ruhiy poklik.

Аннотация

В статье описываются взгляды на понятие света, часто встречающееся в Коране и хадисах, и его введение в суфизмскую литературу, а также комментарии к репрезентации света как символа в произведениях Ахмеда Яссави и Алишера Навои, основанные на по различным религиозно-мистическим источникам.

Ключевые слова: Коран, хадис, свет, суфизм, поэзия, символ, самость, духовная чистота.

Abstract

The article examines the term light, which is often found in the Qur'an and hadis, and its introduction into Sufism literature. Opinions about the representation of light as a symbol in the works of Ahmad Yassavi and Alisher Navoi were expressed and proved based on various religious and mystical sources.

Key words: Qur'an, hadith, light, Sufism poetry, symbol, soul, spiritual purity.

Turli lug'atlar, ilmiy istiloh va tasavvufiy manbalarda nur "yorug'lik", "yog'du", "ziyo", "oydinlatish" ma'nolarini anglatishi ta'kidlangan [10.244-245]. Mutasavviflar nurni ikkiga bo'lib, quyosh va oy nuri – dunyoviy; qalb ko'zi vositasida idrok etilgan nur uhroviydir, deydilar [12.243]. Inson borliq olamni ko'rishi uchun quyosh va oy kabi dunyoviy nurga muhtoj bo'lsa, narsalar haqiqatini anglashi uchun esa Alloh nuriga muhtojdir.

Qur'on oyatlari va hadislarida bunga ishora qiluvchi o'rinlar ko'p uchraydi (Baqara/257; Moida/15, 16, 44, 46; An'om/91; Tavba/32; Nur/35; Niso/174; Yunus/5; Ibrohim/1; Hadid/9; Sooff/8; Tag'obun/8). Jumladan, Nur surasining 35-oyatida: *“Alloh osmonlar va yerning nuridir”*, deya marhamat qilinsa, Moida surasining 15-oyatida *“Batahqiq, sizlarga Allohdan nur va oydin Kitob keldi”*, deyilgan.

Qur'oni karim, Hadisi sharifda nur so'zi Alloh taolo, Muhammad (s.a.v.), Qur'on, islom, hidoyat, insonlarni zulmatlardan yorug'likka olib chiquvchi iymon, Haqqa olib boruvchi yo'l, oydinlik, ilohiy tajalli ma'nolarida qo'llanilib, to'g'ri yo'ldan adashgan va zulmatlarda sarson-sargardon yurganlarga haq bilan botilni farqlash ma'nolarida qo'llanilgan. Nurning ziddi o'laroq esa zulmat ifodalangan.

Imom Buxoriy, imom Muslim va imom Termiziy rivoyat qilgan bir qator hadislarida ham nur haqida bayon qilingan. Xususan, Abu Zarr (r.a.)dan rivoyat qilgan hadisda Muhammad (s.a.v.)dan Me'roj kechasida *“Robbingizni ko'rdingizmi?”*, deb so'rashganida *“U Zotni qanday ko'ray? Ko'rganim nur edi”*, deganlar. Boshqa bir hadisda *“Uni bir nur o'laroq ko'rdim”*, deyдилar [2.672]. Imom Abbos (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda esa *“Allohim, hamd Senga xos, Sen osmonlar-u yerning nurisan”*, deganlari aytiladi [3.672]. Nabiy (s.a.v.) *“Allohim, qalbinga, ko'zimga, qulog'imga, o'ngimga, so'linga, ustimga, ostimga, orqamga nur ber va nurimni orttir”*, deya duo qilgani ham hadislarida ko'p uchraydi.

Allohning Asmaul Husnalaridan biri aynan Nurdir. Chunki nur Undandir, zero butun borliq va shu borliqni o'zida aks ettirgan inson botini ham shu nur sabab oydinlikka, hidoyatga erishadi. Haq talabida bo'lgan solik qalbining Ilhomiy (laduniy) ilmga to'lishi esa uning ma'naviy nurga erishganini ko'rsatadi.

Qur'on va hadislarida kelgan nur lafzi keyinchalik tasavvuf she'riyatida irfoniy istiloh hamda timsolga aylandi. Mumtoz she'riyatda ilgari surilgan tushunchalar turli obraz va timsollar yordamida aks ettirilgani ma'lum. Mutasavvif shoirlar fikrlarini ta'sirchan ifodalash maqsadida ramz va majozlarga tayanishgan. Xususan, hazrat Navoiy ijodiyotidagi timsollar haqida gapirganda nurni ham chetlab o'tib bo'lmaydi. Zero, Nur so'fiyona she'riyatda markaziy o'rin egallaydi. Shu bilan birga tasavvufiy qarashlarda bir-biriga uyg'un jihatlar mavjud. Xususan, Turk piri hikmatlarida nur istilohiga alohida ahamiyat qaratib:

*Diydor ko'ray degan oshiq bedor bo'lur,
Yursa-tursa, yotsa-qo'bsa zikrin aytur,
Ich-u toshi andoq qulni nurga to'lur,*

Alloh nurin andoq qulga sochar, do'stlar [6.44].

Nur – Haqqa olib boruvchi yo'ldir. Haq va botil ilohiy fayz orqali farqlanadi. Haq yo'ldan adashganlar va ilohiy nurdan benasiblar zulmat ichida sargardon yuradilar. “Devoni hikmat”da nur istilohining ifodalanishini tadqiq qilgan turk olimasi Hamida Ulpunarga ko'ra, Yassaviy hikmatlarida nurni Alloh, Muhammad (s.a.v.), imon, ko'ngil va ko'z nuri ma'nosida qo'llagan [11.261-276]. Fikrimizcha, sulton ul-orifin hikmatlarda nur so'zini yanada kengroq ma'noda ifodalagan. Jumladan, “*Alloh dedim, ichim-tashim nurga to'ldi*”, “*Hikmat ayt! – deb, boshlarimga nur sochildi*”, “*Pir qo'ldan may ichgon Xaq nuriga bottiyo*”, “*Alloh deya ichga nurni to'ldurmasang, Valloh-billoh sanda ishqni nishoni yo'q*”, deydi. Yassaviy nazdida, “*Chin oshiqlar kuygan sari purnur*” bo'ladi. Mazkur misralar mazmunidan anglashiladiki, hikmatlardagi nur – irfoniy ilm, ma'rifat, ishq, solik qalbini yorituvchi ilohiy nur, diydor (nuri tajalliy) ma'nolarini ham anglatgan. Bu haqida L.Lavant shunday deydi: “Ilohiy ilhom va nur – “Haq nuri” tufayli so'fiyning qalbi oydinlanadi, tili haqiqat va hikmat aytish quvvatiga ega bo'ladi” [9.169].

Ta'kidlash joizki, “nur” Alisher Navoiy ijodida o'ziga xos rang-baranglik kasb etish bilan birga, shoirning so'fiyona qarashlarini obrazli tarzda, mahorat bilan ifodalashga ham xizmat qilgan:

*Zulfi zunnorig'a chirmang'an uzorin ochti yor,
Zulmati kufr ichra elga nuri imondur davo [4.27].*

Navoiy mazkur o'rinda yorning zunnor kabi qora zulfini zulmat va kufrga, yuzini esa iymon nuriga qiyoslar ekan, yor qora zulfiga chirmangan yuzini ochganda, zulmatlarda sarson-sargardon yurgan, kufr botqog'iga botgan oshiqlarga iymon nuri davo ekanini ta'kidlaydi. Yor yuzi – oshiq intiladigan nur manbai bo'lgani bois, soch uni to'sganda, oshiq bundan ranjiydi, ya'ni zulmat ichida qoladi. Ilohiy nurning hadsiz yorug'ligi, visol behudligidan huzurlanish va bu nurni aql hamda tafakkur bilan emas, qalb ko'zi bilan ko'rish, Mutlaq Ruh tajallisidan bahramand bo'lish va Unga intilish Haq oshiqlarining bosh matlabidir. Bu xususda Suhrovardiy “Ey Qayyum! Bizni nur ila qo'lla. Bizni nurda sobit qil. Bizni nurda jamla. Eng yuksak g'oyamiz Sening rizong bo'lsin. Eng oliy maqsadimiz Senga qovushmoq bo'lsin”, deydi [7.263].

Yaratgan zulmatdagi olamni quyosh, oy va yulduzlar bilan, qalblarni esa O'z tajallisi va iymon nuri bilan munavvar qiladi. Mutasavviflarning fikricha, Alloh “Nur ul-anvor” – “Nurlarning nuri”dir. Borliq olam Uning nuri vositasida mavjud. N.Komilovga ko'ra, olam azaliy va abadiy yagona

ruhning o‘z-o‘zini sevib, o‘z jamolini tomosha qilish istagidan paydo bo‘lgan ko‘zgudir. Birlamchi qudrat porlashidan taralgan nur bu ko‘zguda aks etadi, ya'ni moddiy dunyodagi jamiki mavjudot va mahluqot – zarradan quyoshgacha, yer-u ko‘k, sobit-u sayyora shu nur bilan yoritiladi, shu nur tufayli harakatlanadi, muayyan uyg‘unlik ichra rivojlanib turadi [8.159]. Qur‘on tafsirchilarining yozishicha, qiyomatda mahshargoh Allohning nuri bilan oydinlanadi. Zumar surasining 69-oyatida “*Va yer Robbi nuri ila yorishdi*”, deya marhamat qilinadi. Buni turk piri shunday ifodalaydi:

*Qiyomatning oftobi tushka kelgay,
Haq bandasin nomalarin qo‘lga bergay,
Andin so‘ngra Haq nuridin olam to‘lg‘ay,
Bir-bir so‘rab, jazolarin berar ermish [6.82].*

Suluk ahli Haqni izlar ekan, botin kulfati va illatlaridan qutilish va ruh latifligi-yu kamoliga erishishni maqsad qiladilar. Zero, nafs Haq vasli talabgorining ma'naviy yo‘lchiligidagi ayovsiz dushmanidir. Inson faqat dunyo tashvishlari bilan bog‘lansa, u Ilohiy nurdan bebahra qoladi. Hazrat Navoiy bir o‘rinda ruhni nurga qiyoslarkan, shunday deydi:

*Ruh ul nurdururkim, Haq anga bermish avj,
Nafs zulmatqa qolib, qilmish anga poya hubut [4.198].*

Ko‘ngilni dog‘ qiluvchi dunyoviy xirs-u havas g‘uboridan qutila olmagan, borliqni zohir ko‘zi bilan ko‘radigan hamda munosabatda bo‘ladiganlarga qarata:

*Chu Haq nuri yuzungda zohir o‘ldi, bebasar ulkim,
Haqiqat rasmi bor erkanda ishqingni majoz etkay, deydi
[4.447].*

Inson borliqni ko‘rishi uchun quyosh nuriga muhtoj bo‘lgani kabi, aqlning ham narsalar haqiqatini anglashi uchun Haq nuriga mujtojdir. Navoiy nazdida:

*Ruh anglab jabhasidin nuri taqvo lam'asin,
Aql topib zotidin ilmu saodat savlatin [4.489].*

Bir qator manbalarda ta’kidlanishicha, Alloh butun borliqni yaratishdan oldin Muhammad (s.a.v.) nuri – Nuri Muhammadiyni yaratgan. Bu nur abadiy va so‘ngsiz bo‘lgani uchun butun koinot u zotning vafotidan keyin ham shu nur sabab o‘z mavjudligida davom etadi. Alloh taolo “yer-u ko‘kni sen uchun yaratdim”, deydi qudsiy hadislardan birida. Buni oriflar sultoni hikmatlarida “*Nuri Xudo, do‘sti Xudo, Haq Mustafo*”, deya ta’riflaydi. Bu holatni mutasavvif shoir Alisher Navoiy Xamsaning avvalgi Na’t qismida shunday izohlaydi:

*Ey qilibon lam'ai nurung zuhur,
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.
Nurunga tob ikki jahondin burun,
Har ne yo 'q andin burun, andin burun.
Ayladi chun odami xokiy zuhur,
Soldi anga partavin ul pok nur.
Nur dema, boriqai sarmadiy,
Boriqa yo 'q, sha'shai Ahmadiy [5.29-30].*

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida ilm, ma'rifat, Haq va botilni farqlovchi ilohiy fayz ma'nolarini anglatgan nur tasviri vositasida azaliy Zot tajallisi nuridan bebahra qolmaslikka undalgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima / Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – Bishkek, 2001. – 768 b.
2. Oltin silsila. Sahihi Muslim. 1-juz. Iymon kitobi. 77-bob. 352, 353 hadis. – T.: Hilol nashr, 2019. – 672 b.
3. Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. 2-juz. 19. Tahajjud kitobi. 1-bob. 4727 hadis. – T.: Hilol nashr, 2019. – 672 b.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 7-tom. Hayrat ul-abror. – T.: Fan, 1991. – 29-30 b
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 5-tom. Xazoyin ul-maoniy. – T.: Fan, 1990. – 27, 198 b
6. A.Yassaviy, S.Boqirg'oniy. Hikmatlar kulliyoti. – T.: O'zbekiston, 2011. – 464 b
7. Ethem Cebecioğlu. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. Nur // www.turklib.com
8. N.Komilov. Ma'nolar olamiga safar. Alisher Navoiy g'azallariga sharxlar. – T.: Tamaddun, 2012. –159 b
9. Lamia Levent Abul. Ahmed Yesevî'nin Dîvân-I Hikmet'inde Sembolik Dil. Diyanet Ilmî Dergi, Cilt:53, Sayi:1. 2017. – S.169.
10. Nur. Süleyman Uludağ. TDV İslâm Ansiklopedisi, İstanbul. 2007, c.33. – S. 244-245; Ömer Çelik. Kur'an-ı Kerim'de Nur Kavramı MÜ İlahiyat Fakültesi Dergisi, Sayı: 16-17; 1998-1999. – S. 123-171
11. Hamide Ulupinar. Ahmed Yesevî'nin Divan-i Hikmet'inde Nur Kavramı. International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic. Volume 12/20. – P.261-276.

12. Ömer Çelik. Kur'an-ı Kerim'de Nur Kavramı MÜ İlahiyat Fakültesi Dergisi, Sayı: 16-17; 1998-1999. – S. 126; Bekir Topaloglu.Nur. TDV İslâm Ansiklopedisi, İstanbul. 2007, c.33. – S. 243.

SHOH BAHROM: TARIXIY SHAXS VA BADIY OBRAZ

Muqaddas SAIDAKBAROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mukaddassaidakbarova@gmail.com

Ramziya JO‘RAYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ramziyaxon89@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o‘z zamonasining yetuk tarixiy tafakkuriga ega tarixnavisi ekanligi, ulug‘ mutafakkirning barcha, xususan tarixiy asarlari o‘z davri uchun noyob tarixiy manba bo‘libgina qolmasdan, muallifning adabiy-estetik salohiyati, ma‘naviy-axloqiy qarashlarining ham yorqin ifoda mahsuli ekanligi, asarlaridagi boy faktik materiallar, yuzlab o‘tmish hukmdorlari hayoti va faoliyatiga oid ma‘lumotlar o‘rta asrlar ijtimoiy-siyosiy voqeligining asosiy xususiyatlarini yoritishda birlamchi va ishonchli manba bo‘la olishligi, shu bilan birga, mazkur asarlarda shoirning poetik ifoda qudrati, falsafiy-estetik qarashlari, axloqiy-ta‘limiy o‘g‘itlari ham keng qamrovli aks etganligi Shoh Bahrom obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy asar, birlamchi manba, tarixiy shaxs, badiiy obraz, ogohlik, hushyorlik, halokat, tarixiy haqiqat.

Аннотация

В статье показано что, великий поэт и мыслитель Алишер Навои историк со зрелым историческим мышлением своего времени, все произведения великого мыслителя, особенно исторические труды, являются не только уникальным для своего времени историческим источником, но и ярким выражение литературно-эстетического потенциала автора, духовно-этических воззрений, богатых в его произведениях фактическим материалом, сведения о жизни и деятельности сотен правителей прошлого могут быть

первостепенным и достоверным источником для выяснения основных черт социальной и политической действительности Средневековья, в то же время поэтической силой поэтического выражения, философско-эстетической взгляды, нравственно-воспитательные учения всесторонне отражены в этих произведениях раскрываются исторические основы и художественная интерпретация образа Бахрама.

Ключевые слова: историческое произведение, первоисточник, историческое лицо, художественный образ, осознание, зоркость, разрушение, историческая правда.

Annotation

The article shows that the great poet and thinker Alisher Navoi is a historian with a mature historical thinking of his time, that all of the great thinker's works, especially historical works, are not only a unique historical source for his time, but also a vivid expression of the author's literary-aesthetic potential, spiritual-ethical views. rich factual material in his works, the information about the life and activities of hundreds of past rulers can be a primary and reliable source for elucidating the main features of the social and political reality of the Middle Ages, at the same time, the poet's power of poetic expression, philosophical-aesthetic views, and moral-educational teachings are comprehensively reflected in these works. Shokh The historical foundations and artistic interpretation of the image of Bahram are revealed.

Key words: historical work, primary source, historical person, artistic image, awareness, vigilance, destruction, historical fact.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o'z zamonasining yetuk tarixiy tafakkuriga ega tarixnavisi ham edi. Ulug' mutafakkirning barcha, xususan, tarixiy asarlari o'z davri uchun noyob tarixiy manba bo'libgina qolmasdan, muallifning adabiy-estetik salohiyati, ma'naviy-axloqiy qarashlarining ham yorqin ifodasidir. Asarlaridagi boy faktik materiallar, yuzlab o'tmish hukmdorlari hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar o'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy voqeligining asosiy xususiyatlarini yoritishda birlamchi va ishonchli manba bo'la oladi. Shu bilan birga, mazkur asarlarda shoirning poetik ifoda qudrati, falsafiy-estetik qarashlari, axloqiy-ta'limiy o'g'itlari ham keng qamrovli aks etgan.

Alisher Navoiy ijodiy faoliyatiga xos muhim ulug'vor xususiyatlardan biri shuki, so'z san'atkor qanday asarni yaratishni oldiga maqsad, so'z muddaosi qilib qo'ymasin, u epik doston bo'ladimi, ilmiy-

filologik asar bo'ladimi o'z davri tarixnavisligiga xos bo'lgan ma'lumotlarga tayanadi, ulardan misollar keltiradi, sharhlaydi, o'zining ijodiy maqsadini belgilaydi va g'oyaviy-falsafiy, jiddiy ijtimoiy qarashlarini asoslashga harakat qiladi.

“Xamsa” asarini yozishga kirishganida ham muallif bu ulug' ijodiy ishga bel bog'lashdan avval “eski daftarlarni ko'p titganligi”, ya'ni o'z davri tarixiy manbalari bilan imkon darajasida yaqindan tanishib chiqqanligi haqida muhim ma'lumot beradi.

Ilmiy filologik asari bo'lmish “Muhokamat ul-lug'atayn”da ham turkiy tilning nufuz va mavqeini ilmiy tarzda asoslar ekan, tarixiy-mifologik ma'lumotlar asosida oldiga qo'ygan maqsadini sharhlashga harakat qiladi. Chunonchi, Nuh payg'ambarning uch o'g'li - Yofas, Som va Homlar haqida gapirar ekan, Yofasni Abut-turk nomi bilan mashhur bo'lganligini, turkiy xalqlarning paydo bo'lish tarixi ayni ana shu zot nomi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi: “Va Yofas o'g'loniki, Abut-turkdur, tarix ahli ittifoqi birla debturlarki, nubuvvat toji bila sarafroz va risolat mansabi bila qardoshlaridin mumtoz bo'ldi...” [5.515].

Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida o'zigacha bo'lgan tarixnavislarning asarlariga tanqidiy munosabatda bo'lishga, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini ijtimoiy voqelikka yaqinlashtirishga, ularning xatti-harakatlari, tarixda qoldirgan xizmatlari, yaxshi nomlarini tasavvur doirasiga sig'adigan darajada tasvirlashga harakat qildi. Ayniqsa, badiiy talqin hamda hayotiy mantiq mezonlari shoirga mifologik, afsonaviy, tarixiy shaxslar hayotiga oid ma'lumotlarni ijtimoiy voqelikka yaqinlashtirishga undagani tabiiy holdir. Muallif tarixiy haqiqat va voqelikka juda yaqinlashishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, Bahrom haqidagi voqealar Eron podshohlari tarixiga borib bog'lanadi. Uning nomi bilan bog'liq dostonlarga ilk bor Eron podshosi Bahrom binni Yazdijurdning hayoti va shaxsiyati haqidagi tarixiy va afsonaviy ma'lumotlar asos bo'lgan. Bu haqda birinchi bo'lib Abulqosim Firdavsiy (X-XI asrlar) “Shohnoma”da, so'ngra Nizomiy Ganjaviy o'zining “Haft paykar”ida hikoya qilgan. Uning mardligi, dovyurakligi, shijoati, yovvoyi eshak (go'r) oviga berilgani, o'z mahubasiga (Shoh Bahromning sevgilisi turli dostonlarda turlicha nomlangan.) goh o'ta yumshoq, ba'zan qattiqqo'llik bilan muomalada bo'lgani, aysh-ishratni yaxshi ko'rganligi shu xildagi barcha dostonlarga mavzu bo'lgan.

Lekin har bir so'z san'atkori an'anaviy syujetga ijodiy munosabatda bo'lishga intilgan, unga o'zidan ma'lum yangilik qo'shishga harakat qilgan. Alisher Navoiyning o'zi ham Bahrom haqida “Sab'ai sayyor”

dostonini yozar ekan, Bahrom haqidagi mavjud barcha tarix kitoblarini imkon doirasida o‘qib chiqqan, yangi ma’lumotlar izlagan. Bu haqda u murojaat san’atidan unumli foydalanib, o‘ziga o‘zi murojaat qilib:

*Sen bu ishning payiga chun bording,
Eski daftar base ko ‘p axtarding –deydi. [6.623]*

Bu esa shoirning an’anaviy syujetning, tarixiy ma’lumotlarning ahvolidan jiddiy tarzda qoniqmaganligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ham bu bahs, masala xususida gap borganida yumshoqlik bilan:

*Bir deganni ikki demak xush emas,
So ‘z chu takror topti, dilkash emas, – [7]*

deya alohida ta’kidlab aytgan edi.

Alisher Navoiy o‘zi guvoh bo‘lgan voqea-hodisalar haqida so‘z yuritayotganida ham tarixiy ma’lumotlarga tayanadi. Masalan, Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallab olgan qarindoshi Yodgor Mirzoni g‘aflatda qoldirib, undan hokimiyatni qaytarib olganligi haqida gapirar ekan, bu voqeani afsonaviy-tarixiy shaxs – Bahromning boshdan kechirgan voqea-hodisalari bilan taqqoslaydi: “Bahrom Ozarboyjondin Gurjiston bila Dashti Qifchoqdin chiqib, Xorazm bosturib, Jurjon navohisida xoqong‘a shabixun urib, oz kishi bila uch yuz ming cherikin buzib (yengib), xoqonni o‘z qo‘li bila o‘lturdi. Va bu bir ish erdikim, ondin burun hech podshoh qilmaydur erdi... Magarkim, Abulg‘ozi Sulton Husayn...ga muyassar bo‘ldikim, bu nav’ ish qildi” [8.122-126]. Shundan so‘ng Sulton Husayn Boyqaroning Yodgor Mirzo ustidan erishgan g‘alabasi qaysi jihatlari bilan afsonaviy-tarixiy shaxs – shoh Bahromning xatti-harakatlari bilan o‘xshashligini batafsil sharhlab o‘tadi.

Shu bilan birga, “Sab’ai sayyor” dostoni xotimasida Bahrom tilidan Husayn Boyqaro fe’l-atvoridagi kamchilik va nuqsonlar ham tilga olinadi, turli halokat va inqirozlarning oldini olish haqida nasihatlar qilinadi, ogohlik va hushyorlikka da’vat etiladi.

“Tarixi muluki Ajam”da keltirilgan Bahrom haqidagi ma’lumotlar, uning fe’l-atvori, yashash tarziga oid xususiyatlar shoir she’riyatida ham talmeh san’ati vositasida keng foydalanilgan. Natijada bu tarixiy shaxs lirik obrazga aylanib, shoirning falsafiy umumlashmalarini ta’sirchan badiiy ifodalashda qo‘l kelgan:

*Go ‘r uchun otmoq nedur har lahza bahromiy kamand,
Chun seni Bahromdek aylar ajal go ‘ri shikor. [4.193]*

Alisher Navoiyning o‘z davri tarixnavisligi ma’lumotlaridan badiiy maqsadlarda mohirona foydalana olishi yuqoridagi misoldan ko‘rinib

turibdi. Uning bemisl iqtidori va faylasufona o‘tkir nigohi shu qadar kenglik kasb etadiki, unda inson xatti-harakati va hayot mohiyati, koinot va uning bir zarrasi bo‘lgan hazrati inson taqdiri uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Birinchi, go‘r – qulonni ovlamoq uchun kamand – sirtmoq tashlashdan ne foyda, agar bizni ham ajal shikor qilmoq uchun kamand – go‘rni tayyorlab qo‘ygan bo‘lsa? Ikkinchi, kengroq ma’noda “go‘r” dunyoviy lazozatlar va hoyu havaslar, biz ularga erishish uchun o‘zimizni bahromona his qilib, xuddi Bahrom qulon oviga ruju qo‘yganidek, uning ortidan intilamiz. Ammo Bahrom singari ajal – go‘r seni – o‘ljasini ov qilishni kutib turibdi-ku!

Alisher Navoiyning o‘ziga xos ijodiy uslubi, poetik mahorati, obraz yaratish usullari, g‘oyaviy-estetik maslagi singari qator masalalarni ilmiy-nazariy tahlil etishda uning tarixga oid kitoblari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirning har bir voqea-hodisadan, tarixiy shaxslar faoliyatidan ibratli jihatlarni izlashi ushbu asarning tarbiyaviy-ma‘rifiy ahamiyatini kuchaytirgan. O‘z navbatida ushbu nazmiy namunalar tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati haqidagi ma‘lumot va hikoyalarning ta‘sirchanligini oshirgan.

Alisher Navoiy ijtimoiy adolat g‘oyasini o‘zining lirik she‘rlarida, epik dostonlarida ham izchil ifodalagan. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonidagi Bahrom obrazini esga olaylik. U Farhodni izlab kelib, Sheruya xarob qilgan Armaniston va Eronni obod qiladi, ijtimoiy adolat o‘rnatadi. Ijod jarayoni va umr yo‘li yakranglik kasb etgan shoirning o‘zi ham hayotda adolatning tolmas kurashchisi, ezgu amallarning homiysi va tarafdori bo‘lganligi ma‘lum. Zero, muallifning hayotdagi shiori uning quyidagi so‘zlaridan ham ma‘lumdir: “Ilgimdin (qo‘limdan) kelgancha zulm tig‘in ushotib, mazlum jarohatig‘a intiqom marhamin qo‘ydim. Va ilgimdin kelmaganni ul hazrat (Husayn Boyqaro) arzig‘a etkardim...” [3.648].

“Sab‘ai sayyor” dostoni bosh qahramoni Bahrom obraziga yana bir bor e‘tiborimizni qaratamiz. Garchi bu obraz afsonaviy-mifologik xususiyatlari bilan Sharq xalqlari og‘zaki ijodida keng tarqalgan bo‘lsa-da, Alisher Navoiy uni tarixiy siymo sifatida e‘tirof etadi. “Xamsa” muallifi ushbu obrazdan ham o‘zining axloqiy-didaktik, ma‘rifiy-tarbiyaviy maqsadlarida foydalanadi. Bahrom qanchalar adolatli, shijoatli bo‘lsa-da, uning katta nuqson va qusurlari ham bor. O‘ta maishatparastligi tufayli mamlakat boshqaruvini izdan chiqaradi. Uzoqni ko‘ra bilmasligi natijasida birmuncha vaqt sevikli yori Diloromdan ham judo bo‘ladi. Boshiga tushgan kulfat va falokatlardan tegishli xulosa chiqara olmaganligi tufayli

umri dahshatli yakun topadi. Uni ona yer yutadi. “Sab’ai sayyor”da ham, “Tarixi muluki Ajam”da ham o‘quvchi diqqatini tortadigan quyidagi qarash mavjud: Bahrom Sulton Husayn Boyqaro bilan taqqoslanadi, ularning o‘xshash jihatlariga urg‘u beriladi. Dostonda Navoiy Bahrom tilidan Husayn Boyqaroga murojaat qilib, aysh-ishrat, maishatparastlik xayrli oqibatga olib bormasligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning ana shunday xulosalari, tarixdan chiqargan saboqlari o‘z davri uchun ham ta’sirchan tarbiyaviy-ma’rifiy rol o‘ynagani kabi, bizning zamonamiz uchun ham g‘oyat ahamiyatli hamda dolzarbdir. Chunki ulug‘ shoir va mutafakkir ko‘p marta guvoh bo‘lganidek, temuriylar orasida ham jahongirlik orzusida yurgan, olamni o‘z mulki deb faraz qilgan hukmdorlar ko‘p edi. Xulosa shuki, Alisher Navoiy lirik, epik, ilmiy-filologik asarlaridagina emas, tarixga oid ijodiy merosida ham bunday holat va hodisalarga o‘z munosabatini yorqin va qat’iy ifodalay bilgan. O‘tmishdan saboq olish va xulosa chiqara bilish, hamisha ogoh va hushyor yashashga da’vat ulug‘ mutafakkir shoir va davlat arbobi asarlarining olamshumulligi va zamonaviyligini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Muqaddas, Saidakbarova. "INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.
2. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy’s creative work." *Scientific journal of the Fergana State University* 1.4 (2018): 106-108.
3. Алишер Навоий. Вақфия. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 9-жилд. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011
4. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 1-жилд. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
5. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 10-жилд. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
6. Алишер Навоий. Сабъайи сайёр. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 7-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011

7. Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.

8. Саидакбарова, Мукаддас. ""TARIXI MULUKI AJAM"" (" ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ") КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК." *Theoretical & Applied Science* 12 (2018): 122-126.

NAVOIYNING SHE'RIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATIGA DOIR

Dilnoza YULDASHEVA,

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent dilyuldasheva83@gmail.com**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy ijodidagi she'riy san'atlarning qo'llanilishi haqida to'xtalib o'tilgan. Ulug' shoir o'z ijodida tashbih, qaytariq, tanosub, intoq, ishtiyoq, ta'did, nido, mubolag'a, saj', iyhom kabi she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalangan. "Farhod va Shirin" dostoni, "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" kabi asarlari misolida buni ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: "Farhod va Shirin" dostoni, "Mahbub ul-qulub" asari, "Lison ut-tayr" asari, tashbih, qaytariq, tanosub, intoq, ishtiyoq, ta'did, nido, mubolag'a, saj', iyhom.

Аннотация

Данная статья посвящена использованию поэтического искусства в творчестве Навои. В своем творчестве он умело использовал такие поэтические приемы, как ташбих, повторение, сравнение, интак, иштикак, тадид, восклицание, преувеличение, садж, ихём. Мы можем видеть это на примерах таких произведений, как «Фархад и Ширин», «Махбуб ул-Кулуб», «Лисон ут-Тайр».

Ключевые слова: Эпос «Фархад и Ширин», произведение «Махбуб уль-Кулуб», произведение «Лисон ут-Тайр», ташбих, повторение, пропорция, интак, иштикак, тадид, восклицание, преувеличение, поклонение, внушение

Abstrakt

This article focuses on the use of poetic arts in Navai's work. In his work, he skillfully used poetic arts such as tashbih, repetition, comparison, intaq, ishtiyoq, tadid, exclamation, exaggeration, saj', ihyom. We can see

this in the examples of works such as "Farhad and Shirin", "Mahbub ul-Qulub", "Lison ut-Tayr".

Key words: "Farhad and Shirin" epic, "Mahbub ul-Qulub" work, "Lison ut-Tayr" work, tashbih, repetition, proportion, intaq, ishtiqaq, tadid, exclamation, exaggeration, adoration, suggestion

O‘zbek mumtoz adabiyotining uzoq yillik tarixi shundan dalolat beradiki, Alisher Navoiy she’riy san’atlar yaratishga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, shoir asarlarida badiiy fikrni obrazli ifodalashga xizmat qiluvchi tashbih san’atidan keng foydalanilgan. Jumladan, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining XVII bobida hoqon bilan Farhodning ko‘k gulnori qasrda gulgun may ichib o‘tirgani va bu qasrning bag‘oyat go‘zalligi quyidagicha tasvirlangan:

*Shajar gar bo ‘lmasa tovus bog ‘i,
Nedin tovusdek bo ‘ldi ayog ‘i? [1].*

Agar biz keltirilgan bayt mazmunini uslubiy-lisoniy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, unda daraxtlar jannatda yurgan tovuslarga, har bir yaproq esa to‘tining patiga o‘xshatilganligi ayon bo‘ladi. Bu baytdan daraxt ham uyqu paytida tovusga o‘xshab bir oyog‘ini patlarining ichiga yashirib olgan, degan obrazli mazmun o‘z ifodasini topgan.

Yoki “Mahbub ul-qulub” asaridan olingan quyidagi parchada “samandar” (o‘tda yonmas afsonaviy qush nomi) so‘zi “kibi” grammatik vositasi bilan birga tashbih san’atini hosil qilgan:

*Ki to bo ‘lg ‘ay bular bir-birlari birla qariyn bo ‘lsun,
Samandarlar kibi ishq o ‘ti ichra hamnishin bo ‘lsun [2].*

Alisher Navoiy *bulbul*, *to ‘ti*, *chug ‘z*, *kalog ‘*, *zog ‘* kabi qush nomlari (ornitonimlar)ni *-dek*, *-vash* qo‘shimchalari va *kibi // kabi*, *yanglig ‘*, *nechukki* singari so‘z shakllari bilan birgalikda qo‘llash orqali o‘xshatish san’atini hosil qilib, bu lug‘aviy birliklar vositasida o‘zining badiiy obrazlarga bo‘lgan estetik munosabatini ifodalashga muvaffaq bo‘lgan.

Shunisi muhimki, shoir asarlarida qush nomlarini bildiruchi so‘zlar tashbih san’atini hosil qilishda o‘z ma’nosidan tashqari ramziy timsollarni ham ifodalash vositasiga aylanadi: *bulbul* – sadoqat ramzi, *boyqush* (*chug ‘z*) – vayronalik ramzi, *kabutar* – esa tinchlik ramzi kabilar.

Alisher Navoiy lirikasida qaytariq // qaytarish san’ati ham xilma-xil vositalar yordamida hosil qilingan. Masalan, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidadan olingan quyidagi misralarda gapira-gapira to‘ti har narsani biladigan bo‘ldi, degan g‘oyani ifodalash maqsadida *to ‘ti* so‘zining takrori – qaytarish san’atidan foydalangan:

*Chu bo'ldi nuqtadin ogoh to'ti,
Ani derlar xaloyiq shoh to'ti* [3].

Alisher Navoiy asarlarida afsonaviy va real qushlar obrazi ham xilma-xil she'riy san'atlar yaratish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. *Qaqnus, Samandar, Xumo, Anqo* singari afsonaviy qushlar bilan bir qatorda *bulbul, to'ti, laylak, boyqush* singari real qushlar nomi asosida yuzaga kelgan badiiy timsollarni shoir o'z asarlarida samarali qo'llagan. Masalan, "Lison ut-tayr"da *bulbul, to'ti* so'zlari ketma-ket kelib, tanosub san'atini vujudga keltirgan:

*O'yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbul, to'ti kibi guftor etay* [4].

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida qushlar odamlar singari so'zlaydilar, qushlar orqali shoir inson fe'l-atvori, xarakteri, uning ichki kechinmalariga falsafiy nuqtai nazaridan baho beradi. Xususan, shoir bir qush bilan hudhud o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javobni obrazli bayon qilishda intoq san'atidan foydalangan. Bu o'rinda qo'llangan *hudhud* ornitonimi arabcha so'z bo'lib, *sassiqqopishak* ma'nosini anglatadi. "Lison ut-tayr" asari boshdan-oyoq ana shu intoq san'ati zamiriga qurilgan bo'lib, bu badiiy san'atning lisoniy-uslubiy talqini asarda qush nomlari asosida amalga oshirilgan. Aslida "so'zlatish", "gapirtirish" ma'nosidagi intoq san'ati badiiy asarda hayvonlar va jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatishni ham nazarda tutadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy she'riyatida ishtiyoq san'ati asosida yaratilgan baytlar ham ko'p uchraydi. Bu san'at she'riy baytlarda o'zakdosh so'zlarni qo'llashga asoslanadi. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida osmonning cheksizligi, bepoyonligi shunday tasvirlanadi:

*Kabutar yo'q, kabutarxonadur ul,
Anga ne rom bo'lmog'liq, ne orom* [5].

Bu keltirilgan baytda ishtiyoq san'atini vujudga keltirish uchun shoir kabutar so'zidan o'rinli foydalanadi. Ma'lumki, *kabutar* so'zi o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan leksema bo'lib, bu "so'zning strukturasi *kabu(d)+tar* qismlaridan tashkil topgan, *kabud* – *ko'k* va *-tar* sifatning orttirma darajasini bildiruvchi morfemadir". Shoir bu baytda osmondagi yulduzlarni kabutarlar oldiga sochilgan donlarga qiyos qiladi. Bu o'rinda ishtiyoq san'ati *kabutar* va *kabutarxona* so'zlari, ya'ni o'zakdosh so'zlar vositasida yuzaga kelgan.

"Sab'ai sayyor" dostonidagi

Chunki qaqnuslik aylabon izhor,

O't solib alam ichra qaqnusvor [6] baytida o'zbek tilidagi afsonaviy qush nomini anglatuvchi *Qaqnus* atamasining o'zakdosh leksemalari hisoblangan *qaqnuslik* va *qaqnusvor* so'zlari vositasida ham ishtiyoq san'ati vujudga keltirilgan. Bu san'atni yuzaga keltirgan leksik birliklar *qaqnus* ornitonimini bildiruvchi tub so'zga *-lik* va *-vor* affikslarini qo'shish orqali yasalgan. Bu o'rinda *qaqnus* so'zining yangi lisoniy shakli yuzaga kelibgina qolmasdan, bu so'zning ma'no qamrovi ham ma'lum darajada kengaygan.

Ma'lumki, misra yoki baytda morfologik jihatdan ma'lum bir so'z turkumiga mansub leksik birliklarning uyushib kelish hodisasiga ta'did san'ati deyiladi. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida asarning badiiyligini oshirish maqsadida *kalog'*, *zog'*, *to'ti*, *bulbul*, *qumri*, *so'ng'ur*, *yurtachi* kabi qush nomlarini uyushiq bo'laklar sifatida qo'llab ta'did san'atini hosil qilgan. Negaki, "shoir tasvirda sanash ohangida uyushiq bo'laklarga mansub so'zlardan ikki yoki undan ortig'ini ishlatsa, ta'did san'ati vujudga kelgan bo'ladi".

Yoki shoir tasvir davomida biror narsa yoki kimsaga murojaat yoki xitob qilsa, nido san'ati deb yuritiladi. Alisher Navoiy nido san'atini hosil qilishda badiiy tasvir ob'ekti doirasidagi qush nomlarini anglatuvchi so'zlardan ham foydalangan. Masalan, *bulbul* so'zi o'zbek mutoz she'riyatining obrazlar tizimida muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy g'azaliyotida ham ko'pincha *bulbul* so'ziga murojaat qilinadi. Bunday murojaatlar asosida ijodkor o'zining dardu hasratlari, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ruhiy iztiroblarini ifoda etadi va shu asosda nido san'ati yuzaga keladi:

*Bahor ayyomini besh kun g'animat angla, ey bulbul,
Kim, muncha so'zu tobing otashin gul mijmarindindur* [7].

Shoirning bu o'rinda bulbulga nisbatan *ey bulbul* murojaatini qo'llashdan asosiy maqsadi lirik qahramon murojaati qaratilgan obyekt, ya'ni sayroqi qush timsoli orqali o'z qalbida kechayotgan ruhiy tug'yonlarni yorqin ifodalashdir.

Ma'lumki, mubolag'a san'ati badiiy asarda tasvirlanayotgan obrazning poetik ifodasini bo'rttirish hamda kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida qush nomlari yordamida mubolag'aning g'uluv ko'rinishini hosil qilgan:

*Chu g'am dashtida majnunvor yig'lab,
Unidin murg'u mog'i zor yig'lab.
Bo'lub paydo urarda tig'i motam,
Teshuklar tog' aro, bal rahnalar ham* [8].

Mazkur misralarda *murg'* va *mog'* ornitonimlari asosida g'uluv san'atini qo'llagan shoir qahramon holatini ta'sirchan tasvirlab, o'quvchiga emotsional-estetik zavq bag'ishlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida qush nomlari *saj'* san'atining yaratilishiga ham xizmat qilgan. Bu san'at namunalari shoirning she'rlarida ham, nasriy asarlarida ham uchraydi. Masalan, bu san'atni ancha chuqur tadqiq etgan adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov Navoiyning "Munshaot" asarida *bulbul* so'zi yordamida murakkab ramzli *saj'* namunasi yaratilganligini ta'kidlagan edi: "*Bulbulekim, gul xori hijroni g'unchadek, ko'nglin figor qilmish bo'lg'ay – doston saroylig' bila ne tarannum ko'rguzgay va to'tiyokim, ko'zgu dog'i xirmoni zamiri ko'zgosida g'ubor solmish bo'lg'ay – shirin kalomlig' bila ne takallum tuzgay*".

Alisher Navoiy o'z asarlarida istiora san'atini yaratishda xalq qarashlari va tasavvurlarining so'z ma'nosiga ko'rsatgan ta'sirini hisobga oladi. Masalan, shoir istioraga asos bo'lgan *hayot qushi, ko'ngil qushi, jon qushi, jon bulbuli* singari birikmalarning semantik asosi qadim ajdodlarimizning jon to'g'risidagi mifik, afsonaviy tasavvurlariga bog'laydi. Shoir jonning qush suratida namoyon bo'lishi haqidagi qadimgi mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan xalq qarashlariga asoslanib, istioraga asos bo'lgan *jon qushi* birikmasi asosida poetik obraz yaratgan. Alisher Navoiy g'azaliyotida istioraning murakkab turi (*ko'ngil qushi, baxt qushi, hayot qushi, jon qushi, jon bulbuli* kabi) ko'p qo'llangan.

Ma'lumki, iyhom san'atida bir so'z bir vaqtning o'zida ikki ma'noda qo'llaniladi. Alisher Navoiy iyhom san'atini yaratishda turli leksik vositalardan ham ustalik bilan foydalangan. Masalan, shoir "*bag'ri qaro*" iborasini quyidagi baytda ikki ma'noda qo'llaydi: a) qush nomi; b) baxtsiz:

*Dasht uzraki sayr o'lur sabog'a,
Bag'ri qarolar uchar havog'a [9].*

Keltirilgan baytdagi "*bag'ri qaro*" birikmasining birinchi ma'nosi asosida bu baytni quyidagicha izohlash mumkin: "*dasht uzra shamol ko'tarilganda bag'ri qaro deb ataluvchi qushlar uchib ketadi*". Birikmaning ikkinchi – majoziy ma'nosi asosida esa ushbu bayt quyidagicha mazmun kasb etadi: "*dasht uzra shamol ko'tarilganda, bechora baxtsiz qushlar osmonga ko'tariladi*". Lug'atlarda qayd qilinicha, eski o'zbek tilida *bag'riqaro – qorabag'ir (qorabovur)* nomli qush nomini ifodalagan.

Alisher Navoiy asarlarida bir bayt yoki parchaning o'zida ikki va undan ortiq she'riy san'atlar hosil qilingan o'rinlar ham mavjud. Masalan, "Lison ut-tayr" dostonining XIV bobidan olingan quyidagi baytda *to'ti,*

kalog' (*ola qarg'a*), *bulbul*, *qumri*, *zog'* so'zlari qator kelib tanosub san'atini, *to'ti*, *bulbul* ornitonimlari uyushib kelib ta'did san'atini vujudga keltirgan. Shuningdek, bu baytda *zog'* so'zi bilan yonma-yon *yanglig'ki* grammatik vositasini qo'llash orqali tashbih san'ati ham hosil qilingan:

*Yuqori o'lturdi to'tidin kalog',
Bulbul qumridin ul yanglig'ki zog' [10].*

Demak, bizning ayrim kuzatishlarimiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan she'riy san'atlar ma'no jihatdan serqirraligi shoirga bir matn, bayt doirasida bir nechta poetik san'atlarni vujudga keltirishga imkon berganligini ko'rsatadi. Alisher Navoiy badiiy obraz uchun asos qilib olingan so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan unumli foydalanib, badiiy matnda so'z qo'llashning ajoyib namunalarini yaratgan. Shoirning bu sohadagi badiiy mahoratini o'rganish hozirgi davr o'zbek she'riyati ravnaqi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin"— Toshkent: Fan, 1991, MAT. 20 jildlik, VIII.
2. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"— Toshkent: Fan, 1991, MAT. 20 jildlik, XIV.
3. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"— Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
4. Alisher Navoiy "Sab'ayi-sayyor"— Toshkent: Fan, 1992, MAT. 20 jildlik, X.
5. Alisher Navoiy "Navodir ush-shabob"— Toshkent: Fan, 1991, MAT. 20 jildlik, III.
6. Alisher Navoiy "Layli va Majnun"— Toshkent: Fan, 1992, MAT. 20 jildlik, VIII.

ALISHER NAVOIY IJODIDA IYMON TALQINI

Shoiraxon XO'JAYEVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

shoiraxonxojayeva85@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola shaxs kamolotida barcha davrlar uchun birday muhim bo'lib kelgan imyon mavzusining Alisher Navoiy ijodida aks etishi masalasiga bag'ishlangan. Unda ijodkorning "Nazm ul-javohir", "Hayrat

ul-abror”, “Siroj ul-muslimin”, “Arba’in”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida mazkur mavzuning yoritilishi tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: tahlil, sharh, poetik talqin, hikmat, qitʼa, ruboiy, iymon, maʼnaviyat, hayo, vafo, saxovat, himmat.

Аннотация

Данная статья посвящена теме веры, одинаково важной для всех эпох в развитии человека, в творчестве Алишера Навои. В ней проанализированы произведения автора «Назм ул-джавахир», «Хайрат ул-аброр», «Сирадж ул-муслимин», «Арбаин», «Махбуб ул-кулуб».

Ключевые слова: анализ, комментарий, поэтическая интерпретация, мудрость, рубаи, вера, духовность, скромность, верность, великодушие, трудолюбие.

Abstarkt

This article is devoted to the topic of faith, which has been equally important for all eras in the development of a person, in Alisher Navoi's work. In it, the author's works "Nazm ul-javahir", "Hayrat ul-abror", "Siroj ul-muslimin", "Arba'in", "Mahbub ul-qulub" have been analyzed.

Key words: analysis, commentary, poetic interpretation, wisdom, rubai, faith, spirituality, modesty, loyalty, generosity, diligence.

Iymon – shaxs maʼnaviyatini belgilovchi asosiy omildir. Mumtoz adabiyotimizda komil inson timsoli badiiy talqin etilar ekan, iymon uning bosh fazilati sifatida vasf qilinadi. Hazrat Navoiy shaxsi va ijodida iymon tushunchasining tutgan mavqeyini, bu istiloh poetik talqinidagi oʻziga xoslikni oʻrganish shu jihatdan alohida ahamiyatga molik. Akademik Alibek Rustamov bu haqda shunday yozadi: “Hazrati Navoiyning diyonati hamma zamon, hamma makonning hamma xalqlari, ayniqsa, musulmonlar uchun yaxshi oʻrnakdir. U islom ibodati-yu muomalasi, axloq-u odobiga aʼlo darajada amal qildi, oʻzini butunlay mamlakat taraqqiysi va el xizmatiga bagʻishladi”. [7.127.] Darhaqiqat, ulugʻ mutafakkir iymonni yuksak hayotiy aʼmol, insoniylikning asosiy sharti deb bilgan. Mana bu bayt mazmuni ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Kimki jahon sahnida inson erur,

Bilki nishoni anga iymon erur.

Alisher Navoiyning barcha asarlarida iymon baland pardalarda vasf etiladi. Buyuk shoirning ayrim asarlarida islom va iymon haqidagi qarashlari goʻzal badiiy shaklda ifodalangan boʻlsa, baʼzan muayyan asar toʻligʻicha ana shu mavzuga bagʻishlangan. Ulugʻ mutafakkir hadislar va

hikmatlarni nazmiy baytlar zamiriga singdirish bilan kifoyalanmay, ular asosida asarlar bitib, komil inson va yuksak ma'rifat g'oyalarini yanada keng miqyosda yoyishga erishgan. Hazrat Navoiy "Siroj ul-muslimin" asarida iymon qoidasini shunday bayon etadi:

*Burun ul nimakim, farz etti Yazdon,
Erur oqilg'a bolig' bo'lg'ach iymon.
Aning ma'nisidur til birla iqror,
Ko'ngul birla inonmog'lig' dag'i bor.
Tilar bo'lsang anga o'zni yeturmak,
Bil olti nimaga iymon keturmak.*

Alisher Navoiy ushbu misralar orqali iymon deb atalmish anchayin murakkab tushunchani kishilar shuuri va ruhiga ta'sir eta oladigan tarzda juda sodda va aniq, qisqa va lo'nda shaklda ifodalagan. Ya'ni har bir aqli raso kishi balog'atga etgach, iymon ne'matiga musharraf bo'lmog'i kerak. Iymon til bilan iqror bo'lib, dil bilan ishonmoqdir. Inson bo'lib yaralish va inson sifatida hayot kechirishning mohiyati ham, odamzotning baxti ham iymoni butunligi bilan o'lchanadi. Bu baxtga yetishni istagan kishi olti narsaga iymon keltirishi lozim. Shundan so'ng nimalarga iymon keltirish kerakligi aytiladi. Bular: 1) Allohning bir-u borligiga; 2) farishtalarga; 3) ilohiy kitoblarga; 4) payg'ambarlarga; 5) Qiyomat kuniga; 6) taqdirga.

Buyuk alloma ushbu g'oyani ilgari surishda Qur'oni Karimdagi quyidagi oyatga tayangan:

"Ey, mo'minlar! Allohga, uning payg'ambariga va shu payg'ambariga nozil qilgan Kitobiga hamda ilgari nozil bo'lgan Kitoblariga imoningiz komil bo'lsin" [3. 68.].

Komil iymon egasi bo'lmoqning ham o'z shartlari bor. Ko'plab hadislar mo'minlik shartlari masalasiga bag'ishlangan bo'lib, Alisher Navoiy ham "Arba'in" asaridagi ilk qit'ani ana shu mavzudagi hadisga bag'ishlaydi:

"Birortangiz o'ziga ravo ko'rgan narsani birodariga ham ravo ko'rmagunicha mo'min bo'la olmaydi":

*Mo'min ermastur, ulki iymondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
Toki qardoshig'a ravo ko'rmas –
Nekim o'z nafsiga ravo ko'rgay.*

Ushbu hadisi sharifda aytilgan "birodar" va she'rda keltirilgan "qardosh" so'zlaridan murod boshqa bir mo'min kishidir. Zero, islomda "Har bir mo'min ikkinchi mo'minning birodari" [2.81.] ekanligi uqtililadi. Shunday ekan, har bir iymonli kishi boshqa mo'minlarga "ham qo'li, ham

tili bilan” faqat yaxshilik qilishi, ularni muhofaza qilishi va eng suygan narsalarini ularga ham ravo ko‘rishi lozim. Shundagina uning iymoni komil bo‘ladi. “Mahbub ul-qulub” asarida do‘stlik haqida so‘z yuritar ekan, hazrat Navoiy yuqoridagi fikrini yanada kuchaytiradi, haqiqiy mo‘min ba‘zan o‘ziga ravo ko‘rganini do‘stiga ravo ko‘rmasligi ham lozimligini ta’kidlaydi:

“Har kimki, birov bila yordur yoki yorlig‘ da’viysi bordur, kerakkim, o‘ziga ravo tutmog‘onni yorig‘a ravo tutmasa, ko‘p nimakim, o‘ziga ham ravo tutsa, anga tutmasa. Bas mashaqqatkim, andin ruhg‘a alam etar, kishi ani jismu jonig‘a tajviz etar. Ammo ani yorig‘a taxayyul qila olmas, agar taxayyul qilsa, vahshatidin hayoti qolmas”.

Komil iymonning yana bir sharti barcha amalni xolis Alloh yo‘lida qilmoqdir. Muborak hadislarda ham dilni mudom Allohga bog‘lashga, uni ko‘p zikr etishga va har bir ishni faqat O‘zi uchun – Uning roziligi yo‘lida qilishga chaqiriladi: “Kim Alloh uchun bersa va Alloh uchun bermasa, Alloh uchun yaxshi ko‘rsa va Alloh uchun yomon ko‘rsa, darhaqiqat, uning iymoni barkamol bo‘libdi”. Alisher Navoiy ushbu hadisni “Arba’in”dagi ikkinchi qit‘aga asos qilib oladi:

*Kingakim hubu bug‘zu man‘u ato
Haq uchun bo‘ldi jazm bil oni,
Kim erur Tengri lutfidin komil
Ahli iymon qoshida iymoni.*

Alisher Navoiy ijodiga o‘zgacha yondashgan shorihlar Hasan va Husayn Yahyo Abdulmajidlar ushbu to‘rtlikni quyidagicha izohlaganlar:

“Kimning muhabbatda ham, yomon ko‘rishda ham, biror narsa berishida ham, biror narsani bermay, to‘shida ham qasdi, maqsadi Alloh bo‘lsa, Allohning lutfi bilan uning iymoni ahli iymon qoshida komil sanaladi”[8.74.]. Ta’kidlash kerakki, Hasan va Husayn Yahyo Abdulmajidlarning “Navoiydan chu topqaylar navoe” kitobiga kiritilgan sharhlar navoiyshunoslik sohasida yangilik bo‘ldi. Alisher Navoiy ijodini islom ma’naviyati, Qur’oni Karim, hadisi sharifdan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmasligi hech kimga sir emas. Lekin uning asarlarini diniy nuqtayi nazardan, Qur’oni Karim va hadislar asosida tahlil qilish navoiyshunoslikda yangicha uslubni yuzaga chiqardi, desak yanglishmaymiz.

Falsafa ilmida “mohiyat va hodisa” tushunchalari bor. Ya’ni mohiyatda bor narsa hodisada aks etadi. Chunonchi, quyosh – mohiyat, nur – hodisa. Quyosh nur manbai bo‘lgani tufayli ham yog‘du taratadi.

Mo‘minning qalbidagi iymon ham mohiyat, uning bajargan amallari esa hodisadir.

Hazrat Alining “Kishining iymoni ontidan ma’lum” hikmati ham ana shundan saboq beradi. Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining birinchi ruboiysiga aynan shu hikmatni asos qilib oladi:

*Iymoni aningki kufrig‘a sotir erur,
CHin nukta demakka ul kishi qodir erur,
Har kimsaki iymon ishida mohir erur,
Iymonini bilki, ontidin zohir erur.*

Kimki rost so‘zlamoqni, ya’ni haqgo‘ylikni o‘ziga odat qilsa, uning iymoni ziyoda bo‘lib, dilidagi kufri mahv etadi. Mo‘min kishining iymoni uning ontidan, ya’ni aytgan so‘ziga amal qilishidan, va’dasiga vafosidan bilinadi.

Demak, iymon nafaqat botinda, balki zohirda ham namoyon bo‘lar ekan. Ya’ni insonning har bir aytgan kalomi, amalga oshirgan xatti-harakati uning qalbidagi iymonning darajasini ko‘rsatadi.

“Iymonning uchdan biri hayo, yana uchdan biri vafo va yana uchdan biri saxodir”, – deyiladi hazrat Ali (r.a.) hikmatlarida. Buyuk shoir bu hikmatni “Nazm ul-javohir”da quyidagicha talqin etadi:

*Uch qism ila iymong‘a bino fahm ayla,
Avvalg‘isini aning hayo fahm ayla,
Ikkinchisini dag‘i vafo fahm ayla,
Uchinchini bilmasang, saxo fahm ayla.*

Iymon misoli bir bino bo‘lsa, hayo, vafo va saxovat uni ushlab turuvchi ustunlardir. Binobarin, ularsiz bino qulaydi. Shuningdek, bu fazilatlar biri-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Vafodor insonning hayosizlik qilishi mumkin bo‘lmaganidek, o‘z xulqini hayo ila ziynatlagan kishining fe’lida baxillik kuzatilmaydi. Navoiy hazratlarining “Mahbub ul-qulub”dagi: “*Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu iki yo‘q – iymon yo‘q va har kimda iymon yo‘q andin umid ko‘zin yorutsa bo‘lmas*”, – degan e’tirofi ham buni tasdiqlaydi.

Shu bois ulug‘ shoir-u adiblar asarlarida iymon mavzusiga qayta-qayta murojaat etiladi. Qur’oni Karim oyatlari va muborak hadislar mohiyatiga uyg‘un bunday talqin milliy adabiyotimizda etakchi o‘rin tutadi.

“Ey mo‘minlar, kasb qilib topgan narsalaringizning halol-pokizalaridan va Biz sizlar uchun erdan chiqargan narsalardan infoq-ehson qilingiz!” [3.33.] deyiladi Qur’oni Karimda. Ana shu muqaddas manbaga tayangan Hazrat Navoiy ko‘plab asarlarida mazkur g‘oyani ilgari suradi. Shoir ijodida, xususan, saxovat mavzusi alohida o‘ringa ega. Jumladan,

“Mahbub ul-qulub”da yozilishicha: *“Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufrid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari”*.

Darhaqiqat, dunyoni saxovatpesha, oliyhimmat, ko‘ngli va qo‘li ochiq kishilar bezaydi. Bunday insonlar jamiyatning ko‘rki. Buyuk shoir asarlarida saxovat insoniyat bog‘ida yetilgan eng laziz mevaga, odamiylik dengizidagi eng toza gavharga qiyoslanishi sababi ham shunda. Ushbu mavzu ham “Nazm ul-javohir” asarida alohida e‘tibor bilan yoritilgan:

*Yoringni tonir ishda mahorat ayla,
Diqqat bila holig‘a basorat ayla,
Mukrim esa izhori bashorat ayla,
Judig‘a ko‘ra oni ziyorat ayla.*

Ushbu ruboiy Hazrat Alining “Kishini ziyorat qilish uning saxovatiga qarab bo‘ladi” degan hikmatlari asosida yozilgan. Hazrat Navoiy saxiy kishining qadr-qimmatini baland ko‘tarib, hatto do‘st-u yor tanlashdek nozik masalada ham uning saxovati darajasiga diqqat qaratmoq lozimligini uqtiradilar. Zero, saxovati yo‘q kimsaning iymoni ham zaifdir. Iymoni zaif kishini esa do‘st-u yor etib bo‘lmaydi.

Ammo saxovat, xayr-u ehsonning ham o‘z shartlari mavjud. Bulardan biri uning xolis va ezgu niyat ila qilinishi lozimligidir. Shundagina u chin ma’noda saxovat sanaladi, egasiga ham, jamiyatga ham naf keltiradi. Aks holda, bunday amal savobga emas, gunohga bois bo‘ladi. Quyidagi hadisi sharif ham bu fikrni tasdiqlaydi: “Kimda-kim xayrli ishlarini shuhrat topish niyatida ovoza qilsa, Alloh taolo ham qiyomatda uni sharmanda qilib, ovoza qiladi, kimda-kim xayrli ishlarini odamlar meni ko‘rib qo‘ysinlar deb ko‘z-ko‘z qilsa, Alloh taolo ham qiyomatda uni barcha bandalari o‘rtasida izza qiladi”. [1.448.]

Bu haqda “Mahbub ul-qulub”da quyidagilarni o‘qiymiz: *“...Mubohot (maqtanish) uchun ermak xudnamoliq va aning bila o‘zin saxiy demak behayoliq...”* yoki *“...Mahalida bergan eski chortora to‘n – saxovat va bemahal bergan zarboft chorqab – shaqovat (yaramaslik)”*.

“Xamsa”ning “Hayrat ul-abror” dostonida saxovatga alohida bob ajratilgan, “Saddi Iskandariy” dostonida Axiy obrazi orqali oliyhimmatlik vasf etilgani hazrat Alisher Navoiyning bu mavzuga nechog‘lik katta e‘tibor berganini ko‘rsatadi. “Nazm ul-javohir”dagi “Saxiylikning soyasi keng bo‘ladi” hikmati asosidagi ruboiyda ham ana shu g‘oya tarannum etilgan:

*Mukrim ishini ko‘rki, bade’ o‘ldi base,
Bog‘ida xarif anga rabe’ o‘ldi base,*

*Chun naxl murod anga rafe' o'ldi base,
Ul naxlg'a ham soya vase' o'ldi base.*

Saxovatning ikkinchi muhim sharti – minnat qilmaslik. Zero, saxiy kishi o'z ehsonini hech kimdan hech narsa ta'ma qilmagan holda, beminnat va beg'araz amalga oshirmog'i lozim. Yaxshilikka ozgina minnat aralashar ekan, u o'z ahamiyatini yo'qotadi. Quyidagi ruboiy ana shu haqda:

*Juz judu saxo uyini manzil qilma,
Imsockni saxo yuziga hoyil qilma,
Qil yaxshiliq va demakni doxil qilma,
Minnat bila yaxshiliqni botil qilma.*

Demak, minnat – saxovatni yo'qqa chiqaruvchi ofat. Muborak hadislarda ham qo'li ochiqlikning ofati minnat ekani ta'kidlanadi. Buyuk shoir ushbu hadisni nazmda quyidagicha talqin etgan:

*Har kishiga rioyate qilsang,
Minnat o'tkarmagil gumoningg'a.
Negakim ul karamg'a ofat erur,
Yukla minnat va lek joningg'a.*

Bu to'rtlikning ma'nosini Hasanxon va Husaynixon Yahyo Abdulmajidlar mana bunday sharhlaydi: “Agar birovga biror yaxshilik qiladigan bo'lsang, minnatni xayolingga ham keltirma, chunki u kishiga ofatdir. Biroq minnatni o'z joningga yukla, ya'ni Alloh senga shu ne'matlarini berib, uni sarflashga muvaffaq qilganini o'zingga eslat”. [8.91.]

Demak, minnat ham ikki xil bo'lar ekan: biri – boshqalarga, ikkinchisi – insonning o'z-o'ziga qiladigan minnati. Boshqalarga qilingan minnat gunohga sabab bo'lsa, o'z-o'ziga minnat ko'p gunohlar yo'lini to'sadi. Chunki bunday inson har bir amalini taftish qiladi, o'z-o'ziga hisob berib turadi. G'aflat bunday zotlarga begona. Zero, ularning qalbi mudom bedordir.

Biroq bunday yo'lni tutmoq oson emas. U kishidan oliyhimmatlikni talab qiladi. Demak, barcha xayrli amallarning asosi himmat bo'lib, saxovat manziliga ham himmat so'qmog'i orqali o'tiladi. Binobarin, himmatga ega bo'lmay turib, chin saxovat sohibi bo'lmoq imkonsiz. Shu bois Hazrat Navoiy himmatni saxovatdan ham ustunroq qo'yadi: “*Saxovat odamig'a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliyhimmat shohbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurutachi boz*”.

Bu yerda saxovat jismga, himmat esa jonga qiyoslanmoqda. Daho shoir jonsiz jismning hech qanday qadr-u qimmatini bo‘lmagani singari behimmat qilingan saxovatning ham hech bir ahamiyati yo‘qligini uqtirish orqali insonlarni oliyhimmat bo‘lishga chorlaydi.

Umuman olganda, Hazrat Navoiy ijodi – ma’naviyat sarchashmasi. Unda kishini ma’nan yuksaltiruvchi barcha ezgu fazilatlar teran mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida betakror poetik talqin etilgan. Bu asarlar mutoaalasi avlodlar qalbida iymon va ma’rifat nurini kuchaytiradi, insoniy kamolot sari intilishga ishtiyoq va rag‘bat uyg‘otadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jomi’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). 2-kitob. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.
2. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O‘zbekiston. 1990.
3. Qur’oni Karim (Ma’nolari tarjimasini. Tarjimon va izohlar muallifi Alouddin Mansur). – T.: Cho‘lpon. 1991. “Niso” surasi, 136-oyatdan. “Baqara” surasi, 267-oyatdan.
4. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. // To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. Toshkent, 2011.
5. Navoiy Alisher. Nazm ul-javohir // To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. O‘ninchi jild. Toshkent, 2011.
6. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. // To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. Toshkent, 2011.
7. Rustamiy Aliybeg. Hazrat-i Navoiyning ma’naviy olami. – T.: Navro‘z nashriyoti. 2014.
8. Hasaxon Yahyo Abdulmajid, Husaynixon Yahyo Abdulmajid. “Navoiydan chu topqaylar navoe”. – T.: Hilol-Nashr. 2014.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAN'ATGA OID ISTILOHLAR TALQINI

**Xilola ABDUJABBAROVA,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti o'qituvchisi**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi san'at falsafasiga doir tushunchalar xususida so'z boradi. Alisher Navoiy dunyoga nafaqat shoir, davlat arbobi, balki chuqur falsafiy fikrlar muallifi sifatida ham mashhur. O'zbek tili falsafa terminologiyasi, xususan, san'at falsafasi terminologiyasini o'rganishda hazratning asarlari muhim manba sanaladi.

Kalit so'zlar: falsafa, san'at falsafasi, tushuncha, termin, asar.

Аннотация

В данной статье говорится о концепциях философии искусства в творчестве Алишера Навои. Алишер Навои известен миру не только как поэт, государственный деятель, но и как автор глубоких философских мыслей. Работы Навои считаются важным источником в изучении терминологии философии узбекского языка, в частности, терминологии философии искусства.

Ключевые слова: философия, философия искусства, понятие, термин, произведение.

Abstarkt

This article talks about the concepts of the philosophy of art in the work of Alisher Navoi. Alisher Navoi is known to the world not only as a poet, statesman, but also as the author of deep philosophical thoughts. Navoi's works are considered an important source in the study of the terminology of the philosophy of the Uzbek language, in particular, the terminology of the philosophy of art.

Keywords: philosophy, philosophy of art, concept, term, work.

Hazrat Mir Alisher Navoiy dunyo ommasiga nafaqat shoir va davlat arbobi, balki donishmand shoir, faylasuf va musiqa ilmining bilimdoni sifatida ham mashhur. Hazrat ijodining har bir bandida chuqur falsafa, teran mushohada mavjud. Alisher Navoiy ijodi falsafasining kuchli jihati shundaki, uning falsafiy fikrlari islom dini, aniqrog'i tasavvuf ilmi bilan sug'orilgan.

Bolaligidan musiqaga hamroh bo'lgan Alisher Navoiy umri davomida ham undan uzoqlashmadi. Buning yorqin isboti sifatida turkiy tilda qo'llagan "Navoiy" taxallusini keltirishimiz mumkin. "Navoiy", aslida, "Navo" maqomining nomidan kelib chiqqan [1,4].

Uning san'at, ayniqsa, musiqa san'ati falsafasiga oid tushunchalari haqida so'z yuritar ekanmiz, bevosita samo' falsafasiga to'xtalmay ilojimiz yo'q.

Samo' so'zini hozirgi kunda umuman qo'llamaymiz, lekin musiqa falsafasi haqida so'z yuritganda, bu tushuncha muhimdir. Samo', aslida, eskirgan so'z bo'lib, Navoiy asarlarida "samo', simo'" shakllarida kelib, eshitish, quloq solish, tinglash ma'nolarini bergan [2, 242]. Sami' esa eshituvchi ma'nosiga ega.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, aynan "samo' falsafasi" birikmali shakli professor Oqilxon Ibrohimovning 2019-yilda "O'zbekiston. Til va madaniyat" jurnalining 2-sonida chop etilgan maqolasida uchraydi (Alisher Navoiyning samo' falsafasi). Maqolada muallif samo' tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "shoirning ijodida musiqa so'fiyona samo' (yoqimli tovush, nag'ma, ohangni qalban tinglash ila zavqlanish va h.k.) tushunchasining ma'nodoshi yohud uning muayyan bir ko'rinishi sifatida keng qo'llanganini kuzatamiz" [1,1].

Mazkur so'z Navoiy asarlarida bir muncha faol qo'llangan bo'lib, chin san'at, haqiqiy musiqani oshiq qalb bilan tinglash orqali go'zallik va haqiqat manzillariga etishish mumkinligi nazarda tutiladi (bu erda ham tasavvuf bosqichlariga ishora mavjud): "Shibliy va Nuriy (quddisa sirrihumo) samo'da kettilar, bu yo'l suluki bila maqsud sarmanzilig'a yettilar..." [3, 27]. Bu o'rinda samo' tushunchasi mazmunida go'zal ovoz bilan jilolangan muayyan intizomli tovushlarning yuksaklikka maqsadli intilgan jonli harakati jarayoni va uni qalban zavqli qabul qilish (idroklash) holati anglashiladi [1,2].

Ammo go'zallik olamida ruhan yuksalishning muhim shartlaridan biri ishq bo'lib, usiz tasavvuf bosqichlarini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki qalbida ishq, muhabbat mavjud bo'lmagan tana hech qayerga intilmaydi, hech qanday kuy, musiqani tinglab anglolmaydi. Vaholanki, ishq-muhabbat ham falsafiy tushuncha sanaladi.

Alisher Navoiy musiqa ilmini mukammal egallaganligi va kuy, qo'shiqni tinglash madaniyatiga ega bo'lganligi sababli xonanda va sozandalarni juda yaxshi farqlay olgan. Bu borada "Mahbub ul-qulub" asarida ibratli fikrlarni keltirib o'tadi. Haqiqiy xonanda va sozandalarga, soz va cholg'ularga yuqori baho beradi va ularni juda chiroyli

o‘xshatishlar bilan ta’riflaydi. Shu bilan birga, sayoq yuruvchi qo‘shiqchi va sozandalarni, ya’ni, san’atni pulga sotuvchilarni keskin qoralaydi [4, 87].

“Shodlik keltiruvchi xonanda, g‘amni tarqatuvchi sozandaga dard-u hol ahli (dard - oshiqlik, hol - ishq tufayli behud bo‘lish) uchun jon fido qiladilar. Ular muloyim tarona bilan kuylasalar, eshitguvchining naqd joni fido bo‘lsa ne ajab. Ko‘ngil xush ohangdan quvvat oladi. Ruh esa xush ovozdan quvvat oladi. Ovozi yoqimli bo‘lsa, dard ahlining ishq o‘ti alanga oladi, agar malohatli bo‘lsa, hol ahli o‘rtasida qiyomat ko‘tariladi. Har sozanda dardmanroq chalsa, uning nag‘masi dardli yurakka qattiqroq ta’sir qiladi. Go‘zal yuzli xonanda yoqimli ovoz bilan kuylasa, dard ahlining ko‘ksidan tutun chiqib ketadi. Fahm-farosatli sozandaning ijrosi tosh ko‘ngilni ham eritib yuboradi. O‘zi chalib, o‘zi kuylasa, ko‘ngil mulkiga qo‘zg‘olon soladi” [5,38].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy nafaqat dunyo yoki inson, balki musiqa, san’at falsafasini ham chuqur anglab yetgan tom ma’nodagi faylasuf shoir bo‘lgan. Uning boy merosi tilshunos, adabiyotshunoslar bilan bir qatorda faylasuflar uchun ham boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

- 1.Navoiy, A. (2018). Mahbub ul-qulub. (Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil). Sano-standart, 38.
- 2.Navoiy, A. (1998). Mukammal asarlar to‘plami. (14-tom). Fan, 27.
- 3.Hasanov, B(tuzuvchi). (1992). Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. Fan, 242.
4. Abdujabborova, X. (2022/2). O‘zDSMI xabarlari. ISSN: 2181-8932, 87. www.dsmi.uz
- 5.Ibrohimov, O. (2019/2). O‘zbekiston: til va madaniyat. ISSN 2181-922X. ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.uz

NAVOIY IJODIDA AYOL SIYMOSI

D.A.YUSUPOVA,
TDSHU Sharq mamlakatlar adabiyoti
va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası o‘qituvchisi
(998)99.305.10.08
[**din_ara61@mail.ru**](mailto:din_ara61@mail.ru)

Annotatsiya

Maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodidagi ayol fazilatlarining ajoyib namunalari, mutafakkir tomonidan ularga berilgan yuksak ta’riflar, shuningdek, Navoiyning ayol qadr-qimmatiga munosabati tasvirlangan

Kalit so‘zlar: Shirin, Mehinbonu, adolat homiysi, avliyo ayollar, ayolga munosabat, “Nasoyim ul muhabbat”, “Xamsa” dostoni.

Аннотация

В статье описываются прекрасные образцы женских качеств в творчестве великого мыслителя Алишера Навои, высокие определения, данные им мыслителем, а также отношение Навои к достоинству женщины.

Ключевые слова: Ширин, Мехинбану, покровительница справедливости, святые женщины, отношение к женщине, «Насаимул Мухаббат», эпос «Хамса».

Abstract

The article describes excellent examples of feminine qualities in the work of the great thinker Alisher Navoi, the high definitions given to him by the Thinker, as well as Navoi's attitude to feminine dignity

Key words: Shirin, Mehinbonu, patroness of justice, Holy women, attitude towards a woman, epic "Nasoyimul mukhabbat", "Hamsa"

Ayol ko‘hna Sharqda hayo va ibo timsoli hisoblanadi. Ayol mavzusi poetik ifodasining yorqin namunasi buyuk mutafakkir so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodida ko‘rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o‘zining g‘azallarida go‘zal ayol siymosining takrorlanmas namunasi yaratgan. Mutafakkir g‘azallarida ayol timsoli yuksak hurmat cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Uning g‘azallarida ayolning jamiyatdagi o‘rni, qalb tug‘yonlari nazm ipiga marjondek tiziladi, nasriy va nazmiy asarlarida yaratilgan ajoyib obrazlari orqali insonparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi.

Navoiy asarlarida ayol obrazining quyidagi xislatlarini ko‘rishimiz mumkin: mislsiz husn va go‘zallik (jismoniy tomondan); chuqur aql-farosat (aqliy tomondan); ilm va ma‘rifat (madaniy tomondan); davlat va mamlakat ishlarida faol ishtirok (ijtimoiy tomondan); jang va kurashda bahodirlik (jangovarlik tomonidan).

Navoiy o‘z davrining mashaqqatli hayot tarzi va zulmi ostida ezilib yashagan ayollarning qaddini ko‘tarish maqsadida asarlarida ular haqidagi ilg‘or fikr va orzularni yuksak badiiy shakl va bo‘yoqlarda, o‘ziga xos badiiy vositalar ifodasida ko‘rsatib beradi. Ayollarga nisbatan hurmatsizlik qilish, ularga past nazar bilan qarash kabi yomon illatlarni tanqid ostiga oladi. Ayol atalmish nozik hilqatning betimsol obrazlarini yaratib, o‘zining hayotiy va romantik orzularini bayon qiladi.

*Qoshbirla, ko‘zing yaxshi yonog‘ing yaxshi,
Yuz birla so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi,
Yeng birla menging yaxshi saqoqing yaxshi,
Birbir ne deyin boshdin to oyoqing yaxshi.*

Navoiy yaratgan ayol siymosini uning “Xamsa” asarida mukammal ifodasini topgan. Navoiy yaratgan ayol obrazlaridan yana biri “Shirin” obrazidir. Mutafakkir uni quyidagicha ta’riflaydi:

*Qadi rux ofati chobuklik ichra,
Beli jon rishtasi nozukluk ichra...
Labidin jon tomib bisyor-bisyor,
So‘zidnn shahd oqib xarvor-xarvor.
Labldnn tomibu ohib latofat,
Yuzidin ohibu tomib malohat.*

(Uning qaddi chaqqonlikda ruhdan, beli noziklikda jon tomiriday bo‘lib, labidan juda ko‘p jonlar oqar, so‘zidan talay bollar tomar edi. Labidan chiroy, yuzndan go‘zallik oqib, tomib yotar edi.)

Shirin obrazi oqil va dono, ijodkor, vafodor, vatanparvar kabi fazilatlarga ega bo‘lgan mukammal ayol obrazidir. Alisher Navoiy tasviridagi Shirin har jihatdan go‘zal inson. Uning ma‘naviy dunyosi va uni o‘rab turgan muhit ham har jihatdan Farhodga mos, go‘zal va yuksak darajada. Shoir bu ikki badiiy timsol misolida ham o‘z davri uchun, ham o‘zidan keyingi barcha davrlar uchun ibrat bo‘la oladigan ma‘naviy go‘zal va samimiy, komil insonlar konsepsiyasini yaratadi. [1.101]

Navoiy ijodiy merosi - bebaho xazina. Navoiy o‘zining ideal ayol obrazlarini yaratar ekan, mubolag‘a va fantaziya elementlaridan ko‘p foydalanadi. U kelajakning mukammal, har yoqlama kelishgan, ruhiy-aqliy-jismoniy jihatdan kamolga etgan ayollarini kuylaydi. Lekin shu bilan

birga bularni tamomila xayolning mahsulidir, deyish ham to‘g‘ri emas. XV asrda Navoiy yashagan muhitda ham Layli, Shirinlarning ma‘lum xislatlarini, voqealarini o‘zlarida gavdalantirgan go‘zal ayollar yashagan. Ishq fojiasinipg qurboni bo‘lib ketgan fidokor va vafoli o‘zbek qizlari bo‘lgan. Navoiyga ilhom bergan real prototiplar (tiplarning jonli kamunalari) shubhasiz bu g‘amgin dostonlarni jonli ta’surot bilan sug‘organ va Navoiyning hissiyotini bevosnta o‘zlariga bog‘lagan edilar.[2.68]

Navoiy yaratgan ayollar nafaqat tashqi husn bilan, balki, o‘z aql va farosatlari bilan ham ajralib turadilar. Ularning jamiyat bilan munosabatlari, atrofdagilar bilan muomala madaniyatlari, savolu javoblari, muhokama va mulohazalari buning yaqqol dalilidir.

Shunday ayollardan biri Mehinbonu hisoblanadi. Mehinbonu adolat homiysi, buyuk iste’dod egasi sifatida ta’riflanadi. Navoiy ijodidagi ayol obrazlari ichida alohida o‘rin tutgan, oqila va adolatli bir malikaning namunasidir. Mehinbonu to‘g‘risida Navoiyning o‘zi shunday deydi:

*“Mehinbonu kamol izhor aylab,
Daqoyiqdin savol izqor aylab...[3.300]*

(Mehinbonu o‘zining aql-kamolini ko‘rsatib, nozik gaplardan savol qila boshladi.)

Yana:

*Mehinbonuki donishparvar erdi,
Bilik ahliga shohi sarvar erdi.*

(Fanparvar bo‘lgai Mehinbonu bilim ahliga yo‘lboshchi shoh edi.)

Mehinbonu o‘z davlatini aql va tadbir bilan boshqarib, mamlakatning obodonchiligi uchun qayg‘uradigan, kanallar, ariqlar, qasrlar yasash uchun keng ko‘lamda ish olib boradigan jonkuyar obraz. Mehinbonuga shunday ta’rif beriladi:

*...Ki bu kishvardakim rashki jinondir,
Bukun ismatpanohi hukmrondur
...Agarchi soya solmas boshig‘a toj,
Va lekin tojvarlardin olur boj,
Belin garchi kamar topmay kamohi,
Vale zarrin kamarlardur sipohi.
Bu yanglig‘durki fahm ettning sifotin,
Mehinbonu debon davr ahli otin.
Bu kishvar ichra o‘ttuz-hirh ho‘rgon,
Bari ko‘k hisnidin burjin oshurg‘on...
Aning hukmidadur bemehnatu — ranj*

To'la har erda Qorun ganjidek ganj.

(Jannatlarning rashkini keltiradigan darajada go'zal bo'lgan shu mamlakatda bir ismatli — nomusli ayol hukmdordir. Garchi u katta xoqonlarday boshiga toj qo'ymasa ham, ko'p toj egalari unga boj berib turadilar. Garchi u erkaklarday beliga kamar bog'lamasa hamki, uning sipohlari o'rtasida juda ko'p oltin kamarli xizmatkorlari bor. Mana sen eshitib fahmlaganing shu sifatlarga ega bo'lgan kishini odamlar Mehinbonu deb yuradilar. Shu mamlakatda o'ttiz-qirqta katta qo'rg'on bo'lib, ularning gunbazlari osmonning qal'asidan ham balandga ko'tarilganlar. Qorunning xazinasiday xazinalarga to'lgan hamma erlar osongina uning qo'liga tushganlar.)

"Sab'ai Sayyor" asaridagi chang chaluvchi Dilorom timsoli, vafodor ayol qiyofasi o'ziga xos, usta san'atkorligi go'zal ko'rinishlar orqali ifodalab beradi.

Dilorom obrazi Bahrom Go'rning Navoiyning salaflari ijodida Ozoda va Fitna nomlari bilan talqin etilgan sozanda kanizagiga borib taqalsa-da, Diloromning sozanda, dono, oshiqligini nazarda tutsak va muallifning dostonidagi ishoralariga e'tibor beradigan bo'lsak, donolik, go'zallik va musiqa homiysi – sa'di asg'ar nomini olgan Zuhra (Venera-Afrodita-Ishtar) timsoli mujassamlashganligini ko'rishimiz mumkin. Bu obraz shumer xalqining homiysi, muhabbat va go'zallik ilohasi Inanna qiyofasida dunyo yuzini ko'rgan bo'lib, Bobilga Ishtar shaklida o'zlashdi. U Misr tamadduni orqali yunonlarda Afrodita, Rimda Venera nomi bilan shakllandi. Yunon-ellin madaniyati ta'siridagi xalqlarga Anaxita, islom Sharqida Zuhra sayyorasi, oshiqlar homiysi, Tong va Tole' yulduzi timsolida yashab qoldi.

"Saddi Iskandariy" dostonidagi Chin go'zali Lubatiy Chiniy obrazi ham jasur, kuchli, mard, janglarda o'z matonati bilan dushmanlarga qarshi mardonavor kurashib, faqat g'alaba qozongan mukammal qahramon ayol timsolidir. Alisher Navoiy yuqoridagi kabi ayollar obrazini yaratish bilan oldiga muhim ijtimoiy muammolarni qo'yadi. Shoirning besh asr avval orzu qilgan o'y va istaklari bugun ozod va obod mamlakatimizda o'zi jobatini topmoqda. Bugun yurtimizda ayollar qadrtopgan. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etib, o'zlarining go'zal ma'naviyati, bilim va ma'rifati bilan millatimiz sha'nini, yurt ravnaqini ko'tarishga katta hissa qo'shmoqdalar.

Qadim-qadimdan ayol tabiatning noyob xilqati, go'zallik, sevgi-muhabbat, matonat va sadoqat ramzi sanab kelingan. Buni bizgacha etib kelgan qadimiy rivoyatlar, ertak va afsonalar, buyuk allomalarimiz

asarlarida ayol siymosiga, uning suvratiyu siyratiga chizilgan tavsiflar misolida ham ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, buyuk bobokalonimiz, g‘azal mulkining sultoni bo‘lmish Mir Alisher Navoiy asarlarida Sharq ayollarining barcha go‘zal fazilatlarini o‘zi fudasini topgan. Ayol haqida fikr yuritar ekan, Navoiy "Mahbubul-qulub" asarida shunday yozadi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan.

Husnli bo‘lsa – ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa – jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan baxtga erishsa, g‘am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard alamda ham dardkashga ega bo‘ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u, teskari aylanuvchi falakdan boshingga gar balo kelsa, ko‘makdoshing u. Ko‘nglingga g‘am yuzlansa, u hamg‘amnok, badaningga xastalik va zaiflik etishsa, uning ham joni halak".

O‘tmishning chirkin aqidasi bo‘yicha, "aqli kalta", "ojiza", "zaifa", "erning quli" deb tan olingan ayol - ona Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarida buyuk zot darajasida ko‘rsatiladi:

*Onalarning oyog‘i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar ersang,
Bo‘l onaning oyog‘i tufrog‘i.*

Alisher Navoiyning adabiy ijodi bitmas tunganmas xazinadir. Uning "Nasoyim ul muhabbat" asari boshqa asarlari kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy mazkur asarda avliyo ayollarga alohida urg‘u beradi. Ayol shoirlar haqidagi "Tazkirat un-niso" asari adabiyotimiz tarixidan bizga ma‘lum. Ammo avliyo ayollar haqidagi tazkiralar juda ozchilikni tashkil qiladi. Shu jihatdan Navoiyning 770 ta shayhga bag‘ishlangan "Nasoyim ul muhabbat" tazkirasini alohida ajralib turadi.

Alisher Navoiy qurdobalik Fotima binti Musonnaga alohida ehtirom bilan yozgan. Fotima binti Musonna Qur‘onning «Fotiha» surasini tasxir qilgan (bo‘ysundirgan), duolari mustajob, karomat sohibi bo‘lgan. Ibn Arabiy uning xizmatini qilgan va bu haqda «Futuhoti Makkiya» kitobida qayd etib, uni «butun er yuzi aholisi uchun Alloh tomonidan jo‘natilgan rahm-shafqat» deb ta‘riflagan. Fotima Ibn Arabiyning ma‘naviy «onasi» bo‘lgan. Adabiyotshunos O.Jo‘raboyevning ta‘kidlashicha, Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida keltirgan voqea Ibn Arabiyning «Futuhot» asaridagi «Oshiqlarning turli hollari haqida anglatilgan voqealar» faslida batafsil keltirilgan va Fotimaning

haqiqiy ishq ichidagi holati bayon etilgan. A.Shimmelning e'tirof etishicha, Ibn Arabiy so'fiy ayollarga hurmat-e'tiborda bo'lgan.

Ko'pchilik ayol avliyolarga ta'rif berganda Navoiy ularni qaysi shahardan ekanligi, kimlar bilan suhbat qurganligi hamda ular hayotidan bir yoki ikki hikoya, ayrimlarida esa she'riy bayt ham keltirib o'tadi. Masalan Navoiyning Rayhonai Volihaga bergan quyidagi ta'rifiga diqqat qaratamiz: *“Basraning mu'ta'abbidotidin ermish. Solih Murriy rahimahullohu taolo ayyomida bu abyotni yoqasi o'llig'a bitib erkandur. “Sen munisim, himmatim va sururimsan, qalbm sendan boshqani sevishni istamaydi. Ey azizim, himmatim va murodim, shavqim ado bo'lmas, qachon diydoringga musharraf bo'laman? Maqsadim jannat ne'matlari emas, faqat seni ko'rmoqni orzu qilaman.”* Bu erda Rayhonayi Voliha Allohga bo'lgan muhabbatini yuqoridagi bayt orqali bildirayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Shunday qilib Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat” asari bizga nafaqat shayxu mashoyihlar, balki avliyo ayollar haqidagi bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Dilorom Salohiy. Navoiy nazmiyoti. Samarqand-2013.
2. Maqsud Shayxzoda. Asarlar. Olti tomlik. G'azal mulkingning sultoni. 4-tom. – T.:1972.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-jild. T.:2001
4. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari / Mas'ul muharrir N. Komilov. – T.: Sharq, 2004.

NAVOIY LIRIKASIDA “NAG‘MA” ISTILOHI

**Murodxoja MUXTOROV,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi
tadqiqotchisi**

Annotatsiya

Ushbu maqola she'riyat sultoni Alisher Navoiyning nazmiy asarlarida kelgan musiqiy istilohlar vositasida yaratilgan baytlar mazmuni, badiiy tasvir usuli va lirik chekinishlar “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti misolida tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: musiqiy istiloh, navo, nagʻma, kuy, ohang, vazn, qofiya, usul, sheʻr, bayt, badiiy tasvir.

Аннотация

В данной статье анализируются содержание стихов, способ художественного изображения и лирические отступления, созданные средствами музыкальных реформ в поэтических произведениях султана поэзии Алишера Навои на примере сборника «Хазойин ул-маони».

Ключевые слова: музыкальный стил, наво, песня, мелодия, вокализ, ритм, рифма, прием, стихотворение, стих, художественный образ.

Annotation

This article analyzes the content of poems, the way of artistic representation and lyrical digressions created by means of musical reforms in the poetic works of the Sultan of poetry Alisher Navoi on the example of the collection "Khazoyn ul-maani".

Key words: musical style, navo, song, melody, vocalization, rhythm, rhyme, reception, poem, verse, artistic image

Soʻz mulking sul-toni, sohir qalam sohibi Hazrat Alisher Navoiyni sheʻriy asarlarini oʻqir ekanmiz, ularda musiqaga dahldor soʻz va istilohlar talaygina ekanligiga guvoh boʻlamiz. Ulugʻ shoirning “Hamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Lison ut-tayr”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Majolis un-nafois”, “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” kabi durdona asarlarida ham oʻsha davr sanʻat namoyandalari, musiqa yaratuvchilari, sozanda va honandalar, musiqa ilmiga tegishli muhim maʼlumotlar va fikr-mulohazalarini bayon etganlar. Xususan, shoirning sheʻriy asarlarida **cholgʻu asboblari nomlari:** chang, ud, qonun, tanbur, tor, dutor, nay, naqqora, nogʻora, gʻijjak, qoʻbiz, chogʻona, barbat, karranoy (karnay); **kuy maʼnosini bildiruvchi atamalar:** naqsh, nagʻma, navo, qoʻshuq, surud, savt, peshrav, kor, amal, parda, lahn, ohang; **musiqa yaratuvchilari nomlari:** bastakor, pardasoz, navosoz, nagʻmasoz, nagʻmapardoz, ohangsoz; **musiqa ijrochilarini anglatuvchi atamalar:** mugʻanniy, mutrib, nagʻmakash, nagʻmagʻoz, ohangnavoz, ahlinavo, ahli soz, ahli nagʻma; **maqom kuy nomlari:** Ajam, Bayot, Navo, Iroq, Rost, Chorgoh, Hijoz, Husayniy, Husraviy; **musiqa sanʻati bilan bogʻliq tarixiy va afsonaviy shaxslar:** Fisogʻurs (Pifagor), Borbad, Sikandar (Iskandar), Masiho (Iso), Dovud, Zuhro (Venera yulduz), Jomiy, Yusuf, Yaqub, Xoja

Kamol, Xoja Yusuf Burxon va mahalliy joy nomlarini juda ko‘p va xo‘p ishlatganliklarini ko‘ramiz.

Temuriylar davrida musiqa ilmi rivoj topib, o‘zining kamolot cho‘qqisiga ko‘tarildi va bu o‘z navbatida musiqiy istilohlarni ham qaror topishiga sabab bo‘ldi. Shu o‘rinda Alisher Navoiy asarlarida kelgan musiqiy istilohlar vositasida yaratilgan badiiy tasvir orttirilgan baytlardan namunalar keltiramiz.

*Navoiy aytsa abyot ul oy mehrinda,
Kerakki, nag‘masi bo‘lsa, bayotiyu mohur*

Xazoyin ul-maoniy

*Qilsa navozandalar ohangi rud,
Ahli g‘ino tortsa dilkash surud.*

Hayrat ul-abror

*Chek navo, ey bulbuli gulzori shavq,
Savtu alhoning kelib asrori shavq.*

Lison ut-tayr

*Mug‘anniy, surudi harifona chek,
Bir un birla turmog‘il yona chek!*

Saddi Iskandariy

*Savti noqisu navoi arg‘anun,
Shayx dini motamig‘a tartib un*

Lison ut-tayr

*Mug‘anniy, tuzat nag‘mai rexta,
Ani qil o‘zing bila omexta.*

Saddi Iskandariy

*Furqat ichra Navoiy ul gulsiz,
Bulbuldurki, yo‘q navo anda.*

Xazoyin ul-maoniy

Sharq allomalarining fikricha kuy, musiqa, ohang, ya‘ni nag‘malar nafaqat ruhning ozuqasi, balki ruhning o‘zidir. Buyuk shoir va sozanda Najmiddin Kavkabiyy musiqani abadiy ruh deb shunday ta‘riflaydi:

*Nag‘ma –inson qalbidagi ruh erur,
Go‘zal ovoz unga pinhoni hamroh erur.
Desalar ovozdin jonga hamroh,
Degil jon hamroh emas, o‘zi jon erur.*

Ulug‘ kitoblarda, [3.91] donolar bu musiqiy nag‘malarni – tanburda chalingan, og‘izda aytilgan qo‘shiq va ohanglarni osmonlarning aylanishidan oldik, degan edilar. Osmonlarning aylanishidan olingan

bunday musiqiylikni fan sifatida o‘rgangan allomalar Abu Nasr Farobiy (870-950) va Abu Ali ibn Sino (980-1037) ilmiy qarashlarini rivojlantirib, musiqiy ilmni o‘rganishni ikki qismga bo‘ladilar.

Ilmi ta’lif. (musiqiy tovushlar - nag‘malarni o‘rganuvchi fan), hamda
Ilmi iyqo (musiqiy ritm, ohang vaznlarini o‘rganuvchi fan).

Bayt:

*Ilmi advoru fanni musiqiy,
Mendin ul ilm ahli tahqiqiy*

Bayt mazmunidan bilsak bo‘ladiki, bu fanlarni yaxshi bilgan ulug‘ Navoiy ham o‘z ustoz Abduraxmon Jomiydan musiqiy risola yozishni iltimos qiladi. Risola tayyor bo‘lgach, unga Navoiy yuksak baho berib “bu fanda (musiqashunoslikda - M.M.) andoq munaqah va mufid (toza va foydali-M.M.) risola yo‘qtur” deydi. Jomiyning “Risolai musiqiysi”da bu fanning muhim qirralari sodda, ifodali usullar bilan tushuntirib beriladi. Quyida “nag‘ma” istilohi bilan bog‘liq fikrlarimizni bayon etamiz. “Nag‘ma” istilohi arabcha so‘z bo‘lib, ohang, kuy, maqom yoki sayrash, ko‘plikda esa nag‘amot, nag‘am – kuylar, nag‘malar, ohanglar, ma’nosida keladi. [6.457]

Bayt:

*Navoiy savti ishq aqlin qilur hush,
Tong ermas qilsa dard ahlin nag‘am shod.*

“Xazoyin ul-maoniy” Navodir ush-shabob 123

Chunonchi, “nag‘ma” istilohini izohlashga risolada katta o‘rin berilgan. Bu istiloh zavotul nag‘ma (ohang - nag‘ma paydo qiluvchi) cholg‘ulardan hosil bo‘ladi. “Nag‘ma” deb shunday ovozga aytiladki, uning bir zamon o‘zanib turishi his etiladi. “Bu qayd daf (childirma) va kaf (chapak, qarsak) kabi urilganda chiqadigan ovozi nag‘ma deyilmaydigan – g‘ayrilahniya (kuy bo‘la olmaydigan) niqralardan ixtiroz (ajratib olish) uchundir”, deya ta’rif berilgan. [8.49] Bu davom etishi his etilgan, tinglovchini o‘ziga moyil etgan, keskinlik va salmoq (hiddat va saqih) xususiyatlarga ega tovush nag‘ma bo‘lar ekan. Bu istiloh hozirgi zamon musiqashunosligimizda “ton” istilohiga mos tushadi.

Demak, musiqiy olimlarning fikriga ko‘ra, tovushlarning paydo bo‘lib, bir oz cho‘zilib turishi nag‘madir. Nag‘ma ma’nosidagi kuyni chiqarish uchun, albatta, cholg‘uni chertish kerak. Shu chertish nag‘maning boshlanishi bo‘ladi. Uni “niqra” deb ataydilar. Kuyda bir-biriga bog‘lanib kelgan niqralarni “tan” shaklida bo‘lganini “hafif”, “tana” shaklida bo‘lganini “saqiyl”, “tanan” shaklida bo‘lganini “vatad”, “tananan” shaklida bo‘lganini fosila deb ataydilar. Shu shakllarda

bog‘langan niqralar bir tartibda yig‘ilib, musiqiy usullar hosil bo‘ladi. Masalan, “tan-an-tan-an tan” (fa‘ulun, fa‘ulun) vazniga xazzaj usuli, “tan-tanan, tan-tanan” (foilon, foilon) vazniga ramal usuli deyiladi. [7]

Donishmand shoir asarlari bo‘ylab go‘yo durdek sochilgan musiqiy istilohlar shunchaki “lirik chekinish” maqsadida emas, balki, muayyan fikr, g‘oyaning eng muhim nuqtasi, ba‘zan botiniy xulosasi tarzida nomoyon bo‘ladi. Xususan, Fariduddin Attorning “Mantiqut-tayr” asariga javob tarzida yozilgan. “Lison ut-tayr”- falsafiy dostonida shunday satrlarni o‘qiymiz:

*Bo‘lsa lahnu nag‘mada ogohlig‘,
Behki toat vaqtida gumrohlig‘.*

Ya‘ni, kuy-yu nag‘mani tinglaganda dargohi azalni eslab, ilk xitobdan ogoh bo‘lishlik gumroh holda qilingan toat, ibodatdan-da yaxshiroqdir, -deydi ulug‘ alloma.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti she‘rlar miqdori jihatdan ham, g‘oyaviy–badiiy ko‘lami jihatidan ham Sharq mumtoz she‘riyatining yuksak namunasi hisoblanadi. Ular vazndosh va qofiyadosh bo‘lgan ikki misradan iborat mustaqil she‘r shakli – baytlardan iborat. Quyida, aynan “nag‘ma” istilohi ishtirok etgan baytlardan namunalar keltiramiz.

*Nasib bulbul uchun xori g‘amdurur, ul ham
Navoiy nag‘mai birla magar tarona qilur
G‘.S. 181*

*Qora nargis ko‘zu gul yuz bila gar sen kebi yo‘q,
Bulbule men kebi yo‘q nag‘masaro, ey qorako‘z
G‘. S. 218*

*Mug‘anniy nag‘masi jon bersa bazm ahlig‘a tong yo‘qkim,
Navoiy rishtai jonin eshib changiga tor etmish
G‘. S. 243*

*Yusufim hajrida Ya‘kub g‘am ichra mutribo,
O‘yla menkim, xushlug‘um yo‘q nag‘mai Dovud ila
G‘. S. 538*

*Mug‘anniy bir navoe tuz, Navoiy nag‘mae ko‘rguz,
Ayoqchi, tomsa tut, to‘qquzki Doroi jahon keldi.
G‘. S. 591*

*Muncha xorij nag‘makim davri muholif ko‘rgizur,
Ey Navoiy topmadim birin boqib advorg‘a.
N. SH. 536*

Mug‘ dayri, ey mug‘anniy, hushturur va lek ichmon,

To nag'mai mug'ona bazm ichra cholmag'aysen.

N. SH. 484

*Navoiy o'ldi guli hamdu shukringa bulbul,
Ani bu bog' aro lutf aylab, ayla nag'masaroy*

N. SH. 575

*Maoniy ahli gohi nukta uzra qilu qol etti,
Tag'anniy hayli nag'ma ichra gohi zeru bam chekti*

N. SH. 606

*Shohlig'din or etar, chunkim Navoiy kirsam mast
Dayr ko'yig'a, surudi nag'mai mastona deb.*

B. V. 64

*Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,
Dilbarimdin nag'ma soz etsang, surudi noz tuz.*

B. V. 220

*Ishq bazmig'a netib bormag'aymen, chunki meni
Tortadur ul sari yuz tor bila nag'mayu chang.*

B. V. 336

*Ey Navoiy, navha ohangida ko'p qilding fig'on,
Emdi majlis mutribi bu nag'mani cholg'ancho qil.*

B. V. 375

*Mug'ona nag'ma birla mug'bacha may tutti ollimda,
Chu bir irshodi birla sog'ini dayri fano bo'ldim*

B. V. 418

*Eu Mug'anniy, baski yig'latgaysen elni bazm aro,
Gar Navoiy ohi birla nag'mani soz etkasen*

B. V. 495

*Toriqdim xonaqahdin, xushturur mayxonakim, anda
Ayoqchi jomi may tutqay, mug'anniy nag'ma soz etkay.*

B. V. 613

*Bizni zor etti bu ra'no mutrib,
Nag'ma birla tarabafzo mutrib.
Nechakim Nag'ma chekib Dovudday,
Damda andoqki, Masiho mutrib.
Zuhra to nag'masarodur andoq,
Bo'lmadi davrada paydo mutrib.*

F. K. 63

*Ey Navoiy, zabt qilmon o'zni xijron bazmida,
Qilmasam tong yo'q surudu nag'mai hijronni zabt.*

F.K. 281

*Keltirur raz qizin, soqiy, mug‘anniy, nag‘mae tuzgil
Ki, ul ko‘ktin keturgay Zuhroni afg‘ong‘a mizrobing.*

F. K. 360

*Mug‘anniy nag‘masidin toza bo‘lmas, ey Navoiy ruh,
Agar zeb etmasa la‘lig‘a ruhafzo kalomimdin.*

F. K. 461

*Ey mug‘anniy bir navoe dilkusho tuzgilki, chang
Rishtai nag‘manga bog‘labtur sarosar ko‘nglini*

F. K 610

*Bazm ichra nekim turfa, mug‘anniy bori dilkash,
lekin bori tarso,*

*Ham nag‘malari olibon el ko‘nglidin orom
ham changu chag‘ona...*

F. K. “Mustazod”

Yana bir nag‘mazani sohibi hol,

Ham aning hamqadami Hoja Kamol

F. K. “Soqiynoma” 30

Yuqorida keltirilgan she‘riy misralardan ma‘lum bo‘ladiki, maxsus musiqiy istilohlar musiqiy ijod jarayonini to‘laqonli tasvirlashda juda muhim, badiiy ahamiyatga egadir. Hazrat Navoiy har bir musiqiy istilohni ma‘lum zaruriy maqsadlarda qo‘llaydi. Quyidagi navo, nag‘ma istilohlari ishtirokidagi she‘riy misralarni ko‘rib chiqaylik:

So‘zda, Navoiy, ne desang chin degil,

Rost navo, nag‘maga tahsin degil.

Bu she‘riy misradagi “navo”, “nag‘ma” istilohlari kuy, ohang ma‘nolarida kelib, “Rost” so‘zi bilan uyg‘unlashgan holda ajoyib haqiqatni bayon etmoqda. Buyuk Navoiy rostlikni “vujud uyi”, ya‘ni borliqni muvozanat va mutanosiblikda tutib turuvchi ustun, insoniyat qalbini yorituvchi sham deya ta‘riflaydi. Zero, Ollohning bir ismi Haq, ya‘ni rostlik (chin, haqiqat)dir. Shoir rostlikning ahamiyatini musiqiy tashbehlar orqali tasvirlab, kuyga, ohangga chorlamoqda. So‘z mulking sultoni hayotda har doim haqiqatni aytishni ta‘kidlab, Haq yo‘lidagi kuyga, nag‘maga ofarinlar aytmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy A. (1990). *MAT*, 20 tomlik, T, “Fan”
2. Rahmonov V. (1983) *O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at*, “O‘qituvchi”

3. Rumiyy J. (2010) *Qalb ko 'zingni och*. "Sanno-standart" T.
4. Salohiy D. (2005) *Navoiyning she'riy uslubi masalalari* T, "Fan"
5. Haitmetov A. (2015) *Navoiy lirikasi*, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi N. Jumaxo'ja, T, "O'zbekiston" NMIO'
6. Shamsiyev P, Ibroximov S. (1977) *Navoiy asarlari lug'ati*
7. Shodmonov N. (1995) *Temuriylar davrida musiqashunoslik*, T, "Hazina"
8. Shodmonov N. (1998) *Navoiy: "Andoq risola yo 'qtur"* Guliston jurnali, 3-son

ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDAGI SUQROT OBRAZI GENEZISI

Nafisa RAXMANOVA,
CHDPU o'qituvchisi, nafisa@cspi.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon adabiyotida Suqrot hayotiga bag'ishlangan tarixiy va badiiy asarlar, Nizomiyning "Iqbolnoma" va Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlaridagi Suqrot obrazlariga tavsif berilgan. Voqealar rivojida Suqrot obrazining tutgan o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Suqrot, Ksenofont, Platon, Aristotel, "Iqbolnoma", "Farhod va Shirin", zohid, piri komil, payg'ambar, nabiy, mantis.

Аннотация

В данной статье описываются историко-художественные произведения, посвященные жизни Сократа в мировой литературе, образы Сократа в эпосах Низами «Икбалнама» и Алишера Навои «Фархад и Ширин». Раскрывается роль образа Сократа в развитии событий.

Ключевые слова: Сократ, Ксенофонт, Платон, Аристотел, «Икболнама», «Фархад и Ширин», аскет, пири камиль, пророк, мантис.

Abstract

This article describes the historical and artistic works dedicated to the life of Socrates in world literature, the images of Socrates in the epics of Nizami "Ikbalmam" and Alisher Navoi "Farhad and Shirin". The role of the image of Socrates in the development of events is revealed.

Key words: Socrates, Xenophon, Plato, Aristotle, "Ikbolnama", "Farhad and Shirin", ascetic, piri kamil, prophet, mantis

Hakimlar va yunon faylasuflari Sharqda yaratilgan "Xamsa" larning, xususan, Iskandarga bag'ishlangan dostonlarning an'anaviy obrazlari sirasiga kiradi. Yunon faylasuflarining qarashlari islomiy dunyoqarashga muvofiq kelgani, Suqrot, Platon va Arastuning komil axloq haqidagi o'g'itlari tasavvuf g'oyalari bilan bir xil bo'lgani, bu hikmatlar islomga xizmat qiladi, deb hisoblaganliklari uchun ularni musulmon qilib tasvirlash tendensiyasi X asrlardan boshlangan. Qadimgi hind, fors, musulmonlar tafakkuri mahsuli bo'lgan hikmatlar ham ularga nisbat berila boshlangan. "Natijada,- deb ta'kidlaydi iskandarnomalardagi yunon faylasuflari genezisini o'rgangan navoiyshunos olim Ilyos Ismoilov,- ular xamsanavislikka musulmon qiyofaga ega obrazlar sifatida kirib keldi, ya'ni Navoiy va Nizomiyga qadar yunon donishmandlari haqidagi tasavvurlar islomiy tus olib ulgurgan. Shu bois Nizomiy va Navoiyning bu obrazlarga doir talqinlari asosini sharq manbalari, xususan, forsiy andarzlar va arab hikmat adabiyotidan qidirish mantiqli" [2, 113]. Suqrot, Aflotun va Arastu bu obrazlar orasida eng faollari hisoblanadi.

"Iskandarnoma"da Iskandarning xilvatda yetti hakim bilan olamning asosi haqidagi suhbat va hind donishmandlari bilan savol-javobi; Arastu, Aflotun va Suqrotning uning uchun maxsus yo'riqnomalar bitishi voqealari Iskandarning donishmand sifatida kamolotga erishuvi, shuningdek, olimlarning mamlakat taqdiriga ta'sirini ko'rsatish uchun kiritilgan. Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri ila charog'on bo'ladi. Ularning davrasini adib shunday ta'riflaydi:

*Yetti pargor edi shoh tegrasida,
Ul esa nuqtadek, eng o'rtasida.
Ajab davra edi, shu kuchli, porloq,
Kibrdan xoliyu bodadin yiroq... [3,139]*

Bir kuni Iskandar uyqudan uyg'onib, Suqrotni huzuriga keltirishlarini buyuradi. Xilvatda zohidona hayot kechiradigan Suqrot ikki marta shohning taklifini rad etadi. Bora olmasligining sabablarini birma-bir sanaydi: 1) yaxshi-yomonni ajrata oladigan aqlim saroyga bormasligim kerakligini aytmogda; 2) shohning ko'nglida va so'zlarida menday zohidga mehr yo'q; 3) inson ostonasida turgan Jabroil bilan o'ynashmaydi; 4) shohning mahramlari kambag'al insonga do'stona nazar solmaydi, ular dengizdagi dur-u javohirni yutishga tayyor nahanglarga o'xshaydi; 5) shoh xizmatidagi insonning tili shirin bo'lishi kerak, mening kabi tili achchiq

inson shoh g'azabiga duchor bo'lishi shubhasiz; 6) saroyga boray desam, yo'ldagi tosh ham menga to'siq bo'ladi, o'tim oqsoqlanadi; 7) menga yomonlik qilganlar aslida o'zlariga ziyon etkazadilar, chunki:

*Menga xaloyiqdin ne sudu samar,
Haq boylaganman belimga kamar.*

Elchi uning javobini Iskandarga yetkazadi. Iskandar Suqrot yashaydigan xilvatgohga yo'l oladi, uning faqirona hayoti shohga qattiq ta'sir qiladi. "Men bilan saroyga yur, jahon tashvishidan ozod bo'lgaysan", - deydi. Suqrotning bu taklifga bergan rad javobi, beixtiyor, "Qutadg'u bilig" dostonidagi O'zg'urmish bilan O'gdulmish suhbatini yodga soladi: "Sening bug'doy noningdan mening arpa nonim shirin; bir dona somonni ko'tarsa, charchaydigan odam tog'dek yukni ko'tarishni qanday zimmasiga olsin? Sen ko'p yeguvchisan, men kam yeyman. Jahon oldingda shay misoli surfa, Har qancha yesang-da, to'yaysan sira. Issiqda ham, sovuqda ham korimga yaraydigan bir jandam bor. Sening ustingda to'nlarining qavat-qavat..."

Suqrot har jihatdan komil pir va ustod sifatida shohga maslahatlar beradi. Iskandarga o'zi yasatgan ko'zguga hech qachon zang qo'ndirmasligini uqtiradi. So'ngra turli xil diniy va dunyoviy masalalarda savol-javoblar bo'lib o'tadi. "Achchiqlanma, magar gapirdim achchiq, Aytarimni shirin aytmadim ortiq. Kuyik qalbim meni tark etmish edi, Sayr etgali samoga ketmish edi. Osmondin zaminga qaytdi bu ko'ngil, U yoqdin senga deb keltirgani shul...", - deydi Suqrot suhbat so'ngida. Shoh saroyga qaytadi va Suqrotning nasihatlarini oltin harflar bilan qog'ozga yozdirib qo'yadi [5,112-125].

Nizomiy uchun ham, Navoiy uchun ham Suqrot donishmandlik, zohidlik, kamolot timsoli edi, shuning uchun har ikkala "Xamsa" da Suqrot obrazi Iskandar va Farhodning ustoz, piri qilib tasvirlangan. Nizomiy Iskandarga rahnamo qilib zohid Suqrotni tanlar ekan, tarixiy Suqrotning zohidona hayoti va bashoratchilik qobiliyatiga asoslangani shubhasiz. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida esa Suqrot Iskandarning dengiz safariga boshchilik qiladi. Hakimlar dengiz ilmi juda murakkab bo'lgani uchun hikmat ahlining ustoz bo'lgan Suqrotni yo'l boshchi qilishni va uning fikrlariga quloq tutishni maslahat beradilar. Ikkinchi safarning so'ngida Iskandar qalbi poklanib, dengiz tubidagi mo'jizalarni pardasiz ko'ra olish darajasiga erishadi.

"Farhod va Shirin" dostonida Suqrot aqlga o'xshatilgan, chunki tarixiy Suqrotning e'tiroficha, aql inson ongi mazmunini belgilab beruvchi oliy instansiyadir. Aql- turli bilimlarni vujudga keltiruvchi manba. Bilim

tashqaridan tayyor holda qabul qilinmaydi, inson uni o'zining xatti-harakati bilan qo'lga kiritadi. Bahs-munozaralar jarayonida inson suhbatdoshining fikrlarini tahlil qiladi, zarurlarini o'zida saqlab qoladi, ortiqchasini chiqarib tashlaydi. Shunday yo'l bilan haqiqatga erishiladi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok, ruhi toza shaxs sifatida ko'rsatadi. U kamolot cho'qqisini egallagan komil inson, o'zi bir joyda o'tirsa ham ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko'zgusi ham uning ko'ngil ko'zgusi oldida xira. U Farhod bilan bo'lgan suhbatda uni xuddi o'z farzandiday ko'radi, chunki bu yigit timsolida u o'z sulukining (yo'lining) davomchisini ko'rgan edi. Suqrot Farhodga shunday deydi:

*Muni bilkum, jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindoniydur asru.
Agar topsang Iskandar mulki zoting,
Gar o'lsa Nuh umricha hayoting. [4,179-180]*

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g'oyasini bayon etadi, ya'ni bu dunyo o'tkinchi, foniydir, shu sababli unga ko'ngil bog'lash to'g'ri emas. Haqqa yetishish yo'li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o'tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. N. Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli bo'lib, usiz Farhod o'z maqsadiga erishishi mumkin emas edi [3,186]. Nizomiy an'alarining izdoshi bo'lgan Alisher Navoiy Suqrot obrazini takomiliga yetkazdi, uning misolida tariqatda piri komil qanday bo'lishi kerakligini zamondoshlariga namuna qilib ko'rsatdi.

Afsuski, Alisher Navoiy "Xamsa"sida avliyo, piri komil sifatida ulug'langan tarixiy Suqrotning falsafiy–axloqiy qarashlari zamondoshlari tomonidan noto'g'ri talqin qilingan. D.N.Vorobyov "Сократ как пророк. Архаические черты ксенофонт-платоновского образа Сократа" maqolasida maha shu masalaga to'xtalib, qadimgi yunonlarning diniy qarashlari va udumlariga tayangan holda, Platon va Ksenofont tasvirlagan Suqrot obrazining ayrim chizgilariga tanqidiy munosabatini bildiradi. Olimning ta'kidlashicha, Suqrot ilohiy ishq haqida ko'p narsalarni biladigan va tog'ridan to'g'ri yuqori kuchlardan bilim olgan, ular tomonidan ilhomlantirilgan, folbin, tabib, shoir, diniy va siyosiy ekspert vazifalarini o'zida mujassam etgan yunon donishmandlaridan biri bo'lgan [1,49].

Suqrot haqidagi ilmiy va badiiy asarlarda mantis Suqrotga xos "ilohiy ovoz"ga ("ichki ovoz", "iblis ovozi"ga) urg'u beriladi. Ksenofont tasvirlagan Suqrot taqvodor va hurmatli fuqaro: u uyda va davlat

qurbongohlarida qurbonlik qilishning belgilangan marosimlarini bajargan, ilohiy alomat va vahiylarga ishongan, ularga amal qilgan. U insonlarga biror narsa qilishni emas, balki biror narsani qilmaslikni oldindan bashorat qilgan va nasihatlariga amal qilmaganlar qiyin ahvolda qolganlar. Platon ham Suqrotning boshqa dunyo kuchlari bilan o‘zaro ta’sirini mantika jarayoni bilan bog‘lab tasvirleydi. Platonning Suqroti butun yil davomida yalangoyoq, bitta kiyimda yuradi. Uni bu dunyo boyliklari qiziqitirmaydi, oddiy, zohidona hayot kechiradi. O‘z hayotida ilohiy irodaning doimiy mavjudligini his qiladi. Uning uchun har kuni “yaxshilik” va “yomonlik”, “mehribonlik” va “komil axloq” mavzusida bahs-munozaraga kirishish Xudoga xizmat qilishni, odamlarga haqiqatni ko‘rsatishni anglatadi. Afsuski, zamondoshlari tomonidan Suqrotning mantis sifatida e’tirof etilishi buyuk faylasufning fojiali o‘limiga sabab bo‘ldi. Suqrot xudo bilan hisoblashmaslikda, qandaydir yangi xudoni joriy etmoqchi ekanlikda va o‘zining bunday qarashlari bilan minglab yoshlarni o‘z ota-onalari gaplariga quloq solmaydigan qilib qo‘yganlikda ayblangan va odamlar axloqini “buzgani” uchun o‘lim jazosiga hukm qilingan [1,47-57].

Aslida Suqrotni payg‘ambar-mantis sifatida talqin qilish to‘g‘ri edimi? Payg‘ambar so‘zi forscha bo‘lib, “payg‘om”- xabar, “bar” etkazuvchi demakdir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Islom tarixi” kitobida shunday yozadilar: “Hozirda arab tilidan boshqa tillarda arabiy “nubuvvat“ va “risolat“ so‘zlari o‘rniga bir so‘z, ya’ni “payg‘ambarlik” degan so‘z ishlatiladigan bo‘lib qolgan. Aslida Alloh taolo Qur’oni Karim uchun ixtiyor qilgan arab tilidagi bu ikki so‘zning o‘ziga xos daqiq ma’nolari bor”. Bular quyidagilardir:1) rasul o‘ziga kelgan payg‘ambarlikni o‘zgalarga yetkazishga amr qilingan, nabiyy esa bunga amr qilinmagan. U payg‘ambarlikni boshqalarga yetkazadimi, yetkazmaydimi – baribir; 2) rasul farishtalardan ham, insonlardan ham bo‘laveradi. Nabiylik faqat insonlarga xosdir; 3) rasul yangi shariat bilan keladi. Nabiy esa yangi shariat bilan kelmay, oldingi shariatga ko‘ra amal qiladi va uni o‘zgalarga yetkazadi. 4) Alloh taolo payg‘ambarlar yuborish bilan birga, bandalarni o‘sha zotga iymon keltirish va ularga ergashishga amr qilgan. Iloji bo‘lsa, “rasul”ni “payg‘ambar” deb tarjima qilsak ham, “nabiyy”ni tarjima qilmay, o‘z o‘rnida qoldirganimiz ma’qul bo‘ladi, deb ta’kidlaydi Shayx hazratlari [6, 163-165].

Xulosa shuki, m.o.V asrda yashagan Suqrotdagi “ichki ovoz” avliyolik iqtidori edi. Bu iqtidorning missiyasi, Nizomiy va Navoiy to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bilim orqali komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Воробьев Д.Н. (2017). Сократ как пророк. Архаические черты ксенофонт-платоновского образа Сократ, Философская мысль, № 11, стр 47-57
2. Исмоилов И. (2019). Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг қиесий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертация/ Қўлёзма ҳуқуқида, 162 б.
3. Komilov N.(2009). Tasavvuf.- T.: Movarounnahr-O'zbekiston, 449 b.
4. Navoiy Alisher.(1991). "Farhod va Shirin". MAT, 20 jildlik ,8-jild. 544 b
5. Nizomiy Ganjaviy.(2017). Iqbolnoma. – T.: Extremum – press, 330 b.
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф.(2018). Ислом тарихи. 1-жуз - T.: "Hilol-Nashr". 512 б.

"XAMSA" DA BAHROM HAQIDAGI RIVOYATLAR

**Tojixon SABITOVA,
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti,
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi**

**Dilfuza ANISBEKOVA,
Gumanitar fanlar fakulteti,
2-kurs magistranti**

Аннотация

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlarida Bahrom Go'r mavzusidagi rivoyatlarni keltirilgani va bularda Bahromning ijobiy fazilatlari borligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, qahramon, mezbon, xaroba, koshona, adolat, dehqonchilik, imorat, ov, jasur.

Аннотация

В этой статье показано, что эпосы Алишера Навои "Хайрат уль-Аброр" и "Садди Искандарий" содержат повествования на тему Бахрома Гор, и что в них Бахрам обладает положительными качествами.

Ключевые слова: действие, герой, хозяин, руины, дворец, справедливость, сельское хозяйство, замок, охота, храбрый.

Abstrakt

This article shows that the epics of Alisher Navoi "Khairatul-Abror" and "Saddi Iskandari" contain narratives on the theme of Bahrom Gor, and that in them Bahram has positive qualities.

Key words: action, hero, host, ruins, palace, justice, agriculture, castle, hunting, brave.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy "Xamsa" ning to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"da Bahrom timsolini asosiy qahramon sifatida bergan. Buyuk shoir Navoiy hamma asarlarni o'rganib chiqib, salaflarning yutug'u kamchiliklarini aniqlab, shundan so'nggina o'z dostoniga yangicha rejalar tuzib Bahrom hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib haftaning etti kunida etti xil rangdagi qasrlar ichida etti musofir-darveshlarning hikoyasini xalq og'zaki ijodi pafosi orqali tinglaydigan qilib tasvirlaydi. "Xamsa"sining birinchi dostoni bo'lgan "Hayrat ul-abror" va beshinchi dostoni bo'lgan "Saddi Iskandariy" dostonlarida ham Bahrom mavzusidagi rivoyatlarni keltirgan. Shular haqida qisqacha mulohazalarimizni bayon qilsak.

Aslida tarixda o'tgan Sosoniylar sulolasidan bo'lgan "Varaxran" (doriy tilida "Bahrom" deb ataladi) eramizning 418-438-yillarida hukimronlik qilgan. U go'r-qulon, ya'ni yovvoyi eshak oviga o'ch bo'lgani uchun Bahrom Go'r laqabini olgan. U haqida dastlab Eron va qo'shni mamlakatlarda turli-tuman afsona va rivoyatlar paydo bo'lgan. Bahrom bu manbalarda shon-shavkatli podsho, mohir ovchi va ishratparast kishi sifatida tasvir etiladi. Bahrom Go'r haqidagi afsona va rivoyatlar "Xudoynamak" va "Shohnoma" lardan o'rin oladi.

Shuningdek, ayrim olimlar Bahromning badiiy obraz sifatida keng shuhrat topishini Varaxran so'zining momoqaldiraq va jang ma'budi bo'lgan Vertragna so'ziga hamohangligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar. Varaxran bilan Vertragna qadimiy rivoyat va afsonalarda bir-biriga qo'shilib, mujassamlashib ketgan deb ko'rsatadilar. I.A.Orbeli va Y.E.Bertels ta'kidlaganidek, Kavkaz xalqlari orasida ham bu timsol keng tarqalgan, uning nomi arman pahlavoni Vaxonga va gruzin qahramoni Vaxtanga obrazlarida saqlanib qolgan.

Birinchi bo'lib yozma adabiyotda Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida Bahrom Go'r haqida doston yaratdi. Albatta, afsona va rivoyat, yozma manbalardan ijodiy foydalangan xolda. Keyin Nizomiy, Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy, Kotibiy Turshiziy,

Abdulloh Xotifiy, Muhammad Avfiy va boshqalar o'z asarlarida Bahrom Go'r obrazini turli mazmunda berganlar.

Alisher Navoiygacha folklor va badiiy adabiyotda Bahrom timsoli bo'yicha katta ijodiy tajriba to'plangan, adabiy an'ana vujudga kelib, anchagina takomil bosqichlarini bosib o'tgan edi.

Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dan boshqa "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlarida ham Bahrom mavzusini bergan. Biz ushbu maqolada shu asarlardagi Bahrom timsolini tahlil qildik.

Eron tarixida bir necha Bahrom ismli podsho o'tgan. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan Bahrom ibn Yazdijird bo'lib u haqda Alisher Navoiy o'zining "Tarixi muluki Ajam" asrida ism-sharifi, faoliyati va sifatleri haqida to'xtalgan va uni "Xamsa" sining to'rtinchi dostoni bo'lgan "Sab'ai sayyor" dostonining bosh qahramoni qilib beradi.

Navoiy "Hayrat ul-abror"da shunday hikoya qiladi:

Bahrom bir kuni ovga chiqdi va o'lja ortidan quvib, bir xarobaga borib qoldi. Alisher Navoiy xaroba bu maskanni chotma - chayla, chodir deb ataydi. Hodisa toroji bu maskanni vayronaga aylantirgan edi.

Shoir ayrim o'rinlarda "hodisa toroji" so'z birikmasini qo'llaydi. Bu so'z birikmasini hodisalar sababli toroj bo'lgan, xaroba holga tushgan deb tushunish joiz.

Bahromni kutib olgan mezbon suv va qotgan non keltirdi, xizmatga kirishdi. Shoh undan bu xaroba holning sababini so'radi. Mezbon: "avval holimiz yaxshi edi, ammo shoh mayxo'rlikka berilib, hukumat ishlarini zolimlarga topshirdi, u mutriblaru (ashulachi) va maydan boshqani sevmaydi, uning odamlari esa og'zini katta ochib, mamlakatni er bilan teng qildilar", - deya javob beradi.

Shu chog' shohning ko'zi shu atrofdagi koshonaga tushdi. Hozir bu imorat vayrona bo'lgan edi. "Avval bu binoning holi qanday edi?"- deya savol qildi.

"Bu bir saroy bo'lib, tegrasi bog' bilan qurshalgan edi. Qadimiy daraxtlar, navxiz (yangi ochilgan) gullar bor edi. Yer tagidagi bir anhor (koriz)dan ikki tegirmonni aylantiradigan suv chiqar edi. Odamlar dehqonchilik qilib bu makonni obod bir qishloqchaga, balki shaharchaga aylantirdilar. Ammo to'satdan koriz quridi, dehqonchilik to'xtadi, odamlar bu erni tark qildilar. Chunki yurtda zulm kuchaydi. Zulm sababli biz shunday holga tushdik", - deya tushuntirdi mezbon.

Bu so'zlardan Bahrom qattiq ta'sirlandi. G'am qilich kabi bag'rini o'ydi. Xijolat uni o'lar ahvolga soldi. Qalbida zolimlarning jazosini berib, yurtda adolat o'rnatishga qasd qildi. Asosiysi, "Haq bila chun qildi bu niyat

durust", ya'ni niyat chog'i Xudoni guvoh sifatida o'rta qo'ydi. Shu niyat qalbidan o'tishi bilan bir kishi keldi va koriz (yer osti anhuri) yorilib, yana suv chiqqa boshlagani haqida xushxabar aytdi. Uy egasi Allohga hamd aytib: "hozir shohimiz zulmni to'xtatib, adolat o'rnatishga qalbi bilan to'g'ri niyat qildi. Ana shuning xosiyati bilan qurigan ariqqa suv qaytib chiqdi", deydi.

Shohga bu so'z juda katta saboq bo'ldi va ortga qaytib, ishlarini adolat mezonini bilan yurita boshladi.

Ushbu hikoyatdan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Tarixda mamlakatning obod va farovon bo'lishida saltanat sultonining o'rnini o'ta muhim hisoblangan.

2. Alisher Navoiy adolatni ilohiy lutf deb bilgan. Shohning adolati so'zida emas, balki avvalo qalbida uyg'onishi kerak. Agar Sulton adolatni chin dildan Alloh uchun qasd qilsa, niyati rost va to'g'ri bo'lsa, unga Xudoning o'zi har ishda madadkor bo'ladi, ishlarini osonlashtirib, yo'lini ochadi. [Навоий А.2021.438-441]

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida boshqa rivoyat haqida quyidagicha Bahrom haqida ma'lum qiladi:

Bahromi go'r hikoyatikim, uch olachuq eliga mehmon bo'ldi, ikisi ifrot va tafrit ko'rguzub, muxotab va mat'un bo'ldilar va birisi adolat tariqidin Qorun

Erur naqlkim, shoh Bahrom go'rl,

Magar sayd uchun surdi bir kun sutur.

Ul ov ichra tushti sipahdin yiroq,

Ani bir qulon soldi eldin qiroq.

Chopib erdi ko'p shohi sahronavard,

Iki-uch olochuq aro etti fard [Havouï A.1993. 388].

Navoiyning bu bo'limdagi baytlarni shunday mazmunda izohlashimiz mumkin: "u uch uylikdan bittasi Qorunday badavlat bo'lsa ham, ammo nazari past odam edi. U shohning aytganlariga ahamiyat bermadi. Ikkinchisi esa, isrofkunanda edi: u qo'ylar so'ydirib, katta qozonlar osdirib, zo'r bir ziyofatning tayyorgarligini ko'ra boshladi. Ochlik mehmonning dimog'ini kuydirib, ichini achitib turgan paytda, uning ertaga pishadigan oshidan nima foyda edi? Valekin, uchinchi xonadonning egasi aqlli odam edi. Zotan, aqldan madad oluvchi odamlar xushbaxtdirlar. U baxtiyor odam, shohni o'z uyiga olib kirib, o'sha ondayoq uning oldiga uyida tayyor turgan non bilan qatiqni qo'ydi. Mohazar (tayyor turgan ovqat) ni egach, shohdan ochlik ranji, mashaqqati ketib, joni huzur topti. Binobarin, shoh mana shu mohazar bilan mehmon qilgan mehmondo'stga

behaddu-hisob mol-dunyo hadya etgani holda, haligi past odamga juda qattiq tanbeh berdi" [Navoiy A. 1993.617].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bahrom Go'r haqidagi afsona, ertak va rivoyatlarda bu obrazning ijobiy tomonlari, uning adolatli va odil podsho ekanligi tasvirlanadi. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan rivoyatlarda ham Bahrom Go'rning ijobiy tomonlari, oddiy xalqning noroziliklaridan ya[shi xulosa chiqarib, Allohdan madad kutgani va iltijosi amalga oshganini ko'ramiz.

Keyingi doston "Saddi Iskandariy"da esa shoh Bahrom o'zining kamtar, samimiy, kambag'al insonlarga muruvvatli hukmdor ekanligiga guvoh bo'ldik.

Demak, xalq har doim yuksak axloqli, mehr-muruvvatli podshohlarni orzu qilgan va rivoyat afsonalar vositasida o'z o'y-xayollarini ifoda etgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy A. (2021). Xayrat ul-abror matn, nasriy baen,sharx, luqat, 3 kitob, Tamaddun. 438-441b
2. Navoiy A. (1992). Muqammal asarlar tujplami, 10 tom, Fan, 73-74 b
3. Navoiy A. (1992). Muqammal asarlar tujplami, 11 tom, Fan, 388b, 617b
4. Qajumov A. (2009) Asarlar. 3 jild, "Mumtoz so'z", 2009
5. Malloev N. (1991) S'z san'atining gultoji. "Fofur Fulom"
6. Ma'laev O. (2018) Navoiy suxbatlari. "U'kituvchi"
7. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O., (2019). Navoiyshunoslik. Tamaddun

LIRIK IFODA VA TASVIRDAGI O'ZIGA XOSLIK

**Nasiba JO'RAQULOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti tayanch doktoranti**

Annotatsiya

Alisher Navoiy she'riyatida barkamol inson, yetuk shaxs orzusi bosh masala sanaladi. Mutafakkir shoir komillik martabalarini er, eran nomi bilan ham ifoda etar ekan, eng avvalo, ular tabiatidagi odamiylik fazilatlarini ulug'laydi. Ulug' shoir nazdida erlikning avvali mardlik,

nihoyasi chin insonlikdir. Mazkur maqolada Navoiy lirikasidagi chin erlik sifatlari hamda eranlik yo‘li haqidagi baytlar teran tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mard, nomard, o‘zlik, nafs, dunyo, komil inson.

Аннотация

В творчестве Алишера Навои достойный человек, мечта разносторонней личности выведены на первое место, великий поэт раскрывая личность достойного человека используем нетрадиционные выражения типа эр, эран, вместе с тем стремится выявить необычные свойства человечности и поступков. По мнению поэта сущность мужества заключается первоначально в отваге, а в конечном этапе чисто-сердечности и честности человека.

Ключевые слова: мужественный, лицемер, самобытность, корысть, вселенная, достойный человек.

Abstract

In the work of Alisher Navoi, the dream of a perfect person, a mature person is placed in the main place. The thoughtful poet expresses the image of a perfect human being with the names of er and eran, and describes his human qualities and actions in detail. In the eyes of the poet, courage is the beginning of manliness, and true humanity is the end. In this article, while analyzing the verses about manhood qualities and the path of nobility in Navoi's lyrics, it was concluded that they are brave, brave and diligent, pure breeds, purified from lust.

Key words: brave, scoundrel, self, passion, world, perfect person.

Er, eran aslida turkiy so‘z bo‘lib, er kishi, erlar, mard, jasur, botir kabi bir qator ma‘nolarni ifodalaydi. Lug‘atlarda, jumladan, mashhur tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘atit turk” asarida ham er- mard, erlik esa mardlik deb izohlangan [5, 129]. Badiiy adabiyotda er yetuk shaxsiyat, komil inson sifatida ulug‘lanadi, er bo‘lish chin inson martabasiga ko‘tarilish deya talqin qilinadi. Masalan, ulug‘ avliyo Ahmad Yassaviyning “...er bo‘lmasang, o‘lg‘on yaxshi, tirik bo‘lmay, qaro yerda so‘lg‘on yaxshi”[3,52], deya o‘zini mazammat qilib aytgan so‘zlari ham bu maqomning badiiy ijoddagi o‘rnini muayyan ma‘noda ko‘rsatib beradi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy she‘riyatida er, eran eng ko‘p qo‘llangan obrazlardan bo‘lib, valiy zotlar, ilmu irfon sohiblari hamda orif zotlarni tamsil etadi. Shoirga ko‘ra, er, eng avvalo, dunyodan voz kechmog‘i, hoyu havaslardan uzilmog‘i, parhezkor, taqvo sohibi bo‘lmog‘i lozim.

*Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo 'li bo 'lma zabun bu zoli makkor ollida [1,30].*

Navoiy lirikasida dunyo makkor, tul, dahr jiyfasi, charxi zol, baqosiz jahon ra'nosi, dahr ajuzi kabi sifatlari bilan beriladi. Ahamiyatlisi, dunyo timsoli qo'llangan baytlarning aksariyatida er obrazi unga qarama-qarshi qo'yiladi. Irfoniy adabiyotda Alloh taolo yaratgan har bir yaratiqqa muhabbat nazari bilan boqish, ammo uni sira malomat qilmaslik asosiy mavzulardandir. Lekin mumtoz she'riyatda dunyoning mazammat qilinishi juda ko'p uchraydi. Bu olamga muhabbat qo'yish esa chin insonlarning fojeasidir. Ulug' avliyo Ahmad Yassaviy dunyo muhabbatini xatolarning avvali deb aytar ekan, dunyoparastlikni nojinslar tariqi deb ko'rsatadi:

*Dunyoparast nojinslardan bo 'yun tovla,
Chin oshiqlar bu dunyoda kulmas bo 'lur [3,264].*

“Qisasi Rabg‘uziy”da keltirilishicha, Odam (a.s.)ning jamiki avlodlari dunyoni ko‘rib kelish uchun yuborilganlarida, ularning ayrimlari dunyoda qoladilar, ba‘zilari jannatda qolishni istaydilar, sanoqlilarigina ujmohni ham tilamay, Hazrat huzurini tilaydilar. “...Dunyoda qolg‘anlar kofirlar erdilar, ujmohda qolg‘anlar mo‘minlarning omlari erdilar. Ujmohni unamadin hazratg‘a kelganlari xos qullar erdi. Yorlig‘ keldi: “Dunyoga ko‘ngil bermadingiz, ujmohni unamadingiz, emdi ne tilayursiz?”. Aydilar: “Ilohiy, bizga dunyo kerakmaz, uqbo kerakmaz. Bizga sen keraksen” [4,23]. Ana shu oxirgi toifa mumtoz adabiyotda er va eran deya ulug‘lanadi. Alisher Navoiy ham erlarni foniy dunyoda Yaratgan yodi va visol umidi bilan yashaydigan oshiq sifatida tavsiflaydi:

*Baqosizdur jahon ra 'nosi valloh,
Jahon ra 'nosi yo 'qkim Mosivalloh.
Jahon ra 'nosi birla qilma payvand,
Er o 'lsang, bo 'l aning hajrig 'a xursand [1, 553].*

Darhaqiqat, oshiq uchun bu dunyo aysh-ishrat, o‘yin-kulgu maskani emas, balki sinov, imtihon joyidir. Odam (a.s.) yer yuziga tavba qilmoq, poklanmoq uchun yuborildi va ko‘p yillar ko‘z yosh to‘kib, o‘zini malomat qildi. Mazkur haqiqatni sira unutmagan va har bir soniyasini ogohlikda o‘tkazadigan badiiy timsol adabiyotda Er deb ataldi.

Navoiy she'riyatida er nafs qutqusidan omonlik topgan, botiniy illatlaridan qutulib, pokdomon zotga aylangan nurli siymodir. Inson eng xavfli dushman bo‘lgan nafsu havo iskanjasidan butkul xalos bo‘la olsagina, erlik saodatiga musharraf bo‘ladi. Bu yo‘lning avvali ham, oxiri ham riyozat va mujohadadir:

Kim kinavar o 'lsa, ista ondin qochmoq,

*Nevchunki, zarurdir yomondin qochmoq.
Er o'g'lig'a nafsini kinarondin qochmoq,
Nafi'durkim, sheri jayondin qochmoq [1, 10:82].*

Shayx Boyazid Bistomiy o'tkinchi hirsu havasdan uzilish haqida mana nima deydi: "O'n ikki yil nafsini mujohada bilan riyozat o'chog'iga qo'yib, yondirdim; mazammot sandoni ustiga qo'yib, malomat bolg'asi bilan urdim; toat va ibodat jilovi bilan jilovladim. Bir qarab (nafsini) yana g'ururda ko'rdim. Tag'in besh yil jahd ayladim. O'z za'f va gunohkorligimni ko'rdim" [5, 33]. Tasavvuf bilimdoni Mehmed Zahid Kotku ham nafsini ammora (yomonlikka buyuruvchi nafs)dan balandlay olmaganlarni hayvoni notiq deb atab, ularga inson nomini berib bo'lmasligini aytadi. Demak, er dunyodan uzilgan, nafsini isloh qilgan solik ekan, shijoatli, mard, jasur jo'marddir. "...nafsni do'st tutmoqkim, eng ulkan but o'shadir, uni sindirib bo'lmas" [2,49], deb yozadi Shayx Aziziddin Nasafiy. Er shu mashaqqatlarni boshdan kechirib, ilojsiz ishning uddasidan chiqqan ekan, uning botirligi ham, avvalo, ana shudir.

Navoiy mard va nomard kishilarning sifatlarini tavsif etish asnosida mardlik tushunchasini anglatish uchun bevosita er lafzidan foydalanadi. Bir qit'asiga "Erni xurus debtur va kuloh go'shasin aning toji, nomardni makiyon debtur yemakta najosat muhtoji" deya sarlavha qo'yar ekan, xo'roz va makiyon timsoli orqali mardlik va nomardlikning tafvutini quyidagicha ifodalaydi:

*Er urub la'l toj ila gulbong,
Zangvash el qaysi harzakim demagay.
Vaqtida tortibon xurus nido,
Ne najosatki, makiyon emagay [1, 465].*

Har bir ezgu fazilatning ibtidosi mardlik bilan bog'liq. Inson asliyati jur'at, ahdiga vafo, sadoqat, samimiyat singari xislatlar bo'y ko'rsatmas ekan, uning birovga yaxshilik qilishi, el-yurt himoyasi uchun bel bog'lashi, sidqidildan o'z vazifasini ado etishi aqlan xorij bir ishdir. Taniqli olim I.Haqqulov yuqoridagi qit'a haqida "Er kishi dilidagisini shunday ochiq so'zlaydi. U kimlar va nimalarga qarshi bo'lsa, chaynalmasdan: "Qarshiman!" deya oladi. Shu ma'noda nomardning "shijoati" erning tirnog'iga ham arzimaydi" [10,126], - deb yozadi.

Mard so'zi forsiy kalom bo'lib, odam, inson ma'nolarini anglatishi ma'lum. "Farhangi tafsiri zaboni tochiki" lug'atida mard kalimasining rostgo'y, so'zida turadigan, sodiq, vafodor, jasur kabi ma'nolari ham izohlangan hamda mard borki, xor bo'lmas, mushkul yo'qki, oson bo'lmas xalq maqoli namuna sifatida keltirilgan [7,760]. Umuman olganda, fors-

tojik tilidagi mard, arab tilidagi rijol soʻzlari turkiylardagi er kalimasi bilan ayni maʼnoda keladi. Shu maʼnoda, Shayx Mahmud Asad Joʻshon hazratlarining quyidagi fikrlari eʼtiborlidir: “Eran – er kishi degani. Arabchadagi rijolulloh (Alloh mardlari, Alloh ahli) menga eran kalimasining muqobilidek tuyuladi”. Aytish joizki, erlikka “Devonu lugʻatit turk”da mardlik deya izoh berilishi turkiylarda er va mard tushunchalarining ayni maʼno ifodalashiga dalildir. Shuningdek, fors-tojik lugʻatlarida nomard soʻzi begʻayrat, behamiyat, nokas, razil tarzida sharhlanadi. Mumtoz adabiyotda nomard kishilarning keskin qoralanishi ayon. Alisher Navoiy yuqoridagi qitʼa sarlavhasida nomardni makiyon deb ataydi, lekin sheʼr matnida uni hatto tovuqdan ham past bir nobakor deya yozgʻiradi.

Navoiy sheʼriyatida er kishining toʻgʻriligi, Haq yoʻlida sobitligi alohida eʼtirof qilingan. Masalan:

*Sidq ichra qachonki chiqsa oti erning,
Fosh oʻlsa sadoqatda sifoti erning.
Xushroqki, tavil oʻlsa hayoti erning,
Kim sidqdin – oʻq durur najoti erning [1,10:124].*

Sidq rostgoʻylik, haqiqat, toʻgʻrilik demakdir. Erning najoti aniq toʻgʻrilikdan, deydi ulugʻ shoir. Toʻgʻrilik Haq yoʻli va nabiyar tariqidir. Alloh taolo Qurʼoni karimda: “Bas, Allohga va uning soʻzlariga ishonadigan ummiy Paygʻambarga imon keltiring va unga ergashing – shoyad najot toparsiz [Aʼrof: 7/158]”, deya marhamat qiladi. Navoiy ijodida ham er ana shu goʻzal sifatlar sohibidir. “Nasoyim ul-muhabbat”da er mana bunday taʼriflangan: “Abu Hafs debdurki, har kim, har vaqtda afʼolu ahvolin kitob va sunnat mezoni bila vazn qilib, rost qilmagʻay, ul kishini er demasbiz” [1,10:124]. Demak, er – iymon-eʼtiqod va taqvosi qatʼiy boʻlgan chin inson. Navoiyga koʻra, erlik chin moʻminlik, musulmonlikdir:

*Ulki shior ayladi yolgʻon demak,
Boʻlmas ani eru musulmon demak [1,265].*

Haq gapni aytish – toʻgʻrilik, halollikning eng asosiy belgisi. Yolgʻon soʻz moʻminlar uchun katta gunoh sanalgan. Hatto shirk, kofirlik bilan ham tenglashtirilgan. Bunga dalil qilib muborak kitobdagi “Yolgʻonni faqat Allohning oyatlariga iymon keltirmaydiganlargina toʻqirlar. Ana oʻshalar oʻzlari yolgʻonchilardir [Nahl: 16/105]” oyati keltiriladi. “Moʻmin – odamlar unga qonlari va mollarini ishongan odamdir [9,275]” deyiladi hadisi sharifda. Shunday odamning kazzob, noxolis boʻlishi jamiyat muvozanatini izdan chiqaradi, mudhish

oqibatlarga olib keladi. Navoiy er rostgo‘y bo‘lishini aytar ekan, uni, asosan, xalq xizmatida bo‘lgan inson deb ta’riflaydi. Shoir er ulug‘ligini xalqqa manfaat keltirish bilan baholaydi:

*Raz qizi zarfini, zohid, ko‘p ushatma, er esang,
O‘z butungniyu mening but kibi tavbamni ushot.
Xalqdin har yaramas kelsa, xush ulkim, Haqq‘a,
Desa bo‘lmas, mening uchun yana bir xalq yarot [1,254].*

Raz qizi – tok qizi, majoziy ma’noda may, sharob, zarf – may quyiladigan idish. Adabiyotshunos M.Asadovning yozishicha, “ma’rifiy adabiyotda jom ham Alloh ishqi, Haq ma’rifati bilan to‘lgan oshiqning qalbini bildiradi. May esa ilohiy ma’rifat timsoli” [11,48]. Tasavvufiy tarbiyada insoni komil axloqi muhim masala hisoblanar ekan, yetuk shaxsiyatlarning Haqqa yetib, xalqqa qaytishlari asosiy muddao hisoblangan. Shu sababdan, mumtoz adabiyot namunalarida zuhd maqomidan ko‘tarilmasdan, uzlatni ixtiyor etganlar kamolotga yetmagan kishilar, deb ko‘rsatiladi. Er obrazi Navoiygacha bo‘lgan badiiy adabiyot namunalarida ham tariqatda manzilga yetgan solik sifatida tasvirlanadi va ularning maqom-martabalari zohidnikidan baland qo‘yiladi. Bu o‘rinda erning malomatiylar maslagida ekanini ham nazardan soqit qilmaslik lozim. Tasavvufshunos A.Gulpinorli: “Futuvvatda muruvvat, ya’ni erlik doimo barobar e’zozlangan. Ularga ko‘ra, malomat ahli ayni zamonda erdir, yigitdir va butun insondir” [8,172],- deya bildirgan mulohazalari fikrimizning yana bir isboti bo‘la oladi.

Ko‘rinadiki, Navoiy ijodida er, eran obrazi nihoyat darajada muhim o‘ringa ega. Chin insonga xos bo‘lgan qanday fazilat bo‘lmasin, bu ahsani taqvim Navoiy lirikasida er nomi bilan ataladi. Buyuk mutafakkir “Mahbub ul-qulub”da har toifaga mansub insonlar ta’rifi bilan bir qatorda er tavsifini ham aniq xarakterlaydi: “Eranlar hollari suratin yoshurubturlar va malomat suratida na’li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa, o‘zlarin rizog‘a yosobturlar va olam ahlining qotig‘ ranj va irik malomatig‘a chidabdurlar. Yemak-ichmakdin kechibdurlar. Haq rizosin istarda g‘am eb va qon ichibdurlar” [1,9:483]. Xullas, axloqiy badbinliklar urchib ketgan hozirgi asrimizda ulug‘ shoir Alisher Navoiy ijodida qo‘llangan er, eran obrazlari mohiyatini yanada chuqurroq o‘rganish, teran tahlil va talqin etish yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida ham alohida ahamiyatli bo‘lishi sira inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy, A. (2013). Mukammal asarlar to‘plami (1-10 jildlar). G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Nasafiy, A. (2021). Komil inson kitobi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Yassaviy, A. (2004). Devoni hikmat. Movarounnahr.
4. Rabg‘uziy, N. (1990). Qisasi Rabg‘uziy. Yozuvchi.
5. Attor, F. (1997). Tazkirat-ul avliyo. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Koshg‘ariy M. (1960). Devonu lug‘atit turk. Fan.
7. Nazarzoda, Z. va b. (2008). Farhangi tafsiri zaboni tochiki. Panjo‘hishgohi zaboron va adabiyoti Ro‘daki.
8. Gulpinarli, A. (1931). Melamilik ve Melamiler. Istanbul Devlet matbaasi.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022). Ruhiiy tarbiya. Xulqlanish. Hilol-nashr.
10. Haqqul, I. (2021). Kasbi kamol o‘zni tanishdir. Yoshlar matbuoti.
11. Asadov, M. (2019). Rindona ma’no va mohiyat tasviri. Tafakkur.
12. Haqqul, I. (2019). Navoiy ijodida Er va Eran obrazi. O‘zbek tili va adabiyoti, 01, 3-12.

“LISONUT-TAYR”DA DUNYO RAMZLARINING BADIYY IFODASI

**Muyassar IBROHIMOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti**

Annotatsiya

“Lison ut-tayr” daho ijodkorning ma’nan kamolga erishgan yetuklik pallasida, ya’ni umrining so‘nggi yillarida yozilgan irfoniiy dostonidir. Navoiy ushbu asarda qushlar vositasida komillikka erishish bosqichlari, ilohiiy ishq, oshiqning hol va martabalarini yoritib bergan. O‘tkinchi hoyu havaslar, dunyoviiy istaklar solikni chalg‘itib, yo‘ldan adashtirishi ma’lum. Mazkur maqolada dostonidagi dunyo bilan aloqador baytlar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: simurgʻ, majoz, ramz, nafs, dunyo, vodi.

Аннотация

«Лисон ут-тире» — мистическая эпопея, написанная в период зрелости гениального творца, то есть в последние годы его жизни. В этой работе Алишер Навои освещает этапы достижения совершенства, божественной любви, статуса и карьеры влюбленного с помощью птиц. Желания души и мирские желания отвлекают налог и сбивают его с пути. В этой статье подробно анализируются стихи о качествах мира и похоти.

Ключевые слова: метафора, символ, симург, похоть, мир, долина.

Abstract

"Lison ut-tyre" is a mystical epic written in the period of maturity of the genius creator, that is, in the last years of his life. In this work, Alisher Navoi illuminates the stages of achieving perfection, divine love, and the status and careers of a lover by means of birds. Desires of the soul and worldly desires distract the tax and lead it astray. In this article, verses about the qualities of the world and lust are analyzed in depth.

Key words: metaphor, symbol, simurg, self, world, valley.

Maʼlumki, mumtoz adabiyot, eng avvalo, ramzlar, obraz va timsollar adabiyotidir. Yorqin tasavvur va teran tafakkur mahsuli boʻlgan badiiy sanʼat durdonalarining mazmun-mohiyati, poetik qudratini yuzaga chiqarishda dunyoni obrazli tarzda idrok qilish qobiliyati ham alohida eʼtiborga loyiq koʻrilgan. Ramzu timsollar, shubhasiz, fikrni jonli, his-tuygʻuni taʼsirchan ifoda etish uchun ijod ahliga keng imkoniyatlar yaratgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ham bir qator timsollar tizimiga duch kelamiz. Ular orasida, ayniqsa, dunyo va unga aloqador ramzlar oʻquvchi eʼtiborini jalb qilishi, qolaversa, badiiy kuchi va mazmun qamrovi bilan ham yaqqol ajralib turadi.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida keltirilgan quyidagi fikrlari “Lison ut-tayr” asarini yanada chuqurroq anglashga, mushohada etishga yordam beradi: “Chun “Lison ut-tayr” ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorin majoz suratida koʻrguzupmen”. Buyuk mutafakkir shoir ijodida majoziy ishqni haqiqiysidan ayri tarzda talqin etmagan boʻlsa-da, “Lison ut-tayr” dostoni birmuncha farqli – unda ishq ilohiy qalamga olinadi. Navoiy haqiqiy ishq

yo'lida gado va shohni teng der ekan, bu olamda ham "rahbaru gumroh"ni birday ko`radi:

*Ishq mulkida gadou shoh bir,
Dayr ichida rahbaru gumroh bir [1, 115].*

Tasavvufda fanoga yuz tutmay turib oshiqning visolga yetishi mutlaqo imkonsizdir. Shu boisdan shoir qalbida ishq shavqi borlar joniga ofat yetsa ham bunga aslo parvo qilmaydi, deydi:

*Lozimi ishq o'ldi shavqu so'zi dard,
Barq yanglig' po'yai gitinavard.*

*Kimga dardu ishq mustavlidurur,
Tarki jon etmak anga avlydurur.*

*Kimki jonon sori oning royi bor,
Jong'a ofat etsa ne parvoyi bor.*

*Ishq ishi g'am shomi dardu so'zdur,
Sham' anga ohi jahon afro'zdur [1, 80].*

Kingaki bunday ishq nasib etsa, unga eng avlosi jonni tark etmakdir. Tasavvufda tark ham to`rt bosqich: tarki dunyo, tarki uqbo, tarki hasti, tarkni tarkdan iborat [3, 56].

Tarkni tark maqomida oshiq dunyo, uqbo va hasti (borliq)dan kechgani kabi vujudini ham tark aylaydi. Chunki jonidan kechgan – yor vasliga erishadi. Mumtoz adabiyotda haqiqiy ishq va moddiy dunyo tushunchalari bir-biriga zid qo'yiladi. Dostonning voqealar rivojidan o'quvchi muayyan tadrij asosida bosqichma-bosqich, pog'onama-pog'ona buni anglay boradi. Ulug' shoir dunyoning ishq va visolga to'siq bo'lib, haqiqiy muhabbat sohibini asl maqsaddan chalg'ituvchi yovuzlik ramzi ekanini kitobxonga obrazlilik tamoyillari vositasida anglatadi. Ya'ni ishqi ilohiy va dunyo hirsini bir qalbgaga sig'masligini shunchaki bayon qilmaydi, balki obrazu timsollar orqali ta'sirchan ifodalaydi. Ishq g'ami eranlar haqiqiy oshiqlar uchun shodlikdir. Bu dunyo esa metnat-u azob tortadigan g'am yeridir. Unda har elning dilida bir tashvish, olam ahli ko`nglida esa bu olamning g'ami bor. Ko'p odamlarning dili ana shu – "olam g'ami" bilan band:

*G'amin aylarlar eranlar shodlig',
Bu muqayyadlig' durur ozodlig'.*

G'am eridur mehnat obodi jahon,

Onda har nav' elga bir g'amdur ayon.

*Olam ahli ko'nglida olam g'ami,
Xud budur ko'prak bani odam g'ami [1, 152].*

Yaratuvchi quyoshning chiqishidan tortib, shamolning esishigacha, hatto eng kichik zarralarning harakatigacha ma'lum mezonlar asosida bunyod etgani, uning mo'jizalarini ta'riflab tugatib bo'lmasligi ayon. Masalan, bir-biriga zid bo'lgan to'rt unsur (suv, olov, tuproq va havo) inson vujudida bir butun holda birlashtirilgan, balki, ruh va nafs orasidagi qarama-qarshiliklarning boisi ham shundandir:

*Uylakim dushman yarotib o'tqa suv,
Yelni ham tufroqqa aylab aduv.
Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lub inson xilqatida muttahid.
Ofarinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda beevaz.*

Dostonda dunyoni badiiy ifoda etishda olam, gardun, ajuz, korgoh, anfus, dayr, dahr, getiy, ufq, anfus kabi so'zlardan foydalanilgan. "Dunyo" asli arabcha so'z bo'lsa-da, turkiy tildagi muqobillari qadim davrlardayoq she'riyatga kirib kelgan va keng qo'llanilgan. Ilk turkiy adabiyot namunalarida u ajun, balbal, olam tarzida uchraydi. Bu so'zning badiiy ijodda, she'riyatda obraz sifatida shakllanishi, shubhasiz, xalq og'zaki ijodidan boshlangan. Lug'atlarda dunyo – borliq, ko'z o'ngidagi olam, zamona, koinot, hayot, tiriklik, boylik, mol-mulk, zamona, taqdir, deya izohlangan. Dunyo boshqa ma'nodoshlariga nisbatan kengroq ma'noni ifodalaydi. Alibek Rustamiyga ko'ra: "Ochun" bilan "Getiy"ni hisobga olmasak, "olam" so'zining ma'nosini aniqlash uchun uni "koinot", "jahon" va "dunyo" so'zlari bilan qiyoslashimiz kerak bo'ladi. Moddiy va sezish mumkin bo'lgan tabiiy mavjudotning hammasi koinotga kiradi. Fazo ham muhit sifatida koinot tarkibidadir. [4.83]

Dostondagi majoziy hikoyat va masallarda ko'pincha insondagi kamchilik va qusurlar hayvonlarga ko'chirilgan. Navoiy qushlar vositasida insonlarning fe'l-atvori, fazilat va nuqsonlarini tasvirlaydi, atrofimizdagi olam, azal va abad haqida mulohaza qiladi. Hayot va o'lim borasida ham o'z qarashlarini bayon etadi. Bir o'rinda Hudhud qushlarga har bir insonning taqdiriga o'lim yozilganini, dunyo ko'p qolib bo'lmaydigan manzil ekani uqtiradi:

*Dahr hud ermas iqomat manzili,
Kimki bor oxir o'lumdur hosili [1, 127].*

Lirik qahramon dunyo hodisalarini anglashga harakat qilayotgan, nega hamma narsa boqiy, ammo inson umri, dunyo o‘tkinchi degan savolga javob izlashga intilayotgan mulohazakor odam. U taqdir hukmini, insonlik mohiyatini, umr mazmunini teran tushunadi. Zamon, fursat, tabiat o‘zgarishlari olamning tabiiy qonuniyatlariga sira daxl qila olmaydi:

*Dedi Hudhud:— «K-ey nahifi xasta dil,
Necha qolg‘ung olam ichra — fikr qil.*

*Kimki keldi — oqibat borg‘usidir,
Ko‘ksini tig‘i ajal yorg‘usidir.*

*Zi hayot o‘lmak uchundur oqibat,
Bo‘yla tahqiq etti ahli ma‘rifat.*

*Yo‘qki orif kimki yo‘qtur o‘yla kul,
Bu muhaqqaq amrdin g‘ofildur ul.*

*Ming yil o‘lsang dahr aro yo bir zamon,
Kim ajal oxir sanga bermas amon.*

Asarning etakchi qahramonlari qushlarning turli to‘siqlarga duch kelishi tariqat yo‘lidagi solikning sinov-imtihonlaridir. Hudhud haqiqiy ishq to‘la qalb otashida bo‘y ko‘rsatgan, nafsoniy istaklardan butkul xoli bo‘lgan piri komilni, pokiza hayot ramzini ham tamsil qilgan. Shoir Hudhud obrazi vositasida kitobxonni dunyoparastlikdan qutqarib, ishqqa, samimiyatga, soflikka, qalb go‘zalligiga sohib etadi. Ammo tovus, burgut, o‘rdak, to‘ti, kabutar, kaklik kabi turli qiyinchiliklarni deb o‘z maqsadidan qaytgan qushlar timsollari ham dostonida muayyan poetik vazifa bajaradi. Dostonida qo‘llangan dunyo timsollarini o‘rganish esa buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiyotining badiiyati, o‘ziga xos ma‘no olami, qolaversa, ulug‘ shoir dunyoqarashining yorqin jihatlarini haqida atroflicha mulohaza yuritish imkonini ham beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy A. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. Toshkent. Fan, 1996.
2. Abdurahmon G. Yassaviy “Faqrnoma”si. – Toshkent. “Navro‘z”, 2014.
3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent. TAMADDUN, 2018.

4. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent. “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1987.

“MAHBUB UL-QULUB”DA KOMILLIK TUSHUNCHASI

Tozagul DUSANOVA,
NavDPI mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: tozagul.dusanova@gmail.com;

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari komil inson axloqi, uning tarbiyasiga oid muhim manba ekanligi va Navoiy irfoniy- tasavvufiy qarashlarining ifodasida nasr va nazmning o‘rni haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, tasavvuf, maqomat, nasr va nazm, komillik.

Аннотация

В данной статье произведение Алишера Навои «Махбуб ул-Кулуб» является важным источником совершенной человеческой нравственности, его воспитания, а также выражается роль прозы и поэзии в выражении ирфани-суфийских взглядов Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Махбуб ул-Кулуб», суфизм, макомат, проза и поэзия, совершенство.

Annotation

In this article, the work of Alisher Navoi “Mahbub ul-qulub” is an important source of perfect human morality, his upbringing, and also expresses the role of prose and poetry in expressing the irfani-sufi views of Navoi.

Key words: Alisher Navoi, “Mahbub ul-qulub”, sufism, maocomat, prose and poetry, perfection.

O‘z davri diniy va dunyoviy ilmlarini chuqur egallab, hayotda saodatmandlik, axiylikni kasb qilgan Hazrati Navoiy “Mahbub ul-qulub”dagi nasriy va nazmiy matnlar orqali chin musulmonlik farzi va komil inson ma’naviyatini shakllantirish g‘oyasini ilgari surdi hamda ma’naviy ehtiyoji sabab ushbu asarni yaratdi. “Qobusnoma”da axloq va odob, “Guliston”da adolat va adab mavzusi ko‘tarilgan bo‘lsa, “**Mahbub**

ul-qulub”ning bosh mavzusi va obykti inson, insoniylik va shaxs kamolotidir.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”ni barcha asarlari saodatining kaliti sifatida yaratar ekan, unda nasr va nazm sintezidan foydalanadi. Asarning uch qismidagi fasllar, boblar, tanbehlardagi nasriy va she’riy matnlar orqali o‘zining hayot haqidagi, o‘zi yashagan jamiyatdagi mavjud tabaqalarning fe’l-atvori, jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalari, o‘z burchiga halol, to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kerakligi, komillikka intilish, kamolot bosqichlari, qalban poklanish, tanni emas, ruhni boyitish, iymon, odamiylik to‘g‘risidagi mulohazalarini kelajak avlod uchun yozib qoldiradi. Asarning asosiy g‘oyasi komillik sirlari, Qur’oni karimning umuminsoniy-umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiga, Rasululloh hadislariga amal qilish sunnati ma’rifatiga undashdan iboratdir. Hazrati Navoiy uchun tom ma’nodagi komil inson Muhammad alayhissalomdir. “Xamsa”ning barcha dostonlari, “Lison ut-tayr” dostoni, diniy va tasavvufiy, tarixiy va ma’rifiy asarlarining muqaddima boblari hamddan so‘ng Rasululloh (s.a.v.) madhi bilan boshlanadi. “Mahbub ul-qulub” muqaddimasida an’anaviy basmala va hamddan so‘ng, na’t qismida islom payg‘ambari, koinot sarvari va barcha payg‘ambarlardan afzal, insoniyatning eng yaxshisi deyiladi. Buning vositasida islom dinining asl mohiyatini tashkil qiluvchi g‘oya - barcha dinlar o‘z mohiyatiga ko‘ra bitta, barcha odamlar bir ota-onaning farzandi, payg‘ambarlar bir-birlariga birodardirlar, degan fikr salavotlar zamiriga singdiriladi va iqtibos, talmeh hamda tashbeh san’atlari orqali rasuli akram vasf qilinadi. “Va durudi noma’dud ul mahbubi oqibat mahmudg‘akim, Haq taolo anga qurb va manzilat berdikim, olam va odam vujudidan maqsud aning vujudi erdi. Xujasta tiynati ruhi pokdin tohir va farxunda xilqati anosir tarkibidan pok erkani zohir. Ansorining eli Masih anfosi va tufrog‘i Yaqub ko‘zining to‘tiyosi va suyi Xizr chashmasining zuloli va o‘ti Kalim daraxtining nori ishti’oli. Bu anosirni ruhi pok desa eri bor va ruhig‘a ruhi fidok demak sazovor” [2. 450].

Kalomi sha’ni (Qur’on)da u haqda shunday deyilgan: “Va mo yantiq anil havo” (U sizlarga keltirayotgan Qur’onni o‘z havoyi xohishi bilan so‘zlamaydi) va nutqi bayonida “In –huva illo vahyun yuho”- U (Qur’on) faqat Olloh tomonidan Payg‘ambarga tushirilayotgan vahiydir [1.404].

Payg‘ambarimiz madhidan so‘ng quyidagi 8 misralik masnaviy keltiriladi:

Ikki gisusi iki laylat ul-qadr,

*Bu yanglig' iki layl ichra yuzi badr,
Layl-u badr o'lub sham'i shabiston,
Uzoridin xo'y anda kavkabiston.
Bu kavkablardin aylab Tengri mavjud,
Nubuvvat spehrida quyosh erkoni ma'lum,
Musohiblari sha'nida ashobi kan-nujum [2.451].*

Na't masnaviyda ikki olam sarvari Muhammad (s.a.v.) olam va odamning murodi sifatida ta'riflanadilar. Unda Payg'ambarimiz (s.a.v.) zoti unsuri pokligi to'rt unsur (havo, tuproq, suv, olov) talqinida ta'riflanib eli Masih anfosiga, tuprog'i bani Isroildan bo'lib Baytul hazanga, suvi tiriklik chashmasi Xizr suviga, o'ti esa Isro va Me'roj tafsilotlarining dalili bo'lgan daraxt nuridan shu'lalangan Kalomda keltirilgan daraxtga tashbeh etiladi. Na't ikki olam rahmati Payg'ambarimiz (s.a.v) va me'roj kechasi bilan bog'liq barcha ta'rif-u tafsilotlari ma'naviy san'atlar bilan ifodalanadi. Muhammad (s.a.v.)ning ikki kokili ikki qadr kechasiga, yuzi to'lin oyga o'xshatiladi. Payg'ambarimiz quyoshga, sahobalari yulduzlarga qiyoslanadi hamda "Sahobalarim yulduzlar kabi dirlar" deb boshlanadigan hadisga ishora qilinadi.

"O'zbek adabiyotida Muhammad alayhissalom xususida Alisher Navoiy kabi "ko'b" va "xo'b" yozgan shoir bo'lmasa kerak. Navoiy uchun Muhammad (s.a.v.) maqomi – inson zotining qo'li etmas yuksaklik, lekin kamolotning Haqdan jazba orqali inson sa'y-harakati bilan erishsa bo'ladigan martabalari ham mavjud. Bu – valiyalar va oriflar maqomi. Shunday rutbaga erishgan kishilarni shoir komil insonlar sifatida o'z asarlarida alohida hurmat va ehtirom bilan tasvirlaydi va Xudodan o'zini ham o'sha buyuk zotlarga nasib bo'lgan poyaga ko'tarishni so'raydi. Navoiyning hayotida naqshbandiya tariqatining uch buyuk siymosi – Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori Valiy va Abdurahmon Jomiylar katta o'rin tutgan. Shoir ularni bir umr hassos muhabbat bilan sevdi, bu najib insonlarga yuksak e'tiqodini deyarli har bir asarida u yoki bu darajada ta'kidlab o'tdi, alohida bob va fasllarda ta'rif – tavsif etdi. Navoiy idealidagi komil insonlar birinchi navbatda xuddi shu uch buyuk avliyo edi" [6.7].

"Mahbub ul-qulub" asari komil inson axloqi, uning tarbiyasiga oid muhim manba hisoblanadi va insoniyatga kamolot yo'lini ko'rsatib turadi. Asarning ikkinchi qismida bashariyat, jamiyat kamoloti uchun inson qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligi va insonni ma'naviy barkamol etadigan yaxshi fe'llar hamda uni tuban qiladigan yomon fe'llar kasofati haqida ma'lumotlar berilgan. Komillikka erishish masalalari tasavvufiy

qarashlar tamoyilida koʻzdan kechiriladi va bu bilan birinchi va ikkinchi boʻlimlarning maʼnaviy jihatdan bir-biri bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Sharqning boshqa mutafakkirlari singari Navoiy ham tasavvufdan oziqlangan, uning irfoniy gʻoyalaridan ruhlangan. “Tasavvuf adabiyotini oʻrganmasdan turib, oʻrta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega boʻlish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor boʻlmasdan Sharqning oʻzini anglash qiyin” [8.102].

Oʻzbek adabiyotining ming yillik tarixini tasavvuf taʼsiridan ayri holda tasavvur qilishning imkoni yoʻq, chunki tasavvuf milliy-maʼnaviy hayot uchun asosiy eʼtiqod falsafasi, oʻziga xos mafkura edi. Tasavvufning asl maqsadi axloqqa yoʻnaltirilgan. Komil inson gʻoyasi bu taʼlimotning bosh gʻoyasi hisoblanadi. Hayotning oʻzida shunday gʻoya va unga intilishning tayyor nazariyasi va kuchli amaliyoti boʻla turib, adabiyotning bu taʼlimotga befarq boʻlishining ham iloji yoʻq edi, negaki, inson va uning kamolotga erishishi soʻz sanʼatida ham asl maqsad kabi targʻib etib kelingan. “Alisher Navoiyning gʻoya, tuygʻu va timsollar olamini chuqur tadqiq etish uchun ham, dunyoqarashi va sanʼatkorlik dahosini mukammal shakllarda yoritish uchun ham tasavvufga asoslanish, faqat tasavvufga tegishli imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanish lozim” [7.7].

“Mahbub ul-qulub” asarida Alisher Navoiyning dinga, tasavvufga munosabati va komil inson axloqi qanday boʻlishi kerakligi haqidagi qarashlari oʻzining badiiy ifodasini topgan. Darvoqe, “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi “Hamida afʼol va zamima xisol zikrida” deb nomlanib, oʻn bobda Navoiy ijodining oʻzak masalalaridan hisoblanmish tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va odob, zikr, tavajjuh, rizo, ishq kabi tushunchalarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan. Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari hisoblanmish ushbu oʻnta insoniy fazilatning asl mohiyati shayxlar va afsonaviy qahramonlar nomi bilan bogʻliq ibratli hikoyat va rivoyatlar bilan dalillanadi. Tasavvuf ilmida tariqatning maqomot bosqichlari, usullari Ibn Sarrojda toʻqqizta, Najmiddin Kubroda esa oʻnta tarkibda keltiriladi.

“Mahbub ul-qulub”da ham oʻnta maqomot taʼriflangan boʻlib, uning oʻziga xosligi tarkibda tavoze va adabning kiritilganligi hamda soʻnggi bosqich ishq ekanligidir. Navoiy 1467-69-yillar mobaynida Samarqandda yashab, naqshbandiya tariqati rahnomalaridan biri Xoja Ahrori Valiy sulukatiga kirgan. Demak, bu ahli tariq – Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning maqomot bosqichlariga alohida oʻziga xos yondashuvidir. Navoiy ushbu maqomatlar talabini sodda, ixcham tarzda tushuntirib beradi. Bu talablar bajarilgach, ular qanday qilib barkamol shaxsga

aylanishi mumkinligini ushbu qismdagi nasriy, nazmiy matnlar va hikoyatlar orqali sharhlab beradi. Bular: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va odob, zikr, rizo, tavajjuh va ishqdir. Qur'on oyatlarida ham zikr etilgan bu fazilatlar inson ko'nglini turli tug'yon va isyonlardan saqlaydi, unga sakinat – huzur-halovat baxsh etadi, axloqini go'zal qilib, irodasini mustahkamlaydi.

“Mahbub ul-qulub” ikkinchi qismining sakkizinchi bobi Tavajjuh zikrida deb nomlanadi. Tavajjuh zohiran, qalban butun borlig'ing bilan Haqqa yuz tutmoqlikdir. Navoiy asarlari lug'atida ushbu so'zning ma'nosi “Bir tomonga yo'l olish, yuzlanish, borish” deb ko'rsatiladi. Asarda tavajjuhga shunday ta'rif beriladi: “Agar tavajjuhda yuziga o'qlar kelsa, ko'z yummoqni unutmay, agar bir ko'zini ul o'qlar zo'ye' qilsa, yana birini ilgari tutqay”. Demak, tavajjuh o'zni Olloh yo'lida fido qilish demakdir. Bu bobda jazba talqini o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin. Tavajjuh Yaratganga yuzlanmoqdir.

Navoiyning fikriga ko'ra, agar ikki dunyo saodatini bayon etib, muhaqqiqu payg'ambarlar martabasini ko'rsatsalar ham Ollohga intilayotgan solik u tomonga qiyo boqmaydi va hatto o'ziga in'om qilinayotgan bunday iltifotni rad yoki qabul qilishni ko'nglidan o'tkazmaydi. Butun ruhu shuurini Allohga qaratgan solik O'z oldidan chiqqan g'azabnok sherdan chumolidan xavfsiraganchalik qo'rquv his qilmaydi. Uning nazarida quyosh zarradan qadrsiz, toshqin daryo tomchidan miqdorsiz. Bob xotimasida xulosa o'rnida keltirilgan masnaviyda muallif hayvonot olamiga xos bir qonuniyatga tayanib, tavajjuh mohiyatini yanada kengroq ochadi:

*Tavajjuh birla hindu sa'y etar chog',
Tushurur ko'k yog'ochdin toza yafrog'.
Kashaf aylab tavajjuh bayzasig'a,
Yorar ko'z birla bosmay kosasig'a [2.494].*

Bu bobda Navoiy bir gulxaniy va yosh shahzoda bilan bog'liq hikoyatni keltiradi: “Bir gulxaniyi mehnatkash ko'ngliga bir shahzodai xurshedvash ishq harorati tushti va harorat tobidin qoni qurushti va ruhi muvoraqat qilurg'a yovushti. Xirad matoyi ilgidin bordi va junun shaydoliqqa bosh chiqordi. Atfol quvub tosh urarlar erdi. Ko'chadin ko'chaga surarlar erdi. Aning og'zida shahzoda oti mazkur va ko'ngli aning zikri bila masrur...” Pok ishqning xosiyati shahzodaga ta'sir etdi va devonasini ko'rishga bordi. Unga yuzlangan go'laxi o'zini unutib, gulxanda kuyib halok bo'ldi...

Majoziy ishqda mundoq tavajjuh ayla xayol,

Agar o'lsa ishq haqiqiyda ko'r ne bo'lg'ay hol [2.494].

Navoiy yuqoridagi hikoyatda Haqqa bo'lgan tavajjuh, muhabbatning yuksak martaba ekanligini insonning insonga bo'lgan pok muhabbati orqali tasvirlaydi va bob yakuni vazifasida kelgan fardda majoziy ishq kishini shu ahvolga solgan bo'lsa, haqiqiy ishqda ne ahvol bo'lishini o'ylab ko'r dedi. Navoiy ushbu hikoyatni qalamga olishda ma'naviy piri Farididdin Attorning "Ilohiynoma" asaridagi "Oshiq darvesh hikoyatidan" ta'sirlanganini kuzatishimiz mumkin. "Bir darvesh shahzodaga oshiq bo'ldi. Kecha-kunduz shahzoda yodida oh-u nola chekar edi...bir na'ra tortib, jonini jabborga topshirdi..." [5.70]

Tasavvufiy tushuncha sifatida sabr tariqat maqomatlaridan biridir. Qur'oni karimda sabr haqida juda ko'p o'rinlarda to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Zumar surasining 10-oyatida shunday deyilgan: "Hech shakshubha yo'qki, sabr-toqat qiluvchilarga ajr mukofotlari hisob-kitobsiz to'la-to'kis qilib berilur!" Bundan tashqari, Oli-Imron surasining 200-oyati, Baqara surasining 153-155-oyatlari, Muhammad surasining 31-oyatlarida sabr haqida aytib o'tilgan. Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining 35-bobida, "Farhod va Shirin" dostonining 8, 9, 22, 26, 43, 44, 46-boblarida o'nta o'rinda qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlashda sabr tushunchasini tilga oladi. "Mahbub ul-qulub" asarining beshinchi bobi Sabr zikrida deb nomlanadi. "Sabr o'zni chiqarmoqdur huzuzi nafsonidin va tana'umoti jismonidin va nafsini habs qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qo'ymoqdur riyozot suubatida. Haq yo'lida qotig'irikka tuzmakdur va yaxshi-yomondin har ne eshitgan va ko'rganga tahammul ko'rguzmakdur. Achchig'dur, ammo sudmand; qattig'dur, ammo dofei gazand" [2.489].

Navoiy sabr shiddatini totib ko'rganlardan biri hazrat Ayub alayhissalom va qiyinchiliklarga bardosh berganlardan Muhammad (s.a.v.)dir deb nasriy matnlardan so'ng bir fard keltiradi:

Ajab ranjeki andin sa'b yo'q ranj,

Vale chekkan kishining bahrasi ganj [2.490].

Ushbu bobda Navoiy bir bechora-notavonning ko'ngliga bir gulyuzning ishq tushganligi haqidagi hikoyatni keltiradi. U tuhmat tufayli zindonga tashlanadi. Tuhmatni bo'yniga qo'yish uchun unga berilmagan azob qolmaydi, ammo u maxfiy sirni tilga olmaydi. Oxir oqibat sabri tufayli xayoliga kelmagan saodatga erishadi.

Hikoyatdan so'ng quyidagi fard xulosa o'rnida keltiriladi:

Kimki har shiddat aro sabr-u tahammul ayladi,

Baxt aning nishini no'sh-u xorini gul ayladi [2.491].

Axloqiy, diniy, tasavvufiy g'oyalar mushtarakligi Alisher Navoiyning tariqat maqomlari talqinida Qur'oni siymolarga murojaatida ham yorqin ko'rinadi. Masalan, Ilohiy kitobdan "Mahbub ul-qulub"ga ko'chgan Ayub timsoli asrlar osha kishilarni ruhiy tetiklik, taqdir zarbalariga chidash, matonat va mardlik ruhida tarbiyalab keladi. Shu bilan birga muallifning Ayubga ishorasi zaminida so'fiylarning Haqdan o'zgaga iltijo qilmaslik, e'tiqodi mustahkam kishilarning munojoti Haq dargohida inobatga o'tishi aqidasi yotadi. Mazkur aqida esa "Anbiyo" surasining 83-84-oyatlari asosida shakllangan.

Navoiy – orif, irfoniy bilimlar sohibi hisoblanadi. "Mahbub ul-qulub" asari Alisher Navoiy irfoniy-tasavvufiy qarashlarining ifodasi bo'lib, asarning ikkinchi qismidagi o'nta bobda Naqshbandiya sulukidagi o'nta maqomatning asl mohiyati, ilohiy haqiqatlari to'la ochib berilgan. Ilm ahliga ma'lumki, tariqatda maqomat va hol tushunchalari muhim ahamiyatga ega. "Maqomat" – maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi.

Mutasavvuf olim Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" kitobida tariqatning maqomatlari Abu Nasr Sarroj qaydi bilan quyidagicha keltirilgan: 1. Tavba; 2. Vara'; 3. Zuhd; 4. Faqr; 5. Sabr; 6. Xavf; 7. Rajo; 8. Tavakkul; 9. Rizo.

Shayx Najmiddin Kubro "Usuli Ashara" (O'n usul va sharhi) asarida 1) Tavba, 2) Zuhd, 3) Tavakkul, 4) Qanoat, 5) Uzlat, 6) Zikr, 7) Tavajjuh, 8) Sabr, 9) Muroqaba, 10) Rizo kabi maqomat bosqichlari sanab o'tilgan [4]. Navoiy esa bu maqomatlar tarkibiga tavoze va ishqni kiritadi. Mutafakkirning fikricha haqiqiy oshiqda tavoze (kamtarlik) va ishq ham mukammal bo'lmog'i kerak. Navoiy komil inson axloqi haqida mulohaza yuritib, tasavvuf g'oyalarini aqliy-nazariy mushohadadan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur bilan tushuntirishni joiz deb biladi va asosiy muddaoni she'riy satrlar yordamida ifodalaydi. Demak, Navoiy shoir sifatida ma'rifat siriga etkazuvchi maqomot konsepsiyasini yaratgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Qur'oni Karim (1992). Va-n-najm surasi. Cho'lpon;
2. Navoiy, A. (2011). Mahbub ul-qulub. Toshkent;
3. Komilov, N. (2009). Tasavvuf. Movarounnahr;
4. Kubro, N. (2005). Usuli ashara. O'qituvchi;

5. Komilov, N. (1994). Farididdin Attor “Ilohiynoma”. Yozuvchi.

GAZETA VA JURNALLAR

6. Ochilov, E. (2001). Navoiy idealidagi komil insonlar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 5-son. 7-bet;

7. Haqqul, I. (2001). Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 1-son. 7-bet.

INTERNET SAYTLARI

8. Bertels, E. So‘fizm va tasavvuf adabiyoti.

<https://ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Yevgeniy%20Bertels.%20So'fizm%20va%20tasavvuf%20falsafasi.pdf>.

“XAZOYIN-UL MAONIY”DA MUG‘ANNIYGA MUROJAAT

**Nozimaxon MIRZAYEVA,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi**

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning “Xazoyin-ul-maoniy” devonidan misralar keltirilgan. Quyidagi baytlar orqali shoir musiqa, xususan, mug‘anniylar va ularning kuy-qo‘shiqlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, qo‘biz, kuy, ohang, talmeh, tashbeh, mug‘anniy, devon.

Аннотация

В данной статье собраны стихи из «Хазайн-уль-Маони» великого поэта-мыслителя Алишера Навои. Следующие строфы содержат информацию о поэтической музыке, в частности, о певцах и их песнях.

Ключевые слова: музыка, мелодия, напев, мелодия, талме, ташбе, муганни, деван.

Abstrakt

This article contains verses from "Khazayin-ul-Maoni" by the great thinker poet Alisher Navoi. The following stanzas provide information about poetic music, in particular, singers and their songs.

Key words: music, melody, tune, melody, talmeh, tashbeh, mughanni, devan

Buyuk shoir Mir Alisher Navoiy o'zining bir qator asarlari, baytlarida o'z davrining mashhur mug'anniy - sozanda va xonandalariga murojaat qilib, kuy-qo'shiqlaridan bahramand bo'lib, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatganligini namoyish etadi. Alisher Navoiy o'z asarlarida shoir, sozandalar, hofizlar va raqqosalar ishtirokidagi ziyofatlar tasviriga katta e'tibor beradi. Alisher Navoiy asarlarining musiqiyliги uning xalq qo'shiqlarini yaxshi bilgan va sevganidan dalolat beradi. Shoirning "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Saddi Iskandariy", "Sa'bai sayyor" va boshqa asarlarida ishlatgan jami 26 mingdan ziyod so'zlar orasida yuzlab maxsus musiqiy-kasbiy atama, tushuncha, ibora va xususiy birikmalar, musiqaga oid ko'plab ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning ijodiy merosi o'zining sermazmun va serqirraligi bilan asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Navoiyning har bir asari alohida bebaho xazinadir. Asarlardagi so'zlarning dur kabi terilganligi, insoniy xislatlarni tarannum etishi har bir kitobxonni o'ziga ohangrabodek tortadi. Alisher Navoiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiya, sevgi-muhabbat, insoniy fazilatlar singari mavzularga murojaat qilish bilan birga o'z davrining san'at va madaniyatiga ham e'tibor qaratgan. Chunki shoir hayotida she'riyat bilan birga musiqa san'ati ham muhim ahamiyat kasb etgan. O'zining quvonchli va qayg'uli damlarida ham kuy-qo'shiqdan zavqlangan, taskin olgan. Shu sababi ham yoshligida o'ziga "Navoiy", ya'ni "navo" - kuy deb taxallus tanlaganligi bejiz emasdir, albatta.

Alisher Navoiy 1491-1492-yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi, yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498-1499-yilda nihoyasiga etdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») bo'lib, to'rt qismdan iborat bo'lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she'rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiyning barcha davrlaridagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. Navoiyning bu to'plamida sevgi-muhabbat, odamiylik va insoniylik singari fazilatlarini ifodalashi bilan birga musiqa san'atiga, jumladan, kuy va ohangning jozibali sehri insonga estetik zavq berishi to'g'risidagi fikrlarini ham uchratishimiz mumkin. Shoir bu asarida o'z ko'ngil chigalini yozish uchun mug'anniy, ya'ni sozanda chalagan kuydan bahramand bo'lishini ko'p bor ta'kidlagan.

Navoiy asarlari o'sha davr musiqa hayotini yorituvchi qimmatli manbadir. Shoir ijodidagi eng muhim mavzulardan biri tasvir va musiqada musiqa asboblaridan foydalanish. Musiqa madaniyatida musiqiy asboblar tarixiy rivojlanish jarayonini belgilovchi asosiy manba hisoblanadi. Ba'zan

Navoiy soʻzlarni tasvirlaganda, ular kabi koʻrinadi, kuylar quloqqa chalinadi. Navoiy asarlarida keltirilgan bir necha cholgʻu asboblari oʻsha davrda amaliyotda qoʻllanilgan.

Jumladan, Alisher Navoiyning toʻrt yirik devonlari majmuasida chang, soz, qoʻbuz, daf, nay, ud, rubob, tanbur, rud, chagʻona kabi musiqiy asboblarning tarkibiy qismlarini ifodalovchi mizrob, goʻshatob, zer, bam, tor singari iboralar qoʻllanilgan.

*Ey mugʻanniy, yor bazmida navo soz aylasang,
Jon fidong oʻlsun gʻamim sharhidin ogʻoz aylasang.
Uddek kuymakligim sharh et lisoni hol ila,
Nagʻmada udung lisonin sehrpardozi aylasang. [7.262]*

Ushbu misralarda shoir sozandaga murojaat qilib, yor bazmida kuy-qoʻshiqni mahorat bilan chalginki, shu qoʻshiqqa jonim fido boʻlsin, gʻam-qaygʻu qolmasin. Koʻnglimdagi dardimni ud (cholgʻu asbobi)ning tili, sehri va jozibasi orqali izhor et. Yaʼni shu ohang koʻnglimga rohat berib, yor bazmida chiroyli oʻtishini aytmoqda.

Bu satrlar orqali buyuk ijodkor yor visoli bazmida mugʻanniyning mahorati juda ahamiyatli ekanligini izhor etmoqda. Oshiq yori visoliga shu qadar tashnaki, u visol haqida oʻylaganda, buni hech kimga ayta olmagan dard-u gʻamini aynan kuy shaklida bayon etilishini xohlamoqda.

Laylo Joʻrayeva ham Navoiy asarida qoʻbiz cholgʻu asbobi haqida maʼlumot berganini koʻrishimiz mumkin.

*Ey qalandarvash mugʻanniy, gar Navoiy koʻnglini
Istasang har lahza behol aylamak, tuzgil qoʻbuz. [6.160]*

“Ey devonatabiat mugʻanniy, agar Navoiy koʻngliga yoʻl topmoqchi boʻlsang, har lahza uni holsiz qilish uchun qoʻbiz chal. Chordevonda keltirilgan gʻazallarda koʻplab musiqiy qalamga olingan. Shulardan biri qoʻbizdir. Qoʻbuzga Alisher Navoiy asarlarida, jumladan “Mahbubu-l-qulub” da “qoʻbuz quloq tutub ayshgʻa tarhib ohangni tuzgʻay deb taʼrif beriladi. Yaʼni rubobning ovozigʻa (sababi cholgʻular haqidagi qoʻbuzdan oldin rubobga berilgan taʼrif oʻrin olgan) quloq tutib, aysh-ishratga, maʼjoziy maʼnoda toat-ibodatga undovchi ohangni tuzadi.” [9.33]

Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” asarida biz koʻproq ilohiy qarashlarni, ilohiy muhabbatni koʻrishimiz mumkin. Maʼlumki, qadimda qalandar darveshlar ilohiy xislatga ega boʻlgan, Alloh yoʻlida tarki dunyo qilgan kishilar boʻlgan. Quyidagi baytda ham shoir ey ahli zuhd (darveshlar), biz dayr aro, yaʼni dunyoda oʻzligimizdan kechib, ilohiyatga singidik, siz machitdagi diniy maʼruza-yu, bahslarda taqaddum (ilgari, peshqadam) boʻlib, insonlarni ezgulikka etaklang, deb murojaat qilyapti. Shoirni

bunday ko'ngilni taskin etuvchi suhbatlar ta'siridagi mast uyqusidan sozandaning bir dilkash kuy uyg'otishini aytmoqda.

*Biz fano tufrog'i bo'lduk dayr aro, ey ahli zuhd,
Xonaqah sahnida siz bahsi taqaddum aylangiz.
Ey mug'anniylar, Navoiy mast edi — kech uyg'onur,
Ani uyg'otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz. [6.118]*

Biz Alisher Navoiy “Xazoyin ul maoniy” asaridagi ko'plab baytlarda shoir o'z davrining mug'anniy, ya'ni sozandalariga murojaat qilganini ko'ramiz. U sozandaga chalgan sozi, kuyi orqali g'amgin ko'ngillarni xushnud etishini, bazm ahlini bir oz bo'lsa ham o'z dardu alamlarini unuttirib, quvontirgin deydi.

*Soqiy, qadahe tutqilu, ey turfa mug'anniy,
Bazm ahlini qil bir necha mizrob ila multaz. [6.97]*

Quyidagi misralarda esa ey, mug'anniy, sen bazmda toki nag'mai mug'ona, ya'ni mayxonada ijro etiladigan kuy-ashulani kuylamas ekansan, mug' dayri (mayxona) da ichilgan may xushta'm bo'lmaydi. Ey, Navoiy (faqr) dunyodan kechish, tarki dunyo qilish yo'lidan adashmay bormoqchi bo'lsang, bu yo'lingda sobit bo'lib, har tomonga ergashaverma.

Bu erda shoir mug'anniylarni nafaqat bazmi jamshidlarda quvnoq, diltortar kuy-qo'shiqlarni ijro etish bilan birga diniy qo'shiqlar (munojot, hamd, na't va zikr singari) ni ham kuylashini bildirmoqda.

*Mug' dayri, ey mug'anniy, xushtur valek ichmon,
To nag'mai mug'ona bazm ichra cholmag'aysen.
Gar desang, ey Navoiy, faqr ichra yo'lni ozmay,
Ko'zni tikib yo'lungg'a har sori solmag'aysen [8.351]*

Ma'lumki, she'riy san'atlar – badiiylikning muhim va ta'sirchan vositalari, usullari hisoblanadi. Ular so'zining ma'no sig'imini oshirishga, qirralarini yaltiratishga, ifodani jo'shqinlashtirishga xizmat qiladilar. Ma'lum bo'ldiki, shoir lirik ifodaning ta'sirchanligini ta'minlashda bir qator she'riy san'atlaridan alohida holda yoki bir nechtasidan foydalanib, ehtiroslilikka erishadi. Talmeh san'atidan shoir biror tarixiy voqea – hodisa, hayrotomuz afsona yoki rivoyatga ishora qilib, uning zamiridagi yashirin ma'nolarni yangi qirralarini ochib berishda foydalanadi. Alisher Navoiy ham o'z asarlarida talmeh san'atidan mohirona foydalangan.

*Ey mug'anniy, tut «Iroq» ohangiyu ko'rguz «Hijoz»
Kim, Navoiy xotiri bo'lmish Xurosondin malul.*

Ushbu misrada shoir “Iroq” va “Hijoz” deb nomlangan musiqa kuylarini hamda Xuroson shahri nomini keltirish orqali talmeh san'atiga

murojaat qilgan. Ya'ni ey mug'anniy, sen mumtoz kuylar bo'lmish "Iroq" va "Hijoz" kuylarini chalib, Navoiyga Xurosonning g'amgin xotiralarini unutishga yordam bergin, deb murojaat etadi.

*Tig' ila g'amgin ko'ngul o'tig'a taskin bermadi,
Ohkim, tufroqqa elturmen ul su hasratin.
Demagil uzr, ey mug'anniykim, unum topmish xarosh,
Qir o'shul suhon ila ko'nglimdin anda suratin [7.255]*

G'amgin, dardli ko'ngilni tig' bilan tinchlantirib (taskin berib) bo'lmadi, endi bu dardni o'zim bilan tuproqqa olib ketaman, ey mug'anniy, sen uzr so'ramagin, sening ovozingni xirillashi yakun topadi, tugaydi, g'amning shaklini ko'nglimdan egov (suhon) bilan qirib tashla.

Shoir bu misralarida mug'anniyga taskin berib, sen ovozingni xirillashidan xijolat bo'lib uzr so'ramagin, bu bir kun to'xtaydi, lekin mening g'amgin ko'nglimning o'tiga tig', xanjar bilan ham taskin berib bo'lmadi, endi uning shakl, ko'rinishini ko'nglidan egov bilan qirib tashlash kerak deb bayon qilib, uni hijolatparastlikdan qutqarmoqda.

*Yor vasli xushturur, gar zulf, agar yuz ko'rguzar,
Vasl davri ayshdur, gar shom bo'lsun, gar saboh.
Tong yo'q ul mahvash mug'anniy tutsa jomi may sabuh,
Ne uchunkim Zuhradur toli', bo'lur axtar saboh. [7.56]*

Shoir ushbu misralarni shunday talqin qiladi, yor agar shom, ya'ni kechqurin yoki saboh (erta tong, sahar) paytida bo'lsa ham yuzi va zulf (sochi) ini ko'rsatsa, uning vasli, visoli xushturur, ya'ni yoqimlidir, visol, yorga etishish davri aysh (yaxshi turmush), baxtli onlardir, mug'anniy jomi may sabuh, ya'ni ertalabki may, ichimlik solingan qadahni tutsa, bundan-da juda go'zal tong yo'q, shuning uchun Zuhro yulduzi saboh (tongotar payt) yulduzi (axtar) bo'lib ko'rinadi.

Navoiy bu g'azalda yorning go'zal jamolini ko'rishlik qaysi paytda bo'lsa ham oshiq qalbiga xush yoqsa, mug'anniy erta tongda may qadahini (bu erda mug'anniyning erta tongda chalgan dilga yoquvchi kuy, ohangi nazarda tutilgan) tutsa, subhidamda tong yulduzi Zuhro ko'ringan go'zal tongdek tarovatli va yoqimli bo'ladi, deb ta'riflagan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy she'riyatda inson ko'ngil kechinmalari, his-tuyg'ularini ifodalashda musiqaga keng e'tibor qaratadi. Bu haqda Navoiyning o'z zamondoshlari ham e'tirof etishgan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning aytishicha: "musiqqa ilmidan Navoiy juda ko'p narsalar yaratgan, shu jumladan, naqshlar va peshravlar bunga misoldir". O'zbek musiqashunos olimi Is'hoq Rajabov ham "Maqomlar" nomli monografiyasida Navoiyning bastakorlik mahorati haqida juda

chiroyli ta'rif keltirgan: “Navoiyning ijodida musiqaning ba'zi nazariy va amaliy masalalari ham o'z ifodasini topgan. Navoiyning o'zi bastakor sifatida ijro uslublarini egallab, cholg'ularda mahorat bilan chalardi. U ashulalarga moslab orombaxsh dilrabo g'azallar yaratgan.” [13.30] Alisher Navoiy asarlaridagi fikr-mulohazalar, musiqaga oid qimmatli ma'lumotlar hozirgi musiqa madaniyatida ham asosiy manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”dagi na't g'azallari. Toshkent. “Noshirlik yog'dusi” nashriyoti. 2010 y.
2. Alisher Navoiy G'azallar sharhi. Toshkent “Kamalak”. 1991.
3. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Xazoyin ul-maoniy. 4-tom. Toshkent. Fan. 1989.
4. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Xazoyin ul-maoniy. 5-tom. Toshkent. Fan. 1990.
5. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Xazoyin ul-maoniy. 6-tom. Toshkent. Fan. 1990.
6. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at. 1973.
7. O.Jo'raboyev. Mumtoz adabiyotda mug'anniynoma Toshkent, “Tamaddun”, 2016 y.
8. O.Jo'raboyev. Navoiy va tarix. Toshkent. Tamaddun. 2016.
9. L.Jo'rayeva. Alisher Navoiy mug'anniynomalari. Toshkent. Mumtoz so'z. 2011.
10. I.Rajabov. Maqomlar. Toshkent. 2006.

MULKORO VA BAHROM – MA'NAVIY KAMOLOT TIMSOLLARI

Mohigul MAVLONOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti tayanch doktoranti
mavlonovamohigul@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Farhod va Shirin” dostonining muhim ijobiy yordamchi qahramonlari – do'stlik va

odamiylikning go‘zal namunalari hisoblangan Mulkoro va Bahrom obrazlari atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: obraz, doston, Mulkoro, Bahrom, Farhod, "Xamsa", do‘stlik, sadoqat, insoniylik, ilmiy qarashlar.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу образов отца и сына – Мулкоро и Бахрома, которые рассматриваются как прекрасные образцы дружбы и человеколюбия «Фарход и Ширин», написанном Алишера Навои.

Ключевые слова: анализ, образ, эпос, Мулкоро, Бахром, Фарход, «Хамса», дружба, верность, человечность, научные взгляды.

Annotation

This article is devoted to the analysis of the images of father and son – Mulkoro and Bahrom, who are considered as beautiful examples of friendship and humanity in the epic "Farkhod and Shirin" written by Alisher Navoi.

Keywords: analysis, image, epic, Mulkoro, Bakhrom, Farhod, Shirin, "Khamsa", friendship, loyalty, humanity, scientific views.

Ma‘lumki, Navoiy butun umr xalqning tinch, osoyishta va farovon turmush kechirishini oqilona va adolatli davlat boshqaruviga bog‘liq deb bilgan. Buni ulug‘ shoirning o‘lmas asarlaridagi umumbashariy g‘oyalar, qolaversa, badiiy obrazlar ham tasdiqlaydi. "Farhod va Shirin" dostoni ana shunday davlat boshqaruvi tamoyillarining go‘zal badiiy ifodasiga bag‘ishlangan asardir. Navoiyga ko‘ra, shohlikning muhim sharti bu – ogohlik:

Erursan shoh – agar ogohsen-sen,

Agar ogohsen-sen – shohsen-sen.

Shuningdek, donishmand vazir Mulkoro ham mamlakatga ziynat baxsh etuvchi sharaf egasidir [3.190]. Navoiy Mulkoro zimmasiga Hoqon obrazi bajarishi lozim bo‘lgan yuklamalarni to‘ldirish va doston voqea-hodisalarini bevosita rivojlantirishga yordam berish vazifalarini yuklaydi. Mulkoro timsoli qaysidir jihatlari bilan turkiy xalqlarning ilk yozma yodgorliklaridan "To‘nyuquq" bitiktoshidagi To‘nyuquq obraziga yaqin turadi. To‘nyuquq ham vazir, sarkarda, tadbirkor va vatanparvar shaxs. U o‘z yurtiga va hoqoniga sodiq. To‘nyuquqning ko‘proq vatanparvarlik sifatleri ulug‘lansa-da, o‘z hoqoniga va uning farzandlariga sadoqati ham asar syujetida qayta-qayta yodga olinadi.

Mulkoro esa Navoiy dostonidagi eng mukammal vazir obrazidir. Turkiy adabiyotdagi ilk badiiy doston bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida O‘gdulmishning tilidan haqiqiy vazir sifatlari quyidagicha bayon etilgan: “Vazir el boshlig‘ining o‘ng qo‘lidir. U, shubhasiz, juda kerakli kishi bo‘ladi. Chunki vazir el-yurt ishining hozirligini ko‘radigan eng katta kishidir. Vazir tufayli og‘ir yuklar yengillashadi, ishlar pishiq-puxta bo‘ladi” [4.57]:

*Vazirlikka yetuk, sara er kerak,
Oqil bo‘lsa toki, yana dovyurak.*

Mulkoro ana shu fazilatlariga ega bo‘lgan timsoldir. Mulkoro ismi dastlab doston muqaddimasining II bobida tilga olinadi:

*Badan mulkin qilib alqissa ma‘mur,
Vaziri aql Mulkorosi ma‘mur.*

Mulkoro nafaqat vazir, balki Farhodning otalig‘i hamdir. Xoqon va shahzodaning ishonchini birday qozona olgan sadoqatli do‘st va mushkulotlarni hal qilishda yordam beruvchi tadbirkor maslahatchidir. Xoqon har qanday masalada unga suyanadi va u bilan kengashadi. Doimiy g‘amga oshno bo‘lgan Farhodning ko‘nglini ovlash uchun xoqon to‘rt qasr qurish fikrini ham dastlab Mulkoro bilan maslahatlashadi. Qasrning qurilish ishlarini ham Mulkoro nazorat qiladi, ishboshqaruvchilik va ishbilarmonlik qobiliyatini namoyon etadi. Voqealar rivojida Farhod xazinadagi tilsimli ko‘zguning sirini ochish uchun Yunonistonga borish istagidan ham dastlab Mulkoroni xabardor qiladi. Farhodning yetuk va komil inson bo‘lib yetishishida ham Mulkoroning xizmatlari katta.

Farhod umrining oxirgi daqiqalarida o‘z yaqinlarini yodga oladi. Bodi saboga o‘z vasiyatini bayon etadi. Otasi, onasi, shu jumladan, Mulkoro va Bahromga ham bodi sabo orqali qalb so‘zlarini yo‘llaydi:

*Ber avval qatla Mulkoroga taskin,
Degil, oqil qazosig‘a kin.*

Bahrom ham “Xamsa”ning barcha ijobiy obrazlari kabi bilimli, mehnatkash, kamtarin, kuchli va aql-u zakovatda Farhoddan kam emas:

*Tutub Chin-u Xito ahli musallam,
Ki ish vaqti emas Farhoddin kam.*

Bahrom do‘stlikni hamma narsadan ustun qo‘yadi. U bolaligidan Farhod bilan birga o‘sib-ulg‘ayadi, aka-ukalardek voyaga etadi, samimiy do‘stlik rishtalari bilan bog‘lanadi. Bahromdagi juda ko‘p ijobiy sifatlar otasi Mulkorodan o‘tgan. U Farhoddan uzoq muddat ayrilgach, uni qattiq sog‘inadi va xavotirga tushadi. Farhod to‘g‘risidagi noxush xabarni eshitgach, xonga quyidagicha murojaat qiladi:

*Agar hukm etsa xon lutf –u atodin,
Cheriklar jam etib Chin-u Xitodin.
Azimat aylabon Mag‘rib zaminga,
Yetursam o‘zni Farhodi guzinga.
Toplsa, qilsam ul holiga tadbir,
Yo‘q ersa, ko‘rsam ulkim bo‘lsa taqdir.*

Bahrom – sermulohaza, uzoqni ko‘ra biladigan, kamtarin, mansab va amalga, boylikka ruju qo‘ymagan inson. Navoiyning bu obrazni yaratishdan asl maqsadi haqiqat va adolatni himoya qilib, dostonni optimistik ruhda yakunlashdan iborat edi, desak xato bo‘lmaydi.

Ko‘rinadiki, “Farhod va Shirin” dostonini va undagi Mulkoro va Bahrom singari yordamchi qahramonlarni o‘rganish, ulug‘ shoirning ma’naviy dunyosiga yo‘l topish bilan birga, mumtoz adabiyotimizning o‘ziga xos tamoyillarini ham keng mushohada qilishga imkon ochadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy A, (2020) Farhod va Shirin. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Qayumov A, (1979) Farhod va Shirin sirlari. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.
3. Erkinov. S, (1971) Navoiy “Farhod va Shirin” va uning qiyosiy tahlili. Fan nashriyoti.
4. Yusuf Xos Hojib. (2014) Qutadg‘u bilig. Toshkent.

SHE‘RIY OBRAZ VA BADIY TASVIR IMKONIYATLARI

**Muslima XOLBOYEVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti**

Annotatsiya

Ushbu maqolada mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodida gul va bulbul obrazlari janrlar tarkibida qay ma’noda qo‘llanilganligi tahlil qilingan. Tahlil doirasida turkiy xalqlar adabiyotidagi gul va bulbul haqidagi afsonaga murojaat etilgan. Maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Badoyi’ ul-bidoya”, “G‘aroyib us-sig‘ar” va “Navodir un-nihoya” devonlaridagi baytlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: gul, bulbul, oshiq, ma’shuq, timsol, g‘azal.

Аннотация

В данной статье анализируется, как образы цветов и соловьев используются в произведениях мыслителя Низамиддина Мир Алишера Навои в жанровом составе. В рамках анализа упоминается миф о цветке и соловье в литературе тюркских народов. В статье использованы стихи из книг Алишера Навои «Бадайул-бидоя», «Гарайб ус-сигар» и «Наводир ун-нихоя».

Ключевые слова: цветок, соловей, влюбленный, возлюбленный, символ, газель.

Abstract

This article analyzes how the images of flowers and nightingales are used in the works of the thinker Nizamiddin Mir Alisher Navoi in the composition of genres. As part of the analysis, the myth of the flower and the nightingale in the literature of the Turkic peoples is referred to. In the article, verses from the books "Badayi' ul-bidoya", "Gharaib us-sigar" and "Navodir un-nihoya" written by Alisher Navoi were used.

Key words: flower, nightingale, lover, lover, symbol, ghazal.

Ma'lumki, ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy she'riyati obrazlarning ko'pligi va o'ziga xosligi bilan ham o'zbek mumtoz adabiyotida alohida ahamiyatga ega. Ular orasida, ayniqsa, gul va bulbul timsollari estetik ta'sir quvvati, bir-birini hamisha to'ldirib turishi bilan ham ajralib turadi. Mazkur maqolada ana shu obrazlar haqida to'xtalmoqchimiz. Gul va bulbul obrazi, bulbulning gulga tashnaligi mavzusi turkiy xalqlar adabiyotida juda ko'hna va nihoyat darajada qiziqarli mavzulardandir. Bu obrazlar ishtirokida turli rivoyatlar, afsonalar ham yaratilgan. Bir afsonaga ko'ra, o'tmishda atirgulning rangi qizil emas, oq rangda bo'lgan ekan. Oppoq atirgul g'unchasi o'zi uchun yonib kuylayotgan bulbulga parvo qilmay, unga o'zining go'zal chehrasini ko'rsatishni xohlamabdi. Butun qishni mahbubasining ishqida o'rtanib, atirgulning ochilishi, yuzini ko'rsatishini umid qilib o'tkazgan bulbul bahorda atirgul shoxiga o'tirib, uning gullashini kuta boshladi. Nima uchundir o'jar atirgul ochilmadi. Bechora bulbul uning gullashini kuta-kuta, qattiq uyquga ketdi. Biroz vaqt o'tgach, bulbul uyqudan uyg'onib, ko'zini ochsa, atirgul ochilib, butun chiroyini boshqa bir oshiqqa ko'z-ko'z qilayotgan emish. Bulbul bundan shu qadar xafa va behol bo'libdiki, o'zi qo'ngan atirgul shoxidan bemajol yiqila boshlabdi. Yiqilish asnosida atirgulning tikanlari bulbulning butun vujudini tilib qonga belabdi. Bulbul atirgulning oyoqlari ostiga qulab, jon taslim qilibdi. Afsonaga ko'ra, o'sha kundan keyin bulbul qonidan barcha atirgullar qip-qizil gullay boshlagan

ekan. Navoiyning quyidagi misralari mazmuni ham afsona ma'nosi bilan uyg'un:

*Bu humrat birla ermas otashin gul, oq gul erdikim,
Yuzung barqidin o't tushti angakim, bo'ldi gulnoriy [1, 760].*

Gul va bulbul obrazlari irfoniy adabiyotda ham o'ziga xos o'ringa ega. Tasavvufda gul (atirgul) ko'pincha mahbuba tamsil qiladi. Mahbuba haqiqiy ma'shuq bo'lgan Alloh taolo, undan so'ng esa o'z mavqeiga ko'ra barcha ustozlarga yo'l ko'rsatuvchi, ustozlarning ustози, chinakam komil inson bo'lgan Habibi Kibriyo (Rasululloh sollallohu alayhi vasallam)dir. Bulbul esa oh-u zor, nola qiluvchi oshiq timsoli bo'lib, bulbulning kuylashi ishq yo'liga kirgan solikning goh Allohga, goh Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bo'lgan muhabbatini ifodalaydi. Gul (atirgul) qallda yuzaga kelgan ilmning natijasi va mevasini ham bildiradi. Ya'ni oshiqning qalbi gulzordir. Boshqacha aytganda, uning qalbi gulzorga o'xshaydi. Mumtoz adabiyotimizda gul va bulbul obraziga murojaat qilmagan shoir yo'q, hisobi. Ammo Navoiy ijodida bu timsollar alohida mavqe tutadi:

*Chaman otashgahiga otashin guldin chu o't solding,
Samandardek ul o'tdin kulga botti bulbuli shaydo[2,13].*

Navoiyning lirik qahramoni juda ko'p o'rinlarda o'zini bulbulga qiyoslaydi. Jumladan, ulug' shoir ijodining ilk bosqichlarida bulbul timsoli orqali firoqda qolgan, yaqinlaridan uzoqda bo'lgan lirik qahramon kayfiyati yoritilgan mashhur ruboiysiga e'tibor qarataylik:

*G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.*

Professor A.Hayitmetovga ko'ra, ruboiyda shoirning "goh Mashhadda bir xilvat joyda, goh Hirotda bir oddiy boshpanada, hech bir kimsaning yordamisiz yashab yurgan yillarda yozilgani, unga o'zining butun dard-alamlarini, nafratini to'kib solgani sezilib turadi" [3,71]. E'tibor qilsak, ruboiyda Navoiy o'zini "bulbul"ga, "Vatan"ni "gul"ga qiyoslamoqda. Demak, Navoiy ijodida "gul" obrazi Vatan ma'nosini ham ifodalydi. Adabiyotshunos Y.Is'hoqov "Navoiy poetikasi" asarida ushbu ruboiyni "Saddi Iskandariy" dostonida keltirilgan kabutar haqidagi hikoyat bilan o'zaro qiyoslab, shunday yozgan edi: "Alisher Navoiy ijodining dastlabki bosqichida yozilgan she'rlarida asosan, "shikoyat motivining yuzaga kelishi konkret asosga ega bo'lib, Mashhaddagi hayoti bilan

chambarchas bog‘langan [4,37]”. Mana bu baytda esa hijron kayfiyatidagi bulbul obrazi tasvirlanmoqda:

*Gar Navoiy bulbule erdi xush ilhon, ko‘rki, hajr
Navha rangi ko‘rguzur har dam oning ilhonida[5,728].*

Boshqa bir g‘azalga “yor-u diyordan ayriliqdagi lirik qahramonning ahvoli bulbulsiz qolgan gulshanga qiyoslanadi:

*Navbahor ayyomi bo‘lmish , men diyoru yorsiz,
Bulbul o‘lg‘andek xazon fasli gulu gulzorsiz [2,204].*

Adabiyotshunos I.Haqqulga ko‘ra, mazkur g‘azal “navbahor faslida, ilk bahor taassurotlaridan tug‘ilgan. Lekin she‘r qahramoni o‘zini “xazon fasli”da gulu gulzorsiz qolgan bulbul holatida tasavvur aylaydi. Negaki, u yoru diyoridan uzoqda. Navbahor haqidagi bir “xabar” tabiiy ravishda “gul-gulzor”, yor-diyor”, “bulbul-oshiq”, “vasl-hijron” to‘g‘risidagi tasvir va ta‘riflar bilan uyg‘unlashadi”[6,124].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida gul va bulbul obrazlari juda qiziqarli va lirik qahramonning turli kayfiyatini ifoda etuvchi betakror timsollardir. Ularni atroflicha tadqiq etish esa nafaqat Alisher Navoiyning yuksak badiiy mahorat sirlarini, balki o‘zbek mumtoz she‘riyatining tasvir yo‘li, o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini bilishga ham keng imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Badoyi’ ul-bidoya. MAT. 20-jildlik.1-jild. –T.: “Fan”, 1983.
2. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. MAT. 20-jildlik.3-jild. –T.: “Fan”, 1988.
3. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2015.
4. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi (“Xazoyin ul-maoniy” asosida). –T.: “Fan”, 1983.
5. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. MAT. 20-jildlik.2-jild. –T.: “Fan”, 1987.
6. Haqqulov I.Navoiyga qaytish-1. –T.: “Fan”, 2008.
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/xosiyat-bekmirzayeva-gul-va-bulbul>
8. <https://www.aydinlik.com.tr/koseyazisi/gul-ile-bulbul-aski-52700>
9. <https://islamansiklopedisi.org.tr/gul-u-bulbul>

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA YOSHLAR OBRAZI

Maftuna SHOMURODOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Alisher Navoiy asarlaridagi maslak bugun ham dolzarbdir. Xususan, kamolotga erishish doston qahramonlarining bosh maqsadi hisoblanadi. Bu yo‘ldagi riyozati, albatta, o‘z natijasini ko‘rsatgan. Shu bois mazkur maqolada aynan dostonidagi yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga ahamiyat berilgan. Ayniqsa, yoshlarning hunarga, diniy va dunyoviy bilimlarga bo‘lgan munosabatiga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: “Farhod va Shirin” dostoni, yoshlik, kasb-hunar, jamiyat.

Аннотация

Поэма “Фарход и Ширин” это не только создание Алишера Навойиб но и бессенное произведение всей турецкой литература. Хот это произведение било представлено со сторона великихученыхи писателей, в статье особое внимание уделено воспитанию молодого поколения. Особенно в поеме уделено оссоба внимание нравственно-духовным знанием молодых

Ключевые слова: поэма “Фархад и Ширин”, молодость, профессия, общество.

Abstract

The poem “Farhad and Shirin” is not only the creation of Alisher Navoiy, but also an invaluable work of all Turkish literature. Although this work was presented by great scientists and writers, the article pays special attention to the education of the younger generation. Especially in the poem, special attention is paid to the moral and spiritual knowledge of young.

Key words: poem “Farhad and Shirin”, youth, profession, society.

Alisher Navoiy asarlarida qalamga olinmay qolgan mavzuning o‘zi yo‘q. Ayniqsa, “Farhod va Shirin” dostonida ishq motivlari bilan birga hamma davr uchun ham dolzarb bo‘lgan yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi va kamolotida zarur hisoblangan sifatlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero, har bir xalqning tanazzuli yoki yuksalishi shu yurtda voyaga yetayotgan farzandlarning ilm-u ma‘rifati, ma‘naviy dunyoqarashi, urf-odat va milliy

qadriyatlarga bo‘lgan sadoqatiga bog‘liqdir. O‘z zamonasida Mir Alisher Navoiy madaniyat va san‘at, ilm va ma‘rifatning chinakam homiysi sifatida shuhrat topadi. Navoiyning zamondoshi bo‘lmish tarixchi Xondamirning yozishicha, Navoiy o‘z hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir nechta madrasalar va xonaqohlar qurdirib, ilm ahliga sarkorlik qilgan. Jumladan, Ixlosiya madrasi haqida hazrat homiyligida: “Ul joyning talabalari xotirjamlik ila ilm kasb qiladilar”[1.63-b], – deydi. Mazkur jumlaning o‘zi ham mavlononing ilm-fanga bo‘lgan diqqat e‘tiborining nechog‘lik yuksak ekanligidan dalolatdir. Navoiyshunos Ibrohim Haqqul ham “Navoiy badiiy ijod jabhasida qanchalik tengsiz bo‘lsa, ilmida, ya’ni olimlikda ham shunchalik benazir”[2.5-b] ligini ta’kidlagan edi.

Bugun ham Navoiy “Xamsa”sidagi jamiyat, millat, madaniyat, odo-axloq, ilm-fan va kasb-hunarga doir fikrlarining qimmatini oshsa oshdiki, aslo, kamaygani yo‘q. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov aytganidek, “Navoiy oddiy ertakchi shoir emas, uning har bir ifoda obrazi, lavha va tamsillarida muayyan umumfalsafiy, kayhoniyl-ilohiy ma’no bor”[3.88-b]. “Farhod va Shirin” dostoni qahramonlari bo‘lmish yoshlar: Farhod, Shirin, Bahrom, Shopur va Shirin atrofidagi o‘n dilobar xos xizmatchilarining nafaqat botiniy, balki har biri egallagan zohiriy (dunyoviy) bilimlarini ham zamonamiz yoshlariga ibrat qilsa arziydi. Asarda bosh qahramon bo‘lmish Farhodning tavalludidan ilohiy ishqqa oshnoligi tasviri alohida e’tirof etilgan:

*Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi.*

*Firoqi rashku hajru oh ila dard,
Bihar harf ibtidodin aylabon fard[4.31-b].*

Navoiy Farhod nomining arab yozuvidagi harflariga ramziy ta’rif berib, u firoq, rashk, hajr, oh va darddan iborat deydi. Negaki, ilohiy ishq egasi Haq va o‘zi orasida to‘siq bo‘lib turgan o‘tkinchi dunyo hoyu havaslaridan qutilguncha shu iztiroblarni chekishi shart bo‘ladi.

Alisher Navoiy xamsanavislikda yangilik sifatida olib kirgan Farhod obrazini ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol tarzda yaratadi. Uni suvrat va siyratda birday go‘zal tasvirilaydi. Farhodning qanchalik uquvli, ilm va o‘qishga havasi balandligiga Navoiy urg‘u beradi. Bir yoshida emaklashni ham qo‘yib birato‘la yurib ketadi, uch yoshda o‘n yashar bolani eslatadi, buni ko‘rib otasi unga ilmi teran ustoz tayinlaydi.

Farhod ta'limining birinchi kuniyoq otasiga abjad hisobini o'rganganligini hadya qiladi:

*Agar bir qatla ko'rdi har saboqni ,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varoqni.*

Farhod uchun har qaysi darsni bir marta ko'rish etarli, u sahifani qayta ochishga hojat yo'q erdi. Uch oy ichida savodi raso bo'lib, birinchi yiliyoq Qur'onni yod oladi, o'n yoshida harbiy bilimlarni egallaydi. Zamonamiz ta'lim dasturlarini yaratishda, albatta, Farhodning ilm o'rganish tizimini inobatga olish foydadan xoli emas. Avvalo, otasi munosib ustoz tapadi. Chunki bolaning ongu shuuridagi taraqqiy va tanazzul ustozga ko'p tomonlama bog'liqdir. Eng ahamiyatlisi, Farhodning tahsil maktabida ta'lim va tarbiya mushtarakdir. Ular ilm cho'qqisi va axloq go'zalligiga birday intilishgan. Shu bois Navoiy uning bir yilda Qur'oni karimni yod olganiga, e'tiqodiy ma'rifati komilligiga urg'u beradi. O'n to'rt yoshida u uchun otasi tomonidan qurdirilayotgan to'rt qasrning bunyod etilishini kuzatib, hunarmandlar ishiga qiziqib qoladi. Navoiy shu o'rinda hunarmandlar me'mor Boniy, naqqosh Moniy, toshkesar Qoranning o'z ishlarini nechog'lik ustasi ekanligini tasvirlar ekan, har bir inson ilm bilan birga kasb-hunar ham egallamog'i, egallaganda ham, o'z ishining ustasi darajasigacha etmog'i lozimligini uqtiradi:

*Bo'lib Boniyg'a ul yanglig' mahorat,
Ki sharhidin kelib ojiz iborat.*

*Chekib bu qasri miynokor tarhin,
Kishi andoqki bir devor tarhin.*

Navoiy boshqa hunarmand ustalar ta'rifini berishda ham shunday yorqin mubolag'alardan foydalanadi, maqsadki dostonni o'qigan kishi ongida ham bir kasbni egallagandan so'ng, uning piri darajasiga etmaguncha tinmaslik kerakligini singdirib boradi. Farhod ham qisqa muddat ichida binokorlik, tosh yo'nmoqlik, rassomlik, naqqoshlik kabi hunarlarni puxta o'rganib olganligi aytiladi. Dostondagi barcha yoshlar ma'rifat va hunar sohibi sifatida gavdalantiriladi. Jumladan, Farhodning dengizda tutungan do'sti bo'lmish Shopur ham ilm-hunarda, ham aql-zakovatda, ham sadoqatda benazir edi.

*Hunar bobida ustodi zamona,
Zamona ichra naqqoshi yagona.*

Dostonda yoshlarning kasb-hunarni puxta egallashi barobarida ko'ngil sofligiga erishganligi, jamiki axloqiy fazilatlarni ham egallaganligi ko'rinadi. Ular hunar va ilmda tengsiz bo'lgani kabi insoniylikda ham

benazirdir. Jumladan, Farhodning ko‘kaldoshi Bahrom va do‘sti Shopur yozuvchi istagidagi sadoqat, mehr va vafo timsolidir.

Dostonda ayollar tasviri ham o‘ziga xos. “Navoiyning ayollari faqatgina tashqi husn bilangina tavsiflanmaydilar. Bular o‘z aql va farosatlari bilan ham atrofdagi kishilarni hayron qoldiradilar”[5.63-b]. Shirin go‘zalligi bilangina tillarda doston bo‘lmaydi, balki aql, fahm-farosatda ham beqiyos, bunyodkorlik, sadoqat, ilm-ma‘rifat homiysi ham edi. Shirinning hayosi, jasorati, ilmu ma‘rifati “*Bitildi dard ila bir turfa maktub, Demay har satreki, har lafzi marg‘ub*” deya ta‘riflangan, oshig‘iga yozgan ma‘noli, mazmundor birgina maktubidayoq yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘zining nozik hislarini sidqu sadoqati, mardligini xalq dostonlaridagi alp qizlar kabi ifoda etadi:

*Sharafdin bo‘lg‘on ermishsen Sulaymon,
Mening birla unutmahdu paymon!*

*Chu sen torting Sulaymonliq maqomin,
Demon qil manga Bilqis ehtiromin.*

*Agar Bilqisdek yoru azizing
Bo‘la olmon, ham o‘lg‘aymen kanizing.*

*Bir ish Bilqisliqqa bo‘lsa mone‘,
Sulaymong‘a Pari ham keldi tobe‘.*

*Agar Bilqis bo‘lmoq yo‘qsa haddim,
Pariliqdin xud o‘lmas qilsa raddim.*

Mazkur maktub necha yillarki, ko‘ngillarni zabt etganligi uning haqiqiy oshiqning chin nolalari ekanligidadir. Bu maktubning har bir satri alohida tahlil va talqin qilinsa ham Shirinning siymosi bus-butun gavdalanadi. Uning axloqiy go‘zallikdagi yuksak martabasi ham to‘lavonli his qilinadi. Mehinbonu ham har tomonlama Shiringa munosib opa, nafasat va siyosat maydonida haqiqiy malikadir. U haqidagi shoir bergan qisqacha ta‘rif uning nechog‘li madaniyatli, jiddiy aql sohibasi ekanligini isbotlaydi:

*Mehinbonu donishparvar erdi,
Bilik ahliga shohi sarvar erdi.*

Xuddi shunday Shirin atrofidagi qizlarning ta‘rif-tavsifi ham o‘sha davr madaniyati haqida tasavvurlarimiz tiniqlashtiradi:

*Bu majlis ichra hozir o‘n dilorom,
Bori ham sarv qomat, ham gulandom[3.194-b].*

Navoiy o‘n qiz nomini shunday keltiradi: Dilorom, Diloru, Diloso, Gulandom, Susanbo‘, Sumanso, Parichehr, Parizod, Parivash, Paripaykarlar bo‘lib, har biri bir ilm sohasida mohir deb ta‘riflaydi. Biri she‘r dengizida g‘avvos, biri raqqosa, biri mantiq ilmining bilimdoni, biri hayrat (astronomiya, rassomlik) ilmida qalam tebratardi. Yana birining hunari haqiqat ilmni o‘zlashtirganligi bo‘lsa, boshqasi chiroyli so‘zlashning nozik jihatlarini ko‘rsatib berardi, yana biri tarixdan afsonalar so‘zlasa, boshqasi hikmat fanida yagona edi, birining zehni hisobda o‘tkir bo‘lsa, boshqa biri muammolarni oson yecha olishi bilan nom qozongandi. Kishining jamiyatdagi o‘rni uning atrofini o‘rab turgan shaxslarga qarab ham belgilanadi. Demak, Shirin ishtirok etadigan majlislarda ilmning turli sohalari bo‘yicha yetuk qizlar ishtirok etardi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Navoiy yosh avlodning, ayniqsa, ayollarning ham har sohada yetuk bo‘lishini xohlagan. O‘z fikriga ega, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiluvchi, teran fikrlovchi avlodni tarbiyalovchi ayollarning o‘zlari, eng avvalo, ma‘rifatli bo‘lishlari lozimligini chuqur anglashiladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida yoshlar obraziga alohida to‘xtaladi. Ularning ma‘naviy olamini ochib berishda kasb-u kamolotning nechog‘li ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib beradi. Dostondagi yoshlarning zakovati, jasorati, ma‘rifati, axloqiy barkamolligi bugungi yoshlar uchun ham ibrat maktabidir. Avlodning ham ma‘naviy, ham jismoniy yuksalishida doston yoshlarining ta‘lim-tarbiya usullarini o‘zlashtirish kutilgan natijalar berishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy zamondoshlar xotirasida. Tuzuvchi B. Ahmedov. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1985-y., 220-bet.
2. Navoiyda qaytish. Ibrohim Haqqul, “Fan”, Toshkent 2007-yil, 220-b.
3. Najmiddin Komilov. Xizr chashmasi., Toshkent “Ma‘naviyat”, 2005-y, 320-bet.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989-y., 590-bet.
5. Maqsud Shayxzoda. Mukammal asarlar to‘plami. 6 tom, 4-tom. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972-y., 372-bet.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA ZUHD MAQOMI TALQINI

Aziza OMANBOYEVA,
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

“Hayrat ul-abror”da tariqat, abror riyozatiga urg‘u berilsa-da, unda zohid obrazi va zuhd talqinlariga ham keng o‘rin ajratilgan. Zero, barcha tariqatlarning boshi zuhdu taqvodir. Mazkur maqolada Navoiy asarlari, xususan, “Hayrat ul-abror”da zuhd maqomi va zohid obrazi talqin hamda tasvirlaridan bahs yuritiladi.

Калит сўзлар: зухд, зоҳид, ишқ, маърифат, тақво, тариқат, риёзат.

Аннотация

В «Хайрат уль-Аброр» акцент делается на кропотливом труде тариката абрара, но также много места для интерпретаций аскетического образа и аскетизма. Ведь начало всех сект – благочестие. В данной статье рассматриваются трактовка и образы статуса аскетизма и образ аскетизма в произведениях Наваи, особенно в «Хайрат уль-Аброр».

Ключевые слова: аскетизм, аскетизм, любовь, просвещение, благочестие, тарикат, риязат.

Abstract

In Khairat ul-Abror, the emphasis is on the painstaking work of the abrar tariqah, but there is also a lot of room for interpretation of the ascetic image and asceticism. After all, the beginning of all sects is piety. This article discusses the interpretation and images of the status of asceticism and the image of asceticism in the works of Navai, especially in "Khairat ul-Abror".

Key words: asceticism, asceticism, love, enlightenment, piety, tarikat, riyazat.

Alisher Navoiy ijodida zuhd maqomi va zohid obrazi ayricha ifodaga ega. Mutasavvif shoir ijodiyotining turli janrlarida tasavvufiy maqomlardan bahs yuritarkan, zuhd maqomiga bo‘lgan atroflicha munosabatni ham ko‘rish mumkin. U zuhd va zohid xususidagi fikr-qarashlarini janr talablari va ruhidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Shu bois shoirning barcha asarlaridagi mulohazalari jamlansagina zuhd maqomi mohiyati va zohid shaxsiyati haqidagi bilim hamda tasavvur

mukammal bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Zohid shaxsidan so‘z ocharkan, hech bir o‘rinda Navoiy “xoh oz bo‘lsin, xoh ko‘p bo‘lsin – dunyo moliga, ko‘ngilga manzur narsalari-yu maqomlaridan o‘lik kabi yiroqlashgan” chin ma’nodagi zohidlarni qoralagan emas.

Tasavvuf maqomlarining har biri ulkan riyozat olami, qay biriga jism bilan erishilsa, yana biriga hol orqali ko‘tariladi. Bu yo‘lda chin sidq ila Yor visolidan umidvorlik o‘tida yonayotgan oshiqning esa foniy dunyoga qiziqishi bo‘lmaydi. Solikning ko‘nglida hoyu havaslarga joy yo‘q. Asl zohidlar mana shu haqiqatni o‘zlarining chin maslagiga aylantirgan komil insonlar edi. Tasavvuf ta’limotida ilk bosqich zohidlik davri hisoblanadi. Bu davrning asosiy xususiyati Alloh va jahannamdan qo‘rquv edi, deyish mumkin. Ilk zohid so‘fiylar har bir ibodatlarini chuqur mushohada va mujohada bilan amalga oshirishgan-ki, har safar sajdaga bosh qo‘yishar ekan, Ulug‘ Murshidning qarshisiga yuz tutishib, Uning o‘z so‘zlari ila O‘ziga munojot qilishgan, oyoqlari ostida yonib turgan jahannam olovini his etishgan. Bunday ulug‘ zohidlardan Boyazid Bistomiy, Hasan Basriy, Abdulloh Ansoriy, Uvays Qaraniy, Robiya al-Adaviya, Ibrohim Adham kabi din va tasavvuf ulamolariga Hazrat Navoiy ulug‘ bir e’tiqod bilan qaragani ma’lumdir. Asarlarida ham ularning amallari bir ibrat, so‘zlari buyuk bir hikmat ekanligini ta’kidlaydi. Ammo davrlar almashinuvi bilan zohidlarga muqallidlar (taklidchilar) ko‘payib qoldiki, Navoiy ana o‘shanday qavm haqida qattiq e’tiroz, chuqur hayrat, siniq ko‘ngil bilan “Hayrat ul-abror” dostonining to‘rtinchi munojotida shunday yozadi:

*Zuhd ila qavmeki vara’ qildilar,
Qilg‘oni uchun muzd ta’ma qildilar*

Taassufki, shoir aytganidek, ushbu qavm ibodatlari, parhezkorliklari uchun muzd – ish haqi so‘rashni unutishmagan. Nafslarini har tomondan tiyishgani uchun, “haqlar”ini umid bilan ta’ma qilishar edilar. Bora-bora ularning bu dunyodan qo‘l siltashi, oxirat dunyosidagi jannat ne‘matlaridan ta‘magina emas, bu dunyoda ham hurmat-ehtirom qozonish uchun edi.

*Har kishi bir qati’ tamattu qilur,
Muzdini yuz oncha tavaqqu qilur.*

Navoiy ushbu baytlarni davom ettirib, soxta zohidlar lablarini bu kecha sharobga tekkizishmagani uchun tongla turib, “bodayi kavsar”ni talab qilishadi, deydi. Bu dunyoda “jamil”, “yor” istamayotgan har bir kasning “Hurlarning jamolidan ta‘masi bor”, bugun umrini vayronalar

qat'ida o'tkazayotganlarning esa "Qasri murassa" talabi borligini aytadi. Navoiy bu yanglig' insonlarning amallari haqida :

*Mumkin erurmi ekin oyo bu ish?
Aylagaysen sen har ish, illo bu ish!–*

deya, bunday zuhd egasi bo'lib qolishdan qaytaradi.

Chin ma'nodagi zuhd-u vara' egasi bo'lganga esa behisht ajri bo'lsa ne ajabligini aytib:

*Ahli vara' ajri bo'lub gar bihisht,
Kuysa tomug' o'tig'a isyonsirisht, –*

deydi. Navoiyning zuhd haqidagi tavsiflari "Mahbub ul-qulub"da o'zga rangda tasvirlanadi. Umr xulosalari sanalgan mazkur asarda zuhd ta'rifi quyidagicha: "Zuhd dunyo orzularidin kechmakdur va nafs alarning mavti zahrin ichmakdur. Va molu joh xayoli rishtasin ko'nguldin uzmakdur va nangu nomus butlarin ushaturg'a o'zin tuzmakdur va qabul umidig'a riyozat tariqin tutmoqdur. Va nafsining barcha muddaolarin unutmogdur"[2,48]. Ko'ramizki, Navoiy nafaqat bu dunyoda, balki oxirat diyorida ham hech qanday ta'ma va havoyi havaslarni o'ylamasdan Alloh visoliga tashnalik chin zohidlikdir, degan xulosani ilgari suradiyu va yuqoridagi fikrlarini davom ettiradi: "...va boshni riyoyi sajdag'a indurmamakdir, balki andoq toatni xayolg'a kelturmamakdur"[2,48]. Albatta, bu asarda Navoiy zuhd maqomi va zohid shaxsiyatini badiiy-nazariy asoslaydi. Boshqa asarlaridagi turli hol va kechinma, har xil shakl va ifodada sochilib yotgan qarashlari "Mahbub ul-qulub" tizimga solinadi. Shoir bu xususda "Hayrat ul-abror"da ham maxsus bir bob (XXVIII) ham keltiradi va undagi talqin va tasvir o'ziga xos:

*Ey bo'lubon san'at ila xirqapo'sht,
Shom-u sahar zikr ila solib xurush.
Xirqa uza baxyaki har yon chekib,
Zuhd-u riyo vuslalaridin tikib.*

Shunday insonlar borki, ularning shom-u sahar qilayotgan zikrlari ham behuda dod-u voydir. Xirqalarining har bir tikilgan yamoqlari ham riyoyi zuhdni ya'ni ikkiyuzlamachilikka yo'g'rilgan zohidlikni eslatadi, deydi. Ular o'zlari boshchilik qilayotgan xayllarini ham zulmat vodiysidan to'g'ri tomug' o'tiga boshlab boradilar. O'zlari panoh topgan yerlarini xonaqoh atab, uning ichlariga bo'yralar solishadi, uning ranglari makrdan, riyo hidlaridan to'ladir.

*Xonaqoh ichkari solib bo'riyo,
Rang anga zaraq o'lubon, bo'-riyo.*

Ular yana o‘zlarini shayx deb ham e‘lon qilib olishadi, toatlari ham, xuddi, shaytonga itoat qilgan bilan bir xildir. Bu kimsalarning barcha ishi jirkanch, ular tubanlikda sarhadsizdirlar. Navoiy esa ularga qarata “Bemazaliqda borisi birdek”,– deydi. Bu kabi nafs bandalarining amallaridan yoqa tutib aytadiki:

*Subhanalloh, bu ne nafsi laim,
Nafsni qo‘yg‘il, ne azobi alim.*

Alisher Navoiy riyo va tama‘ga qarshi hamisha kurashgan. Ularga qarshi shoirning hamisha ma‘rifat qilichi bo‘lgan. Riyokor shayxlar, ikkiyuzlamachi munofiqlar haqida ming nadomat va afsuslar ila aytgan so‘zlari bugungi o‘quvchining qalbini ham larzaga solib, uyg‘oqlikka chorlaydi:

*Bu el erur borcha yomondin yomon,
Kimki yo‘q ondin yomon, ondin yomon.*

Hazrat Navoiy “Ondin yomonroq”lar topilmaydigan kimsalarni zohidlar timsolida gavalantiradi. Ushbu guruhning tomug‘ oloviga yonishga mahkum azoblanishlarini aytarkan, ammo olov ham bu kabi kimsalarni kuydirishdan azoblanishini ta‘kidlab, “Kuygali ham loyiq emasdur biri” deya, fikrlarini boshqa tomonga yo‘naltiradi. Endi ushbu kimsalarning mutlaqo aksi bo‘lgan, din-u diyonatda, fikr-u balog‘atda yuksak martabaga ega bo‘lgan ahli ma‘ni, ahli donishlar to‘g‘risida so‘z yuritadi:

*G‘ussa jahon ichra chekib jon uchun,
Jonni fido qilg‘ali jonon uchun.*

Navoiy zohidlarga zid o‘laroq bu toifani ta‘rif-tavsif qilar ekan, dunyoning barcha yaxshiyu yomonidan ham kechib, na masjid va na mayxonaga boqarlar, balki dayr va Ka‘ba sori ham nazar solmaslar, ular bu dunyoni bir “xoshok”cha ham ko‘rmaslar, boshdin oyoq bir-birlari uchun ko‘zguga aylanib, bu ko‘zguda faqatgina Haq jamolini ko‘rishni istarlar:

*Har sorikim, nozir o‘lub Haq ko‘rub,
Qilg‘uchini foili mutlaq ko‘rub, –*

deya chin zohid-u so‘fiylarni ta‘riflaydi, agar ular Haq diydoridan ayrilar ekanlar, ko‘zlaridan oquvchi qatra yoshlar xuddi, Xizr uchun obi hayotdek bo‘ladi. Ular qiladigan toat esa:

*Toat etib har biri to joni bor,
Jon chekibon onchaki imkoni bor.*

Va ular har bir ibodatlarida chin oshiqlik ila Yaratgan zotning vasli va muhabbatini tilasharki, ularda zarracha ham riyo yo‘qdir. Shu qadar sof

muhabbat bilan Yorga oshiqlik, Yaratganning yaratilganiga bo'lgan muhabbat, ya'ni Jannatning noz-u ne'matlaridan bahramand bo'lish uchun va yoki aksincha jahannam azoblaridan chora istabgina amal qilishmaydi.

*Neki qilib qasd aning amri – o'q,
Uchmoq umidi-yu tomug' biymi yo'q.*

Hazrat Navoiy ushbu bobdan keyin o'ziga murshid-u komil hisoblagan shayx Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyatni keltiradi. Ansoriy aytmishki,

*Do'zax o'ti biymi ham ermas g'araz,
Ne buki, jannat anga bo'lg'ay evaz.*

Ansoriy tilidan deydi, umid bilan Haqqa sig'inayotgan kishi, nafsining najotini tilash bilan band bo'ladi, kim umid bilan farsudaliq chekar ekan, bundan qasdi ravzada osudaliqdir. Haqdan har ikkalasini (savob-u gunohni, halol-u haromni, jannat-u do'zaxni) ham olisda bil! Muzd uchun ikkalasini ham muzdur bil! Chunki har ikkalasi ham Haq taoloning amri bilan yaratilgan maxluqdir. Bandalikni amr etgan Alloh uchun men har doim qoimman va bu toatni tun-u kun sidq bilan ado etish oliy sharaf bo'ladi. Navoiy esa yuqorida taqlidparast, deya atagan zohidlarga qarata ushbu bayt bilan hikoyatni yakunlaydi:

*Uchmog'-u zohid, tomug'-u bul havas
Bo'lsa havas yor Navoiyg'a bas.*

haqida har doim yuksak ehtirom bilan qalam tebratgan. Xususan, "Nasoyim ul-muhabbat"ning eng oxirida bir qancha valiy ayollarning nomlarini zikr qilib o'tadi, qit'alarining birida esa:

*Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin,
Olam ichra gar yorug'liq bo'lsa fosh.
Yo'q ajab, chunkim arab alfozida,
Istiloh ichra muannasdir quyosh, –*

deya ulug'lagan bo'lsa, o'zining yana bir qit'asida:

*Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq,
Pok xotunlar oyog'ining izi.*

deydi. Bundan esa shunday xulosa qilishimiz mumkin, Allohga bo'lgan ishq, zuhdu toatda na jins, na irq, na millat, na martaba hech biri ahamiyatga ega emasdir. Qolaversa, hazrat Navoiy chin zohidlikni aslo qoralamagan, balki asl hurmat bilan qaragan, bu fikrga yorqin dalilni biz Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat" asari orqali bilib olamiz. Jumladan : Abu Turob Naxshabiy, Ahmad Abulxavoziy, Abdulqosim Roziy, Abdulmuzaffar Tirmiziy, Shayx Abdubakr, Mavlono Nizomuddin Xomush, Qozi Shafiuddin Buhayro, Amir Sharafiddin Ashraf, Mavlono

Roziyuddin. Nabiy, Mavlono Kalon Ziyoratgohiy, Sayyid Nematulloh, Shayh Bidvoziy, Shayx Ziyoratgohiy, Xoja Abdulaziz Zomiy, Mavlono Saduddin, Sadridin Ravvosiy, Tojuddin Ahmad Shijaniy, Shayx Yaxyo, Mavlono Humoyuddin Kalobodiy, ayollardan. Hafsa binti Sirin Joriyayi Majhula va yana bir qator avliyoyi zotlarni zuhd-u taqvoda mustahkam ekanligini hurmat bilan tilga oladi. Nomlarini ayricha ehtirom ila o‘quvchining xotirasiga muhrlaydi. Navoiy asarlari, jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonidagi zuhd maqomi, zuhd ahli haqidagi fikr-qarashlarida ham bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning taqlidparast zohidlarni qoralashi, ularni ishq va irfon ahliga qarshi quyib, haq yo‘lchiligi haqiqatlaridan bahs yuritishida ham chin zohidlarga bo‘lgan ehtirom sezilib turadi. Alisher Navoiy ma’naviy karvonda ildamlashda zohidona tarkning muhimligini ta’kidlab zohidlikni ulug‘lasa, bu yo‘lda tama’ va riyoning g‘ov ekanligini uqtirish uchun ham kozib zohidlarni misol qiladi. Shoir asarlarida zuhd va zohidlik mana shu ikki tushuncha mohiyati va talqiniga egaligigi bilan ham xarakterlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. A. Navoiy. Xamsa. Hayrat ul-abror. Mukammal asarlar to‘plami.10 jildlik, 6-jild. Toshkent. “G”. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”,-2012
2. A. Navoiy. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya.. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik,14-tom. Toshkent. “Fan”,1998
3. U. Turar. Tasavvuf tarixi “Istiqlol”- 1999
4. N. Komilov. Tasavvuf. Toshkent. “Movarounnahr”-“O‘zbekiston”-2009
5. H.Boltaboyev. Islom tasavvufi manbalari. Toshkent. “O‘qituvchi”-2005.

NAVOIYSHUNOSLIK MUAMMOLARI

ADOLAT TASVIRI VA ALISHER NAVOIY DAHOSINI ANGLASH MUAMMOLARI

Boqijon TO‘XLIYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
bokijontukhliev@inbox.ru

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning adolat g‘oyasining badiiy ifodasiga oid tajribalari tahlilga tortilgan. Unda bu boradagi an‘ana va shoirning kashfiyotlari haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: Alisher Navoiy, adolat, g‘oya, badiiy mahorat.

Аннотация

В статье рассматриваются опыты Алишера Навои по художественному описанию хорошей идеи. Говорится об открытиях поэта в этом отношении.

Ключевые слова: Алишер Навои, справедливость, идея, художественное мастерство.

Abstract

The article examines Alisher Navoi's experiments on the artistic description of a good idea. It talks about the poet's discoveries in this regard.

Key words: Alisher Navoi, justice, idea, artistic skill.

Alisher Navoiy fenomenini anglash ham, boshqalarga buni yetkazish: tushuntirish va izohlash ham yengil yumushlar sirasiga kirmaydi. Buning uchun hamma: tushuntiruvchi ham, tushunishga intiluvchi ham Alisher Navoiyga daxldor bo‘lgan narsalarning juda ko‘pini tasavvur etishi, bilishi, kamida, mutafakkir adibning asarlarini o‘qib chiqishi shart. Tushuntiruvchilar zimmasida esa Amir Alisher Navoiy o‘qigan kitoblarni o‘qib chiqish vazifasi ham jiddiy tarzda ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Mutafakkir o‘qib chiqqan, foydalangan, o‘z asarlarida ularning ma‘rifiy nurlaridan bahramand bo‘lgan, lekin nomlarini biror joyda qayd etmagan

ustozlar va ularning o‘tkir qalamlariga mansub asarlar bu ro‘yxatga kirmaydi.

Biz hali Alisher Navoiyning o‘zi nomlarini tilga olgan ayrim asarlar etagini ham to‘laligicha tuta olganimiz yo‘q.

Bu mulohazalar navoiyshunoslikning bugungi darajasiga e‘tiroz yoxud inkor emas. Bular navoiyshunoslikning zimmasida hali ulkan vazifalarning salmog‘i nihoyatda kattaligini e‘tirof va ta‘kidlab o‘tish, xolos.

Alisher Navoiyning qalami sehri, o‘tkir, o‘z tili bilan aytganda “nuktapardoz”. Agar o‘sha davr adabiy janrlarining eng mittisi fardu eng hashamatlisi doston bo‘ladigan bo‘lsa, ularning barchasida yaratilgan asarlar buyuk mutafakkir nomini bugun ham munosib tarzda sharaf lab turibdi. Mavlono qaysi mavzuda qalam tebratgan bo‘lsa, bularning barchasi haddi a‘losiga yetgan. Shuning uchun ham ular haqida muallifning “so‘zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a‘lo darajadin o‘zga yerni beganmagay”, – degan e‘tiroflariga haq berish joiz” [1.527].

Adib asarlaridagi odam va olamga daxldor bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy hamda adabiy-estetik muammolarning badiiy tadqiqini ko‘rish qiyin emas. Navoiy ijodxonasida adabiy qahramonlarning ulkan galereyasi yaratilgan. Ularning yoshi, kasbi, mashg‘uloti, ijtimoiy mavqeyiga qaralsa, jamiyatdagi deyarli har bir qatlam, har bir guruhning qamrab olingani oydinlashadi.

Birgina ijtimoiy adolat muammosining badiiy talqinining o‘ziyoq bu mulohazalarni tasdiqlaydi. Ushbu muammo jamiyatdagi turli toifadagi shaxslarga bog‘liq holda talqin etiladi.

Alisher Navoiyning talqinida adolat, ko‘p jihatdan, hukmdorga bog‘liq. U qanday fazilatga ega bo‘lishi lozim? Uning yaxshi yoki yomonligi qanday o‘lchanadi?

Talqinlarda ularning o‘ziga xos “o‘lchov birliklari” ham yaratilgan. Bunga ko‘ra, hukmdorda adolat, donishmandlik, bunyodkorlik, xalqparvarlik etakchi fazilatlarini bo‘lishi kerak. Jumladan, “Saddi Iskandariy”dagi Kayumars uchun asosiy shior “oyini dod”, ya‘ni “adolat udumi” edi.

Navoiy ushbu muammoni hal etishda podsholarning silsilalaridan, aniqrog‘i, shu silsilaga mansub shohlarning amalga oshirgan ishlarini boshqalar xotirasiga keltirish usulidan foydalanadi

...Yana bir jahondor Hushang⁷ edi

Ki, zebandai toju avrang edi.

*Anga yo 'q xiradmandlig' ichra had,
Bitib nusxaye "Jovidoni xirad". [2/75-76]*

Demak, Ho'shang bir tomondan jahondorlik bilan, ikkinchi tomondan esa ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan asarlarni ko'paytirib, ularni ommalashtirish bilan shug'ullangan.

Shu o'rinda mumtoz matnlarni o'qish, ularni tushunish hamda boshqalarga tushuntirish bilan bog'liq bo'lgan bir hodisani qayd etishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, matn tushunchasi bevosita uni bunyod etuvchisi hamda uni qabul qiluvchisi uchun har doim bir xil bo'lavermaydi. Bu matn bilan qaysi vaqt oralig'ida tanishish jarayoniga bevosita bog'liqdir. Demoqchimizki, Navoiy bu asarni yozgan paytda o'sha davr qurshovida edi. Aniqrog'i, Alisher Navoiyni qurshab turgan ijtimoiy-ma'naviy muhit adib asarlarining asosiy qismini qo'shimcha izoh va sharhlarsiz ham tushunishga imkon bergan. (Albatta, bu hamma asarni barcha kitobxon har doim bir xilda qabul qiladi, degani emas. Gap ma'lum badiiy-estetik tayyorgarlik darajasini ta'min etadigan ijtimoiy-ma'naviy muhit haqida bormoqda).

Alisher Navoiyning ushbu dostoni yaratilgan paytda bu yerda nomlari tilga olingan qahramonlar, xususan, qadimgi tarixga daxldor bo'lgan hukmdorlar haqidagi mif, afsona, rivoyat va ertaklar taomilda bo'lgan. Aholining savodli qismi esa tarix kitoblaridan ham ko'plab ma'lumotlarni olish imkoniga ega edi.

Bu o'rinda biz birgina Firdavsiyning "Shohnoma"sini esga olishimiz mumkin. Bu asar shu darajada keng tarqalganki, uning fors-tojik tilida yaratilgani turkiy xalqlar uchun hech bir monelik qilmagan. Ayniqsa, ikkitillilik muhiti bunday imkoniyatni yanada kengaytirgan.

Yana Ho'shangga qaytaylik. U kim bo'lgan? Alisher Navoiy uni nima uchun tilga oladi? Bu savolga javob berishda bizga buyuk Firdavsiy yordam beradi. "Shohnoma"dagi ayrim baytlarni o'qiymiz:

*Biyozid Hushang chun sher chang,
Jahon kard bar dyevi nastuh tang... [4.51]
Hushang qildi sherday o'shal onda jang,
Yaramas yov uchun jahon bo'ldi tang. (tarjima bizniki – B.T.)*

*V-z on pas jahon yaksar obod kard,
Hama ro'i geti pur az dod kard... [4.52]
Keyin bo'ldi olam ozoda, obod,
Adolat tufayli elu yurti shod.*

*Naxustin yakye gavhar omad ba chang,
 Ba donish zi ohan judo kard sang. [4.52]
 Birinchi guharni u topdi, qarang,
 Bilig sabab judo temir ila sang.
 Chu bishnoxt, ohangari pesha kard,
 Kujo z-o‘ tabar, arra, tesha kard. [4.52]
 Temir ishi bo‘ldi u zamon pesha,
 Yaraldi bolta-yu arra-yu tesha.
 Az in pesh k-in korho bud basech
 Nabud xo‘rdaniho juz az meva hech. [4.52]
 Hama kori mardum nabudi ba barg,
 Ki po‘shidanishon ham bud barg. [4.53]
 Bu ishlardan oldin ne erdi tilak,
 Ozuqa bormidi mevadan bo‘lak?!
 Ko‘p ishga yarardi shoxi, butog‘i,
 Boru yo‘q kiyim ham daraxt yaprog‘i.*

Xullas, matndagi birgina Hushang nomi o‘sha davrdagi ko‘plab kitob muxlislari uchun mana shunday tasavvurlarni uyg‘ota olardi.

Ayni mana shu nuqtalar Alisher Navoiyning o‘z adabiy ideallarini nisbatan yorqinroq ifodalash imkonini bergan. Birgina Hushang tavsifi shunday xulosa chiqarishga to‘la imkon beradi. Qolaversa, bu yerda podshoning bilim va ma‘rifatga bo‘lgan qiziqish va e‘tibori ham bejiz ta‘kidlanmagan. “Jovidoni xirad” qadimiy andarzlarning an‘analari silsilasida yaratilgan turkum kitoblarning biri. Ayni paytda buni Navoiy o‘qigan qadimiy manbalardan biri sifatida ham qarash kerak. Kitobning muallifi “faylasuf, shoir, mashhur tarixchi Miskavayh Roziy (932-1030) axloq nazariyasini yaratgan mutafakkirlar silsilasidan bo‘lib, ikkita sermazmun kitob: “Tahorat ul-a‘roq” va “Tahzib ul-axloq” larini yozadi. Bularni takomillashtirish ustida ishlab amaliy axloqqa oid qimmatli “Jovidon xirad” kitobini tuzadi. “Jovidon xirad” Sharq va G‘arb mutafakkir faylasuflarining hikmatlaridan iborat” [3.199].

“Saddi Iskandariy”da tilga olingan Tahmuras bunyodkorlik bilan jiddiy shug‘ullangan bo‘lsa, Jamshid yangi o‘lkalarni qo‘shib olish hamda o‘sha joydagi taxt va unga bog‘liq mansablarni munosib kishilarga berish, ko‘plab yangi va yaxshi ishlarni joriy etish bilan band bo‘lgan:

*Base shahr olamda qildi bino,
 Nishopuru Marvu Sipohon⁹ yano.*

*Yana surdi Jamshid¹⁰ olamg‘a raxsh
Ki, ham taxtgir erdi, ham tojbaxsh.*

*Xaloyiqqa ko‘p etkurub intifo‘,
G‘arib amr ko‘p ayladi ixtiro‘...*

Tasvirda o‘zaro zid qo‘yish usuli ham hukmdorlar faoliyatini ko‘rish, kuzatish hamda baholash imkonini beradi:

*Faridun¹² edi so‘ngra ofoqgir,
Anga bori ofoq farmonpazir.
Yana dahr dorosi Zahhok¹¹ edi,
Ki, el qoni to‘kmakta bebok edi... [2.76]*

Ko‘rinib turganiday, Faridun ezgu fazilatlar egasi sifatida tasvirlansa, Zahhok yomonliklar timsoli sifatida ko‘rsatiladi. Qiziqki, bunday juftliklarning nisbatan qadimiy talqinlarida ham ayni mana shunday yondashuv ustuvor mavqe tutgan edi:

*So‘kushlug nelug buldi Zahhak o‘tun,
Nelug o‘gdi buldi Faridun qutun.
Biri ezgu erdi, ani o‘gdilar,*

Mazmuni:

Yaramas Zahhok nima uchun so‘kishga munosib bo‘ldi,
Baxtli Faridun qanday qilib olqishlar oldi.
Biri ezgu edi – uni maqtadilar,
Biri yomon edi – uni so‘kishdi.[5.96-97]

Alisher Navoiyning ideal shoh yoki shoh ideali haqidagi tasavvurlari nihoyatda boy va aniq. Ularning go‘zal namunalari, jumladan, “Saddi Iskardariyda”dagi Iskandar obrazida ham o‘z ifodasini topgan.

Dostonning XIX bobi “Iskandarning saltanat tojidan sarkashlik qilib, xilofat taxtidin ayoq tortqoni va Rum ahli boshlarin oyog‘iga qo‘yub, aning maqdamidin taxt poyasin baland qilib, toj qadrin arjumand qilg‘onlari va aning adli aynining quyoshi bila zulm shomining xuffoshin ko‘r etib, jahonni yorutqoni va zulm ahlining zulmatdek olam yuzidin qiroq tutqoni” tarzida nomlangan.

Faylaqus o‘g‘li – Iskandarg‘a toju taxtni taqdim etadi. Iskandar “donoyi ofoq edi, bilik ichra ofoq aro toq edi”. Shunga ko‘ra, bu taklifdan malolat chekadi. Ammo ota taklifini rad etish ham farzandlarning munosib raftorlariga kirmaydi. Shuning uchun u “ulusni yig‘ib, “bir anjuman tuzadi”, ularga qarata dilidagi mulohazalarni bildiradi. Shoir Iskandar mulohazalariga quyidagi mazmuni ham singdirib yuboradi:

1. Ularning makon va manziliga aniqlik kiritiladi:

*«Ki, ey qavmkim, mulkungiz keldi Rum
Ki, ollimda holo qilibsiz hujum. [2.105]*

2. Inson zotining o‘zaro tengligi, ularning barchasi xudo nazdida bir xildagi – bandaligi ta’kidlanadi:

*Agar sarfarozi ar sarafgandasiz,
Bori Tengriga men kibi bandasiz.*

3. O‘zining ulardan ustunligini emas, aksincha pastroq turishni haqqoniy va ta’sirchan misol vositasida tushuntiradi:

*Eman siz kibi, sizdin o‘ksuk base,
Atosiz, dil ozurdaye, bekase.*

4. Nihoyat taxtni rad etish uchun asos bo‘lgan dalillarning asosiysiga ko‘cha boshlaydi. Bunda taxtning an’anaviy meros asosiga qurilgan qadriyat ekani qayd etilsa-da, bunga munosiblik darajasi ham muhim talablardan biri ekani alohida uqtiriladi. O‘z ota-bobolarining ayni mana shu talablar bilan uyg‘unligi, o‘zining esa shu jihatga ko‘ra, farq qilishi (bu borada o‘zining tajribasizligi hamda saltanat ishining murakkabligi)ni yig‘ilganlar e’tiboriga havola qiladi:

*Atomni agar lutf aylab Iloh,
Bu kishvar uza ayladi podshoh.*

*Hamono bu ishga sazovor edi,
Bu yuk chekkali quvvati bor edi.*

*V-ar obovu ajdodima qildi Haq,
Bu mulk ahlig‘a hukmronliq nasaq*.*

Nasaq – tartib; qoida, urf-odat.

*Alar dog‘i zeboi taxt erdilar,
Tavonou feruzbaxt erdilar.*

*Vale men erurmen bag‘oyat haqir,
Dog‘i saltanat amri behad xatir.*

Xatir – xatarli, qiyin, og‘ir.

Mazkur mantiqiy dalillar silsilasidan keyin Iskandarning o‘z shaxsiyati haqidagi mulohazalari yig‘ilganlar uchun kutilmagan, ammo haqqoniy e’tirozlar sifatida jaranglaydi:

*Bu ishga keraktur tavono kishi,
Emas men kibi notavono ishi.*

Sher va fil ko'taradigan yukni chumoli va pashshaga yuklash mumkinmi? Ya'ni mendan oldingilarning sher va filday bo'lganlari holda ularning muqobilida men chumoli va pashshaga o'xshab qolaman:

*Erur tortmoq sher chekkonni mo'r,
Yukin pilning aylamak pashsha zo'r.*

Odatda, asosiy fikr, ko'pincha, nutq oxirida joylashadi. Navoiy ham Iskandar nutqini keltirishda shu tamoyilga rioya qiladi. Endi Iskandar bu borada o'zining hech qanday niyati bo'lmaganini, buning ustiga bu borada o'zini qobiliyatsiz hisoblashini, shunga tayanib o'z uzri va taklifini ham aytadi:

*Ne bor shahlik aylarga niyat manga,
Ne aylay desam qobiliyat manga.*

*Bu taklifdin chunki ranjurmen,
Agar aylasam tark – ma'zurmen.*

*Chu men ayladim ajzim izhorini,
Bu andeshadin ko'nglum ozorini.*

*Siz emdi o'zunguzga shohye toping,
Bu kishvarg'a kishvarpanohye toping. [2.106]*

Shundankeyin Iskandar tilidan shoh bo'ladigan kishining qanday fazilatlar egasi bo'lishi lozimligi ham aytiladi:

*Har ishta zamon ahlining foyiqi
Ki, to bo'lg'ay ul shohlig' loyiqi.
Foyiq – zabardast; ustun, afzal; munosib.
Quyoshdek qaviymehru ravshanzamir,
Va gar chiqsa ashhabqa ofoqgir.*

*Adolat aro fasli navro'zdek,
Siyosatda barqi* jahonso'zdek.*

****Barq – chaqmoq, yashin.***

Iriklik chog'i xasmg'a chorasoz,
Qotig'liq mahalli raiyatnavoz².*

****Iriklik – erkinlik; birovga qaram bo'lmaslik.***

*Qotig'liq – qattiqlik, qiyinchilik.
Anga taxtu davlatni maskan qiling,
Boshin toj birla muzayyan qiling*

*Kim, ul yog‘durub abri ehsonini,
Eramdek qilib mulk bo‘stonini.*

*Adu xaylin oshuftahol aylasun,
Sanam zulfidek poymol aylasun...
Musofir yo‘li rishtasin uzmasun,
Qaroqchi qarosini ko‘rguzmasun.*

*Qilib zabt ila mahkam o‘g‘ri yo‘lin,
Ulus molidin qisqa qilsun qo‘lin...*

*Berib zulmgustarga farsudaliq,
Raiyatqa etkursun osudaliq». [2.107-108]*

Bunday so‘zni kutmagan xalq hayronu lol bo‘lib qoladi, Ular ohu faryod chekib unga murojaat qilishadi:

***Qila olmayin bu balo ixtiyor,
Borimiz qilurbiz jalo ixtiyor!*** [2.109]

Shundan keyingina, noiloj qolgan Iskandar taxtni qabul qiladi.

***Bo‘lub xotiri haddin ortuq malul,
Ulus iltimosini qildi qabul.***

Bu yerda shoirning yana bir orzusi o‘z ifodasini topadi. Shohning har ikki tomonidan ham ikki donishmand o‘rin oladi. Shu o‘rinda yana Yusuf Xos Hojibni eslashga to‘g‘ri keladi. U adolat timsoli bo‘lgan Kuntug‘di elig – podshohning yonida avval donishmand Oyto‘ldini, keyinroq Aql-idrok timsoli bo‘lmish O‘gdulmishni tasvirlagan edi. Shunga o‘xshash Navoiy tasvirida Iskandarning yonida Arastu va Balinos turadi:

*Rizo zohir etgach, shahi navjuvon,
Arastuyi⁷ farzona qo‘pti ravon.*

*Olib tojni aylabon arjumand,
Aning boshidin ayladi sarbaland.*

*Ravon tutti aytib sano, bir qo‘lin,
Balinosi⁸ dono yano bir qo‘lin.*

Arastu va Balinos obrazlari har kimga ham tushunarli bo‘lavermasligi mumkin. Shuning uchun ham adib ularni Sharq odami – o‘zbek kitobxonlari ham osongina tushuna oladigan obrazlar bilan qiyoslaydi, aniqrog‘i buni ularga o‘xshatadi:

Arastu bila o‘q, Balinos edi

Ki, bu Xizr edi, ul bir Ilyos⁹ edi.

*Xaloyiqqa yuzlandi bir inbisot**

Ki, o'lturgali etti mufrit nishot.

****Inbisot – xursandchilik, shodlik.***

Nisor ul qadar sochti yaxshi-yamon

Ki, qildi nujum arzni osmon. [2.110]

Bu, agar bizning zamondagi atamalar bilan ifodalanadigan bo'lsa, mamlakat miqyosida *plyuralizm*, so'z erkinligi, ijtimoiy demokratiya, fikrlar rang-baraangligi sari yo'l degani bo'ladi.

Alisher Navoiy masalaning mohiyatini nihoyatda teran tushunadi, shuning uchun ham uning amaliy jihatlarini ham cho'zib o'tirmaydi, shu kunning o'zidanoq shoh aytgan hodisalar amal qila boshlaydi:

Ulus boshladi arzi hol aylamak,

Skandar bila qiylu qol aylamak.

Sahardin anga tegrुकim istivo,

So'rub, xalq dardig'a qildi davo.

****Istivo –kun o'rtasi, tush(lik) payti***

Kishi qoni to'kkanni bo'ynin urub,

Qo'lin kestururning, qo'lin kesturub.

Berib dod mazlumi g'amxorag'a,

Qilib rahm marhumi bechorag'a...

Bularning barchasi hali dengizdan bir tomchigina, xolos. Navoiyshunoslik oldida bu adabiy-estetik hodisaning asl ildizlarini topish, bu g'oyaning adib asarlaridagi yaxlit bir holdagi mazmun va mohiyatini uning yuksak badiiyat namunalari sifatida namoyon bo'lish shakllariga tegishlicha baho berish kelajakning vazifasi bo'lib turibdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Muhokmat ul-lug'atayn. // To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 10-jild. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Nashrga tayyorlovchilar [T.Ahmedov], S.Rafiddinov.– // To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 8-jild. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

3. Merosi jovidon. (Kitobi 1). Tahiyakunandai matn, muallifi sarsuxanu debocha va tavzehotu shorehi lug'ot Hamrobojev Nasimjon. – Xujand, Nuri ma'rifat, 2018. – 312 sah.
4. Firdavsiy. Shohnoma. Iborat az 9 jild. Jildi yakum. – Dushanbe, “Adib”, 1987. – s.480.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. (Saodatga eltuvchi kitob). Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov. –Toshkent, Fan, 1972, 964-bet.

AZƏRBAYCAN NƏVAİŞÜNASLIĞI: NAİLİYYƏTLƏR VƏ VƏZİFƏLƏR

Almaz Ülvi BİNNƏTOV,
filologiya elmləri doktoru,
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr”
şöbəsinin müdiri, almazulvi1960@mail.ru;

İki qardaş xalqın dostluq münasibətlərinin tarixi Xaqani Şirvani, Nizami Gəncəvi, İmadəddin Nəsimi, Mirzə Uluğbəy, Əlişir Nəvai, Məhəmməd Füzuli əbədiyyəti zamanındandır. Bizlər eyni babanın iki övladı qədər doğma və yaxınıq. Ona görə də Azərbaycan-özbək xalqlarının dostluq qardaşlıq tarixinin konkret rəqəmlə demək mümkün deyil, hətta əsla mümkün deyil!

Cənab Prezidentimiz İlham Əliyevin keçən ay Özbəkistana səfəri zamanı hər iki respublikanın liderləri Göysaray iqamətgahında eni arzuların rəmzi olaraq birlikdə ağac əkdilər. Dövlət başçılarının əkdiyi ağac iki xalq arasındakı arzuların, xalqlarımızın dostluğunun rəmzi kimi böyüyəcək, daha da möhkəmlənəcək. Eyni zamanda, Azərbaycan-özbək elmi-ədəbi əlaqələri eni bir mərhələyə qədəm qoyduğuna şahidlik etdik.

İnstitutumuzda fəaliyyət göstərən türk xalqları ədəbiyyatı şöbəsinin tədqiqatlarını diqqətlə izləyən və istiqamətləndirən institut rəhbərliyi – akademik İsa Həbibbəyli eni bir şöbənin yaranmasına ehtiyac olduğunu hiss edən kimi, 2016-cı ildə “Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr” adlı şöbə yaratmaq qərarını imzaladı. Bu Qərar Azərbaycandan ilk dəfə Herata gedilərək Əlişir Nəvainin qəbri ziyarət edilən ayda gerçəkləşdi. Bütün türk xalqları ilə elmi-ədəbi əlaqələrin genişlənməsinə hər mənada dəstək olan İsa müəllim, xüsusən Özbəkistanla tarixi əlaqə-

lərimizi uzaqgörənliklə dəyərləndirərək belə bir addımı atdı və uyğun mütəxəssisləri həmin şöbəyə cəlb etdi.

Ötən altı ildə o qədər işlər görüldü ki, həmin siyahını bir saat belə sadalamaq çox uzun bir zaman alacağını diqqətinizə etirmək istəyəm. Ona görə də yalnız bəzi nailiyyətlərimizi qeyd edirəm. Bu şöbədə ədəbiyyatlarımızı qarşılıqlı öyrənməklə, tədqiq etməklə yanaşı kitablar da yazılır, yeni kadrlar hazırlanır. Tarixdə ilk dəfə “Azərbaycanca-özbəkçə, özbəkçə-Azərbaycanca lüğət” (23.000 söz) hazırladıq və bu lüğət Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına Mədəniyyət Mərkəzinin layihəsi olaraq işıq üzünə çıxdı.

Bundan əlavə, rəqəm etibarilə elmi əməyimizin nəticəsi, institut Elmi Şurasının Qərarı ilə çapa tövsiyə olunan 40-a qədər kitab, bir xüsusi buraxılışdan, 300-dən çox elmi araşdırmalardan ibarətdir. Bəri başdan tam səmimi olaraq deyim ki, bütün bu nailiyyətlərin başında akademik İsa Həbibbəylinin nüfuzu, elmi və qarşılıqlı əməkdaşlıq siyasəti, təşkilatçılıq mədəniyyəti dayanıb. Burada qeyd etdiyim 40-a qədər kitabların ən vacibləri İsa müəllimin elmi redaktorluğu və ön sözü ilə nəşr olunub.

Öz adımdan deyim ki, təkcə Əlişir Nəvai, ümumilikdə, özbək ədəbiyyatı bağlı 350-ə yaxın məqalə və 25-ə qədər kitabın müəllifiyəm.

İnstitutumuzun “Müqayisəli ədəbiyyatşünaslıq” adlı beynəlxalq elmi jurnalının 2020-ci il birinci sayı “Xüsusi buraxılış” olaraq Azərbaycan-özbək elmi-ədəbi əlaqələrinə həsr olunub (elmi jurnalların nəşri tarixində ilk dəfə). Jurnalda əlaqələr tariximizə nəzər salınıb, hər iki xalqın qədim zamanlara söykənən dostluq-qardaşlıq əlaqələri təhlil edilib. 374 səhifəlik jurnalda, ümumilikdə, 44 məqalə (bu məqalələrdən 20-yə qədəri Əlişir Nəvai irsindən bəhs edir). Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri əyani şəkildə fotolar (28 səhifədə 55 foto) vasitəsilə təqdim edilib.

Bakının gözəl bir səmtində müstəqilliyimizi təmsil edən Azadlıq prospekti ilə böyük Nəriman Nərimanovun yadigarı, gənc yaşında II Dünya Müharibəsində həlak olan Nəcəf Nərimanov küçələrinin kəsişməsində Əlişir Nəvainin əzəmətli heykəli ucalır. Artıq neçə illərdir ki, xüsusən son altı ildir ki, mütəmadi olaraq, İnstitut rəhbərliyinin təşəbbüsü və bəzən də şəxsən iştirakı ilə Özbəkistan səfirliyi ilə birgə 9 fevral günü həmin heykəlin önünə gül çələngi qoyulur. Elə həmin gün də, ziyarətdən sonra İnstitutumuzda “Əlişir Nəvai və Azərbaycan” adlı beynəlxalq elmi konfrans keçiririk. Konfransa öz alimlərimizlə yanaşı Özbəkistanın tanınmış alimləri – nəvaişünasları dəvət edilir, onların da məruzələri dinlənir. Hətta pandemiya dövründə də bu ənənəni onlayn olsa da qoruyub saxladıq. Qarşılıqlı olaraq bizim əməkdaşlar da Özbəkistandakı

Əlişir Nəvai beynəlxalq elmi konfranslarına dəvət edilir. Ötən il Özbəkistanda artıq ənənəvi olaraq 67-ci dəfə keçirilən konfransa 17-ci dəfə qatılmaq şansım olub. Ədəbi əlaqələr və nəvaişünaslıqla bağlı birgə konfranslar keçiririk.

Əslində nəvaişünaslıq ənənəsini illər boyu akademik Həmid Araslı, ondan sonra Cənnət xanım Nağıyeva davam etdirmişlər. Hazırda estafet bizim nəsilədir. Adlarını qeyd etdiyim hər iki alim haqqında hələ də fəxrlə danışan özbək alimləri yanında həmin hörmət-izzəti qoruyub saxlamağa bütün vicdanlı əməyimizlə can atırıq.

Maqsud Şeyxzadə, Həmid Araslı, Cənnət Nağıyeva ənənəsini Xəlil Rza Ulutürk, İsa Həbibbəyli, Kamil Vəliyev, Nüşabə Araslı, Ataəmi Mirzəyev, Yaşar Qasimov, Akif Azalp, Ramiz Əskər, Elman Quliyev, Tərən Quliyev, Füzuli Bayat, Siracəddin Hacı, Zəhra Allahverdiyeva, Təhminə Bədəlova kimi tanınmış alimlər davam etdirmişlər və bu gün də davam edir.

Azərbaycan alimi olaraq Özbəkistanın bir çox universitetlərində – Özbəkistan Milli Universitetində, Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək dili və Ədəbiyyatı universitetində, Səmərqənd, Kokand, Cizzax, Nukus, Urgənc, Əndican, Fərqanə, Buxara, Nəvai və bir çox şəhərlərin ali məktəblərinin auditoriyalarında “Müstəqillik illərində Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələrində” “Əlişir Nəvai və Azərbaycan” adlı mühazirələr oxumuşam. Bunlar da təsadüfi deyil. Çünki adlarını çəkdiyim və çəkmədiyim bir çox ali məktəblər ilə bizim institutumuzun rəhbərlikləri arasında Əmək- daşlıq Memorandumları imzalanıb. Həmin sənəd əsasən bizim əməkdaşlığımızın hüquqi bazasını təşkil edir.

Özbəkistanda Əlişir Nəvai haqqında müdafiə edilən dissertasiyaların və onların avtoreferatlarına bizdən rəy yazıb göndərməyi xahiş edirlər, eni gələn nəslə hörmətlə bu mənada dəstəyimizi əsirgəmirik, bu rəqəm bəlkə də yüz və ya daha çoxdur.

İlk dəfə Əfqanıstanın Herat şəhərinə – Əlişir Nəvainin doğulub və əbədiyyətə qovuşduğu torpağa gedərək o dahi insanın məqbərəsini ziyarət etmişik. Bilirsiniz ki, son illər Əfqanıstana getmək çox çətin və həyati məsuliyyət daşıyan bir səfərdir. Əfqanıstan səfirliyi ilə institutumuzun qurduğu sıx və qardaşlıq münasibətləri iki dəfə (2016 və 2021-ci illərdə) belə bir səfərin gerçəkləşməsinə vəsələ olmuşdur. İlk dəfə Əfqanıstan səfirliyi Nəvai adına keçirdiyimiz konfranslara qatılmışdır. Hətta eri gəlmişkən, ilk dəfə Hindistan səfiri, məhz Zahirəddin Məhəmməd Baburun qalib gəldiyi Ranaların nəslindən olan cənab Sanjay Rana institutumuz – Zahirəddin Məhəmməd Babur konfransına gələrək eniliklə dolu maraqlı

məruzə etmişdir. Biz bu konfranslarda dinlədiyimiz məruzələri kitab halında nəşr etmişik.

Özbəkistanın bir neçə universitetinin Fəxri Professoru adına layiq görülmüşük: Akademik İsa Həbibbəyli və mən Özbəkistan Prezidentinin xüsusi diqqəti ilə yaradılmış Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək dili və Ədəbiyyatı universitetinin Fəxri Professoru adına layiq görülmüşük. Əslində həmin Universitetin rektoru, nəvaişünas professor Şöhrət Siracəddinov bu təqdimatdan bir neçə ay əvvəl İnstitutumuzun Fəxri Professoru diplomuna layiq görülmüşdür və elə bu zalda şəxsən təqdim edilmişdir.

Şöhrət Siracəddinov və daha dörd professorun – Əlişir Nəvai Fondunun rəhbəri Alimcan Dövlətov, Nurbay Cabbar, Bakıjon Tuxliyev və Nadir Juzaqulovun iştirakı ilə bizim şöbənin nəzdində erləşən “Əlişir Nəvai Ədəbiyyatşünaslıq Mərkəzi”nin açılışında iştirak etdilər. Bu açılış Əlişir Nəvainin 579 illiyi günlərinə təsadüf edirdi.

Qarşıdan Əlişir Nəvaini 580 illiyi gəlirdi. Ötən bir il qarşımızda bizi böyük işlər gözləyirdi. Həmid Araslı Əlişir Nəvaini Nizami Gəncəvinin xəmsəçilik ənənəsinin davamçısı olaraq klassik özbək şairi kimi tədqiqata cəlb etmişsə (sosializm realizm metodu prinsipini gözləmək şərtilə, yəni Nəvainin nə türkcə yazdığını qabartmamalı, nə də əsərlərinin giriş hissələrində Allaha, peyğəmbərlərə, imamlara yazdıqları poetik tabloları qələmə almadan), Cənnət Nağıyeva Azərbaycan Əlyazmalar Fondunda Nəvai əlyazmaları kontekstində monoqrafiya yazmışdır.

Amma dövrən dəyişdi, sular duruldu.

Doğrudur, 1926-cı il I Bakı Türkoloji Qurultayında Əlişir Nəvainin türkcülük, dilçilik elmindəki xidmətləri səslənmişdi və elə buna görə də ilk iclasdan sonra onun şərəfinə ədəbi məslis keçirildi. Nəvai yaradıcılığının dərinliyinə endikcə o, ədəbiyyatşünas, dilçi, təzkirəşünas, tarixçi, ilahiyyatçı, memuarçı kimi diqqətimizi cəlb etdi və onun bu zəngin irsini bütünlüklə oxucularımıza çatdırmaq ehtiyacını duyduq.

Nizami Gəncəvi türk dünyasının və ya dünya ədəbiyyatının Günəşidirsə, Əlişir Nəvai türk dünyasının Baş Tacıdır – Türk yazı dilini dünya ədəbi meydanına çıxardı. Dünya ədəbiyyatı sıralarına türkcəni qoydu. Bunlar tarixi xidmətlərdir. Fikir verin, Nizami sarayda yaşamadı, amma saray padşahlarının sifarişi ilə bəşəri əsərlər yazdı. Nəvai sarayda yaşadı, amma saray ədəbiyyatı yazmadı. Zamanlarının hökmü, taxtı-divanı belə idi.

Əlişir Nəvai türkcə ilk “Xəmsə”ni yazdı, türkcə dörd divan bağladı, türkcə 22 adda nəzəri əsərlər yazdı. “Əlişir Nəvainin əsri və nəsri (elmi-

filoloji və dini-təsəvvüfi əsərlər)” adlı monoqrafiyamın əlyazması ilə hörmətli İsa Həbibbəyli tanış olub, ona “Azərbaycan nəvaişünaslığının eni səhifəsi” adlı giriş sözü yazaraq nəşrə təqdim etdik.

Bu nəşr əslində Əlişir Nəvainin 580 illiyinə institutumuz adından töhfə oldu. Azərbaycan, Özbəkistan, Türkiyə və Əfqanıstan diplomat və alimlərinin birgəliyi ilə təqdimatı keçirildi.

“Nizami Gəncəvi-880” və “Əlişir Nəvai-580” illik yubileylərinin keçirilməsi haqqında hər iki ölkənin rəhbərləri tərəfindən imzalanan Sərəncama ilk reaksiya da bizim institutdan gəldi. “Nizami Gəncəvi və Əlişir Nəvai: ənənə və novatorluq” adlı iki ölkənin alimlərinin iştirakı ilə yüksək səviyyədə elmi konfrans keçirdik. Son iki ildə bizim nəvaişünaslıq tədbirlərimizə Türkiyə nəvaişünasları da xüsusi müraciətlə qoşulurlar ki, bu da bizim işlərimizin səs-sorağının digər ölkələrə də gedib çıxdığına işarədir. Elə bunun nəticəsidir ki, nəvaişünaslıq məsələlərinə dair işlərimizə görə akademik İsa Həbibbəyli Əlişir Nəvai Qızıl medalına layiq görüldü və I Türk dünyası Kitab bayramında həmin mükafatı Beynəlxalq Türk Akademiyasının rəsmi nümayəndəsi laureata təqdim etdi. Mənim əməyim isə gümüş medalla dəyərləndirildi. Bütün bunları həşşsüz-küysüz, özümüzü reklam etmədən işimizi görürük, bu təltiflər isə hər dəfə sürpriz kimi təqdim olunur. Əlbəttə sevinirik. Amma bu təltifləri almaq üçün qarşımıza məqsəd qoyub iş görmürük, ona görə də adı sürpriz olur.

Maqsud Şeyxzadənin Əlişir Nəvaiyə həsr etdiyi silsilə və biri-birini tamamlayan elmi tədqiqatları – məqalələri monoqrafiya şəklində Özbəkistanda nəşr edilən 6 cildlik əsərlər kitabının 4-cü cildində er almışdır. Elə bilirəm ki, bu əsərin Azərbaycan dilinə tərcüməsi və nəşri çox vacibdir. Özbəkistanda bütün məşhur nəvaişünaslar, eyni zamanda Azərbaycan elminin, xüsusən Həmid Araslının etirmələri olan rəhmətliklər akademiklər Həmid Süleyman, Abduqadir Hayıtmetov, Natan Mallayev, Ləziz və Aziz Kayumov qardaşları, Vahid Abdullayev, Vahid Zahidov, İzzət Sultan, Sadircan Erkinov, Səidəxan Nərzulayeva, Suyima Ğəniyeva, Şöhrət Siracəddinov, İbrahim Haqqul, Nurbay Cabbar kimi böyük nəvaişünaslar Maqsud Şeyxzadəni özlərinə həm də nəvaişünas ustad kimi qəbul ediblər. Bunun da bir səbəbi o zamanlar Maqsud Şeyxzadə qələmində Əlişir Nəvainin bütün yönələri ilə tədqiq və təqdim edilməsi idi. Milli düşüncəsinə görə Özbəkistana sürgün edilən Maqsud Şeyxzadə Azərbaycanda Nəvainin nə qədər çox sevildiyinin şahidi olmuşdu, Maqsud Şeyxzadənin gəncliyində Nəvai Azərbaycanda daha çox tədqiq edilərək öyrənilirdi. Bu da səbəb olmaq şərtilə o, özbəkçə ilk elmi əsərlərini Nəvai haqqında yazdı və yazdıqları əslində orada bir rezonans doğurmuşdur.

Akademiyada magistrlərimiz üçün 10 saatdan çox Əlişir Nəvai dərsi keçdik.

Klassikləri öyrəndikcə, onların ədəbi şəxsiyyəti ilə yaxından tanış olduqca ortaq bir dünyanın sakinləri olduğuna şahid oluruq. Bu gün bütün türk dövlətləri istər rəsmi, istərsə də qeyri-rəsmi görüşlərində hər kəs öz ana dilində danışır, hamı da bir-birini çox gözəl anlayır. Ortaq dilin hasilə gəlməsinin konkret tarixi heç zaman olmayacaq, zaman-zaman elmi, ədəbi, iqtisadi, siyasi görüşlər irəlilədikcə həll olunacaq. Zirvəyə çatmaq üçün qan-tər tökürsən, illərini, ömrünü bu yolda qoyursan, zirvəyə çatanda isə hər şeyin adı bir maraq olduğunu dərk edirsən.

Bizlər - Azərbaycan və özbək xalqları bir-brimizi öyrənmək üçün çox da çətinlik çəkmirik. Ortaq dəyərlərimiz çoxdur, birdir. Azərbaycanlı gənc özbək ədəbiyyatını bir az dərindən öyrənmək istəsə, sonda özünü görəcək, eləcə də özbək gənci Azərbaycan ədəbiyyatının dərinliyinə ensə, o da sonda özünü görəcək. Əlişir Nəvainin “Lisanut-teyr” əsərində Simurqu axtaran qəhrəmanlar sonda Simurqla üz-üzə gələndə özlərini gördükləri kimi! “Lisanut-teyr” təsəvvüfi əsərində bu yol o qədər gözəl anladılır ki, son nəticədə hər şey sadə və adi həllində olur.

Özbəklər Füzulini çox sevirlər, hətta hər toy məclislərində hökmən Füzulidən oxuyurlar, bu mənada Füzuli nə qədər özbəkdirsə, Nəvai də bir o qədər azərbaycanlıdır.

Səməd Vurğun 1940-cı ildə elmi sessiyasında demişdir: Mən Nəvaini dərya ilə müqayisə etdim və dedim ki, bizim bəzi alimlərimiz onun sahillərinə taxta qayıqlarda üzmək istəyirlər. Mənim zənnimcə, bu dəryaya müasir elm və mədəniyyət əsasında tikilmiş böyük bir gəmi salmaq lazımdır. Nizaminin böyük şəxsiyyəti ilə çiyin-çiyinə böyük Nəvai dayanmışdır. “Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr” şöbəmizdə yaradılmış “Əlişir Nəvai Ədəbiyyatşünaslıq Mərkəzi” həmin böyük gəmidir.

THE NATURE AND ESSENCE OF SCHOLARS' DISPUTES ABOUT THE CREATIVE HERITAGE OF A. NAVOI

**Ibodulla MIRZAYEV,
doctor of philological sciences, professor,
Samarkand state university
(Uzbekistan)**

The heritage of Alisher Navoi is still of interest throughout the world, as evidenced by the translations of the works of the great poet into

different languages of the world. Many scholars compare the merits of Navoi in raising the status and development of the Turkic (Uzbek) language with the merits of the great enlighteners who made a radical turn in the culture of the nation, such as Du Belli and M. Lomonosov.

The life and work of Navoi was studied by scientists from both the East and the West, for example, Azerbaijani scientists A. Hasanzade, H. Arasli, J. Nagiyev, Turkish scientists Mahmad Fuad Koprulu, Ogoh Sirri Lavender, Afghan scientists Muhammad Yakub Zhuzjoni, Iranian Ali Acgap Hikmat, Russian researchers I.N. Berezin, M. Nikitsky, A. Krymsky, V. V. Bartold, A. A. Semenov, E. Z. Bertels, L. Klimovich, Western European scientists L. M. Eliot, A. Kurella and many others.

It should be noted that the studies of scientists dedicated to the life and work of Alisher Navoi have varying degrees of objectivity. The centuries-old experience of statehood and the spiritual heritage of the Turkic peoples were destroyed after the Tatar-Mongol enslavement. During the reign of the Timurids, the glorious history, language and values of the Turkic peoples were revived with great difficulty. Even in the palace of Amir Timur, they could not bring the status of the state language to the Turkic (Uzbek) language. It was during this period that Alisher Navoi set himself the goal of reviving the status of the Uzbek language.

In 1557, Michael Tramezzino in Venice published the book “Three Princes of Sarandip”. In the introduction to it, the author notes that it is written on the basis of an oriental tale heard in Italian from Christopher Tabrizi. In the opinion of orientalists, two plots are intertwined in the story. The first part is based on an episode from the poem “Eight Gardens of Eden” by Khosrow Dehlevi. The second part tells about the adventures of Bakhrom and Dilorom, which are the main content of Alisher Navoi’s poem “The Seven Planets”. This work has been published more than once in Italian, it was translated into German, French, Dutch, although the names of either Dehlevi or Navoi are not mentioned anywhere. Later, Western orientalists proved the belonging of one of the plots to Navoi.

The article by the scholar Harry Dick “The Gardener of the Spiritual Garden” was published in the Uzbek language in Canada. He is an admirer of Navoi’s creativity and translated into English his poem “Lison-ut-tayr” (“The Language of Birds”) in order to convey to the English-speaking readers all the beauty of the work. He calls Navoi “my poet” and compares him to the gardener of a spiritual garden. In the context of a sharp decline in spirituality in the West due to the growing purely consumerist attitude

towards life, the call, in the words of Harry Dick, “to clear the garden of weeds and take care of it” is very relevant.

An interesting history of recent years is connected with one of the poems of "The Five" by Navoi. A unique book was published in Ukraine - the translation of the poem "Farhad and Shirin" into Ukrainian. The publication also contains versions of the poem in original Arabic and modern Uzbek. This is not just a modern translation, but an author's work performed by the Ukrainian poet Mykola Bozhan, who visited Tashkent in 1943 during the evacuation.

Scientific research in the field of lyrics, artistic skill and the creative method, satire, the traditions of the poet's innovation, his worldview and philosophy, oral folk art, which was of particular importance for his work, interliterary influence, contributed to the fact that Navoi became an independent scientific direction. It is appropriate to mention here the works of such researchers as P. Shamsiev, N. Mallaev, V. Zogidov, I. Sulton, A. Gayumov, S. Ganiev, Kh. Sulaimon, A. Rustamov, A. Gayitmetov, A. Abdugafurov, B. Valikhǎzhaev, Y. Iskogov, I. Kakulov, N. Komilov, R. Voxidov, M. Kakimov, M. Kamidova, S. Erkinov, Sh.Sharipov, L. Zoidov. The contribution of Tajik researchers A. Mirzoev, R. Musulmonulov A. Afsakhzoda, E. Shodiev, Turkmen scientists B. Darriev, M. Kosayev, K. Borzhakova, K. Ogaliev, Azerbaijani scientists H. Arasli, J. Nagieva, N. Arasli, A. Ulvi, Russian scientists I. V. Stebleva, S. Ivanov and others in Navoi studies was really great.

It is necessary to note the controversy of certain provisions that need to be corrected seriously. In particular, there are many questions concerning the interpretation the national and literary affiliation of Navoi, his official status, social and political activities and financial situation, as well as the bilingual nature of the poet's work and “Khamsa”, Navoi's relationship with Hussein Baikaro, where there is still no unified approach and different interpretations exist. [УЛЬВИ А.]

Thus, the knowledge about Navoi's life has informational nature, in many cases it was not studied in a comparative aspect. It means that there is a lot of work for the Navoi studies in Russia and abroad. It is important that the main principles that will guide the researchers are objectivity, scientific character and respect for the personality of the genius, the national values of the people. An objective study of the life and work of Alisher Navoi in a scientific-critical analysis certainly contributes to the identification of the reasons for the dual perception, the contradictory

interpretation of the poet's work, who enriched the worldview of humanity, raised the artistic world of the Turkic peoples to a high level.

The race between Great Britain and Russia, which began in the second half of the 19th century, over the colonialization of the East, caused an increase in interest in geography, geology, nature, and especially the spiritual potential of the Central Asian region and India. The scientific information "Alisher Navoi" created in 1868 by M. Belen, an employee of the Hungarian Embassy in Turkey, has gained relevance again.

This interest also developed during the period of the "red empire". The article by the French scientist Lucien Bouve "Essays on the civilization of the Timurid period" published in 1926 in the magazine "Asia", the entries of Edgar Blochet in the "Catalog of Turkic manuscripts kept in the National Library", the work of the English scientist Edward Brown about A. Navoi can be recognized as deserving attention by studies of that period.

During that period of history, under the influence of V.I. Lenin on granting autonomy to distant regions, in particular, Central Asia and the Caucasus, the tendency to erect Navoi to the symbol of the nation intensified. The first attempt was an organized under the motto "Alisher Navoi is the great Turkic poet" in Baku in 1926 "The first congress of Turkologists", dedicated to the 500th anniversary of Navoi in Hijri. The reports of famous scientists of that time Ismoil Hikmat "Life and literary situation of Navoi", Mirza Jalal Yusufzade "About Navoi", Bakir Chobanzade "Navoi is a linguist" and Mirza Mukhsin Ibrohimi "Influence of Persian literature on Navoi" attracted the attention of not only participants, but also literary critics of all Turkic peoples, inspired them to study the work of Navoi. In the works published in the same ear in Uzbekistan, in particular in the articles of Abdurauf Fitrat and Wadud Mahmudi, published in the journal "Education and Teacher", the influence of that congress was noticeable.

The spirit of the congress could create certain problems for the teachers of the colonial system. The interpretation of the life and work of Navoi in the materials of the congress was found to be contrary to the ideology of the time, and it was practically forbidden to propagate them. All Russian orientalists were mobilized to rectify the situation. Orientalist E.E. Bertels wrote on this occasion that as a feature inherent in Navoi studies of that period, one could note the desire to talk about Navoi only to representatives of the national bourgeoisie, and use his name in their own interests. From this point of view, the published works were useless and

even anti-scientific and harmful. The collection “Navoi”, published in Baku (1926), was created on the basis of outdated information and consists of articles in which the main issue is covered completely incorrectly. However, the Academy of Sciences of the USSR immediately responded to the results of this congress.

The best manifestation of this research was the work of V.V. Bartold “The World of Alisher Navoi and Political Life”. It created the image of Navoi, which became radically different from the previous ones. Navoi became a representative of the people, who hated the exploiting class, opposed the Shah, and suffered greatly for his views.

In the 1940s, the Soviet scientists began to generalize the works of past ears in connection with the 500th anniversary of Alisher Navoi. On the eve of the first anniversary, celebrated in 1948, the studies were created on the great genius. There appeared the researches of such authors as E.E. Bertels, O. Sharafiddinov, A.N. Kononov, A. Hasanzade, F. Kocherli, S. Mumtaz, G. Begdeli, S. Vurgun, S. Aini, A. K. Borovkov, A. Semyonov, M. A. Salie, A. Yu. Yakubovsky, A. Sadi, M. Aybek, M. Sheikhzade, I. Sulton, A. Boldyrev. V. Zokhidov, V. Abdullaev, G. Arasli, M. Sultanov, A. Nazim, N. Arasli and others.

In the period when the proletarian cult was the main direction of state policy, the main task of the intelligentsia was to preserve the status of Navoi as a genius creator and personality, thereby ensuring the preservation of national values. Thanks to the works of the Uzbek and some Russian orientalists, new studies have become one of the independent areas of the Uzbek literary criticism.

During the Soviet period, the principle of ideological struggle prevailed in the study of national heritage. In this regard, researchers were forced to bypass the moments when covering the history of literature that did not correspond to the “socialist worldview”, to create images of communist poets.

Scientists who directly investigated the historical sources of the 15th century drew attention to their difference from Barthold’s concept. Many researchers did not agree with the one-sided interpretation adapted to the interests of the communist system. For example, E. Bertels in his studies, although he did not openly oppose Barthold’s concept, nevertheless questioned its foundations, inflicting a serious blow on them.

A.A. Semyonov in his article “On the relationship between Alisher Navoi and Sultan Hussein Mirzo” opposed the comparison of the relationship between the Sultan and the poet, which took place in the East,

with the relationship “The Tsar and Pushkin” in Russia. However, he overlooked some of the differences between Navoi and Boykaro, and made some mistakes in matters of the poet’s origin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirzayev I.K. Nurova G. T. Studying of the life and works of Alisher Navai in Russia// Samarkand. Turon nashr. 2021.
2. Абдувалиева А.З. Жизнь и творчество великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои // Журнал Вестник науки и образования. № 24-3
3. Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана. Душанбе: Наука, 2009.
4. Абдулхайров М. Методы исследования текстов произведений Алишера Навои // Вестник Челябинский государственный университет. 2012. №12 (266).
5. Абдулхайров М.Х. Методы, принципы и практические проблемы исследования текстов «Хамсы» Алишера Навои // Вестник ЧелГУ. 2012. №33 (287).
6. Алишер Навои. Суждение о двух языках // Алишер Навои. Сочинения в десяти томах. Т. X. Ташкент: Издательство «Фан», 1968.
7. Ашнин Ф.Д., Алпатов В.М., Насилов Д.М. Репрессированная тюркология. М.: «Восточная литература» РАН, 2002.
8. Аязбекова С.Ш. Творческое наследие Алишера Навои в контексте тюркской цивилизации // Творческое наследие Алишера Навои и современность: сборник докладов Международной научно-практической конференции. М.: ООО «4 Принт», 2018.
9. Бертельс Е.Э. К вопросу о филологической основе изучения восточных памятников // Советское востоковедение. 1965. № 3.
10. Бертельс Е.Э. Навои // Избранные труды. Навои и Джами. М.: Наука, 1965.
11. Болтабоев Х. Образ Алишера Навои в тюркских антологиях // Мировая литература. 2013. № 2.
12. В Азербайджане обсудили влияние Навои на национальную литературу // Sputnik. Узбекистан. 25.11.2016. [Электронный ресурс]. URL: <https://uz.sputniknews.ru/culture/20161125/4222921/azerbaijan-Navoi.html> (дата обращения: 10.01.2020).
13. Жирмунский В. А. Навои и проблема ренессанса. М.: Наука, 1967.
14. Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в литературах Востока // Сравнительное литературоведение. Л.: Наука,

1979. С. 174–185; Конрад Н.И. Средневозрастное возрождение и Алишер Навои // Литература и театр. М.: Наука, 1978.
15. Зайнутдинов Ш. Звучал Навои в блокадном Ленинграде // Книга Памяти Узбекистана 1941-1945. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.memory-book-uzb.com/article/zvuchal-navoi-v-blokadnom-leningrade> (дата обращения: 02.01.2021).
16. Зайцев И.В. Рукописи и литографированные издания Алишера Навои в Москве // Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях. Каталог. М.: Центр книги «Рудомино», 2016.
17. Конрад Н.И. Средневозрастное возрождение и А.Навои. М.: Наука, 1969.
18. Куделин А.Б. Алишер Навои – родоначальник узбекской литературы (к 575-летию со дня рождения) // Известия Российской Академии Наук. Серия литературы и языка. Т. 75. № 4.
19. Международная конференция, посвященная творческому наследию Алишера Навои, прошла в Берлине // Посольство Республики Узбекистан в Литовской Республике. 23.07.2018. [Электронный ресурс]. URL: <https://uzbekistan.lv/> (дата обращения: 10.01.2020).
20. Салидский А.В. Навоиведение в России. М.: Наука, 2017. 452 с.
21. Свидина Е.Д. Алишер Навои. Библиография (1917–1966). Ташкент: Наука, 1968.
22. Семенов А.А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. Ташкент: Наука, 1940.
23. Ульви А. О великом узбекском поэте Алишере Навои // Азербайджанское государственное информационное агентство. 29.10.2018. [Электронный ресурс]. URL: <https://azertag.az> (дата обращения: 10.01.2021).
24. Шамсиев П. Некоторые вопросы изучения текста произведений Навои: автореф. дис... д-ра филол. наук. Ташкент, 1969.
25. Эркинов А. Герменевтический анализ «Хамсы»: автореф. дис... д-ра филол. наук. Ташкент, 1996.

ALISHER NAVOIY TEOLOGIYASI: MUAMMOGA KIRISH

Suvon MELI,

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada navoiyshunoslik va, umuman, o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim bo‘lgan teologiya, ilohiyot masalasi muammoga kirish tarzida o‘rganiladi. Buyuk shoir ijodiga Tangri taologa bo‘lgan muhabbati nuqtayi nazaridan qaralishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: teologiya, ilohiyot, teizm, panteizm, Navoiy, “Xazoyin ul-maoniy”, “Lison ut-tayr”, “Devoni Foni”, dunyoqarash.

Аннотация

В статье на пути вхождения в проблему исследуются теология и богословские вопросы, важные для навоиведения и узбекского литературоведения в целом. Творчество великого поэта основано на его любви к Всевышнему.

Ключевые слова: богословие, богословие, теизм, пантеизм, Навои, «Хазайн ул-Маони», «Лисон ут-Тайр», «Девони Фони», мировоззрение.

Abstract

In the article, on the way to entering the problem, theology and theological issues that are important for navigational studies and Uzbek literary criticism in general are explored. The work of the great poet is based on his love for the Almighty.

Key words: theology, theology, theism, pantheism, Navoi, Khazain ul-Maoni, Lison ut-Tair, Devoni Foni, worldview.

Va lam yakullahu kufuvan ahad –
Va hech kim U zotga teng emasdir.

(Qur’oni karim, “Ixlos” surasi, 4-oyat)

Barcha lug‘at va qomuslar bir ovozdan teologiyani Xudoning mohiyati, din va diniy aqidalar to‘g‘risidagi ta’limotlar majmui, ilohiyot deya ta’riflashadi. Teologiya “Xudo shaxsan o‘zini vahiy orqali kishilarga ma’lum qiladi, degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi... Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamalari bilan ham ataladi”[1.378]. Shunga yaqin akademik Oybek “Navoiyning

dunyoqarashi masalasiga doir” maqolasida “xudoshunoslik” atamasini ham ishlatadi [2.209]. Zero, teologiya atamasining lug‘aviy ma’nosi aynan shundaydir.

Buyuk mutafakkir bo‘lgan Alisher Navoiy birinchi navbatda ulug‘ shoir, ya’ni so‘z san’atkoridir. Shunday ekan, bu buyuk ijodga nisbatan teologiya atamasini qo‘llash mumkinmi? Agar qo‘llash mumkin bo‘lsa, bu yetarli ilmiy samara beradimi? Chunki, bilamizki, hazrat Navoiy maxsus ma’noda, aytaylik, imom Moturudiy, Abu Homid G‘azzoliy yoxud So‘fi Olloyor kabi teolog, ilohiyotshunos emas. Lekin shunga qaramay va shunga bog‘liq ravishda, nazarimizda, Navoiy teologiyasi haqida ham fikr yurita, HAM TADQIQOT O‘TKAZA OLAMIZ. Binobarin, genial shoir o‘zining muazzam ijodida Alloh taolo haqida, Yaratganning zuhuriyoti haqida ham timsoliy, ya’ni badiiy, ham ilmiy tafakkur tarzida so‘z yuritgani shoyon haqiqatdir.

Shunday ekan, bizningcha, buyuk shoir botiniy olamiga chuqur kirish va buni milliy zehniyatimiz hamda jahon afkor ommasi ongiga samarali singdirishning eng to‘g‘ri va qulay yo‘li – ul ulug‘ zot badiiy olamida zuhur etadigan ilohiyot, teologiyani chuqur va batafsil o‘rganishdir, shubhasiz. Binobarin, Hazrat Navoiyning butun ijodida Xudo bilan har tomonlama betinim muloqot hamda Ul Zotga bot-bot murojaat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu buyuk muloqotning butun majmuini tadqiq qilish asnosida biz ulkan global manzara va ulug‘ haqiqatlarga guvoh bo‘lamiz.

Biz yashab turgan jumlai jahon o‘tkinchi, foniidir, faqat “U yuksak va buyuk zot – “Huval aziyyul azim” (Oyatul kursiy) Al-Baqiy [3.16], ya’ni Boqiy qoluvchi zotdir. Bu ilohiy haqiqatni qalban anglab, unga iymon keltirgan ulug‘ inson Alisher Navoiy hech qursa, qiyomatgacha nomi o‘lmas, tillardan tushmasdir.

Agar Hazrat Navoiy insoniyatga meros qilib qoldirgan muazzam ijodni bir butun holda xayolimiz ko‘zgisida namoyon etsak, bu ijodning harakatga keltiruvchi kuchi, ta’bir joiz bo‘lsa, quvvat berib, yurgizib turgan motori hamda yalpi ruhoniy ma’no-mazmuni Xudo, Alloh taolodir. Allohning ilohiy energetikasisiz ushbu asarlar qa’riga kirib ham, yuksak miqyoslariga ko‘tarilib ham bo‘lmaydi.

“Xazoyin ul-maoniy”ni tashkil qilgan to‘rt devonning har biri hamd, ya’ni Tangri maqtovi va madhi badiiy darj etilgan g‘azal yoki g‘azallar bilan ochiladi. Muazzam “Xamsa”ga kirgan har bir doston, Hazratning oltinchi masnaviysi hisoblanmish “Lison ut-tayr” Alloh madhi bilan boshlanadi, ulardan ayrimlari – “Hayrat ul-abror” va “Lison ut-tayr”da qator munojotlar, ya’ni najot umidi, iltijo va tavbalar orqali Tangriga

murojaatlar mavjud. Zero, “munojot” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “iltijo, maxfiy suhbat” bo‘lib, u faqat va faqat Biru Bor, ya’ni Allohga qaratilgan bo‘ladi.

G‘azallar matnida mavjud Yaratganga bog‘liq misra va baytlar Navoiy teologiyasining yana bir serhosil jabhasidir. Ulug‘ adib, akademik Oybek so‘zlari bilan aytganda, “Navoiyning tasviriy vositalari ingichka, chuqur va tamom original bo‘lib, fikrlar narsalar orasidagi hadsiz bog‘lanishlarga (ta’kid bizniki – S.M.) ishorat qiladi”. [4.96] Ushbu hadsiz bog‘lanishlar markazida, shak-shubhasiz Tangri taolo, Alloh turadi hamda ularga ilohiy nur, ruhoniy kuch baxsh etadi. Zero, Allohning go‘zal ismlaridan biri borliqni nurlantiruvchi, ya’ni An-Nurdir.

Buyuk tarkigo‘y shoir fors tilida bitgan “Devoni Foniyy” devoni Navoiyning, ya’ni ruhoniyatga to‘la insonning oliy yaratuvchi zot, Alloh bilan muloqoti borasida alohida o‘ringa ega. Devonning ilk devoni ham an’ana, ham Shoirning ichki qalb da’vatiga ko‘ra Yaratganga hamd ham murojaat tarzidadir. G‘azalning maqta’si shunday:

*Foniysifatam ruh kunad so‘i Tu parvoz,
Ey, az shakaristoni Tu quti magasi mo.*

Tarjimasi: “Men foniyy sifatman, ruh esa Sen tomon parvoz qiladi, (ruhimiz) chivinining ozig‘i Sening shakaristonindandir” [5.8-9].

Men kitob matnida kichik harfda berilgan Tu (Sen)ni bosh harf bilan yozdimki, bu olmosh ushbu o‘rinda Allohni anglatmoqda hamda Uning inson uchun chinakam borliq ekanini urg‘ulamoqda.

“Devoni Foniyy”ga kirgan olti qasida majmui “Sittai zaruriyat”ning ilk asari, “qasidai avval”, qasidalar “Debocha”sida yozilishicha, “hazrati Bori taolo hamdiga taalluqli bo‘lgani uchun “Ruh ul-quds” (Muqaddas ruh) deb nomlanadi”. [6.196] U Allohning tavhidi va yaratuvchilik hamda “Musavviri ashyo”, ashyolarga surat beruvchi qudrat qalami vasfidadir. Qasidaning har bir bayti, u 132 baytdan iborat, Alloh taoloning muayyan sifati, aql etgan darajada sir-asrorini ham falsafiy, ham poetik tarzda ochadiki, bu Hazrat Navoiy teologiyasini o‘rganishda ushbu qasidaning mumtoz ahamiyatini tayin etadi.

Qolgan besh qasida ham qo‘yilgan falsafiy-irfoniy g‘oya va fikrlarga bog‘liq ravishda talay nuqtalarda Allohga bog‘lanadi, Unga ruhan va ma’nan to‘qinadi.

Alisher Navoiy teologiyasi masalasini o‘rganishda Hazratning maxsus, mustaqil “Munojot” asari alohida diqqat va tadqiqqa loyiq. Asar “ulug‘ Shoirning o‘z umri yakuni arafasida Allohga iltijosi, murojaatidan iboratki, unda eng samimiy tuyg‘ulari, qalbidagi eng chuqur hislari, dunyoqarashi

va e'tiqodining eng tub prinsiplari mujassam" [7.3]. Ushbu gapda ulug' haqiqat yuz ko'rsatmoqda, ya'ni Hazrat Navoiy Allohga murojaat qilar, U haqda fikr yuritar ekan, albatta, va muqarrar o'z ichki olamiga sayohat qiladi, shu orqali butun inson va insoniyatga bog'liq abadiy muammolarga daxl qiladi. Shuning uchun ham bejiz emaski, "Munojot"dan og'riq qalb nidosi eshitiladi"[7.33]. Bu og'riq qalb o'z alam va iztiroblarini faqat bir zot, Yaratgan Allohga to'kib soladi, ya'ni bunda Alloh inson uchun yagona oliy tayanch hisoblanadi. Shuning uchun sovet davridagi ayrim kitoblarda Alloh va insonning qarama-qarshi qo'yilishi g'irt bema'nilikdan boshqa narsa emasdir.

Muqarrar bir savol ko'ndalang bo'ladi: nega shu paytgacha Alisher Navoiy teologiyasi masalasi o'rganilmadi, emas, hatto o'rtaga qo'yilmadi? XX asr boshlarida ayrim jadid ziyolilarimiz Hazrat Navoiyning asl dunyoqarashiga mos holda uning ilohiy mohiyatini ochishga intilganlar. Lekin bu davomiylik kasb etmadi, moddiyunchi jamiyat tomonidan keskin rad etildi. Savolga qaytsak. Uning bir necha sabablari bor:

Birinchidan. Mutlaq hukmron sovet mafkurasi moddiyunchi, ateistik, xudosiz jamiyat barpo qildiki, bunday sharoitda Navoiy ijodini Xudo bilan chambarchas bog'lash, uning ilohiyotiga ilmiy e'tibor qaratish mutlaqo imkonsiz edi.

Ikkinchidan. Shuning natijasi o'laroq, Navoiy dunyoqarashi panteizmdan iborat, degan soxta g'oya o'ylab topilib, salkam ilmiy haqiqatga aylantirildi. Shu yerda bir gapni aytmoq joiz. Agar buyuk shoir dunyoqarashiga nisbatan panteizm g'oyasi amalga kiritilmaganda Hazrat Navoiy ijodini sovet davrida etarli darajada targ'ib va tashviq qilib bo'lmasdi, albatta. Xuddi buni so'fiylarimiz Ahmad Yassaviy va So'fi Olloyorlar ijodi kabi. Ular ijodini qoralashdan nariga o'tilmagani yaqin tarixdan ma'lum-ku. Panteizm esa sovetona ateizm va moddiyunchilikka ancha yaqin, bunga quyida guvoh bo'lamiz.

Lekin bu oqlovdan mustabid mafkura zamonida majburan kiritilgan xatoni tuzatmasa ham bo'laveradi, degan fikr va xulosa kelib chiqmasligi lozim. Hozirgi kunda ushbu ilmiy xato rad etilib, tuzatilmoqda ham. Biz bu o'rinda takrordan qochish maqsadida o'zimizning avval nashr etilgan "Muazzam ijodiyot timsoli" (maqolaning asl nomi "Qiblaga yuz burgan Navoiy" edi) maqolamizda aytilgan fikrlarni keltiramiz:

"Agar dunyoqarash voqelikka nisbatan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy va ilohiy qarashlar tizimi hamda panteizm "Xudo tabiat bilan bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi, deb qaraydigan diniy-falsafiy ta'limot" (O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-jild, 215-bet) bo'lar ekan – nahotki

Navoiy panteist bo'lsa? Nahotki, buyuk shoirimiz Yaratgan bilan yaratilgan narsani bir deb hisoblasa. Akademik Vohid Zohidov yozadi: "Xudo tabiatdir, deb Navoiy xudoni (albatta, kichik harf bilan – S.M.) qayerlardandir olib kelib, etti qabat osmonlarning narigi tomonidan uni yerga tushiradi, inson va tabiatni ilohiylashtiradi va shu bilan ularning obro'sini xudo darajasiga ko'taradi, xudoni tabiatga singdirib yuboradi. Navoiyning o'z tili bilan aytganda, xudoning o'z husni o'zini (xudoni) halok etadi... Shu tabiat ham yagona chin hayot manbaidir, ham yagona chin hayot maskanidir. O'lgandan keyin ikkinchi tiriklik, hayot yo'qdir" (V.Zohidov. Ulug' shoir ijodining qalbi. Toshket: O'zbekiston, 1970. 303-bet). Bu erda shirk yuz ko'rsatmoqda, ya'ni tabiat Allohga sherik qilinmoqda. Shirk esa dinimizda kechirilmaydigan gunohi kabiradir". [8.55]

Yuqorida aytilganidek, sovet davrida chop etilgan kitoblar, xususan, hozirgi ko'chirmada ham Xudo so'zi muttasil kichik harf bilan yoziladiki, go'yo bu bilan xudoters sovet tuzumi Yaratganga o'z bepisandligini bildiradi. Allohga bepisandlik esa, hazrati Rumiylar bir joyda aytganlaridek, sharmandalikdir.

Hazrat Navoiy "Munojot" asarida Allohga qarata "Subhonolloh, ne kibriyovu azamatdurkim, Sendin o'zgaga vujud itloqi buhton va to'hmatdur"[9.293], deb yozar ekan, buni soddaroq bayon qilsak, Allohdan o'zgaga vujud, ya'ni jism va shakl bor deyish bo'hton va tuhmatning naq o'zi, deganidir. Bunda g'oyat ulkan ma'no hamda ilohiy haqiqat bor. Bu yerda yetakchi so'z – vujud. Gap shundaki, biz ko'pincha vujud deganda moddiy ashyolar, ko'zga ko'rinadigan narsalar, inson va tabiatni tushunamiz. Lekin ilohiyot ilmi bo'yicha, Navoiy shu ilm doirasida fikr yuritmoqda, haqiqiy vujud faqat Allohga xos. Imom G'azzoliy buni "vojibul-vujud" deb atab, shunday yozadi: "Balki hamma mavjudotning avvali Haq subhanahu va taoloning Vojibul vujud zotidir" [10.17]. Mavjud borliqni esa ilohiyotshunos olim "mumkinul-vujud" termini bilan ataydi.

Bu haqda akademik V.Zohidov "Ulug' shoir ijodining qalbi" kitobida (328-329-betlar) batafsil so'zlaydi, ammo ularga mutlaqo salbiy baho beradi.

Bu bejiz emas. Moddiyunchi dunyoqarashga ega bo'lgan olim yoki jamiyat bunday ilohiy haqiqatlarni yo tushunmaydi yoki tan olmaydi. Panteizm asos-e'tibori bilan botil va kaltabin ta'limotdir. Bu haqda Gegelning shunday qaydi bor: "Panteizm – nomaqbul ibora, chunki u "pan" so'zini butkul umumiylik emas, bor narsalarning majmui tarzda

talqin qilishga moyil. Spinoza ta'limoti panteizm emas, substansiallik falsafasi edi" [11.522].

Ana shunday xato ta'limot Hazrat Navoiy ijodiga, dunyoqarashiga tirkalgan ediki, uni, avval aytilganidek, bartaraf etish zamoni keldi. Shu erda nokamtarlik bo'lsa-da, o'zimizdan iqtibos keltiramiz: "Munojot" asarining chop etilishi va uni sinchiklab o'rganish Alisher Navoiy dunyoqarashi haqida sovet davrida aytilgan fikrlarga qat'iy o'zgarish kiritishi aniq. Bu buyuk dunyoqarash panteizm emas, tom xudojo'ylik, ya'ni teizm ekani aniqlashadi" [12.174-175].

Biz bu erda panteizmga maxsus to'xtalishimizga sabab shuki, Navoiy dunyoqarashiga nisbatan qo'llangan bu g'oyani mutlaqo rad etmay turib, buyuk shoir teologiyasi masalasiga qadam qo'yib bo'lmaydi. Zotan, Xudo va tabiatni bir narsa deyish bilan ilohiyotga mutlaqo kirib bo'lmasligi oddiy aksiomadir.

Jahon falsafasi va ilohiyoti tarixida Proklning "Platon teologiyasi" ham muallifi aniq bo'lmagan "Aristotel teologiyasi" kabi asarlar mavjud. Keyingi asar keyinchalik aniqlanishicha, yangi platonchilik asoschisi Plotinning "Ennyeadlar" asarining qator o'rinlari boshqacha bayon qilingan bo'lib [13.10], uni "Plotin teologiyasi" deb atash to'g'riroq bo'lardi. O'rta asr gruzin faylasufi Ioane Petrisi fikricha, Aristotelning "Metafizika" asari "Uning teologiyasidir" [13.219]. Yana yuqorida tilga olingan Proklning "Teologiyaning ilk asoslari" asari ham mavjud. Shu kabi va ulardan tashqari Sharq va G'arbda paydo bo'lgan ko'plab asarlar Navoiy teologiyasi, masalasini tadqiq etishga ko'mak berishi mumkin. Bunda birinchi navbatda Qur'oni karim va payg'ambarimiz hadislariga suyanishimiz zarur. Yurtimizdan chiqqan buyuk faylasuflar Forobiy va Ibn Sino asarlarini ham teologiya nuqtai nazaridan ko'zdan kechirish lozim bo'ladi. Eng asosiysi, Navoiy teologiyasini o'rganishga kirishmoq muazzam ijodning har bir hujayrasini Biri Bor nuqtai nazaridan, Uni markazga qo'ygan holda tahlil va tadqiq qilish demakdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 8-том. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2004. 378-бет.
2. Қаранг. Ойбек Мусо Тошмуҳаммад ўғли. МАТ. Т.13. Т.: Фан, 1978. 209-бет.
3. Қуръони каримдан айрим суралар. Асмаул ҳусна ва салавотлар. Т.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 16-бет.

4. Ойбек М.Т. МАТ. Т. 13. 96-бет.
5. Алишер Навоий. МАТ. 18-том. Т.: Фан, 2002. 8-9-бетлар.
6. Алишер Навоий. МАТ. 20-том. Т.: Фан, 2003. 196-бет.
7. Абдулла Аъзам. Муножотнома. Алишер Навоийнинг “Муножот” асарига шархлар. Т.: Маънавият, 2001. 3-бет.
8. Адабиёт – халқнинг юраги. Очерк ва мақолалар. Т.: Адабиёт, 2021. 55-бет.
9. Алишер Навоий. МАТ. 16-том. Т.: Фан, 2000. 293-бет.
10. Ғазолий Абу Ҳомид. Кимиёи саодат. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 17-бет.
11. Гегель Г.В.Ф. Философия религии. В 2-х т. Т. 1. М.: Мысль, 1976. С. 522.
12. Сувон Мели. Сўзу сўз, “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. Т.: Шарқ, 2020. 174-175-бетлар.
13. Қаранг: Петрици И. Рассмотрение платоновской философии и Прокла Диадоха. М.: Мысль, 1984. С. 10.

ALISHER NAVOIY BUXOROLIK IJODKORLAR HAQIDA

**Shoira AHMEDOVA,
BuxDU O‘zbek adabiyoti kafedراسи
professori, filologiya fanlari doktori,
Marhabo XUDOYQULOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya

Alisher Navoiy o'z davrining yirik tazkiranavisi hamda tanqidchisi bo'lgan. Uning “Nasoyimul-muhabbat”, “Majolis un-nafois” asarlarida o'z davrining ijokorlari, shoirlari, adabiyot muxlislari, so'fiy ijodkorlar haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy adabiy tanqidining eng xarakterli va muhim qismini zamondoshlari haqidagi tanqidiy fikrlar tashkil etadi. Maqolada Alisher Navoiyning buxorolik ijodkorlar haqida “Nasoyimul-muhabbat”, “Majolis un-nafois” asarlarida keltirilgan mulohazalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Buxoro, shoir, g'azal, qasida, matla', majlis, baho, tazkira, esdalik.

Аннотация

Алишер Навои был великим мыслителем и критиком своего времени. В его произведениях «Насоимул-мухаббат» и «Мажолис ун-

нафойс» много сведений о писателях, поэтах, любителях литературы, суфийских художниках своего времени. Наиболее характерной и важной частью литературной критики Алишера Навои являются критические мысли о его современниках. В статье рассматриваются комментарии Алишера Навои о бухарских художниках в его произведениях «Насоимул-мухаббат» и «Мажолис ун-нафойс».

Ключевые слова: Навои, Бухара, поэт, газель, касыда, матла, меджлис, оценка, тазкира, память.

Abstarkt

Alisher Navoi was a great thinker and critic of his time. In his works "Nasoimul-muhabbat" and "Mazholis un-nafois" there is a lot of information about writers, poets, lovers of literature, Sufi artists of his time. The most characteristic and important part of Alisher Navoi's literary criticism are critical thoughts about his contemporaries. The article deals with the comments of Alisher Navoi about Bukhara artists in his works "Nasoimul-mukhabbat" and "Mazholis un-nafois".

Key words: Navoi, Bukhara, poet, gazelle, qasida, matla, majlis, assessment, tazkirah, memory.

Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, turkiy she'riyat sultoni Alisher Navoiy hayoti va ijodining kitobxonga ma'lum bo'lmagan qorong'u jihatlari mavjudki, shulardan biri buyuk shoirning Buxoroda bo'lgan-bo'lmaganligi haqidagi bahs-munozaradir. Bu bahs XX asrning 60-70-yillaridan beri davom etib kelmoqda.

Professor T.Qoraev shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan 1968-yilda "Shoirning tabarruk izlari" (Alisher Navoiyning Buxoroda bo'lishiga doir) maqolasini e'lon qilgan edi. Oradan ancha vaqt o'tib, shoirning 550 yilligiga atab "Tabarruk izlar" (Shoirning Buxoroda bo'lganligi xususida) maqolasi viloyat gazetasida chop ettirildi. Ustoz ulug' shoirning tabarruk qadamlarini Buxoroyi sharifda ko'rishni istaganligidan shu yo'ldan borganligini navoiyshunos olim R.Vohidov ta'kidlaganlar. Buning ustiga O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol va buxorolik shoir Toshpo'lat Ahmadlar ham shoirning Hirotidan Samarqandga safar qilayotib, Hazrati Bahouddin Naqshbandiy xoki poyini ziyorat qilib o'tganligini inobatga olib, T.Qorayevning shu fikrini yoqlab chiqadilar.

Fandagi dalillar muhimligidan kelib chiqsak, A.Samarqandiy temuriylarning Samarqandga safari Kesh orqali bo'lganligiga dalil keltiradi [Samarqandiy, 1969, 149]. Adabiyotshunos olim E.Umarov ham shoirning Hirot-Samarqand karvon yo'li orqali borganligini tasdiqlovchi

ma'lumotlarni keltirgan [Umarov, 1992, 67]. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, Alisher Navoiy Buxoroda bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, bu sharif shahar va uning allomalariga katta hurmat bilan qaraganini "Nasoyimul-muhabbat" asari yaqqol ko'rsatadi. Asarda Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshbandiy, Xoja Muhammad Bobo Samosiy, Shayx Mahmud Buxoriy kabi o'nlab tariqat pirlari, so'fiylar haqida hurmat bilan fikr yuritgani namoyon bo'lgan.

"Majolis un- nafois"da ham buxorolik ijodkorlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilganini ko'rish mumkin. Avvalgi majlisda shoir o'zi ko'rmagan oldingi ijodkorlar haqida ma'lumotlar keltirar ekan, Xoja Ismatulloni Movoraunnahr buzurgzodalaridan deb hisoblaydi. G'oyat xushta'blig', devoni mashhur, Xalil sulton (Temurning nabirasi) yaxshi qasida bitganligi haqida fikr yuritib, bir g'azalidan matla' keltiradi:

Dil kabobest k – az u sho'r barangextaand,

Va-z namakdoni Xalilash namake rextaand.

(Tarjimasi: Yurak kabobdir, undan sho'r (g'avg'o) qo'zg'atganlar, chunki u yurakka Xalil (chin do'st demakdir) tuzdonidan tuz sepganlar) [Navoiy, 1997, 16].

Hazrat Navoiy Xoja Ismatning Xalil Sulton she'riyati devoni ta'rifida rangin qasidasi haqida ma'lumot berib, uning matla'sini keltiradi:

In bahri begaronki, jahonest dar barash,

G'avvosi aqli kull nabard pay ba gavharaash.

Tarjimasi: Bu bepoyon dengiz jahonlarni o'z ichiga olgandir. Ilohiy aql g'avvosi undan gavharni payqay olmaydi.

Shu bilan birga Xojaning qabri Buxoroda, o'z hujrasida ekanligini ham aytib o'tadi. Bundan tashqari, Navoiy tazkirada Xoja Ismatulloning shogirdi Mavloni Xayoliy degan shoir haqida ham ma'lumot beradi. Uning g'azali matlasini misol qilib ko'rsatadi, g'azalning ikkinchi baytini esa (yaxshi voqe' bo'libturkim) maqtaydi. O'zi xushxulq va xush tavr yigit o'lgan Xayoliyning qabri ham Buxoroda deb ko'rsatadi.

Tazkiranavis Buxoro va Hirotda tahsil olgan, shoir va adabiyotshunos Mavloni Sayfiy shaxsiyatiga, ijodiga yuqori baho beradi. O'qish davrida she'riyat bilan shug'ullanib, g'azal, masal janrlarida asarlar yaratgani, ijodidagi yangilik hunarmand va kosiblar hayotini o'z g'azallarining mavzusi qilib olganligida deb ko'rsatadi: "Va san'at va hirfa ahli uchun ko'p latofatlik nazm qilibtur va ul tariyqda muxtare'dur" deya uning chiroyli bir baytidan misol keltiradi. Sayfiyning 2ta devoni, "Risolai aruz", "Risolayi musiqiy" asarlari bo'lgan.

Sayfiy Buxoriy muammo va aruz ilmlarini chuqur bilgan, shu sohalarga doir zamondoshlari nazariga tushgan ilmiy risolalar yaratgan [Vohidov, 1994, 98]. Alisher Navoiy uning asarlariga yuqori baho berish bilan birga tabiatidagi ayrim nuqsonlarni ham qayd etib o'tadi.

Hazrat Navoiy uchinchi majlisda Mavlono Ayniy degan shoir haqida gapirar ekan, uning O'badan ekanligini (o'baliqdur) aytib o'tadi. Bizga ma'lumki, O'ba Buxoroga qarashli qishloqlardan biridir. Uning hofizligi, kitobchilik bilan shug'ullanishi, "tab'i ham nazmlarda muloyim" ligini ta'kidlab, bir g'azalining matla'sini keltiradi:

Manam dur az mahi rui tu har shab to sahar giryon.

Surohivor dil pur xunu bar sar chashmi tar giryon [Navoiy, 1997,107]. Tarjimasi: Men oy yuzingdan yiroqda har kecha sahargacha yig'lab chiqaman. May idishi kabi qonga to'la dilim (ko'z yoshi bilan) nam ko'zim qarshisida yig'laydi.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da zukko tanqidchi sifatida tilga olib o'tgan buxorolik ijodkorlarning ijodi va shaxsiyatiga to'g'ri baho bergan, iste'dodini misollar orqali ko'rsata olgan. Bu esa buyuk ijodkorning adabiy jarayonga, ijodkorlar hayoti va ijodiga mas'uliyat bilan qaraganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Алишер Навоий. (1997) Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13-том. Тошкент. "Фан".
2. Akhmedova Sh. N. PROGRESS OF PORTRAIT WRITING IN THE PERIOD OF GLOBALIZATION IN LITERARY STUDIES // Russia-Uzbekistan. International educational and socio-cultural technologies: vectors of development. - 2019.
3. Воҳидов, Р. (1994) Алишер Навоийнинг ижод мактаби. Бухоро.-Б. 98-112.
4. Nasima Saidburxonovna Qodirova, (2021) . "THE ANALYSIS OF IBRAHIM HAKKULOV IN NEW UZBEK LITERATURE", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 152-157, Apr. 2021.
5. Самарқандий , А. (1969) Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Тошкент.
6. Saidburhonovna K. N., Ne'matovna A. S. (1992) Style and skill: Critic's artistic ability // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – Т. 8. – №. 9 S3.

7. Умаров, Э. (1992) Карвон йўлида унинг излари // Китобда: Эзгулик – умр мазмуни. Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Тошкент. “Фан”.
8. Khudoykulova M.A. (2020) THE DEVELOPMENT OF THE CONTROVERSIAL ARTICLE GENRE IN THE 20 YEARS OF XX CENTURY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1.

ULUG‘BEK ILMIY MEROSI NAVOIY NIGOHIDA

**Marg‘uba ABDULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori, ToshDO‘TAU**

Аннотация

Maqolada Mirzo Ulug‘bek ilmiy-adabiy merosining tarixiy manbalarda va Navoiy ijodida tutgan o‘rni haqida tahliliy ma‘lumotlar o‘rin olgan. Navoiyning badiiy tafakkurida Ulug‘bek ilmiy merosining ahamiyati asoslangan. “Xamsa” dostonlari misolida Navoiyning Ulug‘bek ilmiy qarashlaridan samarali foydalanganligi ochib beriladi. Navoiyning kosmogonik bilimlari dostonlarda mumtoz badiiy tasvirlarni yaratishga xizmat qilganligi dalillanadi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Navoiy, tahlil va munosabat, “Xamsa”, “To‘rt ulus tarixi”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, yetti sayyora.

Аннотация

В статье содержится аналитическая информация о роли научно-литературного наследия Мирзо Улугбека в исторических источниках и творчестве Навои. Значение научного наследия Улугбека основано на художественном мышлении Навои. На примере эпоса «Хамса» раскрывается эффективное использование Навои научных взглядов Улугбека. Доказано, что космогонические знания Навои послужили созданию классических художественных образов в былинах.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Алишер Навои, «История четырех народов», «Мажолис ун-нафаис», «Мухокамат ул-лугатайн», эпосы «Хамса», семь планет, анализ и отношение.

Abstract

The article contains analytical information about the role of the scientific and literary heritage of Mirzo Ulugbek in historical sources and the work of Navoi. The significance of Ulugbek's scientific heritage is based on the artistic thinking of Navoi. On the example of the epos

"Khamsa" the effective use of Ulugbek's scientific views by Navoi is revealed. It is proved that the cosmogonic knowledge of Navoi served to create classical artistic images in epics.

Key words: Mirzo Ulugbek, Navoi, "History of four peoples", "Majolis un-nafais", "Muhokamat ul-lugatayn", "Khamsa", seven planets, analysis and attitude.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy va adabiy merosini o‘rganish XVII asrdan boshlangan. Bu borada Jon Grivs, Tomos Xayd, Frensis Beyli, L.Sediyo, V.Bartold, V.Vyatkin, Y.Knobl, T.N.Qoriniyoziy, G‘.Jalolov va boshqa olimlarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda Mirzo Ulug‘bek ijodi, faoliyati turli nuqtai nazardan o‘rganildi. U matematika, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmi bo‘yicha zabardast olim, ilm-fan va madaniyat homiysi edi. Masalan, Sakkokiyga, Sakkokiy unga atab qasidalar bitgan. Ulug‘bek saroyida aniq fanlarni o‘rganishga katta e‘tibor berilgan. O‘zi ham bu borada yangi ilmiy kashfiyotlar yaratadi. Ulug‘bekning boshqa ilmiy va tarixiy asarlarida ham adabiyot ilmiga tegishli qaydlarni uchratish mumkinligini A.Qayumov[6], A.Hayitmetov[7], H.Boltaboyev[8] alohida ta’kidlagan edi.

O‘z zamonasidan boshlab o‘tgan asrlar mobaynida va bugungi kungacha ham Ulug‘bek siymosi, uning ilmiy merosi, ijodi tarixiy asarlarda, tazkira va bayozlarda, badiiy asarlarda o‘ziga xos tarzda ulug‘langan. “Qomuslar bosh tahririyati” tomonidan 1996-yilda nashr etilgan “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” to‘plamida jumladan, Shamsuddin Ali ibn Jamolulislomning 1399-1403-yillarda yozilgan “Temurning Hindistonga qilgan yurishlari kundaligi”, Nizomiddin Shomiyning 1401-1402-yillarda yozilgan “Zafarnoma”, Shohobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh al-Havofiyning (u Hofizi Abru nomi bilan ham mashhur) XV asr 20-yillarida yozilgan “Zubdat ut-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlarida Mirzo Ulug‘bekning turli davrlardagi faoliyati haqida qimmatli fikrlar bildirilgan.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan bo‘lib, turkiy tilda yozilgan. Asarning kirish qismida Mirzo Ulug‘bek haqida shunday fikrlar qayd etilgan. “...*saltanat daryosining gavhari va ma’dalat (adolat – M.A.) konining javhari, saxovat boronining abri (anbari – M.A.) va shijoat beshasining babri (yo‘lbarisi – M.A.), farosat sipehrining mohi, kayosat (siyosat) mulkining shohi, shahanshohi a‘zam, shahriyori a‘lam, sohibus-sayfur-qalam (qimmatli qalam sohibi – M.A.), ma’dani lufu karam, moliki riqobi umam,*

farmondehi, turk, arab va ajam, mag'isiddin vad-davron Amir Ulug'bek Ko'ragon..." [10, 6]. Bundan tashqari tarixchi Xondamir "Habib us-suyar" asarida Ulug'bek haqida ma'lumot beradi [11, 38]. Xondamir Chig'atoy ulusi tarixini yozishda "Tarixi arba' ulus"dagi ma'lumotlarga tayangan. "Nusratnoma" asarini yaratishda ham mazkur asar asosiy manba vazifasini o'tagan.

Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" solnomasida Ulug'bek rasadxonasi haqida keng ma'lumotlar berilgan. Ulug'bek vafotidan keyin yaratilgan "Tazkirat ush-shuaro"da Davlatshoh shunday yozadi: "*Ulug'bek olimlikning yuqori darajasiga ko'tarildi... Ikki shoxli Iskandar Zulqarnayn davridan hozirgacha hokimiyat boshida Ulug'bek singari podshoh-olim bo'lmagan*".

Darhaqiqat, Boburning "Boburnoma"sida ham Ulug'bek bunyod etgan binolar qatorida rasadxonaning uch qavatli bo'lganligi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Biz nainki Mirzo Ulug'bek haqidagi kitoblarni, balki, u daho yaratgan asarlarni ham sinchkovlik bilan o'rganishimiz zarur. Tarixiy manbalarga ko'ra, Ulug'bek o'lmas kitoblar, turli mavzular she'rlar ham yozgan. Ularning ko'pchiligi bizgacha etib kelgan. Navoiyning "Majolis un-nafois" va Abu Tohirxojaning "Samariya" asarlarida ham uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. U tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq kitoblar bo'lgan.

"Xamsa" dostonlarining bir necha o'rinlarida Mirzo Ulug'bek haqida yozadi. Uning podshohlik faoliyati, ilmiy merosi, kashfiyotlari va shu barobarida ijodiy ishlariga ham munosabat bildiradi. "Farhod va Shirin"ning LIII –bobi Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzo madhiga bag'ishlangan qismida Navoiy unga nasihatlar berib o'tadi. Dunyo podshohlari ichida Iskandardan so'ng buyuk podshoh sifatida Ulug'bekni ulug'lab, shunday yozgan:

*Temurxon naslidan sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Va lek ul ilm sori topti chun dast,
Ko'zi ollinda bo'ldi osmon past.
Rasadkim, bog'lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav' ilmi osmoniy -
Ki, andin yozdi "Ziji Ko'ragoniy".*

Qiyomatga deguncha ahli ayyom,

Yozarlar oning ahkomidin ahkom. [“Farhod va Shirin”, 451-452]

Navoiy Shoh G‘arib Mirzoga nasihat berar ekan, Iskandar va Ulug‘bek singari ilm bilan dunyoni, xalqni boshqarish kerakligini uqtiradi. Ko‘rish mumkinki, Navoiy podshohlarning ilmi bo‘lishini jamiyat tarraqqiyoti bilan bog‘lagan, ilmiy tafakkur jamiyatni boshqarish uchun kalitligini anglagan va har bir podshoh ilmi, hunarli, ma‘rifatli bo‘lishini istagan. “Sab‘ai sayyor” dostonida Ulug‘bek yaratgan ilmiy merosdan samarali foydalandi. Jumladan, dostonning Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan IX–bobida [3, 50-51] etti sayyora – Zuhal, Mushtariy, Bahrom, Mehr, Zuhra, Atorud, Qamar haqida alohida to‘xtalgan. Bu sayyoralarning xususiyatlaridan kelib chiqib, mumtoz badiiy tasvirlarni yaratadi. Zuhal – Saturn sayyorasi 7-osmonda, rangi qora. Badiiy adabiyotda u yuksaklik ramzi. Bu o‘rinda Navoiy “mening siyohbonimni yuzingdagi ter (qora rang) bilan to‘ldir”, demoqda [3, 377]. Bizga ma‘lumki, Navoiy 1465-1469 yillarda Samarqandda yashadi. Sulton Abullays madrasasida tahsil oldi. Aniq fanlarga oid yangi bilimlarni o‘zlashtirdi. Ulug‘bek yaratgan rasadxona faoliyati bilan tanishadi. Buni Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida alohida qayd etib o‘tadi. “*Yana chun “Sab‘ai sayyor” rasadin zamirim bog‘labtur*” [9, 32] – ya‘ni etti sayyorani kuzatish maqsadida xayolimda rasadxona bunyod etdim, deydi. Bunda u ko‘kdagi etti yoritgichni xayolot olamida tasavvur qilgan. Demak, Ulug‘bek yaratgan Samarqand va Hirot astronomik muhiti shoirning kosmik dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Navoiy o‘z asarlarida Ulug‘bek ilmiy merosidan ko‘p o‘rinlarda olam va uning yaratilishi, sayyoralar harakati, kun va tun, 4 unsur, yer aylanishi, 12 burj, 18 ming olam haqidagi qarashlarini ifoda etishda foydalanib, badiiy tasvirni haqiqiy ilmiy tafakkur bilan boyitgan.

Navoiy “Saddi Iskandariy” [4, 640] dostonida ham astronomik bilimlarga asoslangan qarashlarini berib o‘tgan. Jumladan, dostonda usturlub – astronomik asbob va ko‘zgu ya‘ni oynai jahon jihozlari bilan bog‘liq voqealarni tasvirlaydi. Dostonda Iskandar Chin xoqoniga yuborgan sovg‘alar ichida oynai jahondan iborat ko‘zgudan ta‘sirlanadi. Koinot jumboqlari va olam sirlarini bilish uchun o‘z ixtiyoridagi olimlarga usturlub va sehrli ko‘zgu yasattiradi. Asardagi bu kabi qarashlar badiiy asarning ilmiy qimmatini oshirishga, kitobxonda ilmiy bilish asoslarini shakllanishiga turtki beradi. Zero, “Majolis un-nafois”ning 7-majlisida o‘qiymiz: “*Mirzo Ulug‘bek – donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur‘oni majid yodida erdi. Hay‘at va*

riyoziyni xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi. Va holo aning ziji aroda shoye‘dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg‘a mayl qilur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,
Sho‘xi makunki, chashmi badon dar kamini tust”.*

(Ma‘nosi: Go‘zallik mulki qanchalik qo‘l ostingda bo‘lsa-da, sho‘xlik qilmagilki, yomonlarning ko‘zi seni kuzatmoqdalar) [5, 719].

Ko‘rinadiki, temuriylardan etishib chiqqan 24 nafar ijodkordan Mirzo Ulug‘bek alohida o‘ringa egali Navoiyning e‘tiroflaridan anglashilib turibdi. Zotan, Ulug‘bek ilmiy maktabi Navoiy badiiy tafakkurini ilmiy-astronomik qarashlar bilan boyitgan. Olam yaralishining ilmiy-badiiy konsepsiyasini asoslashga xizmat qilgan.

M.M.Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida Mirzo Ulug‘bekning tarixiy mavzuda “Ulus-i arba” deb nomlangan asar yozganligi alohida qayd etib o‘tilgan [11]. “Tarixi arba’ ulus” Mirzo Ulug‘bekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yaratilgan. Asar 1425-yilda yozib tugatilgan. Asar o‘z davrida “Ulus-i arba’-yi Chingiziy” (“Chingiziylarning to‘rt ulusi”) va “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Biroq “To‘rt ulus tarixi” asari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqot manbai bo‘lgan emas. B.Ahmedovning ko‘rsatishicha, temuriylar davrida yaratilgan tarixiy va boshqa mavzudagi asarlarni o‘rganish va chop etish qoniqarli darajada emas. Ulug‘bekning ko‘p qirrali faoliyati o‘zining tadqiqotchilarini kutib turibdi.

“To‘rt ulus tarixi” o‘z davri adabiy jarayonlarini qamrab olganligi, adabiy janr va shakllar mavjudligi, tazkiraviy xususiyatlari, epik, lirik, dramatik turga xos jihatlari bilan adabiy asarga xosligini ko‘rsatadi. Tarixiy shaxslar va voqealarning tavsifiy bayonida, O‘g‘uzxon, Alanquvo, Chingizxon obrazlarini yaratishda o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, shiru shakar, ig‘roq san‘atlaridan foydalanadi. Hukmdorlar va oqsoqollar tomonidan aytilgan ibratli so‘zlar – nasihatlar va o‘gitlar, ov manzaralari, tabiat tasviri, saltanatni boshqarish qoidalari haqidagi ma‘lumotlari bu asarni adabiy manba sifatida badiiy qimmatini oshiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ulug‘bek ilmiy-adabiy merosi o‘z davri va undan so‘ng mumtoz, tarixiy manbalarda ko‘p tilga olingan. Uning ilmiy-ijodiy ishlaridan yuksak badiiyat namunalarini yaratishda unumli foydalanishgan. Birgina Navoiyning asarlarida Ulug‘bekni turli nuqtai nazardan o‘rganish imkoni mavjud. Navoiy o‘z asarlarini ishonchli faktik materiallarga boyitish, ilmiy bilishni badiiy tafakkurga singdirgan

holda ob'yektiv yondashishga harakat qilgan. Shu bois ham Navoiy yaratgan asarlarning ilmiy qimmatini bugungi kunda ham yuqori.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Navoiy A. Farhod va Shirin. G'afur G'ulom. – T.: 2020. -528 b.
2. Navoiy A. Sab' ai sayyor. G'afur G'ulom. – T.: 2020. – B. 50-51.
3. Navoiy A. Saddi Iskandariy. G'afur G'ulom. – T.: 2020. – 640 b.
4. Navoiy A. Majolis un-nafois. TAT. 10 jildlik. 9-jild. – T.: 2013. – B. 719.
5. Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik. 10-jild. Qadimiyat obidalari. Mirzo Ulug'bek. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2010. – B. 220.
6. Hayitmetov A. Adabiyotdan turkiyda birinchi nazariy qo'llanma. // O'zbek tili va adabiyoti. 2002. 1-son.
7. Boltaboyev H. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. (2 jild. O'rta asrlar uyg'onish davri). – 224 b.
8. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. 15 tomlik. XIV-tom. –T.: 1966. - B. 32.
9. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. – T.: Xazina. 1996. –B. 6.
10. Бартолд В.В. Сочинения. Т. 2. Ч.2. – М.: 1964. – С. 158–159. // Улугбек и его время. Петроград: 1918. – С.38.
11. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. – T.: O'zbekiston. 2011. – 704 b.

NAVOIY ASARLARI HAMDA ULARDA QO'LLANGAN JANRLARNING UMUMIY MIQDORI

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari nomzodi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti dotsenti v. b., O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi
sno54@mail.ru

Annotatsiya

Ma'ruzada Alisher Navoiy yozib qoldirgan asarlar umumiy miqdori hamda ularda qo'llangan janrlarning umumiy soni arifmetik aniqlikda ko'rsatiladi. Shu tariqa navoiyshunoslikda ayni paytgacha uning asarlari va qo'llagan janrlari miqdori haqidagi xato qarashlar rad etiladi. Buning uchun, avvalo, "asar" tushunchasiga ta'rif beriladi va unga aynan nimalar

kirishi aniqlashtiriladi, shuningdek, Navoiy “*Mukammal asarlar to‘plami*” 20 jildligiga kirgan barcha asarlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, navoiyshunoslik, asar, janr, kitob, to‘plam, devon, miqdor, arifmetik aniqlik.

Аннотация

В докладе показываются общее количество произведений и число жанров, употребляющих в них в математической точности. Таким образом отвергаются неправильные взгляды, распространенные до сих пор в навоиведении. Для этого сначала дается научное определение слова “*произведение*” и уточняется именно что подразумевается под этим словом, а также досконально изучаются все произведения Навои, включающиеся в “*Полное собрание сочинений*” в 20-ти томах.

Ключевые слова: Навои, навоиведение, произведение, жанр, книга, собрание, диван, количество, арифметическая точность.

Annotation

The report shows the total number of works and the number genres that are used in them in mathematical precision. In this way, the wrong views that are still widespread in navigational studies are rejected. To do this, first a scientific definition of the word “*work*” is given and exactly what is meant by this word is specified, and all the works of Navoi, included in the “*Complete Works*” in 20 volumes, are thoroughly studied.

Key words: Navoi, navigation studies, works, genre, book, collection, divan, quantity, arithmetic accuracy.

Alisher Navoiydan buyuk meros boqiy qoldi. Ko‘p mutaxassislar uning asarlari sonini 30 ga yaqin deb ko‘rsatishadi: “*O‘ttizga yaqin (?) nazmiy va nasriy asarlarida yigirma olti mingdan ortiq so‘z qo‘llagan ulug‘ shoir adabiy o‘zbek tilining grammatik qurilishi xususida ham e‘tiborga loyiq fikrlarni o‘rtaga tashlagan*” (6).

Bu – mantiqqa tamoman zid hisob-kitob. Chunki Iogann Gyote 1680 dan oshiq, Aleksandr Pushkin 826, Sergey Yesenin 527, Mixail Lermontov 400 dan ortiq, Vilyam Shekspir 38 pyesa, 154 ta sonet yozgan.

Nahotki, ulug‘ bobomiz shuncha kam asar bitgan bo‘lsa?!

Bu – “*asar*” so‘zini to‘g‘ri qo‘llamaslikdan kelib chiqqan xato. “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*” 5 jildligida asli arabcha bo‘lgan “*asar*” kalimasining “*alomat*”, “*belgi*”, “*nishon*” ma‘nolarini anglatishi aytilib, uning bir ma‘nosi “*ijodiy mehnat mahsuli*” (1; 105) ekani qayd etiladi. Modomiki, shunday ekan, axir, bor-yo‘g‘i ikki satrdangina iborat fard ham – bir yaxlit asar-ku.

Filologiya fanlari doktori, professor Bahrom Bafoyev jami 24 banddan iborat ro‘yxat keltiradi-da, shunday deb yozadi: *“Buyuk adibning eski o‘zbek poetik tilida yuqoridagi asarlarida takrorlarsiz jami 26035 ta so‘z uchrashligi ma‘lum bo‘ldi”* (2; 93).

To‘g‘ri, bu sanoqdagi *“Xamsa”*ning 5 dostoni, *“Nasoyim ul-muhabbat...”*, *“Tarixi anbiyo va hukamo”*, *“Xamsat ul-mutahayyirin”*, *“Holoti Pahlavon Muhammad”*, *“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”*, *“Tarixi muluki Ajam”*, *“Mahbub ul-qulub”*, *“Vaqfiya”*, *“Muhokamat ul-lug‘atayn”*, *“Mezon ul-avzon”*, *“Lison ut-tayr”*, *“Majolis un-nafois”* – haqiqatan ham, asar. Ular – 17 ta. Qolgan 7 nomdagi narsa asar emas, to‘plam. Ularning har biri bir nechadan asarni o‘z ichiga qamrab olgan-ku. Bular – *“G‘aroyib us-sig‘ar”*, *“Badoye‘ ul-vasat”*, *“Navodir ush-shabob”*, *“Favoyid ul-kibar”* devonlari, *“Nazm ul-javohir”*, *“Arbain”*, *“Munshaot”* to‘plamlari.

Agar gap shoirning bir muqovada jamlangan kitoblari haqida borayotgan bo‘lsa, ehtimol, ular 30 atrofida bo‘lar. Chunki shoirning 9 [muxlislari 1466 yili tuzgan, ilmda *“Ilk devon”* nomini olgan devon, 1471 yili Sherozda tuzilgan, ilmda *“Oqquyunli muxlislar devoni”* (qarang: 7), o‘zi tuzgan *“Badoye‘ ul-bidoya”* va *“Navodir un-nihoya”* devonlari, *“Xazoyin ul-maoniy”*ga kirgan *“G‘aroyib us-sig‘ar”*, *“Navodir ush-shabob”*, *“Badoye‘ ul-vasat”*, *“Favoyid ul-kibar”* devonlari, fors-tojik tilidagi *“Devoni Foni”*] devoni, tarjima yo‘li bilan yaratilgan 2 she‘riy to‘plami (*“Arba‘in”*, *“Nazm ul-javohir”*), jami 6 (*“Xamsa”*ga kirgan *“Hayrat ul-abror”*, *“Farhod va Shirin”*, *“Layli va Majnun”*, *“Sab‘ayi sayyor”*, *“Saddi Iskandariy”* hamda *“Lison ut-tayr”*) dostoni, 2 (shoirilar haqidagi *“Majolis un-nafois”* va shayxlar haqidagi *“Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”*) tazkirasi, 3 (*“Xamsat ul-mutahayyirin”*, *“Holoti Pahlavon Muhammad”*, *“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”*) manoqibi, til va adabiyot nazariyasi bilan bog‘liq 3 (*“Mufradot”*, *“Mezon ul-avzon”*, *“Muhokamat ul-lug‘atayn”*) risolasi, yana 3 (*“Mahbub ul-qulub”*, *“Vaqfiya”*, *“Munshaot”*) nasriy-badiiy va 2 (*“Tarixi anbiyo va hukamo”*, *“Tarixi muluki Ajam”*) ilmiy-tarixiy asari – mavjud.

Shularni nomma-nom sanasak, haqiqatan ham, 30 ga yaqinlashadi, aniqrog‘i, 29 ta bo‘ladi.

Lekin *“Xazoyin ul-maoniy”*dagi mavjud 4 devonning har birida g‘azalning o‘zidan naqd 650 tadan, jami 2 ming 600 ta bor-ku. *“Devoni Foni”*da jami 556 g‘azal – mavjud. *“Xazoyin ul-maoniy”*ga kirmay qolgan g‘azallarini hisobga olmaganda ham, o‘zi devonlariga kiritgan g‘azallarining umumiy soni 3 ming 156 tani tashkil etyapti-ku.

Shoirning o‘zi “*Lison ut-tayr*”da nazm va nasrdan iborat merosi 100 ming bayt atrofida ekanini aytib o‘tgan:

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos

Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos (3; 295).

Shoir merosi haqida gap ketar ekan, eng muhim ikki jihatni alohida qayd etib o‘tish lozim:

birinchidan, boshqa mumtoz shoir va yozuvchilarimizga qaraganda, Navoiyning o‘zi merosini puxta-pishiq holda tartibga solib, kitobat qildirib, kelajak avlodlarga qoldirib ketgan, chunki umrining oxirlarida yozilgan “*Muhokamat ul-lug‘atayn*”da o‘zi sanagan asarlaridan bizgacha etib kelmagani – yo‘q;

ikkinchidan, buyuk mutafakkirning butun merosi 1987 – 2003-yillar mobaynida “Fan” nashriyotida 20 jild sifatida to‘liq chop etildi.

Modomiki, bugun qo‘limizda ulug‘ shoir va mutafakkir asarlarining mukammal nashri mavjud ekan, nega uning asarlari sonini aniq qilib ko‘rsatish mumkin emas?!

Juda mumkin-da. Keling, bu ishni orqaga tashlamaylik-da, hozirning o‘zida masalani hal qilib qo‘ya qolaylik.

20 jildning 1- va 2-jildlaridagi lirik asarlarning hammasi – 3 – 6-jildlarni tashkil etgan “*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan to‘rt devonda bor. Shuning uchun sanoqni 3-jilddan boshlaymiz:

3-jild: “*G‘aroyib us-sig‘ar*” – 650 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas, 1 tarji‘band, 1 masnaviy, 50 qit‘a, 133 ruboiy, ya‘ni jami – 839 asar.

4-jild: “*Navodir ush-shabob*” – 650 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas, 1 tarji‘band, 1 tarkibband, 50 qit‘a, 52 muammo, ya‘ni jami – 758 asar.

5-jild: “*Badoye‘ ul-vasat*” – 650 g‘azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 2 musaddas, 1 tarji‘band, 1 qasida, 60 qit‘a, 10 chiston (lug‘z), 13 tuyuq, ya‘ni jami – 740 asar.

6-jild: “*Favoyid ul-kibar*” – 650 g‘azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarji‘band, 1 soqiynoma, 50 qit‘a, 86 fard, ya‘ni jami – 793 asar.

7-jild: “*Xamsa*”dagi “*Hayrat ul-abror*” dostoni, ya‘ni 1 asar.

8-jild: “*Xamsa*”dagi “*Farhod va Shirin*” dostoni, ya‘ni 1 asar.

9-jild: “*Xamsa*”dagi “*Layli va Majnun*” dostoni, ya‘ni 1 asar.

10-jild: “*Xamsa*”dagi “*Sab‘ayi sayyor*” dostoni, ya‘ni 1 asar.

11-jild: “*Xamsa*”dagi “*Saddi Iskandariy*” dostoni, ya‘ni 1 asar.

12-jild: “*Lison ut-tayr*” dostoni, ya‘ni 1 asar.

13-jild: “*Majolis un-nafois*” tazkirasi, ya‘ni 1 asar.

14-jild: *“Mahbub ul-qulub”*, *“Munshaot”* to‘plami (har biri alohida-alohida bitilgan 103 maktub), *“Vaqfiya”* asarlari, ya’ni jami – 105 asar.

15-jild: *“Xamsat ul-mutahayyirin”* manoqibi, *“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”*, *“Holoti Pahlavon Muhammad”* holotlari, *“Nazm ul-javohir”* to‘plami (255 ruboiy), ya’ni jami – 258 asar.

16-jild: *“Muhokamat ul-lug‘atayn”*, *“Mezon ul-avzon”*, *“Tarixi anbiyo va hukamo”*, *“Tarixi muluki Ajam”*, *“Arba’in”* (40 qit’a), *“Siroj ul-muslimin”*, *“Munojot”*, *“Risolai tiyr andoxtan”* (bu risola usluban Alisher Navoiy yozgan asarga mutlaqo o‘xshamaydi, shuning uchun uning shoir asarlari sirasiga kiritilgani – bahsli) asarlari, ya’ni jami – 47 asar.

17-jild: *“Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”* tazkirasi, ya’ni 1 asar.

18-jild: *“Devoni Foniy”* (boshlanish qismi) – 270 g‘azal.

19-jild: *“Devoni Foniy”* (davomi) – 286 g‘azal.

20-jild: *“Devoni Foniy”* (davomi) – 1 musaddas, 1 marsiya, 64 qit’a, 72 ruboiy, 16 ta’rix, 266 muammo, 9 lug‘z (chiston) (Bu hisob-kitoblar *“Devoni Foniy”* da jami 985 asar borligini ko‘rsatyapti); *“Sittai zaruriya”* to‘plami (6 qasida – *“Ruh ul-quds”*, *“Ayn ul-hayot”*, *“Tuhfat ul-afkor”*, *“Qut ul-qulub”*, *“Minhoj ul-najot”*, *“Nasim ul-xuld”*), *“Fusuli arbaa”* to‘plami (4 qasida – *“Saraton”*, *“Xazon”*, *“Bahor”*, *“Day”*), *“Mufradot”* asari, ya’ni jami – 440 asar.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning o‘zi kitoblariga kiritgan asarlari umumiy soni 4 ming 544 (*“Risolai tiyr andoxtan”* ni Navoiy yozgani bahsli ekani hisobga olinsa, 4 ming 543) tani tashkil etadi.

“Mukammal asarlar to‘plami” ning 20-jildiga *“Rasmiy devonlarga kirmagan she’rlar”* ham berilgan. Ularning soni quyidagicha: 35 g‘azal, 4 qit’a, 1 marsiya, 1 taxmis, bulardan tashqari, turli manbalarda Navoiyga nisbat berilgan 14 bayt ilova qilingan. Agar bu ilovalardagi faqat bitgan 41 asarnigina qo‘shganda ham, umumiy raqam 4 ming 585 tani tashkil etadi.

Demak, endi komil ishonch bilan ayta olamizki, Navoiy 60 yilga yaqin umri mobaynida 4 ming 585 ta asar yaratgan!

Bu erda kelajakda aniqlik kiritilishi zarur bo‘lgan ikki nozik nuqta – bor. Birinchisi – shuki, *“Nazm ul-javohir”* dagi she’rlar arabiydan, *“Arbain”* dagi she’rlar esa forsiydan tarjima qilingan. Ammo navoiyshunosligimizda hali ular qay darajadagi yoki qaysi tipdagi tarjimalar ekani ilman aniqlashtirib berilganicha – yo‘q. Ikkinchisi – shuki, bu sohibi qalamning nasr va nazm aralash qilib bitilgan asarlaridagi

she'riy parchalarni ham alohida, ya'ni mustaqil asarlar hisoblash mumkinmi yoki yo'qligiga aniqlik kiritish – lozim. Qizig'i, ular orasida ham birovlarining yo nazmiy, yo nasriy fikrlarini she'rga solish hodisasi – bor. Bu she'riy parchalarga asos bo'lgan manbalarning katta qismi esa yo arabiy, yo forsiy matn bo'lgan. Demak, bu erda ham tarjimaviylik hodisasi yuz bergan.

Hozircha, biz bu she'riy parchalarni mustaqil asarlar tarkibiga kiritmadik va sanoqqa qo'shmadik.

Insonning tabiati – qiziq, hammaning xotirasi ham unchalar ishonchli yoki mustahkam bo'lavermaydi. Agar, mabodo, birovga ikkita ma'lumot aytsangiz-u, keyin tekshirib ko'rsangiz, ana shu ikki axborotdan bittasi bu odamning yodida mustahkam qoladi-yu, u ikkinchisini unutadi. Xo'sh, qaysi biri esda qoladi? Muayyanrog'i. Qanday ma'lumot muayyan hisoblanadi? Avvalo, raqami bori.

Deylik, Toshkentdan Buxoroga avtomobilingizda jo'nayapsiz. Yo'l-yo'lakay Samarqandda – Mirzo Ulug'bek rasadxonasi bekatida bir og'ayningiz siz bilan ko'rishib, kitobini berib yubormoqchi. Unga qo'ng'iroq qilib, ikki ma'lumotdan iborat axborotni etkazasiz:

– *Soat beshlarda Samarqanddan o'tsak kerak. Bulung'urga borganimizda yana qo'ng'iroq qilaman,* – deysiz. Maqsadingiz – aniq: birodaringiz bir daqiqa ham ovora bo'lmasin, siz Bulung'urga etganda u uyidan chiqsa ham, bemalol o'z vaqtida bekatga boradi.

Ana, ko'rasiz, birodaringiz besh deganda bekatda bo'ladi. Chunki u ikki axborotdan ichida raqami borligini qattiq "tutib" oldi, ikkinchi axborot bilan hisoblashib ham o'tirmadi. Holbuki, *siz G'allaorolda to'xtab, bemalol bir soat ovqatlandingiz, Mirzo Ulug'bek bekatiga mo'ljalangizdagi beshlarda emas, oltidan ham o'tganda etib keldingiz,* deylik. Og'ayningiz qor yog'ib turgan sovuq havoda naqd bir yarim soat tik turib sizni kutdi. Ayb – o'zida: "Alloh"ini eshitgan-u, "berdi" sini eshitmagan.

Muqaddas dinimizdagi aqida shundayki, Allohning sherigi – yo'q. Qozi bir mahbusdan:

– *Oting nima?* – deb so'rabdi. U:

– *Alloh...* – deb boshlagan ekan, qozi:

– *Jallod!* – deb bo'kiribdi. Jallod etib kelgani bilan mahbusning kallasini judo qilishga buyuribdi. Chunki u o'zini "Alloh" deb hisoblab, kofir bo'ldi.

Holbuki, bu kimsaning oti "Allohberdi" ekan. "...Berdi" sini aytib ulgurmabdi badbaxt.

Gapni bunchalar uzoqdan olib kelayotganimizning sababi – bor.

Navoiy lirikasini tadqiq qilgan Yoqubjon Is’hoqov shoirning “*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan 4 devonida jami 16 lirik janrga oid she’rlarini kiritganini qayd etgan (4; 10). Shu-shu ko‘p ziyolilar matbuot, radio va televideniye orqali chiqishlarida, turli uchrashuvlarda bilib-bilmay: “*Navoiy 16 janrda ijod qilgan*”, – deydigan bo‘lib qoldi. Birgina misol bilan cheklanamiz: “*Alisher Navoiy 16 ta adabiy janrda ijod qilgan*” (8). Bu jumladagi “*adabiy*” so‘zi o‘rniga “*lirik*” so‘zi qo‘llansa edi, fikr to‘g‘ri bo‘lar edi. Yana “*o‘zbek tilidagi lirikasida*” degan so‘zlarni ham qo‘shish lozim edi.

Shu axborotni gazeta yoki jurnalda o‘qisangiz ham, radio yoki televideniye orqali eshitsangiz ham, uning mutlaqo xato ekanini muallif yoki so‘zlovchiga ham, eng yomoni, ming-ming o‘quvchi yoki tinglovchiga ham ayta olmaysiz. Oqibatda o‘qiganlaru eshitganlar ongida shu asossiz fikr muhrlanib qolaveradi. Bu xatoni tuzatish – kerak.

Keling, yaxshisi, Navoiy aynan nechta janrda asarlar yaratganini aniqlashtirib olaylik. Axir, bu masalani aniq-tiniq aniqlash uchun qo‘limizda uning “*Mukammal asarlar to‘plami*” – bor, demak, sanash unchalar mushkul ish emas.

“*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan devonlardagi jami 16 janr – quyidagilardan iborat: g‘azal, mustazod, muxammas, tarji‘band, (lirik) masnaviy, qit‘a, ruboiy, tarkibband, muammo, musaddas, qasida, chiston (lug‘z), tuyuq, musamman, soqiynoma, fard. Bu sanoqda janrlarni “*Xazoyin ul-maoniy*” devonlarida uchragan tartib bo‘yicha keltirdik.

Ma‘lumki, shoir fors-tojik tilida “*Foniy*” taxallusi bilan bitilgan lirik asarlarini “*Devoni Foniy*”ga jamladi. Bu to‘plamda “*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan devonlarda uchramaydigan 2 ta lirik janr – mavjud. Bular – marsiya bilan ta’rix.

Shuning uchun, *Navoiy turkiy va forsiy tilda jami 18 lirik janrda ijod qilgan*, deb hisoblashimiz – zarur.

19-janr – debocha. Shoir o‘zi tuzgan dastlabki devon bo‘lmish “*Badoyi’ ul-bidoya*”ga hamda “*Xazoyin ul-maoniy*”ga alohida-alohida “*Debocha*”lar bitadi.

20-janr – munojot. Ulug‘ mutafakkirning navoiyshunoslikda “*Munojot*” nomi bilan mashhur bo‘lgan ixcham nasriy asari janrini shunday belgilash – mumkin. Aslida, Navoiy lirik asarlari orasida ham munojot-g‘azal, munojot-ruboiy va boshqalar bor, olti dostoni boshlanish qismlarida ham munojot boblar – mavjud. Lekin ilmda dastlab shoirning o‘zi tuzgan “*Kulliyot*”i uchun maxsus so‘zboshi sifatida yozilgan deb

qaralgan, keyinroq esa Allohga tavba-tazarru va iltijolar qilish ilinjida maxsus bitilgan asar sifatida baholangan bu nasriy asar janrini “*munojot*” deb belgilashdan boshqa yo‘l yo‘q qolmadi.

21-janr – doston. “*Xamsa*”dagi besh asar (“*Hayrat ul-abror*”, “*Farhod va Shirin*”, “*Layli va Majnun*”, “*Saba’yi sayyor*”, “*Saddi Iskandariy*”) hamda “*Lison ut-tayr*” – doston. Ularni “*masnaviy*” deb atash ham rasm bo‘lgan. Biroq biz bugun “*Xazoyin ul-maoniy*”da ham juftqofiyaga asoslangan baytlardan iborat 1 lirik masnaviy, ya’ni Navoiyning ustozlaridan biri Sayyid Hasan Ardasheriga yo‘llagan she’riy maktubi o‘rin olgan. Agar keyin sanaganimiz olti liro-epik asarni ham “*masnaviy*” desak, ularni lirik masnaviy bilan bir janr deb hisoblashimizga to‘g‘ri keladi va bu ilman xato bo‘lur edi. Shuning uchun biz bu 6 asar janrini “*doston*” deb hisoblash tarafdorimiz. Bu olti dostonga nisbatan “*masnaviy*” atamasini ham qo‘llashga hech kim qarshi emas. Ammo bu janrni emas, she’riy shaklni bildirib kelishini unutmazlik – kerak. Janrni belgilashda esa, shakliy xususiyatlardan tashqari, mazmun jihati ham jiddiy hisobga olinadi.

22-janr – tazkira. Navoiy 2 ta tazkira yaratgan. “*Majolis un-nafois*” – shoirlar va “*Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat*” – shayx-avliyolar haqidagi tazkira.

23-janr – ijtimoiy-publisistik pandnoma. “*Mahbub ul-qulub*” – shu janrda bitilgan. Pandona yo‘nalishiga ko‘ra, u tip jihatidan Kaykovusning “*Qobusnoma*”, Sa’diyning “*Guliston*”, Jomiyning “*Bahoriston*” asarlariga o‘xshasa ham, bunda ijtimoiy-publisistik ruh ustunlik qiladi. Shuning uchun uning janri shu tarzda belgilandi.

24-janr – maktub (insho). “*Insho*” so‘zining tilimizda ta’lim jarayonida biron-bir mavzuda bitiladigan ijodiy ishni anglatishini ham hisobga olsak, bu janrni ifodalashda “*maktub*” istilohi ma’qulroqdek ko‘rinadi. Shoirning o‘zi turli zamondoshlariga bitgan 103 maktubini “*Munshaot*” nomi bilan alohida to‘plam qilgan.

25-janr – holot-manoqib. “*Xamsat ul-mutahayyirin*” manoqibi, “*Holoti Sayyid Hasan Ardasher*”, “*Holoti Pahlavon Muhammad*” holotlari shu toifaga kiradi. Muayyan bir tarixiy shaxs haqida bitilgan bu uch asar musulmon Sharqi adabiyotidagi an’anaviy manoqiblarga aynan o‘xshamaydi. Shuning uchun ulardan ikkitasi nomiga muallifning o‘zi “*holot*” so‘zini qo‘shgan. Lekin ularda manoqiblik xususiyatlari ham yo‘q emas. Shularni hisobga olganda, bu janrni, shartli ravishda, “*holot-manoqib*” deb atadik.

26-janr – ilmiy risola. Ikki (forsiy va turkiy) til qiyosi va turkiy til fazilatlarini xususidagi “*Muhokamat ul-lug‘atayn*”, aruz vazni nazariyasiga bag‘ishlangan “*Mezon ul-avzon*” hamda fors-tojik tilida yozilgan muammo janri nazariyasidan iborat “*Mufradot*” asari aynan shu janrning tipik namunalarini hisoblanadi.

27-janr – tarixiy risola. Aslida, tarix ham ilm va Navoiyning “*Tarixi anbiyo va hukamo*” hamda “*Tarixi muluki Ajam*” asarlarini ham ilmiy risolalar tarkibiga kiritish mumkin bo‘lar. Biroq bu yerda tarix buyuk badiiy qalam sohibi tarafidan bitilgan. Shuning uchun unda voqea-hodisalar bayoni oddiy ilmiy tarixlardan keskin farq qiladi. Shuning uchun bu ikki asar janrini “*tarixiy risola*” tarzida belgilash lozim ko‘rildi. Nomlaridan ham anglashilib turganidek, “*Tarixi anbiyo va hukamo*”da payg‘ambarlar va hakimlar, ya’ni faylasuf donishmandlar hayoti haqida ma’lumotlar berilib, ularning e’tiborli so‘zlaridan namunalar keltiriladi, “*Tarixi muluki Ajam*”da esa Eron podshohlari tarixi yoritiladi, bu tarix muayyan tizimga solinadi. Bu ikki asarini Navoiyning o‘zi bir umumiy nom ostida biriktirib, “*Zubdat ut-tavorix*” deb ham ataydi (*qarang*: 5; 26).

28-janr – vaqfnoma. Navoiyning 40 yoshida, ya’ni 1481 yili bitgan “*Vaqfiya*” asari janri shu tarzda belgilandi. Chunki bu asar shu qadar o‘ziga xoski, mohiyatan uni boshqa janrga qo‘shib bo‘lmaydi.

29-janr – nazmiy risola. “*Siroj ul-muslimin*” asarini shunga kiritish – kerak. Chunki bu asar – amalda shariat tartib-qoidalari haqidagi risola. Faqat u nazmiy yo‘l bilan bitilgan, xolos. Bu asarda nazm – bor, lekin u she’r emas. Chunki she’rda shuur ustun bo‘lishi – kerak.

30-janr – nazmiy tarjima. “*Arba’in*” bilan “*Nazm ul-javohir*”ni shu toifaga kiritish – kerak. Hazrat Abdurahmon Jomiy Muhammad(s. a. v.)ning 40 hadisini tanlab, fors-tojik tilida nazmiy yo‘l bilan 40 qit’a tarzida qayta yaratadi. Navoiy piri va ustozidan ruxsat so‘rab, shu nazmiy matnini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. “*Nazm ul-javohir*”ning yuzaga kelishi ham shunga o‘xshaydi. Undagi 255 ruboiy chahoryorlardan biri, to‘rtinchi xalifa bo‘lmish Hazrat Alining hikmatli so‘zlari asosida bitilgan.

31-janr – taxmis. Aslida, “*muxammas*” va “*taxmis*” so‘zlari bir ma’noni, ya’ni har bandi 5 misradan tashkil topgan, qofiyalari *aaaaa*, *bbbba*, *vvvva* va hokazo tarzda bo‘lgan lirik janrni bildiradi. Biroq hozirgi adabiyotshunosligimizda bu janrning bir muallif tarafidan bitilgan ohoriy (original) namunalarini “*muxammas*”, bir muallifning g‘azali baytlari oldidan o‘sha misralarga shaklan va mazmunan mos ravishda 3 satrdan qo‘shish asosida bitilgan namunalarini esa “*taxmis*” deyish rasm bo‘la boryapti. Shunga ko‘ra, biz ham taxmisni alohida janr sifatida ajratdik.

Navoiy ijodida taxmisning 2 tagina namunasini uchratamiz. Birinchisi – “Xazoyin ul-maoniy”ning 2-devoni bo‘lmish “Navodir ush-shabob”dagi Lutfiyning:

*Ko'kdadur har dam fig'onim ko'rgali sen mohni,
Da'viyi mehringga tonuq tortadurmen ohni, –*

deb boshlanadigan g‘azaliga bog‘langan. Ikkinchisi “Mukammal asarlar to‘plami”ning 20-jildi “Rasmiy devonlarga kirmagan she’rlar” qismida berilgan Husayniyning:

*G'unchayi xandon borib, ko'nglumda qoldi xor-xor,
Tinmag'ur jonimg'a onsiz dunyada bori ne bor?! –*

matlasi bilan boshlanadigan g‘azaliga bog‘langan taxmis.

20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ga kiritilgan “Risolayi tiyr andoxtan” asarining tili va uslubi tahlili uning Navoiy qalamiga mansub ekaniga shubha tug‘diradi uchun uning janrini belgilashga urinib o‘tirilmadi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy butun ijodida jami 31 adabiy-ijodiy janrda asar yaratgani ayonlashdi.

Shuning o‘zi ham – ba’zi olimlarimiz o‘ylamay-netmay keltirgan raqamdan ikki barobar ko‘p. Demak, hazrat Navoiy jami 31 janrda naqd 4 ming 585 ta asar bitgan! Bunday yuksak miqyos jahon sohibi qalamlaridan kamdan kamigagina nasib etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

Kitoblar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. J. 1. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. *B a f o e v B.* Navoiy ummonidan dur izlab... – Buxoro: Buxoro, 2022.
3. *Alisher Navoiy.* Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 12. – Toshkent: Fan, 1996.
4. *I s h o q o v Yo.* Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
5. *Alisher Navoiy.* Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 16. – Toshkent: Fan, 2000.

Jurnal va gazetalar:

6. *D a d a b o e v H.* Buyuk tilshunos. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2016 yil, 5 fevral.
7. “Oqquyunli muxlislar devoni”ning Tokio nashri (*Adabiyotshunos Aftondil Erkinov bilan jurnalist Mahmud Sa’diy suhbat*). // O‘zbekiston

adabiyoti va san'ati, 2016 yil, 5 fevral.

8. *Sattorov Sh.* Mir Alisher Navoiy haqida 15 ma'lumot, 10 hikmat va bir rivoyat. // Janob, 2017 yil, 1-son.

ALISHER NAVOIY MIRZO BOBUR NAZDIDA

Shuhrat HAYITOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ko'pgina ijodkorlar bilan bir qatorda hazrat Navoiy fe'l-atvori hamda ijodiy merosi haqidagi muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mazkur maqolada "Boburnoma"dagi Navoiy ta'rifi va uning aruz nazariyasiga oid qo'llanmasi xususidagi tahliliy ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratilgan hamda Boburning mutafakkir shoirga ehtiromi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация

Известно, что в произведениях Захириддина Мухаммада Бабура, наряду со многими другими художниками, можно найти важные сведения о характере и творческом наследии Хазрата Навои. В данной статье особое внимание уделяется аналитической информации об определении Навои в «Бобурноме» и его руководстве по теории аруза, а также рассмотрено уважение Бабура к поэту-мыслителю.

Annotation

It is known that in the works of Zahiriddin Muhammad Babur, along with many other artists, you can find important information about the character and creative heritage of Hazrat Navoi. In this article, special attention is paid to the analytical information about Navoi's definition in "Boburnoma" and his guide to the theory of aruz, and Babur's respect for the thinker poet is discussed.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida bir yarim mingdan ziyod shaxslar nomini zikr etgan bo'lsa, shundan yetti yuz nafarga yaqini shohlar, hokimlar, amir-amaldorlar, din ulamolari, ilm-fan, san'at va adabiyot ahli, dehqon, hunarmand va boshqa kasb egalaridir. Bu shoh asarda, ayniqsa, ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga katta o'rin berilgani alohida e'tiborga molik. Asarda Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy,

Shayxim Suhayliy, Ahmad Hojibek, Behzod, Sulton Ali, Hoja Abdullo Marvoriy, Shoh Muzaffar, G'ulom Shodiy, Husayn Udiy kabi bir qator shoirlar va san'atkorlar haqida qiziqarli faktlarning mavjudligi bugungi kunda o'sha davrni o'rganishda bu asar naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Jahon adabiyotida o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyandalari bo'lgan Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiy portreti yoritilar ekan, albatta, bu jarayonda ham avvalo, Bobur Mirzo ma'lumotlariga e'tibor qaratiladi.

Bobur Mirzo hazrat Alisher Navoiy bilan uchrashmagan bo'lsa-da, lekin yoshligidan uning shaxsiga va ijodiga katta mehr qo'ygan, asarlarini o'qib ulg'aygan. Bobur tug'ilgan yili hazrat Navoiy buyuk «Xamsa»ni yozishga kirishgan. Bobur o'zining qomusiy asarida Alisher Navoiy nomini o'n olti marta tilga olib o'tgan. Dastlab, «Boburnoma»da 1505-1506-yil voqealari bayon qilinar ekan, Husayn Bayqaro haqida ma'lumot berilayotgan o'rinda Alisher Navoiy haqida shunday yozadi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana bir «Mantiq ut-tayr» vaznida «Lison ut-tayr» otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ush-shabob», «Badoyi ul-vasat», «Favoid ul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor».

Navoiy va Bobur ijodiy faoliyatida badiiy ijoddagi hamohanglik bilan birga ilmiy ijodda ham mushtarak xususiyatlarni ko'rish mumkin. Bu mushtaraklik ilmiy sohadagi serqirralikda, qomusiy ilmga ega ekanlikda ko'rinadi. Ular zamonasining buyuk shoirlari bo'lish bilan birga adabiyotshunos olimlari hamdir. Bir asrning ikki daho shoiri ham aruz nazariyasiga bag'ishlangan asar yozganlar. Ma'lumki, Bobur aruz nazariyasini yozish barobarida sharqning yirik shoirlari merosiga ham ko'plab murojaat qilgan va ular asarlaridan namunalar olgan. Risolada fors adabiyotining yirik vakillari Ro'dakiy, Nizomiy, Attor, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy, Salmon Savojiy, Hofiz, Jomiy va boshqalarning asarlaridan parchalar beradi. Navoiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Sulton Husayn Mirzo va boshqalarning asarlaridan iqtiboslar oladi. Xullas, risolada jami oltmishga yaqin shoirning asaridan misollar keltiradi. «Aruz risolasi» orqali Bobur Mirzo yirik adabiyot nazariyotchisi va qattiqqo'l adabiyotshunos ekanligi ayon bo'ladi. U hatto Husayn Boyqaro devonidagi g'azallar bir vaznda yozilganini maxsus qayd etar ekan, bu holni ijobiy hodisa deb qaramaydi: «Tab'i nazmi bor edi. Devon ham

tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi. Ba'zi baytlari yomon emasdur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadir», - deydi.

Bobur shoirlar ijodiga ko'p o'rinlarda tanqidiy munosabat bildiradi. Hatto, Navoiy she'riyati haqida bahsli mulohazalarni bildiradi: «... Yana «Mizon ul-avzon» otliq aruz bitibtur, bisyor madxuldu: Yigirma to'rt ruboiy vaznida to'rt vaznda g'alat qilibtur», degan fikrni aytadi. Ammo aslida bu haqiqatni Alisher Navoiyning qayd etib o'tadi. U aruzning murakkabligini tushungan holda kitob oxirida shunday yozadi: «Iltimos bu fan ahlidin ulkim, har yerda sahva va xato voqe' bo'lmish bo'lsa, e'tiroz bila o'tmagaylar va qalami bila tuzatgaylar». Bobur Mirzo «Boburnoma»da Navoiy she'riyatining janr xususiyatlari biroz bahsli fikr-mulohazalarni bildirsa-da, «Aruz risolasi»da bu haqda to'xtalmaydi. S.Hasanov fikriga ko'ra, Bobur avval kotiblar tomonidan noto'g'ri ko'chirilgan nusxani ko'rgan bo'lsa, «Muxtasar»ni bitishdan avval to'g'ri matnni ko'rgan bo'lsa kerakki, Navoiy xatolariga to'xtamagan.

Bobur «Boburnoma»ning yana bir o'rnida Navoiy ijodiga baho berar ekan, shunday yozadi: «Forsiy devon ham tartib qilibtur. Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur, ba'zi abyoti yomon emastur, vale aksari sust va furudtur». Tojik adabiyotshunosi A.Mirzayev «Devoni foniy»dagi g'azallar Hofiz, Jomiy g'azallariga hamohang bo'lib, g'oyaviy-badiiy jihatdan ulardan qolishmasligini ta'kidlasa, E.Shodiyev Navoiydan boshqa «Foniy» taxallusli shoirlar ham borligini aytib, Bobur o'shalardan birining devonini ko'rgan bo'lsa kerak, degan fikrni aytadi. «Majolis-ul-nafois» tazkirasida 12 ta «Foniy» taxallusli shoir haqida ma'lumotlar bor. Bundan xulosa shuki, balki Bobur «Foniy» taxallusida ijod qilgan boshqa shoirlarning asarlarini o'qigandir va shunga baho bergandir. Ammo Boburning Navoiy ijodini muttasil kuzatib borganligini, Hirotda Navoiyning uyida bir muddat yashaganligini hisobga olsak, bu taxmin unchalik ham ishonchli emasdek. Boburning nega bunday qarashlarni ilgari surganligi haqida hali yagona ilmiy to'xtamga kelinmagan. Bu boradagi qarashlarda farqlar bor.

Bizningcha, Boburga Navoiyning turkiy tildagi asarlariga nisbatan fors tilidagi lirik merosining bo'shroq ko'rinishiga sababni til imkoniyatlaridan qidirmoq kerakdir. Ehtimol, Bobur nazarida «Xazoyin-ul-maoniy»dagi she'rlarga nisbatan «Devoni foniy»dagi she'rlar bo'shroq ko'ringandir.

Bobur shuningdek, «Boburnoma»da Alisher Navoiyning musiqadan yaxshi xabardor ekanligini, o'zi kuylar yaratganini qayd etadi: «Yana musiqada yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi

peshravlari bordur», - deb yozadi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy adabiyot va san'atning chinakam homiysi edi. Talantli va iqtidorli kishilarni qadrlar, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak bergan. Xirotdagi va boshqa joylardan Xirotdagi kelgan iqtidorli kishilarning Alisher Navoiy ko'magida kamolotga erishganligi haqida Bobur shunday yozadi: «Ahli fazl va ahli xunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaski, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay».

Alisher Navoiy hayoti va ijodi, uning xarakteri, xulq-atvori kabi jihatlarni yoritishda Bobur qarashlari alohida tahsinga sazovordir. Bobur bergan ma'lumotga ko'ra, Navoiy shoh xazinasidan oladigan maoshini ham olmagan. O'zi tyez-tez shoh xazinasiga sovg'alar qilib turgan. «Mirzodin nima olmas, balki yilda mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur edi». Navoiy O'rta Osiyoda Xo'ja Ahrordan keyingi eng boy odam bo'lgan. Uning bir kunlik daromadi o'n sakkiz ming dinor ekan. Bu boylik Navoiyga shoh tomonidan in'om qilingan yerlardan kelganligi qayd etiladi. Navoiy bu boyliklar hisobidan masjid, madrasalar qurdirgan, ko'prik va yo'llar barpo ettirgan, bechoralarga turli in'omlar qilib turgan. «Boburnoma»da Navoiy qurdirgan imoratlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. «Alisherbyekning o'lturur uylarikim, «Unsiya» derlar, maqbara va masjidi jomeinikim «Qudsiya» derlar, madrasa va xonaqohinikim «Xalosiya» va «Ixlosiya» derlar, hammom va dorushshifosinikim «Safoiya» va «Shifoia» derlar», - deb yozadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ma'lumotlariga ko'ra, Navoiy kamolotida uning homiylari ham katta rol o'ynagan. Navoiyga Abdulqosim Bobur, Husayn Bayqaro, Ahmad Hojibek, Turbatiy kabi kishilar homiylik qilganlar. Navoiyning Mashhad, Samarqand madrasalarida o'qigan chog'lari shahar xokimi Ahmad Hojibek Navoiyni qo'llab turgan.

«Boburnoma»da Navoiy hayotining so'nggi kunlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan: «Sulton Husayn Mirzo Astrobod cherikidin yong'onda istiqbolg'a keldi, mirzo bilan ko'rushub qo'ppuncha, bir holate bo'ldi, qo'polmadi, ko'tarib eltdilar. Tabiblar aslo tashxis qila olmadilar. Tonglasi-o'q Tengri rahmatiga bordi».

«Boburnoma»da keltirilgan bu muxtasar ma'lumot zamirida quyidagi voqealar yotadi. 1500 yilning yozida Husayn Bayqaro Astrabodda bosh ko'targan Muhammad Husaynga qarshi qo'shin tortadi, Hirotga Amir Muboriziddin bilan Alisher Navoiy qoladilar. Husayn Bayqaroning bu yurishi uzoqqa cho'zilmaydi, shu yilning dekabr oyida ota va o'g'il o'rtasida sulh tuzilib, shoh poytaxtga qaytayotgani haqida xabar keladi. Odat bo'yicha, Navoiy shaharning bir qator ko'zga ko'ringan kishilari bilan shohni kutib olish uchun yo'lga chiqadi. Bu tarixiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan tarixchi Xondamir shunday yozadi: «Bir farsaxga yaqin yurganda sahibqironning dabdabali va ko'rkam mahofasi ko'rindi. Shu fursatda, xudoning taqdiri bilan u zotning (Navoiyning) muborak boshi aylanib qoldi. Olijanob (Navoiy) Amir Xoja Shihobiddin Abdulloni o'z yaqiniga chaqirib, «meni saqlashdan g'ofil bo'lmang, ahvolim o'zgarib qoldi»,-dedi. Shu paytda a'lo hazratning (Bayqaroning) qo'lini o'pishga yetishmoq uchun otdan tushdi. To'satdan yetishgan kasallikning og'irligi oxirgi chekka borib qolgani va yurishga mador qolmaganidan, mazkur amir va Mavlono Jaloliddin Qosim qo'ltiqlariga kirib, shu yo'sinda ilgari yurib, boshini baland darajali podsho quchog'iga qo'ya oldi. Shu onda bu yuksak kasal saktaga aylanib oliy nasabli Amirga qaytib harakat qilish va so'zlashga majol qolmadi». Shu ahvoldagi shoirni yarim tunda o'z uyiga olib keladilar: erta bilan shaharning taniqli tabiblari to'planib, qon olishga harakat qiladilar, ammo hech qandan ijobiy o'zgarish bo'lmaydi. Uch kun beharakat yotgan Navoiy 1501 yil 3 yanvarda hayotdan ko'z yumadi.

Navoiy va Bobur ijodiga chuqurroq nazar tashlasak, bu ikki buyuk ijodkor ijodida hamohang nuqtalar ko'plab uchraydi. Bunday hamohanglik ularning ruboiylarida, g'azallarida, tuyuqlarida, masnaviylarida ko'zga tashlanadi. Garchand ular bir zamonda yashashsa-da, jangu jadallarga boy zamon ularning uchrashuviga imkon bermadi. Boburning Navoiyga maktub yo'llashi, Navoiyning javob xati bilan ular o'rtasidagi hayot iplari uzildi. Bobur Hirotga kelganda Navoiy vafot etgan edi. Bobur yigirma kun Navoiy uyida yashaydi. Shu yerda Navoiy asarlari bilan to'liq tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning hazrat Mir Alisher Navoiy to'g'risida keltirib o'tgan ta'riflari va xotiralari Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda asrlar mobaynida o'z qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Zero, «Boburnoma»dek qomusiy asarni bezab turgan va qimmatini yanada oshirishga xizmat qilib kelayotgan Navoiy timsoli umumbashariyat uchun ham favqulodda hodisadir. O'zbek

mumtoz adabiyoti tarixidagi bu ikki buyuk siymo – Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish orqali chinakam inson hayoti qanday bo‘lishi kerakligi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» / Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. – Toshkent, Sharq NMAK, 2002. –B.335.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» / Nashrga tayyorlovchi V.Rahmonov. – Toshkent, O‘qituvchi, NMIU, 2008. – B.288.
3. Zahiriddin Muhammad Boburning jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni / Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, O‘qituvchi, NMIU, 2012. –B. 168
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopiyasi. – Toshkent, Sharq NMAK, 2014. – B.743.
5. Internet materiallari.

АЛИШИР НАВАИ - НОВАЯ СТРАНИЦА МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Вафа АБДУЛЛАЕВА-НАБИЕВА,
кандидат филологических наук, доцент,
Национальная Академия Наук Азербайджана, Институт
языкознания имени Насими vefa.abdulla@mail.ru
(Азербайджан)

Резюме

Алишир Наваи – это начало новой страницы с особым влиянием в мировой литературе, особенно в литературе тюркских народов. Его литературно-художественное, суфийско-философское наследие и изучение этого наследия актуальны и сегодня. В статье проанализированы особенности жизни и художественного творчества Алишира Наваи. Алишир Наваи – это начало новой страницы с особым влиянием в мировой литературе, особенно в литературе тюркских народов. Его литературно-художественное, суфийско-

философское наследие и изучение этого наследия актуальны и сегодня. В статье проанализированы особенности жизни и художественного творчества Алишира Наваи.

Ключевые слова: Алишир Наваи, мировая литература, Хамса, Газель, поэзия.

Summary

Alishir Navai is the beginning of a new page with a special influence in world literature, especially in the literature of the Turkic peoples. His literary and artistic, Sufi and philosophical heritage and the study of this heritage are still relevant today. The article analyzes the features of the life and artistic work of Alishir Navai. Alishir Navai is the beginning of a new page with a special influence in world literature, especially in the literature of the Turkic peoples. His literary and artistic, Sufi and philosophical heritage and the study of this heritage are still relevant today. The article analyzes the features of the life and artistic work of Alishir Navai.

Keywords: Alishir Navai, world literature, Khamsa, Gazelle, poetry.

С именем Алишера Навои связан период расцвета древнего государства Туркестан. В начале 15 века близлежащие территории, Мавераннахр и Месопотамия, находились в самых дружеских отношениях с этим государством, поэтому происходил интенсивный обмен культурой и искусством. Великий поэт и философ Навои является одним из деятелей, вложивших в развитие тюркской культуры самый большой вклад. Он был мистиком, суфийским поэтом, автором рассказов о путешествиях, драматургом, историком, философом, администратором и даже строителем. Его можно считать отцом современного узбекского языка и маяком для поэтов, писателей, лингвистов, историков и философов Центральной Азии, а также Южной Азии.

Поэт родился в 1441 году в городе Герат, который сейчас находится в Афганистане. Национальность поэта является предметом самых бурных дискуссий. Одни считают его барласом, другие - чагатаем. Однако можно с уверенностью сказать, что он был тюркского происхождения. Один из его друзей Джами пишет об этом факте: «Несмотря на то, что я был персом, а он турком, мы были самыми близкими друзьями».

Если обратиться к историческим фактам, то можно обнаружить, что как народность узбеки сформировались в начале XIV в. Золотоордынский хан Узбек (1312-1342) породнился с Мухаммедом

Тарагаем, известным миру как Улугбек, и объединил свой народ и тюркское население в единый народ, назвав его своим именем - Узбек.

Говоря о поэте, нельзя не упомянуть о накшбандийской идеологии, возникшей задолго до рождения Навои. Эта философия возникла в Мавераннахре еще в 14 веке и была построена на основных идеях религиозного учения суфизма. Основателем этой философии является шейх Баха ад-Дин Накшбанд, написавший множество трудов и заложивший в них основы своего учения. Эти представления о достижении духовного совершенства через образование, труд и поклонение распространились по Мавераннахру, Хорасану и Хорезму.

Последователи учения призывали к чистоте, трудолюбию, помощи нуждающимся и скромности. Алишер Навои, как и любой член этого ордена, не мог иметь жены и детей. Считалось, что существует только одна любовь – к Аллаху.

Литературное наследие поэта велико: около 3000 произведений разных жанров. Алишер Навои, стихи которого переведены на многие языки, писал не только тексты песен, но и большие произведения. Он посвятил много произведений политической тематике, раскрывая в них свои взгляды на принципы государственного устройства. В основном поэт писал на чагатайском языке, постоянно совершенствуя его структуру.

Его самое известное произведение «Пятерица» включает в себя 5 рассказов о любви и социальном неравенстве. В произведениях «Бездомный одет в лохмотья...» и «Две резвые газели..» поэт поднимает вечные философские вопросы о смысле жизни. Алишер Навои считает, что счастье и полное удовлетворение можно испытать только тогда, когда душа очистится от грехов, а для этого необходимо творить добро, помогать бедным, утешать тех, кто в печали, и обязательно проповедовать всепрощающую любовь Всевышнего.

Одно из самых скандальных его произведений называется «Парламент птиц, или Язык птиц. Семург». Он — сатира на всех известных правителей, которые из-за своего невежества и скупости уничтожили народы, разрушили государства, а сами оказались в глубокой бездне.

Творческое наследие Алишера Навои огромно и многогранно: оно включает в себя около 30 крупных произведений – сборников

стихов (диванов), поэм (дастанов), философских и научных трактатов. Используя многовековые культурные традиции мусульманских народов Средней Азии и Ближнего Востока, Алишер Навои создает весьма оригинальные произведения.

Лирическое наследие поэта огромно. Известно 3150 его произведений в жанре газелей, включенных в диваны на чагатайском и фарси.

«Сокровищница мыслей» — поэтический свод, составленный самим поэтом в 1498—1499 годах по хронологическому принципу и включающий в себя четыре дивана, соответствующие четырем периодам жизни поэта: Курьезы детства, Курьезы юности, Курьезы средних веков, Назидание старости. Стихи относятся к разным лирическим жанрам, среди которых особенно многочисленны газели (более 2600). В диванах также встречаются стихотворения других жанров - мухаммы, мусадды, местазады, кыты, рубайи и туюги, восходящие к тюркскому народному творчеству.

Авторы 15 века считали тюркский язык грубым для поэзии. Алишер Навои опровергает это мнение в трактате «Суд о двух языках» (1499 г.). Обосновывается культурно-художественная ценность чагатайского языка (тюркского). Навои пишет:

Богатство тюркского языка подтверждается многими фактами. Талантливые поэты, вышедшие из народной среды, не должны раскрывать свои способности в персидском языке. Если они могут творить на обоих языках, то все же очень желательно, чтобы они писали больше стихов на своем родном языке. И далее: «Мне кажется, что я утвердил великую истину перед достойными людьми тюркского народа, и они, познав истинную силу своей речи и ее выражений, превосходные качества своего языка и его слов, избавились от пренебрежительных нападок на их язык и речь со стороны составителей поэзии на персидском языке.

Вопросы теории словесности и стихосложения поднимаются в трактате «Шкалы размеров». Теоретические положения и само творчество Алишера Навои оказали огромное влияние как на развитие узбекской и уйгурской литературы на чагатайском языке, так и на развитие других тюркоязычных литератур (туркменской, азербайджанской, турецкой, татарской).

Он выдвигал такие идеи, как преданность делу народа и страны, дружба, братство, честность и неподкупность, великодушие и трудолюбие, хорошее поведение в обществе, смирение, любовь к

знаниям, доброту к людям, терпение, непослушание похоти, непередательство прав других.

Бесценные человеческие шедевры, созданные великим поэтом Алишером Наваи, прошли проверку временем как образец красоты, благодарности и высокого искусства, неся лучи духовности и просвещения в поколения, как сокровище океана сознания, как национальная энциклопедия бесценна и ценна. Его произведения призывают людей жить в мире, добре и сострадании друг к другу. Эта человеческая благодать была еще действительна во времена Наваи.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бертельс, Е.Э. (1965) Избранные труды: Наваи и Джами. том. 4. Изд-во восточной лит-ры.
2. Болдырев А. Н. (1952) Персидские переводы «Маджалис ан-Нафаис» Наваи // Учёные записки ЛГУ. Л., Сер. 128. Вып. 3.
3. Боровков, А. К. (1946) Алишер Наваи как основоположник узбекского литературного языка // Алишер Наваи. М., с. 92-120.

АЛИШИР НАВАИ И ЛИТЕРАТУРА НА УРДУ

Ровшан ШИРХАНЛЫ,

**Национальная Академия Наук Азербайджана, Институт
Языкознания имени Насими roma.elder@mail.ru (Азербайджан)**

Резюме

Алишир Наваи – поэт, ученый, мыслитель, искусный государственный и культурный деятель, любимый народами Ближнего Востока. В статье анализируется влияние Алишира Наваи на литературу урду, поэтов и мыслителей, писавших и творивших под его влиянием, и их творчество, особенно произведение «Бабурнама».

Ключевые слова: Алишир Наваи, литература на урду, газель, Бабурнама.

Summary

Alishir Navai is a poet, scientist, thinker, skillful statesman and cultural figure, beloved by the peoples of the Middle East. The article analyzes the influence of Alishir Navoi on Urdu literature, poets and

thinkers who wrote and created under his influence, and their work, especially the work "Baburnama".

Key words: Alishir Navai, Urdu literature, ghazal, Baburnama.

Мир Алишер, известный как Алишер Навои, является легендарной личностью Средней Азии. Он был великим узбекским поэтом, иконой узбекской литературы, которую на субконтиненте называют чагатайской литературой. Он был философом, историком, администратором, драматургом, автором рассказов о путешествиях, мистиком и суфийским поэтом. Он является отцом современного узбекского языка и литературы.

Навои был представлен субконтиненту императором Великих Моголов Бабуром, который фактически был основателем узбекской династии субконтинента. Бабур признал вклад Алишера Навои в узбекский язык в своих автобиографиях Бабурнаме. Он заявил, что люди следят за произношением языка, написанного Алишером Навои. Бабур находился под влиянием Наваи и несколько раз упоминал его в своей автобиографии.

Для укрепления культурных связей и контактов между людьми необходимо знакомить пакистанские литературные круги с произведениями Наваи. Стиль газелей Наваи и его стиль написания пьес должны быть представлены литературным кругам Пакистана через литературные организации. Мы находим влияние его стиля письма на некоторых рассказчиков, драматургов и поэтов на языке урду. В развитии газели на субконтиненте он внес большой вклад.

Газель развивалась на субконтиненте под влиянием Великих Моголов и особенно благодаря суфийским мистикам. Сайед Саджад Хайдер Ялдрам, писатель на урду, следовал технике написания путевых заметок Алишера Навои. Некоторые драматурги на урду также следовали стилю Наваи. Некоторые ученые говорят, что стиль написания сцен в драмах на урду, таких как «Анаркали» и «Рустом ва Сохраб», находится под влиянием стиля Алишера Навои.

Его стиль письма повлиял почти на каждого классического поэта, драматурга и рассказчика на языке урду. Одна из самых популярных форм поэзии «Газаль» на самом деле является подарком Алишера (9 февраля 1441 г. – 3 января 1501 г.) литературе субконтинента. Газель – поэтическая форма, состоящая из рифм. Газели распространились в Индии под влиянием Великих Моголов и в основном через суфийских мистиков.

Хотя газель является наиболее заметной формой поэзии дари, древнеузбекского языка и урду, сегодня она встречается в поэзии многих языков Индийского субконтинента (сегодняшняя Индия, Пакистан и Бангладеш).

Классический писатель урду Сайед Саджад Хайдер Ядрам писал рассказы о путешествиях, следуя технике Алишера, в то время как драматурги на урду и даже на языках хинди находились под сильным влиянием стиля Наваи. Критики считают, что самые популярные пьесы на языке урду, в том числе «Рустом о Сохраб», написанная Ага Хашаром Кашмири, и «Анаркали», написанная Сайедом Имтиазом Али Таджем, следуют сценическому стилю Алишера Наваи. Мир Алишер, известный как Алишер Навои, является легендарной личностью Средней Азии. Он был великим узбекским поэтом, иконой узбекской литературы, которую на субконтиненте называют чагатайской литературой. Он был философом, историком, администратором, драматургом, автором рассказов о путешествиях, мистиком и суфийским поэтом. Он является отцом современного узбекского языка и литературы.

Его стиль письма повлиял почти на каждого классического поэта, драматурга и рассказчика на языке урду. Одна из самых популярных форм поэзии «Газаль» на самом деле является подарком Алишера (9 февраля 1441 г. – 3 января 1501 г.) литературе субконтинента. Газель – поэтическая форма, состоящая из рифм. Газели распространились в Индии под влиянием Великих Моголов и в основном через суфийских мистиков.

Хотя газель является наиболее заметной формой поэзии дари, древнеузбекского языка и урду, сегодня она встречается в поэзии многих языков Индийского субконтинента (сегодняшняя Индия, Пакистан и Бангладеш).

Классический писатель урду Сайед Саджад Хайдер Ядрам писал рассказы о путешествиях, следуя технике Алишера, в то время как драматурги на урду и даже на языках хинди находились под сильным влиянием стиля Наваи. Критики считают, что самые популярные пьесы на языке урду, в том числе «Рустом о Сохраб», написанная Ага Хашаром Кашмири, и «Анаркали», написанная Сайедом Имтиазом Али Таджем, следуют сценическому стилю Алишера Наваи. Его стиль письма повлиял почти на каждого классического поэта, драматурга и рассказчика на языке урду. Одна из самых популярных форм поэзии «Газаль» на самом деле является подарком Алишера (9

февраля 1441 г. – 3 января 1501 г.) литературе субконтинента. Газель – поэтическая форма, состоящая из рифм. Газели распространились в Индии под влиянием Великих Моголов и в основном через суфийских мистиков.

Более того, суфийские поэты, такие как Баба Буллекх Шах, Хаваджа Гулам Фарид, Миан Мухаммад Бакш, Султан Баху, Шах Хуссейн (псевдоним «Мадхо Лал Хуссейн») и Варис Шах, не могли сопротивляться влиянию мистической поэзии Алишера Наваи, потому что все классические поэты носители урду и пенджаби знали персидский и мало знали староузбекский язык, поэтому творчество Алишера Навои было им знакомо.

Наваи был представлен субконтиненту императором Великих Моголов Бабуром, который фактически был основателем узбекской династии субконтинента. Бабур написал одну из первых автобиографий среди исламских правителей, эпос «Бабурнама». На него сильно повлиял Наваи, и он даже выразил свое уважение к писателю в этой знаменитой книге.

Бабурнама (чагатайский/персидский: *بایر نامه*, буквально: «История Бабура» или «Письма Бабура»; также известный как Тузк-э Бабри) — мемуары Заахир-уд-Дина Мухаммада Бабура (1483–1530 гг.), основатель Империи Великих Моголов и праправнук Тимура. Он написан на чагатайском языке, известном Бабуру как «тюркский» (что означает «тюркский»), разговорном языке Андижан-Тимуридов. Во время правления императора Акбара произведение было полностью переведено на персидский, обычный литературный язык двора Великих Моголов, придворным Моголов Абдул Рахимом в 998 г. хиджры (1589–1590 гг.). Затем последовали переводы на многие другие языки, в основном начиная с 19 века.

Бабур был образованным тимуридским принцем, и его наблюдения и комментарии в мемуарах отражают интерес к природе, обществу, политике и экономике. Его яркий рассказ о событиях охватывает не только его собственную жизнь, но и историю и географию районов, в которых он жил, а также людей, с которыми он вступал в контакт. Книга охватывает такие разнообразные темы, как астрономия, география, государственное управление, военное дело, оружие и сражения, растения и животные, биографии и семейные хроники, придворные и художники, поэзия, музыка и живопись, винные вечеринки, экскурсии по историческим памятникам, а также размышления о человеческая природа. Хотя сам Бабур, похоже, не

заказывал никаких иллюстрированных версий, его внук начал, как только ему представили законченный персидский перевод в ноябре 1589 года. Первая из четырех иллюстрированных копий, сделанных Акбаром в течение следующего десятилетия или около того, была разбита на части для продажи в 1913 году. Около 70 миниатюр разбросаны по разным коллекциям, 20 из которых находятся в Музее Виктории и Альберта в Лондоне. Три другие версии, частично скопированные с первой, находятся в Национальном музее Нью-Дели (почти полные, датированные 1597–1598 гг.), Британской библиотеке (143 из 183 оригинальных миниатюр, вероятно, начало 1590-х гг.) с миниатюрой на двух страницах. в Британском музее и копия, в основном без текста, с наибольшими частями в Государственном музее восточных культур в Москве (57 листов) и Художественном музее Уолтерса в Балтиморе (30 миниатюр). В различных других коллекциях есть отдельные миниатюры из этих версии. Более поздние иллюстрированные рукописи также были сделаны, хотя и не в таком большом масштабе.

Бабур находится в центре большинства показанных сцен. Насколько известно, его современные изображения не сохранились, но из каких бы источников они ни почерпнули, художники Акбара разработали довольно последовательное его изображение, «с круглым лицом и висячими усами», в тюрбане в среднеазиатском стиле и с короткими рукавами. пальто поверх халата с длинными рукавами. Созданные в период после того, как мастерская Акбара разработала свой новый стиль живописи Великих Моголов, иллюстрированные Бабурнамы демонстрируют такие события, как пейзажные виды с рецессией, на которые повлияло западное искусство, увиденное при дворе. Обычно сцены менее многолюдны, чем в более ранних миниатюрах «исторических» сцен.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. Свидина Е. Д. (1968) Алишер Навои. Биобиблиография (1917—1966). Ташкент.
2. Хайитметов А. (1965) Творческий метод Навои. Ташкент/
3. Бертельс, Е. Э. (1965) Навои и Аттор // Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, с. 377-420.

NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI

Gulchehra XO‘JANOVA,
filologiya fanlari nomzodi,
TDYUU qoshidagi M.S.Vosiqova
nomidagi akademik litsey

Annotatsiya

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodiyoti ilohiy manbalar bilan birga salaflar ijodidan ham bahramand bo‘lgan. Ular orasida Adib Ahmadning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni alohida o‘rin tutadi. Maqolada shoirning Adib Ahmad haqidagi qarashlaridan bahs yuritildi. Shuningdek, Navoiyning Adib asarlaridan ta’sirlanganligi haqidagi qarashlarga oydinlik kiritildi.

Kalit so‘zlar: doston, g‘azal, ta’sir, uslub, tahlil, talqin, konstitutsiya, tazkira.

Аннотация

Творчество поэта-мыслителя Алишера Навои пользовалось божественными истоками так же, как и творчество его предшественников. Среди них особое место занимает эпос «Хибат уль-хакайк» Адиба Ахмеда. В статье рассмотрены взгляды поэта на Адиба Ахмеда. Также были выяснены мнения о том, что на Навои оказали влияние произведения Адиба.

Ключевые слова: эпос, газель, эффект, стиль, анализ, интерпретация, конституция, тазкира.

Annotation

The thinker poet Alisher Navoi's creativity enjoyed divine sources as well as the creativity of his predecessors. Among them, the epic "Hibat ul-haqayq" by Adib Ahmed has a special place. The article discussed the views of the poet about Adib Ahmed. Also, the views that Navoi was influenced by Adib's works were clarified.

Key words: epic, ghazal, effect, style, analysis, interpretation, constitution, tazkira.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosi ulkan xazina, unda mujassam bo‘lgan insoniylik fazilatlari har bir davr uchun muhim ahamiyatga ega. Navoiy ijodiyoti mohiyatiga yetish, uning shaxsiyatiga yaqinlashishda shoigacha yashab, ijod qilgan qalam ahlining lirik merosini o‘rganish va tahlil qilish ham yaqindan yordam beradi. Yusuf

Amiriy, Atoyi, Lutfiy, Gadoiy kabi shoirlarning g‘azallari Navoiyning ko‘plab lirik asarlari uchun turtki bergan. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”iyu Sayid Ahmadning “Taashshuqnoma”si, Lutfiyning “Gul va Navro‘z”iyu Yusuf Amiriyning “Dahnoma”si Alisher Navoiy liro-epik dostonlari yaratilishida o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tagan. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni buyuk shoirning komil inson xususidagi hikmatlariga ilhom bergan. Ma‘lumki, Ahmad Yugnakiy islom dini qonun-qoidalarini chuqur bilish, ularga amal qilish bilan birga tasavvuf ta‘limotidan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. “Hibat ul-haqoyiq”da Adib Ahmadning tasavvuf va javonmardlik g‘oyalaridan ilhomlanib yozgan satrlariga tez-tez duch kelamiz. Masalan:

*Axi er bilikni yeta bildi ko‘r,
Anin sotti molin sano oldi ko‘r.*

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida ham Navoiy Adib Ahmad fazilatu xislatlarini hurmat ila tilga oladi: “Va aning tili turk alfozi bila mavoizu nasoyihqa go‘yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuqtalari shoye‘dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur.

*Ulug‘lar ne bersa yemasman dema,
Ilik so‘n, og‘iz ur, yemasang yema!”*

“Munshaot” asarida ham asriy muammolardan bo‘lgan ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi haqida bahs yuritilgan. Avvalo, shoir asos manbalar Qur‘on va hadisga tayanib shunday yozadi: “Payg‘ambar sallallohi alayhi vassalam buyurubturkim, «rizour-robbi fir-rizail validi va saxatur-robbi fi saxatil-validi» ya‘ni Tengri taolo rizosi ota rizosig‘a vobastadur va Tengri taolo g‘azabi ham ota g‘azabig‘a vobastadur. Bas kishi ota rizosin hosil qilsa, Tengri taolo rizosini ham hosil qilmish bo‘lg‘ay va ota g‘azabig‘a uchrasa, Tengri taolo g‘azabig‘a uchramish bo‘lg‘ay. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg‘ay yo qadam qo‘yg‘ay”. Navoiy Adib Ahmadning hikmatli so‘zlaridan ilhomlanadi:

*Atodin xato kelsa, ko‘rma xato,
Savob bil xato, toki qilsa xato.
Atoning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodin qutqargay Xudo[1, 253].*

Temuriy shahzodalar o‘rtasidagi nizolar avj olgan pallada, Husayn Boyqaro farzandlarining otasiga bo‘lgan behurmatliklari haddan oshgan bir davrda hazrat Navoiy bu to‘rtlikni aynan topib keltirgan edi. Ma‘lumki,

buyuk mutafakkir juda ko'p asarlarida ota-bola munosabatlariga alohida o'rin ajratgan. "Xamsa" dostonlaridagi ibratomuz hikoyalar, Farhod va Iskandarning padariga bo'lgan hurmat-ehtiromi tasvirlari diqqatga sazovor. Albatta, mutafakkir shoir Husayn Boyqaro va farzandlarining o'zaro totuvligini ko'rishni juda xohlagan. Navoiyning noqobil farzandlarga nisbatan qanday munosabatda ekanligini "Majolis un-nafois"da ham uchratish mumkin. Shoir Abdullatif haqida shunday yozadi: "...savdoyi mizoj vasvasiy ta'b va devonasor kishi erdi. Mundin o'zg'a dag'i g'arib badfe'lliqlari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim kelur. O'tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o'lturdi. Har oyinakim, saltanat Shiruyag'a vafo qilg'oncha anga qildi"[2,414]. Hazrat Navoiyning Adib Ahmad to'rtligini keltirishida ham ma'lum bir mazmun-mohiyat bor.

Demak, Alisher Navoiy o'zigacha yashab o'tgan ajdodlarimizning eng sara madaniy merosini chuqur o'rganib, ulardan katta saboq olgan. Shu bilan birga, o'z ijodida zamondoshlari va kelajak avlodni komillikka, ya'ni yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishga da'vat etgan.

Navoiy so'z sehgari va donishmand olim bo'lish bilan birga el-ulus obodonchiligi, tinchligi uchun yonib yashagan yirik davlat arbobi ham edi. Uning rahnamoligida Hirot va Astrobod shaharlari chiroy ochib, jafokash xalq adolat shabadalaridan bahramand bo'ldi. Jumladan, "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi: "Qozi qonun yo'ldan bir dam toymasligi, to'g'ri yo'ldan chiqmasligi lozim... Modomiki, hukm elning moli va joniga taalluqli ekan, qozining shiori to'g'rilik va adolat bo'lmog'i lozim...[1, 56]".

Alisher Navoiy yaratgan bebaho asarlar tunganmas xazinadir. Yer yuzida hayot deb atalgan mo'jizaviy qudrat borki, hazratga bo'lgan buyuk ehtirom aslo so'nmaydi. Zero, Navoiyni anglagan, o'z qadriyatlarini hurmat qilgan xalqning kelajagi buyuk, baxti esa porloq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-tom. – T.: Fan, 2002.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. – T.: Fan, 2002.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va tamoyillar lug'ati. – T.: Ma'naviyat, 2009.
4. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

АЛИШЕР НАВОИ – ВЕЛИКОЕ ДОСТОЯНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Сурайя АКРАМОВА,
преподаватель академического лица
при Ташкентском государственном юридическом университете
имени М.С.Восиковой

Аннотация

Алишер Навои - великий тюркский поэт, основоположник современного узбекского литературного языка, гуманист, покровитель науки искусств, посвятивший свою жизнь идеям справедливости и нравственности. Будучи визирем во дворце султана Хусейн Байкары – последнего представителя тимуридской династии в Хорасане – Хазрат Навои за свой счёт строил для народа мосты, мечети, школы.

Ключевые слова: гуманист, родоначальник, «Хамса», газель, визирь, Мастер стихотворных жемчужин, Восток, Герат, всенародная слава, щедрость, доброта, наследие.

Abstrakt

AlisherNavoi is a great Turkic poet, the founder of modern uzbek literary language, a humanist, a patron of the science of arts, who devoted his life to the ideas of justice and morality. As a vizier in the palace of Sultan HuseynBaykara, the last representative of the Timurid dynasty in Khorasan, HazratNavoi built bridges, mosques, schools and shelters for the people at his own expense.

Key words: humanist, ancestor, «Khamsa», ghazele, vizier, Master of poetic pearls, East, Herat, national fame, shelters, generosity, kindness.

Узбекский язык прекрасен и совершенен. В безупречность узбекского языка внесли достойный вклад тысячи поэтов, писателей мыслителей, богословов, творившие на родном языке. Но поистине главную роль в формировании узбекского литературного языка сыграл султан жемчужины поэзии Востока Хазрат Мир Алишер Навои. Творческое наследие Алишера Навои – это целостная художественная картина мира. Жизнь великого Мастера стихотворных жемчужин оставила глубочайший след в культуре всех народов Востока.

Великий поэт оставил богатое наследие. Перу гениального мыслителя Алишера Навои принадлежат художественные, научные и публицистические произведения, исторические и религиозные трактаты, проповедующие добродетель, излагающие свои взгляды на место человека в жизни и миропорядок, дастаны истории любви Лейлы и Меджнуна, Фархада и Ширин, тонкая и изумительная лирика, которая волнует души и восхищает воображение.

Вся жизнь Алишера Навои – это уникальный образец мудрости и благородства, служения народу и просветительству. В его поэзии воспеваются справедливость и правдивость, щедрость и благородство. В творчестве поэта нашли свое освещение морально-этические, нравственные, философские, социально-политические проблемы.

Интересен такой факт. Выдающийся историк XV века Хондамир свидетельствует, что прославленный поэт своей эпохи Лутфи, прочитав газель юного Навои, сказал, что готов отдать все свои десять-двадцать тысяч стихов за одну лишь драгоценную строку Мир Алишера. Вся поэтическая деятельность Алишера Навои была направлена на защиту и прославление родного языка и литературы: «Мне кажется, что я утвердил великую истину перед достойными людьми тюркского народа, и они, познав подлинную силу своей речи и ее выражений, прекрасные качества своего языка и его слов, избавились от пренебрежительных нападок на их язык и речь со стороны слагающих стихи по-*Не Хосров, не мудрый Низами,*

Не шейх поэтов нынешних – Джамии.

Но так в своем смирении скажу:

По их стезям прославленным хожу.

Пусть Низами победоносный ум

Завоевал Берда, Ганджу и Рум;

Пусть был такой язык Хосрову дан,

Что он завоевал весь Индустан;

Пускай на весь Иран поет Джамии,

В Аравии в литавры бьет Джамии,

Но тюрки всех племен, любой страны,

Все тюрки мной одним покорены...

Где бы ни был тюрк, под знамя тюркских слов

Он добровольно стать всегда готов.

И эту повесть горя и разлук.

Самую высокую оценку творчеству Алишера Навои дал знаменитый поэт своей эпохи Абдурахман Джами: «Пятерицу в своё время создали Низами Ганджави, Амир Хусров, Я – Абдурахман Джами...Выйдя на поле битвы поэтов с собственной Хамсой на тюркском языке, Алишер Навои разгромил всех нас своей поистине львиной пятерницей. Персидский мотив поблек в сравнении с царским словом Хазрата Навои». Благодаря лирике Навои фарси утрачивает статус единственного литературного языка. Заслуга Навои не только в том, что он, создав гениальные произведения, блестяще доказал неограниченные возможности узбекского литературного языка, но и в том, что он выразил передовые, гуманистические идеи своей эпохи.

В качестве итога своей жизни Хазрат Навои создаёт произведение «Сокровищница мыслей», которое стало основой богатейшего лирического наследия поэта. В нём собраны четыре дивана, четыре цикла, отражающие разные периоды жизни поэта: «Чудеса детства», «Редкость юности», «Диковины среднего возраста» и «Полезные советы старости».

Сам Алишер Навои так охарактеризовал свой сборник:

«Хотя время, за которое солнце, освещающее мир, делает один круг на небе, называется годом, год состоит из четырех времен, и каждый такой период имеет особое название. Подобно тому, как результатами вращения светила по небу являются и богатства недр и морей, и растительность, и животный мир, точно так же от всех этих результатов можно найти свидетельства и примеры. В противовес четырем временам года появились четыре дивана, каждый из которых получил соответствующее наименование».

Общий объем сборника составил свыше 2600 газелей, более сорока пяти тысяч строк, многие из которых стали крылатыми фразами и афоризмами. Изречения Навои поражают образностью и красотой.

«Красота и величие человека – это способность отказаться от благ земных, дабы обрести чистое знание, пройти свой путь постижения смысла жизни, путь духовного восхождения, путь великой божественной любви, как величайшего дара Всевышнего!»

Эти строки из дивана являются канонами нравственности, важны и нужны во все времена, для всех народов, для всех поколений. Замечательно, что Навои сам обладал этими качествами, сам был образцом добродетели.

Известна государственная деятельность Хазрата Навои в качестве визиря во дворце султана Хусейн Байкары. За время правления Навои в столице Хорасана формируются творческие объединения, в которые входили видные поэты, историки, музыканты, каллиграфы, архитекторы, художники, такие как Джами, сам султан, писавший стихи под псевдонимом Хусайни, Мирхонд, Хондамир, Васифи, Бехзад и другие. Визирь Навои оказывал протекцию и поддерживал материально учёных и творческих людей. Мир Алишер занимался благотворительностью. Всё своё жалованье он тратил на возведение различных построек для общественных нужд. Визирь проводил благотворительные акции для малоимущих. Он закупал на собственные средства одежду, продукты и раздавал их нуждающимся, делал для бедняков обеды. По инициативе Навои и под его руководством в Герате велось масштабное строительство: было сооружено 20 мечетей, несколько мавзолеев, возведено 10 ханакон, в которых жили суфии. Навои заботился о благоустройстве города, построил 16 мостов, 20 водоемов, несколько дамб. Большое внимание визирь уделял реставрации старинных зданий: была восстановлена Соборная мечеть Герата, построенная в XIII веке. Он заботился о развитии ремесла, о процветании гончарного, ювелирного искусства, ткачества, ковроделия. За несколько лет Герат стал процветающим, высоко развитым центром Востока.

Деятельность и творчество Алишера Навои пользовались огромной всенародной любовью. Поэтическая слава Навои распространилась далеко за пределы Хорасана. Его диваны неоднократно переписывали лучшие каллиграфы, возможно, благодаря этому, на сегодняшний день многие крупнейшие библиотеки стран Европы, Азии и Америки имеют рукописи различных книг Алишера Навои. Его произведения переведены на многие языки мира и издаются во многих странах.

Наследие Мир Алишера Навои с давних времен было в центре внимания ученых-филологов и историков как Востока, так и Запада. Известно огромное количество навоиведческих работ в литературоведении. В Узбекистане сформировалась научная школа таких видных учёных-навоиведов, как Хамид Сулейман, Алибек Рустамов, Натан Маллаев, Азиз Каюмов, Ёкубжон Исхоков, Иброхим Хаккул и другие. Среди них особое место принадлежит мастеру комментариев к творениям Хазрата Навои, профессору Ботирхон Акрамову

Б. Акрамов в своих трудах сосредоточился на теоретических и исторических проблемах поэтики, на интерпретации образов в исследовании особенностей поэтики Алишера Навои. Учёный обосновал, что Хазрат Навои и в лирике, как и в поэмах, выразил актуальные мирские и духовные, суфийские вопросы, поэтому произведения Навои необходимо изучать с точки зрения ислама и суфизма. В научно-исследовательской деятельности Б. Акрамова достойное место отводится глубокому анализу научных трудов Навои. К их числу можно отнести произведения о сопоставлении персидских и тюркских языков «Мухакамат ал-лугатайн» («Спор двух языков»); по литературоведению «Маджалис ал-нафаис» («Собрание утонченных»), по теории аруза «Мезан ал-авзан» («Весы размеров»), по теории жанра муамма (шарада) «Муфрадат». Взгляды ученого на классическую поэтику, на проблему лирических жанров, его исследования в области поэтики Навои внесли весомый вклад в развитие современного литературоведения.

Имя великого Алишера Навои носят город и область в Узбекистане, библиотеки и улицы, музеи и парки, установлены памятники по всей стране и за рубежом. Для нас, современного поколения, является долгом читать и изучать бесценное наследие гениального мыслителя, произведения которого являются лучшими образцами узбекского литературного языка, великим достоянием узбекского народа

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. *Навои А. «Сокровищница мыслей». Ташкент, 2016.*
2. *Навои А. Афоризмы – Aphorisms. Ташкент: Укитувчи, 1991.*
3. *Навои А. Зеница ока: Стихи. Ташкент Изд.-полигр. об-ние им. Гафура Гуляма, 1991.*
4. *Акрамов Б. «Сахибкиран поэтического наследия». Ташкент, 2016.*
5. *Акрамов Б. «Шахбейты Навои». Ташкент, 2007.*
6. *Гулямова Г.С. Своеобразие развития духовной культуры в XV-XVI веках на территории Центральной Азии. Ташкент, 2020.*

NAVOIYSHUNOSLIK: TAHLIL, SHARH VA TALQINLAR

Zarif QUVONOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti
zarif_1178@mail.ru

Аннотация

Maqolada adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning navoiyshunoslik ilmiga qo‘shgan hissasi, “Navoiyga qaytish” kitobining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati borasida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: navoiyshunoslik, sharh, talqin, tahlil, germenevtika, matn, mahorat.

Аннотация

В статье рассматривается вклад литературоведа Ибрагима Хаққула в науку навоиведения, научно-просветительское значение книги «Возвращение Навои».

Ключевые слова: герменевтика, интерпретация, герменевтика, текст, мастерство.

Abstrakt

The article discusses the contribution of the literary critic Ibrakhim Khaqqul to the science of Navoi studies, the scientific and educational significance of the book “Navoiyga qaytish”.

Key words: hermeneutics, interpretation, hermeneutic`s, text, skill.

Istiqlol imkoniyati tufayli Alisher Navoiy asarlarining mukammal matnlarini yaratish, janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi, uslubi va tasviriy vositalarini o‘rganish sohasida katta yutuqlarga erishilganini e’tirof etish mumkin. Shoir asarlaridagi diniy-irfoniy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, asarlari g‘oyaviyligini biror ijtimoiy maslakka ko‘ra emas, badiiy barkamolligi o‘laroq talqin va tadqiq etish imkoni yaratildi. Ilg‘or adabiyotshunoslik mezonlari asnosida shoir asarlarini tahlil va talqin etish yetakchi xususiyat kasb etmoqda. Jumladan, Navoiy asarlaridagi diniy-irfoniy, badiiy-falsafiy mohiyatni anglash, idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini tushunishga qaratilgan germenevtik yondashuv usuli, ya’ni matnni tushunish va ma’no-mohiyatiga yetib talqin hamda tahlil qilish tadqiqotlar mazmun-mohiyatini boyitmoqda.

Bu borada navoiyshunos Ibrohim Haqqul tadqiqotlarini alohida ko‘rsatish mumkin. Olimning 2007-2021-yillarda yaratilgan to‘rt kitobdan

iborat yirik fundamental tadqiqoti “Navoiyga qaytish” asari ulug‘ shoir hayoti va ijodiyotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. To‘rt qismdan iborat asarlar bir-birini to‘ldiradi: buyuk mutafakkir hayoti, asarlarining yozilish tarixi bilan bog‘liq yangi fakt va tahlillar, ulug‘ shoir ijodiyotini to‘g‘ri, holis tadqiq etish yo‘lidagi metodologik yondashuvlar aks etgan maqolalar, g‘azal, ruboiy, qit‘alar talqin-sharhi, epik asarlar poetikasiga xos mulohazalar va adabiy-tanqidiy o‘ylar, navoiyxonlik suhbatlarini o‘z ichiga oladi.

Ibrohim Haqqulning Navoiy ijodiga doir tadqiqotlari muvaffaqiyatini ta‘minlashda quyidagi ikki jihatning ham o‘rni bor: birinchidan, olim Navoiy merosiga ulkan muhabbat bilan yondashib, shoir ruhiyati va qalbiga chuqurroq kirib borishga intiladi, ikkinchidan, har bir masalaga bugungi zamon talabi, davrning nigohi bilan qaraydi. Natijada Navoiy ijodining barcha zamon va makonlar uchun dolzarb bo‘lgan o‘lmas mohiyati kashf etiladi, uni o‘rganish xalqimiz uchun zaruriy ma‘naviy ehtiyoj ekanligi ko‘rsatiladi.

“Navoiyga qaytish”da Ibrohim Haqqulning mohir talqinshunosligi ko‘rinadi. Tarix, din, tasavvuf, madaniyat, san‘at, siyosat, ma‘naviyat, fan bilan bog‘liq fikr-qarashlarini har bir maqolasi, tahlillari zamiriga singdiradi. Navoiy ijodiyotini real turmush bilan bog‘lagan holda tadqiq etadi, fikrlarini hayotiy misollar bilan asoslaydi. Matn talqiniga tarixiy ma‘lumotlar, tazkira va manoqiblardan zarur iqtiboslar, ibratli va qiziqarli hikoyat, rivoyat va naqlarni keltirish orqali ilmiy-akademik uslubni keng kitobxon auditoriyasiga olib kiradi. “Biz yoshlarga basirat sir-asrorlarini etarli daradjada tushuntirib, dunyoga basirat ko‘zi bilan boqishni o‘rgatmagunimizcha, ular Navoiy she‘riyatining tub mohiyati va go‘zallik sirlarini mushohada qilishdan ojiz bo‘lib qolaveradi” [I.Haqqul, 2007:5], deb ta‘kidlaydi. Albatta, zamonaviylashib, texnogen jamiyatga aylanib borayotgan davrda insoniyat ma‘naviy-ma‘rifatdan uzoqlashib, o‘zi yaratgan moddiyatning iste‘molchisiga aylanib borayotgani har chin haqiqat. Shu bois, ijtimoiy fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik o‘z oldiga yangi metod va badiiy matnga yondashuvlarni qo‘ya boshladi. Badiiy matnga germenevtik yondashuv zamonaviy va mumtoz asarlar tahlilida qo‘llanila boshlandi. Bunda adabiyotshunos badiiy asarning poetik konsepsiyasini, ijodkor idealini teran tushunib, uni eng samarali falsafiy-estetik tamoyillar, ilmiy-nazariy metodlar asosida talqin qilish orqali badiiy haqiqat mohiyatga yaqin keladi. Shu bilan birgalikda tahlil va talqinlar jarayoni inson tafakkurining o‘sishiga, fikr olamining kengayishiga, inson ong osti qatlamida mudrab yotgan fikrlarning

uygʻonishiga, oxir-oqibat esa butun jamoatchilik saviyasining oʻsishiga, ularda ham fikrlar, yangi gʻoyalar paydo boʻlishiga olib keladi.

Maʼlumki, “adabiyotshunos ham talqinni oʻquvchi sifatida boshlaydi, yaʼni u ham talqinni talqin qiladi – obrazlar vositasida aks ettirilgan voqelikni tasavvurida qayta yaratadi. Biroq uning talqini shu amalning oʻzi bilan cheklanmaydi, u tadqiq ham etadi. Adabiyotshunos, jumladan, asardagi obrazlarni tasavvurida jonlantirish asosida qayta akslangan voqelikni real voqelik (asarda aks etgan va asar oʻqilayotgan davr voqeliklari) bilan muqoyasa qilish, shu asosda muayyan xulosalar chiqarishga intiladi [Quronov, 2015: 24]. Germenevtika matnni idrok etish va tushunish masalalari bilan shugʻullanadi, yaʼni soʻzlovchi va tinglovchi yoxud ijodkor va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻziga xos dialogdir. Germenevtika zohiriy maʼno ostida yashiringan maʼnoning ochilishi deb taʼriflanadi. Shuningdek, tushuntirish va tushunish talqin deb atash mumkin boʻlgan murakkab jarayonning nisbiy momentlarini tashkil qiladi [Ricoeur, 1986:162].

Bir maqola doirasi talqinshunos Ibrohim Haqqulning “Navoiyga qaytish” kitoblarining birinchi va ikkinchi jildlaridan oʻrin olgan Navoiyning mashhur “Qaro koʻzum” radifli gʻazali tahliliga bagʻishlangan “Terning siri” va “Qaro koʻzum kelu...(Bir bayt tahlili)” maqolalariga munosabat bildirish va bu orqali mumtoz matnning matnosti maʼnolari germenevtik tahlillar orqali amalga oshirilganiga guvoh boʻlamiz. Olim gʻazal matni arxitektonikasidagi ter va koʻz timsollarining talqinini ikki maqola doirasida tahlilga tortadi. Germenevtik yondashuvga koʻra bu – butunni qism orqali koʻrsatish boʻlib, asar yoki matnning har bir qismi maʼlum bir maʼnoni oʻz ichiga oladi va asarni oʻqish davomida shu qismlar birlashtirilib, butun maʼno kashf etiladi.

“Yuzida terni koʻrib oʻlsam, ey rafiq, meni, Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilgʻil” baytidagi ter obrazini talqini etar ekan olim uni badiiy timsol oʻlaroq “Muhammad alayhissalomning moʻjizalari” hamda Imom Gʻazzoliyning “Ihyoi ulum-id din” kitoblaridagi paygʻambarimiz Muhammad a.s hayoti bilan bogʻliq voqea-hodisotlar bilan dalillaydi. “Muhammad alayhissalomning moʻjizalari” kitobida oʻqiyimiz: “Oʻn ikkinchi moʻjiza: Muborak peshonalari erdiki, andin terlar tomgʻon erdi, darhol ul tikan gul boʻldi. Onhazrat sallolohi alayhi vasallamning terlarini asʻhob yuzlariga surtur edilar, toki xushboʻy boʻlgʻaylar”. Bu hodisotni olim ishonch bilan aytadiki, “Hazrati paygʻambar hayotlari, shaxsiyat va fazilatlarini bilan nihoyatda chuqur qiziqqan Navoiy bu moʻjizadan, albatta, xabardor boʻlgan” [I.Haqqul, 2007:78]. Bunday ilmiy asosga ega

mulohazalar kitobxonni Navoiyga bo‘lgan ehtiromini yanada oshiradi. Navoiy qo‘llagan bir timsol, istiloh orqali g‘azalxonni bilimini, tafakkurini oshirishga xizmat qiladi. Olimga ko‘ra: “Yor yuzidagi terni ko‘rish va uning mo‘jizaviy qudratiga ishonchning tub asosi” bu bo‘lsa, yana bir jihatini Imom G‘azzoliyning “Ihyoi ulum id din”ning o‘ningchi kitobidagi Rasuli akramning o‘lim holatidagi yuzlaridan inju donasi kabi terlarning tomgani, undan go‘zal va xushbo‘yi hid taralgani hamda Rasuli akramning “Mo‘minning joni ter ila, kofirniki esa hayvonning joni kabi og‘iz va burun teshiklaridan chiqar” degan muborak so‘zlari keltiriladi. Xulosa o‘laroq olim “ter” bir ramzdurki, u orqali ma‘naviy-ruhiy mohiyat ilgari suriladi [I.Haqqul, 2007:80],–deydi. Navoiyshunoslik bu g‘azalning ko‘plab tahlillari amalga oshirilgan. Maqolada olim bu borada amalga oshirilgan tahlillarga munosabat bildiradi. Shuni aytib o‘tish lozimki, badiiy talqin ijodkor aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani aniqlash bilan birga ijodkorning shuurida kechgan fikrlarni ham kashf etish san’atidir. I.Haqqul Navoiy bayon qilmoqchi bo‘lgan mushohadalarni, g‘oyani teran angelaydi, Navoiy ruhoniyatiga yaqin boradi. O‘zi ta’kidlaganidek, “Navoiy hayotga ko‘ngil nigohi bilan nazar tashlar ekan, ma’no, tuyg‘u, taassurot, tasvir – hamma-hammasini yo dard, yo iztirob yoki holat orqali, albatta, ko‘ngilga bog‘laydi” [I.Haqqul, 2011:139].

Navoiy majoz va timsol sifatida ko‘zdan ilohiy ishq, irfoniy haqiqatlar mohiyatini yoritish uchun ham nihoyatda mohirlik bilan foydalangan, deydi olim [I.Haqqul, 2011:140]. Baytdagi ko‘z timsolini tahlil qilarkan, adabiyotshunos “Navoiy majoz va timsol sifatida ko‘zdan ilohiy ishq, irfoniy haqiqatlar mohiyatini yoritish uchun ham nihoyatda mohirlik bilan foydalangan”ini ta’kidlaydi. Talqin asnosida ko‘zning poetik obraz sifatida xalq og‘zaki ijodida, dunyoviy va tasavvufiy she’riyatdagi badiiy-falsafiy mohiyatiga e’tibor qaratadi. Imom G‘azzoliy, Mahmud Shabustariy, Junayd Bag‘dodiy fikr-qarashlari bilan Navoiy qo‘llagan ko‘z timsolini g‘oyaviy xususiyatlarini o‘quvchiga nukdadonlik bilan etkazadi. Navoiyni o‘qish va uqishda qiynalgan kitobxonga uni tushunish u qadar imkonsiz emasligiga ishonch uyg‘otadi. Tahlil mas’uliyatini olim shunday izohlaydi: “Mumtoz she’riyatda qo‘llanilgan so‘z, ibora va atamalarning istilohiy, ramziy-majoziy ma’nolarini eski ilmiy, tarixiy, adabiy manbalarga tayanmasdan, u yo bu shoir yashagan davr odamlarining fikr-qarashlari bilan hisoblashmay, ularni biz to‘g‘ri izohlashga erisholmaymiz” [I.Haqqul, 2011:141].

Matn talqini falsafiy mushohadaga yo‘l ochadi. I.Haqqul tadqiqotlarida badiiyatni falsafa bilan yaqinlashtiradi, adabiyotni falsafa

bilan boyitishga e'tibor qaratadi. Falsafiy yondashuvlar esa adabiy tanqid va adabiy talqin qilishni uslubiy jihatdan kengaytiradi, filologik nuqtai nazardan ularning maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilashga xizmat qiladi.

“Ibrohim Haqqulovning birgina adabiyot emas, balki boshqa fanlardan ham etarli darajada xabardorligi, o'z xalqining faol fuqarosi sifatida siyosiy-ijtimoiy qarashlari mavjudligi, hayotni chuqur bilishidan dalolat beradi, deb yozadi E.Ochilov “Ilmga baxshida umr” nomli maqolasida. - O'z tadqiqotlarida Avesto, Qur'on, Injil, Talmud kabi diniy adabiyotlar, hadislar va boshqa turli diniy adabiyotlarga ham tez-tez murojaat qilib turadi”.

Demak, bitta asar haqida yaratilgan turlicha tahlil va talqinlar ichida yozuvchining badiiy niyatini to'g'ri anglay olgan, tanlangan mavzu, ilgari surilgan g'oya haqida to'g'ri xulosaga kelgan asosli fikrlargina yashovchanlik qudratiga ega bo'ladi. Shu bilan birgalikda tahlil va talqinlar jarayoni inson tafakkurining o'sishiga, fikr olamining kengayishiga, inson ongosti qatlamida mudrab yotgan fikrlarning uyg'onishiga, oxir-oqibat esa butun jamoatchilik saviyasining o'sishiga, ularda ham fikrlar, yangi g'oyalar paydo bo'lishiga olib keladi. Ibrohim Haqqulning “Yana qora rang talqini haqida” (NQ, 1-kitob), “Badiiy matn va tahlil muammolari”, “She'riy matn va obraz ma'nodorligi”, “Navoiy she'riyatida so'zning obrazga aylanish asoslari”, “Navoiy she'riyatida so'z va ma'no”, “Tamalsiz talqin g'alatdir”, “Navoiy she'riyatida fano talqinlari” (NQ, 2-kitob), “Adabiy matn: munosabat va talqin”, “Navoiy she'riyatida haq va shaxs munosabati” (NQ, 3-kitob), “Anosiri arba'a: mohiyat va she'riy talqin”, “Navoiy she'riyatida tark tushunchasi va talqinlari”, “Navoiy ijodida “adam va vujud” falsafasi”, “Hadis va talqin mahorati” (NQ, 4-kitob) maqolalari bevosita matn tahlili va talqiniga bag'ishlangan. Faqat sanab o'tilganlarga emas, olimning har bir maqolasi, suhbat va sharhlarida ham badiiy tafakkur mahsulining bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil va talqinlari beriladi.

Ibrohim Haqqulning tadqiqotlarining etakchi xususiyati teran fikrlilik, tahlilda izchillik, mushohadalarning o'tkirligi, nazariy bilimlarning chuqurligi, dalillash san'atida mohirligi, bayonda ilmiy va badiiy uslubning o'ziga xos omuxtaligi bilan ajralib turadi. Olimning Navoiy ijodiga doir asarlari shoirni xalqqa, kitobxonlar qalbiga qaytishi uchun mudom xizmat qilishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ҳаққул, И. (2007) Навоийга қайтиш.1-китоб. Фан.
2. Ҳаққул И. (2011) Навоийга қайтиш.2-китоб Фан.
3. Ҳаққул И. (2016) Навоийга қайтиш. 3-китоб. Tafakkur.
4. Ҳаққул И. (2021) Навоийга қайтиш.4-китоб. Tafakkur.
5. Ricoeur P. (1986) Du texte à l'action. Essais d'herméneutique, II, Paris, Seuil, coll. Esprit.
6. Қуронов Д. (2015) Талқин имконлари. Турон замин зиё.
7. Очилов Э. (2019) Илмга бахшида умр. // Китобда: Моҳиятга муҳаббат. Tafakkur.

ALISHER NAVOIY LIRIKASI – SHARQ TAMMADDUNI NIGOHIDA

**Nafisa YUSUPOVA,
O‘ZMU Jurnalistika fakulteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya

Maqola Alisher Navoiy lirikasining sharq xalqlari adabiyotidagi muhim o‘rni, ijodkorlarning mutafakkir asarlariga bo‘lgan ijobiy munosabati va ulardan ilhomlangan holda yozgan asarlariga bag‘ishlanadi. Maqolada Turkiya, Ozarbayjon, Uyg‘ur, Turkman, Tatar, Qirg‘iz kabi xalqlarning adabiyotida Navoiy merosidan ta’sirlangan holda yozgan asarlari o‘rganib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Navoiy merosi, o‘zbek yoki turkiy xalqlar adabiyoti, sharq so‘z san’ati, tazkira, Navoiy uslubi, mumtoz ma’naviy boylik.

Аннотация

Статья посвящена важному месту лирики Алишера Навои в литературе народов Востока, положительному отношению творцов к творчеству мыслителя и вдохновленным ими произведениям. В статье изучены произведения, написанные в литературе таких народов, как Турция, Азербайджан, уйгуры, туркмены, татары, киргизы под влиянием наследия Навои.

Ключевые слова: наследие Навои, литература узбекского или тюркского народов, восточное словесное искусство, tazkira, стиль Навои, классическое духовное богатство.

Abstrakt

The article will focus on the important role of Alisher Navoi's lyrics in the literature of the peoples of the East, the positive attitude of the creators to the creativity of thinkers and the works they wrote inspired by them. The article considered the works written by such peoples as Turkey, Azerbaijan, Uighurs, Turkmens, Tatars, Kyrgyz in literature under the influence of the Navoi heritage.

Key words: Navoi heritage, literature of Uzbek or Turkic peoples, Oriental verbal art, tazkira, Navoi style, classical spiritual wealth

O‘zbek xalqining mutafakkir shoiri Alisher Navoiy sharq adabiyoti doirasiga turkiy xalqlar adabiyotining buyuk vakili sifatida kirib bordi. Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib kabi adabiyot namoyandalari meroslari vositasida Sharqda o‘z nufuzini ko‘rsata boshlagan turkiy adabiyot Navoiy dahosi bilan arab va fors tillaridagi adabiyotlar qatoridagi o‘zining mustahkam o‘rnini egalladi. O‘z ijodi bilan o‘zbek va turkiy tildagi adabiyotlarni durr-u gavharlar bilan jilolagan, uning taraqqiyotiga tamal toshi qo‘ygan Alisher Navoiy sharq adabiyotini butun dunyoga tanitgan buyuk allamalardan sanaladi. Zotan, “o‘zida ham liriklik, ham epiklik, ham olimlik, ham davlat arbobi qobilyatlarini muvaffaqiyatli mujassamlashtirgan takrorlanmas, ajoyib talantlardan biri bo‘lgan” bu ulug‘ shaxs butun faoliyati davomida Sharqdagi hamma adabiyotlarning o‘zaro aloqalar yo‘li bilan bir-birlarini boyitib borishlari, yangi-yangi ijodiy kashfiyotlarga erishuvlari tarafdori bo‘lgan. O‘zi turkiy tilidagi adabiyotning eng yaxshi namunalarini yaratib, boshqa so‘z san’atkorlarini ham shu ijodiy yuksaklikka erishuvga chaqirdi.

Navoiyning lirika sohasidagi Sharqning o‘ziga xos san’at olamini tashkil qilgan mahorat maktabiga aylandi va katta kashfiyotlarga yo‘l ochib berdi. Shoir bu sohada “o‘ziga hos novatorlik yarata olmaganida uning asarlari bu qadar ulug‘ ahamiyat kasb eta bilmas edi” [1.143]. Darhaqiqat, ulug‘ shoirning g‘azal va muxammaslari, ruboiy, qit‘a hamda soqiynomalarida “Faylasuf shoirning o‘ziga xos shaxsiyati va mushohada quvvati, ijtimoiy pozisiyasi hamda poetik qudrati nazarga tashlanib turadi”[2.109].

Navoiy asarlari so‘z san’atining yuksak g‘oyalar ifodalangan oliy namunasi bo‘lishi bilan birga mukammal adabiy til namunasi. Navoiy asarlari tilining boy va go‘zalligi shundaki, unda oddiy so‘zlashuvda kundalik turmushda ishlatiladigan so‘zlardan tortib turli ilmu fanlarga oid atamalargacha juda aniq va o‘rinli ravishda iste’mol qilingan. Navoiy tilidagi so‘zlar ko‘lam jihatidagina emas, rang-baranglik jihatidan ham

diqqatga sazovordir. Navoiy tilning lug‘aviy boyligini oshirishda turkiy va o‘zlashma so‘zlardan samarali foydalangan.

Alisher Navoiy o‘zidan keyingi nafaqat o‘zbek yoki turkiy xalqlar adabiyoti, balki butun sharq so‘z san‘atiga kuchli ta’sir o‘tkazgan, badiiy tafakkur taraqqiyotida alohida davrni, yuksak bosqichni tashkil etadigan favqulodda iste’dod sohibidir. Sharq so‘z san‘ati o‘zigacha erishgan barcha yutuqlarni o‘zida mujassam etgan va uni yanada rivojlantirib, betakror badiiyat durdonalari bilan boyitgan mutafakkir shoir ijodi, xususan, turkiy adabiyot uchun etalon edi. Bu samarali ta’sirdan biror-bir turkiy xalq adabiyoti xoli emas. Bu adabiyotlarda Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilmagan, unga ergashmagan, undan ta’sirlanmagan, mahorat sabog‘ini olmagan qalam ahli yo‘q, desak sira mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Turklar ham, uyg‘urlar ham, ozarbayjonlar ham, qozoqlar ham, qirg‘izlar ham, turkmanlar ham, tatarlar ham, boshqirdlar ham, qoraqalpoqlar ham Navoiyni o‘z shoirlari deb biladilar va o‘z mumtoz adabiyotlarining zabardast namoyandasi sifatida o‘rganadilar. Chunki u bu xalqlardan barchasining milliy so‘z san‘ati ravnaqiga katta hissa qo‘shgan.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida ta’sirida **Turkiyada** tazkirachilik rivojlanib, 30 dan ziyod tazkiralari yaratilgan. Sahiyning “Hasht bihisht” (1538), Latifiyning “Tazkirat ush-shuaro” (1546), Oshiq Chalabiyning “Mashohir ush-shuaro” (1568) tazkiralari ular orasida mashhurlaridir [13,79]. Aynan tazkiranavislar “Hofizi Ajam va Muhyining “Navoiy uslubiga yaqin xushoyanda guftori” bo‘lgani; Shohiyi Sharqiy she’rlarining “Navoiy uslubi”ni eslatishi; Jamiliyning “aksar ash’orining Navoiy yo‘lida” bo‘lganligi; Niyoziyning “Navoiy ruhida she’rlar yozgan”ligini ta’kidlashadi. Shuningdek, Piri Chalabiy va Azmiy Afandining “Navoiy shevasi”da she’rlar aytgani; Fuzuliyning “Navoiy uslubiga yaqin bir tarzi dilfirib va uslubi ajib”i bo‘lganligi va “navoiyona” she’rlar yozganligi aytiladi. Shuningdek, Ahdiy Fayziy Chalabiyning “Navoiy taqlidida maqbuli jumhur” bo‘lganligini; Farog‘iyning “Adoyi Navoiyda farahbaxsh”ligini; Shuhudiy, Saboiy, Zoyimiy va Zuhdiyning “Navoiyda mohir” ekanligini; G‘iyosiy va Ulumiyning “tarzi Navoiyda jahd” ko‘rsatganligini e’tirof etishadi” [3.32].

Fuod Ko‘pruli “Alisher Navoiy”, Ali Nihod Tarlan “Alisher Navoiy hayoti va asarlari”, Ogoh Sirri Lavand “Alisher Navoiy: hayoti, san‘ati va shaxsiyati”, Kamol Eraslon “Nasoyim ul-muhabbat”ning matn va til xususiyatlari”, Yusuf Chetindog‘ “Alisher Navoiy”, “Alisher Navoiy va usmonli she’riyati” kabi salmoqli tadqiqotlar yaratdilar. Jumladan, Ko‘pruli Navoiy “faqatgina O‘rta Osiyo turkiylarining, ya’ni o‘zbek

adabiyotining buyuk shoiri bo‘libgina qolmagan, uning asarlarini yuz yillardan beri turk dunyosining har tarafida, Onado‘li va Rum elida, Ozarbayjonda, Eronda, Iroqda, Qrimda, Volga bo‘ylarida, turkmanlar orasida, hattoki Hindistondagi turk saroylarida o‘qilgan” deb yozadi. Turkiya matbuotida Navoiyga bag‘ishlab yuzlab maqolalar e‘lon qilingan. Dunyo olimlarining shoir haqidagi tadqiqotlari tarjima qilinib chop etilgan [4.14]. Jahon Oqquyujining ma‘lumot berishicha, Turkiyada Navoiy asarlarining 100 dan ziyod qo‘lyozmalari saqlanadi.

Alisher Navoiy hali hayotligidayoq **uyg‘urlar orasida** mashhur bo‘lib, ular buyuk shoirni “she‘riyat piri” deb ulug‘lashadi. Asarlari qo‘lyozmalari ko‘plab ko‘chirilgan, maktab va madrasalarda o‘qitilgan. Jumladan, shoir vafotidan ikki oy o‘tiboq Kuchar madrasasida “Xazoyin ul-maoniy” to‘liq ko‘chirilgan. 1700-yilda u yana 2 marta kitobat qilingan. 1557-yilda ham “Chor devon” ko‘chirilgan. Navoiy asarlarini ko‘chirish bilan shug‘ullanadigan maxsus xattotlik maktabi yuzaga kelgan. Bu maktab Markaziy Osiyoda Koshg‘ar xattotlik maktabi nomi bilan mashhur. Xususan, Yorkent xonligi (1514–1678) davrida shoir asarlari ko‘plab ko‘chirilgan. Abdurashidxon zamonida uning saroyi Navoiy asarlarini ko‘chirish va kitobat qilish markaziga aylangan. Shinjonda shoir asarlarining 400 ta qo‘lyozmasidan foydalanilganligi, Navoiy asarlarini o‘z ichiga olgan 150 ta qo‘lyozmaning mavjudligi ham shoir asarlarining uyg‘urlar orasida keng tarqalganini ko‘rsatadi. Navoiy asarlari uyg‘ur adabiyotida yangi-yangi an‘analarning kirib kelishiga vosita bo‘ldi. Navoiy “Xamsa”sini o‘rganish natijasida uyg‘ur adabiyotida ham xamsachilik an‘anasi paydo bo‘ldi. Nizoriy, Turdi, G‘aribiy, Navro‘zoxun Ziyoiy kabi uyg‘ur shoirlari bu an‘anani davom ettirib, yangi-yangi asarlar yaratish niyatida bo‘ldilar. Uyg‘ur adabiyotida paydo bo‘lgan bu yangiliklarning ko‘pi Navoiy asarlarining natijasida yuzaga kelganligi shubhasizdir.

Ozar adabiyotida aslida Alisher Navoiy O‘zbekistonda qanchalar aziz bo‘lsa, Ozarbayjonda ham shu qadar ardoqlanadi. Alisher Navoiy O‘zbekistonda qay darajada o‘rganilsa, Ozarbayjonda ham bu mutafakkir san‘atkorga shu darajada ilmiy zavq bilan o‘rganish, ijtimoiy ishtiyoq tuyg‘usi mavjud. Alisher Navoiy Ozarbayjonda o‘zbek adabiyotining buyuk klassigi bo‘lishi bilan birga Ozarbayjonning ham xuddi shunday ulug‘ shoiri singari qabul etiladi. Muhammad Fuzuliy, Alisher Navoiy, Sayid Azim Shirvoniy g‘azalnavislikning, mumtoz she‘riyatning yirik siymolari sifatida bir safda o‘rganib kelinadi. Nainki tadqiqotchilar, xalqimiz ham ularning she‘rlarini yoddan biladi, Alisher Navoiyga hurmat-ehtiromini ifoda etadilar.

Ozarbayjon kitob fondlarida Navoiy barcha asarlarining bir necha nusxalari saqlanayotgani buning yorqin dalilidir.

Turkman xalqi ham Navoiyni o‘z shoiri sifatida sevib, ardoqlab keladi. Uning g‘azallarini sevib kuylamagan turkman aytimchilarini topish qiyin. Mirali – Mir Alisher haqida ko‘plab rivoyatlar yaratilganligining o‘zi Navoiyning qardosh xalq orasida qanchalik mashhurligini ko‘rsatadigan yorqin dalildir. Bu rivoyatlar Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan “Mirali va Sulton Suyun” (Husayn Boyqaro turkmanlar orasida shu nom bilan mashhur bo‘lgan – E.O.) nomi bilan alohida kitob holida ham nashr etilgan. Bayramxon, Ozodiy, Kamina, Durdi, Zunubiy, Ma‘rufiy, Maxtumquli, Zaliliy, Saidiy, G‘oyibiy, Tolibiy, Mullanafas, Shabanda, Miskin Qilich, Shaydoyi, Muhtojiy, Andalib kabi barcha turkman mumtoz shoirlari Navoiyni o‘zlariga ustoz deb bilib, undan mahorat sabog‘ini olganlar, badiiy barkamol asarlarini o‘qib ilhomlanganlar va ta’sirlanganlar, unga naziralar va tatabbular yozganlar, g‘azallariga muxammaslar bog‘laganlar. Ular orasida Navoiyga muhabbati va sadoqati cheksizligi jihatidan Maxtumquli alohida ajralib turadi. Qator she’rlarida buyuk salafini ixlosu e’tiqod bilan tilga oladi.

Alisher Navoiyning **qozoq adabiyotiga** ham ta’siri kuchli. “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” dostonlari qozoq oqinlari tomonidan kuylanib, qozoq xalqi o‘rtasida keng yoyilgan va ularning ma’naviy mulkiga aylangan. Ular shoir asarlarini goh qisqartirib, goh o‘zgartirib, goh voqealarni qozoq zaminiga ko‘chirib, goh alohida bobini olib ijro etganlar. Qozoq xalqi orasida Mir Alisher Sultonshin degan podshoning vaziri sifatida tasvirlangan qator rivoyatlar yaratilgan. Shaodi Jongirov (1865–1933) Navoiy ta’sirida “Hotamtoyning hikoyasi”, “Bahrom Go‘r”, “Iskandar Zulqarnayn” kabi asarlar yaratgan. Turmag‘ambet Iztileuov (1882–1939) “Iskandar”, “Doroynoma” asarlarini Navoiyga nazira tarzida yozadi. Maylixo‘ja Sultonxo‘ja o‘g‘li (1835–1898) shoirni ulug‘lab, jumladan, shunday deydi:

*O‘zbekdan o‘tgan Navoiy
Tilning gavhar guli edi.*

Cho‘qon Valixonov, Abay Qo‘nonboyev, Sobit Muqonov, Muxtor Avezovlar ham Navoiyni ustoz deb bilgan va o‘z xalqiga tanishtirgan zotlardan hisoblanishadi. Qozoq shoirlari ichida Navoiydan eng ko‘p ta’sirlangan va uni o‘ziga ijod yo‘lida rahnamo deb bilgan Abaydir (1845–1904). U shoir asarlari bilan madrasadayoq tanishgan va 14 yoshida o‘zgan she’ridayoq o‘z ustozlari qatorida ixlos va iftixor bilan tilga olgan edi:

*Fuzuli, Shemsi, Seyxali,
Navoiy, Sa'di, Firdousi,
Xoja Hafiz – bu hemmesi
Medet ber shag'iri feriyad.*

Abayning “Iskandar” dostonini yaratishda boshqa Sharq shoirlari kabi Navoiyning “Saddiy Iskandariy” dostonidan ham ta’sirlangani va ilhomlangani ma’lum.

Tatar xalqi orasida ham Navoiy asarlari asrlar davomida sevib o‘qilgan. O‘tgan asr boshidayoq tatar ma’rifatparvari Qayum Nosiriy “Adabiyot qoidalari” kitobiga shoirning “Mahbub ul-qulub” asaridan “Dehqonlar zikrida” maqolatini tarjima qilib kiritadi. 1914-yili “Sho‘ro” jurnalida “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari tarjimasi bosiladi. Abdulla To‘qayning “Muhabbat”, “Bir rasmga”, “Bo‘lmasa” kabi she‘rlari bevosita Navoiy ta’sirida dunyoga kelgan [8,55–80].

Taniqli olim K.Quramboyevning ma’lumot berishicha, Navoiy asarlari **Qoraqalpog‘istonda** dastlab qo‘lyozma shaklida tarqalib, maktab-madrasalarda o‘qitilgan. Berdaq va Ajiniyozdan tortib to I.Yusupov va A.O‘tepbergenovgacha bo‘lgan shoirlar ulug‘ o‘zbek san’atkori ijodidan ta’sirlanib, unga ergashib asarlar yaratganlar, g‘azallariga tatabbular yozib, muxammaslar bog‘laganlar. Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, O‘tesh, Umar, Ayapbergan Musayevlardan tortib Abbaz Dabilov, Sodiq Nurimbetov, Ibroyim Yusupovgacha bo‘lgan shoirlar Navoiy ijod chashmasidan bahramand bo‘lganini ko‘p bora ta’kidlashgan.

Qoraqalpog‘iston adabiyotshunosligida navoiyshunoslik alohida yo‘nalishga aylanib bormoqda. J.Aymirzayev, A.Begimov, N.Davqarayev, M.Daribayev, N.Japaqov, I.Sag‘itov, A.Murtazayev, Q.Maqsetov, K.Mambetov, H.Hamidov, Q.Jarimbetov, K.Quramboyev kabi olim va adiblarning shoir hayoti va ijodi, asrlarining tarjimalari va adabiy ta’sir masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab maqola va risolalari fikrimizning yorqin dalilidir.

Ma’lum bo‘ladiki, Navoiy va turkiy xalqlar adabiyoti alohida tadqiqot mavzui bo‘lib, shoir adabiy va ilmiy merosining turkiy xalqlar orasiga tarqalishi, asarlari qo‘lyozmalarining ko‘chirilishi, o‘zidan keyingi ijodkorlarga ta’siri va izdoshlari, asrlarining nashrlari va tarjimalarini qiyosiy jihatdan o‘rganish nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotshunosligining muhim va dolzarb masalalari hisoblanadi. Chunki har bir xalq badiiy tafakkuri taraqqiyoti va adabiyoti rivojida Navoiyning beqiyos hissasi bor. Biror-bir turkiy adabiyot ravnaqini Navoiy ta’siridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu hol ayni mavzuni kelgusida

qardosh xalqlar olimlari bilan birgalikda tadqiq etishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. –Т.,ЎзФА, 1963. Б.143
2. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2 том. –Т.,Фан,1977.- Б.109
3. Четиндоғ Ю. Алишер Навоий (А.Ҳайит таржимаси). – Тошкент: “Муҳаррир”, 2013. Б.: 32
4. Hasanov N. Navoiy ijodiyotining Turkiyada o‘rganilishiga doir \\
Navoiyning ijod olami (2-kitob). – Toshkent: “Fan”, 2011.
5. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1976.
6. Nagiyeva J. Ozarbayjon adabiyotida Navoiy an‘analari \\
Navoiyning adabiy mahorati masalalari (Maqolalar to‘plami). –
Toshkent: “Fan”, 1993.
7. Rasul X. Muhammad Fuzuliy\\Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki
jildlik.1-jild.-Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti,
1968.
8. Ro‘zmonova R. Alisher Navoiy an‘analarining usmonli turk she‘riyatiga
ta‘siri. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2011.
9. Solihova H. Alisher Navoiy va uyg‘ur adabiyoti. – Andijon, 1994.
10. *Ochilov E.* Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari\\ “Alisher
Navoiy va XXI asr” mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani
materiallari. Toshkent: 2011

“HAYRAT UL-ABROR”DA NAVOIYNING O‘Z SALAFLARIGA MUNOSABATI

Nigora SHARIPOVA,
NavDPI doktoranti, f.f.f.d., PhD
nigora-sharipova@internet.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilk dostoni “Hayrat ul-abror”ning muallifning salaflari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy “Xamsa”larining ilk dostonlariga munosabati qiyosiy-tipologik kontekstda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: doston, struktura, an‘ana, novatorlik, bob, o‘ziga xoslik.

Аннотация

В данной статье в сравнительно-типологическом контексте анализируется отношение в первом дастане "Хамсы" «Хайрат ул-аброр» Алишера Навои к первым дастанам «Хамсы» его предшественников Низами Гянджеви, Хусрава Дехлеви, Абдурахмана Джами.

Ключевые слова: дастан, структура, традиция, новаторство, глава, оригинальность.

Abstract

In this article, in a comparative typological context, the relation in the first dastan of "Hamsa" "Hayrat ul-abror" by Alisher Navoi to the first dastans of "Hamsa" of his predecessors Nizami Ganjavi, Khusrav Dehlavi, Abdurahmon Jami is analyzed.

Key words: dastan, structure, tradition, innovation, chapter, originality.

Hazrat Alisher Navoiy dostonchilikda salaflari an'alarini davom ettirish bilan birga Sharq xalqlari madaniyatidagi badiiy, falsafiy, didaktik, ma'rifiy-irfoniy g'oyalarni sintez qildi. Akademik Aziz Qayumov e'tiroficha, «Navoiy «Xamsa»si garchi o'z adabiy ildizlari bilan mustahkam birlikni saqlagan bo'lsa-da, bu shohona asar avvalgi «Xamsa»larning takroriy namunasi emas. U o'zbek adabiyotining mustaqil, Alisher Navoiy dunyoqarashi, uning g'oyaviy-mafkuraviy mazmunini aniq va ayon namoyon etuvchi epik asarlar yig'indisidir»[1].

Hazratning o'zlari «Muhokamat ul-lug'atayn»da «Xamsa»ning besh dostonini yozishda ruhlantirgan ijodkorlar haqida «Avvalkim «Hayrat ul-abror» bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi «Maxzan ul-asror»idin boshimga durlar sochibdur»[2] deb, «Farhod va Shirin»ni Xusrav Dehlaviydan, «Layli va Majnun»ni Himmatiydan, «Sab'ai sayyor»ni Ashraf Marog'iydan, «Saddi Iskandariy»ni ustoz Jamiydan ilhomlanib yaratganini yozib qoldirgan. Demak, «Hayrat ul-abror» yaratilishida ko'p jihatdan Nizomiy Ganjaviy ilk dostoniga suyanilgan. Ta'kidlash joizki, «Maxzan ul-asror» ham «Hayrat ul-abror» singari axloqiy-ta'limiy, falsafiy-irfoniy dostonidir. Unda Nizomiyning ko'p yillik kuzatishlari, tafakkur dunyosining zakosi, daho ijodkor sifatida teran qarashlari o'z ifodasini topgan. «Hayrat ul-abror» singari «masalalar alohida-alohida bob yoki bo'limlarda bayon etiladi. Bob va bo'limlar dostonning umumiy maqsadda, yagona g'oyaviy konsepsiyasi hamda badiiy uslub va poetik shakl (qofiya, vazn va boshqalar) bilan bir-biriga

bog‘lanadi, ulanadi, bir-birini rivojlantirib boradi va shu yo‘l bilan dostonning umumiy – yagona kompozitsiyasini vujudga keltiradi»[3].

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror»da «Xamsa» an‘anasini boshlovchi Nizomiyni ma‘naviy ustoz deb bilib, «Maxzan ul-asror»ning vazni, g‘oyaviy yo‘nalishi, badiiy qurilishi – strukturasi qabul qilib, rivojlantirdi. Shu o‘rinda Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy an‘analariga ham hurmat bilan qaradi, ma‘lum ma‘noda va muayyan o‘rinlarda salafariga ergashdi va ulardan o‘rgandi-o‘zlashtirdi. Biroq Navoiy taqlidchi shoir bo‘lmagan, u hamisha yangilikka intilgan va o‘zidan avvalgi asarlarga tanqidiy munosabatda bo‘lgan – ularning yutuqlarini rivojlantirib, xato-kamchiliklarini bartaraf etgan. Oybek turkiy til mavqeini ko‘tarishda Navoiyning buyuk jasorati, mislsiz xizmatlarini tavsiflar ekan, shoirning o‘z salafariga munosabatini shunday izohlaydi: «Klassiklarga taqlidgina emas, balki mustaqil ijodiyot asarlarini ham ularning nomi bilan bog‘lash traditsiya edi, ya‘ni ustod shuhratini qozonish uchun o‘zini ularga shogird ko‘rsatish kerak edi»[4].

Turkiy «Xamsa»ning birinchi dostoni – «Hayrat ul-abror» salafari ilk dostonlari bilan qiyosan tahlil qilinsa, uning qator o‘ziga xosliklari ko‘zga tashlanadi:

Nizomiy Ganjaviy ilk dostonida maqolatgacha 18 ta bob ajratilgan[5],[6], maqolatlar 19 bobdan boshlanadi, maqolat va uning g‘oyasini to‘ldiruvchi hikoyatlar jami 40 bobdan o‘rin olgan hamda so‘nggi bob xotima bob hisoblanadi. Navoiyda esa maqolatlargacha bo‘lgan boblar soni 21 ta bo‘lib, «Hayrat ul-abror»dagi birinchi maqolat 22 bobdan boshlanadi. Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror» asari bilan «Hayrat ul-abror» boblari muqoyasa qilinsa, ularning o‘zaro mushtarakligi va o‘ziga xosligi quyidagi o‘rinlarda ham aniq ko‘rinadi:

O‘xshashlik: Har ikkala dostonida an‘anaviy debocha (basmala bob), munojot, na‘t, so‘z fazilati (ikkala ijodkorda ham ikkitadan bob so‘z ta‘rifiga atalgan), zamona sultoniga atalgan bob, ko‘ngil ta‘rifiga bag‘ishlangan boblar mavjud; har ikkala dostonida 20 maqolat va uni to‘ldiruvchi 20 hikoyat o‘rin olgan.

Tafovut: Ikkala dostonidagi boblar soni (Nizomiyda 59 bob, Navoiyda 63 bob), munojotlar soni (Nizomiyda 2 ta munojot, Navoiyda 4 ta munojot), na‘tlar soni (Nizomiyda 4 ta na‘t, Navoiyda 5 ta na‘t) turlicha. Nizomiyda payg‘ambarimiz(s.a.v.)ga bag‘ishlab na‘tdan tashqari qo‘shimcha 2 ta bob: Rasuli akram (s.a.v.) vafida (3-bob) hamda Me‘roj kechasi tasvirida (4-bob). Zamona hukmdoriga atalgan boblar miqdori ham bir xil emas (Nizomiyda zamona shohi Malik Faxruddin Bahromshoh

ibni Dovudga 2 ta bob bag‘ishlansa, Navoiyda hukmdor Husayn Boyqaroga 1 bob bag‘ishlangan); Nizomiy «Xamsa»ning ilk yaratuvchisi sifatida salaflariga bob kiritmagan, Navoiyda esa ikki salafi Nizomiy va Dehlaviyga bir bob ajratgan, shuningdek, Navoiy pirlari Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiyga bag‘ishlab bir bob kiritgan (21 bob). Nizomiyda «Bu nomaning maqomi va martabasi bayonida» - dostonning ahamiyati xususidagi bob mavjud, Navoiyda esa bu mavzuda bob uchramaydi. Nizomiyda ikki xilvat va uning samarasi 4 bobda berilsa, Navoiy dostonida uch hayratga 3 bob ajratilgan. Aytish joizki, «Hayrat ul-abror»dagi hayratlar dostonning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini, muallif badiiy konsepsiyasini belgilashi nuqtai nazaridan Nizomiy dostonidagi xilvatlardan tubdan farq qiladi.

Amir Xusrav Dehlaviy «Matla’ ul-anvor»da [7],[8] Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiydan farqli ravishda maqolatlargacha 14 bob ajratadi, doston asosiy voqealari 15 bobdan boshlanadi. «Matla’ ul-anvor» dostoni bilan Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoni kompozitsiyasi va g‘oyaviy, semantik strukturasi va o‘xshashliklari va farqlari qiyosiy tahlil qilinsa:

O‘xshashlik: Bu dostonlarda an‘anaviy debocha (basmala bob), munojot, na‘t, so‘z sharafi, salaflarga atalgan bob (Dehlaviy Nizomiyga atab bir bob kiritgan, «Hayrat ul-abror»da Nizomiy va Dehlaviyga atalgan bir bob bor), hukmdorga atalgan bob, 20 maqolat, 20 hikoyat mavjud.

Farqlari: «Matla’ ul-anvor»da 53 bob, «Hayrat ul-abror»da 63 bob mavjud. Navoiyda munojot va na‘tlar ko‘proq (Dehlaviyda 3 ta munojot, 3 ta na‘t; Navoiyda 4 ta munojot, 5 ta na‘t), so‘z ta‘rifi ham Amir Xusravda bir bob (Shoir uchinchi maqolatini so‘z madhiga bag‘ishlaydi), Navoiyda so‘z ta‘rifi ikki bobdan iborat, Dehlaviy maqolat qismigacha Sulton Alouddindan tashqari yana bir sultonga bob bag‘ishlagan (Madhi boz yak sulton), bundan tashqari «Oid ba tartibu tarkibu doston» – dostonning tarkibi va tuzilishiga bag‘ishlangan qo‘shimcha bob mavjud, shuningdek, Navoiydagi uch hayratdan farqli ravishda uch xilvat berilgan. Dehlaviyda Nizomiyga ergashish dostonning yaratilishi, tuzilishi xususidagi maxsus bobning mavjudligida, ko‘ngil sayru sulukiga bag‘ishlangan boblarning xilvatlar deb nomlanishida ko‘rinsa, Navoiyda novatorlik aynan shu ikki xususiyatda ko‘rinadi. Ya‘ni, Navoiyda dostonning yaratilishi, tuzilishi, tarkibi xususida maxsus bob mavjud emas. Dostonning tuzilishi va tarkibi kitobxonga aniq, ravshan bo‘y ko‘rsatib turganini inobatga olgan shoir shu xususida maxsus bob kiritishni joiz topmagan. Ko‘ngil ta‘rifiga

bag'ishlangan boblar ham dostonning o'zak g'oyasi va nomlanishidan kelib chiqqan holda Navoiyda hayratlar deya atalgan.

Abdurahmon Jomiyning «Tuhfat ul-ahror» [9] asari kompozitsion qurilishi va boblar soniga ko'ra «Hayrat ul-abror»ga birmuncha yaqin.

O'xshashlik: Jomiy dostonida ham xuddi Navoiyniki singari bir hamd, to'rt munojot, besh na't, so'z fazilati haqidagi bob, Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ubaydulloh duosi, 20 maqolat va 20 hikoyat mavjud.

Farqi: «Tuhfat ul-ahror»da maqolatgacha 19 ta bob mavjud bo'lib, dostonning asosiy voqealari 20 bobdan boshlanadi. Jomiy dostonida «Hayrat ul-abror»dagi mavjud uch hayrat o'rniga uch suhbat keltirilgan, Navoiy Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ubaydullohga bitta bob bag'ishlasa, Jomiy har biriga alohida bob ataydi; Jomiyda Nizomiy, Dehlaviy, Navoiydan farqli ravishda zamona hukmdoriga atalgan bob mavjud emas. «Tuhfat ul-ahror»da so'z fazilatiga bag'ishlangan bobdan so'ng shoirlar (so'z san'atkorlari–N.Sh.) haqidagi bobning keltirilishi Navoiyning so'z ta'rifidagi bobidan so'ng «So'zda ma'no masalasi» xususidagi bobning keltirilishiga bevosita hamohang. Doston boblari soni ham ijodkorlarda turlicha (Jomiyda 60 bob, Navoiyda 63 bob).

Navoiy «Hayrat ul-abror»da xamsachilik an'anasining asoschilari sifatida Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyni ulug'laydi, ularga ehtirom bildirib, o'zini shular boshlagan an'ananing davomchisi sifatida ko'radi. Biroq qiyosiy-tipologik tahlildan ko'rinib turibdiki, Navoiyning ilk dostoni salafarinikidan g'oyaviy-semantik, kompozitsion-strukturaviy jihatdan tubdan farq qiladi. Navoiy «Hayrat ul-abror»da barcha salafaridan andoza olgan va ayni paytda g'oya, mazmun, hajm, obrazlar nuqtayi nazaridan ularnikiga o'xshamagan original muqaddimaviy dostonni yaratgan. Maqolatlar soni har bir ijodkorda yigirmata bo'lib, shu jihatdan ilk dostonlar biri ikkinchisiga o'xshaydi deyish, unchalik o'zini oqlamaydi. Chunki har bir ijodkorda maqolatlar mazmun-mohiyati tubdan farq qiladi. Navoiy maqolatlarida tasavvufiy-ma'rifiy mohiyat kuchli. Shuningdek, har bir maqolat zamirida davr nuqtai nazaridan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy muammolarga real munosabat aks etgan. Shu jihatdan Navoiy ilk dostoni bilan bir davrda yaratilgan Abdurahmon Jomiy «Tuhfat ul-ahror»i qisman yaqin. Biroq Navoiy dostoni *navoiyona uslub* («navoiyyona uslub», «oliy uslub» – Y.Is'hoqov talqini)da bitilgan, doston davomida shoir sifatida tafakkur zakosi, mutafakkir sifatida teran qarashlari, davlat arbobi sifatida salbiy toifa vakillariga o'tkir istehzo va tanbehlari, buyuk olim sifatida tengsiz nazariy tahlillari, xalq rahnamosi sifatida xalqona pand-nasihatlarini o'z ifodasini topgan. Bu dostonda Navoiy

shaxsi ham shoir, ham adabiyotshunos olim, ham davlat arbobi, ham xalq vakili sifatida namoyon bo‘ladi.

«Xamsa»larning ilk dostonlarida Nizomiyda ikki xilvat va uning samarasi, Amir Xusravda uch xilvat, Jomiyda uch suhbat, Navoiyda esa uch hayrat keltirilgan bo‘lib, bular nomlanishdagina emas, mualliflarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, falsafiy, irfoniy qarashlari ko‘lami va teranligi darajasi bilan ham farqlanadi. Navoiyda salaflaridan farqli ravishda ilk dostondagi *hayratlarda* haqiqiy ishq ko‘ngilda naqshlanishiga, g‘ayb olami sirlariga aql bilan emas, ko‘ngil bilan erishish mumkinligiga, inson, eng avvalo, poklanishni ko‘ngildan boshlashi lozimligiga asosiy e‘tiborni qaratdi. Barcha shoirlar dostonida ham inson mavjudligi yoki besh sezgi a‘zolari solimligi bilan emas, balki Tangri uni oqil va iymonli qilib, ko‘nglini koinotdan keng va insonga xos fazilatlarga boy qilib yaratgani uchun aziz va mukarramdir, degan g‘oya etakchilik qiladi. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiyda yigirma maqolat va unga ilova qilingan yigirma hikoyatdan so‘ng xotimaviy bob keltirilsa, Navoiy bu borada ham o‘zgacha yo‘l tutgan. Shoir yigirma maqolatdan so‘ng bir xulosaviy bob hamda «Oyog‘i toyib yiqilgan qul» hikoyatini keltiradi va “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlar shu tufayli salaflariniki singari yigirma emas, balki yigirma bittadir. Bu ham Navoiy ilk dostonining o‘ziga xosligini belgilaydi.

«Xamsa» yozish jarayonida Navoiy xamsachilik adabiy an‘anasiga rioya qilganligi ilk dostonning nom, vazn va strukturasi namoyon bo‘ladi. Biroq, «Xamsa» dostonlari, shu jumladan, «Hayrat ul-abror»ning har bir satri ijtimoiy-siyosiy vaziyat va hodisalar ta‘sirida yaratilganini, dostonlarning yuzaga kelishi real ijtimoiy-tarixiy muhit bilan bog‘liqligini yodda tutmoq lozim.⁵ Shuningdek, Sharq adabiyotida ma‘lum ijodkor qaysidir janrda qalam tebratishi jarayonida o‘zidan oldin shu janrda ijod qilgan adiblarni e‘tirof etish an‘anasi mavjud bo‘lganligini, asar mustaqil yaratilsa-da, an‘ana davom ettirilmasa-da, shoir yoki adibning novatorligi yaqqol sezilsa-da, bu e‘tirof Sharq ahliga xos hurmat va ehtiromdan dalolat berganini ta‘kidlash lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Қажумов А. Ўзбек хамсашунослигининг адабий илдизлари // Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари // Илмий-назарий анжуман материаллари. – Т., 2014. – Б. 11-12.

⁵ Бу ҳақда қаранг: Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б.164.

2. Alisher Navoiy. "Muhokamat ul-lug'atayn". TAT. O'n jildlik. O'ninchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.520.
3. Маллаев Н. Низомий Ганжавий. – Т.: А.Навоий номидаги Ўз.миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – Б.22-23.
4. Ойбек. МАТ. Ўн тўққиз томлик. Ўн учинчи том // Хамсанинг асосий образлари. – Тошкент.1979. – Б.159.
5. Низомий Ганжавий. Махзан ул-асрор. Форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, 2016;
6. Низомий Ганжавий. Сирлар хазинаси. ("Махзан ул-асрор"). Аслиятдан Олимжон Бўриев таржимаси. – Тошкент: CHASHMA PRINT, 2013.
7. Хусрав Дехлавий. Матлаъ ул-анвор. – Москва: Наука, 1975;
8. Хусрав Дехлавий. Матлаъ ул-анвор. Осори мунтахаб. Дар чахор чилд. Чилди якум. – Душанбе: Ирфон, 1971;
9. Абдурахмони Чоми. Тухфат ул-ахрор. Ҳафт авранг. Чилди сеюм. – Душанбе: Ирфон, 1964.

AMERIKADA O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTNING O'RGANILISHI

**(Devin DeUising "Funun ul-balog'a"ga oid tadqiqoti asosida)
Gulandom YULDASHEVA,
ilmiy tadqiqotchi
(AQSH)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oksford universitetining Bodlian kutubxonasida saqlanayotgan XVI asr Movaraunnahrning juda noyob qo'lyozmasi haqida so'z boradi. Qo'lyozma turkiy tilda Shayx Ahmad Taroziy tomonidan yozilgan bo'lib, o'sha davrning Movaraunnahrda keng tarqalgan aruz janri haqida tasvirlangan. Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarining o'zi 1436-37-yillarda Samarqandda temuriylar shahzodasi Mirzo Ulug'bek homiyligida yozilgan.

Kalit so'zlar: XVI asr qo'lyozmasi, aruz janri, noyob asar, turkiy adabiyot

Абстрактный

Эта статья посвящена очень редкому манускрипту Моварауннахра XVI века, хранящемуся в Бодлеанской библиотеке

Оксфордского университета. Рукопись написана на турецком языке шейхом Ахмадом Тарази и описывает жанр аруза, который был широко распространен в Моварауннахре того времени. Само произведение Тарази «Фунун ул-балоба» было написано в Самарканде в 1436-37 годах под покровительством тимуридского князя Мирзы Улугбека.

Ключевые слова: рукопись XVI века, жанр аруз, редкое произведение, турецкая литература.

Annotation

This article discusses about the very unique manuscript of the XVI century Movaraunnahr catalogued in the Bodlean Library of the Oxford University. The manuscript is written in Turkic language by Shaykh Akhmad Tarazi depicting the aruz genre common in Movaraunnahr of the time. Tarazi's work *Funun al-Balagha* itself was written in Samarkand in 1436-37 under the patronage of Timurid prince Mirza Ulugbek.

Key words: XVI century manuscript, aruz genre, unique work, Turkic literature.

2005-yili Devin DeUising “Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida Navoiy salaflari: XV asr O‘rta Osiyo madaniyotshunosligining e‘tiborsiz qolgan manbasi” [1.73-163] nomli katta maqolasi *Journal of Turkish Studies* jurnalida e‘lon qililib, hozirda marhum professor Elizar Birnbaumning 80 yilligiga bag‘ishlangan edi⁶. Devin DeUising tadqiqotiga ko‘ra, Navoiydan avval uning salaflari Lutfiy, Sakkokiy, Mavlono Xaydar, Atoiylar haqida qo‘shimcha ma‘lumot

⁶ Элизар Бирнбаум (1930-2019) – кандалик профессор, йирик туркийшунос олим, туркий, арабий ва форсий манбаларни тахлил этиб, туркий қўлёмалар каталогини нашрга тайёрлашда хизматлари катта. Элизар Бирнбаумнинг шахсий кутубхонасида бундай ноёб қўлёмаларнинг 200га яқини сақланади. Ўрта Шарқ ва Осиё, Европа ва Шимолий Американинг қўллаб шаҳар ва чекка кутубхоналарида сақланаётган ҳали каталоглаштирилмаган туркий қўлёмаларнинг рўйхатини тузиш, уларни олим ва тадқиқотчилар эътиборига етказишга муваффақ бўлган камтар олим эди. Профессор Бирнбаум дунё бўйлаб тарқалиб кетган туркий манбаларнинг каталогини тузди ва уни “Туркий қўлёмалар: 1960 йилдан кейинги давр каталоглаштирилиши ва каталоглаштирилмаган қўлёмалар устидаги тадқиқотлари” (Turkish Manuscripts: Cataloguing Since 1960 and Manuscripts Still Uncatalogued, Part 4: Hungary, Czechoslovakia, Poland, Great Britain, Ireland, The Netherlands, Belgium, France, Germany, Switzerland, Austria, Italy, Finland, United States, Canada, *Journal of the American Oriental Society*, 104/2, 1984) деб номлади. Бу ҳаракати билан олим Европадаги йирик туркийшунос олимлар каторидан жой олди. Олим Собик Югославия, Болгария, Руминия, собик Совет Иттифоқи, Туркия, Эрон, Афғонистон, Араб мамлакатлари, Исроил ва Палистина, Ҳиндистон ва Покистон, Хитой, Венгрия, Чехия, Польша, Буюк Британия, Ирландия, Нидерландия, Белгия, Франция, Германия, Швейцария, Австрия, Италия, Финляндия, АҚШ ва Канада давлатларида сақланаётган қимматбаҳо ва илмий жиҳатдан қимматли туркий манбаларнинг ўрганилиши учун махсус рухсатнома олиб қўлёмалар устида катта меҳнат қилди. Элизар Бирнбаум темурийлар даври Ўрта Осиёсида Алишер Навоидан аввал ижод қилган туркийзабон шоирлар Лутфий, Саккокий, Атоий, Гадоий каби туркий адабиётнинг йирик намоёндалари асарлари ва шеърятини устида синчковлик билан тадқиқот олиб борган олимлардан.

beruvchi, o'zgacha yondashuvni talab etuvchi noyob adabiyotshunoslik yodgorligi Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» asaridir. Ushbu qo'lyozmaning yagona nusxasi hozirda London shahrida, Oksford universitetining Bodlian kutubxonasida Elliott 127 raqami ostida saqlanadi. Qo'lyozma 139 sahifadan iborat bo'lib, har sahifa hoshiyalarigacha mayda nasta'liqda bejirim xusnixat bilan matn bitilgan. Matn f.1b bezatilgan frontispis bilan boshlanadi; qo'lyozmaning f.139a kolofoniga ko'ra, asar Buxoroda hijriy 989, milodiy 1581-yili xattot Mir Husayn Kulangi Buxoriy tomonidan ko'chirilgan. Professor DeUis ushbu qo'lyozma bilan 1992-yili Indiana universitetining Ichki Osiyo ilmiy-tadqiqotlari institutida Oksford universitetining Bodlian kutubxonasi tomonidan tayyorlangan mikrofilm orqali tanishadi.

Professor Devin DeUisning ushbu asarga qiziqishining boisi shundaki, Navoiygacha bo'lgan davrning adabiy muhitini yorituvchi, Navoiy salaflari she'riyati haqidagi qimmatli ma'lumotlarni beruvchi, turkiy she'riyatning rivojlanish jarayonini tasvirlab beruvchi bebaho asardir. Shu jumladan, XIV-XV asrlar Markaziy Osiyoda turkiy va forsiyda bitilgan baytlarning rang-barangligini namoyon etuvchi, uning Movaraunnahr zaminidagi noyob adabiy yodgorlikning turkiy ijod namunasi sifatida qadrlanishi, shubhasiz, adabiyotshunoslik faniga ma'lum yagona qo'lyozma nusxasi o'laroq o'z qimmatini oshiradi. Afsuski, «Funun ul-balog'a»da Yusuf Amiriy, Gadoiy, Yaqiniy yoki Ahmadiylar haqida biron ma'lumot keltirilmaganligini hisobga olsak, Navoiyning o'zlari ularning ba'zilari haqida Majolis un nafois asarida qayd etadi. Ahmad Taroziyda nima sababdan Navoiy keltirgan shoirlarning nomi uchramasligining sababi qilib o'sha adiblarning Taroziy bilan Navoiy o'rtasidagi davr oralig'ida yashab o'tgan bo'lishi kerak, deydi DeUis.

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari temuriy shahzoda Mirzo Ulug'bek homiyligida, taxminlar bo'yicha, Samarqandda 1436-37-yillarda yozilgan noyob asar hisoblanadi. Ushbu asar Temuriylar davri O'rta Osiyo madaniy muhiti haqida boy ma'lumot beruvchi, eski turkiy tilda bitilgan, ammo olimlar tomonidan e'tiborsiz qolgan asarlardan hisoblanadi, deydi DeUis. Asar muqaddimasida muallif o'zini "Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy" va "kim bu imoratning muhandisi va bu iboratning mudarrisidir" deb tanishtiradi. Taroziyning yoru-do'stlari "Funun ul-balog'a" asarini "Latoifi Taroziy" deb ham atashgan. Professor DeUisning aniqlashicha, asarning so'zboshida unga homiylik qilgan Mirzo Ulug'bek sharafiga Ahmad Taroziy cheksiz maqtovlar keltirgan. Muqaddimada muallif asarni she'r nav'lari, qofiya ilmi, badiiy san'atlar

haqidagi ilm, aruz ilmi, muammo ilmi tarzida besh qismdan iborat qilib yaratilganligini aytadi [2.24].

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" qo'lyozmasi haqidagi dastlabki ma'lumot 1930-yili nemis sharqshunosi Xyerman Ete (1844-1917) tomonidan Oksfordda tuzilgan «Bodlian kutubxonasi saqlanayotgan fors, turkiy, hind va pushtu qo'lyozmalari katalogi»da keltirilgan. [3.col.1225, No. 2170] Xyerman Ete o'zining islom qo'lyozmalari katalogini tuzishda samarali mehnat qilgan va forsiy she'riyat namunalarini nemischaga o'girish bilan shuhrat ko'zongan olimdir. Xyerman Ete "Funun ul-balog'a" qo'lyozmasining qisqacha ta'rifi va uning mazmuni to'g'risida ma'lumot bergan. Devin De Uisning yozishicha, Xyerman Ete "Funun ul-balog'a"ni "she'riyat san'ati, qofiya va baytlar san'ati, nasr va she'riyatning barcha turlari haqidagi juda qiziqarli asar" deya baholaydi. Professor Devin DeUisga ko'ra, 2003-yili Oksfordda Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" qo'lyozmasi haqida Xyerman Etedan keyin Gyunay Kut «Bodlian kutubxonasi saqlanayotgan turkiy qo'lyozmalar katalogiga ilova»sida fikr bildirgan. Gyunay Kut o'z ilovasida Xyerman Etening "Funun ul-balog'a" asariga bergan ta'rifidan bo'lak boshqa biror yangilik kiritmagan [4].

2003-yilning sentyabr oyida Devin DeUis O'zbekistonga tashrifi chog'ida "Funun ul-balog'a"ning Toshkentda matbuotda e'lon qilingan kirilcha nashriga e'tiborini qaratadi. Uni Indiana universiteti uchun tayyorlangan mikrofilm kopiyasidan O'zbekiston FA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori professor Ergash Umarov Toshkentga keltirib, professor Abduqodir Hayitmetov tahriri ostida "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining qator sonlarida e'lon qilganligi ma'lum bo'ladi [5.70-86.77-90.75-91.78-91]. Maqola "Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy: Funun ul-balog'a" sarlavhasi ostida bosilgan. Maqolaning birinchi qismini A.Hayitmetov "Adabiyotdan turkiyda birinchi nazariy qo'llanma" deb nashrga tayyorlagan so'zboshisida "Funun ul-balog'a"ning ahamiyati, Shayx Ahmad Taroziy va Mir Husayn xattot haqida, asar mohiyati haqida so'z yuritgan [6].

Ammo ajablanarlisi, deydi Devin DeUis, A.Hayitmetov "Funun ul-balog'a"ning yagona qo'lyozmasi saqlanayotgan Bodlian kutubxonasi haqida hech qanday eslatma bermaydi; hatto, kutubxonadagi na saqlanish raqamiga, na katalog tavsifiga hech qanday ishora qilinmaganligi aniqlanadi. Afsuski, A.Hayitmetov nashri Taroziy asarining to'laqonli tanqidiy matni deb aytib bo'lmaydi. Shuningdek, Hayitmetov kirilchada berilgan matnning asl turkiy yozuvdagi orfografiyasini to'g'ri ochib

berolmagan. Matndagi unlilarning xato shaklda, jarangsiz tovushlarni jarangli qilib berilishi yoki buning aksi va shu kabi xato va kamchiliklar talaygina, deb ta'kidlaydi olim [7.78].

Taroziyning "Funun ul-balog'a" asaridan ellik yil keyin Alisher Navoiy o'zining aruz qonun-qoidalariga oid mashhur "Mezon ul-avzon" asarini yozganligi, asar "Funun ul-balog'a"ning to'rtinchi "fani"(bob)ga o'xshatib yozilganligini kuzatamiz, deydi DeUis. Afsuski, Navoiy Ahmad Taroziyning asari bilan tanish bo'lmaganligi uchun olim haqida "Mezon ul-avzon"da biror ma'lumot keltirmaydi, degan xulosaga keladi olim. Shuningdek, Navoiy turkiy tilning afzalligini isbotlash maqsadida yozgan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham "Funun ul-balog'a" haqida umuman so'z ochmaganligining guvohi bo'lamiz. Taroziy haqida Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida ham bir og'iz gap yo'q, deydi professor Devin DeUis.

Navoiydan o'ttiz yil o'tgach Zahiriddin Muhammad Bobur aruz qoidalari haqida o'zining mukammalroq "Muxtasar fil-aruz" asarini yozadi. Boburda esa Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan Lutfiy, Sakkokiy, Mavlono Haydar kabi turkigo'y shoirlar haqida ma'lumotlar uchraydi. Bobur "Muxtasar" asarining ikki joyida "Funun ul-balog'a"dan iqtiboslar keltirganini Devin DeUis aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Boshqa turkiygo'y adiblarning biror asarida "Funun al-balog'a" haqida biror ma'lumot yoki undan biror iqtibos ham keltirilmagan. DeUisga ko'ra, Shayx Ahmad Taroziy zamondoshlari yoki tarixnavislarining birontasida ham "Funun ul-balog'a" haqida hech qanday manbada uchramaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu asar jiddiy matnshunos va manbashunoslarni kutib qolmoqda. Professor Devin DeUisning izlanishlari natijasida Oksford universitetining Bodlian kutubxonasida yagona nusxasi saqlanayotgan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari XV asr O'rta Osiyo turkiy nasrining yorqin ko'rinishidagi boy manbasidir. "Funun ul-balog'a" turkiy adabiyot namunasi bo'lib, temuriylar davri madaniy hayotining muhim bo'lagi sifatida qadr-qimmatga ega o'zgacha mohiyat kasb etuvchi asardir. Matnning to'liq ilmiy nashri, leksikologiyasi, sintaksik xususiyatlari va nazmiy tarkibi o'rganib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" qo'lyozmasi fan ahli tomonidan sinchkovlik va jiddiy tahlillar yordamida tadqiq etilsa, adabiyotshunoslik sahifalarini yangicha ilmiy izlanishlar bilan boyitib borishga imkon tug'diradi, degan xulosalar bilan yakunlaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. DeWeese D. The Predecessors of Nava’i in the *Funun al-Balaghah* of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a Neglected Source on Central Asian Literary Culture from the Fifteenth Century // *Journal of Turkish Studies*. Vol. 29. Festschrift in Honor of Eleazar Birnbaum. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 2005. P. 73-163.
2. Д.Юсупова, *Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг киёсий тахлили*, Монография, Тошкент, 2019.
3. *Catalogue on the Persian, Turkish, Hindustani and Pushtu Manuscripts in the Bodleian Library, Part II: Turkish, Hindustani, Pushtu and Additional Persian Manuscripts*, ed. Hermann Ethe (Oxford: The Clarendon Press, 1930), col.1225, No. 2170.
4. Gunay Kut, *Supplementary Catalogue of Turkish Manuscripts in the Bodleian Library with reprint of the 1930 Catalogue by H.Ethe* (Oxford: Oxford University Press, 2003). The editor’s introduction does call attention to this manuscript (p.xviii) among “the most interesting items” from the Bodleian Library’s Turkic holdings, mentioning “a work in Chagatay Turkish on rhetoric and poetics, entitled *Funun u’l-belagat*, which is dedicated to Emir Ulugbeg Mirza (d.853/1449) (Ethe 2170).”
5. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 2002, №.1, 70-86 бб; 2002, №2 77-90; 2002, №3, 75-91; 2002, №4, 78-91 ва ҳоказо
6. Шайх Аҳмад Тарозий, Оксфорддаги Бодлиан кутубхонасидаги Elliott 127 жавонида, 139 варокдан иборат “Фунун ал-балоға” қўлёмаси, Бухорода Мир Хусайн Куланги томонидан 989/1581 йилда кучирилган нусха,
7. Devin DeWeese, The Predecessors of Nava’i in the *Funun Al-Balaghah* of Shaykh Ahmad B.Khudaydad Tarazi.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI

“NAVOIY ASARLARI LUG‘ATI”NING YANGI NASHRI HAQIDA

Sayfiddin RAFIDDINOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlarga batafsil to‘xtalangan. Taniqli matnshunos olimlar: Porso Shamsiyev va Sobirjon Ibrohimovlar tomonidan 1972-yilda tayyorlangan “Navoiy asarlari lug‘ati”ning afzalliklari sanab o‘tilgan. Shuningdek, so‘zlikda yo‘l qo‘yilgan xatolar ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola muallifi tomonidan ushbu lug‘atning qayta nashrga tayyorlash jarayonlarida bajarilgan ishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, matn, matnshunoslik, manbashunoslik, qo‘lyozma, toshbosma, nashr, birlamchi manba, devon.

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются словари произведений Алишера Навои. Перечислены достоинства «Словаря произведений Навои», составленного в 1972 году известными текстологами: Порсо Шамсиевым и Собиржоном Иброхимовым. Также указываются ошибки, допущенные в лексике. Освещена работа, проведенная автором статьи в процессе подготовки к переизданию этого словаря.

Ключевые слова: словарь, текст, текстология, источниковедение, рукопись, литография, публикация, первоисточник, диван.

Abstrakt

This article discusses in detail the dictionaries of the works of Alisher Navoi. The advantages of the "Dictionary of Navoi's Works", compiled in 1972 by famous textual critics: Porso Shamsiev and Sobirjon Ibrokhimov, are listed. It also points out the mistakes made in the vocabulary. The work carried out by the author of the article in the process of preparing for the reprint of this dictionary is highlighted.

Key words: dictionary, text, textual criticism, source study, manuscript, lithography, publication, primary source, divan.

Olimlarning ta'kidlashicha, Navoiy asarlari tili XVI asrdayoq o'rganila boshlangan va turli yo'nalishdagi lug'at kitoblari tuzilgan. Jumladan, Toli Imoniyning forscha «Badoye' al-lug'at»i, muallifi noma'lum, XVI asrda Turkiyada yaratilgan «Abushqa», Navoiyning «Chordevon»i asosidagi «Lug'ati Navoiy», «Lug'ati Amir Navoiy», «Xamsa bo halli lug'at», «Dar bayoni lug'ati Navoiy», «Halli lug'ati Xamsayi Navoiy», XVIII asrda Mirza Mahdixonning «Sanglox» asari, eng so'nggi lug'atlardan biri shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy» kitoblarini misol qilib keltirish mumkin[4:3; 5:7]. Shuningdek, Xivada yashab ijod etgan Muhammad Rizobek Xoksoning 2 qismdan iborat «Muntaxab ul-lug'ot» hamda «Zubd ul-lug'ot» asarini so'zboshi va izohlari bilan Mas'udxon Ismoilov va Humoyunxon Ismoilovlar nashrga tayyorlab, 2017-yil «Akademnashr»da chop ettirishdi.

Mazkur so'zliklardan ba'zilar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab olimlarining ilmiy tekshirishlariga asos bo'la boshladi. Buning natijasida H.Vamberi («Abushqa», Budapesht, 1862), V.V. Vilyaminov-Zernov («Abushqa», Sankt-Peterburg, 1868), Fazlullaxon («Chig'atoycha-forscha lug'at», Kalkutta, 1825), Shayx Sulaymon Buxoriy («Chig'atoycha-turkiy usmoniy lug'at» Istanbul, 1882), Ignas Kunash («Chig'atoycha-nemischa lug'at», Budapesht, 1942), Dj.Kloson («Sanglox», London, 1960), Karl Menges («Mirza Mexdixon», Mayns, 1956), A.K. Borovkov («Badaye' al-lugat», M.-L.,1961) kabilar mazkur yodgorliklarni nashrga hozirlab, chop ettirishgan[4:3].

Ta'kidlash kerakki, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, N.Mahmudov, M.Rahmatullayeva, X.Doniyorov, B.Bafoyev, I.Nosirov, Z.Hamidov, N.Husanov kabi qator tilshunoslar Navoiy asarlarining til xususiyatlarini turli yo'nalishlarda o'rganib, so'zlarning lug'aviy, nutqiy, lisoniy hatto badiiy xususiyatlarini imkon darajada ochib berishgan. Bu ishlar muayyan jihatdan shoir asarlari tilining izohli lug'atlarini tuzishda yordam bergan, desak xato qilmaymiz. Zotan, tilshunoslik va lug'atshunoslik bir-birini taqozo etuvchi ilm sohalaridir.

Hozirgacha yaratilgan bir jildlik «Navoiy asarlari lug'ati»[5], to'rt jildlik Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»[1] va besh jildga mo'ljallangan hozircha 2 jildi nashr bo'lgan «Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati»[2], E.Fozilovning uch jildlik «Navoiy asarlari lug'ati»ning birinchi jildi[4] mutaxassislar va shoir ijodining muxlislari uchun asosiy manbalardan bo'lib xizmat qilmoqda.

Taniqli olimlar Porso Shamsiyev va Sobirjon Ibrohimovlar tomonidan tayyorlangan va biz bahs yuritadigan «Navoiy asarlari

lug‘ati”ga Sobirjon Ibrohimov salmoqli so‘zboshi yozib, Navoiy asarlari va tilining jahonshumul ahamiyati, lug‘atning yozilish davri, yuzaga chiqish sabablari hamda o‘ziga xos xususiyatlari haqida obdon to‘xtalgan [5:5-19]. Darhaqiqat mazkur manbani ular katta mehnat va mashaqqat bilan 1972 yilda nashr qilishdi. So‘zlikning o‘ziga xos yutuq jihatlari borligi va qulayligi uchun ham hozirga qadar olimlar va mumtoz adabiyot muxlislari undan foydalanib kelishadi. Shu sababli ham lug‘atni qayta nashr qilishga qaror qildik. Nashrga tayralsha jarayonida ma’lum bo‘ldiki, kitobda sho‘rolar davrining mafkurasi, dahriyona siyosatning ta’sir izlari yaqqol ko‘zga tashlandi. Xususan, ba’zi diniy-tasavvufiy mazmundagi so‘z va jumlarlar tashlab ketilgan yoki atayin xato tarjima qilingan va yoxud ayrim so‘zlarga yanglish va g‘aliz izoh berilgan. Ba’zi keltirilgan misollarda esa jiddiy kamchiliklar ko‘zga tashlandi.

Ushbu lug‘aviy manbaning o‘tgan asrning 80-yillarida yaratilgani va texnik yozuv vositalarning ham bugungi kun darajasidagidek imkoniyatlarga ega emasligi inobatga olib ish tutildi va uni imkon darajasida mukammal chop etish ham davr talabi ekanini, qolaversa, kitobxonlarda paydo bo‘ladigan e’tirozlarni nazardan qochirmaslikka urindik. Ayni sabablarga ko‘ra lug‘atni qayta nashrga tayyorlash jarayonida bir qator lug‘at kitoblardan foydalangan holda[1., 6., 7., 3.], bugungi kun kitobxonining saviyasi va e’tiqodini hisobga olib, undagi ayrim o‘rinlarga juz’iy o‘zgartirishlar kiritdik. Jumladan:

1. Mualliflar so‘zlikda Qur’onda kelgan payg‘ambarlarni yoki diniy atamalarni **afsonaviy, mifga ko‘ra** degan sifatlashlar bilan tilga olishgan. Biz diniy e’tiqodimiz nuqtai nazaridan bunday sifatlashlar bilan kelgan izohlarni qayta ko‘rib chiqdik. Masalan, lug‘atning 122-betida **chohi Bobil** va **Horut va Morut farishtalari** haqida afsonaviy va afsonaga ko‘ra deb izoh berilgan. Vaholanki, Qur’oni karimda ularning zikri kelgan. Shu tafayli bu kabi qaydlarni kitobdan olib tashladik. Shuningdek, **Iso alayhissalom, Namrud, Somiriy, Nuh alayhissalom** kabi payg‘ambarlar va tarixiy shaxslar haqida Qur’onda yozilganini hisobga olib, ularga berilgan ta’rif va izohlarni qaytadan ko‘rib chiqdik va tahrir qildik. Qolgan o‘rinlarda **afsonaviy** sifatlashi bilan kelgan lafzlar o‘z o‘rnida qoldirildi.

2. «**Mozog‘**» va shu singari oyatlardan olingan ayrim iqtibos, hadislarda kelgan diniy atamalarga berilgan g‘alizroq ta’riflarni juz’iy tahrir qildik. Masalan: *mo arafnok* ما عرفناك so‘zi quyidagicha izoqlangan: *a. Seni keragicha bilmaganmiz (ibora)*. Biz bu o‘rinda shunday tahrir qildik: *Mo arafnok* ما عرفناك *a.* Bu ibora hadisdan olingan iqtibos bo‘lib, «*Seni keragicha bilolmadik, taniyolmadik...*» deganidir. Hadisning to‘liq

shakli shunday: “**Allohim, seni ma’rifating haqqi darajasida taniyolmadik, bilolmadik**”.

3. Qur’ondan olingan va lug‘aviy manbada kelgan “**irji’iy**”, “**laazidannakum**”, “**lo tusrifu**” kabi so‘zlarning Kalomi sharifdagi asl manbasini ko‘rsatib, havolada oyatning to‘liq ma’nosini berdik.

4. Ayrim diniy jumlar atayin buzib yoki xato tarjima qilingan. Masalan, «**Konallohu lam-yakun ma’ahu shay’**» iborasini mualliflar «Ollo bor-u, ammo yo‘qday degan ma’noda» deb o‘girishgan. Vaholanki, jumlaning so‘zma-so‘z tarjimasini «**Alloh bor edi, U bilan birga boshqa narsa yo‘q edi**», deganidir. Biz uni: «**Yolg‘iz Alloh bor edi, U bilan birga boshqa narsa yo‘q edi**» tarzida o‘girdik.

5. Lug‘at kitobida Navoiy asarlaridan keltirilgan va noto‘g‘ri o‘qilgan ayrim jumalarni to‘g‘rilab o‘qidik. Masalan, «Nasoyim ul-muhabbat»dan keltirilgan «...*ul Shayxi Raziddin **alolo** otasi bilan abnoyi amm ekandur*», jumlasidagi **alolo**, aslida, kishi ismi sifatida bosh harflar bilan ajratilib, **Raziyuddin Ali Lolo** deb o‘qilishi kerak.

6. Ba’zi izohlardagi **zapas, normal poroshok, shtraf, piyanista, xristian, moment, remont, plan, proyekt** kabi ruscha kalimalarni o‘zbekcha muqobiliga almashtirdik.

7. Lug‘aviy manbada davr taqozosi, siyosiy mafkura ta’sirida bo‘lsa kerak, qator so‘zlarning o‘zbekcha ma’nosidan so‘ng ruscha izohlari ham berilgan. Masalan, **qoramamaga** berilgan izohda (**rus. chernovik**), **Usturlob, suturlobga** berilgan izohda (**ruscha: astrolyabiya**), **za’faronga** berilgan izohda (**r. shafran**) kabi so‘zlar ilova qilingan. Ularni olib tashladik.

8. *Ta’na-tuvvaga, muvoxaza, mahri mo’jal, egilik, choqin, o’rgamchi* va boshqa lahjada yoki xato yozilgan so‘zlarni: *ta’na-tavbaga, muoxaza, mahri mo’ajjal, egulik, chaqin, o’rgimchak* deb imlo qoidalariga moslab yozdik.

9. Imlo xatosi ko‘rinib turgan **mutammakin, mustahik, muzzahab, mullama’, mullaxas, mutasavvuf, allachi** va boshqa ko‘plab so‘zlar: **mutamakkin, mustahiq, muzahhab, mulamma’, mulaxxas, muttavalli, yallachi** tarzida sahih variantini qo‘ydik.

10. Kichik harflarda yozilgan **tangri, xudo va olloh** lafzlarini bosh harflarga almashtirdik.

11. Lug‘atda bir qancha so‘zlarning diniy-tasavvufiy mazmuni inobatga olinib, qisqaroq izohlangan. Biz ana shunday o‘rinlarni zarur tafsilotlar bilan to‘ldirdik. Masalan **silsila**ga shunday ta’rif berilgan **SILSILA** سلسله. [ko‘pl. salosil سلاسل] 1. Zanjir; tizma; tartib.

Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”da mazkur soʻz 28 oʻrinda shayxlarning silsilasi sifatida tilga olinganini hisobga olib, knga “Tariqat shayxlarining ketma-ket keltirilgan nomlari”, degan 2-izohni kiritdik.

12. Lugʻaviy manbada **Iso, istixora, karomat, laduniy** singari diniy kalimalarga berilgan qoniqarsiz izohlarni tahrir qildik. Masalan: **KAROMAT** كرامت *a.* [koʻpl. Karomot كرامات] Goʻyo avliyo (Xudoga yaqin kishilar) tomonidan sodir boʻladi, deb hisoblangan xoriqul-odda **ish-harakat (moʻjiza)**, deb taʼriflangan. Jumladagi gʻalizlik yaqqol koʻzga tashlanadi hamda avliyolarga xos boʻlgan karomat tushunchasi paygʻambarlarga xos boʻlgan moʻjiza bilan aralashtirilib yuborilgan. Vaholanki, *karomot* avliyolarga, moʻjiza esa faqat paygʻambarlarga xos narsa. Biz yuqoridagi chalkashliklarni bartaraf etish uchun shunday tahrir qildik: **Karomat** كرامت *a.* [koʻpl. Karomot كرامات] Avliyo (Xudoga yaqin kishilar) tomonidan sodir boʻladigan favqulodda, gʻayritabiyy voqealar, holatlar, hodisalar.

Yoki *laduniy ulumga*: “Xudo tomonidan berilgan ilohiy ilmlar”, shaklida umumiylik mazmun kasb etadigan taʼrif berilgan. Bu toʻgʻridek tuyulsa-da, ammo kengroq izohni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, biz uni oʻquvchilarga shunday taqdim etdik: **Ustozga oʻqimasdan, mashaqqat chekmasdan, Xudo tomonidan beriladigan ilohiy ilmlar. Paygʻambarlarga keladigan vahiy, avliyolarga beriladigan ilhom va moʻminlarga beriladigan farosat laduniy ulum deyiladi[3:209].**

13. Ushbu manbada ayrim soʻzlarga aniqlik kiritish uchun zarur kalimani qavs ichida ilova qildik. Masalan, **Koʻfa Arabiston (Iroq)dagi bir shaharning nomi.**

14. Shuningdek, maʼno-mohiyatga aniqlik kiritish uchun muayyan soʻzning manbasi va unga muvofiq Navoiy ijodidan biror matnni misol qilib keltirdik. Kitobda: **ALASTU** الاست *a.* kalimasining “Men emasmi?” koʻrinishida yolgʻiz tarjimasini keltirilgan boʻlib, shu holda mavhumlik bor. Mazkur lafzning Navoiy asarlarida koʻch uchrashi va Qurʼondan olinganligini hisobga olib, izohga tubandagilarni ilova qildik: **Alastu birabbikum** – Ushbu iqtibos Qurʼoni karimning “Aʼrof” surasi, 172-oyatidan olingan boʻlib, “Men sizlarning Parvardigoringiz emasmanmi?”, degan maʼnoni bildiradi. Navoiyda: *Shayx Sadriddin Kunyaviy aning suhbatigʻa etar ekandur. Debdurki, ul dediki, mavosiq ettidur. Alastu birabbikum miysoqigʻa munhasir emas. Va muni oʻz piridinki, Hazrat Shayx Muhyiddin quddisa sirruhu boʻlgʻay, soʻrubdur. Shayx debdurki, ul kulliyotni debdur, juzʻiyot mundin dogʻi koʻprakdur.* (N. M.)

15. **Tole', misra', ta'yin, vido'** kabi birliklarni joriy imloga moslab ayirish belgisiz yozdik. Bir bo'g'inli **nav', naf', jam', man'**ga o'xshash so'zlarni esa Navoiy asarlari to'plamida ayirish belgisi bilan berilgani uchun o'z holida qoldirdik.

16. Lug'aviy manbaning ayrim o'rinlarida muayyan so'zning ikkinchi shaklini ham keltirib o'tishga to'g'ri keldi. Masalan **taammul** so'zi arabcha "alif" bilan yozilganda **fikr, mulohaza** va **andisha** kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu kalima halqum o'rtasidan chiqadigan "ayn" harfi bilan yozilganda, **sa'yu harakat, g'ayrat, intilish** mazmunini anglatadi. Navoiy ijodida uning ushbu shakli ham uchragani bois lug'atda aks ettirdik.

17. Lug'aviy manbada mulohaza qiladigan jihatlar ham bor. Masalan, arabcha deb berilgan **xotin** va **xoqon**larning ko'plik shakli **xavotin, xavoqin** kabi so'zlar asli turkiy so'zlar. Ular arablashgandan keyin arabcha yoki arablashgan so'z deb beriladimi? Yoki shu holicha yoziladimi, buni o'ylab ko'rish kerak.

18. **Ganji bodovar** va **ganji baqoga** kabi iboralarga berilgan izohlar takror bo'lgani uchun birini olib tashladik.

19. Lug'at kitobida keltirilgan ayrim baytlarni Navoiyning 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" hamda 10 jildlik "To'la asarlar to'plami"ga solishtirib, to'g'rilab yozdik. Xossatan, 47-betdagi:

Navoiy o'lmadi roviy hadisidin xushhol-

*Ki, bu **habibu anis** aytur, ul **habibu Anas**. (F. K.) -*

baytini quyidagicha isloh qildik:

Navoiy o'lmadi roviy hadisidin xushhol-

*Ki, bu **Habibu Anis** aytur, ul **Hubaybu Anas**. (F. K.)*

Yoki lug'aviy manbada kelgan 319-betdagi:

*Muhammad «kof»u «nun»g'a **nurrah** ul-ayn,*

Tufayli «kavn» o'lub, yo'q-yo'qki, «Kavnayn». (F. Sh.)

baytidagi "**nurrah**" so'zini "**qurrah**" tarzida to'g'rilab kiritdik.

Shuningdek:

Changining hay'atin sog'ingan dam

Egri qaddin fig'oni aylab kam. (S. S.) -

baytidagi "**kam**" so'zini "**xam**" deb to'g'riladik.

20. **Janoq, mushkil, jon** kabi so'zlarning lug'at kitobidan izohi tushib qolgani uchun ularni izoh bilan to'ldirdik.

21. Lug'aviy manbadan ayrim baytlarning bir satri tushib qolgani ma'lum bo'ldi. Masalan, **egri** so'ziga misol qilib keltirilgan: "**Bu ishdur turfakim, egriyu gar rost**", baytining ikkinchi satrini hamda **emgak**

soʻziga misol qilib keltirilgan *Nye ajab, sargʻarsa yuz, etkan soyi emgak manga*, misrasining avvalgi satrlarini oʻz oʻrnida tiklab, baytlarning toʻliq shaklini berdik. Shuningdek, lugʻat kitobida keltirilgan, **Emgaklarga chidasang oting be idrok** satri, aslida, Navoiy asarida *Emgaklarigʻa koʻp chidasang, oting beidrok*, koʻrinishda berilgan. Bunday misollarning ham toʻgʻri shakli tanlandi.

22. Ushbu manbaga ozchilikni tashkil etsa-da, zarur deb bilganimiz **eʻdom, eʻjoz, eʻrob, eʻroz, ehson, ehsos, ehtimom, ehtiroz, ehtisob, ehtishom** kabi soʻzlarni ilova qildik.

Shubhasiz, ushbu lugʻat kitobidan qadimgi qoʻlyozma kitoblarni oʻqiydigan mutaxassislar, Alisher Navoiy ijodi bilan qiziquvchilar va turli soha egalari istifoda etib kelishmoqda. Shularni eʻtiborga olib, mazkur lugʻatning yutuqlarini eʻtirof etgan holda unga jiddiy yondoshib, ayrim oʻzgartirishlar kiritgan boʻlsak, bugungi kun talabi va savodxonligini nazarda tutdik, xolos. Beayb Parvardigor! Qayta nashrga tayyorlashda oʻzimizdan oʻtib ketgan xatolar uchun ham kitobxonlarimizdan oldindan uzr soʻraymiz.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 4 jildlik. T.: “Fan”, 1983-1985.;
2. B.Yusuf. Alisher Navoiy asarlarining izohli lugʻati. 5 jildlik. 1-2-jildlar. T., 2019-2022.;
3. Muhammad Gʻiyosuddin. Gʻiyos ul-lugʻot. 3 jildlik. 2-j. Dushanbe, 1988.
4. E. Fozilov. Alisher Navoiy asarlari lugʻati. - T.: «Niso Poligraf», 2013.;
5. P. Shamsiyev, S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lugʻati. T.: “Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti”, 1972. 7-b.;
6. “Alisher Navoiy asarlari lugʻati” (Muntaxab ul-lugʻot. Zubd ul-lugʻot) Toshkent. “Akademnashr” 2017.;
7. “Farhangi zaboni tojiki”. Ikki jildlik. Moskva. “Sovetskaya ensiklopediya”, 1969.

ВКЛАД САДРИДДИНА АЙНИ В ПОДГОТОВКЕ И ИЗДАНИИ ПИСЕМ И ПЕРСИДСКО- ТАДЖИКСКОЙ ПОЭЗИИ МИР АЛИШЕРА НАВОИ

Халимджон ЗОИРОВ,
кандидат филологических наук, доцент,
заведующий кафедрой общеуниверситетского таджикского
языка Государственного образовательного учреждения
«Худжандского государственного университета имени
академика Бободжона Гафурова» (Таджикистан, Худжанд)

Аннотация

Садриддин Айни является одним из первых современных таджикских ученых, обративший внимание на изучение биографии, литературного наследия и подготовке сборников поэтических сочинений персидско-таджикских произведений Мир Алишера Навои. Автор статьи, изучив и сопоставив образцы стихотворений и писем, содержащихся в «Намунаи адабиёти тоҷик» («Образцы таджикской литературы») и в книге «Алишер Навои» Садриддина Айни, приходит к выводу, что заслуги С. Айни в редактировании, издании и текстологическом изучении персидско-таджикских произведений этого поэта заслуживает внимания и высокой оценки и должны быть учтены в последующих научно-критических изданиях персидско-таджикских произведений Алишера Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, Садриддин Айни, «Образцы таджикской литературы», «Персидский диван», письма, редактирование, текстология

Annotation

Ustod Sadriddin Aini is one of the first modern Tajik researchers directly affected by the study of biographies, literary heritage, as well as the development and publication of published Persian-Tajik works by Mir Alisher Navoi. The author of the article, after studying, researching, comparing and contrasting samples of poetry and letters in the “Samples of Tajik Literature” and the book “Alisher Navoi” by Sadriddin Aini, came to the conclusion that the merit of Ustod Aini in corrections, editions, Persian-Tajik works of Mir Alisher Navoi deserves recognition and appreciation, and in the future should be taken into account in the scientific and critical editions of the Persian-Tajik works of the poet.

Keywords: Alisher Navoi, Sadriddin Aini, "Samples of Tajik Literature", "Divane Forsi (the divan of Alisher Navoi)", letters, corrections, textual studies

Аннотатсия

Устод Садриддин Айнӣ яке аз аввалин муҳаққиқони муосири тоҷик аст, ки бевосита ба таҳқиқи зиндагинома, мероси адабӣ ва таҳияву нашри гузидаи осори форсӣ-тоҷикии Мир Алишер Навоӣ даст задаанд. Муаллифи мақола баъд аз омӯзиш, таҳқиқ, муқоиса ва муқобалаи намунаҳои ашъор ва мактуби мундариҷ дар "Намунаи адабиёти тоҷик" ва китоби "Алишер Навоӣ"-и устод Садриддин Айнӣ ба хулосае расидааст, ки хидмати устод Айнӣ дар тасҳеҳ, таҳияву нашр ва матншиносии осори форсӣ-тоҷикии Мир Алишер Навоӣ шоистаи шинохт ва кадр буда, минбаъд ҳангоми нашрҳои илмӣ-интиқодии осори форсӣ-тоҷикии суҳанвар бояд ба эътибор гирифта шаванд.

Калидвожаҳо: Алишер Навоӣ, Садриддин Айнӣ, "Намунаи адабиёти тоҷик", "Девони форсӣ", номаҳо, тасҳеҳ, матншиносӣ

Мир Алишер Навоӣ (1441- 1501) яке аз суҳанварони номвари адабиёти асри XV буда, аз худ осори пурбаҳое ба мерос гузоштааст. Агарчи аксари осори ӯ, ба монанди "Ҳамса", ҷаҳор девони ашъор, тазкираи "Маҷолис-ун-нафоис", "Муҳокимат-ул-луғатайн", "Ҳамсат-ул-мутаҳаййирин", "Маҳбуб-ул-қулуб", "Лисон-ут-тайр" (тарҷумаи "Мантиқ-ут-тайр"-и Шайх Аттор), "Насоим-ул-муҳаббат", "Муншаот", "Таърихи мулуки Аҷам", "Таърихи анбиё ва ҳукамо", "Назм-ул-ҷавоҳир", "Вақфия", "Арбаини манзум" ("Ҷиҳил ҳадис"), "Мизон-ул-авзон", "Ҳолоти Саид Ҳасани Ардашер", "Ҳолоти паҳлавон Муҳаммад Абӯсаид", "Муноҷотнома" ба забони туркӣ-ҷағатой навишта шудаанд, қисме аз осораш ба забони форсӣ-тоҷикӣ эҷод гардидаанд, ки маъруфтаринашон "Девони форсӣ" ва "Муфрадот" мебошанд. Афзун ба ин, аз Алишер Навоӣ чанд мактуб ба забони форсӣ-тоҷикӣ боқӣ мондааст, ки намунае аз онҳоро дар "Ҳамсат-ул-мутаҳаййирин"-и Навоӣ [15] ва тарҷумаҳои форсӣ [16] ва тоҷикии он [14], "Номаҳо ва муншаоти Ҷомӣ" [23], "Намунаи адабиёти тоҷик" [3, с.98-100; 2, с.80-81] "Макорим-ул-ахлоқ"-и Хондамир [21] ва манобеи дигар метавон пайдо кард. Агарчи осори манзум ва мансури форсӣ-тоҷикиаш нисбат ба туркӣ-ҷағатой камтар аст, аксари тазкиранигорон, аз ҷумла муаллифи "Тазкират-уш-шуаро"

[17], “Тухфаи Сомӣ”, “Ҳабиб-ус-сияр”, “Баҳористон” [22] ва донишмандону муҳаққиқони осораш мақоми ўро дар адабиёти форсу тоҷик беназир хондаанд. Чунончи, Давлатшоҳи Самарқандӣ дар овони ҷавонӣ зуллисонайн шудан ва дар шеваи туркӣ соҳибфан ва дар тариқи форсӣ соҳибфазл гардидани ўро васф намуда [17, с. 454-465], устод Садриддин Айнӣ ашъори форсӣ-тоҷикии ўро бо ашъори бисёре аз суҳанварони форсу тоҷик баробар, ҳатто аз баъзе фузунтар медонад [3, с. 100; 2, с. 82]. Устод Рукниддини Ҳумоюнфарруҳ дар хусуси шефтаю фирефтаи ғазалиёти дилангези Ҳоча Ҳофиз будани Алишер Навоӣ, бинобар дарки матолиби ирфонӣ бештар татаббуъ ва истиқбол карданаш аз сурудаҳои ин шоири лисонулғайб, ташбеҳоту истиорот, киноёту истилоҳоти хос ва мазомини баланди ўро дар ашъори форсии худ устодона ба қор бурдани Мир Алишер баҳс намуда, таъсирпазирии сурудаҳояшро аз ашъори Амир Хусрави Деҳлавӣ, Ҳасани Деҳлавӣ, Шайх Саъдӣ ва Мавлоно Ҷомӣ, ишқу алоқа ва содиқона хидмат карданашро ба адабиёти форсӣ таъкид кардааст [20, с. чор- чордах]. Агарчи Мир Алишери Фонӣ ҳам дар забони форсӣ ва ҳам туркӣ ашъори баландмазмун сурудааст, ба занни қавӣ ҳеч яке аз ҳамасронаш нагуфтаанд, ки аввалин сурудаи ў ба қадом забон буд. Яке аз муҳаққиқони аҳвол ва осори суҳанвар Алӣ Муҳаммад ба ин бовар аст, ки нахустин сурудаҳои Навоӣ ба забони форсӣ-тоҷикӣ будааст. Чунонки гӯяд: “Агар Фонӣ (Навоӣ) донишро ба забони форсӣ фаро гирифта ва хешовандони модараш аҳли Кобул буда ва вайро мустақиман аз осори адабии Рӯдакӣ, Фирдавсӣ, Саъдӣ, Ҳофиз, Низомӣ, Аттор, Ҷомӣ тағзия кардаанд, пас, бидуни шак, нахустин асари адабии ў ба забони форсӣ навишта шудааст” [18, с. 33]. Имкон дорад, ки шояд баъзе аз муҳаққиқони осори суҳанвар андешаи ғавқро напазиранд, вале онҳое, ки аз мазомин, сабқ ва шеваи баёни суҳанварони маъруфи форсу тоҷик хуб огоҳӣ доранд, баробари ошноии бевосита бо ашъор ва муншаоти туркии Мир Алишер дарк хоҳанд кард, ки наҳваи тафаккур ва баёни маонии форсӣ ба худ либоси ориятӣ аз алфози туркӣ пӯшидаанд.

Устод Садриддин Айнӣ яке аз аввалин муҳаққиқони муосири тоҷик аст, ки бевосита ба таҳқиқ ва нашри гузидаи осори форсии Мир Алишер Навоӣ даст задаанд. Бори нахуст ин суҳанвар ва донишманди беназир дар китоби пураарзиши “Намунаи адабиёти тоҷик” бо истифода аз нусхаҳои қуҳани “Тазкират-уш-шуаро”-и Давлатшоҳи Самарқандӣ, “Баҳористон”-и Мавлоно Абдурахмони Ҷомӣ, “Оташқада”-и Лутғалибеки Озар ва як маҷмуаи дастнавис намунае аз

ашъор (20 байт) ва як мактуби форсии Алишер Навоиро овардааст [3, с. 96-100]. Сипас, дар китоби “Алишер Навоӣ” [1] ба тафсил дар бораи рӯзгор ва мероси адабии ин суханвар ва вазири номдор баҳс намудааст.

Китоби “Алишер Навоӣ” аз даҳ боб, нӯздаҳ фасл, хотима, манбаъҳои истифодашуда, эзоҳот ва қайдҳои чудоғона иборат буда, то ба имрӯз аҳамияти илмӣ ва адабии худро аз даст наводааст. Андешаҳо ва хулосаҳои илмие, ки пиромуни замони зиндагӣ, таваллуд, хонадон, айёми бачагию ҷавонӣ, замони таҳсил, вафоти Мир Алишер [1, с. 5-88], ҳаёти адабӣ ва фаъолияти эҷодӣ [1, с. 88-126], жанри муаммо [1, с. 126-136], хидматҳои илмию адабӣ ва маданӣ [1, с. 136-153], дахлу харҷ [1, с. 153-157], ҳаёти хусусӣ [1, с. 157-168] ҳаҷв дар замони зиндагии суханвар [1, с. 168-174] баён намудааст, аксар бо тақя ба сарчашмаҳои дасти аввал ва мероси адабии суханвар изҳор шудаанд. Устод дар қисмати иловаҳои китоби мазкур намунаи ашъори форсӣ-тоҷикии Алишер Навоиро аз қасоид, ғазалиёт, мусаддас, соқинома, таркиббанд, муқаттаот, рубоиёт ва муаммоҳо ба ихтисор оварда [1, с. 181-242], сипас пиромуни мазмун, мавзуот, забони ашъори форсӣ-тоҷикии Мир Алишер [1, с. 242-250] баҳс кардааст.

Хидмати устод Айнӣ дар тасҳеҳ ва нашри осори Мир Алишер Навоӣ шоистаи шинохт ва қадр аст. Агарчи ҳангоми таҳияи “Намунаи адабиёти тоҷик” [3] аз нусхаҳои душворхону пурғалат ва маҷмуаи дастнавис истифода намуда ва дар таълифи китоби “Алишер Навоӣ” [1] аз нусхаҳои дастраси тазкираҳо, осори бевоситаи Алишер Навоӣ, маҷмуаҳо, баёзҳо, ёддоштҳо ва қайдҳои парешони муаллифони номаълум мадад ҷустааст, дониши беназири матншиносӣ ва суханварию адабиётшиносии ӯ боис шудааст, ки матнҳои нисбатан саҳеҳро ба ихтиёри хонандагон ва муҳаққиқони тоҷик гузорад. Бешак, баёни он ҳама хидмати беназири устод Айнӣ дар шинохти арзиши адабӣ ва тасҳеҳу нашри намунаҳои осори манзум ва мансури Алишер Навоӣ баҳси дароз меҳодад ва дар маҳдудай як навишта намеғунҷад. Аз ин рӯ, ба таври ихтисор ба баёни намунае аз он ҳама иктифо менамоем.

Дар китоби “Намунаи адабиёти тоҷик” 13 байт [3, с. 96-97] ва дар китоби “Алишер Навоӣ”-и устод Айнӣ 23 байт [1, с. 185-186] аз қасидаи “Тухфат-ул-афкор”-и Навоӣ омадааст. Ин қасида, ки дар ҷавоби “Дарёи аброр”-и Амир Хусрав ва “Луччат-ул-асрор”-и Абдурраҳмони Ҷомӣ эҷод шуда, ба Мавлоно Ҷомӣ бахшида шудааст,

дар нашри “Девони форсӣ” 99 байт [19, с. 248- 255], “Девони Фоний” 99 байт [12, с. 204-210], “Девон”-и Амир Низомуддин Алишер Навоӣ 72 байт [20, чихилу ҳашт-панҷоҳу ду] мебошад. Аз муқоиса ва муқобалаи нашрҳои мазкур равшан мешавад, ки ҷойи абёт дар ҳамаи нашрҳо баробар набуда, ихтилоф ва хатохониҳо ҷой доранд. Аз ҷумла, дар нашри Алиӣ Муҳаммадӣ, ки нисбат ба нашрҳои мазкур комил аст, байте ба гунаи зайл омадааст:

Меҳнати ифлоси муфрит дар гаронӣ Қоф дон,

Қоф **чун шуд** фоқа беҳад гашт в-ин **мустанкар** аст [19, байти 56, с. 252].

Зоҳиран таҳиягарони нашри Тошканд ҳангоми нашри қасидаи мазкур ба нашри Алиӣ Муҳаммадӣ тақя намуда, аммо ҳини чоп мисраи дувумро пурғалат (Қоф **чуи** шуд фоқа **бсҳад** гашт в-ин **мустанкар** аст) овардаанд [12, байти 56, с. 208], ки дар нашрҳои минбаъда бояд ислоҳ гардад. Дар нашри Рукниддини Ҳумоюнфаррух мисраи дувуми байти мавриди баҳс ба гунаи “Қоф **шуд чун** фоқа беҳад гашт в-ин **мустанбир** аст” забт шудааст [20, с. панҷоҳу ду]. Аммо устод Садриддин Айнӣ дар китоби “Намунаи адабиёти тоҷик”, ки нисбат ба нашрҳои мазкур қадимтар аст, байти мавриди баҳсро чунин оварда:

Меҳнати ифлоси муфрит дар гаронӣ Қоф дон,

“Қоф” **шуд, чун** “фоқа” беҳад гашт в-ин **мушкилтар** аст [3, байти 9, с. 97].

Дар китоби “Алишер Навоӣ”-и устод Айнӣ низ мисраи сонии байти мавриди баҳс ба сурати фавқ (“Қоф” **шуд чун** “фоқа” **бе ҳад** гашт в-ин **мушкилтар** аст) омадааст [1, байти 15, с. 186].

Мисраи аввали байти мавриди баҳс дар ҳамаи нашрҳо саҳеҳ ва айни яқдигаранд, аммо мисраи дувум дар ҳамаи нашрҳо аз ҳам фарқ мекунад. Чунончи, дар баъзе “Қоф чун шуд” ва “Қоф шуд чун”, “беҳад” ва “бе ҳад”, “мустанкар”, “мустанбир” ва “мушкилтар” забт шудааст. “Мустанкар” дар луғат маънии баъид, ношинохта, мункир, ношинос, бад ва зишт, нописандидаро дорад, “мустанбир” маънии истисморгар, он ки аз роҳи истисмори дигарон нируманд шудааст, гарданкаш, мутақаббир, мағрурро дорад. “Мушкил” ба маънии душвор, сахт, саъб бошад. Зоҳиран байте, ки дар “Намунаи адабиёти тоҷик” ва китоби “Алишер Навоӣ”-и С.Айнӣ омадааст, нисбатан саҳеҳ аст. Устод Айнӣ матлаби суханварро хуб дарк намуда, дар қисмати тавзеҳот аз муаммои нухуфтаи байти мавриди баҳс иттилоъ додааст, ки зоҳиран таҳиягарони дигар аз он беҳабар будаанд.

Чунончи гуфтааст: “Шоир дар ин байт дар гаронӣ баробари кӯхи Қоф будани қашшоқии беҳадро бо роҳи муаммо исбот кардааст: ҳар гоҳ қашшоқӣ – “фоқа” беҳад шавад, яъне ҳадди охирин ӯ набошад, “фок” мемонад ва агар ин сухан баргардад – чаппа шавад, чунонки калимаи “гашт” ба ин амал ишорат мекунад, “Қоф” мешавад” [1, с. 260].

Дар наشري Рукниддини Ҳумоюнфаррух ва Алии Муҳаммадӣ матлаи ғазале ба тариқи зайл омадааст:

Ваҳ, ки дар вақти гулам з-он гули рухсор чудо,

Гул чудо оташи ман **низ** кунад, хор чудо [20, с. 15; 19, с. 41].

Зоҳиран дар мисраи дувуми байти мазкур хатохоние рух дода ва ё котибони нусах чунин китобат кардаанд. Таъбири “оташи ман низ кунад” чандон маъно надорад. Ба занни қавӣ шакли саҳеҳи мисраи мавриди баҳс дар наشري устод Айнӣ омадааст, ки ба тариқи зайл аст:

Гул чудо оташи ман **тез** кунад, хор чудо [1, с. 192].

Шоир дар мисраи мазкур мегӯяд, ки “гул чудо оташи ишқи ман тез кунад ва хор чудо” ва мурод аз “оташ” – ишқи сӯзон, ғаму дарди ишқ ва “оташ тез кардан” сӯзу гудоз ва шавқу ҳаваси ишқ зиёд кардан аст.

Байти чоруми ғазали мазкур дар наشري Р.Ҳумоюнфаррух ва А.Муҳаммадӣ чунин омадааст:

Он парипайкар аз ин хаста чудой **талабад**

Ҳамчу **чон, к-ӯ** шавад аз **пайкари** бемор чудо [20, с.15; 19, с.41].

Дар наشري устод Айнӣ байти мазкур ба гунаи зайл омадааст, ки нисбатан содаву равон буда, аз мавҷудияти ихтилофи зиёд дар нусаҳои мавҷудаи ашъори форсии Мир Алишер хабар медиҳад:

Он парипайкар аз ин хаста чудой **талабид**

Ҳамчу **чоне, ки** шавад аз тани бемор чудо [1, с. 192].

Ғазали мазкур дар нашрҳои Р.Ҳумоюнфаррух ва А.Муҳаммадӣ ҳафт байт буда, дар наشري устод Айнӣ ҳамагӣ панҷ байт омадааст ва зоҳиран устод Айнӣ ба сабаби душворхон ва пурғалат будани нусаҳои байтҳои дувум ва шашуми онро ҳазф намудааст.

Дар наشري А.Муҳаммадӣ ғазале бо матлаи зер қой дорад:

Эй хоки сари кӯи ту гаштан ҳаваси мо,

Бар пойи сагат бӯса задан мултамаси мо [19, с. 21].

Байти мазкур дар наشري Р.Ҳумоюнфаррух ва “Девони Фоний” айнан омада [20, с.1; 10, с. 4], аммо дар наشري С.Айнӣ ба гунаи дигар

(Гардид сари кӯи ту гаштан ҳаваси мо) забт шудааст, ки аз лиҳози вазн ва шеваи баён саҳеҳ нест [1, с. 194].

Байти панҷуми ғазали мазкур дар нашри А.Муҳаммадӣ чунин омада:

Бечорагии мо ҳаваси чорагарон шуд,
То ту шудӣ аз лутфу карам чорагари мо [19, с. 21].

Сатри дувуми байти мазкур холӣ аз хато нест ва қофия маюб аст. Зеро дар байтҳои дигари ғазали мавриди баҳс вожаҳои “ҳавас”, “мултамас”, “нафас”, “чарас”, “хас”, “кас” ва “магас” ҳамқофия буда, дар байти мазкур ба ҷойи “чорарас” ба иштибоҳ “чорагар” забт шудааст. Шакли саҳеҳи мисраи мавриди баҳсро метавон аз нашри устод Айнӣ, Р.Ҳумоюнфаррух ва “Куллиёт”-и суханвар пайдо кард, ки чунин аст: То ту шудӣ аз лутфу карам чорараси мо [1, с. 194; 20, с.1; 10, с. 4].

Лозим ба зикр аст, ки дар ҳеч як аз нашрҳои девони форсии Мир Алишер Навоӣ тартиби ғазалиёт пурра аз рӯи ҳуруфи таҳачҷӣ нест ва дар ҳеч кадоми онҳо феҳристи ашъори суханвар оварда нашудааст [р.к.: 10; 11; 12; 19; 20]. Ҳангоми муқоиса ва муқобила равшан гашт, ки дар яке аз онҳо ғазалҳои ҷойдоранд, ки дигарӣ онро надорад ва ё ҷои абёт ё миқдори байтҳо аз ҳамдигар фарқ мекунад. Чунончи, дар нашри Р.Ҳумоюнфаррух ғазале ба сабаби афтодагии сафҳа бидуни матлаъ омада ва бо байти “Маро зи хона барорад ҳавои майхона, Чу нест май натавон ёфтан ба хона маро” [20, с. 11] оғоз шудааст. Ин ғазалро дар нашри А.Муҳаммадӣ пайдо накардем [19]. Матни нисбатан комили ғазали мазкур дар “Девони Фоний” омадааст [10], ки ҳафт байтро ташкил мекунад ва матлаи он ба таври зер аст:

Ба дайр буд ҳавои май муғона маро,
Валек буд хумори саҳар баҳона маро [10, с. 43].

Аммо бо вучуди комил будани матни ғазал нашри мазкур холӣ аз хатои матншиносӣ нест. Чунончи, дар байти шашум ба ҷойи “раҳонам” вожаи “раҳондӣ” ва ивази “маيي шабона” иштибоҳан “май шабона” омада [10, с. 43], вазни ғазалро ҳалалдор кардааст. Шакли саҳеҳи байт дар нашри Р.Ҳумоюнфаррух чунин омадааст:

Ба як-ду ҷоми сабӯҳӣ раҳонам, эй соқӣ,
Хароб дошт хумори майи шабона маро [20, с. 11].

Афзун ба ин, ҳангоми муқоиса ва муқобилаи нашри устод Айнӣ бо нашри А.Муҳаммадӣ маълум гашт, ки бо вучуди мухтасар будан чанд ғазале, ки дар нашри устод Айнӣ омадаанд, дар нашри А.Муҳаммадӣ ба назар намерасанд ва шоҳиди ин сухан ғазалҳои “Ба

мизони камон санчанд мардум зӯри бозуро” [1, с. 187], “Мақтаби маънист доми дил зи нодонӣ маро” [1, с. 187], “Соқӣ чу май диҳию кунӣ беҳабар маро” [1, с. 193], “Рафтама ба ҳавои гули рӯят ба чаманҳо” [1, с. 194], “Аз ту дил ғамгину ман ношод аз дасти рақиб” [1, с. 195], “Зи тоби лоларухе дил дар оташу хун аст” [1, с. 195-196], “Эй бодапарастон, раҳи майхона кадом аст?” [1, с. 196], “Дар фироқи ёр мактубе агар хоҳам навишт” [1, с. 197], “Ҳамчун руҳи зебои ту зебои дигар нест” [1, с. 197-198], “Номае аз хуни дил бо ёр мебояд навишт” [1, с. 198] ва ғ. мебошанд.

Чунонки, зикраш гузашт, устод Садриддин Айнӣ дар “Намунаи адабиёти тоҷик” ҷиҳати ошно намудани хонандагон бо сабк ва шеваи навиштори номаҳои форсии Алишер Навоӣ “Мақтуби Амир Алишер Навоӣ ба Хоҷа Фазли Девон ва Хоҷа Убайдуллоҳи Марворид”- ро аз як маҷмуаи дастнавис ба таври пурра овардааст [3, 98-100]. Мақтуби мазкур аҳамияти зиёди адабиро молик буда, дар алоҳидагӣ насихатномае ба аҳли ҷоҳу раёсат аст. Алишер Навоӣ дар муқаддимаи мақтуб, баъд аз арзи салом чанд сухани ҳақимона дар бораи муҳаббат ба ҷоҳу раёсат набастан ва фирефтаи хостаҳои нафсонӣ нагаштан, мунтақиму ғаддор будани фалаки қачрафтор ва адлшиор будани ҳоқимони мулк баён медорад, ки барои ҳар як аз аҳли ҷоҳу мансаб панди беғараз ва омӯхтанӣ аст. Аз ҷумла мегӯяд: “Бародарони арҷманд ва фарзандони дилбандро баъд аз саломи муштоқона эълон он, ки башар ба ҳубби ҷоҳу раёсат маҷбул аст ва нафс беихтиёру шуур ба касби он матлуб машғул. Хосияти ҷоҳ ғафлатафзоӣ аст ва илтифоти подшоҳ бодаи ҳушрабой. Халоиқро бо чунин кас кор бисёр ва чунин касро баҳуш будан бисёр душвор. Агар гоҳе ба мадади ақл худро ба ҳол орад, аммо мастии он бода ба ҳолаш нагузорад. Ва дар он мастиҳо кучо ба хотираш ояд, ки фалак мунтақиму ғаддор аст ва холиқи мулк ҳоқими адлшиор. Иқтидори ҷоҳашро бақое нест ва аҳдашро вафое не. Дӯстон аз фазоеҳи он шарманда, душманон аз қабоеҳи он дар ханда. Ошноён аз он ноҳушиҳо мутааҷҷибу мутаассир ва беганагон аз он девонавашиҳо сарафкандаву мутаҳаййир” [3, с. 98-99]. Баъд аз ин Мир Алишер панд медиҳад, ки оқилон ҳангоми ҷоҳу раёсат доштан фирефтаи нафс, беҳуду масти мансаб ва худҷоҳу худпараст нагардида, бояд дасти мазлуму дармондагонро бигиранд. Нигорандаи мақтуб бо он ҳама адлу дод, раҳмату шафқат ва ободгарихое, ки дар замони вазирии хеш намуда буд, худро “нодони бесомон” меҳонад ва аз он даврон ба афсӯс ёд мекунад ва мегӯяд: “Пас, нафси салим ва ақли

мустақим бояд ки худро дар он мастихо бехуд насозад ва ба худроиву худпарастӣ наандозад ва ба ҳоли дармондағони мазлум бипардозад. Ин нодони бесомонро ҳамаи ин ҳолат ба сар гузашта ва аз ҳеч як баҳраманду огоҳ нагашта. Ин дам, ки бар тақсироти худ огоҳ гардида, чӣ фоида, ки фалак он ҳамаро дарнавардида, на аз он надомат кашидан фоида ва на аз ин ашки ҳасрат пошидан натиҷа “То тавонистам, надонистам чӣ буд? Чун бидонистам, натонистам, чӣ суд?” [3, с. 99]. Дар рукни аслии мактуб мухотабон, яъне шогирдони худро, ки соҳиби ҷоҳ ва мансаби баланд гардида буданд, панд ва дастур медиҳад, ки то қадри тавон вақти худ зоеъ накунанд, зердастонро навозишу дилҷӯӣ намоянд, дасти бечораву дарвешонро бигиранд, дар ҳама кор ихлосу ростиро пеша кунанд ва аз муқофоти амал ва шармсории рӯзи ҷазо битарсанд ва фармудаҳои Худоро фаромӯш насозанд [1, с. 99-100]. Аз ҷумла, мефармояд: “вақти худро бар ғуруру ғафлат раво надоранд ва ба хусрони дунёву охират нагузоранд, аҷзаву зердастонро ба шафқату дилҷӯӣ бинавозанд ва кори дармондагон ба марҳамату нармгӯӣ бисозанд, ба сухани дурушт дили дарвешони дилрешро нахарошанд ва ба алфози мулоим марҳами ҷароҳоти дарвеш бошанд ва дар ҳама кор ихлосу ростиро пеша кунанд ва дар ҷазои амал аз шармсории рӯзи қиёмат андеша намоянд ва ҳеч гоҳ аз тарси Ҳақ ғофил набошанд...” [3, с. 99-100].

Дар хусуси аҳамияти адабии номаҳои форсии Мир Алишер Навоӣ ба Мавлоно Ҷомӣ, ки қисме аз онҳо дар “Ҳамсат-ул-мутаҳаййирин”-и Навоӣ ва “Номаҳо ва муншаоти Ҷомӣ” омадаанд, мо ҷойи дигар баҳс намудаем [7; 8; 9]. Номаи мазкур, ки ба унвонии Ҳоҷа Фазли Девон ва Ҳоҷа Убайдуллоҳи Марворид - шогирдони Алишер Навоӣ навишта шудаанд, дар “Ҳамсат-ул-мутаҳаййирин”-и Навоӣ ва “Номаҳо ва муншаоти Ҷомӣ” ба назар намерасанд. Р.Ҳумоюнфаррух онро дар муқаддимаи “Девон”-и Амир Низомуддин ба нақл аз “Намунаи адабиёти тоҷик”-и С.Айнӣ оварда [20, ҷиҳилу шаш-ҷиҳилу ҳафт] ва Мубашшири Акбарзод дар нашри нави “Намунаи адабиёти тоҷик” онро аз хатти форсӣ ба кириллӣ баргардон намудааст [2, с. 80-81]. Ҳангоми муқоисаи нашрҳои мазкур [20, ҷиҳилу шаш-ҷиҳилу ҳафт; 2, с. 80-81] бо “Намунаи адабиёти тоҷик”-и устод Айнӣ [3, с. 99-100] равшан гашт, ки ҳангоми бознашр ва баргардон намудан чанд хатои матншиносӣ рух додааст. Чунончи, дар нашри Мубашшири Акбарзод ба ҷойи “фарзандони дилбанд” [3, с. 98] “фарзандони дилбар” [2, с. 80], ивази “фазоҳ” [3, с. 99] “фазойих” [2, с. 81], ба ҷои “раво надоранд” [3, с. 99] “раво

надонанд” [2, с. 99], ивази “ба алфози мулоим марҳами чароҳоти дарвеш бошанд” [3, с. 99] “ба алфози мулоим марҳами чароҳоти дарвеш дилреш (?) бошанд” [2, с. 81], ба ҷойи “амри Илоҳӣ” [3, с. 99] ба иштибоҳ “амри имлоҳӣ” [2, с. 81] забт шудааст.

Устод Айнӣ дар китоби “Алишер Навоӣ” як номаи Мавлоно Ҷомиро, ки ба унвони Алишер Навоӣ навишта шудааст, аз “Макорим-ул-ахлоқ” ба ихтисор нақл кардааст [1, с.125]. Номаи мазкур пиромуни арзиши рисолаи “Муфрадот” - и Алишер Навоӣ ва баъд аз як соли ирсоли муаллиф ба дасти Мавлоно Ҷомӣ расидани он баҳс мекунад. Дар “Хамсат-ул-мутаҳаййирин”-и Навоӣ [14; 15; 16] ва “Номаҳо ва муншаот”- и Ҷомӣ [23], ки шомили чанд номаи форсии Мавлоно Ҷомӣ ба Алишер Навоӣ мебошанд, мо онро пайдо накардем. Асли ин нома дар “Макорим-ул-ахлоқ”-и Хондамир аст [21, с.74]. Ҳангоми муқоиса ва муқобилаи нашри С. Айнӣ бо “Макорим-ул-ахлоқ” равшан гашт, ки устод Айнӣ қисмати муқаддима ва аслии мактуби мазкурро нақл намуда [1, с. 125], аз нақли рукни хотимаи мактуб, ки дуои муҳотаб аст [21, с.74], худдорӣ кардааст. Аз ихтилофи нашрҳои номаи мавриди баҳс маълум мешавад, ки нусхаи истифоданамудаи устод Айнӣ аз нусхаҳои, ки таҳиягари “Макорим-ул-ахлоқ” ба қор бурдааст, фарқ мекунад. Хидмати устод Айнӣ дар он аст, ки дар таърихи адабиёти муосири тоҷик яке аз аввалинҳо шуда номаи мазкури Мавлоно Ҷомиро аз китоби “Макорим-ул-ахлоқ” нақл мекунад ва аҳамияти онро дар шинохти рисолаи “Муфрадот” - и Навоӣ таъкид месозад [1, с. 125]. Аз ин баҳс равшан мегардад, ки теъдоди номаҳои Мавлоно Ҷомӣ ба Алишер Навоӣ бештар аз он аст, ки дар “Номаҳо ва муншаот”- и Ҷомӣ ва “Хамсат-ул-мутаҳаййирин”- и Навоӣ омадаанд.

Аз гуфтаҳои фавқ метавон ба ин натиҷа расид, ки то ҳол нашри комил ва илмию интиқодии девони форсии Алишер Навоӣ ба нашр нарасидааст. Девонҳои, ки дар Тоҷикистону Ўзбекистон ва Эрон ба нашр расидаанд, ҳолӣ аз хатои матншиносӣ нестанд ва ниёз ба тасҳеҳу таҳрир доранд. Афзун ба ин, ҳамаи ин нашрҳо мунтахаби ашъори форсӣ - тоҷикии суханвар буда, ғазалҳои дар як девон ҷой доранд, ки дигарӣ онҳоро надорад ва баръакс. Хуб мешуд, дар нашрҳои минбаъда таҳиягарони девони форсии суханвар намунаҳои, ки дар “Намунаи адабиёти тоҷик” ва китоби “Алишер Навоӣ”-и устод Садриддин Айнӣ омадаанд, ба эътибор бигиранд. Зеро намунаи ашъор ва мактубе, ки дар китобҳои устод Айнӣ омадаанд, на танҳо дар тасҳеҳу таҳрири матни ашъор, балки дар

такмилаи мактубот ва девони форсии Мир Алишер Навоӣ низ метавонанд хизмат кунанд.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. Айни, Садриддин. Алишер Навоӣ. – Сталинобод: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1948. – 268 с.
2. Айни, Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик. Аз хатти форсӣ таҳия ва тасҳеҳи Мубашшир Акбарзод. – Душанбе: Адиб, 2010. – 448с.
3. Айни, Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик. – Маскав: Чопхонаи нашриёти марказии халқи Иттиҳоди Ҷамоҳири Шӯравии Сусиёлистӣ, 1926. –VIII + 626 с.
4. Бертелс, Евгений Эдуардович. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – 499 с.
5. Деххудо, Алиакбар. Фарҳанги мутавассити Деххудо. Ба кӯшиши Ғуломризо Ситуда, Эраҷ Меҳрақӣ, Акрам Султонӣ. Зери назари Саид Ҷаъфар Шаҳидӣ. –Техрон: Муассисаи интишорот ва чопи Донишгоҳи Техрон, 1385. Ҷилди аввал. – 1615 с.
6. Деххудо, Алиакбар. Фарҳанги мутавассити Деххудо. Ба кӯшиши Ғуломризо Ситуда, Эраҷ Меҳрақӣ, Акрам Султонӣ. Зери назари Саид Ҷаъфар Шаҳидӣ. –Техрон: Муассисаи интишорот ва чопи Донишгоҳи Техрон, 1385. Ҷилди дувум. – С. 1616- 3224
7. Зоиров Ҳ. Аҳамияти номаҳои Мавлоно Ҷомӣ//Маводи ҳамоиши байналмилалӣ «Ҷойгоҳи Мавлоно Абдурахмони Ҷомӣ дар муколамаи фарҳангҳо» (Хучанд, 3-4 ноябри соли 2014). –Хучанд, 2014. – С. 124-132;
8. Зоиров Ҳ. Баҳсе дар тасҳеҳ ва матншиносии номаҳои Алишер Навоӣ ва Мавлоно Ҷомӣ// *Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari №67 (Xalqaro konferensiya materiallari) (2022-yil 8-fevral)*. – Тошкент: Adast poligraf, 2022. -В. 342-350
9. Зоиров Ҳ. Хидмати номаҳо дар шинохти осори аслии суханвар // *Паёми донишгоҳи омӯзгорӣ, №1(78)*. –Душанбе, 2019. – С. 122-126
8. Мирзоев, Абдулғанӣ. Алишер Навоӣ ва Абдурахмони Ҷомӣ (ба ҳуруфи кириллӣ ва арабиасос). –Душанбе: Ирфон, 1968. – 64 с.
9. Муъин, Муҳаммад. Фарҳанги форсии якҷилдӣ. –Техрон: Нашри Суроиш, 1383. – сию ҳашт + 1242 с.
10. Навоӣ, Алишер. Девони Фонӣ. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ун саккизинчи том. –Тошкент: Фан, 2002. – 304 с.

11. Навоий, Алишер. Девони Фоний (давоми). Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ун тўққизинчи том. –Тошкент: Фан, 2002. – 330 с.
12. Навоий, Алишер. Девони Фоний (давоми), қасидалар, муфрадот, иловалар. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Йигирманчи том. –Тошкент: Фан, 2003. – 506 с.
13. Навоий, Алишер. Муншаот. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ун тўртинчи том. –Тошкент: Фан, 1998. –С. 136-235
14. Навой, Алишер. Хамсат-ул-мутаҳайирин. Интихоб ва тарҷумаи Абдуқодир Маниёзов. – Сталинобод: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1961. – 84 с.
15. Навоий, Алишер. Хамсат ул-мутаҳаййирин. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ун бешинчи том. –Тошкент: Фан, 1999. – С. 2-109
16. Навой, Амир Алишер. Хамсат-ул-мутаҳаййирин. Тарҷума аз туркии чағатойӣ Муҳаммад Наҳҷувонӣ. Ба кўшиши Маҳдӣ Фарҳонии Мунфарид/Номаи фарҳангистон, замимаи шумораи 12. – Техрон: Фарҳангистони забон ва адаби форсӣ, хурдод, 1381. – 62 с.
17. Самарқандӣ, Давлатшоҳ. Тазкирату-ш-шуаро. Таҳияи Мухлиса Нуруллоева. –Хучанд: Ношир, 2015. – 544 с.
18. Саъдуллоҳзода, Замир. Осори адабии халқшуда аз Алишер Навой ба забони форсӣ//Сухани ишқ. Тобистони 1385, шумораи 30. – С. 31-37
19. Фонӣ, Амир Алишер. Девони форсӣ (Мунтахаб). Мураттиб ва муаллифи сарсухан Алии Муҳаммадӣ. – Душанбе: Ирфон, 1993. – 320 с.
20. Фонӣ, Амир Низомуддин Алишер Навой. Девон. Ба саъй ва эҳтимоми Рукнуддини Ҳумоюнфаррух. – Техрон: Ибни Сино, 1342. – панҷоҳу панҷ + 234с.
21. Хондамир, Ғиёсуддин ибни Ҳумомуддин. Макорим-ул-ахлоқ: шарҳи ҳоли Амир Алишер Навой. Муқаддима, тасҳеҳ ва таҳқиқи Муҳаммад Акбари Ашиқ. – Техрон: Маркази нашри мероси мактуб, 1378. – 295 с.
22. Қомӣ, Мавлоно Абдурахмон. Баҳористон. Ба тасҳеҳи дуктур Исмоил Ҳокимӣ. – Техрон: Интишороти Иттилоот, 1371. – 180 с.
23. Қомӣ, Нуриддин Абдуррахмон ибни Аҳмад. Номаҳо ва муншаоти Қомӣ. Муқаддима ва тасҳеҳи Асомуддин Ўрунбоев ва Асрор Раҳмонов. – Техрон: Мероси мактуб, 1378. – 353с.

Y.E.BERTELS VA MATNSHUNOSLIKNING AYRIM MUAMMOLARI

**Abdurasul ESHONBOBOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Davlat
adabiyot muzeyi ilmiy xodimi**

Annotatsiya

Taniqli sharqshunos, XX asrning fors-tojik adabiyoti tarixi bo'yicha yirik mutaxassisi Y.E.Bertels yangi davr Sharq matnshunoslik ilmining rivojiga, uning nazariy asoslarini shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biridir. Aynan shu sababli allomaning ilmiy merosiga teran nazar tashlash, u amalga oshirgan ishlarga qayta-qayta murojaat etish, matnshunoslik oldida turgan dolzarb muammolar yechimida har tarafdan yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Kalit soʻzlar: nusxa, matnshunoslik, tadqiqot, tagxat, nashr.

Аннотация

Е.Э. Бертельс, известный востоковед, крупный специалист по истории персидско-таджикской литературы XX века, принадлежит к числу ученых, внесших большой вклад в развитие новой эпохи восточной текстологии и формирование его теоретических основ. Именно поэтому мы считаем, что глубокое ознакомление с научным наследием ученого, неоднократное обращение к проделанной им работе поможет в решении актуальных проблем, стоящих перед текстологией со всех сторон.

Ключевые слова: копия, текстология, исследование, сноска, издание.

Abstrakt

Y.E. Bertels, a well-known orientalist, a great specialist in the history of Persian-Tajik literature of the 20th century, is one of the scientists who made a great contribution to the development of the new era of Oriental textual science and the formation of its theoretical foundations. It is for this reason that we believe that taking a deep look at the scholar's scientific heritage, repeatedly referring to the work he has done, will help in solving the current problems facing textual studies from all sides.

Key words: copy, textology, research, footnote, publication

Olimning ilmiy faoliyati Rossiya Osiyo muzeyi qo'lyozmalar fondida Sharq qo'lyozma manbalarini ilmiy tavsif etishdan boshlangan va butun

umri yozma yodgorliklar orasida kechdi. U faoliyatini boshlagan kezlari Sharq adabiyoti namunalarining birontasining ham ilmiy-tanqidiy matni mavjud emas, tadqiqotchilar esa bevosita birlamchi manbalar bilan ish ko'rishga majbur edilar. Bir necha g'arb hamda sharq tillarini (qadimgi fors tili, arab, turkiy tillar) yaxshi bilishi, qadim Sharq tarixi, madaniyati, falsafasidan puxta xabardorligi birlamchi manbalar ustida tadqiqot olib borish jarayonida qo'l keladi. Masalan, u asosiy ixtisosligi bo'yicha fors adabiyoti mutaxassisi bo'lishiga qaramay bugungi kunda ham o'z ahamiyatini zarracha bo'lsa-da yo'qotmagan "Navoiy va Attor" maqolasida (1928) ikki tilda yozilgan asarni chog'ishtirib Alisher Navoiyning jahon adabiyoti tarixida kam uchraydigan original shoir ekanligini rad etib bo'lmas dalillar bilan isbotlab ko'rsatdi. Bundan tashqari, maqolada buyuk shoirning adabiy an'anaga hamda tasavvufga munosabati aniq belgilangan. Yana bir muhim tomoni, olim "Lison ut-tayr"ning tanqidiy matni yo'qligi sababli nisbatan ishonchli uch nusxasi bilan ish ko'rgan va doston matnda uchraydigan ayrim farqli o'rinlarni esa tagxatda (snoskada) qayd etib borgan.

Sharqshunos sobiq ittifoq davrida Sharq adabiyotining yirik vakillari Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy tavallud sanalarini keng ko'lamda nishonlash ishlarida faol ishtirok etdi, ko'plab maqolalari bilan matbuotda muntazam qatnashdi, monografiyalar chop ettirdi. Uning rahbarligi ostida "Shohnoma", Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga kirishildi hamda ayrim dostonlarning tanqidiy matni nashr ham etildi. U Sharq matnshunoslik ilmining yangi davrdagi ilmiy nazariyasiga asos soldi va uni amaliyotda qo'lladi ham. Ayni ishlar uchun olim o'z davrida davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Sharq adabiyoti namunalarini orasida muallif nusxasi (avtograf) deyarli mavjud emas. Aksariyat asarlar kotiblar tomonidan ko'chirilgan nusxalar orqali etib kelgan. Asarni ko'chirgan kotibning savodxonlik madaniyati, matnni tushunishi, biror-bir ijtimoiy guruhga mansubligi, ko'chirilayotgan asar bilan oraliqdagi masofa – bular barchasi qo'lyozma matnida muayyan darajada aks etadi. Bundan tashqari, o'tmishda bugungi kunga nisbatan muallif (avtor) xuquqi tushunchasining tamoman o'zgacha idrok etilganligi matnga nisbatan "erkin" yondashuvga sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida matnni deformatsiyaga (turli xil o'zgarishlarga) uchrashiga ta'sir o'tkazgan va bugun uni muntazam ko'chirish jarayonida sodir bo'lgan xatolardan (keng ma'noda) xoli qilish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tuzilgan ilmiy-tanqidiy matn esa nisbatan

sahih, muallif matniga imkon qadar yaqin hamda barcha yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor sanaladi.

Sharqshunos qo'lyozma manbani qay tarzda nashr etish yuzasidan nimalarga diqqatni qaratish xususida yozadi: "Avvalo nashr etishga mo'ljallangan asarni qadimiy nusxasini qidirib topish kerak. Keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalar kotiblar tomonidan kiritilgan son-sanoqsiz interpolyatsiya (muallif matniga tashqaridan kiritilgan kiritmalar) va o'zgarishlar bilan to'la, matnshunoslik ishiga umuman yaroqsizdir.

. . . Ishonchli, sahif matnni tuzish uchun, birinchi galda, yodgorlikni imkon qadar ko'proq qadimiy nusxalarini bir yerga to'plash lozim.

. . . *Biroq mumtoz asarni nashr qilish uchun uning qadimiy nusxalarini yig'ib, ularni o'zaro chog'ishtirib farqli o'rinlarni belgilash kifoya qilmaydi. Yodgorlikning nashri – bu mexanik yoxud shunchaki texnik ish emas. Bu ilmiy tadqiqotning bir qadar murakkab turidir. Buni amalga oshirishdan avval asari nashr qilinayotgan muallif ijodini o'rganish, uning adabiyot tarixidagi maqomini aniqlash hamda nashrga tayyorlangan asarni muallif adabiy merosida tutgan o'rnini belgilash, bundan tashqari, muallifning lug'at boyligi xususida tasavvurga ega bo'lish va eng muhimi ijodkor uslubi haqida tushuncha hosil qilish lozim bo'ladi. Matnshunos filolog bir vaqtning o'zida ham tarixchi, ham adabiyotshunos va albatta, tilshunos bo'lishi shart. Bularsiz uning ishi avvaldan muvaffaqiyatsizlikka uchraydi*" [1.10].

Demak, tanqidiy matn tuzish mexanik yoxud texnik ish bo'lmay, balki ilmiy tadqiqotning o'ta murakkab yo'nalishi va u matnshunosdan bir qator zaruriy bilimlar zahirasini talab qiladi. Olim Sharq adabiyoti namunalari dunyo bo'ylab tuzilgan tanqidiy matnlarini diqqat bilan kuzatar, ularni ilmiy tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib, o'z mulohalarini vazminlik bilan bildirar edi. Masalan, 1935-yili Eronda fors adabiyoti tarixining bilimdoni, taniqli nizomiyshunos Vohid Dastgirdi tomonidan tuzilgan Nizomiy Ganjaviy "Xamsa" sining tanqidiy nashri yuzasidan aytgan quyidagi mulohazalari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Dastgirdi katta ishni amalga oshirgan. U tomonidan nashr etilgan matn, shubhasiz, Nizomiy ijodini kelgusida o'rganishda ulkan yordam beradi. Biroq, afsuski, bu nashrni tanqidiy matn deb qabul qilish mumkin emas.

Nashrni tayyorlashda Eron kutubxonalarida saqlanayotgan XIV-XVII asrlarda **ko'chirilgan o'ttiz qo'lyozmadan foydalanilgan**. Qo'lyozmalarning ilmiy tavsifini noshir keltirmagan va shu sabab ishda foydalanilgan u yoxud bu manbaning qaysi davrga oidligini aniqlash

mushkul. Boz ustiga, matnda farqli o'rinlar (qo'lyozmalarni o'zaro chog'ishtirganda aniqlangan-A.E.) keltirilmaydi faqat ayrim o'rinlarda (qavs ichida) beriladi. Lekin kitobxon manbaning qaysi davrga taalluqli ekanligini bilmaganligi bois uning aynan qaysi qo'lyozmadan olinganligi mavhum hamda matni son-sanoqsiz ko'chirilishlar asnosida o'zgarishlarga uchrashi tadqiqotchi nazaridan chetda qolgan" [2.19]. Ko'rinib turibdiki, o'z davrida Nizomiy ijodini nuktadon tadqiqotchisi bo'lmish V.Dastgirdi (1882-1942) tanqidiy matni tuzishda asos bo'lgan manbalar (e'tibor bering o'ttizdan ortiq-A.E.) ilmiy tavsifini bermagan, qo'lyozmalararo farqli o'rinlar hujjatlashtirilmagan va shu sababli Y. Bertels ushbu nashrni ilmiy tadqiqotlar uchun yaroqsiz hisoblaydi. Shu bilan birga, olim noshir tomonidan Nizomiy dostonlari matnidagi murakkab baytlarga berilgan izoh, sharhlarni qadrlaydi va bular asarni tushunishida nihoyat darajada muhim o'rin tutishini alohida e'tirof etadi.

Odatda, ko'p o'qilgan, doimiy ravishda adabiy jarayondan mustahkam o'rin olgan, badiiy ehtiyojni muntazam qondirgan asarlar eng ko'p ko'chirilgan asarlardir. Ayni ko'chirilish jarayonida bu asarlar matni ko'plab o'zgarishlar, qo'shimchalar, to'ldirishlar bilan "boyib" boravergan. Bu kabi asarlar qatoriga Firdavsiy "Shohnoma"si ham kiradi. Bugungi kunda dastlabki xomcho'tlarga ko'ra jahondagi Sharq qo'lyozmalari hazinasida "Shohnoma"ning 600 dan ortiq nusxalari mavjud [3.178]. Agar biz dunyo fondlarida saqlanayotgan manbalarning hammasi ham ilmiy tavsif etilib, katalog sifatida chop qilinmaganligini nazarda tutsak yuqoridagi miqdor yanada ortishi mumkin.

Muttasil ko'chirish jarayonida matn sathida doimiy ravishda ro'y bergan turli xil o'zgarishlar, qo'shimchalar haddan ziyod ko'payib temuriylar davriga kelib, "Shohnoma"ni o'zgarishlardan xoli redaksiyasini yaratish (matni tozalashni) kun tartibiga dolzarb vazifa qilib qo'yildi. Bu ishni temuriyzoda Mirzo Boysunqur (1397-1433) boshchiligidagi bir guruh adabiyot ixlosmandlari 1425-yili amalga oshirdilar. Ayni tuzilgan matn fanda "Boysunqur redaksiya" si nomi bilan shuhrat qozondi hamda XX asrning ikkinchi yarmiga qadar "Shohnoma"ning deyarli barcha nashrlariga asos bo'lib xizmat qildi [4.5]. Biroq Eron Islom respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi Firdavsiy instituti ilmiy xodimlarining tadqiqotlariga ko'ra "Boysunqur redaksiya" siga 8000 bayt interpolyatsiya (tashqaridan kiritilgan) qilingan, ya'ni muallif matniga qo'shimcha sifatida kiritilgan [4.6]. Eslatib o'tamiz, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonining hajmi 7000 baytdan bir oz ko'proq. Demak, katta bir doston hajmidagi matn "Shohnoma" tarkibidan

“joy olgan”. Biz buning sabablari xususida to’xtalmaymiz, chunki bevosita mavzu doirasidan bir oz chetga chiqishga to’g’ri keladi. Muhimi, Y.E.Bertelsning “Shohnoma” tanqidiy matnini tuzishda yondashuv uslubini kuzatishdir.

Olim ishga “Boysunqur redaksiya”sigacha (1425-yil) ko’chirilgan qadimiy qo’lyozmalarni jalb qildi hamda asos nusxa sifatida nisbatan avval ko’chirilgan manbani olib “Shohnoma” ning XIII asr boshiga oid redaktsiyasini yaratishni asosiy maqsad qilib qo’ydi. Chunki asarning qadimiy, muallif yashagan davrga yaqin nusxasi saqlanmagan bo’lib, (o’sha paytdagi ma’lumot asosida) ishga jalb qilingan eng qadimiy qo’zlyozma esa shoir vafotidan salkam 250 yil o’tib ko’chirilgandir. Bunday vaziyatda to’g’ridan – to’g’ri tanqidiy matn tuzishga kirishish mantiqqa zid edi. Aynan shu sababli Y.Bertels asarning XIII asrga oid redaktsiyasini tiklashni maqbul ko’rdi.

Olimning matnshunoslikka doir nazariy qarashlari yangi davr o’zbek matnshunoslik ilmi uchun nazariy asos bo’ldi. Bu haqda taniqli navoiyshunos, matnshunos Porso Shamsiev shunday yozadi: “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matniga asos bo’lgan qo’lyozmalar tavsifiga o’tishdan avval, shuni alohida qayd etish lozimki, bizga ozarbayjon olimlari kollektivining Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si ustida olib borgan ish (Eslatib o’tamiz, Nizomiy “Xamsa”sining tanqidiy matni Y.E.Bertels rahbarligi ostida tuzilgan-A.E.) tajribasiga, shuningdek, Moskva sharqshunoslari tomonidan Firdavsiy “Shohnoma”sining ilmiy-tanqidiy tekstini yaratishdagi boy tajribasi katta yordam berdi. ... Prof. Y.E. Bertelsning *“Shohnoma” matni uchun qo’lyozma tanlashdagi prinsiplarini to’la holda Navoiy “Xamsa”siga ham qo’llash mumkin bo’ladi*” [5.27].

O’tgan XX asrda o’zbek matnshunoslik ilmi katta yutuqlarni qo’lga kiritdi, birinchi galda, Alisher Navoiy asarlarining tanqidiy matnlari tuzildi, shu bilan birga boshqa mumtoz adabiyotimiz vakillarining adabiy merosi xalqimizga imkon qadar to’la taqdim qilindi. Tuzilgan matnlar yuzasidan matbuotda tahliliy xarakterdagi maqolalar muntazam ravishda nashr qilib borildi. Ayrim noyob manbalarning faksimel nashri chop qilindi hamda bu borada muayyan tajriba to’plandi. To’plangan tajriba esa kelgusidagi ishlar uchun mustahkam ilmiy poydevordir. Shu bilan birga, taraqqiyot davom etar ekan, vaqt o’tib avval bajarilgan ishlarga tanqidiy qaragan, yutuq va kamchiliklarini ro’y-rost ko’rsatgan hamda yangi bilimlar majmuiga tayangan holda yanada olg’a ilgarilashni zamon taqozo etmoqda.

Ma'lumki, matnshunosligimizda asosiy urg'u tanqidiy matn tuzish va uni imkon qadar tezroq chop qilishga qaratilgan edi. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, muallif nusxasi bizgacha etib kelmagan adabiy yodgorlikni adabiyotshunoslik yoxud tilshunoslik aspektida tadqiq etishdan avval uning tanqidiy matniga ega bo'lish shart. Ikkinchidan, o'tgan yuz yillikda o'zbek alifbosining surunkali o'zgarishi (1921, 1929, 1940 yillar), imlo qoidalarining muntazam ravishda isloh qilinishi mumtoz adabiyot namunalarini, jumladan, shoir asarlarini har gal yangi alifboda nashr etishni kun tartibiga dolzarb masala sifatida qo'ydi. Qo'shimcha tarzda shuni aytish joizki, buyuk shoir ijodiy merosi va umuman mumtoz asarlar bilan birinchi navbatda o'sib-unib kelayotgan yosh avlodni --- o'quvchilar va talabalarni, keyin esa keng kitobxonlar ommasini imkon qadar tezroq tanishtirish birinchi o'ringa chiqdi. Aynan shu sababli mumtoz merosni har gal yangi joriy alifboda tezroq taqdim qilishga urg'u qaratildi. Biz bugun bunday yondashuvni o'z davri uchun zaruriy va har bir fan rivojida sodir bo'ladigan tabiiy bosqich deb bilamiz. Ayni paytda matnshunosligimiz faqat tanqidiy matn tuzish bilan cheklanib, tadqiqotning bir qadar murakkab bu turi shunchaki texnik yoxud mexanik ishga aylanib qolganini aytamiz. Odatda, matnshunos besh-olti nisbatan qadimiy, ishonchli qo'lyozmalarni ishga jalb qiladi, ular orasidan bir nusxani tayanch-asos sifatida olib qo'lyozmalar aro farqli o'rinlarni aniqlab, ularni ilmiy apparatda (tagxatda) ko'rsatadi va shu bilan matn tuzuvchini ishi "tamom" bo'ladi. Holbuki, ish jarayonida aniqlangan farqli o'rinlar, xatolar, o'zgarishlar tushuntirilishi, ilmiy izohlanishi shart.

Shu o'rinda, taniqli navoiyshunos — matnshunos Porsoxon Shamsiyevning (1897-1973) quyidagi so'zlari e'tiborga molik: "Mana shu ko'chirishlarda ba'zan ko'chiruvchilarning beparvoligi yoki chalasavodligi natijasida tekstda xilma-xil nuqsonlar yuz berib kelgan bo'lsa, ko'pincha bila turib, atayin kiritilgan o'zgarishlarga ham duch kelamiz. Bu hodisalar ilmga hech qanday aloqasi bo'lmagan va Navoiy merosini qo'pol buzishdan boshqa narsa emas" [6.7]. Albatta, kotib ikki-uch asr muqaddam yozilgan asarni qayta ko'chirar ekan, tabiiyki, ayrim imloviy xatolarga yo'l qo'yadi, o'zi uchun tushunarsiz so'zlarni (arxaik) ba'zan o'zgartirishi ham mumkin. Biroq muallif asariga "atayin kiritilgan o'zgarishlar" (matnshunoslikda interpolyatsiya deyiladi) nima uchun sodir bo'ldi hamda ularning asliyat bilan munosabati qanday degan savollar kun tartibiga chiqishi lozim. Bu kiritmalarni "ilmga hech qanday aloqasi yo'q va Navoiy merosini qo'pol buzishdan boshqa narsa emas" deya baholash etarli emas. Chunki ma'no-mazmun bilan aloqador "parcha" ortida ijodkor

asariga munosabat, talqin yotadi. Ularni muayyan davr (yodgorlik yozilgan yoxud ko'chirilgan) bilan bog'liq holda o'rganish esa badiiyat namunasiga bo'lgan munosabatni ob'ektiv baholash imkoniyatini beradi. Yaratilgan matn (ko'chirilgan) inson ongli faoliyatining mahsuli ekan unda yaratuvchi ijodkorning (keng ma'noda kotib, sahhof, muzahhib, musannif) savodxonlik madaniyati, asarni qanday tushunishi hamda tushuntirishi ma'lum darajada aks etadi. Matnshunos matn sathidagi ro'y bergan o'zgarishlarni shunchaki qayd etib borish yo'lidan emas, balki ma'no-mazmun bilan aloqador, daxldor jihatlarni tushuntirib, izohlash yo'lidan borishi shart. Qisqasi, matn tarixi muayyan davr bilan aloqador tarzda tadqiq etilishi lozim.

O'zbek matnshunosligi keyingi paytlarga kelib ham amaliy, ham nazariy jihatdan bir muncha sustlashdi va bu holatni bartaraf qilish xususida o'z davrida (o'tgan asrning 80-yillari) "Sharq yulduzi" va "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi sahifalarida qator bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Bu chiqishlar orasida taniqli navoiyshunos A.Hayitmetovning "Matnshunoslik muammolari" nomli maqolasi alohida ajralib turadi. Muhtaram ustoz matnshunosligimiz tarixiga qisqacha to'xtalib, yutuq va kamchiliklarni vazmin tahlil etib qilinajak ishlar haqida qator nazariy xarakterdagi mulohazalar bilan o'rtoqlashgan. Uningcha, bizdagi matnshunoslikning asosiy yo'nalishi bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o'tkazish – tabdil bo'lib qolgan: "Adabiy merosga bo'lgan qiziqish esa bizning mamlakatimizda tobora ortib bormoqda. Bu vaziyatda ilmiy-tanqidiy tekst tuzilishini zarur deb topgan asarning tekstlari bevosita biron qo'lyozma manbadan hozirgi zamon o'zbek alifbosiga ko'chiriladi. Buni transliteratsiya deyiladi. Biz ko'pchilik hollarda shunday tekstlarga egamiz [7.169]. Bunday tekstlar ilmiy mukammallikdan uzoq bo'lsa ham, ommaning birinchi ehtiyojini qondirish jihatidan kerak. Shu yo'sinda biz hozirgi kunda ko'p klassiklar va ularga zamondosh avtorlar asarlarining nashr etilgan nusxalariga egamiz". Yuqorida qayd etilganidek mumtoz ijodkorlar asarlarini imkon qadar tezroq xalqimizga etkazish asosiy tamoyilga aylangan. Qizig'i shundaki, mustaqillik yillari yagona mafkura bosimidan xalos bo'lib, milliy merosimizni emin-erkin tadqiq qilishga o'tganimizga qaramay yuqoridagi holat "izchil" davom etmoqda. Boz ustiga, sovet davrida bir necha bor chop etilgan va bugun yana qayta nashr bo'layotgan adabiy manbalar, xususan, Alisher Navoiy asarlarining joriy nashrlarida ko'plab matniy xatolar uchramoqda [8.]. Biz bunday holatni keyingi davrlarga kelib, ilmiy-tanqidiy matnlarning umuman yo'qligi hamda malakali matnshunos kadrlarning ozligi, ularning malakasi,

shuningdek, bu sohaga e'tiborning etarli darajada emasligi bilan izohlaymiz.

O'z vaqtida ustoz navoiyshunos matnshunosligimizdagi bunday noxush vaziyatni amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tanqidiy xarakterdagi tahliliy maqolalarning nihoyatda ozligi, nazariy umumlashmalar chiqarilmasligi hamda metodologiyadagi zaiflik bilan bog'lagan edi va biz bunga to'la qo'shilamiz: "Tekstologiya sohasidagi bizning hozirgi katta kamchiligimiz klassiklarimiz asarlarining ilmiy-tanqidiy tekstlarini tuzish bo'yicha ishlarning susayib borayotgani bu ishlarga oid kadrlar nihoyatda oz tayyorlanayotganidir. Bu esa o'zbek tekstologiya fanining nazariy problemalarini o'rganishni, rus va boshqa qardosh respublikalarda bu borada yig'ilgan tajribalarni o'zbek tekstologiyasi rivojiga xizmat qildirishni kechiktirmoqda. Mashhur rus sovet tekstolog olimi D.S.Lixachyov 1962 yili o'zining "Tekstologiya" deb nomlangan monografiyasini e'lon qildi. Bu kitobda muallif o'zining X—XYII asrlar rus adabiyoti tesklari ustidagi ishlarini chuqur ilmiy asoslarda yoritadi. Uning tajribalarining ko'p qismi o'zbek va boshqa xalqlar adabiy merosini o'rganishga ham bemalol tatbiq etsa bo'ladi" [7.169]. Eslatib o'tamiz, Dmitriy Sergeevich Lixachyovning (1906-1999) yuqoridagi monografiyasi yarim asr mobaynida uch marta chop qilingan (to'ldirilgan va tuzatilgan shaklda) va bu unga bo'lgan ilmiy ehtiyojdan darak beradi. Taniqli olimning fikricha, matn tarixini tadqiq etish tekstologiyaning ustivor vazifasiga aylanishi lozim, ya'ni matn insonning ongli faoliyati mahsuli ekan uni muayyan davr bilan bog'liq holda o'rganishgina kutilgan natijani beradi. Bundan tashqari, matnni chop etish yuzasidan, ya'ni mutaxassislar uchun hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan nashrlar borasida qator nazariy mulohazalarni ilgari suradiki, ularni e'tibor olish adabiy merosimizni zamonaviy taqdimotida muhim ahamiyatga egadir. Garchi tadqiqot qadim rus adabiyoti tarixi materiallari asosida bo'lsa ham o'rta asrlar adabiyotiga xos qator tipologik mushtarak nuqtalar monografiyadan unumli foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotdagi nazariy umumlashmalarni adabiy merosimizning spetsifik xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq qilish o'zini oqlaydi.

Bugun respublikamizda qo'lyozma yodgorliklarni o'rganishga davlat miqyosida e'tibor qaratilmoqda va bu madaniy merosimizni yanada chuqurroq tadqiq etishga hamda uning zamonaviy ahamiyatini ko'rsatib berishga har jihatdan ko'maklashadi. O'ylashimizcha, olimning mavzuga aloqador maqolalarini o'zbek tiliga tarjima etib, chop qilish bo'lg'usi matnshunos yoki manbashunoslar uchun o'ziga xos mahorat darslari

vazifasini o'tashi mumkin. Yurtimizda ustoz sharqshunosning "Navoiy", "Jomiy" kitobi, "Navoiy va Attor" maqolasi, ayrim risolalari filologiya fanlari doktori, tilshunos Ibodulla Mirzaev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Demak, matnshunoslik bugun adabiyotshunoslikning yordamchi emas, balki yetakchi yo'nalishiga aylanishi lozim. Ushbu jarayonda Y.E.Bertels ilmiy merosining munosib o'rni bor. Unga murojaat etganda zamonaviy matnshunoslik ilmining yutuqlariga tayanish, avval bajarilgan ishlarga esa tanqidiy yondashish, yutuq hamda kamchiliklarini ro'y-rost ko'rsatish, istiqboldagi rejalarga samarali ta'sir qiladi, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Бертельс Е.Э. Навои и Джамии. М.,1965.
2. Бертельс Е.Э. Низами и Физули.М.,1962.
3. Акимушкин О.Ф. Средневековый Иран. Культура.История. Филология. Санкт Петербург. 2004.
4. Фирдоуси. Шах-наме.1 том. Научно-критический текст, разночтения, примечания и приложения М.Н.Османова.М.,1991.
5. П.Шамсиев. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар.Тошкент.1986.
6. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Илмий-критик текст. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев.Тошкент.1956.
7. Раҳмон В. Мумтоз сўз сеҳри.Т., 2015.
8. Ҳайитметов А. Матншунослик муааммолари. Шарқ юлдузи. 1982.№3.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI SYUJETI VA QO'LYOZMA NUSXALARI HAQIDA

Maqsuda JAMMATOVA,
UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Jammatovamaqsudova1976@mail.com

Annotatsiya

Maqolada “Layli va Majnun” dostonining arab xalqlarida tarqalgan qadimiy syujetiga oid ma'lumotlar va qo'lyozma nusxalari, Nizomiy,

Navoiy, Fuzuliy, Andalib, Umar Boqiy, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Layli va Majnun”, qadimiy arab rivoyatlari, Nizomiyning “Layli va Majnun” dostoni, syujet, qo‘lyozma nusxa, Noriy, Sabotiy, qissa doston.

Аннотация

В статье рассматриваются сведения и рукописные копии древнего сюжета эпоса «Лейли и Меджнун», распространенные среди арабских народов, варианты Низами, Навои, Физули, Андалиба, Умара Баки и Фазиля Юлдаша.

Ключевые слова: «Лейли и Меджнун», древнеарабские повествования, эпос Низами «Лейли и Меджнун», сюжет, рукописный список, Нори, Саботий, новелла.

Abstrakt

The article deals with information and handwritten copies of the ancient plot of the epic “Leyli and Majnun”, common among the Arab peoples, variants of Nizami, Navoi, Fizuli, Andalib, Umar Baki and Fazil Yuldash.

Key words: “Leyli and Majnun”, ancient Arabic narratives, Nizami's epic “Leyli and Majnun”, plot, handwritten list, Nori, Sabotiy, short story.

“Layli va Majnun” o‘zbek mumtoz adabiyoti va folklorida keng tarqalgan dostonlardan biridir. Bu asardagi syujet ko‘plab adiblar ijodidan joy oldi. Keyinchalik qissa sifatida qayta ishlanib, qo‘lyozma nusxalar tarzida keng ommalashdi. Darvoqe, «Layli va Majnun»ni xalqimiz ming yillar davomida saqlab, qora kunlarning alamli yodgori sifatida bizga – baxtli bolalariga sovg‘a qildi [1.33].

Xalq orasida ming yillar davomida yashab kelgan dostonning turlicha o‘zgarishlarni boshdan kechirishi tabiiydir.

Buni Navoiyning o‘zi ham alohida ta’kidlab o‘tadi:

Eshitgan ila avomdin so‘z,

Yo roviyi notamomdin so‘z.

Bu qissag‘a oncha berdilar zeb,

Kim bo‘lmas vasfi ichra so‘z deb. [2.358]

Mazkur dostonning qo‘lyozma nusxalarida Noriy va Sabotiy taxalluslari tez-tez uchraydi. Bu taxalluslar haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar ularni dostonning muallifi, ba’zilar dostonni ko‘chirgan kotiblar sifatida ko‘rsatadilar. Shuni ta’kidlash lozimki, «Layli va Majnun» dostoni qo‘lyozmalarini ko‘chirgan kotiblar ismining ko‘p

hollarda asarning oxirida berilishi an'ana tusini olgan. Shu sababli matn ichidagi she'rlarda kotiblarga aloqador ismlar kam uchraydi. Bundan tashqari, ular hech qachon o'z ismlari yoki taxalluslarini asar qahramonlari ismlari bilan yonma-yon qo'llashmaydi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Noriy taxallusini kitobni ko'chirgan kotibga nisbat berish ancha mushkuldir.

Binobarin, VII asrning ikkinchi yarmidayoq arab poeziyasida Majnun taxallusi zikr etilgan ko'pgina mungli she'rlar vujudga keladi, bu she'rlarning miqdori ko'payib boradi, to'plamlarga kiritiladi. Ammo Majnun nomi zikr etilgan she'rlarning barchasi ham yolg'iz bir kishiniki emas [3.157].

Shunday ekan, dostonidagi Noriy va Sabotiy nomlari xususida aniq bir fikrga kelish uchun jiddiy tadqiqot olib borishga to'g'ri keladi. Masalaning ikkinchi bir tomoni borki, Noriy arab tiliga emas, balki forsiy tilga aloqador nomdir. Shu sababli bu nomdagi shoir keyingi davrlarga aloqador bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

Dostonidagi she'rlar orasida faqat Majnunninggina emas, balki Noriy taxallusi bilan ish ko'rgan shaxsga aloqador she'rlar ham kiritilgan bo'lishi mumkin. Majnun bilan Noriy nomlarining birga kelish hollari ularning ikki nom bilan ataluvchi bir shaxs emasmikan, degan fikrni ham tug'diradi.

Turkman olimlarining ta'kidlashlaricha, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida «Layli va Majnun» dostoniga aloqador uchta nusxa mavjud. 5030, 5176-raqamli nusxalarda Noriy taxallusi, 7686-raqamli uchinchi qo'lyozmada Sabotiy nomi uchraydi. Lekin bu qo'lyozma ancha kichik, atigi 29-sahifadan iboratdir [4.7].

Ushbu ma'lumotlar mazkur nomlarni aniqlash uchun maxsus tadqiqotlar olib borishni kun tartibiga qo'yadi. Noriy taxallusi Majnun bilan yonma-yon qo'llanilgan qo'lyozma nusxalar Xorazm mintaqasida ham uchraydi.

Bu hududda «Layli va Majnun» dostonining ikki qo'lyozma nusxasi borligi tadqiqotlarda qayd qilingan. Bularning birinchisi «Oshiqnoma» majmuasining 3-kitobida chop etilgan. Dostonning yana bir nusxasi haqida S.Ro'zimboyev quyidagicha ma'lumot beradi: «Qo'limizda dostonning xonqalik Zevar xalfaga taalluqli 1974 yilda arab alifbosida ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi bo'lib, uning hajmi 32 varaq. Dostonda hammasi bo'lib 904 misra she'riy parcha jamlangan. Uning tarkibidan 5 g'azal, bir muxammas o'rin olgan» [5.38].

Qo'lyozma nusxa bilan tanishish shunday fikrga olib keldiki, bu asarning qo'lyozmalari bir-ikkita emas, balki ancha ko'pdir. Mazkur nusxa 1916-yilda Toshkentda chop etilgan nusxadan 1974-yilda qayta ko'chirilgan ekan. Qo'lyozma nusxaning o'rtasidan 2-3 sahifa yo'qolganligi sababli «Oshiqnoma» majmuasida Shukur xalfa nusxasi bosilgan. Shukur xalfa bilan Zevar xalfalar bir tuman hududida yashashadi. Biroq ularning qo'lidagi doston variantlari bir-biridan oz bo'lsa-da, farq qiladi. Zevar xalfa nusxasiga qaraganda chop etilgan nusxada bitta g'azal va batta muxammas ko'pdir.

Bizni qiziqtirgan yana bir muhim narsa shuki, Zevar xalfa nusxasida Noriy taxallusi uchraydi. Chop qilingan variantda esa bu nom tilga olinmaydi. Sabotiy taxallusi Xorazmdan topilgan har ikkala nusxada ham ko'zga tashlanmaydi. Noriy taxallusi Zevar xalfa bisotidan olingan qo'lyozmaning to'rt joyida she'rlar tarkibidan joy olgan. Ikki joyda Majnun nomi bilan yonma-yon, ikki joyda esa yakka o'zining nomi qayd qilingan. Quyidagi namunalar bunga misol bo'la oladi:

*Ishqing hijroniga o'rtandi Noriy,
Hasratu g'am bilan ayladi zori,
Oqizur ko'z yoshin sitamdur bori,
Dunyo yuzin go'yo dumon tutundur (Qo'lyozma, 22-bet.)*

Qo'lyozma matnning ayrim she'riy parchalarida ikkala nom ham baravar ravishda qayd qilinadi:

*Noriy firoqingda chekibdur ohi,
Xabar qildi sango arablar shohi,
Majnun uchun yasab oliy xirgohi,
Haq yaratmish charxi gardun ustina, (Qo'lyozma, 27-bet.)*

Ushbu misralarda Majnun bilan Noriy nomlari muqobil tarzda tilga olinadi. She'rdagi ma'no nuqtai nazaridan qaraganda bitta nomning ikki xildagi ko'rinishiga o'xshaydi.

Ularning yonma-yon tarzda birgalikda qo'llanilishi esa ushbu holatni yanada yorqinroq namoyish etadi.

*Layli ishi fig'on bilan oh bilan,
Oshiqlarning ne ishi bor joh bilan,
Noma aytib Noriy Majnun shoh bilan,
Soata etmadi davronim mening. (Qo'lyozma, 29-bet.)*

Doston tarkibidagi mazkur misralarda ikkita nomning bir ma'noda, birgalikda kelishi yuqoridagi fikrimizni yanada mustahkamlaydi. Qo'lyozma nusxalarning ko'pligi, ularning bir-biriga jiddiy farq qilishi

doston syujetining turli ijodkorlar tomonidan hamisha qayta ishlab kelinganligidan guvohlik beradi.

Xorazmda tarqalgan ikki nusxani solishtirganda shu narsa ayon bo‘ladiki, Zevar xalfa variantining tili sodda, mazmunan Andalibning «Layli va Majnun» dostoniga o‘xshash keladi. Ba’zi she’riy parchalar aynan bir-biriga mos tushadi.

«Oshiqnoma» majmuasining III kitobida chop etilgan variant Andalib dostonidan mutlaqo farq qilgani holda Fuzuliyning «Layli va Majnun»iga ancha yaqindir. Tili esa ancha murakkabdir.

Ushbu holat shuni ko‘rsatadiki, «Layli va Majnun» syujeti yozma adabiyotdan alohida ravishda xalq orasidagi talantli baxshilar va qissaxonlar tomonidan doston sifatida qayta yaratilgan. Umar Boqiyning «Kitobi Majnunu Layli» qissasi ham o‘sha xalq orasida o‘qib yurilgan asarlardan bittasi bo‘lib hisoblanadi. Bu variantlar biror ijodkor tomonidan yaratilgandan keyin og‘izdan og‘izga, kitobdan kitobga o‘tib, aksariyatining dastlabki muallifi unutilgan va xalq kitoblari sifatida istifoda etilgan. Xorazmdan topilgan ikkita qo‘lyozma nusxa buning yaqqol dalilidir.

«Layli va Majnun» dostoni baxshilar repertuariga o‘tmagan. Chunki asar syujeti nihoyatda mungli voqealar tizimidan iborat bo‘lganligi sababli uni baxshilar to‘y va sayillarda kuylamaganlar. Shu sababli doston asosan qissaxonlar, qiroatxon xalfalar repertuaridan mustahkam joy olib, maxsus auditoriyalarda muntazam ijro etib kelingan.

Doston asosan yozma nusxalar orqali ommalashgan. Uning ayrim she’rlari xonandalar repertuariga o‘tgan. Doston syujetiga aloqador turli afsona va rivoyatlar bizning fikrimizcha, xalq orasida Navoiygacha bo‘lgan davrda ham tarqalib yurgan bo‘lsa kerak. Chunki, keksa san’atkorlarning eslashlariga qaraganda «Layli va Majnun»ga aloqador ayrim she’rlar darvesh va qalandarlar tomonidan qo‘shiq ohangida aytilib kelgan. Bu fikrga qo‘shilish mumkin. Chunki «Layli va Majnun»ning Nizomiyga mansub variantida so‘fiylikka xos motivlar ancha kuchli ekanligi ayrim tadqiqotlarda qayd qilingan [6.13].

Asardan olingan parchalarning doimo el oshib xalq orasida kezib yuradigan darvesh va qalandarlar tomonidan targ‘ib qilinishi bu mungli syujetning dovruq‘ taratishiga sababchi bo‘lganligi haqiqatdan yiroq emas.

Mana shu omillar «Layli va Majnun» dostonining xalq variantlarining shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazganligi shubha tug‘dirmaydi.

Keyinchalik asarning A.Navoiy, Fuzuliy, Andalib tomonidan yozma adabiyotda dovrug‘ qozonishi bu syujetning ziyolilar, umuman xalq orasida faol ommalashishiga keng yo‘l ochib bergan.

Xorazmdan topilgan Zevar xalfa variantida Andalib dostonining, Shukur xalfa variantida Fuzuliy dostonining kuchli ta’siri seziladi. Ayni paytda ular ushbu yozma adabiyot manbalaridan jiddiy farqlarga ega. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuaridagi og‘zaki variantda esa A.Navoiy va Umar Boqiy asarlarining ta’siri beqiyosdir. Shunday bo‘lsa-da bu variantda ham Fuzuliy dostonidagi ayrim lavhalar aks sado berib turadi.

Binobarin, «Layli va Majnun» syujetining VII asrlarda Arabistonda tug‘ilib, keyinchalik forsiy, turkiy xalqlar istiqomat qiladigan hududlarga tarqalishi murakkab va qiziqarli hodisadir.

Bu syujetning yozma adabiyotdan tashqari, og‘zaki adabiyotda alohida an’ana sifatida og‘izdan-og‘izga o‘tib, keyinchalik qissalar shaklida yashab kelishi tadqiqotga arzigulik masaladir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Жалолов Т. Нафосат оламида. –Т.: «Адабиёт ва санъат», 1974.
2. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти.-Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1974.
3. Андалып. Ашгабат, «Туркменистан», 1991.
4. Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари.-Т.: «Фан», 1985.
5. Короглы Х.Г. Низоми Гянджеви.

ALISHER NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

SO‘Z SEHRI JOZIBASI

Manzura OTAJONOVA,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy ijodidagi notiqlik san’ati, voizlik mahorati haqida keltirilgan nazariy ma’lumotlar, hikmatli so‘zlar tahliliga murojaat qilingan. Shu bilan birgalikda davr notiqdari haqida Navoiy tazkirasida uchraydigan ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: notiq, voiz, tazkira, ezgu axloq, badiiy mahorat.

Аннотация

В данной статье речь идет об анализе теоретических сведений и мудрых слов, представленных в узбекской классической литературе, особенно в произведениях Алишера Навои, об искусстве ораторского искусства, проповедническом мастерстве. При этом упоминались и сведения, обнаруженные в tazkirasax Навои об ораторах того времени.

Ключевые слова: оратор, проповедник, tazkira, нравы, артистизм.

Abstract

This article refers to the analysis of the theoretical information and wise words presented in the Uzbek classic literature, especially in the works of Alisher Navoi, about the art of oratory, preaching skills. At the same time, the information found in Navoi's Tazkiras about the orators of the time was also referred to.

Key words: orator, preacher, tazkira, morals, artistry.

Xalqimizda “Yaxshi so‘z – jon ozig‘i”, degan ajoyib bir naql bor. Zero, jonli so‘zlashuvda ona tilimizning bor nafasati-yu go‘zalligini ifoda eta bilish ham ma’naviy komillikdan dalolat beradi. Shuning uchun ham xalqimiz azal-azaldan chiroyli va lutf bilan so‘zlashish, fikrni so‘z vositasida bag‘oyat nazokat ila ifodalashni egallashni, namoyish eta bilishni go‘zal axloqiy fazilatlardan biri, deb hisoblagan. Ona tilining

lug‘at boyligi va so‘zlarning serjilo ma‘nolarini mahorat bilan ifoda eta bilish san‘ati notiqlik deyilgan.

Xo‘sh, notiqlik uslubi, xususan, notiqlik san‘ati deganimizda nimalar tushuniladi? Ushbu savollarga javobni tarixga nazar tashlab, moziy zarvaraqlari sahifalaridan izlashimizga to‘g‘ri keladi.

Ma‘lumki, o‘tmishda notiqlik san‘atini voizlik deb, mazkur san‘at bobidagi sohib hunarlarni esa voiz deb yuritganlar. Voizlik – o‘tmish so‘z san‘atining eng go‘zal, barkamol, ommaviy, badiiy yuksak saviyadagi san‘at namunasi hisoblanadi. Sharqda nutq va‘z deyilgani sababli notiq – voiz deb yuritilgan. Voizlar donishmand, oqil, olim va fozil kishilar bo‘lganligi sababli el orasida obro‘-e‘tiborli bo‘lganlar. Ularning ismlariga “mavlonο” so‘zi qo‘shib aytilgan va “Mavlonο falonchi voiz” deb yuritganlar. Voizlarning va‘z matnlari, nutqlari juda chiroyli, mazmunga boy bo‘lgan. Nutqlarining aksariyati sochma she‘r yoki she‘riy shaklda bo‘lib, voizning yuksak mahorati va donishmandligidan dalolat bergan.

Voizlik san‘atining ahamiyati uning mavzusi bilan bog‘liq. Ma‘lumki, musulmon dini aqidalarining katta qismi axloq masalasiga oiddir. Bu aqidalarda kishilar o‘zaro mehr-oqibatli, hurmat-ehtiroimli bo‘lishi tartib qilinadi. Zotan, har bir xalqning ezgu axloqiy masalasi bo‘lib, musulmon dini qoidalarida ham o‘z aksini topgan.

Voizlik san‘atining iqtidorli namoyandalari haqida Sharqning ulug‘ olimi va mutafakkiri, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida hamda uning zamondoshlari Mavlonο Zayniddin Mahmud Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye”, Xondamir “Makorim ul- axloq” asarlarida mufassal to‘xtalib o‘tadilar. Bobur qilichining kuchi etmagan ba‘zi istehkomlarni so‘z qudrati bilan fath etish mumkin ekanligini ta‘kidlagan edi.

Notiqlik san‘atini egallash uchun bilimli va oqil bo‘lishgina etmaydi, buning uchun tinglovchining ruhiyatini ham o‘rganish taqozo etiladi.

O‘tmishda bunday xislatga ega bo‘lgan mashhur notiqqlarimiz ko‘p bo‘lgan. Mavlonο Fariddin Ali Safiyning “Latoyif ut-tavoyif” nomli asarida shunday notiqlardan biri Mavlonο Irshod haqida ma‘lumot berilgan. Mavlonο Irshod o‘z zamonasining hurmat-ehtiroimli voizi, zabardast olimi, eng mahoratli so‘z ustasi edi. Asarda bir voqea tilga olingan bo‘lib, unda Irshodning nutq mahorati yorqin ifodasini topgan.

Asarda bayon etilishicha, Sulton Husayn Boyqaro shoh Shijo‘ huzuriga Sherozga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib borish uchun bir vakil yubormoqchi bo‘ladi va bunga zamonasining zabardast, mohir voizi Mavlonο Irshodni munosib, deb topadi. Irshod u erga borib, oz muddat

ichida rasmiy ishlarni ijobiy hal etadi. Shoh Shijo' Irshodning so'z ustasi ekanligini muzokaralar chog'ida sezib qoladi va bir majlis o'tkazib ketishini so'raydi. Majlis juma kuniga tayinlanadi. Shoh va uning a'yonlari masjidi jome'ga yig'iladilar. Irshod majlisni shunday mahorat bilan olib boradiki, uning ehtirosli so'zlari yig'ilgan haloyiqni yig'latadi; buni sezgan notiq kutilmaganda nutqida shunday burilish yasaydiki, masjidi jome'dan ko'z yoshi aralash qah-qaha sadolari eshitiladi. Yig'ilganlar Mavlono Irshodni katta hurmat bilan kuzatadilar.

Mavlono Irshodning yuksak mahorati ikki davlat o'rtasidagi nizoni bartaraf etibgina qolmay, madaniy-ma'rifiy aloqalarning o'rnatilishiga ham sabab bo'lgan.

Xalqimiz orasida Mavlono Irshodga o'xshagan voizlar ko'p bo'lgan. Jumladan, Mavlono Husayn Voiz, Qozi O'shiy, Muin Voiz, Hotam Asam, Shaqiq Binni, Ibrohim Balxiy, Jaloliddin Rumiy, Xoja Muayyad Mehnatiy, Mavlono Riyoziy, Zahridin Muhammad Bobur kabilar so'z san'atining buyuk qudratini idrok etgan jahon fotihlaridir. Ona tilining nafosatini o'zining yuksak notiqlik san'atida namoyish etishi bilan o'z davrida katta shuhrat qozongan ana shunday mashhur voizlardan biri mavlono Husayn Voiz Koshifiy Eronning shimoliy-sharqidagi Sabzavor shahridan bo'lib, ulug' shoir Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Mavlono Koshifiy haqida to'liq ma'lumotlar keltiradi. Alisher Navoiy Husayn Voiz Koshifiy haqida: "*Oz fan bo'lg'ayki, (uning) dahli bo'lmag'ay, xusususan, va'z va insho (nasriy asarlar yozish) va nujumki (yulduzlar haqida bilim), aning haqqi durur, har qaysida mutayyin va mashhur ishlari bordur*", – deb yozadi. Voiz haqida bildirilgan bu fikrdan, uning katta mahorat sohibi ekanligidan habardor bo'lamiz.

Alisher Navoiy tazkirasida o'tmishning yana bir mashhur voizi Mavlono Voiz Muin Voizning so'z san'atiga doir qimmatli ma'lumotlari berilgan. Navoiyning yozishicha, "*hur taqdir bila shaharda muqarrar voiz bukun Mavlono Muindurur*". Muin Voiz o'sha zamon tili bilan aytganda, fasihul kalomi (so'z san'atkorlarining ustasi), barkamol iste'dod egasi, ehtirosli so'z san'atkori, tengsiz mahorat sohibi bo'lgan. U badiiy so'z san'atining tashqi ifoda vositalaridan – qo'l harakati, yuz imo-ishorasi, jussa holati kabilardan unumli foydalangan.

Rivoyatlarga qaraganda, juma va hayit kunlarida uning chiqishlarini tinglovchilar orziqib kutganlar va atayin voiz va'zi bahonasi bilan masjidi jome'ga yo'l tutganlar. Muin Voiz juda chuqur bilim egasi bo'lgan. Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lom" asarida yozilishicha, Muin Voiz

“Maorijul nubuvvat”, “Ravzat ul-jannat”, “Tarixi Musavviy”, “Ravzat ul-voizin”, “Tarixi Hirot” kabi asarlarning muallifidir. Bu shundan dalolat beradiki, Muin Voiz mohir suxandongina emas, bilimdon, donishmand, fozil kishi bo‘lgan.

XV-XVI asrlarda yashagan Sharqning iste’dodli notiqalaridan yana bir namoyandasi asli farg‘onalik mashhur voiz Qozi O‘shiydir. O‘sh shahrida qozi lavozimida ishlaganligi sababli Qozi O‘shiy taxallusni olgan. Qozi O‘shiyning mahorati haqidagi ma’lumotlar Faxriddin Safiyning “Latoyif ut-tavoyif” va Muhammad Majidiyning “Ziynat ul-majolis” asarlarida keltirilgan. Qozi O‘shiy Eronning janubida joylashgan Siiston viloyatining qattiqqo‘l aholisi ko‘ngil qulfini so‘z kaliti bilan ochib yumshatgan, uning otashin nutqiga barcha yig‘ilganlar rom bo‘lganlar. Aslida bu yerdagilarning qalblari shunchalik yumshab ketganki, ular qoziga 5000 dinor tilla to‘plab berganlar. Qozi O‘shiy Farg‘onaga qaytib kelgach, Siiston aholisiga quyidagi she’riy maktubni yuborgan:

*Omon bo‘lsin siistonlik saxiylar,
Ruhi rohat sharobini qilib no‘sh.
Nechunkim menga baxsh ayladilar,
G‘urur cheksiz! Ana lutf, donishu xush.
Emasdim men sodda, lekin edim men
Bilimu fazl jahon – Qoziy O‘sh.*

Qozi O‘shiy mashhur notiqgina bo‘lib qolmay, o‘z davrining bilimdoni va notiqlik san’ati sirlarini ochib beruvchi “Miftox un-najjoh” (“So‘zning kaliti”) nomli ilmiy risolaning muallifidir.

Agar voizlik san’ati tarixiga nazar tashlansa, voizlik mahoratining sir-asrorlaridan biri voizning bilim saviyasi, donoligi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bilim doirasi keng bo‘lgan notiq doimo maqsadiga erishadi va elning ko‘nglidan joy topa oladi.

Ta’sirli so‘zlash uchun fikr yuritilayotgan mavzuni puxta bilish lozim. Asossiz chiroyli bezab so‘zlangan nutq besamardir, ya’ni xalq aytganidek, puch yong‘oq bilan qo‘yinni to‘ldirish mumkin emas. Nutqning barkamol bo‘lishi uchun nutq egasi chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Shunday fazilat sohiblari madaniyatimiz tarixida ko‘p bo‘lgan. Jumladan, Shaqiq Binni, Ibrohim Balxiy va Hotam Asamlar ham o‘z zamonasining fasihi kalomlari bo‘lganligi ma’lum.

O‘tmish voizlari teran bilim egalari bo‘lganlariga sabab shuki, ular doim izlanishda bo‘lib, o‘zlariga qattiq talablar qo‘yganlar va voizlik kasbini o‘ta mas’uliyatli kasb, deb bilganlar. O‘ziga talabchan voizlardan

biri Hotam Asamdir. Bu kishi haqida Muhammad Majidiyning “Ziynat ul-majolis” asarida bir voqea bayon etilgan.

Hotam Asamdan notiqlik bilan shug‘ullanishni iltimos qilganlarida, u o‘z bilimi va mahorati etishmasligini aytib rad etgan. Ammo el iltijo qilaverganidan so‘ng rozi bo‘ladi, notiqlik mahoratini egallash uchun bir yil muhlat oladi. Bir yildan so‘ng o‘zini sinash maqsalida cho‘lga boradi va bir tup daraxt oldiga yaqinlashmoqchi bo‘lganida, undagi qushlar “gurr” etib uchib ketadi. Buni ko‘rgan notiq Balx aholisiga xali tayyor emasligini aytib, yana bir yil muhlat so‘raydi. Ikkinchi yili yana o‘sha sahrodagi daraxt oldiga o‘zini sinash maqsadida boradi. Bu safar Hotam daraxtga yaqinlashib, qushlar qimir etmayotganliklarini ko‘radi, ammo ularga qo‘l cho‘zganida avvalgiday uchib ketadilar. Xalq Hotam Asamdan bunday sinovning ma’nosini so‘rashganda notiq *“Yovvoyi qushlarni o‘ziga rom etolmagan notiq insonni ko‘nglini yumshata olmaydi”*, - deydi. Xalq Hotam Asamga yana bir yil muhlat beradi. Uchinchi yilni katta tayyorgarlik, mutolaa bilan o‘tkazgan voiz o‘zini shu tariqa yana bir bor sinaydi. U daraxtga yaqinlashib, nimalardir deb erkalaganida qushlar jim bo‘ladilar, qo‘l cho‘zganida qushlar qimir etmaydilar. Bir qushni qo‘liga olib silab, so‘ng qo‘yib yuboradi va xalqqa qarab sinov tugaganini bildiradi. Masjidi jome‘ga borib, nutq so‘zlaydi va ushbu ruboiyni o‘qiydi:

*“Ey tan, sen hirsu havasga qul bo‘lma.
O‘qdek g‘ir-g‘ir uchishga mashg‘ul bo‘lma.
Oldinga borar yo‘ldan to‘xtab hargiz
Cho‘g‘manku, deya shukur qilib, kul bo‘lma”*

Bundan xulosa shuki, voizi kalom bo‘lishlik mashaqqatli mehnatni, chuqur bilimni talab qiladi. Bilimdon va zakovatli notiqgina kishilarning ko‘ngil qushini rom etadi.

Voizning o‘z kasbiga bo‘lgan talabchanligi, ehtirom va sadoqati bugungi kun notiqqlarimizga saboq va ibratdir. So‘z qudrati beqiyosdir. So‘z ustasi Alisher Navoiy aytganidek:

*So‘zdin o‘lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.*

Oddiy so‘z bilan istehkomlarni zabt etgan harbiy notiqlikning eng zabardast namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U notiqlik mahoratini mukammal egallagan fozil kishilardan bo‘lgan. Buni quyidagi voqea misolida ko‘rishimiz mumkin:

1527 yilning mart oyida Boburning Hindistondagi yurishlarida hal qiluvchi bir voqea yuz beradi. Uning askaru lashkarlari orasida tarqoqlik boshlanadi. Bobur *“ushbu ayyomda ... uluk kichikta dag‘-dag‘a va*

taraddud ko‘p edi, hech kimdan mardona so‘z va dadilona ra‘y etilmas edi. Hikoyat deguvchi vuzaroning va viloyat deguvchi umaroning na so‘zlari mardona edi, na tadbirlari, na o‘zlari”,- deb yozadi. *“Oxir elning mundoq bedillarini so‘rub va nav’sustluqlarini ko‘rub”*, Bobur nutq so‘zlaydi:

*“Har ki odami bir jahon ahli fano xohad bud,
Oniki poyandavu boqest, Xudo xohad bud”.*

Ya’ni: *“Kimki keldi bu jahonga oxiri ketgusidir,
Mangu qoluvchi bu olamda Xudoning o‘zidir”.*

“Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidan ichgusidir va har kishikim tiriklik manziliga kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidan ketgusidir. Yomon ot bilan tirilganidin, yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq.

*Ba nomi neku gar bamiram ravost,
Maro nom boyad, ki tan margrost”.*

Ya’ni: *Yaxshi nom birla o‘limga roziman,
Nom qolar, oxir yo‘qolgusi bu tan.*

“Tangri taolo bu nav’ saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O‘lgan shahid, o‘lturgan g‘oziy. Barcha tangrining kalomi birla ont ichmak kerakkim, hech kim bu qitoldin yuz yondirur xayol qilmagay, to badandin joni ayrilmaguncha bu mahoraba va muhotaladan ayrilmagay”.

Boburning shu otashin nutqidan so‘ng barcha askaru lashkarlari bir jonu bir tan bo‘lib kurashga otlangan. Bu shundan dalolat beradiki, faqat mohir notiqgina kishilarning ko‘ngliga to‘g‘ri yo‘l topa biladi.

Mohir so‘z ustalaridan yana biri, xorazmshohiylar avlodidan bo‘lgan, davr taqozosi bilan Turkiyada istiqomat qilgan “Ma’nodor masnaviy” deb nomlangan notiqlikka oid asar muallifi Jaloliddin Rumiidir.

Jaloliddin Rumi Turkiyaning Ko‘niya shahrida 1231-1246 yillarda rasmiy notiq lavozimida ishlagan. Rumiyni suxandonlik masalasi juda qiziqtirgan, shu sababli u butun bilimini, notiqlik mahoratining sirlarini o‘z asarida bayon etadi. “Ma’nodor masnaviy” asari 50 ming baytdan iborat bo‘lib, unda notiqlik san’atining qadimgi ko‘rinishi – nadimlik haqida so‘z boradi. Rumiyning fikricha, voiz o‘z tinglovchilari bilan hamnafas bo‘lishi, nutq jarayonida hamkorlik qilishi, nutqi jo‘shqin va samimiy bo‘lishi kerak.

Alisher Navoiy tomonidan tan olingan, kamoli e’tiqod bilan zikr etilgan, o‘z zamonasining yetuk bilimdon notig‘i Hoja Muayyad Mehnatiy ham oddiy shayxlikdan ilmu donishlikkacha erishganlardan.

U shu qadar bilimdon bo'lganki, Navoiy so'zi bilan aytganda: "... *zohir ulumin takmil qilib erdi*", ya'ni u barcha fanlarni puxta egallagangina emas, balki ularni to'ldirgan, rivojlantirgan edi. U o'tkazgan "*va'z majlisi bag'oyat garm va purshur voqe' bo'lur erdi*". Bu esa Hoja Muayyad Mehnatiyning notiqlik mahorati sabablidir. Uning va'zlari juda qiziqarli o'tgan, tinglovchilar va'z boshlaganidan to so'ngigacha tarqalmas edilar.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Mehnatiy haqida to'liq ma'lumot berib, uning mahoratini yuksak baholagan.

O'tmishimizning ajoyib voizlaridan yana biri Mavlono Riyoziydir. Ulkan hissiyot sohibi, va'zxonlik vaqtida goh yig'latib, goh kuldira oladigan, muallim, suxandon bu fasihi kalon Zova viloyatida tavallud topgan va shu erda qozi lavozimida ishlagan. O'rinsiz xatti-harakatlari uchun badarg'a qilingan va "*base zahmat tortgan*", g'ariblikda kun kechirgan. Riyoziy ajoyib notiq, mohir san'atkor va zabardast olim bo'lgan.

Xullas, o'zbek tili nutq madaniyatining eng yuksak cho'qqisi hisoblangan milliy notiqlik mahorati, shu jumladan, o'tmishda yashab o'tgan taniqli voizlarning san'ati nomoddiy madaniy merosimizning oltin xazinasini hisoblanadi. O'zbek xalq voizlik san'ati o'zining asrlar davomidagi izchil taraqqiyoti davomida ko'plab yuksak mahorat sohiblarini etishtirib bergan. Voizlik san'atining haligacha o'rganilmagan qirralari talaygina, hali ismi-sharifi qog'ozga tushmagan, el og'zida rivoyatga aylangan fasihi kalomlar ham son-sanoqsiz. Ularning ijodiy faoliyati va so'z qo'llash mahorati bilan bog'liq ezgu an'analarni o'rganish ona tilimizni yanada go'zallashtirish va boyitishga xizmat qiladi.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NUTQ SO'ZLASH ODOBI MASALASI

Mahliyo DJAKBAROVA,
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi
djakbarovamahliyo@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblangan **nutq so'zlash** ko'nikmasi Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" asarlarida hayotiy misollar, falsafiy mushohadalar bilan teran ochib berilganligi keltirilgan. So'zning

qudrati, muloqot madaniyatining o'ziga xos tomonlari buyuk donishmand tomonidan salkam olti asr oldin ilgari yoritilgan bo'lsa-da, bugungi davr uchun ham naqadar ta'sirli ekanligi misollar orqali bayon etilgan. Ushbu asarlarning bugungi tilimizdagi nasriy bayonlari vositasida o'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishga oid topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Maqola buyuk so'z dahosining so'z va nutq so'zlash odobi haqidagi betakror hikmatlarining bugungi davr uchun naqadar dolzarb ekanligiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: so'z ta'rifi, nutq so'zlash, aql bilan so'zlash, yaxshi muomalada bo'lish, so'z odobi, rostlik ta'rifi, dialog, murojaat, undalma, olqish.

Аннотация

В статье отмечается, что **речевое мастерство**, считающееся одной из актуальных проблем современного языкознания, глубоко раскрыто в произведениях Алишера Навои "Хайрат ул-аброр", "Лисан ут-тайр", "Махбуб ул – кулуб" с примерами из жизни и философскими наблюдениями. Хотя сила слова и уникальные аспекты культуры общения были отмечены великим мудрецом около шести веков назад, на примерах выражается, насколько оно действительно и сегодня. С использованием прозаических описаний этих произведений на современном языке были разработаны задания, связанные с развитием навыков говорения учащихся.

Статья посвящена актуальности уникальных идей великого гения слова в области речи и речи для сегодняшнего времени.

Ключевые слова: дефиниция слов, говорение, говорение интеллигентно, хорошие манеры, речевой этикет, дефиниция истины, диалог, обращение, поощрение, аплодисменты.

Abstrakt

In the article, it is mentioned that the **speech skill**, which is considered one of the urgent issues of today's linguistics, is deeply revealed in Alisher Navoi's works "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", "Makhbub ul-qulub" with real life examples and philosophical observations. Although the power of the word and the unique aspects of the culture of communication were highlighted by the great sage about six centuries ago, it is expressed through examples how effective it is even for today. Using the prose descriptions of these works in today's language, tasks related to the development of students' speaking skills were developed.

The article is devoted to the relevance of the unique ideas of the great word genius in the field of speech and speech for today's time.

Keywords: definition of words, speaking, speaking intelligently, good manners, speech etiquette, definition of truth, dialogue, appeal, encouragement, applause.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning *“Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”* [8] degan da‘vati bugun har bir pedagogning kasbiy shioriga aylanmog‘i lozim. Buyuk ajdodlarimiz haqida so‘z ketganda, hech shubhasiz, Alisher Navoiyning barcha asarlari barkamol shaxsni tarbiyalash yo‘lidagi cheksiz ummon ekanligini dildan e‘tirof etamiz. Xususan, insonning eng asosiy sifatlaridan biri hisoblangan nutq so‘zlash borasidagi mushohadalari uning har bir asarida alohida mavzu sifatida yoritilgani diqqatga sazovor.

Ko‘ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil.

(Tilning ko‘ngil xazinasining qulfi, so‘zni uning kaliti deb bil) [8; 89].

Darhaqiqat, insonning tafakkuri va uning ma‘naviy qiyofasi so‘z vositasida jilvalanadi. Buyuk mutafakkirning “Hayrat ul-abror” dostonida bu mavzu alohida bob sifatida yoritilibgina qolmay, maqolat va hikoyatlarda ham unga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. “Mahbub ul-qulub” asari uch asosiy qism hamda xotima bobidan iborat bo‘lib, I qism **“Kishilarning ahvoli, fe‘l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida”** deb nomlanadi. Ushbu qismda adib jamiyatdagi turli toifa kishilarning nutq bobidagi nuqsonlari, yutuq va kamchiliklarini hayotiy dalillar vositasida sharhlab bergan. Turli kasb egalariga nutq so‘zlash bobida zarur ko‘rsatmalarni tavsiya etgan. “Lison ut-tayr” asarida Hudhudning boshqa qushlar bilan muloqoti orqali insonlar o‘rtasidagi muomala madaniyati, ularning o‘ziga xos kamchiliklari majoziy tarzda tasvirlab berilgan.

Asosiy qism.

“Hayrat ul-abror” dostonini filologiya fanlari nomzodi O.Karimov: *“So‘z mulkining sultoni xayoliy hayratini hayotiy hayratga omuxtalab*

yuborish maqsadida bebaho qalamini mohirona tebratgan” [7; 289] deya ta’riflagan. Dostonda esa so‘z tarifiga bag‘ishlangan boblar, maqolalar va hikoyatlar mavjudki, barchasi shoirning ko‘ngil gulshanidan so‘z vositasida komillik istagan qalblarga ko‘chadi.

Hazrat Navoiy davrimiz uchun o‘ta muhim bo‘lgan ushbu masalani bu bobda mukammal ochib bergan. Shunday ekan, ona tili mashg‘ulotlarida quyidagi topshiriqlarni berish orqali bu maqsadni amalga oshirish mumkin.

1-topshiriq. Berilgan nasriy parchani ifodali o‘qing.

“Yolg‘onni kamroq gapiradigan kishilar koshki bizning davronda ham bo‘lsa edi. Kimki bu davronda rostgo‘y bo‘lsa, ishi doimo kam-u ko‘stliklardan boshqa narsa bo‘lmaydi. Davr egrilikni talab qiladi, sen rostlikni tilasang, rozilik bildirmaydi. To‘g‘rilikni shon-sharaf deb bilgan kishilarga davron gardishi dushmanlik qiladi. Qalam to‘g‘rilikni talab qilgani uchun boshi kesiladi. Yangi oy egriligi tufayli hammaning diqqatini o‘ziga tortadi. Salla chirmalib-chirmalib bosh ustiga chiqishga sazovor bo‘ladi”. [6; 53]

2-topshiriq. **“Munozara” o‘yini.** Ikki guruhga bo‘linib, qarama-qarshi fikrlar eshitiladi. 1-guruh a‘zolari yuqoridagi mushohadalarga qo‘shiladi; 2-guruh a‘zolari bu fikrga qarshi chiqib, hayotiy misollar bilan uni dalillaydi. O‘qituvchi tomonidan “Sizningcha, bu fikrlar to‘g‘rimi?”, “Rost so‘zlash xatarli bo‘lgani uchun yolg‘on gapirish kerakmi?”, “Bugungi davr kishilari rost gapiradimi yoki yolg‘on?”, “Nega insonlar yolg‘on gapiradi?” kabi o‘quvchilarni nutq so‘zlashga undovchi savollar berib boriladi. Tomonlar fikr-mulohazalari tinglangach, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va quyidagi topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi.

3-topshiriq. Berilgan nasriy parchani yod oling.

“Sham to‘g‘riligidan xursand bo‘lib kuyadi-yu, lekin boshdan oyog‘i nur bo‘ladi. Chaqmoqning ishi egrilik bo‘lgani tufayli ham, garchi u ham yoritsa-da, er ichiga kirib yo‘q bo‘ladi. Dehqon reja chekmas ekan, bog‘ o‘rniga changal unadi. Dehqon molasiz urug‘ sochsa, suvni teng ichmay qanchasi yakson bo‘ladi. Ko‘zgu yuzi qancha tekis bo‘lsa, sohibjamollar yuzi to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi. Uning yuzi sayqallanmagan bo‘lsa, atrofidagi bezaklar uni mutavval—turli xilda: cho‘ziq, yo‘g‘on ko‘rsatadi. Quyosh jim turgan suvda to‘g‘ri aks ko‘rsatsa, suv qo‘zg‘alsa, egri ko‘rsatadi.

Xato qilib bilmasdan yolg‘on gapirib qo‘yish yolg‘onchi deb atashga asos bo‘lolmaydi, chunki bu xil odamlar xato qilganini anglagach, o‘zlari undan voz kechishadi. Yolg‘on gapirishni shior qilib olgan, doim yolg‘on

so‘zlashga odatlangan odamlarni erkak-u musulmon deb bo‘lmaydi”. [6; 54]

Alisher Navoiyni yoshlikdan maftun etgan, butun umri davomida xayolini band etgan va umrining oxirlarida go‘zal asar bo‘lib dunyoga kelgan “Lison ut-tayr” haqida, uning yaratilishi-yu g‘oyasi to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, uning har safar yangidan kashf etilayotgan olami, o‘ziga xos badiiyati, ruhni yuksaltiruvchi ifori ko‘plab ilm ahlini, kitobxonlarni o‘ziga rom etib kelmoqda. Filologiya fanlari nomzodi S.H.Olimovning “ “Lison ut-tayr”ning tub mohiyati” nomli maqolasida asarga turli davrlarda bo‘lgan munosabatlar tahliliy-tanqidiy sharhlar bilan ochib berilar ekan, uning murojaatnoma, me‘rojnoma asar ekanligi ta’kidlanadi. Jumladan, *“Lison ut-tayr” faqat bir guruh kishilargagina tasavvufdan ta’lim beradigan dastur emas. Balki u— insonni hamisha ezguliklarnigina maqsad qilib yashashga, umrni bir pok va buyuk orzu sari intilish bilan o‘tkazishga, Alloh, butun dunyo, demakki, insonning ham asl mohiyatini anglash uchun tinimsiz harakat qilishiga chorlovchi bir buyuk badiiy asar.* [9; 69] Darhaqiqat, ushbu nodir yodgorlikda nutq so‘zlash masalasi ham dialoglar orqali ifodalangan. O‘zaro **murojaatlarda**, betakror **undalmalardan** foydalanilgan. Jumladan, Simurg‘ haqida xabar berganda qushlar Hudhudga *“Ey nafasi jonbaxsh-u nutqi dilkash!”* deya murojaat qilishsa, ularga yo‘l ko‘rsatishini yolvorib so‘rashganda *“Ey yo‘lboshchi!”*, *“Ey peshvo!”* kabi undalmalarni qo‘llaydi. Hudhud ham o‘z o‘rnida qushlarga har birining o‘zlariga xos alohida fe’li-sajiyasidan kelib chiqib quyidagicha murojaat qiladi:

1. *Sayrog‘il, ey To‘tii shirin kalom,
Nutq tashrifi bila oliy maqom.
Xil’ati axzar bila jo‘yoi shah,
Yo‘l oziqqonlarg‘a bo‘lg‘il Xizri rah.* [5; 42]

(Ey o‘z nutqining shuhrati bilan oliy maqom tutgan shirinso‘z To‘ti, sayra! Egningdagi yashil libosing bilan shohni izla, yo‘ldan ozganlarga Xizr kabi yo‘l ko‘rsat.)

2. *Ko‘rguz, ey Tovusi gulzori alast,
Jilvayekim qilg‘osen davronni mast.
Ham boshing toji rayosat maskani,
Ham taning naqdi latofat maxzani.* [5; 43]

(Ey Tovus, davronni mast-u alast qiluvchi jilvalaringni ko‘rsat! Boshing uzra rahnamolik toji bor, taning latofat va go‘zallikka kon).

Adibning bu hikmati zamirida nutqni o‘rinsiz takrorlardan tozalash g‘oyasi yotibdi. So‘z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning har bir asari

betakrordir. Umrining oxirida yaratilgan “Mahbub ul-qulub” asarida nutq so‘zlashga doir bir-birini takrorlamaydigan fikrlar bayon etilgan. Asardan olingan parchalar asosida quyidagi topshiriqlar ishlab chiqildi.

1-topshiriq. “Mosini top” usuli. “Mahbub ul-qulub” asaridan berilgan parchalarni birlashtirib muayyan matn hosil qiling va hosil bo‘lgan matnda qaysi kasb egalarining nutqiga oid fikrlar berilganligi toping.

*Chin gaplari—lof urish, ma’noli
so‘zlari—yolg‘onchilik. Bazmda
da’volari o‘zlarini Hotamdek, jang-
jadalda o‘zlarini Rustamdek
tanitishdir. [3; 20]*

*Mamlakat yovini quvish, yurt saqlash
ishimiz deb shohga minnat etishadi,
bu da’volarga erishguncha
nechtasini ichkilik o‘ldiradi. [3; 20]*

Foydalanish uchun so‘zlar: *beklar, mudarrislar, tabiblar, voizlar, savdogarlar.*

2-topshiriq. Navoiy hikmatlari asosida nutq tayyorlang va og‘zaki aytib berishga tayyorlaning.

Hazrat Navoiy nutq so‘zlashda maqtanchoqlik, lof urish, hiylanayrang bilan so‘zlash, turmush qurishda yolg‘on va’dalar berish, ayollarning dag‘al gapirishi, yolg‘on gapirish kabi illatlarni qattiq qoralaydi. Jamiyatga bunday toifadagi kishilar ziyon etkazishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Navoiyning quyidagi hikmatlarida ham nutq so‘zlashda e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar ifodalangan:

1. *Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,*

Ne uchunkim, dam bu damdur, dam bu damdur, dam bu dam.

(O‘tgan kundan-u hali kelmagan kundan kamroq so‘z och, balki hozirgi damingni g‘animat bil). [8; 105]

2. *Kishi aybin yuziga qilma izhor,*

Taammul ayla o‘z aybingni zinhor.

(Kishining aybini sira yuziga aytma, undan ko‘ra o‘z ayblaringni o‘yla). [8; 96]

3. *Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu,*

Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu?!

(Aybingni ko‘rsatuvchi kishiga qattiq tegma, chunki u oynadir. Oyna dam urish bilan xiralangach, boshqa aybingni ko‘rsatolmaydigan bo‘lib qoladi). [8; 83]

4. *Yolg'on o'lsa muloyamatimiz,
Vahshatangiz chindin angla aziz.*

(Kishini dahshatga soluvchi chin so'zdan muloyimlik bilan aytilgan yolg'on afzal). [8; 59]

5. *Gar zahr bila kishiga kom o'lsa achig',
Yuz onchaki, so'z bila mudom o'lsa achig',
Har necha mazoq aro taom o'lsa achig',
Xushroqdurur andinki, kalom o'lsa achig'.*

(Kishining og'zi so'z bilan doim achchiq bo'lib yurganidan zahar bilan achchiq bo'lgani yuz marta yaxshi. Achchiq so'zdan achchiq taom yaxshiroq). [8; 45]

Xulosa. Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi kommunikativ sifatlari Navoiyning asarlarida bayon etilgan; nutq so'zlash ko'nikmasi nutq madaniyatidan kengroq tushuncha bo'lib, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" asarlarida kengroq yoritilgan va fikrlar hayotiy misollar bilan dalillangan; nutq so'zlash ko'nikmasi nutq madaniyatiga xos kommunikativ sifatlardan tashqari rost so'zlash, aql bilan so'zlash, yaxshi muomalada bo'lish, so'z odobi, murojaat, olqish, undalma kabi kommunikativ sifatlarni o'z ichiga oladi; Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr" hamda "Mahbub ul-qulub" asarlari ona tili mashg'ulotlarida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishga oid topshiriqlar ishlab chiqishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Oltinchi jild. Xamsa. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012.
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. Lison ut-tayr. Majolis un-nafois. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012.
4. Hojiahmedov A. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent, Yangi asr avlodi. 2018.
5. Karimov O. "Alisher Navoiyning jahon adabiyotida tutgan o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. Alisher Navoiyning

“Hayrat ul-abror” dostonida yuksak insoniy fazilatlar madhi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi. – Samarqand, SamDU. 2012.

6. Муталлибов С., Очилов Э. Алишер Навоий. Ҳикматлар. –Тошкент, Шарқ. 2010.

7. Olimov.S. “Alisher Navoiyning jahon adabiyotida tutgan o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. “Lison ut-tayr”ning tub mohiyati. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi. –Samarqand, SamDU. 2021.

8. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

9. <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=2839.20>

ALISHER NAVOIY VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG‘Z

Laylo SHARIPOVA,
Buxoro davlat universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (O‘zbekiston)
laylosharipova11.68@mail.ru

Annotatsiya

Adabiyot folklordan foydalanib, o‘z badiiyatini, mazmun-mohiyatini mustahkamlaydi va folklorizmni yuzaga keltiradi. She‘riyatda oddiy va murakkab folklorizm ko‘p uchraydi. Mumtoz she‘riyatimizda folklordan betakror tarzda foydalanilgan. Maqolada Navoiy folklorizmi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: folklorizm, oddiy folklorizm, murakkab folklorizm, stilizasion folklorizm, chiston, lug‘z.

Аннотация

Используя фольклор, литература усиливает его художественность, содержание и создает фолклоризм. В поэзии распространен простой и сложный фолклоризм. Фольклор уникальным образом используется в нашей классической поэзии. В статье рассматривается фолклоризм Навои.

Ключевые слова: фолклоризм, простой фолклоризм, сложный фолклоризм, аналитический фолклоризм, стилизованный фолклоризм, чистон.

Abstrakt

Using folklore, Literature strengthens its artistry, content and creates folklorism. Simple and complex folklore can be found in poetry. Folklore is used in a unique way in our classical poetry. The article discusses the folklorism of Navoi.

Key words: folklorism, simple folklorism, complex folklorism, analytical folklorism, stylized folklorism, chiston.

Chiston o‘zbek adabiyotiga arab, fors-tojik adabiyotidan o‘zlashgani ham ma‘lum. Bu janr haqida adabiyotshunos olim I. Adizovning “Uvaysiy ijodida chiston janri” nomli maqolasi mavjud. Olima chiston janrining o‘zbekcha ilk namunasi Ahmad Taroziyning

“Funun ul-balog‘a” asarida uchrashi va asarda adabiyotshunos olim janrning xususiyatlari haqida ham to‘xtalganini qayd etadi. I.Adizova ushbu janr haqidagi Qays Roziy, Rashiddiddin Vatvot, Atoulloh Husayniy, Ahmad Taroziy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi olimlar fikr yuritganlarini ta’kidlaydi. Olima hazrat Navoiy va Uvaysiy chistonlarini qiyoslash orqali bu janrga xos qator jihatlarni oydinlashtiradi. “Lug‘z istiloh sifatida arablarda shakllangan. Ammo turkiy adabiyotdagi chiston xalq og‘zaki ijodidagi topishmoq janri bilan ham chambarchas bog‘liq” [2.12]. Chiston topishmoq janrining yozma she’riyat tomonidan o‘zlashtirilishi bo‘lib, janr stilizasiyasining o‘ziga xos namunasi. Shu ma’noda chiston xalq topishmoqlariga xos janriy sifatlarni o‘zida mujassam etadi: topishmoqda ham, lug‘zda ham yashirilgan narsa, o‘rin-joy, shaxs, faoliyat-jarayon otlarining asosiy sifatlari tushunarli, topishga asoslangan tarzda beriladi. Chistonning xalq topishmoqlaridan farqli jihati shuki, u faqat she’riy shaklda yaratiladi. Xalq topishmoqlari nafaqat she’riy, balki nasriy shaklda ham uchraydi. Chiston va xalq topishmog‘i vazn nuqtai nazaridan ham farqlanadi. Chistonlar aruzning rang-barang bahrlarida yozilgan. Ularning hajmi chegaralanmagan. Bu jihatdan topishmoq bilan chiston uyqashdir.

*Ne lo ‘lidurki, chun hangoma tuzsa,
Qadam boshin qilib tortar navo zer.
Boshin keskandin ortib anga tahrik,
Tilin yorg‘andin o‘lub anga tahrir.
Qaro sug‘a boshin yuz g‘o‘ta bersa,
To‘lar og‘zi-yu, bo‘lmas lek damgir [3.703].*

O‘zbek she’riyatidagi ilk lug‘zlar hazrat Navoiy qalamiga mansub. Yuqoridagi satrlarda mubolag‘a, tashxis san’ati qo‘llanganini har qanday kitobxon darrov anglaydi. Bunday badiiy san’atlar xalq topishmoqlarida ham keng iste’foda qilinadi. Shoir “Boshini kessalar harakati ortadi, qora suvga boshini tiqsalar, og‘zi suvga to‘ladi-yu, dam olish istagi unda bo‘lmaydi”, – deb ta’rif bera boshlaydi, shoir yashirin narsaning qator xususiyatlarini sanar ekan, she’rxon qalam haqida fikr yuritilganini anglaydi. Masalaning yana bir tomoni: lug‘zda ta’riflangan qalam bilan bugunning qalami orasida farq bor. Demakki, topishmoq, chiston yoki adabiy topishmoqlarda yashirilgan narsa, shaxs, o‘rin-joy kabilardan ba’zilar vaqt o‘tishi bilan shu tushunchalarning eskirishi yoki undagi o‘zgarishlar sabab ma’lum davr o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin ekan. Hazratning lug‘zlari badiiy jihatdan go‘zal, undagi fikr, tashbeh, metafora, istiora kabilar ulug‘ shoir mahoratini namoyish qilib turadi. Ammo narsa belgilarining barchasini ham yosh she’rxon darrov

idrok etolmasligi mumkin. Bu narsadagi belgilarning bugun uchun eskirgani bilan bog'liq.

Alisher Navoiy chistonlari o'zbek she'riyatida chistonchilikni rivojlantirdi. Hazrat arab, fors-tojik she'riyatidan o'rgangan bo'lishi tabiiy. Ammo folklarga alohida e'tibor bilan qaragan shoir xalq topishmoqlaridan ham o'rgangan bo'lishi tabiiy. Chiston janrining o'zi folklordagi topishmoq janrining stilizasiyasidir. Yozma she'riyat folklordan topishmoq janrini o'zlashtirish jarayonida shaklni qisman saqladi, vaznni butkul o'zgartirdi. Ya'ni xalq topishmoqlari ham nasriy, ham nazmiy shaklga ega va she'riy shakli barmoq she'riy tizimi vaznlarida yaratilgan. Lug'z yoki chiston, bizningcha, janr bo'lib, u o'z navbatida badiiy san'at hamdir. Bu mulamma' janri bor joyda talme' badiiy san'ati bor bo'lgani kabidir. Chiston faqat she'riy shaklda hamda aruz she'riy tizimi vaznlarida bitiladi. Xalq topishmoqlari va chistonning o'xshash jihati shundaki, unda ma'lum tushuncha yashiriladi hamda topilishi lozim bo'ladi. Belgilarni yashirishdagi ifoda usullarida ham, badiiy san'atlarni qo'llashda ham o'xshashlik bisyor. Qizig'i shundaki, o'zbek she'riyatida lug'z yaratish keng yoyilmadi. Bir necha asrdan so'ng Uvaysiy chistonlar yaratdi. Lug'z yoki chiston yaratishning keng tus olmaganiga sabab ehtiyojning yo'qligida, bizningcha. Xalq topishmoqchiligi o'ta rang-barang bo'lgani bois lug'z yoki chiston yaratishga ehtiyoj tug'ilmagan bo'lsa, ehtimol. Hazrat o'zbek she'riyatida ham go'zal lug'zlar yaratish imkoni borligini isbotlagan bo'lsalar, Uvaysiy ustozga ergashdi, xolos. Lug'z keng yoyilmasa-da, topishmoq janri xususiyatlaridan foydalanib yuzaga kelgan mumtoz janrlardan tarix va muammo lug'zdan ko'ra ko'proq yaratildi. Sababi, tarixning yozma adabiyotda zarur vazifasi borligi uchun aksariyat asarlar tarkibida keltiriladi. Muammo esa shoir mahoratini ko'rsatib beradigan janr sifatida taraqqiy topdi. Xalq topishmog'i keng tarqalgani, uning yozma namunasiga ehtiyoj ko'p bo'lmagani sabab bo'lsa kerak, chiston sanarli darajada kam yaratilgan.

Alisher Navoiy yoki Uvaysiy chistonlari aruz vaznida bitilgani va savol-javob qismi yo'qligi bilan xalq topishmoqlaridan farqlanadi. Folklorshunos olim Z.Husainova fikriga diqqat qiling: "Bu janr ikki kishi yoki jamoa o'rtasida berilgan jumboqli savolga javob qaytarish tarzida ijro etiladi. An'anaviy topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman, har xil ob'ektlarga badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlanadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan ob'ekt – narsa yoki tabiat hodisalarining otini aytib berish, ma'nosini topish, yashiringan narsani ochish, bilishdan iborat" [4.3-4].

Ehtimol, adabiyotshunoslikni chuqur anglagan Navoiy hazratlari shu sabab topishmoq demay lug‘z degandirlar.

Bobokalonimiz lug‘zlari o‘ntaligi hammaga ma‘lum: “Qalam”, “Tanga”, “Igna”, “Miqroz”, “O‘q”, “Anor”, “Bel”, “Yumurtqa”, “Poki”, “Parvona”. [3.703-704] “Yumurtqa”, “Parvona” ikki, “O‘q” uch, “Igna”, “Miqroz”, “Bel” to‘rt, “Tanga”, “Anor”, “Poki” besh, “Qalam” – hajman eng yirigi – olti baytdan iborat. Ular aruzning turli vaznlarida bitilgan. Sakkizta chiston oddiy g‘azal shaklida – a-a-b-a-v-a tarzida; “Yumurtqa” va “Parvona” chistonlari o‘zaro – a-a-a-a shaklida qofiyalangan. Bu borada ham Uvaysiy ustoz an‘anasini davom ettirgan. Alisher Navoiyda “Anor” lug‘zi, Uvaysiyda “Anor” chistoni, Anvar Obidjonda “Anor” adabiy topishmog‘i bor. O‘zbek she‘rxoni Alisher Navoiyning “Anor” lug‘zini, Uvaysiyning “Anor” chistonini asrlar davomida sevib o‘qib, yod olib keladi. Anvar Obidjon “Anor” adabiy topishmog‘ida ulardagi biror bir jihatni takrorlamagan:

Har donacham bir askar

Bir qal’ada ming lashkar.

Yotar ular panada –

Oq pardali xonada.

Xonalar tinch, atrof jim.

Qal’achani buzsa kim,

Boshlanadi to‘polon...

Uyog‘i sizga ayon. [1.17]

Shoir anor donalarini askarlarga qiyos qilar ekan, ular tinch xonalarda hech kimga ziyon etkazmay yashirib yotishlarini, ammo kimdir ularni bezovta qilsa, qal’alariga ziyon etkazsa, qarab turmasliklarini ifoda qiladi. Anor kesilganda anor donachalariga pichoq teksta, hamma yoq qip-qizil bo‘lishi aniq. Shoir shu tabiiy holatdan ijtimoiy holat yaratadi. Askarlarning tinchi buzilsa, qonli to‘qnashuv sodir bo‘lishiga ishora qiladi. Ustozlar an‘anasiga ergashib, anorning xususiyatlari haqida mahorat bilan yaratilgan bu jumboq she‘r o‘zbek adabiy topishmoqchiligidan munosib o‘rin egallay oladi. Anvar Obidjon adabiy topishmoqchiligimiz an‘analarini munosib davom ettirar ekan, bu borada novatorlikka erisha oldi. Javobi anor bo‘lgan uch asarni chog‘ishtirsak:

Alisher Navoiy chistoni 5 bayt – 10 misrali she'r, aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan, anor axgar to'la mijmarga, davron qonga "evurgan" dur to'la sadafga o'xshatilgan. Barmoqlar kuchi uning jismini bo'shatib, tanini majruh qilib, qonini oqizadi, ammo bu qondan inson me'dasi foyda topgani shoirga taskin beradi.

Uvaysiy chistoni 4 misrali she'r, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan, anor eshigi, tuynugi yo'q gumbaz ichidagi yuzlariga parda tortgan yurak-bag'ri qon qizlarga qiyoslangan.

Anvar Obidjonning adabiy topishmog'i 8 misrali she'r, barmoqning 7 hijoli vaznida yozilgan, anor qal'adagi askarlarga o'xshatilgan.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy anorning belgilari bilan birga, insonga foydali jihatini ham ta'kidlagan. Uch asar ham mahorat bilan yaratilganki, ular chiston va adabiy topishmoqning go'zal namunasidir. Bunday tahlillarni ko'plab keltirish mumkin. Xulosa shuki, Alisher Navoiy ijodida folklorizmning ikki ko'rinishi sanalgan oddiy va murakkab folklorizm birday uchraydi. Hazrat folklorini bevosita ham, bavoosita ham o'rgandi va o'z asarlarida mahorat bilan qo'lladi. Maqol, matal, ibora, olqish va qarg'ishlarni qo'llash orqali oddiy folklorizmni, afsona va rivoyatlarni dostonlar syujetiga singdirib yuborish orqali sintezlashgan folklorizmni, asarlari tarkibida afsona, rivoyatlarni aynan keltirish orqali analitik folklorizmni, folklorga xos janr, motiv, ritm, obrazni qo'llash orqali stilizasion folklorizmni yuzaga keltirib, o'z asarlari badiiyatini yuksaltirishda, syujetini, kompozitsiyasini mukammallashtirishda, ilgari surgan fikrlarini dalillashda xalq og'zaki poetik ijodidan samarali foydalandi. Xalq dahosidan foydalanib, uni yangi, go'zal shaklda boyitib o'ziga qaytardi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Анвар Обиджон. Жуда қизик воқеа. Шеърлар ва эртақлар. – Тошкент: Юлдузча, 1987.
2. Адизова И. Увайсий ижодида чистон жанри // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. – №3.
3. Алишер Навоий. ТАТ. Ўн жилдлик. 3-жилд. Ҳазоин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
4. Ўйлаб топ. Тузувчи ва сўзбоши, изоҳлар муаллифи З.Хусаинова. – Тошкент: Фан, 1993.

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIYOTIDA NAVOIY MEROSINING O'RNI

**Nasiba SABIROVA,
Xorazm viloyati PYMO'MM
Tillarni o`qitish metodikasi kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari
doktori (DSc), dotsent**

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining mumtoz adabiyot bilan mushtarak tomonlari tahlil ostiga olingan. Alisher Navoiy asarlarida folklor an'analarning aks etishi alohida misollar bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq og'zaki ijodi, Navoiy merosi, o'zbek mumtoz adabiyoti, aforizm, bayt, hikoyat.

Аннотация

В данной статье анализируются общие аспекты узбекского фольклора с классической литературой. Примеры фольклора в произведениях Алишера Навои иллюстрированы примерами, народными рассказами.

Ключевые слова: узбекский фольклор, наследие Навои, узбекская классическая литература, афоризм, байт, рассказ.

Annotation

This article analyzes the general aspects of Uzbek folklore with classical literature. Examples of folklore in the works of Alisher Navoi are illustrated by examples, folk stories.

Key words: Uzbek folklore, Navoi heritage, Uzbek classic literature, aphorism, byte, story.

Alisher Navoiy o'zbek xalqining buyuk shoiri, ma'rifatparvari va davlat arbobidir. Navoiy taxallusli shoirlar ko'p bo'lgan. Jumladan, Mullo Navoiy Xurosoniy (XVI asr I yarmi), Bobosulton Navoiy (XVI asr II yarmi), Mullo Shamsuddin Muhammad Navoiy-Koshoniy, Mirmuhammad Shrif Navoiy-Karbaloiy, Pirzoda Navoiy-Sabzavoriy – (XVI asr), Mirzo Muhammad Taiy – Navoiy kabi ko'plab shoirlar o'tgan. Ammo bularning birortasi Alisher Navoiy darajasiga ko'tarila olmagan.

Navoiy dahosining buyukligi shundaki, uning asarlarida bir milliondan ortiq so'z ishlatilgan. Ularning 2600 tasi turkiy so'z bo'lib, ularning 1920 tasi hozirda ham ishlatiladi. Alisher Navoiy o'z ijodi

jarayonida xalq og`zaki ijodiyotiga alohida e`tibor bilan qaradi. U xalq ijodiyoti haqida shunday yozadi:

*Ki bu bahr ichrakimpoyon anga yo`q,
Yetishmak qa`riga imkon anga yo`q.
Yetishgan el necha dur alg`on ermish,
Ne oily qadr durlar qolg`on ermish.*

Buyuk shoir o`z ijodida yuqorida ta`kidlangan “Oliy qadar durlar” ni terdi va qaytadan xalqqa taqdim qildi. Uning “Xamsa” si tarkibidagi afsona va rivoyatlarning o`zi bir olam jahondir. Shoir “Xamsa” dagi dostonlarini yozishdan oldin, afsona va rivoyatlarni puxta o`rganib chiqadi. Biroq uning asl maqsadi “afsona” so`zlash emas, balki “mazmun” bayon etishdir. “Afsona” asarning “mazmun libosi” bo`lsa, hayot, Navoiy yashagan muhit masalalari asarning mazmuni, mohiyatidir.

Buyuk ijodkor qadimdan kelayotgan afsona va rivoyatlar mohiyatiga shu darajada kirishib ketadiki, Alisher Navoiy asarni fojea bilan yakunlar ekan, uni “firoqnoma” deb ataydi va ushbu doston voqealaridan ta`sirlanib, uni “yig`lay-yig`lay” tugatganini qayd qiladi:

*Majnun g`amidin bori azoliq,
Layli o`lumi uchun qaroliq,
Ya`ni bu sifat firoqnoma,
Bol`di manga qatraz xoma,
So`g`in nechakim uzottim oxir,
Yig`lay-yig`lay tugattim oxir.*

Buyuk xamsanavis dostonlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun kabi obrazlarga ikkinchi umr baxsh etdi. U har bir afsona va rivoyat asosida yozilgan lavhani tugatar ekan, ularning yakunida hamisha xalq ijodiga xos bo`lgan “Qissadan hissa” chiqaradi. Masalan, “Sher bilan Durroj” hikoyatini keltirar ekan, uni quyidagi misralar bilan yakunlaydi:

*So`zda Navoiy ne desang chin degil,
Rost navo, nag`maga tahsin degil.*

Alisher Navoiy xalq ijodiyotidan bahra olib, shunday aforizmlar yaratdiki, ular xalq orasida hozirgacha mashhurlik kasb etib kelmoqda:

*Navosiz ulusning navo baxshi bo`l,
Navoiy yomon bo`lsa, sen yaxshi bo`l.
El netib topqay menikim,
Men o`zimni topmasam.
Odamiy ersang demagil odami,
Oni kim yo`q xalq g`amidin g`ami.*

Birinchi baytda shoir benavo, g`arib kishilarga rahm qil, yordam ko`rsat, degan g`oyani ilgari sursa, ikkinchi baytda har bir kishi elga mashhur bo`lishi uchun avvalo o`zining kim ekanligini bilishi zarur, degan g`oyani ta`kidlamoqchi bo`ladi. Oxirgi baytda esa, xalq g`amini o`z g`amim deb hisoblamagan odamni odam safiga qo`shma, deya ta`kidlaydi.

Navoiyning davlat arbobi sifatida qilgan ishlari ham tahsinga loyiqdir. G`iyosiddin Xondamirning yozishicha, Navoiy ixlosiya, shifoiya, xalosiya kabi madrasa, qorixona, xonaqohlarni qurdirgan.

U 1486-1487-yillarda Astrobodda ikki yil hokim bo`lgan. Xivalik tarixchi Muhammad Nazar Ibn Mulla Saidniyozning yozishicha, Xiva xoni Ollaqulixon (1825-1842) Xurosonga 101 kunlik safar uyushtiradi. 1837-yil fevral oyida xon Sumor daryosidan o`tib, Bektepa degan joyga qo`nadi. “Mir saroyi otlig` mavzekim, Sulton Husayn Mirzoning saltanati ayyomi va Mir Alisherning o`zining Astrobod mamolikiga hokimligi hangomida bir saroyi dilkushoy va qasri farah afzoi bino qurdirg`on erkan, kamul yerga nuzuli ijodod buyurdilar. Xon bu yerda bir kecha qo`nib, Xivaga qaytadi”.

U vaqtda saroyda odam yashamagan. Chunki, bu paytda oradan 175 yil o`tgan edi. Olloqulixonning bu manzilga tashrif buyurishi va Navoiy ruhini shod etib, Qur`on tilovat qilinishi, xorazmliklarning buyuk shoirga bo`lgan e`zozining bir ko`rinishidir.

Navoiyning folklorga munosabati, buning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-estetik sabablari ochiladi, ulug` shoir ijodida folklor an`analari, shu bilan bir qatorda Navoiy shaxsi hamda ijodiyotining folklor taraqqiyotiga ta`siri keng ko`lamda yoritilgan. Xususan, ulug` shoirning xalq dostonchiligi taraqqiyotiga ta`siri, xalq kitoblarining shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyati Fozil Yo`ldosh o`g`lidan yozib olingan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari, Umar Boqiyning “Farhod va Shirin” hamda “Kitobi Majnun va Layli” nomli asarlarining qiyosiy tahlili misolida yorqin ochib berilgan. Adabiyotshunos O.Nosirov va O.Sobirovlarning “Xalq ijodi xazinasini” nomli kitoblari ham yozma adabiyot va folklor masalalarini o`rganishga qaratilgan. Mazkur kitobda adabiyot janrlari va xalq og`zaki ijodi, aruz va xalq og`zaki ijodi, folklor va adib kabi adabiyotshunoslikning muhim masalalari tahlil qilingan. Alisher Navoiy va folklor masalasi haqida gap ketar ekan, bu o`rinda, albatta, adabiyotshunos M.Hakimovning “Alisher Navoiy lirikasi va xalq og`zaki ijodi” nomli asarini alohida ta`kidlash zarur. Kitobda Alisher Navoiyning xalq og`zaki ijodiga ilmiy-nazariy qarashlari, Navoiy lirikasining yetakchi janri bo`lgan g`azalga xalq ijodining ta`siri hamda

Navoiy lirikasida xalq maqollari va hikmatli soʻzlarining oʻrni va ahamiyati kabi masalalar keng va atroflicha oʻrganilgan. Adabiyotshunos B.Toʻxlievning “Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilik” asari” nomli monografiyasida ham yozma adabiyotda folklor anʼanalariga doir kuzatishlar mavjud. Mazkur risolada Yusuf Xos Hojibning axloqiy-taʼlimiy qarashlari, qadimiy xalq anʼanalariga munosabati masalalari xususida fikr yuritilgan. Xullas, xalq badiiy ijodining ajoyib yodgorliklari butun-butun avlodlarning ongi va tafakkurini oʻstirishda, estetik zavqi va maʼnaviy olamini boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etgan. Shoir va adiblar uchun esa tuganmas ilhom chashmasi boʻlib xizmat qilgan.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning shoirlik faoliyati, maʼrifatparvarligi, tarixnavisligi, obodonchilik ishlari bilan shugʻullanishining har bittasi alohida tadqiqot talab qiladigan masalalardir.

BAHROM GO'R TIMSOLINING YARATILISHIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA

**Tojixon SABITOVA,
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
sabitovatadjikhon0805@gmail.com**

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy yaratgan Bahrom timsoli, xalq ogʻzaki ijodidagi afsona, rivoyatlardagi, tarixda oʻtgan shaxs va yozma adabiyotda yaratilgan Bahrom Goʻr obrazining badiiy toʻqima va tarixiy haqiqatga doir tomonlarini ochib berishga harakat qilindi. Bu obrazning ijobiy va salbiy tomonlari koʻrsatib berildi.

Kalit soʻzlar: mutafakkir, afsona, rivoyat, mulohaza, pand-nasihat, shijoat, obodonchilik, adolatparvarlik, fuqaroparvarlik, xudbinlik, zulmkorlik.

Аннотация

В этой статье попытались раскрыть художественную фактуру и историческую правду образа Бахрама Гура, который упоминается в устном народном творчестве, в мифах, легендах, о человеке, прошедшего в истории и в письменной литературе и Бахрама,

созданного великим поэтом-мыслителем Алишером Навои. Были показаны плюсы и минусы этого образа.

Ключевые слова: мыслитель, миф, повествование, рассуждение, поучение, амбиции, процветание, справедливость, патриотизм, эгоизм, угнетение.

Abstrakt

In this article, we tried to reveal the artistic texture and historical truth of the image of Bahram Gur, which is mentioned in oral folk art, in myths, legends, about a man who passed in history and in written literature and Bahram, created by the great poet-thinker Alisher Navoi. The pros and cons of this image were shown.

Key words: thinker, myth, narrative, reasoning, teaching, ambition, prosperity, justice, patriotism, selfishness, oppression.

Sharq adabiyoti va xalq og'zaki ijodida Bahrom timsolining yaratilishi genezisi qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Eng avvalo, bu obraz folklor asarlarida o'z tajallisini topdi. U juda ko'p afsonalar, rivoyatlarda berildi. Tarixda o'tgan Bahrom Yazdijird o'g'li keyinchalik yozma adabiyotda Bahrom Go'r timsolida zuhr topdi.

Birinchi bo'lib yozma adabiyotda afsona va rivoyatlardan va yozma manbalardan foydalanib Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida Bahrom Go'r haqida doston yaratadi. Firdavsiy o'z asarida Bahromning shohligi tarixi va uning nomi bilan bog'liq bir nechta afsona va rivoyatlarni hikoya qiladi. Firdavsiy o'z dostonida Bahromni ikki xil tarzda: ijobiy va salbiy qilib beradi. Ijobiyda – shavkatli, adolatli, xalqparvar podsho, vatanparvar bahodir, pahlavon va mohir ovchi sifatida; Salbiyda-aysh-ishrat va ehtirosga berilgan xudbin va qahr-g'azabi qattiq dahshatli kimsa sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, salbiy tasvirda otasiga tortgan, chunki Sosoniylar podsholaridan Yazdigurd (ayrim o'rinlarda Yazdijurd) zulimkorligi bilan xalqning va saroy a'yonlarining g'azab va nafratiga giriftor bo'lgan ekan. U o'z hukmronligining sakkizinchi yili o'g'il farzand ko'radi. Shuncha yomon bo'lishiga qaramay o'g'li Bahromning taqdirini, kelajagini o'ylab, uni o'ziga qaram bo'lgan Yaman shohi Nu'mon va uning donishmand o'g'li Munzirning tarbiyasiga topshiradi. Bahrom yaxshi tarbiya oladi. U 18 yoshga kirganida ikkita ot bilan ikkita go'zal kanizak sovg'a qilishadi. Bahrom bu qizlardan Ozoda degan go'zal chang chaladiganini sevib qoladi. Ko'pincha uni o'zi bilan birga olib chiqadi. Kunlarning birida Bahrom Ozodaning aytganidek qilib mohirlik bilan ikki kiyikka o`q uzadi. Kiyiklarga rahmi kelgan Ozoda Bahromning mahoratini

maqtash o'rniga, uni shafqatsizlikda ayblaydi. G'azablangan Bahrom Ozodani tuyaning oyoqlari ostida toptab halok qiladi. Bu asarda Bahrom zulmkor, qahru g'azabining cheki yo'q sifatida ko'rinadi.

Otasi Yazdijurd o'lgandan keyin Bahrom Eronga qaytib, toj-taxtni olmoqchi bo'lganda, otasidan qattiq norozi bo'lgan saroy a'yonlari unga qarshilik ko'rsatadilar. Yazdigirdning uzoq qarindoshlaridan bo'lgan Kistro, ayrim manbalarda Doroni taxtga o'tqazadilar. Bahrom odil, adolatli podsho bo'lishiga qasam ichib, shart qo'yib ikki sherning, ya'ni arslonning o'rtasiga qo'yilgan tojni jasorat bilan oladi va mamlakatni obod qilib davlatini adolat bilan boshqara boshlaydi. Bahrom ayrim ertaklardagi dono podsholar kabi oddiy fuqarolik kiyimlarini kiyib mamlakatini kezib chiqadi, turli toifadagi kishilar bilan suhbatlashadi, xalqining arz-dodini eshitadi, el-yurt uchun anchagina foydali va kerakli ishlarni amalga oshiradi. Chin xoqoni hujum qilganda, jasorat bilan mardlarcha o'z mamlakatini tadbirkorlik va ustalik bilan himoya qiladi.

Munajjimlar Bahromni 63 yil umr ko'rishini bashorat qiladilar. Undan keyin Bahrom o'z oldiga shunday maqsad qo'yadi: hayotining bir qismini aysh-ishratga, bir qismini adolat bilan boshqarishga, qolganini esa toat-ibodatga bag'ishlaydi. Muddat bo'lganda taxtini o'g'liga topshirib, osoyishta va tinchgina jon beradi.

Firdavsiy asarida Bahromning o'zi sarguzashtlarida ham, qoliplovchi hikoya-yu, boshqa hikoyalarda ham bosh qahramon sifatida berilgan. Albatta, bunda tarixiy haqiqat va ayrim o'rinlarda Bahrom obrazini ideallashtirish, shuningdek, badiiy to'qima ustunlik qiladi.

Yozma adabiyotda Firdavsiydan keyin Bahrom Go'r haqida Ozarbayjonning ulug' mutafakkir shoiri Nizomiydan boshlab Sharq adabiyotida Bahrom timsoli xamsachilikning an'anaviy bir obraziga aylanib qoldi. Nizomiy 1197-yilda yozgan "Xaft paykar" ("Yetti go'zal") 4600 baytdan iborat bo'lib, o'z davrining hukumdori Alouddin Ko'rpa Arslon (1174-1207) ning topshirig'i bilan yaratilib, u ayrim manbalarda "Bahromnoma" deb ham yuritiladi.

Nizomiydan keyin asli Shahrisabzlik bo'lib Hindistonda yashagan Xusrav Dehlaviy o'zining "Hamt behisht" ("Sakkiz jannat") "Xamsa"sidagi 4 chi dostonini 1302-yilda yozgan. Uning hajmi 3352 bayt bo'lib, 7 bob muqaddima, yakunlovchi qism bir bob, umumiy soni 8ta, asr nomi bilan bog'liq.

Amir Xusrav Dehlaviydan keyin Ozarbayjon olimi G'azanfar Aliyevning bergan ma'lumotiga ko'ra 300 gacha yaqin ijodkorlar "Xamsa" yaratishga harakat qilgan. Bulardan oltitasigina bunga erishgan. Nizomiy,

Dehlaviy, Jamoliy, Ashraf, Jomiy, Navoiy. Bulardan Abdurahmon Jomiy, Ashraf Marog'iy, Kotibiy Turshiziy, Abdulloh Xotifiy va Muhammad Avfiylar Bahrom haqida yozganlar.

Demak, ular yaratgan asrlardan shuni aytish mumkinki, Bahrom obrazi haqida Alisher Navoiyga qadar juda katta ijodiy tajriba to'plangan. Mumtoz adabiyotda adabiy an'ana vujudga kelgan va u yuqori takomil bosqichlarini kechirgan edi.

Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy bu asarlarning barchasini mukammal, chuqur o'rganib chiqadi va salaflarining yutug'u kamchiliklarini aniqlab o'z asariga yangi ma'lumotlar, yangi vazifalar va yangi rejalar tuzishni belgilab oladi. Xamsachilik an'anasiga sodiqlik bilan Alisher Navoiy to'rtinchi dostonini Bahromga bag'ishlashini salafkabi Bahrom va Dilorom hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib uning ichiga haftaning yetti kunida yetti qasrdagi yetti musofirning darveshlardan tinglaydigan yetti hikoyaning kiritilishi va ustozlari kabi o'z dostonini hafif bahrida yaratishi lozimligini niyat qiladi. Buning uchun shoir adabiy an'analarning talablariga rioya qilgan holda ijodiy yondoshib, boshqalar yo'l qo'ygan kamchiliklardan xoli bo'lib, ularning yutuqlaridan ijodiy foydalanib o'zi yangi va original asar yaratishni orzu qildi va bunga erishdi. Albatta bunda Navoiy o'zi yaratgan Bahrom obrazini ijobiy tomonlarini ibrat qilib tarixiy haqiqatlarni ochishga harakat qilsa, salbiy tomonlarini kelajak avlod uchun tanbeh bo'lsin deb yomonlik va xudbinlik baribir halokatga olib kelishini badiiy to'qimalar orqali ro'yi rost ochib bergan. Chunki Navoiy salafkabi Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviylarning kamchiliklari haqida so'zlab "Bo'lsa tarix alarg'a gar matlub, Anda so'z bog'lamoq emasdur xo'b", - deb tamomila ijodiy badiiy to'qima obraz yaratish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Agar biz ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" [1.234] asariga murojaat qilsak, unda tarixiy shaxs Yazdijurd Sosoniylar sulolasidan bo'lib, qadimiy Eronda 399-420 yillarda hukumronlik qilgan edi. U nihoyatda zolim va nodon bo'lib xalqini juda qiynagan. Podshohligining sakkizinchi yili o'g'il farzandli bo'lib, ismini Bahrom qo'yadi va arab podshohi ya'ni Yaman shohi Nu'monga uni tarbiya qilish uchun beradi. Bahrom Nu'monning o'g'li Munzir bilan mard va jasur sifatida voyaga etadi va ov qilishga nihoyatda o'ch bo'ladi. Navoiy buni quyidagi misralarga jo qilgan:

*Shoh Bahrom aning kibi shah edi
Qim, sipehr anga xoki dargah edi.
Avval o'lg'och Suhayldek tole',*

*Bo'ldi mulki Yaman uza lome'.
Chun Yaman bo'ldi nuri ichra g'ariq,
Tufrog'i mushku toshi bo'ldi aqiq.
Shoh Nu'mon? atobek o'ldi anga,
Shafqat ichra atodek o'ldi anga.
Bo'ldi Munzir rafiqu damsozi,
Hamnishinu nadimu hamrozi. [2. 73-74]*

Bu o'rinda shuni ham aytish lozimki, Bahrom uchun qurilgan afsonaviy qasr shu Xavarnaq shahrida bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra u yer yuzida tengi yo'q muhtasham qasrlari bilan shuhrat topgan shahar bo'lgan ekan.

Endi Bahromning laqabi Go'rga e'tibor beradigan bo'lsak, Go'ryovvoyi eshak, qulon ma'nosida, ikkinchi misrasida qabr, mozor ma'nosida qo'llangan.

*Ishratidin Yamang'a ravnaq o'lub,
Qasri ayshi aning Xavarnaq o'lub.
Buyla qasrin yasar zamon me'mor,
Charx me'moridek kelib Sinmor.
Ishi ov ovlomoqta chekmak jom,
Tortibon jom, qilmoq ovg'a xirom.
Ov aro komi borcha bodau Rud,*

Go'r so'zi Bahrom nomi bilan birga ishlatilishining sababi, u qulonlarni ov qilishni juda sevgan. Shuning uchun Go'r uning laqabiga aylangan. "Ani Bahrom Go'r dedilar. Muning jihatini ba'zi dedilarkim, go'rni shersayd qilg'anda, aning o'qi egnisidan o'tub, erga tegdi. Ba'zi debdurlarkim, Go'r ovig'a ko'p moyil erdi" [1.235].

*Ikki sher olidin chu toj oldi,
Otasi mulkidin xiroj oldi.
Sherlar olidin chu oldi kuloh,
Shervashlarni ayladi ro'boh.
Ajdard o'lturdi chunki tortib ranj,
Topti ul ranj dast muzdi ganj
Kishvaridin ketardi chun toroj,
Etti yillik maof tutti xiroj.
Kim, eti yil ketarsa eldin ranj,
Ne ajab etsa, tengridin anga ganj [2.74.]*

Bu misrada quyidagi ma'lumotga ishora etilayapti: Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da yozishicha, Yazdajurdning zulmini ko'p tortgan xalq uning o'g'li Bahromning shoh bo'lishini qat'iyan istamaydilar va Ardasher

naslidan bo'lgan Kisro otliq kishini taxtga o'tqazadilar. Bu voqeani Bahrom eshitgach, ota taxtini egallash maqsadida Nu'mon bilan etib keladi. El Bahromni tan olmaydi. Shunda Bahrom: mamlakatda xavf tug'ilsa qaysi birimiz daf' eta olishimizga qarab, shoh tayinlangiz, - deydi. Shunda xalq shohlik tojini ikki och sherning o'rtasiga qo'yib, tojni kim ololsa, shuni shoh tayinlaymiz, deyishadi, Kisro toj olishga jur'at etmaydi. Bahrom esa, shu ikki och sherni yengib, toju-taxtga erishadi.

Alisher Navoiy ochiqchasiga Husayn Boyqaroga pand-nasihat, fikr-mulohazalarini ayta olmay, o'z dostoning xotimasiga "tush" epizodini ilova qiladi. Emish Navoiy Bahromni tush ko'radi. Bahrom unga o'z sarguzashtlarini eslatib o'tadi, so'zni Husayn Boyqaroga burib, uning saltanati, harbiy shijoati, obodonchilik ishlaridagi faoliyati va boshqa jihatlarini ta'riflaydi. Shundan keyin u o'zining ayrim xatti-harakatlari va fe'l-atvoridagi nuqsonlardan (ishratparastlik, xudbinlik va boshqalar) afsus-nadomat chekib, Husayn Boyqaroda ham shunday nuqsonlarni ko'radi, unga nasihat qiladi:

*...Ul dag'i aysh sori moyildur,
Nag'mu savt birla xushdildur...
Shahlar ichra manga erur monand,
De olurmen: erur manga farzand...
Endi shohingga de salomimni,
So'ngra mundoq etur payomimii:
Qi jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig'tarkiga kiro qilmas,
Shahki ming yil oning hayotidur,
Garaz o'lganda yaxshi otidur.*

Mislsiz katta jur'at bilan aytilgan bu so'zlar Navoiyning dostonidan ko'zlagan asosiy didaktik maqsadi edi. "Tush" epizodi faqat Bahrom obrazinigina emas, balki butun dostonning ham haqiqiy qimmatini oshiradi. Bahrom obrazidagi tajassumning asosiy mohiyati ham shundadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarixda yashab o'tgan Bahrom, xalq og'zaki ijodida tasvirlangan Bahrom, yozma adabiyotda zuhr etgan Bahrom obrazi zolimligi va xudbinligi bilan ko'zga taslanadi. Alisher Navoiy ijodidagi Bahrom timsoli esa ba'zan ibratli xususiyatlari bilan tasvirlansa, ayrim o'rinlarda aysh-ishrat, kayfu-safo, zolimligi tufayli qattiq tanqid ostiga olinadi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida tasvirlangan Bahrom bilan "Sab'ai sayyor" dostonidagi bosh qahramonning xarakteri deyarli bir hil. Boshida ijobiy, adolatli bo'lgan timsol, keyinchalik salbiy-

xudbin, aysh-ishrat iskanjasida qolib, o'z mas'uliyati hamda vazifalarini butkul unutadi.

Ilgari Eronda Bahrom haqida afsona, rivoyat, ertaklar yaratilgan bo'lsa, Alisher Navoiy o'z dostoni "Sab'ai sayyor"ni yozgandan so'ng turkiy xalqlar orasida ham Bahrom obrazi bo'lgan katta-katta dostonlar paydo bo'ldi. Umuman olganda, bu obraz xalqning hukmdor haqidagi o'y-xayollari hamda orzu-niyatlarini ifoda etadigan bir timsolga aylandi. Uning vositasida podshohlik el-yurt ishonchini oqlash, millat farovonligini ta'minlash ekanligi, bu vazifadagi shaxs mukammal axloqli inson bo'lsagina, adolat ustuvorligi barqaror bo'lishi ko'rsatib berildi. Bunday tipdagi dostonlarning g'oyalari, timsollari va hikoyalarini o'rganish, ularni tahlil hamda tadqiq etish galdagi vazifalarimizdandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Навоий А. (2000). Мукаммал асарлар тўплами, 16 том, Фан. 234 б
2. Навоий А. (1992). Мукаммал асарлар тўплами, 10 том, Фан, 73-74 б
3. Қаяюмов А. (2009) Асарлар. 3 жилд, "Mumtoz so'z", 2009
4. Маллаев Н. (1991) Сўз санъатининг гултожи. "Гофур Гулом"
5. Мадаев О. (2018) Навоий сухбатлари. "Ўқитувчи"
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O., (2019). Navoiyshunoslik. Tamaddun.

ALYŞIR NOWAÝYNYŇ TÜRKMEN FOLKLORYNA TÄSIRI (ALI ŞIR NEVAI'NIN TÜRKMEN FOLKLORUNA ETKISI)

**Aýnabat BABAYEWA,
Türkmenistanyň Ylymlar Akademiýasynyň
Taryh we Arheologiya Bölümi**

Türkmen edebiyaty ylmynyň ösmegine, onuň hazynasynyň baýlaşmagyna öz gymmatly goşandyny goşan ussat şahyr, döwrüniň öñdebaryjy döwlet işgäri Alyşir Nowaýydyr. Beýik adamkärçiligi, ynsanperwerligi we adalatlylygy bilen halkyň uly söygüsini gazanan şahyr Alyşir Nowaýynyň baý döredijilik mirasy türkmen alymlary tarapyndan ylmy esasa giñden öwrenilýär.

Türkmen halk döredijilik eserlerinde Myraly ady bilen tanalýan Alyşir Nowaýy bilen bagly rowaýatdyr şorta sözler halk arasynda giñden ýaýrap,

türkmen halkynyň aňynda gadymdan bäri ýaşamagyny dowam edýär. Bu ugurda halypa folklorçy P.Agalyýewiň (Myraly we Soltansöýün, 1941-njy ýylda çap edilen), ussat şahyr we ýazyjy B.Kerbabaýewiň (Myraly, 1948-nji ýylda çap edilen) we türkmen zenan alymy K.Borjakowanyň (Myraly we Soltansöýün, 1992-nji ýylda çap edilen) we beýleki köp halypalaryň halk arasyndan ýygnap, halk döredijiligini baýlaşdyran gymmatly rowaýatlardyr şorta sözleri uly ähmiýete eýedir.

Türkmen halkynyň maddy däl gymmatlyklarynyň sanawyna girýän halk döredijilik eserlerimiz milletiniň ruhy-ahlak derejesiniň, milli özboluşlylygynyň we ş.m. görkezijisi bolup hyzmat edýär. Halky eserlerimiziň gahrymanlary bolsa türkmen adamsyna mahsus sypatlaryň ählisini özüde jemläp, nesil terbiýesinde görelde mekdebiniň hyzmatyny ýerine ýetirýär.

Türkmen halk döredijilik eserleriň rowaýat we hekaýat ýaly görnüşlerine Myralynyň we Soltansöýün Baýgaranyň çeper keşpleri uly söýgi bilen siňdirilipdir. Muny edebiyatçy alym Ş.Halmuhammedow “Türkmen halk ýumorynyň we satirasynyň žanr özboluşlylygy” atly kitabyňyň “Myraly-Soltansöýün” atly bölümünde: “Öz portotipiniň konkret durmuşdaky häsiýetleriniň bolşy ýaly, üýtgeşsiz beýan etmek täri köplenç halatlarda folklor eserleri üçin mahsus däldir. Halk ol ýa beýleki taryhy şahsy folklorlaşdyranda-da, ony gaýtadan pikir eleginden geçirýär: adalatly şa, berimli beg – ideal gahrymanlar baradaky isleglerine laýyklykda öz çeper fantaziýasynda timarlap, “täzeden döredýär”. Şonuň üçin-de şorta sözlerde taryhy personažlaryň toslama, köpçüligiň fantaziýasynda kämilleşen ýagdaýlarda çykyş etdirilmegi tebigydyr” diýip belleýär (Halmuhammedow, 1977: 27).

Ýazyjy Berdi Kerbabaýew Myraly we Soltansöýün hakyndaky rowaýatlary toplap, çap etdiren çaklaňja kitabyňa ýazan “Sözbaşysynda”: “Myraly bilen Soltansöýün barasynda halk döredijiliginde bolan hekaýalar, nakyllar, şorta sözler ýüzlerçe, münlerçe bar. Meniň ýadymda bar: ýaşuly adamlar Myraly bilen Soltansöýün barasyndaky hekaýalardan, şorta sözlerden ertirden aňşama, ýa ilki aňşamdan gijäniň bir wagtyna çenli gürrüň edip, diňçileriň ünsüni özlerine çekmek bilen, olary birsyhly güldürerdiler. Şol hekaýalar halkyň ruhy terbiýesine, zehininiň açylmagyna, ýiti sözler öwrenmegine, döredijiligine peýda ederdiler” diýip ýazýar (Kerbabaýew, 1948: 3-4).

Halkyň çeper aňynyň önümi rowaýatlaryň we hekaýatlaryň aňyrsynda çeper toslamanyň, arzuw-islegiň ýatandygyny taryhy delil hökmünde kabul edip bolmasa-da, Soltansöýün Baýgara we Myrala mahsus bolan

häsiyet aýratynlyklardan we öz döwri halkyň olara bolan garaýyşlaryndan nähili-de bolsa, umumy düşünje alyp bolýar. Çünki, bu rowaýatlarda şahsyýetleriň häsiyet aýratynlyklary açylyp görkezilýär. Mysal üçin, “Myraly bilen Soltansöýün” rowaýatynda Soltansöýün Myralyny tapmak üçin, Hywa, Daşoguz welaýatlarynyň baýtallarynyň porsy ysynyň Hyrada gelýändigini bahanalap, olary meýdana çykarman, daňyp saklamak hakynda perman berýär. Halkyň durmuşynyň agyrlaşmagy Myralyny biparh goýmaýar we ol il-günden baş-alty goýun alyp Hyrada golaýlanda, “möjekler goýunlary tike-tike paýlaşypdyr”. Myraly itleri çagyrsa-da, bir it hem gelmändir. Ol tä Hyrada barýança, ýolda duşan itini ýenjipdir. Bu habar Soltansöýüne ýetende, ol ýasawullaryna şol ýigidi köşge getirmeklerini buýrupdyr. “Çopan soraý ýigidi” hökümdaryň alnyna getirenlerinde, Myraly näçe gygyrsa-da, bir itiň hem gelmändigini, şol sebäpli-de olary ýenjendigini aýdanda, Soltansöýün:

“ – Sen nähili akmak çopan! Heý Pendiden Hyrada-da ses ýetirmi?” diýende Myraly:

“– Eý patyşahym, it alnyna gelen-gurt alnyna-da gelip biler. Hywanyň, Daşowuzyň baýtallarynyň ysy aýlyk ýoldan Hyrada gelende, meniň sesim diňe baş menzil ýoldan Hyrada gelip bilmezmi?” diýip jogap beripdir. Şonda Soltansöýün: “Myralyny keşbinden tanamasa-da, sözünden tanap, oňa bakan topulypdyr-da, ony mäkäm gujaklapdyr” (Kerbabaýew, 1948: 22).

Şu getirilen rowaýatda Soltansöýün Baýgaranyň we Myralynyň çeper keşbi bütin aýdyňlygy bilen görkezilýär. Sebäbi olar hakyndaky gürrüňlerde Myraly elmydama garyp gatlagyň – sada halkyň tarapynda edilip görkezilýär. Myraly elmydama Soltansöýüni haýyr iş etmäge çagyryar, köplenç halatda bolsa oňa halk bähbitli işleri etdirýär.

“Myraly we Soltansöýün” rowaýatyndaky Myralynyň: “- Eý patyşahym, it alnyna gelen– gurt alnyna-da gelip biler” diýen sözleri aýratyn bellärlikliidir.

Halk döredijiligimizi öwreniji alymlarymyzyň köpüsi halkyň çeper aňynyň önümi bolan nakyldyr atalar sözleriniň her biriniň aňyrsynda belli bir taryhy wakanyň, rowaýatyň ýa-da hekaýatyň ýatandygy baradaky garaýyşlary öňe sürýärler. Alymlar müň kerem mamla. Çünki gysgadan takyk manyny berýän, şahyrana labzy bolan halk döredijiligimiziň – nakyllaryň we atalar sözleriniň öz-özlüginde döremeýändigini, onda halkyň durmuş tejribesiniň ýatandygy “It alnyna gelen–gurt alnyna-da geler” ýaly atalar sözünüň döremegi-de ony doly subut edýär.

Nowaýy hem Soltansöýün hakyndaky döredilen rowaýatlaryň bir bölegi olaryň başyndan geçen wakalaryň esasynda düzülen bolsa-da, olar hakyndaky rowaýatlaryň köpüsi halk tarapyndan kebşirlenipdir, tertibe salynypdyr. Ýöne ol rowaýatlar bütinleý taryhy hakykata ters gelmeýär. Mysal üçin: “Türkmeniň “Ýydyz gören” rowaýatynda Soltansöýüniň kakasy hem patyşa diýlip, Soltansöýüniň kakasyndan patyşalygy miras alandygy nygtalýar” diýip, alym D. Ýazkulyýew belleýär (Ýazkulyýew, 2021:214).

Alymlar Myraly hem Soltansöýün barasyndaky rowaýatlardyr şorta sözler diňe Alyşir Nowaýynyň halksöýer adam bolandygy üçin döredilendir, şonuň üçin olar hakyndaky gürrüňleriň halk içinde Myraly barasyndaky rowaýatlar diýilmegi tötänlik däldir diýip belleýärler. Çünki Myralynyň gaty adalatly, rehimdar, ejize hossar, şeýle hem örän dilewar ynsan bolandygyny halk rowaýatlarynyň, şorta sözleriniň üsti bilen görmek bolýar. Şu ýerde ynsan häsiýetiniň kämil nusgasyny açyp görkezýän Myralynyň, ýagny, Alyşir Nowaýynyň türkmen halk döredijiligine, folkloryna ýetiren täsiriniň örän uly bolandygyny-da aýratyn bellemek gerek.

Umuman, türkmen edebiýatyny, nusgawy şahyrlarymyzyň döredijiligini, türkmen folklryny baýlaşdyrmakda Alyşir Nowaýynyň döredijiligi hem ömri uly ähmiýete eýedir. Beýik söz ussady, şahyr Alyşir Nowaýynyň baý döredijilik mirasyny öwrenýän edebiýatçy alym D. Ýazkulyýewiň ýazyşy ýaly, meşhur şahslaryň ömür-döredijiligi dünýä halklarynyň medeniýetiniň-sungatynyň ýakynlaşmagyna şert döredýär.

EDEBIÝAT:

1. P. Agalyýew. Myraly we Soltansöýün. Halk hekaýalary. Aşgabat, 1941.
2. B.Kerbabaýew . Myraly. “Türkmengiz”. Aşgabat, 1948.
3. K.Borjakowa. Myraly we Soltansöýün. Dessan. Aşgabat, 1992.
4. Ş.Halmammedow. Türkmen halk ýumorynyň we satirasynyň žanr özboluşlylygy. Aşgabat, “Ylym“, 1977.
5. D. Ýazkulyýew. Alyşir Nowaýynyň milli edebiýatymyzy ösdürmekdäki hyzmatlary. Aşgabat, “Ylym“, 2021.

ALISHER NAVOIY VA ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI

ALISHER NAVOIYNING ABDULHAMID CHO‘LPON IJODIGA TA’SIRI

Normat YULDASHEV,
TerDU filologiya fanlari nomzodi, dotsent
yuldashevn@tersu.uz

Abdimurod ARSLONOV,
TerDU, O‘zbek adbiyotshunosligi kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
arslonova@tersu.uz

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy ijodining Cho‘lpon she‘riyatiga ta‘siri masalalari o‘rganilgan. Cho‘lponning Navoiy lirikasi, dostonlari, poetik mahoratidan foydalanganligi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, adabiyot, jadid adabiyoti, kuz, obraz, doston, mahorat, quyosh, oy, milliy uyg‘onish.

Аннотация

В статье рассматривается влияние творчества Алишера Навои на поэзию Чулпана. Изучено использование Чулпаном лирики, билин и поэтического мастерства Навои.

Ключевые слова: независимость, литература, современная литература, осень, образ, эпос, мастерство, солнце, луна, лето, национальное возрождение.

Abstrakt

The article examines the influence of Alisher Navoi's work on Cholpan poetry. Cholpon's use of Navoi's lyrics, epics, and poetic skills have been studied.

Key words: independence, literature, modern literature, autumn, image, epic, skill, sun, moon, national awakening.

Respublikamiz mustaqilligidan keyin XX asrning boshlarida nohaq qatag‘onga uchragan milliy adabiyotimiz, madaniyatimiz namoyandalari ijodini keng ko‘lamda tadqiq etish va ularni xalqqa qaytarish ishlari jonlanib ketdi. Totalitar tuzum davrida ta‘kidlanib, ongu shuurimizga

singdirilgan adabiyotimizning bu davrdagi bo‘shlig‘i to‘ldirildi. Bu davr adabiyoti jadid adabiyoti nomi ostida milliy adabiyotimizning gullagan davri sifatida e’tirof etildi. O‘zlarini Navoiy izdoshlari deb bilgan jadidchi adabiyotchilar 20-30 yillarda shoirning 500 yillik tavallud ayyomini nishonlash borasida jiddiy tayyorgarlik ko‘rishgan.

Jadid munaqqidlaridan Vadud Mahmud “Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida” maqolasida shunday yozadi: “Navoiy turk adabiyotining otasidir. Navoiy buyuk adib, buyuk shoir, buyuk dohiydir. Faqat biz uni tanimizmi? Uning kim ekanidan xabarimiz bormi? Munaqqid “Navoiy uchun” nomli ikkinchi bir maqolasida o‘zi qo‘ygan savolga javob berganday bo‘ladi: “Navoiyni tanimagan bir o‘zbek bo‘lmasa kerak. Eskilarimiz va eski maktablarimiz g‘azallari bilan, yangilarimiz va yangi maktablarimiz suratlari va shaxsiyatlari bilan tanishdirlar...”

Navoiy turk tilini turgizgan va chig‘atoy adabiyoti degan bir adabiy maktabning bu kungacha yashamog‘i sabab bo‘lgan bir kishidir. Shuning uchun uni tanimoq, uni taqdir etmoq bugun turklar uchun buyuk bir vazifadir. Mana shu holni nazarga olib bu kun turk dunyosining har erida Turkiyada, Ozarbayjonda va bizda uni eslab besh yuz yillik to‘yini o‘tkazmak istaydilar”.[1] Bundan tashqari munaqqidning “Alisher Navoiy” nomli biografik xarakterdagi kattagina maqolasi ham o‘sha davr navoiyshunosligida muhim voqea bo‘ldi. Shuningdek, yubiley munosabati bilan Ashurali Zohiriyning “Navoiyning yubileyi va tarjimai holiga yangi bir sahifa”, Fitratning bir qator ilmiy maqolalari, Cho‘lponning “500” yil” maqolasi 20-30 yillar navoiyshunosligida alohida sahifani tashkil etadi.

Navoiy gulshanidan yetarli darajada saboq olgan Cho‘lponning shoirga munosabati cheksiz edi. U yubiley tashkilotchilaridan biri sifatida shoir ijodiy merosini o‘rganishda namuna bo‘larlik darajada ish qildi. Uning bu sohada “500” yil” maqolasi ham fikrimizni isbotlaydi. Maqola 1924-yil “Turkiston” gazetasining 13-sentabr sonida e‘lon qilingan. Maqolada shoir ijodini o‘rganish targ‘ib qilingan. O‘zbek bilim hay‘ati e’tiboriga yozilgan ushbu xatda Navoiyning Chig‘atoy adabiyoti va tiliga qilgan hizmatlari ta’kidlanadi, shoir yubileyini tantanali o‘tkazish uchun vazifalar tavsiya qilinadi.

Cho‘lpon nafaqat amaliy faoliyati, bilan ijodida ham Navoiy an‘analaridan, mahoratidan unumli foydalandi. Masalan: “Layli va Majnun” mungli, fojeiy ruhdagi asar. Dostonning XXXV faslida shoir yozadi:

Chun etti xazon elining ohi
Bo‘ston chiroyini qildi ohi.

*Yaproq yuzi bo'ldi barcha sorig',
Oyin magar o'ldi sorig' og'rig'... [2]*

Shoir doston qahramonlarining “hayot sha'mi” o'chganini kuz faslida berib fojeiy manzarani yanada quyushtiradi. Navoiy bu fojeani boshqa biror faslda berolmas edi. Chunki qahramonlari motamidanda qattiq iztirob chekkan shoir “o'ldi” so'zi o'rniga “hayot sha'mi o'chgani”, “joni qafasidan uchgani” iboralarini qo'llagan. Bu o'rinda kuz – shoir ruhiyati bilan ham, oshiqlar fojeasi bilan ham uyg'unlashgan.

Cho'lponda bu hodisa bir qadar drammatizm darajasiga ko'tarilib millat fojeasi, yurt qayg'usini ifodalaydi:

*Ko'm-ko'k edi sarg'aydilar yaproqlar,
Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek,
Bo'ronlarning ko'zlarikim o'ynoqlar,
G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek.*

She'rdagi “sarg'aygan yaproqlar” – so'lib-sarg'ayish, xazon fasli, kuz belgisi. Kuz inson umrining ibtidosi emas, intihosi. She'rdagi Cho'lpon tazod san'atini qo'llab “bo'ronlarning o'ynoqlagan ko'zlari”ni “G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'z”iga qiyoslagan. Ikki shoirning ham kuz obraziga murojaatida ma'lum ma'noda ruhiy yaqinlik bor. Navoiyda ijtimoiy muhit fojeasi, Cho'lponda millat fojeasi.

Hazrat Navoiy she'riyatida ko'p bor uchraydigan timsollar Quyosh va Oy obrazlari. Shoir ijodida Quyosh – ma'shuqa husniga nisbatan ham Olloh, borliqqa nisbatan ham ijobiy timsol sifatida qo'llangan. Masalan:

*Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh... [3]*

baytida quyosh – yor yuziga o'xshatilgan. Bu an'anaga amal qilgan Cho'lpon quyosh obrazini turli ma'no tovlanishlarida yaratgan. Masalan:

*Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim do'stlar
Quyoshning nuriga toqat qilolmay erga botdim-ku... [4]*

haqiqatdan ushbu bayt shoirning muholiflari uchun uni badnom qilishda dastak bo'lgan. Aslida shundaymi? Ozod Sharafiddinov fikricha bu baytda oshiq sevgan yorini quyoshga, o'zini esa yulduzga qiyos qilyapti, ammo oshiq yor vasliga erisha olmaydi, chunki quyosh chiqqanda yulduz bekinmog'i kerak. D.Quronov fikricha “... maqta'dagi shoir taxallusining asl ma'nosigina ramziy ma'noga ishora qiladi, muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so'nishga majbur bo'ldiki, bu bilan Oktabr inqilobining mustaqillik uchun kurash payini qirqqaniga ishora qilinayotir”. [5] Birinchi izohda obrazning zohiriy ma'nosi, ikkinchi fikrda esa botiniy ma'no ta'rif qilingan.

Sharq poetikasida hilol - yor qoshlariga, to‘lin oy - yor yuzlariga, oyning oltin o‘rog‘i - yor hajrida kuygan oshiq qalbini yaralovchi ishq xanjari timsolida ifoda etilgan. Masalan, Navoiyning:

Sabr ko‘ngilda, ko‘ngil ul oyda, ul oy kemada,

Vahki, borib termulib ko‘z mungrayib jonim qolur -

baytida oy - ma‘shuqa timsolida beriladi. Cho‘lpon “oylarning nurida vafo yo‘q” deydi. Shuning uchun undan ko‘ngli qoladi, lekin oyning aybi yo‘qligini bilgan shoir unga mehr qo‘yadi. Shaftoli yuzida uning aksini ko‘rib, suqlanib boqadi. Yorning sochlaridan to‘lg‘onoyning nurlari to‘tonggacha o‘pishini istaydi. Ammo oyning yuzlarini rutubatli qishning qora bulutlari qoplab olgan. Shuning uchun ko‘klam kelishini eshitgan oyning “ko‘zlariga zamharirdek yosh keldi”. Cho‘lponda oyning: to‘lin oy, qizil oy, oppoq oy kabi sinonimlari bor.

Cho‘lponning “Go‘zal”, “Men dutor birlan tug‘ishg‘on ko‘hna bir devonaman”, “Shaftoliga” kabi she‘rlarida navoiyona go‘zal tuyg‘ularni kuzatish mumkin: hazrat Navoiyning:

O‘zgalar husnin tamosha aylasa chiqsin ko‘zim

O‘zga bir ko‘z ham sening husning tamosho aylasa.

bayti Cho‘lponning:

Mayli sevgan oshiqqlaring yuzlaringga to‘ymasun

Lekin raqib lablaringga lablarini qo‘ymasun.

Zaharini quymasin – misralari bilan nihoyatda ruhiy va ma‘naviy yaqinlikni kuzatish mumkin. Adabiyotshunos H.Yoqubov “Cho‘lpon va Navoiy” risolasida yozadi: “Navoiy ham Cho‘lpon ham “Ko‘ngil”ni “men” orqali badiiy tadqiq etgan... Navoiy mavzuni an‘anaviy mumtoz o‘zbek tili, Cho‘lpon umumxalq tili asosida tarkib topgan yangi adabiy til orqali yangi realistik uslubda jonli bayon etdi. Navoiy romantik metodda ijod qildi, unda an‘anaviylik, ramz, mubolag‘adorlik kuchli edi. Navoiyda tasavvuf va hayotiy ham sharqiy tamoyillar etuk. Cho‘lponda davr ruhi va Ovro‘pa lirikasi ta‘siri oz emas. Milliy uyg‘onish antikolonial pafos etakchi...”[6]. Munaqqid Cho‘lpon va Navoiy ijodidagi mushtarak holatlarni o‘ziga xos talqin qilgan.

Cho‘lponning mashhur “Tong sirlari” she‘riy majmuasiga so‘z boshi yozgan Abdulla Qodiriy biroz mubolag‘a bilan “Navoiydan keyin o‘zbek shoirlari ichida zng kuchli lirik shoir Cho‘lpondir” degan bo‘lsada, bu ta‘rif haqiqatdan uzoq emas. Zero, Navoiy va Cho‘lpon ijodidagi uyg‘un ruhiy holatlarni tadqiq etish adabiyotshunosligimizga katta foyda keltiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Баходир Карим. (2000). *Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд*. Тошкент. Университет.
2. Алишер Навоий. (1992) *Мукаммал асарлар тўплами. 20 жылдик. 9 жилд. Хамса. Лайли ва Мажнун*. Фан.
3. Алишер Навоий. (1987) *Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. т. 1* Т.: Фан
4. Чўлпон. (1991) *Асарлар. 1-жилд* Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт.
5. Д.Қуронов. (1997) *Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси*. Т.: Ўқитувчи.
6. Ҳомил Ёқуб. (1997) *Чўлпон ва Навоий*. Т.: Шарқ.

“SAB’AI SAYYOR” TURKUMIDAGI ASARLARNING TARJIMA VA TALQINLARI

Ozoda TOJIBOYEVA,

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot
universiteti dotsent v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)**

ozoda2677@mail.ru

Annotatsiya

Dunyo adabiyotida turkum syujetli asarlar qadim tarixga ega. Qoliplovchi xarakterdagi mazkur asarlar hind, arab, fors, turkiy adabiyotda sevib o‘qilgan. Xamsanavislar ijodida sayqal topgan bu asarlar yozma va og‘zaki adabiyotda “Haft manzari Bahrom” nomi bilan keng tarqalgan. Mazkur mavzuda fors adabiyotida ko‘plab, shuningdek, o‘zbek adabiyotida ham bir qancha asarlar ijod etilgan. Xalq og‘zaki ijodining qiziqarli syujetga boy asarlaridan biri sifatida keng tarqalgan. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi syujetlar keyingi davr adabiyotida turli versiyalarda tarqalgan. Fors tilidan ham shu turkumdagi asarlar tarjima qilingan. Natijada turkum syujetli asarlar yozma adabiyotga Navoiyning dostoni bilan kirib kelgan.

Mazkur maqolada “Bahrom va Gulandom” tipidagi asarlarning nasriy tarjimalari haqida ma’lumot berilgan. O‘zbek adabiyotidagi “Bahrom va Dilorom”, “Bahrom va Gulandom” tipidagi asarlarning tadqiq etilishi, an’ana va o‘ziga xoslikning ayrim qirralari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davr, kitobxon, nasr, nazm, tarjima, talqin.

Аннотация

В мировой литературе сюжетные произведения имеют давнюю историю. Эти образцовые произведения широко читаются в индийской, арабской, персидской и турецкой литературе. Эти произведения, доработанные в творчестве хамсанави, широко известны в письменной и устной литературе под названием «Хафт Манзари Бахром». На эту тему написано немало произведений в персидской литературе, а также в узбекской литературе. Оно широко известно как одно из произведений фольклора с интересным сюжетом. Сюжеты эпоса Алишера Навои «Сабаи Сайёр» в разных вариантах распространены в литературе позднего периода. Произведения этой серии также переведены с персидского языка. В результате вместе с эпосом Навои в письменную литературу вошел ряд сюжетных произведений.

В данной статье представлена информация о прозаических переводах произведений типа «Бахром и Гуландом». Анализируются исследования произведений типа «Бахром и Дилором» и «Бахром и Гуландом» в узбекской литературе, анализируются некоторые аспекты традиции и самобытности.

Ключевые слова: эпоха, читатель, проза, стих, перевод, интерпретация.

Annotation

Plot works have a long history in world literature. These exemplary works are widely read in Indian, Arabic, Persian and Turkish literature. These works, refined in the work of hamsanavi, are widely known in written and oral literature under the name "Haft Manzari Bahrom". Many works have been written on this topic in Persian literature, as well as in Uzbek literature. It is widely known as one of the works of folklore with an interesting plot. The plots of the epic of Alisher Navoi "Sabai Sayyor" in different versions are common in the literature of the late period. The works of this series have also been translated from Persian. As a result, along with the epic of Navoi, a number of narrative works entered the written literature.

This article provides information about the prose translations of works such as "Fringe and Guland". Studies of works such as "Bakhrom and Dilorom" and "Bakhrom and Guland" in Uzbek literature are analyzed, some aspects of tradition and originality are analyzed.

Key words: epoch, reader, prose, verse, translation, interpretation.

Turkiy xalqlar adabiyotida Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kirgan dostonlar keyingi davr ijodkorlari tomonidan qayta ishlandi, xalq og‘zaki ijodida nasriy qissalar shaklidagi turli variantlari ijod etildi. Dostonlar sirasida aniq bir voqeaband syujet asosida davom etadigan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”larning Navoiy yoki boshqa xamsanavislar dostonlariga yaqin mazmundagi variantlari mavjud bo‘lsa-da, “Sab’ai sayyor” syujeti asosida yaratilgan asarlar nisbatan erkinroq va mustaqil asarlardir. Sharq xalqlari adabiyotida Bahrom obrazi ishtirok etuvchi asarlar “Xamsa” dostonlari bilan chegaralanib qolmaydi. Sababi qadimdan badiiy adabiyotda Bahrom, Jamshid, Rostam, Suhrob, Afrosiyob kabi an’anaviy obrazlar yashab keladi. Qoliplovchi turkumdagi ushbu syujet yo‘nalishi xamsanavislar ijodida o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi, keyingi yozilajak asarlar uchun asos, g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qildi.

XVIII-XIX asrlar xalq og‘zaki ijodida qissalarning mavqei ancha baland bo‘lib, xalqning rivoyaviy asarlarga moyilligi kuchli bo‘lgani bois kitobiy dostonlar ham xalq og‘zaki ijodida qaytadan ijod etildi. Ishqiy-sarguzasht, jangnoma-qahramonlik tipidagi qissalarning ko‘plab variantlari yaratildi. Ushbu ijodiy jarayon, yaratilishlar asnosida asosiy qahramonlari Farhod, Majnun, Bahrom, Iskandar bo‘lgan xalq qissalari ham ijod etildi. “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan farqli o‘laroq Bahrom obrazi ishtirok etuvchi asarlarning ikki talqindagi – Bahrom va Dilorom, Bahrom va Gulandom nomlari bilan bog‘liq versiyalari keng tarqalgan. Dunyo adabiyotida kompozitsion tuzilishiga ko‘ra kitobxonlar e’tiborini jalb etib keluvchi hikoya ichida hikoya usulidagi “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna” kabi asarlarga bo‘lgan qiziqishlar natijasida o‘zbek adabiyotida ham bu turkumdagi asarlarga ehtiyoj mavjud edi.

Bahrom obrazining evolyusiyasi, ularning badiiy adabiyotdagi talqin etilish holatlarini turli manbalar asosida tadqiq qilgan olim M.Muhiddinov ikki turkumdagi – “Bahrom va Gulandom”, “Bahrom va Dilorom” (Bahrom Go‘r syujeti misolida) nomli asarlarni o‘zaro qiyoslaydi, ulardagi tafovutlarni ko‘rsatadi (4). “Bahrom va Dilorom” turkumiga kiruvchi quyidagi asarlarni tahlil qiladi: xamsanavis adiblarning shu syujet asosidagi dostonlari; Navoiy dostoniga aynan o‘xshatma qilib o‘zbek tilida yozilgan uyg‘ur adibi G‘aribiyning nazmda bitilgan “Shoh Bahrom va Dilorom” dostoni; Ogahiyning Nizomiy “Haft paykar”i tarjimasini; Alisher Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayoni “Nasri Xamsai benazir” tarkibidagi “Qissai haft manzari Bahrom”.

Mazkur asarlar sirasida “Nasri Xamsai benazir” 1908-yili Orifjonov matbaasida nashr etilgan bo‘lib, unda “Xamsa” dostonlaridan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”lar nasriy bayon qilingan. Unda “Sab‘ai sayyor” dostoni qadimiy an‘anaga ko‘ra “Qissai haft manzari Bahrom” tarzida nomlanib, asliyatdan chetga chiqilmaydi.

“Bahrom va Gulandom” turkumidagi asarlar esa “Xamsa” dostonlaridan ancha uzoqlashgan qahramonlik-sarguzasht asarlaridir. Agar “Farhod va Shirin”ning o‘zbek adabiyotidagi Navoiy dostonidan ancha uzoqlashgan versiyasi Mahzun nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, “Bahrom va Gulandom” versiyasining xalq orasida keng tarqalishi va mashhur bo‘lishi aynan Sobir Sayqaliy nomi bilan bog‘lanadi. Sobir Sayqaliy tomonidan yaratilgan “Bahrom va Gulandom” dostoni xalq og‘zaki ijodida shu nomdagi asarlarning ko‘payishiga turtki bergan.

“Bahrom va Gulandom” turkumidagi asarlar xalq og‘zaki ijodida paydo bo‘lib, ko‘pdan-ko‘p qahramonlik qissalari, dostonlari qatorida og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan, uning dastlabki namunalari fors-tojik tilida yaratilib, sof nasr va nazm shaklida aks etgan. O‘zbek adabiyotiga esa u Sobir Sayqaliy tomonidan joriy etilgan” (4, 160). Sayqaliy nasriy asarni tarjima qilishda nazmga aylantirib yozma adabiyotga olib kiradi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Bahrom va Gulandom” xalq dostoni ham Sayqaliy asari ta’sirida yaratilgan.

Umuman, omma orasida keng tarqalgan “Varqa va Gulshoh”, “Qissai Jamshid”, “Qissai Rustam”, “Qissai qahramoni qotil” kabi asarlar fors-tojik tilida ijod etilgan bo‘lsa-da, har ikki xalq tomonidan birdek mutolaa qilingan. Alisher Navoiy “Xamsa”si qardosh xalqlar adabiyoti, xalq og‘zaki ijodida ko‘plab asarlarning yaratilishiga turtki bergan bo‘lsa, fors-tojik adabiyoti mahsullari ham o‘zbek adabiyoti ravnaqi uchun xizmat qilgan. O‘zaro madaniy aloqalardagi hamkorlik, syujetlar xilma-xilligidagi almashinuv jarayoni, o‘zbek kitobxonini ham mazkur ijod namunalari bahramand qilish maqsadida amalga oshirilgan o‘girmalar tufayli tarjima adabiyoti ham rivojlanib bordi. Navoiy “Sab‘ai sayyor”idan keyin o‘zbek adabiyotida bo‘lmagan qoliplash usulidagi turkum syujetli “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, “Chor darvesh”, “Haft kishvar” kabi asarlarning tarjima qilinishi o‘zbek nasrini bu yo‘nalish bo‘yicha boyitgan manbalardan biri bo‘lgan (2, 60).

XIX oxiri XX asr boshlari ilm-fan, madaniyat, adabiyotning rivojida tarjima adabiyotining o‘rni va ta’siri katta bo‘ldi. XIX asrdagi Xorazm tarjima maktabi samarali faoliyat olib borgani, o‘zbek adabiyoti bisotini

tarjima asarlar bilan boyitgani ma'lum. Bu an'ana, ijodiy jarayon, madaniy muhit Toshkent shahrida yanada jonli, rangin tarzda davom ettirildi. Toshkentdagi yangiliklarning salmoqli qismi shaharda faoliyat yuritgan toshbosma matbaalar nomi bilan bog'liq. Ularda ko'plab mumtoz asarlar nashr etildi, boshqa tillardan tarjima qilindi. Shu asnoda "Bahrom va Gulandom" tipidagi asarlarning ham bir qanchasi tarjima qilinib, noshirlar tomonidan matbaada nashr qilindi. Mazkur davrda toshbosmada chop etilgan "Xamsa" syujeti asosida hikoya qilinuvchi xalq kitoblarining bir qanchasi bevosita Sidqiy Xondayliqiy va Xislat nomlari bilan bog'liq.

Sidqiy Xondayliqiy va Xoja Haybatullohxo'ja Xislat XX asr boshlari Toshkent shahrida yashab ijod etgan eng sermahsul ijodkorlardan hisoblanadi. Ular o'zbek adabiyotiga o'z ijod mahsullari bilan birgalikda tarjimonlik, xattotlik, musavvirlik, noshirlik faoliyatlari bilan ham barakali hissa qo'shdilar. Xislat Alisher Navoiyning Umar Boqiy tomonidan amalga oshirilgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarini qayta tahrir qilib, nashr ettirgan. Sidqiy Xondayliqiy uni toshbosmaga ko'chirgan, Shavkat taxallusi bilan suratlar ishlagan. Xislat "Dostoni Barzuyi sher" (Firdavsiy), "Mushuk ila sichqon" (Ubayd Zokoniyy) kabi asarlarni ham tarjima qilgan.

Xislatning maslakdoshi Sidqiy Xondayliqiy fors-tojik tilidan "Qissai shahzoda Bahrom va malikai Gulandom" nomli asarni tarjima qiladi. Asar 1911-yili G'ulomiya matbaasida chop etilgan. Tarjima Sidqiyning do'sti, kitob tojiri Mirzo Ahmad Mirzokarimboy tavsiyasiga ko'ra amalga oshirilgan. Olim M.Muhiddinov mazkur tarjimaga asos bo'lgan manbalarni aniqlab, 1901-yili Laknovda Navlaksho'r matbaasida bosilgan nusxasiga qiyoslaydi (4,139-145). Ko'rinadiki, noshirlar, kitob tojirlarining madaniy-ma'rifiy aloqalardagi hamkorliklari natijasida an'anaviy syujetlarning turfa xil talqinlari bilan kitobxonlarni tanishtirish imkoniyati yaratiladiki, bu jarayon o'z navbatida har ikki adabiyot rivoji uchun xizmat qildi.

O'tgan tadqiqotlarda tahlilga tortilmagan xuddi shu nomdagi asarning yana bir tarjima nusxasi mavjud. Kitob Sidqiy tarjimasidan ikki yil keyin 1913 - yili Toshkent shahridagi "Aziya" matbaasida nashr etiladi. Titul sahifada uning yaratilishida mas'ul bo'lgan shaxslar haqida ma'lumot beriladi: "*Mutarjim Mullo Abdulloh hoji Mirkarimboy o'g'illari bo ehtimomi Mullo Zufar Shukur Muhammad o'g'illari*". Demak, asar Mullo Abdulloh hoji tomonidan tarjima qilingan va kitob tojiri Mullo Zufar homiyligida nashr qilingan. Xattot Abdulhamid qori. Kitobga asar mazmuniga monand oq-qora rangda to'qqizta surat ishlangan. Suratlar

chetida kichik qilib *“Raqami kamtarin Abdulhamid”* deya qayd etilgan. Tarjimon asarning yaratilishiga sabab bo‘lgan omilni quyidagicha izohlaydi: *“Zeroki, zamonni taqozosi o‘zgacha erur. Xususan olimlarni ichinda ulumi tavorix, ya’ni o‘tgan zamondagi axborlarni bilmoqg‘a odamlarni ishtahasi ortuq erur. Tavorix ilmini ichinda oshiq-ma’shuqni hikoyasig‘a ko‘broqlari mafg‘uftururlar. Voqean har majlislarda oshiq va ma’shuqni hikoyasin aytilsa jon quloqlari birlan eshiturlar va anga eshitmoqlari haddin tashqari ortuqdur. Darhaqiqat, tavorix ilmi bir yaxshi ilm erurki, nechand foydalari bortirur”*.

Tarjimon olim va xalqning qiziqishlaridagi tafovutni ayta turib, kitob o‘qish va eshitishning foydalarini sanaydi va tarjimaning buyurtmachisini quyidagicha ta’riflaydi: *“javonmardliq maydonida javlona karam va ehson bo‘stonida balbal xush alhon, zakovat va fazilat gulistonida navoxon, saodatlik va karomatlikda yakto va she’r va shoirlikda Sa’diyamo, durru ma’oniya Navoiyoso ani Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat ibn Sayid Orifxo‘ja ibn Sayid Mahmudxo‘ja ibn Sayid Norxo‘ja oliy oxir nasabzot Alloh taolo kamoli va iqboli avlodi shayx Zayniddin boboigo‘y Orifoni Rahmatulloh taolo alayhi bir kitobi qissai Bahrom va Gulandomnoma olub kelub aydilarki, bul kitob forsi lafz ekan, ammo bizni viloyatlarimizda turki lafzni xohlar, agarda ani turkig‘a shirin iboratlar birla ta’bir qilsalar, ani man matba‘da tab‘ qildursam, musulmonlar andin naf‘ olsalar... dedilar”*.

Ma’lum bo‘ladiki, asar tarjimasining yaratilishiga sabab bo‘lgan shaxs bu Xislat. Mazkur ma’lumotlar Xislat hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarda uchramaydi. Qiyosiy solishtirishlardan ma’lum bo‘ladiki, Sidqiy amalga oshirgan tarjima bilan mazkur tarjima aynan bir xil boshlanmaga, mazmunga ega. Biroq nima uchun ushbu asarning yana bir bora amalga oshirilishiga bo‘lgan sababga kirish qismdagi ma’lumotlar qisman oydinlik kiritadi. Tarjimon bu holatni quyidagicha ma’lum qiladi: *“boz janobi iltimos qilg‘uchi aydilarki, harchand bul kitobni Sayqaliy otlig‘ shoir libosi nazm birla tarjima qilg‘on ekan. Ammo ani qilg‘on tarjimasi kulli emastirur, balki kamroq ekan. Ani sababidin va yana nazmlik jihatidin ani tab‘ qildurmadim, bul tarjima qilingan nusxa ko‘b kulli va yaxshi ekan, dedilar”*.

Asar Sidqiy tarjimasi singari boshlanadi. Umuman, bu turkumdagi asarlarning o‘zaro qiyoslanishi o‘zbek va qardosh xalqlar adabiyotiga xos mushtarak jihatlarni ochishga yordam beradi. Ko‘rinadiki, yaratilgan barcha nasriy asarlar, nasrda qilingan tarjimalar xalqning badiiy asarlarga bo‘lgan ehtiyoji, talablari asosida dunyoga kelgan. Ularning barchasi

ilgariroq yaratilgan bo'lsa-da, XIX asr oxiri XX asr boshlarida qaytadan ijod etildi, tahrir qilindi, davrga xos bo'lgan xususiyatlarga moslashtirildi, ommalashtirildi, mavjudlari ham yuzaga chiqdi, toshbosmalarda chop etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Н. (2008). *XX asr adabiyoti manzaralari*. T.: O'zbekiston.
2. Комилов Н. (1970). *Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати*. Фил. фан. ном. дисс... Т.
3. Муртазаев Б. (1991). *Алишер Навоий "Сабъаи сайёр" ва Хисрав Деҳлавий "Ҳашт беҳишт" дostonларининг қиёсий таҳлили*. Фил. фан. ном. дисс... Т.
4. Муҳиддинов М. (2007). *Нурли қалблар гулшани*. Т.: Фан.

SHUKURIY IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI

Sobira JO'RAYEVA,
O'zMU Jurnalistika fakulteti O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Email: sobirajuraeva1@gmail.com

Annotatsiya

Abdushukur Shukuriy XVIII asr oxiri XIX asr boshlari o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, zullisonayn shoir bo'lib, u haqda Vozeh, Hashmat, Sadri Ziyo, Sadridin Ayniyning tazkiralarda ma'lumotlar bor. Maqolada shoirning ijodiy faoliyati hamda Navoiy merosidan ta'sirlanib yaratgan baytlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: meros, ruboiy, hamd, na't, chahoryor, masnaviy, forsiy, Hashmat, Sadri Ziyo, ta'rix, masnaviy.

Аннотация

Абдушукур Шукури - представитель узбекской классической литературы конца XVIII - начала XIX веков. О нем говорится в антологиях Хашмата, Садри Зии и Садриддина Айни. В статье речь пойдет о творческом наследии и анализе его произведений.

Ключевые слова: рубай, хамд, наът, чахорёр, маснави, персидский, Хашмат, Садри Зия, рукопись, маснави.

Abstrakt

Abdushukur Shukuriy is a major representative of Uzbek classical literature of the late 18th and early 19th centuries, poet about whom there is information in the tazgirs of Vozeh, Hashmat, Sadrid Zia, Sadridin Ayni. The article discusses the creative activity of the poet, the analysis of his works.

Keywords: heritage, ruboi, praise, chahoryor, masnavi, scientist, Persian.

Shukuriy Sharq mumtoz so‘z san‘ati maktabida tarbiya topgan, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi zabardast shoirlar ijod tajribalaridan saboq olgan iste‘dodli qalam sohibidir. Uning mahorati salaflariga ergashib, o‘z fikrlarini har turli badiiy san‘atlar vositasida tasvirlashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aslida har qanday shoirning mahorati darajasi uning yangi va ta‘sirli tarzda fikrlarini obrazli ifodalashi bilan baholanadi. Shoir she‘rlarini badiiyat nuqtai nazaridan tekshirganda uning o‘ziga xos iste‘dod sohibi ekanligiga hech shubha qolmaydi. Ammo uning ustozlari, betakror ilhomchisi Alisher Navoiy edi. Navoiydan u faqat g‘oya, mazmun, ifoda usullarini qo‘llashda emas, balki rang va rang turlari orqali inson ichki dunyosidagi ma‘naviy holat, ruhiy o‘zgarishlarini tasvirlashda izdoshlik qilgan. Bu jihatdan uning Navoiy an‘analarini munosib ravishda davom ettirgani tahsinga loyiqdir.

Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonida shunday matlali g‘azal bor:

*Kirsa ul gul xirmani ag‘yor ila gulzor aro,
Men hamono tolpinurmen xirman etkan xor aro,*

Bu g‘azal 9 baytdan iborat bo‘lib, aruz she‘riy tizimining ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun — — V — —) vaznida yozilgan. Shukuriy devonida ham xuddi shu vaznda bitilgan “Yordin ayrilg‘oli zohir erurlar ko‘zda yosh, O‘q bo‘lur zohir kavokib xayli chun botsa quyosh” matlali g‘azali mavjud. Bu g‘azaldagi g‘oya va badiiyatda ham an‘ana va novatorlik yaqqol ko‘rinadi. Alisher Navoiy g‘azalida "Yashil o‘sma bilan zeb berilgan qoshlaring gulzor sahnida jilvagar bo‘lgan ikki tovusga o‘xshaydi", degan go‘zal tashbeh asosiga qurilgan betakror bayt mavjud:

*Lojuvardiy vo‘sma birlan zeb bergan qoshlaring,
Jilvagar bo‘lg‘on ikki tovus erur gulzor aro.*

Shukuriyning quyidagi baytida ayni tashbeh rivojlantirilib, uning yangi qirrasini ochilganligini ko‘ramiz:

Lojuvardiy vo‘sma chekkan qosh aro xol ul masal,

Ikki tovuş gul aro bir donag‘a aylar taloş. (D.58-b)

Ya‘ni: Yashil o‘sma tortilgan qoşlar orasidagi xolni shoir go‘yoki gulzor ichra ikki tovuş bir don ustida talashayotganga o‘xshatadi.

Bu o‘rinda Shukuriy ham xol obraziga murojaat qiladi. Ma‘lumki, xol mumtoz adabiyotda o‘ziga xos ramzga ega an‘anaviy obrazlardan biri. Unda ma‘shuqaning go‘zalligi anglashiladi. Ma‘shuqa peshonasida joylashgan xol xuddi ilohiy mo‘jizaga o‘xshab, yorning husniga yanada husn bag‘ishlamoqda. Bu o‘xshatishlar o‘ziga xos ohorlilik bilan yanada diqqatga sazovordir. Navoiy topgan tashbehi o‘ziga xos jozibaga ega bo‘lsa, kutilmagan manzarani o‘quvchi ko‘z oldida jonlantirishi jihatidan Shukuriy tashbehi ham salafinikidan aslo qolishmaydi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, ayni o‘rinda Shukuriy Navoiy “panjasiga panja ura olgan, deyishga haqlimiz. E‘tiborlisi shundaki, Shukuriy o‘z irfoniy-insoniy qarashlari hamda dardli kechinmalarini muayyan bir timsol asosida ifodalar ekan, faqat shu obraz va u hosil qilgan poetik manzaralar bilan cheklanmaydi, balki unga ma‘nodosh timsollar tasviri bilan ham adabiy voqelik doirasini kengaytiradi. Shukuriyning “Quyosh” radifli g‘azali holati g‘oyat balanddir. Quyosh olamga yog‘du sohib, borliqni yashashga undaydi. Ma‘shuqa esa ana shu hayot manbaidan ham yuksak. Ya‘ni, husni bilan quyoshni ham xijolatga qoldiradi:

*Sen botib oltung‘a ko‘k masnadda o‘lturg‘on chog‘i,
Sarg‘arib ko‘kdin yiqilmishdur bo‘lib rasvo quyosh.*

Shoir yana davom ettirib deydi:

*Goh o‘tdek ravshan o‘lg‘ay, goh qozon yanglig‘ qaro,
Goh sendin nur olur, goh aylar istig‘no quyosh [5,48].*

Birinchi baytda keltirilgan sariq, ko‘k, oltin ranglar ma‘no takomilidan dalolat beradi. Ma‘shuqaning tengi yo‘q go‘zalligini ta‘riflar ekan, shoir quyoshning tafti ham senga doş berolmay (yonayotgan husningga) ko‘kdan yiqilib, rasvo bo‘lishi ham mumkin, deydi. Birinchi misradagi ko‘k rang ma‘shuqa o‘tirgan kursining rangiga ishora bo‘lsa, ikkinchi misrada shoir tajnis san‘atining go‘zal namunasini yaratadi. Ya‘ni turkiy «ko‘k» lafzi birinchi misrada biror narsa-buyumning belgisi bo‘lsa, ikkinchi misrada osmon ma‘nosida qo‘llangan. Yoki ikkinchi baytni tahlil etsak, shoirning badiiy mahorati yanada oydinlashadi. Birinchi misradagi «o‘tdek» so‘zi olov ranggiga ishora. Shoir aytmoqchiki: «Ey go‘zal siymo, Sen shunday kuchga egasan Quyosh sendan nur olganda, o‘tdek ravshan bo‘lib ketadi, goho istig‘no, ya‘ni tortinganda qozon kabi qop-qora bo‘lib qoladi”.

Ko‘rinadiki, shoir ranglardan shunday mohirona foydalangan. Ma‘lumki, rangning qabul qilinishi insonning fe‘l-atvori, estetik didiga bog‘liqligi masalasida olimlar, rassomlar azaldan bahslashib kelishgan.

She‘riyatda rangning obraz yaratishdagi o‘rni beqiyosdir. Chunki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar va murakkabliklarga boy bo‘lgan voqelikning tub mohiyatini chuqurroq anglab, estetik jihatdan osonroq tushunishda rang vositasidan foydalanish keng imkoniyatlar yaratib beradi. Navoiy ijodida ranglarning an‘anaviy ifodalarini qo‘llash bilan bir qatorda, ularning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy munosabatni muvaffaqiyatli yuzaga chiqargan. Masalan, Navoiy she‘rlaridagi oq rang an‘anaviy ma‘no munosabatlariga ko‘ra ijobiylikni, poklikni o‘zida aks ettiradi. E‘tiborlisi, Navoiy g‘azallarida rang qo‘llanish an‘analariga novatorona yondashadi. Birgina sariq rang vositasida lirik qahramon ruhiyatining tasvirlanishini “sorig‘” radifli g‘azali misolida kuzatishimiz mumkin. Y.Is‘hoqov shunday deydi: “Navoiy she‘rlari orasida har bir rangga doir bir necha g‘azal mavjud. Lekin ularning har biri o‘z xususiyatiga ega, ya‘ni shoir bir rangning turli tuslariga (ottenkalariga) alohida-alohida g‘azal bag‘ishlaydi va buning uchun u ana shu ottenkalarni to‘g‘ri ifodalaydigan sinonimlardan foydalanadi. Mavjud sinonimlarning har birini qo‘llashda ma‘lum o‘rni va sistema bor va ana shu g‘azallarning har birida lirik qahramonning biror holati, kechinmalarning muayyan tomoni ochiladi”. Darhaqiqat, quyidagi mashhur g‘azalda ham dilbarning qizil, sariq, yashil rangdagi xil‘ati tasviri asosida ajoyib manzara chizilgan:

Xil‘atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,

Shu‘layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Ey Navoiy, oltunu shingarfu zangor istama,

Bo‘ldi nazming rangidin devon qizil, sorig‘, yashil.

O‘zbek she‘riyatidagi janrlar faoliyati ham ana shu omillar ta‘siriga bog‘liq. She‘riyat bevosita obrazli ifodalash san‘ati bo‘lganligi bois undagi obrazlar davr muammolarini boshqa turlarga qaraganda yorqinroq aks ettirishi muhimdir. Obraz yaratishda esa rangning ahamiyati beqiyos. “G‘azalda ranglardan inson ruhiy dunyosining xilma-xil holatlarini ochishda ramziy ma‘noda foydalanish Navoiy g‘azaliyoti uchun xarakterli bo‘lgan usullardan biri hisoblanadi. Xorazmda Ogahiy, Buxoroda esa Shukuriy shu usul bilan alohida g‘azallar bitgan”.

Alisher Navoiy she‘rlarida oq rangning soflik, to‘g‘rilik, yaxshilik, yorug‘lik, ulug‘lik, adolat, eng asosiysi go‘zallik ma‘nolari keng yoritilgan”.

Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonida o‘qiymiz:

*Ashkdin bo'ldi qarorg'an kulbai vayronim oq,
Kulbai vayron demakim, diydai giryonim oq,* –
bayti bilan boshlanadigan g'azal bor. Shukuriy ushbu g'azaldan ilhomlanib, shunday baytlar yaratgan:

*Jilva azmin qildi men sori kiyib jononim oq,
O'ldi hijrondin qarorg'on kulbai ehzonim oq.
Yo'q savodu xattu bo'ston ila maktabdin manga,
Ne ajab bo'lmoqlig'i daftari devonim oq.*

Lirik qahramon ruhiy holati g'azalda oq va qora tazodi asosida ochib beriladi. Oshiqning kulbasi hijron g'amida qoraygan. Kulba – oshiq ko'ngil dunyosining ramzi. Hijron shiddatidan dunyo ham uning ko'ziga qorong'i. Shunda oq xilqatli jononaning tashrifi oshiq ko'nglini yoritib yuboradi. Bu holatni shoir qoraning oqqa o'zgarishi orqali ifodalaydi:

*Tiyra shoming subh yanglig' ravshan o'lsa, ne ajab,
Ey Shukuriy, gar netib chiqsa mohitobonim oq.*

Ko'rinib turibdiki, ikkala g'azal ham she'riyatning go'zal namunasi. U salaflari an'analarini davom ettirib, lirikaning oshiqona, orifona va rindona namunalarini ham yaratdi. Shukuriyning boshqa janrlardagi she'rlarida ham asriy an'analar ta'siri kuchli ekanligini ko'ramiz.

Sharq mumtoz so'z san'atining zabardast namoyandalaridan o'rganish, ulardan ta'sirlanish, ularga ergashish, g'azallariga tatabbu yozish, taxmis bog'lash – Shukuriy ijodining etakchi xususiyati hisoblanadi. Xususan, u Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi ustoz shoirlardan saboq oldi. Ularning merosi shoir ilhomiga ilhom, kuchiga kuch qo'shdi, o'z xalqlari uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.

Xullas, Shukuriy o'z ijodiyotida mumtoz she'riyatimizning ilg'or an'analarini davom ettirishga harakat qildi. Uning inson erki va tuyg'ulari cheklangan muhit, adolatsiz zamonadan shikoyati yorqin ifodalangan va davrning umumiy illatlariga nisbatan nafrat ruhi bilan sug'orilgan mazmundor lirikasi mavjud. Bu lirika shubhasiz, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmidagi o'zbek she'riyatining muhim namunalari qatoridan orin egallagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Nosirov O. O'zbek adabiyotida g'azal. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972.
2. Ochilov E. Navoiy g'azalarida komil inson timsollari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №1.

3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979. – 216 b.
4. Tohirov Q. Abdushukur Shukuriy hayoti va ijodi haqida. Adabiyot va Hayot. – Samarqand, 1977. II-kitob.
5. Shukuriy Abdushukur. Devon. Nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi S.Jo‘rayeva. – Toshkent: Navro‘z, 2018.
6. Hayitmetov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent, 1998. – 158 b.
7. Haqqul I. G‘azal gulshani. – Toshkent: Fan, 1991.

ALISHER NAVOIY VA SHASHMAQOM

**Maxfuza KARIMOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti dotsenti
zafarmrake@gmail.com**

Annotatsiya

Shashmaqom ijrosini Alisher Navoiy g'azallarisiz tasavvur qilish juda mushkul. Zero, ushbu g'azallar bilan aytiladigan maqomlarning ijro namunalari o'zlarining shaklu shamoyili, ichki rivojlanish tartibi, turkumiylik qoidalarining qat'iy qaror topganligi bilan ajralib turadi, ularning ijro amaliyoti jarayonidagi muayyan talqin uslublari maqomdon ustozlar tomonidan alohida bir hafsala bilan yaratilib, ustoz-shogird maktabi an'analari mos holda og'izdan og'izga, ustozdan shogirdga, avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Shu bois ham o'quv jarayonida har bir maqom namunasini Alisher Navoiy g'azali ruhidan kelib chiqib, turkumiylik jihatlaridagi o'rinlari kesimida, bizgacha yashab ijod etgan ustozlar ijro an'analari negizida o'zlashtirish talab etiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Shashmaqom, namud, mustahall, daromad, miyonxat, dunasr, avji Turk, avji Zebo pari.

Аннотация

Трудно представить исполнение Шашмакома без газелей Алишера Наваи. Ибо, образцы Шашмакомов, исполняемые на газели Алишера Наваи, отличаются формой, внутренним порядком и строгостью развития исполнения. Поэтому в учебном процессе необходимо разучивать и исполнять каждый маком исходя из духа газелей Алишера Наваи, а также на основе исполнительской практики живших и творивших до нас мастеров макомов.

Ключевые слова: Алишер Навоий, Шашмаком, намуд, мустахалл, даромад, миёнхат, дунастр, авжи Тюрк, авжи Зебо пари.

Abstrakt

It is very difficult to imagine the performance of Shashmakom without Alisher Navoi's ghazals. After all, the examples of performance of maqoms sung with these ghazals are distinguished by their form, order of internal development, and the strictness of the rules of serialization. Therefore, in the educational process, it is necessary to learn each sample of Shashmakom based on the spirit of Alisher Navoi's ghazals, according to their place in the aspects of series, on the basis of performance practice of masters who have lived and created before us.

Keawords: Shasmaqom, namud, mustahall, daromad, miyonxat, dunasr, avji Turk, avli Zebo pari.

Yaqinda "Shashmaqom talqin qoidalari" o'quv qo'llanmasining nashrdan chiqib, dunyo yuzini ko'rayotganiga sababchi omil, avvalambor, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq xalqimizning ko'pyillik mustabid tuzum sharoitida izdan chiqib, ba'zi sohalarda hatto yo'q bo'lib ketishga yuz tutgan milliy an'ana va qadriyatlarimizning davlat va hukumat tomonidan tiklashga bo'lgan shijoati, xususan, o'zbek milliy musiqa san'ati durdonasi bo'lmish o'zbek maqomotiga yangi hayot bag'ishlashga bo'lgan katta e'tibori, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z faoliyatining dastlabki davridanoq til va adabiyot, kitobxonlik, madaniyat, musiqa va san'at yo'nalishida chiqargan qator farmon va qarorlari, alaxusus, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining ochilishi, O'zbek milliy maqom san'ati markazining ta'asis etilishi [1,2] va o'zbek milliy musiqa san'atini chuqur ilmiy tadqiq etish maqsadida uning O'zbekiston davlat konservatoriyasi tarkibidan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tarzida faoliyat yurita boshlagani, shuningdek, Respublikamizning 3 ta mintaqaviy vohasida ixtisoslashgan maqom maktab-internatlarining tashkil etilishi favqulodda tarixiy voqealar bo'ldi va bu o'zbek milliy maqomoti taraqqiyotiga zalvorli turtki bo'ldi..

Markaziy Osiyo xalqlari qatori o'zbek xalqi ham tarixan og'ir vaziyatda, zikr etilgandek, milliy an'ana va qadriyatlaridan tashqari, ayniqsa, o'z milliy tili va adabiyoti, o'ziga xos milliy mumtoz musiqa san'ati – o'zbek maqomotini ham avaylab-asrab, endilikda ularni yanada

takomiliga etkazayotgani tahsinga sazovor. Bu mustaqilligimizning eng sezilarli yutug'laridan deyish mumkin. O'zbek tili va maqomlari nafaqat g'azal sultoni hazrat Alisher Navoiyning ona tili va uning g'azallariga bastalangan navolar, balki ko'psonli 99 turkiy xalqlar tillarining o'zagi va san'ati hisoblanadi. Zero, til borasida turkiyzabon xalqlar rusiyzabon pravoslav xalqlar, yoxud ispan, ingliz va germanzabon xalqlar singari tarixan bir o'q ildizga egalar. Turkiyzabon xalqlarning ilm-fan va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan inkor qilib bo'lmas hissasi barchaga ma'lum. Eng muhimi, bir paytlar tarixning achchiq daqiqalarida bu xalqlarning boshbodoqligi tufayli qo'ldan boy berib qo'yishga majbur bo'lib qolganimiz – bugungi kundagi mustaqillik sharofati ila qo'lga kiritilgan tug'imizni endilikda ko'z qorachig'iday asrab, bundan buyon uni qo'ldan tushirmay va hech kimga tob'e bo'lmay, boshimiz uzra ko'klarga ko'tarib, yangi kelajak – yangi O'zbekiston sari olg'a yurishimiz joiz. A.Oripov sharaf bilan aytganidek, dunyoda ulug' milliy tuyg'ularimizni yo'qotmay, har bir zamonamiz yoshlariga “bobolaring mard bo'lgan” [3] ekanini doim yodda saqlashi kerakligini eslatib, ammo faxrlanish bilan cheklanib qolmay, barcha jabhada “endi olg'a bosinglar” deyishimiz kerak.

Shashmaqomning eng rivoj topgan davri, albatta, Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog'liq. Ammo bobomiz yashab ijod etgan davrda ham nota yozuvi bo'lmaganligi bois ko'plab ijro namunalari bizgacha yetib kelmagan. “O'n ikki maqom” va uning negizida yuzaga kelgan Shashmaqom va uning tarixan shakllanish shart-sharoitlari hali-hanuz qorong'uligicha qolib kelmoqda [4,5]. Bu borada bizga yangi asosda shakllanayotgan “Fragmentar falsafa” metodologiyasi balki qo'l kelar [6]. Uning asosiy g'oyasi shundaki, oddiy taqqoslash va solishtirish asnosida “qism”dan “butun”ni va, aksincha, “butun”dan “qism”ni anglab olish ilmi hisoblanadi. Qaysi ilm-fan sohasini olmaylik, ularning tarix zarvaraqlarida tarqalib va sochilib yotgan qismlari bo'lmish “fragmentlari” mavjud. Murakkab bo'lsa-da, ular yordamida “butun”ning manzarasini qayta tiklashga imkon bor. Masalan, daraxtning eng kichik “qismi” hisoblangan but-butoqchasiga e'tibor bersak, u o'zi osilib turgan shox-shabbasiga juda o'xshaydi. Endi sinchiklab qarajak, shox-shabba ham daraxt shoxiga juda o'xshaydi. Va nihoyat, yanada sinchiklab qaralsa, har bir daraxt shoxi qaysidir jihatdan daraxtning o'ziga, ya'ni “butun”ga o'xshaydi. Demak, hayotda kuzatganimiz – ota va o'g'il, ona va qiz, bobo-momoyu nabira va abiralar o'rtasidagi ruhiy va ayniqsa tashqi “o'xshashlik” alomatlar tabiat ob'yektlari va jarayonlarida ham mavjud. Xulosa shuki, ilm-fanda to'planib qolgan ko'plab jumboqlar echimini

“solishtirish” asnosida izlash lozim. Bu kabi g’aroyib “o’xshashlik”larga inson nega qadim zamondan bee’tibor bo’lgan? Ushbu g’oya vositasida maqomot tizimida ham asrlar mobaynida oydinlik kiritilishiga “muhtoj” ko’plab jumboq (“фрагмент”) larga javob topish mumkin. Masalan, maqom san’atining eng jumboqli jarayoni bo’lmish namudlar ilmi negizida [7-8]. Insonning “bir og’iz so’zi” yoki o’ta muhim vaziyatda o’zini “qanday tutishi”ga qarab uning “asl siyrati”ni bilib olsa bo’ladi. Ya’ni, “fragment”dan “butun”ning manzarasini “yasash” mumkin.

“Shashmaqom talqin qoidalari” o’quv qo’llanmasining yaralishi tabiiy hol, zero, Shashmaqomdagi maqomlarga matn tanlashda Alisher Navoiyning ko’plab g’azallaridan foydalangan akademik Yunus Rajabiy va ularga g’oyadosh ko’plab maqomdon xonanda va sozanda ustazodalarning mumtoz musiqa sohasida, xususan, ijroviy maqomotdagi sermahsul nazariy, amaliy tajribalari va o’gitlaridan, “qog’ozga tushirgan” namunalardan kelib chiqib, zebu ziynatga to’la Shashmaqom bilan bog’liq ijroviy bilimlarni aziz umrini maqomotga baxshida qilishga bel bog’lagan yosh xonanda va sozanda talaba (bakalavr) larga baholi-qudrat yetkazish o’ta dolzarb.

Alisher Navoiy g’azallari bilan aytiladigan Shashmaqomlarning ijro namunalari o’zlarining shaklu-shamoyili, ichki rivojlanish tartibi, turkumiylik qoidalarining qat’iy qaror topganligi bilan birga, ijro amaliyoti jarayonidagi muayyan talqin uslublarini maqomdon ustozlar tomonidan yaratilishi, ustoz-shogird maktabi an’analarga mos holda og’izdan-og’izga, ustozdan shogirdga, avloddan avlodga o’tib kelgan. Bu maqomlarning qay darajada buyukligi ularning mukammalligi, salobati, har tomonlama puxta o’ylab yaratilganligida namoyon bo’ladi. Shu bois o’quv jarajonida har bir maqom namunasini Alisher Navoiy g’azallari xarakteridan kelib chiqib, turkumiylik jihatlaridagi o’rinlari kesimida, shuningdek, bizgacha yashab ijod etgan ustozlar ijro an’analari negizida o’zlashtirgan holda ijro etish talab etiladi.

Hozirgi davrda Shashmaqom va maqomlarni o’zlashtirishda ularni nazariy va amaliy jihatdan u yoki ustoz-shogird maktabi an’ana’lari ruhida maromiga yetkazib ijro etish ko’nikmalarini saqlab qolish o’ta muhim. O’z davrida maqomdon ijrochi ustazodalarning ijrochilik amaliyotida yuzaga kelgan, bugunda o’z rivojini topgan maqom namunalari, ulardagi namud tizimi ilmini tadqiq etishning o’z mezonlari va tahlil qoidalari mavjud. Bu mezonlar va tahlil qoidalari azaldan shogirdning o’z ustozlari ijro amaliyotida bevosita ishtirok etgan holda o’zlashtirib kelinganligida.

Darslikdan maqomga ixtisoslashgan musiqa va san'at maktablari, o'rta va musiqa kolejlari, litseylari, oliy ta'lim tizimi talabalari Shashmaqom va maqom namunalarining ijroviy "umumiy qoidalari"ni o'zlashtirishda uslubiy tavsiyalar qo'llanmasi sifatida foydalanishlari mumkin. Unda maqomotning quyidagi tomonlari tadqiq etilgan:

Maqomlarini qoidali ijro etish ko'rsatmalari;

Maqom namunalarini ijro amaliyotidagi tarkibiy tizim atamalari;

Ijro amaliyotida namudlarning talqin qoidalari.

Mustahall I. O'rta asrdan Sharq madaniyatida forscha "kor" deb atalgan cholg'u va vocal musiqa shakli bor. Mumtoz o'zbek adabiyoti namoyondalari A.Navoiy va Z.M.Bobir g'azallarida ham bu so'z "ish, yaratish" ma'nosida kelsa, arabchada "amal" deyiladi. Maqom san'atida cholg'u daromadi va ashula (ijro) daromadi degan tushunchalar mavjud. Maqom namunalarining ilk qoidasi shuki, odatda yaratilajak ("kor") har bir musiqiy namuna aksariyat hollarda kirish cholg'u daromadi (muqaddima) – mustahall bilan boshlanib, 2 ta sarxona (daromad va peshdaromad), miyonxona (miyonxat) va bozgo'y (namudlar va furovard) qismlaridan tashkil topadi. Biroq amalda ba'zi maqomdon ustozlar o'z ijrolarida ashulani "hang" bilan boshlasalar, ba'zilar, aksincha, asar cholg'u ijrosini o'ziga xos badihaviy ohang bilan boshlashni odat qilganlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan "Chorgoh"ning boshlanishi hang. Ammo, maqomot sir-asrorlarini astoydil o'rganishga bel bog'lagan talabalarga eslatib o'tish joizki, hozir va ilgari tajribali hofizlar ashulani ijro etganlarida asar boshida kuy chalmay, mustahall o'rniga 2 marta usul berib, ashulani aytib ketaverishgan. Zero, ular "so'z"ni kuydan muhimroq hisoblaganlar va tinglovchi e'tiborini g'azal yoki she'r ma'nosiga qaratganlar. Masalan, "Talqini Ushshoq"ni ijrosi Fattoxxon Mamadaliyevda boshqacha, ilk magnit tasmalaridagi maqomdon ustazodalarning ijrosi o'zgacha. Hozirgi kunda "Maqomchilar ansambli" ijro amaliyotiga Abduhoshim Ismoilov ohanrabo musiqiy elementlar qo'shmoqda. Demak, bu borada turli badihaviy yondashuvlar mavjud. Nima bo'lganda ham katta hofizlarning yo'rig'i boshqa. Boshlovchi talaba xonanda va sozandalar bunday darajaga sekin-asta va ijroviy tajriba orttirish orqali erishadilar.

Daromad. Mustahalldan so'ng odatda ashula daromadi kelsa-da, ammo ungacha bo'lgan cholg'u daromadini ashula daromadiga yuksak badiha bilan etkazib berish cholg'u ijrochisidan katta e'tibor va diqqatni talab etadi.

Ashula daromadidan so'ng miyonxat keladi, ammo ularning oralig'ida muhim ijro amallari bor. Ayrim ashulada ikkisi 2 marta qaytariladi, ayrimlarida mustahall 2 marta qaytariladi.

Peshqadam. Talabalarga eslatib o'tish kerakki, bir toifa ashulalarda 2 marta aytiladigan daromad bor, ya'ni asosiy daromaddan oldin peshdaromad ham keladi. Masalan, "Sodirxon Ushshog'i"da daromaddan so'ng yana mustahall keladi. Bunda mustahall miyonxatni tayyorlab beradi.

Miyonxat. Miyonxat asar rivojining 2-xati va 2-pog'onasi hisoblanadi. Daromadda boshlangan asosiy mavzuni kvanta-kvinta yuqori pardalarda rivoj toptirish miyonxatta ijro etiladi, ya'ni miyonxat asosiy mavzuni bir oktava yuqoridan qaytarishga tayyorlab beradi. So'ng mustahall asosiy mavzuni dunasrda aytilishiga tayyorlaydi.

Dunasr. Dunasr maqom ashulalaridagi asosiy mavzuning oktava yuqori pardada keladigan davomi hisoblanadi. Dunasr ashulaning muhim qismlaridan. U maqom ijrochisining ijro uslubiyati bilan chambarchas uyg'unlashgan. Unda ayniqsa badihaviy unsurlar qo'llaniladi. Shu bilan birga dunasr 1-Avj bo'lib kelishi ham mumkin. Ammo dunasrning eng muhim jihati u asarning avjlar tizimini boshlab beradi. Asosiy mavzuni avjlar tizimida ijro etishga tayyorlashda dunasr asarni dramaturgik rivojlovchi vazifasini ham bajaradi.

Mustahall II dastlabki mustahall I dan murakkabroq. U o'ziga xos badiha bilan ijro etiladi. Bunda xonanda asarning asosiy mavzui va eng muhim qismi hisoblanmush ashula avjini ijro etishga tayyorlanadi. Bor e'tibor cholg'uchining va cholg'uchilarning ijro mahoratiga qaratiladi. Masalan, "Feruz", "Tamanno" ashulalarida mustahall II katta peshrav bilan beriladi. Cholg'uchilar mahoratiga ko'p narsa bog'liq, chunki ular ayni shu maqom asariga xos qochirimlar va o'zgacha badihaviy yo'llar bilan kuyni o'ta mahorat bilan ijro etib, xonandani ashulaning avjini aytishga "ro'baro'" qilib qo'yadilar. Uning zamirida cholg'u ijrosiga katta e'tibor yotadi. Bu borada Turg'un Alimatov, Abduhoshim Ismoilov, Mahmudjon Tojiboyev, Mahmudjon Yo'ldoshev, Abdurahmon Xoltojiyev, Abdulahad Abdurashidov kabi bir qator benazir ustozlarning ijro mahoratlari taqsinga loyiq.

Avj. Avjlar ham ashulalarda turlicha keladi. Asarlarning murakkablik darajasiga qarab avjlar 2 tadan 4 tagacha bo'ladi. Masalan, "Soqiynoma"da 2 ta avj, "Talqini Ushshoq", "Eshvoy"da ustozlar 4 tagacha avjlarni qo'llaganlari ma'lum. Qolaversa, muayyan asar o'zining avji, so'ng bir

Avji Turk bilan yoxud yana bir bor o'zining avji bilan ham kelishi mumkin.

Avjlarda namud tizimi. Agarda asarda bir nechta avj bo'lsa mustahall bir namud avjini ikkinchi namud avji bilan bog'lovchi vazifasini bajaradi. Bu borada Yunus Rajaboy, Ishoq Rajabov va boshqa maqomdon ustozlarning risolalarida bayon etilgan keng qamrovli namudlar jadvaliga murojat etish lozim. E'tibor qaratish joizki, ijroviy jihatdan murakkabroq maqom asarlarining avj tizimlarida bir nechta namudlar ketma-ket qo'llaniladi.

Furovard maqom asarining o'ziga xos yakuniy va xulosaviy bo'lagi. Unda asar mavzusi asosiy nuqta (toni) ga olib kelib xotimali yakunlanadi.

Quyida yuqorida zikr etilgan tarkibiy tizim atamalarining (mustahall, daromad, miyonxat, dunasr, namudlar va furovard) Shashmaqom ijro amaliyotida qo'llash va talqin qilish qoidalari keltirilgan.

XULOSA VA TAKLIF

Alisher Navoiy g'azali bilan aytiladigan Nasri Uzzol misolida Shashmaqom va boshqa barcha maqomlar ijrosi uchun umumiy ko'rsatma:

- 1. Mustaxall.** Asar Alisher Navoiy g'azali bilan aytiladigan Nasri Uzzol maqomining mavzuini ochib beruvchi mustahall (cholg'u ijro) bilan daromadga tayyorlanadi.
- 2. Daromad.**(1-xat). Nasri Uzzolni tasdiqlovchi so'z.
- 3. Miyonxat** (2-xat) Asosiy mavzu rivoji, asosiy xatning musiqa ohang mazmuni doirasida hang yordamida ohang yakuniga yetkaziladi, Hangning ijrosini e'tibor bilan amalga oshirish lozim. Hang so'ngda asosiy pardaga olib kelib, asar dunasrga, bir jumlati cholg'u ijroga tayyorlanadi.
- 4. Dunasr.** Asarning avj qismi tayyorlanadi. Xonishda bunga e'tibor berilishi kerak. Undan keyin keladigan mustaxall ijroning avj qismini tayyorlab beradi.
- 5. Badiha:** Ushshoq namudiga mustahall.
- 6. Namudi Ushshoq.** Nasri Uzzolda 2 ta namud bor. Ushshoq namudi asarning ehtirosli qismini boshlab beradi va shu bois cholg'uchilar cholg'u muqaddimasi – mustahallni ko'tarinki ruhda ijro etishlari lozim.
- 7. Badiha.** Namudi muhayyari Chorgohga mustahall. Yakun mustahall bilan namud ijrosiga tayyorlanadi.
- 8. Namudi muhayyari Chorgoh.** Bu namud asarni katta avji va katta ijro mahoratini talab qiladi. Namud yakunda katta hangga ulanadi. Hang bilan furovardga kelinadi.
- 9. Furovard.** Nasri Uzzol asosiy pardada yakuniga yetadi.

Mustahall	NASRI UZZOL A.Navoiy g'azali
Daromad	Yuzungda may guli yo gul ochilg'on bo'stondur bu, Gulungda qatra xun, bo'stondagi suvdin nishondur bu.
Miyonhat	Ko'zumda qatra qonlar bog'lag'on ermas hamonokim, Nazar bog'ida shavqingdin ochilg'on arg'uvondur bu.
Dunasr	Emas vasling tilab uchqon ko'zum atrofida kirpik, Kim ul daryoi qushlarga qamishdin oshiyondur bu.
Badiha: mustahall	
Namudi ushshoq	Ko'nguldin chiqqan ohim aylar afzun xalq savdosin, Ki shaydoliq diyorida yetishgan korvondur bu. Labindin xastadur ko'nglum, dam ochma, ey Masih, o'tkim, Ilojin yuz seningdekning beganmas notavondur bu.
Badiha: mustahall	
Namudi muxayari chorgoh	Quyundek dasht aro ko'rsang meni ko'p qochmakim har dam Boshingg'a evrulur sargashtai bexonumondur bu. Ko'ngul mayxona romi, xotirim xush may batidinkim, Manga ruhil-amindur ul, anga dorul-amondur bu.

Furovard	Dema, xijron tuni har dam etar ul oyga faryodim, Ul oy faryodingg'a etmas, Navoiy, ne fig'on dur bu?
-----------------	---

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev, Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. Farmoyish. *Xalq so'zi*. 2017.
2. Mirziyoyev, Sh.M. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-3391-son qarori. *Xalq so'zi*. 2018.
3. Oripov, A. *Turon tarixi jurnali*. T. 2012.
4. Yunusov, R. *Faxriddin Sodiqov*. T. Musiqa. 2005.
5. Rajabiy, Yu. *Musiqa merosimizga bir nazar*. T. G'.G'ulom. 1978.
6. Mandelbrot, B. *Fraktal'naya geometriya prirodi*. M. IKI. 2002.
7. Matyoqubov, O. *Maqomot*. T. Musiqa. 2004.
8. Rajabov, I. *Maqomlar*. T. San'at. 2006.

JAMOL KAMOL SHE'RLARIDA NAVOIY VASFI

Munisjon HAKIMOV,
tadqiqotchi,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Email: munisjonh@mail.ru

Annotatsiya

Alisher Navoiy ijodi atoqli shoir Jamol Kamolni bolalik davrlaridanoq o'ziga rom etib kelgan. Maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy siymosining Jamol Kamol she'rlarida yoritilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: obrazlik, timsol, siymo, ta'sir, an'ana, ustoz, g'azal, muxammas, ruboiy.

Аннотация

Творчество Алишера Навои увлекало известного поэта Джамала Камала с детства. В статье говорится об освещении фигуры великого мыслителя поэта Алишера Навои и стихах Джамала Камала.

Ключевые слова: образность, символ, фигура, эффект, традиция, учитель, газель, мухаммас, рубай.

Abstract

Alisher Navoi's work has captivated the famous poet Jamal Kamal since his childhood. The article talks about the illumination of the figure of the great thinker poet Alisher Navoi in the poems of Jamal Kamal.

Key words: imagery, symbol, figure, effect, tradition, teacher, ghazal, mukhammas, rubai.

Shubha yo‘qki, o‘zbek adabiyotining «oltin davri» bevosita mutafakkir shoir Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. Navoiydan so‘nggi nafaqat o‘zbek, balki turkiy adabiyotda biror ijodkor yo‘qki, Navoiydan ilhomlanmagan, uni o‘ziga ustoz sanamagan bo‘lsa. Ana shu ehtirom va qiziqishlar xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham Navoiy obrazining yaratilishiga sabab bo‘ldi. Uning to‘g‘risida ko‘plab asarlar yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ijodida ham ulug‘ mutafakkirning an‘ana va ta‘siri bilan birga siymosi-da alohida o‘rin tutadi. «*Navoiy g‘azallarini ilk bor o‘qiganimda, o‘n uch yoshda edim. Oradan oltmish yil o‘tibdiki, hamon o‘qiyman. O‘qib, zavqiga to‘ymayman*» [2,2], – deydi shoir so‘z san‘atkorining ijodini e‘tirof etib. Ana shu cheksiz zavq Jamol Kamol qalamini shakllantirishdan tashqari shoir ijodida Navoiy siymosining yaralishiga vosita bo‘ldi. Jamol Kamol adabiyot ummoniga sho‘ng‘ishda boshqa ijodkorlardan ham ilhomlangan, albatta. «*Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Shayxzoda, Mirtemir – bular yosh Jamolning yaxshi ko‘rgan shoirlari edi. U Oybekka alohida mehr paydo qilgan va bir umr uning ijodiga bog‘lanib qolgandi. Biroq hammadan ham yuksak, hammadan ham yorqin porlagan mash‘ala – Navoiy edi. U boshqa shoirlarni ustoz hisoblagan bo‘lsa, Navoiyni pir deb bilgandi*» [8,6]. Shu ma‘noda aytish mumkinki, Jamol Kamol mumtoz, xususan, Navoiy ijodiga xos she‘riy an‘analarni munosib tarzda davom ettirib, ularga o‘zining keng qamrovli tafakkuri bilan yondashgan shoir bo‘libgina qolmay, buyuk shoirning obraziga ham qayta va qayta murojaat qildi.

Alisher Navoiy ijodida g‘azalnavislik muhim o‘rin tutadi. Jamol Kamol ham buyuk ustozga ergashadi. Navoiyning xoki poyini ko‘zga surtib, g‘azal yozishga kirishadi:

*Mir Alisher xoki poyin
Ko‘zga surtarman, Jamol,
To yozay deb ko‘z nurim birlan*

Guli ra'no g'azal...[4,261]

Shogird, ya'ni Jamol Kamol Navoiy ijodidan shu darajada zavq oladiki, nafaqat mutafakkir shaxsiyati, balki ustoz shoir she'riyatidagi har bir so'zning ma'no qatlamlarini izlaydi. Jumladan, Navoiy asarlariga oid lug'atlarni qarar ekan, «suvaydo» so'zi ham Jamol Kamolning diqqatini tortadi.

*Buyuk Navoiyning bosh lug'atida
Ne-ne tushunchalar pinhonu paydo.
o'sha olam-jahon so'zlar qatida,
Alomat bir so'z ham kelar: suvaydo...[4,137]*

Atoqli navoiyshunoslar P. Shamsiyev va S. Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan lug'atda «qora nuqta (go'yo bu nuqta yurak o'rtasida bo'lar emish)» [3,573], deya izohlanuvchi «suvaydo» so'zi Jamol Kamolga shu nomdagi falsafiy she'rni yozishga ilhom bag'ishlaydi. «Kimlarda jizg'anak, kimlarda so'xta» bo'lguvchi bu nuqta:

*Hijrondan tug'ilsa – qonli bo'larmish,
Armondan tug'ilsa – dardli qorachiq.
Hamisha ko'z kabi jonli bo'larmish,
Hamisha ko'z kabi olamga ochiq.*

Ayonlashadiki, lirik qahramon uni *armon*, *hijron*, *dard* deya talqin etadi. Ammo shoir talqin bilangina she'rni tugatib qo'ya qolmaydi, balki undan pillapoya sifatida foydalanib o'quvchini mushohadaga chorlovchi «bahslar qavati»ga olib chiqadi – «*Qalbingda joy olmish qaysi suvaydo?*» – deya daf'atan she'rxonga murojaat qiladi.

*Kuygansan sham kabi yo mash'al misol,
Kuyikdir ko'ksingga «dard» deb uyganing,
Lekin sen o'rtanib-kuyganda alhol,
Yurtim, Vatanim, deb bormi kuyganing?..*

Ritorik so'roqli bandlarning ketma-ket keltirilishi orqali lirik qahramon isyoni o'quvchi shuuriga yurt, el, til deb yonib yashashga undovchi da'vat bo'lib ko'chib o'tadi. Ya'ni, shoir ustoz Navoiyni millat fidoyisi deb bilgani uchun uning lisonidagi har bir so'zda millat ma'naviyatining, Vatan tarqqiyotining yuksalishini ko'radi desak, shubhasiz.

Shuningdek, Jamol Kamol Vatan mavzusdagi she'rlarining obrazli ifodalarida ham Navoiy siymosini qo'llaydi. Masalan, «O'zbekiston tuni» she'rida shoir Beruniy, Ulug'bek, Furqat kabi siymolar qatorida Navoiy obrazidan o'rinli foydalangan.

O'quvchi tun va Navoiy siymosining qanday bog'liqligi bor deb o'ylashi mumkin. Shoirning mahorati shundaki, ular orasidagi bog'liqlikni talmeh san'ati orqali topa olgan:

*Bu tunlar jamolin bir ko'rgan inson
Yurtiga ketolmay qolsa, ne ajab,
Muhabbat solarkan boshiga savdo,
Hayot solar ekan ruhiga junun,
Dardini tunlarga so'ylamish Laylo,
Baxtini tunlardan izlamish Majnun...[4,59]*

ya'ni O'zbekiston tuni har qanday kishini o'ziga sehrlab oladi. Tunning bunday go'zal tasviri Navoiyning «Layli va Majnun» dostonida ham uchraydi. Doston qahramonining nomi – «Layli» so'zining ma'nosi ham «tun»ni anglatadi. Oshiq Majnun uchun Laylidan-da go'zal qiz yo'q. «O'zbekiston tuni»da aynan shu holatga ishora qilib Laylo (Layli) va Majnun talmehlari qo'llangan. O'zbekiston tunini ko'rgan inson unga Majnun tunlar oh chekib Laylini izlagani kabi oshiq bo'lib qoladi. Lirik qahramon ana shunday kechinmalar og'ushida beixtiyor «Bog' aro epkinning mavjida shu chog' Alisher qalbining shirin javloni...»ga guvoh bo'ladi go'yo. Uning uchun Ona vatanida Navoiy ruhi doimo kezib yuradi.

«Navoiy qo'lga kiritgan ijodiy yutuqlarning bosh sababi uning til san'atkori o'laroq o'zbek tilining go'zalligi va ifoda imkoniyatlarini ochishda behad ilgarilab ketganidir» [8,5], – deydi navoiyshunos I.Haqqul. Chunki shoirning yuksak ma'naviy va ma'rifiy qarashlari o'zbekona yangradi. Jamol Kamol ham, ayniqsa, ona tili masalasiga kelganda Navoiy dahosini yuksak qadrlaydi. Barcha umidni undan kutadi:

*Shamsi anvardir tilim, deb
Elga keltirdi imon –
Ul Navoiykim, basharga
Nuri iymondir umid [4,284].*

Mutafakkir shoir xalqimizga o'zbek tilini keskir nur qilichi yanglig' toblab berdi. Shuning uchun Navoiy bashariyatga iymon nuri bo'ldi demoqchi shoir. Chunki «Alisher Navoiy turkiy tilning buyuk qudratini avval amaliy isbotlab, keyin ilmiy asoslagan edi» [6,242-243].

Jamol Kamol she'riyatida Navoiy millatlarni birdamlikka chorlov siymo sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, shoir muxammaslaridan birida o'zbek va turk millatlari nizo va ixtilofdan qochishga, aksincha, birlashib, hamkoru hammaslak bo'lib ish ko'rishga chorlar ekan:

Sen agar ohi alam cheksang, Navoiy yig'lagay,

*Ey aziz qondosh-qarindosh o'zligim, turkim
mening...[5,249] –*

deya Navoiyning gumanistik qarashlariga ishora qiladi.

Ijodkorning boshqa asarlarida bo'lgani kabi she'riyatida ham Navoiy ma'rifatga chorlovchi, insoniyatni taraqqiyotga etaklovchi bosh siymo bo'lib qolavergan.

*Eshit, xalqim, senga o'lmas Navoiydan nido bo'lgay,
Kitobsizlik hama kulfatlaringga ibtido bo'lgay,
Asrlar yiqqan ul gavharlaring bir-bir ado*

bo'lgay...[5,251]

Ya'ni shoir o'zining falsafiy mushohadalarini Navoiy tilidan so'zlatib, fikrning ta'sirchan va ishonchli chiqishiga erishgan. Ruboiy janridagi boshqa she'rida esa u to'g'ridan-to'g'ri maqsadga ko'chib Navoiy asarlarini o'qishga da'vat qiladi:

*Ishqing, yuraging ersa, Navoiyni o'qi,
Iymon tiraging ersa, Navoiyni o'qi.
Ixlos keraging ersa, Navoiyni o'qi,
Har ne tilaging ersa, Navoiyni o'qi...[5,259]*

Navoiy asarlari o'qigan kitobxon Haq va haqiqatni taniydi, qalbni olovlantiruvchi ishqdan boxabar, iymon va e'tiqodda sobit bo'ladi. Demak, lirik qahramon uchun Navoiy ezguliklarga boshlovchi siymo.

Gap Jamol Kamol she'riyatida Navoiy dahosiga munosabat haqida borar ekan, unda mutafakkir shoir siymosi millatning yo'lchi yulduzi, ma'naviy qashshoqlik ortidan kelayotgan baloyu ofatlarni daf qiluvchi qalqon sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, «Navoiydan navo etmish...» g'azalida Navoiy siymosi lirik qahramonning piri sifatida namoyon bo'ladi.

Suhbatlardan birida shoir Afg'onistonda mutassiblar musiqa eshitishni taqiqlaganligi, to'ylarda ham kuy-ohangga o'rin berilmayotganligini aytib o'kingan edi. G'azal ana shu o'kinch tuyg'usi o'laroq yaralgan. Islom diniga ko'ra Odam Ato loydan yaralgach, Olloh amriga binoan ruh unga navo sehri bilan kiradi. Shoirga ko'ra musiqaga oshuftalik insonning tabiatida bo'lib, din bunga monelik qilmaydi.

*Ey taassub ahli, mening
Jonimdadur navo,
Benavo bo'l debon menga
Aylamang o'git [5,234].*

Shoir bu mahdudlikka jim karab turolmaydi. Mutaassibning yolg'on aqidalar to'qib o'git berishini keskin tanqid qiladi. Zero, bashariyat bor ekan, musiqa, qo'shiq, san'at barhayotdir.

Har bir mo'min sajdaga bosh qo'yganda Yaratgandan dilining tub-tubidagi orzulari ro'yobini, ularning armonga aylanmasligini, Haq vasliga etishtirishini niyat qiladi.

Navoiy diniy asari bo'lmish «Sirojul muslimin»da namoz o'qish qoidalariga to'xtalib:

*Yana biri Niyat etmak bo'ldi bilgil,
Namoz albatta, niyat birla qilg'il, [1,606] –*

desa, ayni yo'nalishdagi «Nasoyim ul muhabbat» asarida «*Va sulton ul-orifin Shayx Abu Yazid Bistomiy q.s. namoz qilsa edilar, qa'qa' alarning ko'ksi so'ngaklaridin chiqar erdi*» [1,94], deya sajda chog'ida «qa'qa'» – ovoz borligini ta'kidlaydi. Jamol Kamolning lirik qahramoni islom dinining farzini ado qilganda Oллоhdan shu o'tinchlarni nazarda tutib navo, ya'ni ovoz chiqarib niyat qilar ekan, fikrining naqadar asosli ekanligini piri Navoiyning fikrlari bilan dalillantiradi:

*Navoiydin navo etmish
Jamolga bo'ylakim,
Namozda ham navo tilanib,
Aylagay sujud...[5,235]*

Ko'rinadiki, Jamol Kamol Navoiyni nafaqat shoirlikda, balki dinda ham o'ziga ustoz deb biladi.

Jamol Kamol Alisher Navoiy ijodidan shu qadar ko'p bahra olgan va shaxsiyatiga cheksiz ehtiromda bo'lganki, so'z san'atining vakillariga baho berishda ham ustoz shoir siymosi mezon vazifasini o'tagan. Ijodkorlarning ma'naviy qiyofasini ularning Navoiy ijodini qanchalar teran anglaganligi, tahlil va talqin eta olishiga qarab yoritadi. Navoiy ijodiga ehtirom ko'rsatgan har bir ijodkor bilan o'zini maslakdosh bilgan. Bu borda Jamol Kamolning Oybek va Shayxzodaga bo'lgan muhabbati o'zgacha edi. Shu sababli uning she'riyatida, tadqiqotlarida, publisistik maqolalarida bu nomlarni tez-tez uchratish mumkin. Shoir hatto lirikaning eng yirik janri bo'lmish doston janrida Oybekka atab «Tosh tug'yon»ni yozgan bo'lsa, Maqsud Shayxzodaga «Shayxzoda» asarini bag'ishladi. Ta'kidlanganidek, shoirning bu ustozlariga bag'ishlangan deyarli barcha asarlarida Navoiy obrazi uchraydi.

Oybek xotirasiga bag'ishlangan marsiyada quyidagi satrlarni o'qiymiz:

Unda jo'shar edi o'tli bir ummon,

*O‘zbekning zakosi edi unda jam.
O, uning ruhida yashardi omon
Alisher ilhomi kashf etgan olam [4,80]!*

Shoir Oybek tabiatining o‘zbekonaligini, tafakkurining keng ko‘lamliligini (O‘zbekning zakosi edi unda jam) «Alisher ilhomi kashf etgan olam!»ga bog‘laydi.

Yoki Shayxzodaning adabiyotga, she‘riyatga bo‘lgan muhabbati haqida so‘z borganda Jamol Kamol bu muhabbat ko‘lamini shunday «barkashlaydi»:

*She‘r – quyoshi, adabiyot –
dunyosi,
Navoiyning san‘atlari
shaydosi,
Ruboiylar, g‘azallarni
sevardi,
Tashbih degan go‘zallarni
sevardi,
Shogirdlarga kitoblar
a‘losidan,
Ajdodlarning muborak
merosidan
Dars o‘tishga mohir edi
Shayxzoda,
So‘z bobida sohir edi
Shayxzoda, [7,131] –*

Yuqoridagi satrlar o‘quvchida Maqsud Shayxzodaning tarjimai holidek taassurot qoldirishi tabiiy. Chunki ijodkor haqiqatda Navoiyning sevimli o‘quvchisigina emas, balki bu ijodning mohir tadqiqotchisi ham edi. Shuningdek, olib borgan kuzatishlari, o‘rganganlari asosida oliygoh talabalariga dars berdi. Izlanishlari samarasi o‘laroq:

*“Chor devon”ning ijodkorin
suylabon,
Sheriyatning sultoni deb
urdi bong [7,130].*

Ko‘rinadiki, Jamol Kamol Oybek, va Maqsud Shayxzoda kabi ijodkorlar haqida qalam surganda ham Navoiy dahosiga bo‘lgan muhabbatini yashirib o‘tirmaydi. Buyuk shoir ijodiga xos chizgilarni mohirona ifoda etadi. Va aksincha, Navoiy dahosiga bo‘lgan muhabbat ortidan izdoshlar buyukligini ochib beradi.

Ayni holatni Jamol Kamolning o‘z ijodiy faoliyatida ham kuzatish mumkin. «Hazrat Navoiy g‘azallarini ilk bor o‘qiganimda o‘n uch yoshda edim. Oradan oltmish yil o‘tibdiki, hamon o‘qiyman. O‘qib, zavqiga to‘ymayman»[2,2], –deydi u «Devoni Foniya»dan qilgan tarjimalarining avvalida.

Xullas, chindan ham shoir umr bo‘yi Navoiyning muhibi, muxlisi, izdoshi bo‘lib yashadi. Mutafakkir shoirning ummon yanglig‘ ijodi, hayot yo‘li Jamol Kamolni ohanrabodek o‘ziga tortdi. Bu bedorlikning samarasi o‘laroq shoir nafaqat yirik janrdagi asarlari va publisistik maqolalarida, balki ruboiy, she‘r, g‘azal, muxammas kabi janrlardagi asarlarida ham mutafakkir siymosiga ko‘p bora murojaat qildi. Navoiy asarlaridagi g‘oyalardan ilhomlanib, o‘z muxlislarini ham ulardan oziqlantirdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Алишер Навоий. ТАТ, X жилдлик, X жилд. Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
2. Мир Алишер Навоий. Фоний гулшани. Тошкент: Meriyus, 2011.
3. Навоий асарлари луғати. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
4. Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. I жилд. Т.: Янги аср авлоди, 2018.
5. Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. II жилд. Т.: Янги аср авлоди, 2018.
6. Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. III жилд. Т.: Янги аср авлоди, 2018.
7. Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. VII жилд. Т.: Янги аср авлоди, 2022.
8. И. Ҳаққул. Шеърят – дард ва умид демак. Китобда: Жамол Камол. Сайланма, Тошкент: Фан, 2007.

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 10-11- SINFLARIDA “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING O‘RGANILISHI

Adolat NURALIYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: budur87@list.ru

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablarining 10-11- sinflarida Alisher Navoiyning “Xamsa”sining beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy” o‘rganilishi masalasi yoritilgan. Bunda doston matnidan kelib chiqib, o‘quvchilarga uning mazmunini singdirish yo‘llari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil etishda amal qilinadigan tamoyillar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: umuta'lim maktablari, darslik, Alisher Navoiy, “Xamsa”, “Saddi Iskandariy”, yakunlovchi doston, badiiy talqin, tahlil.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос изучения пятого эпоса Алишера Навои «Хамса» «Садди Искандарий» в 10-11 классах общеобразовательных школ. На основе текста эпоса рассказывается о способах донесения до учащихся его содержания, принципах, которых следует придерживаться при анализе его идейно-художественных особенностей.

Ключевые слова: вузы, учебник, Алишер Навои, «Хамса», «Саддий Искандарий», заключительная сага, художественная интерпретация, анализ.

Abstract

The article covers the issue of studying the fifth epic of Alisher Navoi's "Khamsa" "Saddi Iskandariy" in the 10th-11th grades of general education schools. Based on the text of the epic, it talks about the ways of instilling its content to the students, the principles to be followed in the analysis of its ideological and artistic features.

Key words: higher education schools, textbook, Alisher Navoi, "Khamsa", "Saddiy Iskandariy", concluding saga, artistic interpretation, analysis.

Alisher Navoiy poetik ijodining yuksak cho‘qqisi “Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlar orqali o‘zbek xalqining epik dahosini yozma adabiyotda

birinchi bo‘lib keng miqyosda to‘la namoyish qildi. “Xamsa” tufayli o‘zbek adabiyoti jahon adabiyotining eng yuqori o‘rinlardan birini egallaydi. “Xamsa”ga kirgan dostonlari orqali Navoiy o‘z davrining ilg‘or g‘oya va intilishlarini badiiy jihatdan keng va chuqur aks ettirish imkoniga ega bo‘ldi. Lirik ijod sohasidagi ishlarini “ushoq ish” deb hisoblagan shoir masnaviy shakliga g‘oyat yuksak baho berib, o‘zining eng yuqori maqsadlarini ana shu she‘riy shakl orqaligina ifodalash mumkin deb tushundi. Uning epik talanti, avvalo, shunda ko‘rinadi. Navoiyda juda erta, u hali Nizomiy, Xusrav Dehlaviy dostonlarini o‘qib yurgan yoshlik yillarida ularga javoban turkiy tilda “Xamsa” yozishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. “Saddi Iskandariy” dostonida, xususan, shu haqda so‘z yuritadi:

*Burundin chu ko‘rguzdungiz yorliq,
Base etti sizdan madadkorlik,*

*Kichik erkanimdan bo‘lib qoshima,
Ulug‘ muddao soldingiz boshima. [1.176]*

Umumta‘lim maktablarida g‘azal mulkinging sulтони, xamsanavis Alisher Navoiyning har sinflarda (5-11- sinflar) o‘quvchining yosh jihatlari inobatga olingan holda hayot va ijod yo‘llarining ketma-ketlikdagi bosqichli pog‘onalari o‘rganilib boriladi. Jumladan, 10-11- sinflarda “Saddi Iskandariy” dostonidan namunalar berilgan, darslik mualliflarining asar talqinlari o‘rin olgan [8.155. 4.101].

“Saddi Iskandariy” “Xamsa” dostonlarining yakunlovchisi bo‘lib, asar hajmiga ko‘ra ham eng yirik dostonidir. U 89 bobdan iborat: 1-14- boblar Muqaddima, 15-87-boblar asosiy qism, 88-89-boblar xotima qismini tashkil etadi. Asosiy qism o‘zaro yaxlitlikni tashkil etadigan 18 ta mavzuni yoritadi. Ularda *himmat, adolat, qish, bahor, to‘g‘rilik, mehmondorchilik, yoshlik, safar qilish, o‘lim va aza* singari mavzular yoritilgan. Mavzular mazmunini yoritish tartibi ham o‘ziga xos bo‘lib, Iskandarning sarguzashti, mavzuga oid mulohazalar, ayni mavzudagi hikoyat, xulosa (Iskandar va Arastu yoki boshqa hakimlar hikmatlar) tarzida bayon qilingan.

Dostonda Iskandarning sarguzashtlari ayrim epizodlar tariqasida keltiriladi. Undan keyin falsafiy-didaktik mazmundagi mulohazalar o‘rin oladi. Yaxlitlikning uchinchi qismini ayni mana shu sarguzasht va mulohazalar mazmuniga ishora qiluvchi hikoyatlar tashkil etadi. Doston Iskandarning Arastu bilan savol-javoblari tariqasidagi hikmatlar yakunlaydi.

Doston Faylaqus (Iskandarning otasi – A.N.)ning Iskandarni topib olishi bilan boshlanadi. Unga munosib tarbiya beradi. Iskandarga Naqumohis (Arastuning otasi – A.N.) ustozlik qiladi. Iskandarning yoshlikdan bilim egallashga ishtiyoqi dostonda alohida ta’kidlanadi:

*Qayu ishni ta’lim qilg‘on zamon,
Eshitmak hamon erdi – bilmak hamon.....*

*Bori ishda bir erga etdi ishi
Ki, mumkin emas andoq o‘lmoq kishi....*

*Bilik kasbini qildi to joni bor,
Hunar bildi onchaki imkoni bor. [2.93]*

Iskandar barcha fanlarni puxta egallagach, harbiy san’atni ham o‘rganadi. Aql va tafakkurini o‘stiradigan mashg‘ulotlar bilan jiddiy shug‘ullanadi. Faylaqus vafot etadi. Iskandar taxtga o‘tirishdan voz kechishini o‘ylab turganida, otasining vasiyati esiga tushadi. U: “Bu dunyo bilan xayrlashdim, mening o‘rnimga o‘tirsang-da, mening nomus-orim, shon-shuhratim ellarga uchmasa, degan umidda seni topgan edim”, - degan edi. Iskandar ikkilanib qoladi va xalq bilan maslahat qilib ko‘nglidagi gaplarni aytadi:

*Bu ishga keraktur tavono kishi,
Emas men kibi notavono kishi.*

*Erur tortmoq sher chekkonni mo‘r,
Yukin pilning aylamak pashsha zo‘r.*

*Ne bor shahlik aylarga niyat manga,
Ne aylay desam qobiliyat manga. [1.6-538]*

Xalq bu gaplarga ko‘nmay Iskandarning o‘zini podshoh qilib ko‘taradi. O‘g‘il ota vasiyatiga amal qiladi. Xalqning arz-dodlarini eshita boshlaydi. Ayni vaqtda Rum ahli Faylaqusning qo‘l ostida edi. Ammo jahonning katta qismi Doroga qarar edi. Faylaqus ham unga har yili ming tilla tuxumdan iborat boj to‘lar edi. Iskandar bu paytda qo‘lga kiritgan er-suvlari Rum mamlakatiga qaraganda ikki-uch marta ko‘proq bo‘lgan. Uch yil davomida uning boyliklari otasining davridagidan o‘n marta ko‘proq bo‘ldi. Ammo bu paytda u boj to‘lashni hayoliga ham keltirmadi. Xiroj talab qilib kelgan elchilarga u “tilla tuxum tug‘udigan qushlar uchib ketdi”, - deb javob beradi. Doro yana elchilar orqali unga chavgon bilan to‘p – koptok, bir idishni to‘ldirib kunjut yuboradi. Bu sen yosh bolasan,

bolalar esa mana shu narsalar bilan ovunib yurishi lozim. Mening askarlarim kunjut donalari singari behisob, - degan edi. Iskandar shunday javob qaytaradi: “Olimlar er yuzini go‘yo (koptok) singari yumaloq ekanini aniqlashgan. Demak, Doro menga er yuzini in‘om etibdi. Chavgon esa uni boshqarish ramzidir. Kunjutlarni u menga qushlarimning ozuqasi sifatida yuboribdi”. [8.155]

Nihoyat, Eron va Yunon o‘ratsida jang boradi, uning nihoyasida Doro o‘limi oldidan

- suiqasd qilganlarni jazolash;
- qavm-qarindoshlariga zulm qilmaslik;
- qizi Ravshanakning kayoniylar podshohligining merosxo‘ri ekanligini inobatga olib, uni o‘z xonadonining munavvar shamiga aylantirish kabi talbalar qo‘yadi.

Iskandar bularning barchasini qabul qiladi. Doro vafot etadi. Iskandarni kayoniylar an‘anasiga muvofiq taxtga chiqarishadi. U Doro mamlakatlariga elchilar jo‘natadi.

Qish fasli boshlangani uchun u Arron (qadimgi Ozarboyjon) mamlakatining Qorabog‘ degan joyida qoladi. Bahorda Xuroson uning qo‘liga o‘tadi. Bu o‘lka unga juda yoqadi. Ayniqsa, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon uni behad maftun etadi. Shuning uchun u Hirot, Samarqand shaharlarini obod qildi. So‘ng u Kashmirga yo‘l oldi. Shunda ham Iskandarga 500 olim yo‘ldosh edi. Kashmir zafaridan keyin Hindiston safar boshlanadi. Hind royi uzrxohliklar bilan xatosini bo‘yniga oladi. U Iskandarga saroyidan joy berar ekan, askarlarini shaharga joylashtirish mumkinligi haqida eslatadi. Iskandar esa unga shunday javob beradi:

- Qo‘shin shahar ichiga sig‘mas. Ularni o‘rmonga joylashtirsa ham bo‘ladi, siqqanda ham shaharga joylashtirish ma‘qul emas. Zero, ulardan xalqqa ziyon-zahmat etishi mumkin... Iskandarning qilgan karam va yaxshiliklarini eshitib, hamma behad shodlandi va duolar qilishdi.

Oldinda Chin safari bor edi. Chin xoqoni elchi yuboradi. U ancha dono va tajribali edi. Xoqonning o‘zi elchi qiyofasida Iskandar huzuriga keladi. O‘rtada sulh va omonlik paydo bo‘ladi. Navoiy qalamida u shunday tasvirlanadi:

Ki Xoqon chu bo‘ldi Skandarparast,
Skandarga Chin ichra bo‘ldi nishast.

Xoqon Iskandarga bir oyna tuhfa qiladi. Bu oyna chin va yolg‘onni ajrata oladigan xislatga ega edi. Iskandarda ham shunday kashfiyot qilish istagi po‘ydo bo‘ladi. Uning topshirig‘iga ko‘ra olimlar ikkita tilsim: suturlob va ko‘zgu yasaydilar. Iskandar jang paytida ham o‘ng yonida ilm-

kamolot egalari, soʻl tomonida esa harbiy rahbarlar qurshovida tasvirlanadi.

Darslikda dostondagi bitta poetik yaxlitlik: Iskandarning Kashmirda yurishi va u bilan bogʻliq holda qarilik va yoshlik, yigitlikni behuda oʻtkazmaslik haqidagi boblarda mujassamlashgan badiiyat olami bilan tanishish mumkin boʻladi. Albatta, ular oʻquvchilarning qalblaridan munosib oʻrin olishi shak-shubhasizdir.

Darslikda berilgan “Saddi Iskandariy” dostonidan parchalar 11-sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, nazarimizda, berilgan doston parchalaridan uzviy bogʻliqlikda mavzuning yakunidan soʻng odatiy ravishda savol-topshiriqlar beriladi. Tabiiyki, oʻquvchi darslikda berilgan “dostonlardan parchalar” bilan chegaralanib qoladi, buning natijasida esa dostonlar toʻliq oʻqilmay qolinishi kuzatiladi. Natijada esa oʻquvchi baho olish uchun, fan oʻqituvchisi esa goʻyoki belgilangan Davlat taʻlim standartini bajargan hisoblanadi.

Oliy taʻlim tegishli mutaxassislar tomonidan darsliklar yaratiladi, umumtaʻlim muassasasida esa fan oʻqituvchilari tomonidan yaratilgan darsliklardan foydalanish bilan cheklanadi. Bu erda koʻrishimiz mumkinki oliy taʻlim va umumtaʻlim oʻrtasida tafovut, yaʼni uzilish koʻzga yaqqol koʻrinadi. Ilmning boshlanishi maktabgacha taʻlim deb oladigan boʻsak, bosqichli taʻlimda izchillik, uzviylik va oʻzaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiqdir.

Umumtaʻlim yoʻnalishida sinflar kesimida bosqichma-bosqich buyuk mutafakkir qomusiy olim xisoblanmish buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyning hayot yoʻllari, ijod yoʻnalishlarini har bir yosh avlodimiz toʻliqligicha maʼlumotlarga, bilimga, ilmga ega boʻlmoqlari lozim. Bu borada baʼzi takliflarimizni bildirib oʻtsak.

- oʻquvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda, maktabgacha taʻlim sohasidan boshlash (*ertaklar qiyosida masallaridan namunalar*);

- umumtaʻlim muassasalarining barcha 5-11 sinflarida Alisher Navoiyning hayot yoʻllari, ijodiy izlanishlari, yaratgan asarlari bilan toʻlaqonligicha oʻquvchilar boy madaniy merosimiz bilan tanish boʻlmogʻi;

- buyuk xamsanavislar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abburahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning yaratgan Xamsa dostonlari taqqoslanib oʻrgatilmogʻi;

- Qoʻshimcha toʻgarak mashgʻulotlarini faqat “*past oʻzlashtiruvchi*” oʻquvchilar bilan emas, barcha sinf oʻquvchilarini jalb etgan holatda

noodatiy metodlar bilan o‘rganilishi (asosiy darsga soat etmay qolishi, darslikda berilgan parchalar to‘liqligicha o‘rganilishi samarali kechadi).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy / To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 6-538.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy MAT. 11-jild. - T.: Fan, 1993. – B. 93.
3. Erkinov A.S. Alisher Navoiyning peyzaj yaratish mahorati (“Saddi Iskandariy” dostoni misolida). Filol. fanlari nomzodi ... diss. – T., 1990. - 121 b.
4. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot / Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2022. – B. 101
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. – T.: Fan, 1978. – B. 304-323.
6. Qayumov A. Nodir sahifalar. Navoiyning kam o‘rganilgan ba’zi asarlari to‘g‘risida. – T.: Fan, 1991. – 144 b.
7. Sharq mumtoz poetikasi H.Boltaboyev talqinida. – T., 2008. – 430 b.
8. To‘xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot (O‘rta ta’lim mussasalarininng 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. Birinchi nashr. I qism). T.: O‘zbekiston milliy ensklklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 157.
9. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2011.

MUNDARIJA

ALISHER NAVOIY VA MUMTOZ ADABIYOT

Ibrohim Haqqul (O‘zbekiston). Muhabbat va ma‘rifat devonlari.....	3
Maqsud Asadov (O‘zbekiston). Navoiy qit‘alarida “Falon” obrazi talqini.....	8
Nurboy Jabborov (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma‘rifiy asoslari.....	16
Qodirjon Ergashev (O‘zbekiston). Tarixiy nasrning yuzaga kelishida Alisher Navoiy asarlarining o‘rni.....	27
Zebo Qobilova (O‘zbekiston). Amiriyning Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan taxmislari	35
Baxtiyor Fayzulloev (Tojikiston). Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik.....	40
Ergash Ochilov (O‘zbekiston). Huvaydo ijodida Navoiy an‘analari.....	46
Burobiya Rajabova (O‘zbekiston). “Xamsat ul-mutahayyirin”ning avvalg‘i maqoloti xususida.	56
Otabek Jo‘raboyev (O‘zbekiston). Alisher Navoiy haqidagi ayrim asarlar xususida.....	64
Salatin Ahmedova (Ozarbayjon). Алишир Наваи и суфизм.....	73
Zulayho Rahmonova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy asarlarida irfoniy g‘oyalarning turkiy talqini.....	78
Ulbo‘sin Ametova (O‘zbekiston). Kubraviylik ta‘limoti va Alisher Navoiy ijodi.....	85
Barno Isoqova (Qirg‘iziston). Navoiy she‘riyatining Uvaysiy ijodiga ta‘siri.....	91
Dilmurod Asqarov (O‘zbekiston). An‘ana, adabiy ta‘sir va badiiy tasvirdagi yangilanishlar.....	96

ALISHER NAVOIY ASARLARI POETIKASI

Hamidulla Boltaboyev (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning muammoshunos shogirdi va uning milliy adabiyot tarixidagi o‘rni.....	101
Nazora Bekova (O‘zbekiston). Navoiy-Foniyning turkiy va forsiy g‘azallarida badiiy mahorat masalasi.....	109
Dilshod G‘ayipov (O‘zbekiston). Navoiy g‘azallariga xorazmlik shoirlarning muxammaslari xususida ba‘zi mulohazalar.....	117
Zilola Amonova, Zarina Nafetdinova (O‘zbekiston). “Hayrat ul-abror” dostonida ko‘ngil talqini.....	123
Dildoraxon Abdullayeva (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodida “Yusuf va Zulayho” mavzusi.....	128
Ilyos Ismoilov (O‘zbekiston). Iskandarning shoxi bo‘lganmi?.....	134
Tohir Xo‘jayev (O‘zbekiston). Mazmundagi o‘xshashlik va tasvir xilma-xilligi (Navoiy she‘riyati asosida).....	142
Sirdaryoxon O‘tanova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy asarlaridagi etnik nomlarning lisoniy-badiiy ahamiyati.....	145
Dilrabo Kazakbayeva (O‘zbekiston). Alisher Navoiy mug‘anniynomalari murakkab strukturali janr sifatida.....	151
Elnura Qurbonova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodida nur timsoli.....	157

Muqaddas Saidakbarova, Ramziya Jo‘rayeva (O‘zbekiston). Shoh Bahrom: tarixiy shaxs va badiiy obraz.....	162
Dilnoza Yuldasheva (O‘zbekiston). Navoiyning she‘riy san‘atlardan foydalanish mahoratiga doir.....	168
Shoiraxon Xo‘jayeva (O‘zbekiston). Alisher Navoiy ijodida iymon talqini.....	173
Xilola Abdujabborova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy asarlarida san‘atga oid istilohlar talqini.....	181
Dinara Yusupova (O‘zbekiston). Navoiy ijodida ayol siymosi.....	184
Murodxoja Muxtorov (O‘zbekiston). Navoiy lirikasida “nag‘ma” istilohi	189
Nafisa Raxmanova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi Suqrot obrazi genezisi.....	196
Tojixon Sabitova, Dilfuza Anisbekova (O‘zbekiston). "Xamsa"da Bahrom haqidagi rivoyatlar.....	201
Nasiba Jo‘raqulova (O‘zbekiston). Lirik ifoda va tasvirdagi o‘ziga xoslik.....	205
Muyassar Ibrohimova (O‘zbekiston). “Lison ut-tayr”da dunyo ramzlarining badiiy ifodasi.....	211
Tozagul Dusanova (O‘zbekiston). “Mahbub ul-qulub” komillik tushunchas.....	216
Nozimaxon Mirzayeva (O‘zbekiston). “Xazoyin-ul maoniy”da mug‘anniyga murojaat.....	223
Mohigul Mavlonova (O‘zbekiston). Mulkoro va Bahrom – ma‘naviy kamolot timsollari.....	228
Muslima Xolboyeva (O‘zbekiston). She‘riy obraz va badiiy tasvir imkoniyatlari.....	231
Maftuna Shomurodova (O‘zbekiston). “Farhod va Shirin”da yoshlar obrazi.....	235
Aziza Omonboyeva (O‘zbekiston). “Hayrat ul-abror”da zuhd maqomi.....	240

NAVOIYSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Boqijon To‘xliyev (O‘zbekiston). Adolat tasviri va Alisher Navoiy dahosini anglash muammolari.....	246
Almaz Ülvı BİNNƏTOVA (Ozaybayjon). Azərbaycan nəvaişünaslığı: nailiyyətlər və vəzifələr.....	255
Ibodulla Mirzayev (O‘zbekiston). The Nature and Essence of Scholars’ Disputes about the Creative Heritage of A.Navoi.....	260
Suvon Meli (O‘zbekiston). Alisher Navoiy teologiyasi: muammoga kirish.....	267
Shoira Axmedova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy buxorolik ijodkorlar haqida.....	273
Marg‘uba Abdullayeva (O‘zbekiston). Ulug‘bek ilmiy merosi Navoiy nigohida.....	277
Sultonmurod Olim (O‘zbekiston). Navoiy asarlari hamda ularda qo‘llangan janrlarning umumiy miqdori.....	282
Shuhrat Hayitov (O‘zbekiston). Alisher Navoiy Mirzo Bobur nazdida.....	292
Vafa-Abdullayeva Nabiyeva (Ozarbayjon). Алишир Наваи - новая страница мировой литературы.....	297

Rovshan Shirxanli (Ozarbayjon). Алишер Навои и литература на Урду.....	301
Gulchehra Xo'janova (O'zbekiston). Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar talqini.....	306
Surayo Akramova (O'zbekiston). Алишер Навои – великое достояние узбекского народа.....	309
Zarif Quvonov (O'zbekiston). Navoiyshunoslik: tahlil, sharh va talqinlar.....	314
Nafisa Yusupova (O'zbekiston). Alisher Navoiy lirikasi – Sharq tammadduni nigohida.....	319
Nigora Sharipova (O'zbekiston). “Hayrat ul-abror”da Navoiyning o'z salaflariga munosabati.....	325
Gulandom Yuldasheva (AQSH). Amerikada o'zbek mumtoz adabiyotning o'rganilishi (Devin DeUising “Funun ul-balog'a”ga oid tadqiqoti asosida).....	331

ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI

Sayfiddin Rafiddinov (O'zbekiston). “Navoiy asarlari lug'ati”ning yangi nashri haqida mulohazalar.....	337
Halimjon Zoirov (Tojikiston). Вклад Садриддина Айни в подготовке и издании писем и персидско-таджикской поэзии Мир Алишера Навои.....	344
Abdurasul Eshonboboev (O'zbekiston). Y.E.Bertels va matnshunoslikning ayrim muammolari.....	356
Maqsuda Jammatoeva (O'zbekiston). “Layli va Majnun” dostoni syujeti va qo'lyozma nusxalari haqida.....	364

ALISHER NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

Manzura Otajonova (O'zbekiston). So'z sehri jozibasi.....	370
Mahliyo Djakbarova (O'zbekiston). Alisher Navoiy asarlarida nutq so'zlash odobi masalasi.....	376

ALISHER NAVOIY VA XALQ OG'ZAKI IJODI

Laylo Sharipova (O'zbekiston). Alisher Navoiy ijodida lug'z.....	384
Nasiba Sabirova (O'zbekiston). O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida Navoiy merosining o'rni.....	389
Tojixon Sabitova (O'zbekiston). Bahromgo'r timsolining yaratilishida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima.....	392
Aynabat Baba'yeva (Turkmaniston). Alyşir Nowaýynyň türkmen folkloryna täsiri (Ali Şir Nevai'nin türkmen folkloruna etkisi).....	398

ALISHER NAVOIY VA ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTI

Normat Yuldashev, Abdimurod Arslonov (O'zbekiston). Alisher Navoiyning Abdulhamid Cho'lpon ijodiga ta'siri.....	402
Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston). “Sab'ai sayyor” turkumidagi asarlarning tarjima va talqinlari.....	406
Sobira Jo'rayeva (O'zbekiston). Shukuriy ijodida Navoiy an'analari.....	412
Mahfuza Karimova (O'zbekiston). Alisher Navoiy va Shashmaqom.....	417

Munisjon Hakimov (O‘zbekiston). Jamol Kamol she‘rlarida Navoiy vasfi.....	425
Adolat Nuraliyeva (O‘zbekiston). Umumta‘lim maktablarining 10-11-sinflarida “Saddi Iskandariy” dostonining o‘rganilishi.....	433

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

№ 68

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2023-yil 8-fevral

«ADAST POLIGRAF»

Тошкент–2022

Мухаррир: М. Сайфуллаев

Мухаррир: Ф. Зокиров

Дизайнер: Б. Хайдаров

Нашрга чоп этишга рухсат этилди: 25.01.2023 й.

Қоғоз бичими: 60x84 ¹/₁₆. «Times» гарнитураси.

Офсет босма. Наш. б.т. 27.5. Ҳажм б.т. 26.4

Адади: 200. Шартнома №. 01/05.

«ADAST POLIGRAF» МЧЖ босмаҳонасида чоп этилди.

Манзил: Тошкент, Сирғали тумани, 7Г-38, 3/14.

Тел: (90) 909-33-49.